



Qo'qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 7/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№7/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72а5 К 99	Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Pulatov Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.O.Bazarov Nashr uchun mas‘ul: M.I.Sobirova
MUASSIS: Qo‘qon davlat universiteti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart. "Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Sayt: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) A.Ж.Хусанов-физика-математика fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариёва, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

TALABALARNI MA'NAVIY TARBİYALASH DIAGNOSTIKASI VA KORREKTSIYASI MASALALARI.

Saotmuratova Zebo Yuldash qizi

Surxondaryo viloyati Termiz davlat universiteti 13.00.01-Pedagogika
nazariyasi. Pedagogika ta'limotlari tarixi. 1- kurs doktoranti.

E-pochta: zeboyuldashovna7@gmail.com

Tel: +998 (93) 761 44 11

ANNOTATSIYA Ushbu tezisda o'sib kelayotgan yosh-avlod, talabalarning ma'naviy tarbiyalanish jarayonida tarbiyasida uchraydigan kamchiliklarni o'rganish, tahlil qilish, kerakli metodlarni samarali tashkil etish va ularni qo'llash, tarbiyasida uchraydigan nuqsonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash orqali o'sib kelayotgan yosh-avlod va talabalarning tarbiyasidagi nuqsonlarni bartaraf etish haqida.

KALIT SO'ZLAR: ma'naviy tarbiya, diagnostika, korrektsiya, odob me'yorlari, axloq me'yorlari, o'quvchi-yoshlar, talabalar, tarbiya diagnostikasi, tarbiya korrektsiyasi.

ANNOTATION In this thesis, the growing young generation and students are told to study and analyze the shortcomings in the education of students in the process of spiritual education, to effectively organize the necessary methods and use them, to eliminate the defects in their education, and to eliminate the shortcomings in the education of the growing young generation and students by correcting them.

KEY WORDS: spiritual education, diagnosis, correction, odc standarts, moral standards, moral standards, pupils, students, education diagnosis and correction.

АННОТАЦИЯ В этом тезисе подрастающему молодому поколению и студентам предлагается изучить и проанализировать недостатки в воспитании студентов в процессе духовного воспитания, эффективно организовать необходимые методы и использовать их, устранить недостатки в их образовании, а также устранить недостатки в воспитании подрастающего молодого поколения и студентов путем их исправления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: духовное образование, диагностика, коррекция, ОЦК, нормы, моральные нормы, учащиеся, студенты, диагностика образования и коррекция образования.

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi har qanday islohot va taraqqiyotning poydevori sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar nafaqat kelajak kasb egasi, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va

madaniy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Shu bois, talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar, yuksak fuqarolik ongiga ega shaxs sifatida shakllantirish oliy ta'limning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Ma'naviy tarbiya tushunchasi

Ma'naviy tarbiya — bu shaxsning axloqiy fazilatlarini, estetik qarashlarini, ijtimoiy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayon bo'lib, u jamiyatning axloqiy me'yorlari, milliy urf-odatlarini, diniy va tarixiy an'analari asosida amalga oshiriladi. Talabalarda bu fazilatlarining shakllanishi o'z-o'zini anglash, o'zini tahlil qilish, mas'uliyatni his qilish kabi individual psixologik xususiyatlar bilan bevosita bog'liqdir.

Diagnostika va uning ahamiyati

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostika — ularning hozirgi ma'naviy holatini aniqlash, ichki dunyo va qadriyatlar tizimini baholash imkonini beradi. Bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: Talabani shaxsiy fazilatlari va ma'naviy qadriyatlarini aniqlash; Ma'naviy-axloqiy muammolarni aniqlash; Tarbiya jarayonining samaradorligini baholash; Korrektsiya uchun yo'nalish belgilash.

Diagnostik usullar: testlar, ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar, suhbatlar, kuzatuv, esse va kundaliklar tahlili.

Korreksiya va tarbiya mexanizmlari

Diagnostika natijalariga ko'ra, korreksion ishlar tashkil etiladi. Bu ishlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Tarbiya tadbirlari: davra suhbatlari, kitob o'qish klublari, ma'naviyat darslari; psixologik treninglar: o'zini anglash va empatiya rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar; ijodiy faoliyatlar: teatr, adabiyot, musiqa, rasm to'garaklari orqali estetik va axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirish; ijtimoiy loyihalar: volontyorlik, ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlarida ishtirok etish orqali ijtimoiy mas'uliyatni yuksaltirish.

Bizga ma'lumki mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim va tarbiya jarayonimizga alohida e'tibor qaratildi. Ko'plab ta'limiy va tarbiyaviy ishlar, jumladan, o'sib kelayotgan yoshlarimiz, talabalarimiz sifatli ta'lim olishlari hamda ularning tarbiyasidagi tarbiyaviy nuqsonlarni bartaraf etuvchi pedagogik diagnostika va korrektsiyaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Jamiyatimizda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda yoshlarning aqliy rivojlanishlari, intellektual salohiyatini oshirish, ularda Vatanga muhabbat, milliy g'ururni qaror toptirish, muloqot odobi, o'zini tuta bilish, xurmat tushunchalari, o'zbek va jahon madaniyati, san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarining shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"[1]gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi[2] qabul qilinganidan so'ng pedagogik diagnostika va korrektsiya ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, ta'lim sifatini baholashda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda shakllantirilishi va rivojlantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta‘lim-tarbiya tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan sifatli ta‘lim-tarbiyani amalga oshirishni va sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. 2017 yil 15 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”[3] da xam mamlakatda yangi mazmundagi uzluksiz ta‘lim tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion ta‘lim tizimini shakllantirish bosh yo‘nalish sifatida belgilab olindi. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, baiki ta‘lim va tarbiya jarayoni sub’ektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish, ularni tashxis qilish va o‘rganish vazifalarni belgilaydi. Jumladan, ta‘lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu - o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish va samarali metodlardan foydalanish, bashorat qilish jarayonlarini o‘rganishni ta‘minlashdir. Bu holat ta‘lim-tarbiya diagnostikasi (o‘z-o‘zini tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar, talabalar jamoasini tashxislash; ma‘muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta‘lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan olib borilayotgan tashxislash yo‘nalishlarini xam qamrab oladi. Uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik diagnostika va korrektsiyaning yaxlit nazariyasi va amaliyoti alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan va o‘z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. XXI asr ommaviy axborot vositalari, internet, sun‘iy intellekt, kompyuter texnologiyalashgan asrda yoshlarimiz va talabalarimizning ongiga to‘g‘ri g‘oyalarni shakllantirish, o‘zga yot g‘oyalarga qarshi tura olish, yoshlarning ma‘naviy qiyofasini shakllantirish, rivojlantirish hamda jamiyatning har bir a‘zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish, mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalarini tadqiq qilishgan va bu muammolar yechimini topish uchun hozirgi ta‘lim va tarbiya talablariga javob beraoladigan ta‘lim-tarbiya diagnostika va korrektsiyasini har bir uzluksiz ta‘lim tizimida samarali tashkil etishimiz orqali o‘ylagan va reja qilgan barcha rejali va samarali istiqbolli kelajagimizni qura olamiz. Ta‘lim- tarbiya diagnostikasi tushunchasi bugun paydo bo‘lgan tushuncha emas, balki necha asrlardan oldin paydo bo‘lib, hozirgi vaqtgacha o‘rganilib, tadqiq etilib kelinmoqda. Chunki ta‘lim-tarbiya tushunchasi juda ham murakkab tushuncha hisoblanadi. Bu haqida biz “Avesto”, “Quroni Karim”, Imom at Termiziy, Iso Termiziy, Imom al Buxoriy, Ibn Sino, Al Farg‘oniy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi ko‘plab olim-u fuzalolarning o‘chmas asarlarlarida ko‘rishimiz mumkin. Tarbiya masalasi haqida Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida ta‘kidlab: «Janobi Qaq insonlaming asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq

ishlami qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi»[4]-deb ta’kidlaydi. Tarbiya - o‘tib kelayotgan yosh-avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot - dunyoqarashni, odob-axloq insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, tarbiya muassasalari, o‘quv dargohlari, mahallada, jamoatchilik ta’sirida shakllanib, rivojlanib boradigan jarayondir. Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyati va sifatleri bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. Shaxs- ijtimoiy hayotning mahsulidir. Inson shaxs sifatida oilada, ota-onalar bilan; jamiyatda esa tarbiyachi ustozlar, ijtimoiy guruhlar va turli jamoalarning ta’sirida shakllanadi. Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol, bilimli-ilmli, manan yutuk shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib boradi. Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Inson shaxsining eng karakterli tomonlaridan biri uning individualligi (faqat o‘ziga xos bo‘lgan, boshqa insonlarda uchramaydigan xususiyat)dir. Insonning inson sifatida o‘z men, xarakteri, ma’naviy tarbiyasi, odob-axloqi rivoj topishi uchun aynan uzluksiz ta’lim tizimimizda tarbiya diagnostikasi va korrektsiyasini o‘rganishimiz va, albatta, tahlil qilishimiz, pedagogik faoliyatda, tarbiya faoliyatida samarali va sifatli qo‘llay olishimiz yurtimizning eng oliy orzu, umidlari poydevorlarining mustahkam bo‘lishini kafolatlaydi. Aynan diagnostikani qo‘llay olishdan oldin qaysi bir talabamiz yoki qaysidir o‘quvchilarimizning tarbiyasidagi muammo aniq aniqlanib, tashxislanib, o‘rganilib, uni korrektsiya qilishimiz uchun aniq va samarali metodlarni qo‘llay olishimiz diagnostika va korrektsiyaning eng sifatli natijasiga olib keladi.

O‘quv-tarbiya jarayoning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni juda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu haqida buyuk mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy: “ Ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob beraoladigan va shu jamiyat uchun xizmat qila oladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat” [5]- degan fikri “ Fozil odamlar shahri” asarida alohida takidlanishi jamiyatimiz, yurtimiz hayotida ma’nan yutuk insonlarning ma’naviy tarbiyalanganligi juda ham muhim ekanligi fikrimiz dalilidir. Hozirgi kunda tarbiya diagnostikasi va korrektsiyaning o‘tib kelayotgan yoshlarning, talabalarning ma’naviy tarbiyalash uchun ko‘plab samarali metodlari mavjuddir. Ya’ni: kuzatish, anketa, so‘rovnoma, suhbat, intervyu. Va ushbu metodlar orqali o‘quvchilar, talabalar- barcha uzluksiz ta’limda tehsil olayotgan barcha yoshlarning ma’naviy tarbiyalash, o‘zga yot g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, ularni manan yutuk shaxs sifatida tarbiyalashimizga yordam beradigan samarali metodlar hisoblanadi.

Xulosa

Talabalarning ma’naviy tarbiyasi — bu faqat axloqiy pandu-nasihat emas, balki chuqur psixologik-pedagogik asosga ega murakkab tizimli jarayondir. Unda diagnostika vositasi orqali mavjud holat o‘rganiladi, korreksion chora-tadbirlar esa maqsadli pedagogik ta’sir sifatida talabalarni yuksak insoniy fazilatlar sari yetaklaydi. Ushbu jarayonni tizimli, ilmiy asoslangan holda tashkil qilish — barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -Toshkent, 1997.
3. “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. –Toshkent, 7-yanvar 2017-yil.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. O‘qituvchi, 2004-34-bet.
5. Abu Nasir Farobiy. Fozil odamlar shahri: -Toshkent, O‘qituvchi, 2004. -87-bet.
6. www.ziynet.uz
7. www.edu.uz



MAKTAB BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: ZAMONAVIY MENEJMENT MODELLARI TAHLILI

Kazaxbaeva Mexriban Jamalatdin qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti
Maktab menejmenti bakalavr ta'limi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab menejmentida innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari hamda amaliy ko'rinishlari yoritilgan. Xususan, zamonaviy menejment modellari — transformatsion liderlik, tizimli boshqaruv, ta'lim sifatini boshqarish moduli — maktab boshqaruviga integratsiya qilinishi tahlil qilinadi. Tadqiqot metodlari orqali umumta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan yondashuvlar o'rganilib, samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Maqolada o'zbek ta'lim tizimi uchun mos keladigan innovatsion model tavsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: maktab menejmenti, innovatsion yondashuv, liderlik, ta'lim sifati, transformatsion boshqaruv, menejment modeli.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ШКОЛОЙ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ МЕНЕДЖМЕНТА

Аннотация: В данной статье освещены теоретические основы и практические аспекты инновационных подходов в школьном менеджменте. В частности, анализируется интеграция современных моделей менеджмента - трансформационного лидерства, системного управления, модуля управления качеством образования - в управление школой. С помощью методов исследования были изучены подходы, используемые в общеобразовательных учреждениях, и проанализированы показатели эффективности. В статье рекомендуется инновационная модель, подходящая для узбекской системы образования.

Ключевые слова: школьный менеджмент, инновационный подход, лидерство, качество образования, трансформационное управление, модель управления.

INNOVATIVE APPROACHES IN SCHOOL MANAGEMENT: ANALYSIS OF MODERN MANAGEMENT MODELS

Abstract: This article covers the theoretical foundations and practical aspects of innovative approaches in school management. In particular, the integration of modern management models - transformational leadership, systemic management, the education quality management module

- into school management is analyzed. Using research methods, the approaches used in general education institutions were studied and their effectiveness indicators were analyzed. The article recommends an innovative model suitable for the Uzbek education system.

Keywords: school management, innovative approach, leadership, education quality, transformational management, management model.

Kirish (Introduction)

Maktab — ta’lim tizimining tayanch bo‘g‘ini bo‘lib, uning samarali faoliyati asosan boshqaruv tizimiga bog‘liq. An’anaviy boshqaruv uslublari bugungi kunda zamonaviy ta’lim talablariga javob bera olmayapti. Shu bois, maktab menejmentida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion menejment — bu yangicha qarashlar, ilg‘or tajribalar va texnologik yechimlar asosida ta’lim muassasasini samarali boshqarish tizimidir.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan global o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya, bilimlar iqtisodiyoti va barqaror taraqqiyot talablari maktab menejmentiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta’lim muassasalarining muvaffaqiyati nafaqat o‘quv dasturlarining mazmuni, balki ularni boshqarishning samarali, tizimli va innovatsion uslublari bilan bevosita bog‘liqdir. Shunday bir sharoitda, an’anaviy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv modeli o‘zining funksional imkoniyatlarini yo‘qota boshladi. Endilikda maktab direktorlari — shunchaki ijrochi emas, balki tashkilot ichki muhitini, strategiyasini, jamoaviy taraqqiyotni boshqaradigan liderlarga aylanishi zarur.

Innovatsion menejment — bu zamonaviy yondashuv, bozor va texnologiyalar o‘zgaruvchanligi sharoitida yangi g‘oya va yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, transformatsion liderlik, adaptiv menejment, tizimli fikrlash, raqamli boshqaruv kabi konsepsiyalar maktab boshqaruvida yuqori natijalarga olib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim sifatining barqarorligi maktab menejmentining innovatsionlashuv darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda islohotlar chuqurlashib, maktablarda boshqaruvning yangi formatlari joriy etilmoqda. 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan "Ta’limni rivojlantirish strategiyasi"da ham samarali menejment tizimini joriy etish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq, mavjud amaliyotda maktab rahbarlarining ko‘pchiligi innovatsion boshqaruv ko‘nikmalarini to‘liq egallamagan yoki ularni amaliyotga qo‘llashda tizimlilik yetarli darajada emas.

Ushbu maqolada zamonaviy maktab menejmentida qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlar va menejment modellari tahlil qilinadi. Xususan, transformatsion liderlik, tizimli boshqaruv, raqamli menejment, ta’lim sifatini boshqarish moduli kabi ilg‘or yondashuvlarning samaradorligi amaliy misollar asosida o‘rganiladi. Maqola O‘zbekiston maktablarida innovatsion menejmentni joriy etishning imkoniyatlari, muammolari va istiqbollari ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Uslub (Methods)

Ushbu tadqiqot maktab boshqaruvidagi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunda **kompleks yondashuv** asosida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida **sistematik tahlil, empirik kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu, taqqoslov tahlil**, hamda **holatlarni o‘rganish (case study)** usullari tanlab olindi. Har bir metod muayyan bosqichda qo‘llanilib, tadqiqotning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

2.1. Tahliliy-uslubiy yondashuv

Avvalo, zamonaviy menejment nazariyalari (Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi, Peter Druckerning samarali boshqaruv tamoyillari, Michael Fullanning o‘zgarishlarni boshqarish modeli, Peter Senge’ning o‘quvchi tashkilot konsepsiyasi) asosida innovatsion menejment modellarining nazariy poydevori o‘rganildi. Ushbu yondashuv orqali har bir modelning maktab muhitiga qanchalik mos tushishi tahlil qilindi.

2.2. So‘rovnoma va intervyu usuli

Tadqiqot doirasida Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatidagi 10 ta umumta’lim maktabi tanlab olinib, ulardagi direktorlar, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari va tajribali o‘qituvchilar ishtirokida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarga asoslandi:

- Maktabda innovatsion boshqaruv elementlarining mavjudligi va darajasi;
- Rahbariyatning strategik qaror qabul qilishga tayyorligi;
- Jamoaning motivatsiyasi va tashabbus ko‘rsatish darajasi;
- Raqamli texnologiyalarning boshqaruvga integratsiyalashuvi.

Shuningdek, 6 nafar direktor bilan yarim tuzilgan (semi-structured) intervyular olib borildi, bunda ularning innovatsion boshqaruvga bo‘lgan shaxsiy yondashuvi, muammolar va imkoniyatlar haqida chuqur ma’lumotlar olindi.

2.3. Empirik kuzatuv

Tanlab olingan maktablarda 2 oylik davr mobaynida pedagogik jarayon, menejment qarorlari va tashkilot ichki muhitini kuzatish ishlari olib borildi. Kuzatuvda direktorning tashkilotchilik sifati, pedagogik jamoaning faolligi va o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabati asosiy mezonlar sifatida baholandi.

2.4. Taqqoslov tahlil (Comparative analysis)

Innovatsion yondashuvlar qo‘llanilgan maktablar bilan an’anaviy boshqaruv uslublarini saqlab qolgan maktablar o‘rtasida taqqoslov tahlil o‘tkazildi. Bunda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, darsga qatnashish faolligi, o‘qituvchilar ishtirokidagi tashabbus va pedagogik innovatsiyalar soni asosiy mezonlar sifatida tanlandi.

2.5. Ma’lumotlarni tahlil qilish

So‘rovnoma natijalari MS Excel va SPSS dasturlari yordamida statistik tahlil qilindi. Deskriptiv statistika (foiz, o‘rtacha ko‘rsatkich, dispersiya) hamda korrelyatsion tahlil asosida model samaradorligi aniqlashtirildi. Shu bilan birga, sifatli ma’lumotlar kontent tahlili asosida kodlanib, tematik xulosalar shakllantirildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatdi:

- Transformatsion liderlik yondashuvi qo‘llanilgan maktablarda o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi va tashabbuskorlik darajasi 28% ga oshgan.
- Tizimli boshqaruv modeli joriy etilgan muassasalarda ichki monitoring va tashqi baholashda ijobiy siljish kuzatildi.
- Innovatsion yondashuv asosida raqamli boshqaruv tizimi (elektron jurnal, KPI asosida baholash) yo‘lga qo‘yilgan 3 ta maktabda o‘quvchilar reytingi o‘rtacha 15% ga ko‘tarilgan.
- O‘rganilgan 10 ta maktabdan 6 tasida menejmentdagi innovatsion elementlar faqat tashkiliy darajada, 4 tasida esa tizimli tarzda integratsiyalashgan.

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuvlar maktab menejmentining samaradorligini oshiradi. Bunda ayniqsa transformatsion liderlik, pedagogik jarayonni raqamlashtirish va muvozanatli resurs boshqaruvi muhim o‘rin tutadi. An‘anaviy boshqaruvda faqat buyruq va nazorat kuchli bo‘lsa, zamonaviy modelda — tashabbus, hamkorlik va tahliliy fikr asosiy o‘ringa chiqadi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchining ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion menejment modelining to‘laqonli ishlashi uchun direktorlarda strategik fikrlash, kommunikativ salohiyat va raqamli kompetensiyalar bo‘lishi zarur.

Xulosa (Conclusion)

Innovatsion menejment yondashuvlari — zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xususan, transformatsion liderlik, tizimli boshqaruv, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayoniga integratsiya qilish kabi yondashuvlar maktab faoliyatining ichki mexanizmlarini qayta shakllantirishga xizmat qiladi. An‘anaviy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv modellari o‘rnini hozirda inson salohiyatini ochishga, tashabbusni rag‘batlantirishga va shaffof, ochiq muhit yaratishga asoslangan yondashuvlar egallamoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion boshqaruv elementlarini o‘z faoliyatiga joriy qilgan maktablarda pedagogik jamoaning ichki motivatsiyasi, kasbiy o‘sish sur‘atlari, hamda ta‘lim sifatining monitoring natijalari ancha yuqori darajada namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rahbar shaxsining liderlik salohiyati, jamoaviy fikrni boshqarish qobiliyati va texnologik savodxonligi maktab menejmentining muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni to‘laqonli joriy etishda qator muammolar mavjudligi kuzatildi:

- maktab rahbarlarining ko‘pchiligi innovatsion menejment bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas;
- pedagoglar orasida raqamli savodxonlik darajasi past bo‘lib, bu yangi texnologiyalarni joriy etishni sekinlashtirmoqda;

- mavjud byurokratik tizimlar rahbarlarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklamoqda.

Shu munosabat bilan, quyidagi **tavsiyalar** asosida maktab boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq:

1. **Direktorlar uchun muntazam ravishda innovatsion menejment va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish;**
2. **Maktab ichki boshqaruv tizimiga raqamli texnologiyalarni (KPI, elektron rejalashtirish, Google Workspace, CRM) bosqichma-bosqich integratsiya qilish;**
3. **Ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda faqat ma’muriy ko‘rsatkichlar emas, balki o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning fikrlarini inobatga oluvchi ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish;**
4. **Liderlik salohiyati yuqori bo‘lgan direktorlar tajribasini ommalashtirish, ularni mentor sifatida boshqa maktablarga biriktirish.**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktab menejmentini innovatsiyalashtirish — bu faqat texnik jarayon emas, balki chuqur ijtimoiy, psixologik va pedagogik transformatsiyani talab qiladigan murakkab jarayondir. Ushbu transformatsiyaning muvaffaqiyati esa, avvalo, ta’lim muassasasidagi boshqaruv tamoyillarining zamonaviy ilmiy asosga qurilganligiga va ularni amaliyotga tatbiq eta oladigan yetakchi kadrlarga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fullan, M. (2001). *Leading in a Culture of Change*. Jossey-Bass.
2. Senge, P. (1990). *The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization*. Doubleday.
3. OECD (2020). *School Leadership for Learning*. OECD Publishing.
4. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги (2023). *Umumta’lim maktablari faoliyatini baholash mezonlari*.
5. Drucker, P. (2006). *The Effective Executive*. Harper Business.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

ARALASH TA'LIM MODELIDA INGLIZ TILI GRAMMATIKASI VA YOZISH KO'NIKMASINI O'QITISH

Qaratayeva Nilufar Faxriddin qizi
Guldu 2-bosqich doktoranti
E-mail: mnilufar233@gmail.com

Annotatsiya: Aralash ta'lim (blended learning) modelida ingliz tili grammatikasi va yozish ko'nikmasini o'qitish davr talabi hisoblangan innavatsion ta'limning bir ko'rinishi va talabalarning sifatli ta'lim olishining zamonaviy yechimlaridan hisoblanadi. Oliy ta'limning barcha sohalarini qamrab, yuqori sifatda darslarning aniq fan yo'nalish talabalariga ingliz tili grammatikasi va yozish ko'nikmasini o'rgatish ushbu maqolada bosh maqsad qilib qo'yilgan. Aralash ta'lim modelida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sifatli kadrlar tayyorlashda ko'maklashishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim (blended learning), yondashuv, metod, texnologiya, uslub, grammatika, yozish ko'nikmasi, innovatsiya.

ПРЕПОДАВАНИЕ ГРАММАТИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И НАВЫКОВ ПИСЬМА В МОДЕЛИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: Преподавание грамматики английского языка и навыков письма в модели смешанного обучения (blended learning) является одной из форм инновационного образования, отвечающей требованиям времени, и современным решением для обеспечения качественного обучения студентов. Основная цель данной статьи — охватить все направления высшего образования и эффективно обучать грамматике английского языка и письменной речи студентов, обучающихся по конкретным специальностям. Модель смешанного обучения, основанная на использовании современных технологий, способствует подготовке качественных кадров.

Ключевые слова: смешанное обучение (blended learning), подход, метод, технология, методика, грамматика, навыки письма, инновация.

TEACHING ENGLISH GRAMMAR AND WRITING SKILLS IN A BLENDED LEARNING MODEL

Abstract: Teaching English grammar and writing skills through a blended learning model is one of the forms of innovative education that meets the demands of the modern era and serves as a contemporary solution for providing quality education to students. The main objective of

this article is to cover various areas of higher education and to effectively teach English grammar and writing skills to students specializing in specific fields. The blended learning model, based on the use of modern technologies, contributes to the training of highly qualified professionals.

Keywords: blended learning, approach, method, technology, methodology, grammar, writing skills, innovation.

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan o‘zgarishlar har bir sohada jadal kechmoqda, xususan, oliy ta’limda ham ta’lim sifatining o‘shishiga erishilmoqda. Muhtaram prezidentimizning ta’limga bo‘lgan e’tibori va innovatsion yondashuvlari amalda keng qamrovli o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek talabalarni sifatli va zamonaviy ta’lim bilan qamrab olinishi, turli yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarining aralash model asosida fanlarning ixchamlashtirilgan, yagona jahon talablariga mos shaklda o‘qib, o‘z kasbining egalari bo‘lishi uchun yetarli sharoitda tanlov imkoniyatiga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim yangi taklif va talablarni yuzaga keltirmoqda, xususan, oliy o‘quv yurtlarida ham innovatsion yondashuvlar, zamonaviy axbarotlashtirilgan texnologiyalar orqali o‘qitish va jahon talabiga javob bera oladigan o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish – zamon talabidir. Shuningdek, xalqaro andozalarga mos ravishda oliy ta’limda aralash ta’lim (blended learning) yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim talabalarini o‘qitishda innovatsiya sifatida kirib kelmoqda, bu esa ta’limning zamonaviy ko‘rinishini hosil qilmoqda.

Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday deydi – “ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o‘quvchini charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan uslubiyotlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi [1]. Aralash ta’lim zamonaviy o‘qitishning bir ko‘rinishi sifatida gavydalanadi va pedagog va talaba uchun sifatli ta’lim muhitini yaratishda ko‘maklashadi.

Adabiyot tahlili

Oliy ta’lim muassasalarida har akademik o‘quv yilida bir nechta yo‘nalish tanlab olinib, chuqurlashtirilgan holda o‘qitish, zamonaviy yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish va shu yo‘nalishlar doirasida rivojlantirishlarga erishiladi.

2022 yil O‘zbekistonda fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta’lim muassasasida o‘qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016 yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o‘quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. 2021 yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli

xorijiy universitetlarda o‘qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o‘tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko‘pdir [2; b-852]. Ta’limda bunday zamonaviy yondashuvlar va samarali harakatlar albatta sifatli kadrlarni tayyorlashda yordam beradi. Avvalo, mamlakatimiz rahbarligida olib borilayotgan ochiq siyosat va yondashuvlar yetarlicha sharoit yaratib beradi.

Mamlakatimizda internet va raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish, elektron ta’limni rivojlantirish, raqamli axborot-texnologiyalarning ta’limiy dasturlarini yaratish va didaktikmetodik imkoniyatlarini takomillashtirish U.Begimqulov, A.Ashirova, R.Bokiyevlar[3] tadqiqotlarida o‘rganilgan bo‘lsa, onlayn ta’limni o‘z tarkibiga oluvchi masofaviy ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini A.Pardayev, A.Asqarov, A.Ibraymov, L.Babaxodjayeva, N.Mannanovlar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagogik ta’limda klaster tizimi bilan bog‘liq innovatsion qarashlar G‘.Muhammedov, Sh.Mardonov, U.Xo‘djamqulov, Sh.Botirovalarning ishlarida o‘z aksini topgan. O‘qitishda aralash ta’limni tatbiq etish masalalari B.Xalmatova, S.Xudayberdiyev, J.Djumanov, B.Prenov, L.Babaxodjayevalar [4] tomonidan muayyan darajada o‘rganishgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Plotnikov, [5] S.Xomyakova, M.Kudlayev, G.Sidorovlar raqamli texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish muammasini tadqiq etgan bo‘lsa, A.Vorobeva, [6] O.Kryukova, L.Klobukova, A.Gazizova, I.Karimullin, I. Rashodova, Ye.Vinogradova, N.Samarina o‘z ilmiy izlanishlarida xorijiy tillarni an’anaviy va onlayn o‘qitish muammosini o‘rganishgan [7]. Xorijiy davlatlarda aralash ta’lim shakli turli aspektlarda A.Pearcy, A. Dave, D.Clark, C.J.Bonk, J.Stein, A.Al-Hassan kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini an’anaviy va onlayn o‘qitish metodikasi, uning ijobiy va salbiy tomonlari C.Winter, K.Nelson,[8] M.Sizemore va M.Chamorrolar tomonidan yoritib berilgan [9]. Dunyo olimlarining aralash ta’lim sohada olib borgan izlanishlari orqali yurtimiz ilm fani uchun ham foydali bo‘lgan jihatlarini andoza sifatida foydalanish mumkin.

A’naviy ta’lim shaklidan aralash ta’limga o‘tishning bir qancha sabablari bor. Oliy ta’lim muassasalarida bu, birinchi navbatda, XX asr oxirida biznes jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan keng tarqalgan tendensiya bilan bog‘liq bo‘lgan. Sohaga oid manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aralash ta’lim - zamonaviy oliy ta’limning tendensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda, u yaqin kelajakda o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi, aksincha rivojlanadi va universitetlarning ta’lim dasturlariga keng kiritiladi. Shu bilan birga, aralash ta’lim tushunchasi yaxshi o‘rnatilmagan va ta’lim nazariyasi hamda amaliyotida turlicha talqin qilinadi. Aralash ta’lim konsepsiyasiga turli yondashuvlar tahlili beriladi. “Aralash ta’lim - bu o‘quv jarayonini tashkil etishning aloqa shakllarini onlayn ta’lim bilan uyg‘unlashtirishdan kelib chiqadigan yondashuv emas, balki o‘quv kursining tuzilishi va mazmunini qurish, talabalarning individuallashtirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashda jiddiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi” [10; b-10]. Zamonaviy aralash ta’lim tizimlarida talabalarning mustaqil ishlarini kuzatish usullari o‘qituvchilarga faqat mustaqil ravishda vijdonan ishlaganlardan savollarni qabul qilish imkonini beradi; nazorat topshiriqlarini tekshirish (aralash ta’limda tekshirish avtomatik ravishda test tizimlari tomonidan amalga

oshirilishi mumkin) imkoniyatini oshiradi [11; 15-16-b]. Yurtimizda aralash ta’lim (blended learning) sohasida qator ilmiy ishlar qilinmoqda, nuning samarasi o‘laroq, oliy ta’limda innovatsion o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda va amalda qo‘llanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Oliy ta’lim talabalari, shuningdek, aniq fan talabalari uchun ingliz tilini aralash ta’lim (blended learning) moduli shaklida o‘rgatish zamonaviy ta’limning talablaridan ekanligi boshqa fanlar kabi izchil yondashishni ko‘rsatmoqda. Nofilologik talabalarga ingliz tilini o‘rgatish, filologik yo‘nalishdagi o‘rganuvchilarga nisbatan ko‘proq izlanishni taqozo etadi. Chunki, ularning sohasiga bog‘lagan holda o‘rgatish talab qilinadi. Har bir tilni o‘rganuvchi soha vakillari uchun grammatikani o‘rganish va yozish ko‘nikmalarini oshirish dastlabki qadam hisoblanadi.

Aralash ta’lim modeli asosida ingliz tilini o‘rgatish, talabalarning grammatik bilimini oshirish hamda yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish quyidagicha samara beradi.

- onlayn rejimda materiallardan foydalanish;
- sinov testlarini amalga oshirish;
- nazorat va yakuniy teztini topshirish;
- mavzuga doir qo‘shimcha manbalar bilan tanishish;
- audio va video vositalardan foydalanish;
- elektron pochta, telegram va boshqa ijtimoiy mesenjerlardan foydalanish;
- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida muloqat;
- onlayn konferensiya va tadbirlarda ishtirok etish.

Aniq fan talabalariga ingliz tilini yuqorida ko‘rsatilgan aralash ta’lim (blended learning) ning imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalangan holda ingliz tili grammatikasi va yozish ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazib, darslar tashkil qilinmoqda. Shuningdek, oliy ta’limda tahsil olayotgan “masofaviy ta’lim” talabalari bilan darslarning tashkil etilishi yuqorida keltirilgan usullarning amalda qo‘llanilishi yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, elektron darsliklarning qo‘llanilishi, video va audio darsliklar, o‘yinlar va visual materiallar asosiy obyekt hisoblanib, darsning sifatli tashkil qilinishiga yordam beradi. Talabalar o‘z vaqtlarni onlayn tarzda ingliz tilini o‘rgatuvchi grammatik darslarni ko‘rib, ular asosida nazorat testlari topshirishlari, o‘rganilgan mavzulari orqali mavzulashtirilgan o‘yinlar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

Ingliz tilini o‘rgatishda aniq fan yo‘nalish talabalariga turli shakldagi yondashuvlarni sinab ko‘rildi. Ingliz tilini o‘rgatishda grammatika va yozish ko‘nikmalariga urg‘u qaratildi. Quyida qo‘llab ko‘rilgan usullar biri keltiriladi.

Ingliz tilli manbalarda “Flipped Classroom” deb nomlanuvchi mazkur yondashuv odatdagi (an’anaviy) sinfning mantiqiy teskarisi bo‘lib, go‘yo uning oyna tasviridir. «Teskari sinf»

yondashuvini amalga oshirish sharoiti didaktik davri onlayn rejimda boshlanadi (talabalar tomonidan turli xil elektron resurslardan foydalangan holda yangi materialni mustaqil o‘rganish) va an’anaviy formatda tugaydi (sinf ishini mustahkamlash, bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash, shuningdek, joriy baholash). Bugungi kunda «Teskari sinf» nafaqat xalqaro amaliyotda, balki O‘zbekistonda ham aralash ta’limning eng keng tarqalgan va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan yondashuvidir. Ushbu yondashuvning asosiy didaktik afzalligi shundaki, unda diqqat-e’tibor o‘quv jarayonining asosiy bosqichiga qaratilgan bo‘lib, u dasturiy materialni o‘zlashtirish muvaffaqiyati (shuningdek, kasbiy malaka asoslarini o‘zlashtirish sifati)ni, ya’ni bilimlarni mustahkamlash bosqichini o‘z ichiga oladi. Raqamli yondashuvlar yangi materialni didaktik jihatdan to‘liq shaklda taqdim etishni ta’minlay olgan paytda «Teskari sinf» pedagogik jihatdan yanada samarali sanaladi: qulay, vizual, turlicha, mazmunli to‘liq [12]. Bilimlarni o‘zlashtirishni onlayn tarzga o‘tkazish o‘qituvchiga o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratish imkonini beradi, bu jarayonni namunaviy yechimlarini namoyish qilish, maslahat berish, motivatsion qo‘llab-quvvatlash va tezkor fikr-mulohazalar bilan ta’minlash shular jumlasidandir. Vaqtni tejash, ayniqsa, katta hajmli bo‘limlar va mavzularni o‘rganishda ahamiyatli bo‘ladi [13; 98-99-b]. Bu kabi yondashuvlar aralash ta’lim (blended learning) ning imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Talabalarning tilni o‘rganishga bo‘lgan imkoniyatlarini oshirish va sifatli ta’lim bilan ta’minlash o‘qituvchi uchun asosiy qonuniyat hisoblanadi.

Xulosa

Aralash ta’lim modul tizimida sifatli darslar tashkil qilish, o‘z ustida izlanish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, innovatsion yodashuvlar asnosida bilim, ko‘nikma va mahoratini oshirib borish imkoniyati oshirish o‘qituvchi uchun yaratilgan samaradorlik hisoblanadi. Talabalarning o‘z vaqtlarini tejagan holda, yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lgan, mahoratli o‘qituvchilardan til o‘rganish, innavatsion yodashuvlar asosida grammarika va yozish ko‘nikmalarni onlayn qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lishi, yetarli elektron manbalarga ega bo‘lishi ta’lim olishda o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zoxida Sharobiddinovna Tursinova. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish (xususiy oliy talim muassasalari misolida) *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* b. 852
2. Xalmatova B.T., Xudayberdiyev S.A., Djumanov J.X., Prenov B.B., U.O.Xudanov. Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini ta’minlash: *Ye-1earning: Monografiya/ Toshkent tibbiyot akademiyasi*. 2017. - 106 b.;
3. Babaxodjayeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta’lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari / *ped. fan. buy. dokt. (DSc) diss...avtoref*. Chirchik. 2021. -B. 32.

4. Плотников В. А. Цифровизация производства: теоретическая сущность и перспективы развития в российской экономике // Научная электронная библиотека «Киберленинка», – СПб., 2018.; Хомякова С. С. Трансформация и закрепление термина «цифровизация» на законодательном уровне // Молодой ученый. – 2019. – №41. – С. 9-12.; Кудлаев М. С. Процесс цифровизации образования в России // Молодой ученый. – 2018. – №31. – С. 3-7.; Сидоров Г. Цифровой университет: применение цифровых технологий в современных образовательных учреждениях [Электронный ресурс]. URL: <https://www.itweek.ru/idea/article>

5. Воробьева А.А. Современное образование: онлайн или оффлайн? Всероссийская объединенная конференция «Интернет и современное общество» 2018. – С. 78-80.; Крюкова О.С. Традиционная и «цифровая» педагогика в современном образовательном пространстве // Россия: тенденции и перспективы развития. 2018. – № 13 (1). – С. 856-57.; Самарина Н.В., Газизова А.И. Интеграция аудиторной и дистанционной форм обучения иностранному языку в вузе // Проблемы современного педагогического образования. Серия: Педагогика и психология. - 2018. - Вып. 59. м Ч. 2. - С. 316-319.; Расходова ИА., Каримуллин И.Ф. Роль дистанционного обучения иностранному языку студентов вузов и применение дистанционных технологий как альтернативу традиционным методам обучения // Современные проблемы филологии, педагогики и методики преподавания языков. Научно-практической конференция. – К., Изд-во КГТУ, 2020. – С.62-64.; Виноградова Е.Н., Клобукова Л.П. В поисках золотой середины: дистанционное обучение онлайн и офлайн // Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2018. – № 15 (12). – С. 195-209.

6. Askarov A.D. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2017. –121 b.; Ibraymov.A.E. Umumta’lim maktabi fizika o‘qituvchilari masofaviy malaka oshirishlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. 2017. 205 bet.; Mannanova.N.X. O‘zbekistonda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limning shakllanishi va rivojlanishi. Ped. fan. fal. d-ri (PhD) ... diss. T.: 2019. 143-bet.

7. Winter C.S. Online and face-to-face activities of non-native English speakers. Doctor of Philosophy Dissertation, 2013. 143 p.; Nelson K. Effectiveness of Online English Composition Learning Versus Classroom Learning. Doctor of education Dissertation Proposal Draft, 2008. 98 p.; Sizemore M. L. Personalized online learning labs and face-toface teaching in first-year college English courses. Doctor of philosophy dissertation, 2017. 185 p.; Chamorro M.M. Comparing Online English Language Learning and Face-to-Face English Language Learning at El Bosque University in Colombia. Doctor of Philosophy Dissertation. 2018. 135 p.

8. Percy A.G. Finding the perfect blend: a comparative study of online, face-to-face, and blended instruction. Doctor of Philosophy (Information Science) Dissertation. 2009. 121 p.; Dave A. A Comparison of student performance in an online class versus a face-to-face (traditional) class: a meta-analysis. Doctor of Education dissertation. 2010. 105 p.;

9. Clark, D. Learning experience design- Kogan Page Publishers, 2021.- p 10.; Stein, J. Essentials for Blended Learning. - 2nd edition. Routledge, 2020.- p 34.; Al-Hassan A. A comparison of e-learning and traditional classroom teaching: Petra University. Conf., IATEFL. 2010.

10. Yusupova Nargiza Nigmatovna- Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o‘qitishning aralash ta’lim texnologiyalari, diss, 2023. b.15

11. Блинов В. И., Сергеев И. С. Модели смешанного обучения в профессиональном образовании: типология, педагогическая эффективность, условия реализации // Профессиональное образование и рынок труда. 2021. № 1. С. 4–25. DOI: 10.24412/2307-4264-2021-01-04-25

12. Yusupova Nargiza Nigmatovna- Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o‘qitishning aralash ta’lim texnologiyalari, diss, 2023. b. 98.



ЦИФРОВОЙ АУДИТИЗМ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: РИСКИ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОГО И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Атабаева Дильшода Азатовна
-ассистент-преподаватель,

*Нукусский государственный педагогический институт имени
Ажинияза кафедры дистанционного обучения социально-гуманитарных дисциплин*

Аннотация: Современная цифровая среда оказывает значительное влияние на развитие детей раннего и дошкольного возраста. Возникает феномен, известный как цифровой аудитизм — состояние, при котором у ребёнка формируются поведенческие и коммуникативные особенности, сходные с расстройствами аутистического спектра, однако обусловленные внешними средовыми факторами, прежде всего — избыточным использованием цифровых устройств. Цель данной статьи заключается в теоретическом осмыслении феномена цифрового аудитизма, выявлении его признаков, причин и последствий, а также в рассмотрении возможных путей профилактики на уровне семьи и образовательных учреждений. В работе проведён анализ современных научных источников, определены риски и направления педагогической коррекции. Сделан вывод о необходимости внедрения стратегии разумного цифрового воспитания и информирования родителей о нормах экранного времени.

Ключевые слова: цифровой аудитизм, дошкольный возраст, экранное время, цифровые технологии, развитие ребёнка, цифровая зависимость.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI AUDITIZMIZM: RAQAMLI MUHITNING PSIXOEMOTSIONAL VA IJTIMOIIY RIVOJLANISH UCHUN XAVFLARI

Annotatiya: Zamonaviy raqamli muhit erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli auditizm deb nomlanuvchi hodisa paydo bo'ladi - bu bolada autizm spektrining buzilishiga o'xshash xatti-harakatlar va kommunikativ xususiyatlarni rivojlantiradigan, ammo tashqi muhit omillari, birinchi navbatda raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish natijasida yuzaga keladigan holat. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli auditizm fenomenini nazariy tushunish, uning belgilari, sabablari va oqibatlarini aniqlash, shuningdek, oilalar va ta'lim muassasalari darajasida oldini olishning mumkin bo'lgan usullarini ko'rib chiqishdir. Ishda zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilinadi,

tavakkalchiliklar va pedagogik tuzatish sohalari aniqlanadi. Oqilona raqamli ta'lim strategiyasini amalga oshirish va ota-onalarni ekranda ishlash vaqti normalari haqida xabardor qilish zarurligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: raqamli auditizm, maktabgacha yosh, ekran vaqti, raqamli texnologiyalar, bola rivojlanishi, raqamli giyohvandlik.

DIGITAL AUDITISM IN PRESCHOOL CHILDREN: RISKS OF THE DIGITAL ENVIRONMENT FOR PSYCHOEMOTIONAL AND SOCIAL DEVELOPMENT

Abstract: The modern digital environment has a significant impact on the development of children of early and preschool age. A phenomenon known as digital auditism arises - a condition in which a child develops behavioral and communicative characteristics similar to autism spectrum disorders, but caused by external environmental factors, primarily the excessive use of digital devices. The purpose of this article is to theoretically understand the phenomenon of digital auditism, identify its signs, causes and consequences, as well as to consider possible ways of prevention at the level of families and educational institutions. The work analyzes modern scientific sources, identifies risks and areas of pedagogical correction. A conclusion is made about the need to implement a strategy of reasonable digital education and informing parents about the norms of screen time.

Key words: digital auditism, preschool age, screen time, digital technologies, child development, digital addiction.

Введение. В последние десятилетия цифровизация охватила все сферы жизни, включая раннее детство. С ранних лет дети получают доступ к смартфонам, планшетами и другим цифровым устройствам, что оказывает существенное влияние на их психическое и социальное развитие. Всё чаще специалисты в области дошкольной педагогики и детской психологии отмечают случаи сниженного интереса к живому общению, затруднения в формировании речевых навыков, эмоциональную отстранённость и склонность к изоляции у детей младшего возраста.

В научно-практической литературе и педагогической среде для обозначения таких состояний всё чаще используется термин «цифровой аудитизм». Он не является официальным медицинским диагнозом и не включён в международные классификации болезней (МКБ, DSM), однако служит условным обозначением поведенческих нарушений аутистического спектра, вызванных не биологическими, а средовыми факторами — прежде всего чрезмерным взаимодействием с цифровыми технологиями в раннем возрасте [1; 3].

Такое поведение может напоминать симптомы расстройств аутистического спектра (РАС), включая снижение зрительного контакта, бедность речи, повышенную раздражительность и отказ от взаимодействия с окружающими. Однако, в отличие от

классического аутизма, эти проявления потенциально обратимы при сокращении экранного времени и восстановлении живого общения [4].

Цель статьи — провести теоретический анализ феномена цифрового аудитизма у детей дошкольного возраста, определить его основные характеристики, причины возникновения и возможные педагогические меры профилактики.

Методология. В последние годы наблюдается рост использования смартфонов, планшетов и других цифровых технологий детьми, что вызывает обеспокоенность у педагогов, психологов и родителей. Переизбыток экранного времени может приводить к проблемам с коммуникацией, развитию эмпатии, а также нарушению способности к длительному вниманию и концентрации.

Изучение проблемы цифрового аутизма и его влияния на детей дошкольного возраста привлекло внимание многих ученых из различных областей, включая психологию, педагогику, нейробиологию и медицину. Однако на данный момент нельзя выделить единую группу ученых, работающих исключительно над этой проблемой, поскольку исследования проводятся в разных странах и на разных уровнях.

Настоящее исследование носит теоретический характер и основано на анализе современной научной литературы в области детской психологии, медиавоздействия, нейропсихологии и дошкольной педагогики. Используются методы:

- теоретического анализа и обобщения научных источников;
- интерпретации понятийного аппарата (цифровой аудитизм, экранная зависимость, сенсорная депривация);
- сопоставления подходов отечественных и зарубежных авторов к проблеме цифрового влияния на развитие детей [3; 4].

Также рассмотрены международные рекомендации по нормам экранного времени, разработанные ВОЗ, ЮНИСЕФ и Американской академией педиатрии [5].

Обсуждение.

1. Теоретическое осмысление понятия «цифровой аудитизм»

Понятие «цифровой аудитизм» отражает специфическое поведение ребёнка, вызванное чрезмерным использованием цифровых технологий, при котором нарушается развитие эмоциональной и социальной сферы. По мнению А. Сигмана, регулярное взаимодействие с экраном нарушает баланс между сенсорными стимулами и живым человеческим общением [6].

К характерным признакам цифрового аудитизма относятся:

- избегание зрительного контакта;
- бедность речевого выражения;
- повышенная возбудимость;
- ограниченный круг интересов (сосредоточенность на экране);
- трудности с установлением эмоционального контакта [1; 3].

2. Причины формирования цифрового аудитизма у дошкольников

Появление и развитие цифрового аудитизма во многом связано с технологическими изменениями, произошедшими в последние десятилетия. Современные дети с самого раннего возраста сталкиваются с электронными устройствами, которые становятся для них не только источником информации, но и объектами взаимодействия. Одной из причин возникновения цифрового аутизма является чрезмерная зависимость от экранных технологий, что приводит к дефициту живого общения и взаимодействия с окружающими. Дети, постоянно взаимодействующие с экранами, не получают достаточной практики в социальных навыках, что может способствовать развитию аутистических черт.

Гаджеты не разовьют пространственное понимание и восприятие предмета. Не разовьют мелкую моторику и сенсорную интеграцию. А мелкая моторика тянет за собой очень много тонких процессов и настроек. Как вы думаете, почему большинство из нас не покупают детям краски? Потому что «обои разрисуют красками, а в планшете он все то же самое делает». Но это совсем не тоже самое.

Ребёнок должен брать, лизать, швырять, кусать, собирать, и ломать. Тыкать в экран пальчиком – это не мелкая моторика. Но мы вручаем телефон, мол там всё есть. Просто и легко, а этап развития ребёнка не повторить. Он упущен.

Наиболее уязвимым возрастом считается период от 1 до 5 лет, когда формируются базовые механизмы речи, мышления и общения. Основные причины включают:

- избыточное экранное время (более 1–2 часов в день);
- отсутствие родительского участия в медиапотреблении;
- пассивный характер контента;
- замещение живого общения цифровыми стимулами [2; 4].

Исследования показывают, что дети, проводящие много времени с гаджетами, начинают позже говорить и хуже ориентируются в эмоциональных сигналах [7].

3. Последствия для психоэмоционального и социального развития

Цифровая зависимость препятствует формированию эмпатии, способности к сопереживанию, речевой инициативности. Происходит подмена реального взаимодействия виртуальным. Это нарушает механизм социального научения, при котором ребёнок учится через подражание взрослым и сверстникам [8].

Кроме того, чрезмерное использование гаджетов связано с нарушениями сна, раздражительностью, снижением концентрации внимания и проблемами в обучении. Взрослые сами часто подают пример цифрового перенасыщения, усиливая эффект [3; 6].

4. Профилактика и педагогические меры

Профилактика цифрового аудитизма включает:

- регулирование экранного времени в соответствии с возрастом;
- совместный просмотр и обсуждение контента;
- приоритет живого общения, сюжетно-ролевых игр, чтения;
- медиаобразование родителей;

- использование программ цифрового детокса [5; 9].

Особую роль играют воспитатели, которые могут вовремя заметить первые тревожные сигналы и сообщить родителям о необходимости коррекции поведения.

Заключение

Цифровой аудитизм — явление, требующее внимания всех участников образовательного процесса. Его формирование обусловлено сочетанием внешних факторов, прежде всего — неограниченного доступа к цифровым устройствам в раннем возрасте. Несмотря на отсутствие медицинского диагноза, симптомы цифрового аудитизма могут серьёзно повлиять на эмоциональное, речевое и социальное развитие дошкольника.

Выводы:

1. Цифровой аудитизм формируется на фоне дефицита живого общения и избытка экранного воздействия.
2. Ранний дошкольный возраст является наиболее уязвимым к негативным эффектам цифровой среды.
3. Профилактика и коррекция возможны при участии семьи, педагогов и грамотной цифровой политики.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Агаева Н.Н. Цифровая зависимость у детей дошкольного возраста: современные вызовы // Дошкольная педагогика. – 2021. – №4. – С. 23–27.
2. Зубарева Н.Ю. Особенности развития речи у детей с избыточным экранным временем // Вопросы психологии. – 2022. – №1. – С. 45–52.
3. Смирнова Е.О. Детство в цифровую эпоху: возможности и угрозы // Современное дошкольное образование. – 2020. – №2. – С. 5–9.
4. Поляков А.Г. Медиаобразование и детское развитие: психолого-педагогический аспект // Психология и образование. – 2021. – №3. – С. 30–35.
5. World Health Organization. Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep for children under 5 years of age. – Geneva: WHO, 2019.
6. Сигман А. Эффекты экранного времени на развитие мозга ребёнка // Психология и педагогика детства. – 2019. – №3. – С. 12–18.
7. Christakis D. A., Zimmerman F. J., DiGiuseppe D. L., McCarty C. A. Early television exposure and subsequent attentional problems in children // Pediatrics. – 2004. – Vol. 113(4). – P. 708–713.
8. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
9. UNICEF. Growing up Online: Addressing the educational needs of children in a digital age. – New York: UNICEF, 2020.



UO'K 612.821:612.015

AQLIY YUKLAMA TA'SIRIDA STRESS BIOMARKERLARINING O'ZGARISHI VA SUBYEKTIV BAHOLASH (NASA-TLX)

Niyozov Qahramon Adashaliyevich

Namangan davlat universiteti

Anatomiya va fiziologiya kafedrasi o'qituvchisi.

nambilog@umail.uz

<https://orcid.org/0009-0006-8692-3886>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi aqliy yuklamalar natijasida inson organizmida sodir bo'ladigan stress biomarkerlari (kortizol, alfa-amilaza, s-IgA) dinamikasini aniqlash va NASA-TLX so'rovnomasi yordamida sub'ektiv baholash bilan solishtirishdir. Stressga javoban salivada o'lchanadigan kortizol, alfa-amilaza (sAA) va sekretor immunoglobulin A (s-IgA) darajalari kuzatildi. Shuningdek, tajribada yurak urish tezligi va sub'ektiv stress ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Tadqiqot natijalari aqliy yuklamaning biokimyoviy stress markerlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: aqliy yuklama, stress biomarkerlari, kortizol, alfa-amilaza, s-IgA, NASA-TLX.

ВЛИЯНИЕ УМСТВЕННОЙ НАГРУЗКИ НА ИЗМЕНЕНИЯ СТРЕССОВЫХ БИОМАРКЕРОВ И СУБЪЕКТИВНУЮ ОЦЕНКУ (NASA-TLX)

Аннотация. Основная цель данного исследования — анализ динамики стрессовых биомаркеров (кортизол, альфа-амилаза, s-IgA) в организме человека под воздействием умственной нагрузки и их сопоставление с субъективной оценкой по опроснику NASA-TLX. В слюне измерялись уровни кортизола, альфа-амилазы (sAA) и секреторного иммуноглобулина А (s-IgA), а также показатели частоты сердечных сокращений и субъективного стресса. Результаты исследования показали прямую связь умственной нагрузки с биохимическими стресс-маркерами.

Ключевые слова: умственная нагрузка, стресс-маркеры, кортизол, альфа-амилаза, s-IgA, NASA-TLX.

THE IMPACT OF MENTAL WORKLOAD ON STRESS BIOMARKER CHANGES AND SUBJECTIVE ASSESSMENT (NASA-TLX)

Abstract. The main objective of this study is to analyze the dynamics of stress biomarkers (cortisol, alpha-amylase, s-IgA) in the human body under mental workload and compare them with subjective assessment using the NASA-TLX questionnaire. Salivary cortisol, alpha-amylase (sAA), and secretory immunoglobulin A (s-IgA) levels were measured, along with heart rate and subjective stress indicators. The results demonstrated a direct relationship between mental workload and biochemical stress markers.

Keywords: mental workload, stress biomarkers, cortisol, alpha-amylase, s-IgA, NASA-TLX.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy jamiyatda aqliy yuklama (mental workload) insonning kundalik faoliyatida tobora ko‘proq uchraydigan omillardan biriga aylanmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, ko‘p vazifali ish jarayonlari va yuqori tezlikda qaror qabul qilish zaruriyati kognitiv resurslarning haddan tashqari ishlatilishiga olib keladi. Bunday holatlar insonning psixofiziologik holatiga ta’sir etib, stress reaksiyasini kuchaytiradi, mehnat unumdorligi va qaror qabul qilish sifatini pasaytirishi mumkin [1,2].

Stressning biologik asoslari, asosan, gipotalamus–gipofiz–buyrak usti (HPA) o‘qi va simpatoadrenal tizimning faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonlar organizmda kortizol va boshqa stressga sezgir markerlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Kortizol stress fiziologiyasida asosiy marker hisoblanadi. Dickerson va Kemeny [1] o‘z tadqiqotlarida turli stressorlar ta’sirida so‘lakdagi kortizol darajasi oshishini ko‘rsatib, bu jarayonning kognitiv yuklamalar bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Kirschbaum va Hellhammer [2] esa psixoneuroendokrin tadqiqotlarda salivada kortizol tahlilining ishonchliligini ilmiy asoslab bergan.

Stressning yana bir muhim biomarkeri — alfa-amilaza (sAA) bo‘lib, u simpatik asab tizimining tezkor faollashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Nater va Rohleder [4] alfa-amilazaning stress reaksiyasini aniqlashdagi tezkorlik va invaziv bo‘lmagan usullar uchun ahamiyatini ta’kidlaydilar. Shuningdek, Quinn va hamkorlari [12] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda aqliy yuklama oshishi bilan alfa-amilaza darajasining 40% dan ortiq ko‘tarilishi qayd etilgan.

Sekretor immunoglobulin A (s-IgA) shilliq pardalarning birlamchi immun himoya vositasi sifatida tanilgan. Stressning kuchayishi s-IgA darajasining qisqa muddatli pasayishiga olib kelishi mumkin, bu immunitetning vaqtincha zaiflashishini bildiradi [5]. Bosch [5] stress–immun munosabatlarini chuqur tahlil qilib, s-IgA darajasining pasayishi stress holatlarining ishonchli ko‘rsatkichlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslagan.

Aqliy yuklamani baholashda faqatgina biokimyoviy markerlar bilan cheklanib qolmaslik muhimdir. Ish yuklamasini kompleks tahlil qilish uchun NASA-TLX (Task Load Index) kabi sub’ektiv baholash metodlaridan foydalanish zarur. Hart va Staveland [6] tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodika aqliy, jismoniy, vaqt talabi, bajarish samaradorligi, sa’y-harakat

hamda ruhiy bosim (frustratsiya) kabi olti mezon asosida baholash imkonini beradi. NASA-TLX so‘rovnomasi hozirgi kunda aviatsiya, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish hamda ta‘lim sohalarida keng qo‘llanilmoqda [7,8].

Ba‘zi tadqiqotlar sub‘ektiv baholash vositalari (masalan, NASA-TLX) bilan fiziologik yoki biokimyoviy stress markerlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ayrim tadqiqotlar psixososial stress sharoitida so‘lakdagi alfa-amilaza (sAA) darajasi va sub‘ektiv yuklama orasida muayyan parallel o‘zgarishlarni qayd etgan [3,9]. Kortizol darajasining ortishi bilan ish yuklamasi o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatgan ishlar mavjud bo‘lsa-da, bu boradagi dalillar izchil emas [2]. Uzoq muddatli stressning kognitiv faoliyatga ta‘siri esa, Lupien va hamkorlari [10] tomonidan aniq isbotlangan bo‘lib, bu holat xotira, diqqat va ijro funksiyalarining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda ilk bor NASA-TLX yordamida sub‘ektiv aqliy yuklama bahosi salivada kortizol, alfa-amilaza (sAA) va sekretor immunoglobulin A (s-IgA) kabi stressga sezgir biokimyoviy markerlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rganildi. Bunday yondashuv aqliy yuklamaning fiziologik mexanizmlarini kompleks baholash, stress holatlarini erta aniqlash hamda sog‘liqni saqlash va ish unumdorligini optimallashtirishga qaratilgan amaliy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim nazariy va diagnostik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya (Methods)

Tadqiqot dizayni va ishtirokchilar. Tadqiqot eksperimental yondashuv asosida tuzilib, unga 20–30 yosh oralig‘ida bo‘lgan jami 30 nafar sog‘lom ko‘ngilli talaba jalb qilindi. Ishtirokchilar tarkibi teng taqsimlangan bo‘lib, 15 nafari erkak, 15 nafari ayol edi. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha ishtirokchilarning sog‘liq holati dastlabki skrinindan o‘tkazilib, surunkali kasalliklarga ega yoki sog‘liq holati tadqiqot natijalariga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan shaxslar chetlashtirildi. Tadqiqot xalqaro bioetik qoidalar asosida olib borildi va har bir ishtirokchi yozma rozilik bildirdi.

Kognitiv yuklama testlari. Aqliy yuklama hosil qilish maqsadida 25–30 daqiqa davom etuvchi maxsus kognitiv topshiriqlar majmuasi qo‘llanildi. Bu mashqlar quyidagi qismlardan iborat bo‘ldi:

Matematik masalalar: murakkab qo‘shish, ayirish va ko‘paytirish amallaridan iborat tezkor hisoblashlar.

Xotira testi: 12–15 ta so‘zdan iborat ro‘yxatni yod olish va eslab aytish.

Mantiqiy ketma-ketliklar: raqamli yoki geometrik qatorlarni aniqlash va ularning mantiqiy izchilligini topish.

Mazkur topshiriqlar ishtirokchilarda diqqatni maksimal jamlash va kognitiv resurslarni faol ishlatishga majbur qiluvchi holatni yaratdi.

Biokimyoviy tahlillar. Stress reaksiyasini aniqlash uchun kortizol, alfa-amilaza (sAA) va sekretor immunoglobulin A (s-IgA) darajalari so‘lak namunalari o‘lchandi. So‘lak namunasi uch bosqichda yig‘ildi:

1. Testlar boshlanishidan 10 daqiqa oldin (fon holati).
2. Mashqlar o‘rtasida (o‘rta bosqich).
3. Topshiriqlar tugaganidan 10 daqiqa o‘tib (yakuniy bosqich).

Namunalardagi biomarker miqdorlari ELISA (Enzyme-Linked Immunosorbent Assay) texnologiyasi asosida, zamonaviy laboratoriya uskunasini – BioTek ELx808 Microplate Reader yordamida tahlil qilindi.

Fiziologik o‘lchovlar. Har bir bosqichda yurak urish tezligi (HR) hamda arterial qon bosimi (BP) tonometr va stetoskop orqali ikki marta aniqlanib, o‘rtacha qiymatlar hisobga olindi.

Sub’ektiv yuklama bahosi (NASA-TLX). Kognitiv yuklamani sub’ektiv baholash uchun NASA-TLX (Task Load Index) so‘rovnomasi ishlatildi. Anketa quyidagi komponentlarni baholaydi:

- Mental (kognitiv) talab,
- Jismoniy talab,
- Vaqt bosimi,
- Topshiriq samaradorligi,
- Sa’y-harakat darajasi,
- Frustratsiya (ruhiy bosim).

Har bir parametr 0 dan 100 ballgacha baholandi va yakuniy Weighted Workload (WWL) balli hisoblab chiqildi.

Statistik ishlov berish. Olingan ma’lumotlar SPSS 26.0 statistik paketida tahlil qilindi. Normal taqsimotni baholash uchun Shapiro–Wilk testi, guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun bir tomonlama ANOVA va Student t-testi qo‘llanildi. NASA-TLX ko‘rsatkichlari bilan biomarkerlar o‘rtasidagi bog‘liqlik Pearson korrelyatsiyasi yordamida hisoblandi. Statistik ahamiyat darajasi $p < 0.05$ deb belgilandi.


Natijalar (Results)

Stress biomarkerlari dinamikasi. Tadqiqot davomida kognitiv yuklama stress biomarkerlarining aniq o‘zgarishiga olib kelgani qayd etildi. Kortizol darajasi test boshlanishidagi 1.85 ± 0.28 nmol/L qiymatdan yuklama yakuniga kelib 3.46 ± 0.41 nmol/L gacha oshdi ($p < 0.01$). Ushbu oshish gipotalamus-gipofiz-buyrak usti (HPA) o‘qining kuchli faollashganidan dalolat beradi.


Alfa-amilaza (sAA) darajasi ham sezilarli darajada oshdi, boshlang‘ich ko‘rsatkichga nisbatan o‘rtacha 42 % lik ko‘tarilish qayd etildi ($p < 0.05$). Bu simpatik asab tizimining yuklama vaqtida tezkor javob berishini tasdiqlaydi.

Aksincha, sekretor immunoglobulin A (s-IgA) test yakuniga kelib 15–18 % ga kamaydi ($p < 0.05$). Bu qisqa muddatli immun javobning pasayishini ko‘rsatadi.


Rasm 1. Kortizol darajasining dinamik o‘zgarishi



Rasm 2. Alfa-amilaza darajasining dinamik o‘zgarishi



Rasm 3. s-IgA darajasining dinamik o‘zgarishi



Jadval 1. Stress biomarkerlari dinamikasi (n = 30)

Bosqich	Kortizol (nmol/L)	Alfa-amilaza (%)	s-IgA (%)
---------	-------------------	------------------	-----------

Boshlang‘ich	1.85 ± 0.28	100	100
Jarayon davomida	2.71 ± 0.33	129 ± 10	91 ± 7
Yakuniy	3.46 ± 0.41	142 ± 11	82 ± 6

Fiziologik ko‘rsatkichlar. Yurak urish tezligi (HR) test boshlanishidagi 72 ± 4 BPM (beats per minute) qiymatdan yuklama yakunida 84 ± 5 BPM ga oshdi ($p < 0.01$). Arterial qon bosimi (BP) esa o‘rtacha 6–8 mm Hg ga ko‘tarildi. Har bir bosqichda HR va BP ko‘rsatkichlari ikki marta o‘lchandi va o‘rtacha qiymatlar tahlil uchun asos sifatida qabul qilindi.

NASA-TLX sub‘ektiv baholash natijalari. Sub‘ektiv baholash natijalariga ko‘ra, umumiy Weighted Workload (WWL) balli 73 ± 6 bo‘ldi. Mental talab (78 ± 5 ball) va vaqt bosimi (72 ± 6 ball) eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Frustratsiya darajasi 66 ± 7 ball, sa’y-harakat esa 70 ± 5 ballni tashkil qildi.

Korrelyatsion tahlil. Kortizol darajasi va mental talab (NASA-TLX) ko‘rsatkichi o‘rtasida ijobiy kuchli bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0.61$, $p < 0.01$). Alfa-amilaza va vaqt bosimi ko‘rsatkichlari o‘rtasida ham sezilarli bog‘liqlik qayd etildi ($r = 0.54$, $p < 0.05$). Bu natijalar biomarkerlar va sub‘ektiv baholash o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarni tasdiqlaydi.

Munozara (Discussion)

Ushbu tadqiqotda aqliy yuklama jarayonida stress biomarkerlari (kortizol, alfa-amilaza, s-IgA), fiziologik ko‘rsatkichlar (yurak urish tezligi – HR, arterial qon bosimi – BP) va NASA-TLX orqali o‘lchangan sub‘ektiv baholash natijalari kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar kognitiv yuklama organizmning psixofiziologik tizimlarida sezilarli funksional o‘zgarishlar yuzaga keltirishini ko‘rsatdi.

Kortizol darajasining 1.85 ± 0.28 nmol/L dan 3.46 ± 0.41 nmol/L gacha oshishi gipotalamus–gipofiz–buyrak usti (HPA) o‘qining stressga nisbatan tezkor javobini ifodalaydi. Ushbu natija Kirschbaum va Hellhammer [1] hamda Dickerson va Kemeny [2] tomonidan o‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari bilan mos keladi. Ular ham mental yuklama sharoitida kortizol darajasining sezilarli oshishini qayd etgan va bu jarayon HPA o‘qi faolligi bilan bevosita bog‘liq ekanini ilmiy asoslashgan.

So‘lakdagi alfa-amilaza (sAA) darajasining 42% ga oshishi simpatik asab tizimi (SNS) faollashuvining bevosita fiziologik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Nater va Rohleder [3] o‘z tadqiqotlarida sAA ni psixososial stressga nisbatan tezkor va invaziv bo‘lmagan biomarker sifatida ilmiy asoslab berganlar. Bizning tadqiqotda ham sAA darajasining oshishi NASA-TLX so‘rovnomasidagi “vaqt bosimi” va “mental talab” subo‘lchamlari bilan ijobiy korrelyatsiya ko‘rsatdi ($r = 0.54$, $p < 0.05$), bu esa kognitiv yuklama va simpatik javob o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Sekretor immunoglobulin A (s-IgA) darajasining 15–18% ga pasayishi qisqa muddatli stress holatining shilliq pardalar immun javobiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Bosch [4] ham shunga o‘xshash natijalarga erishib, psixologik stress sharoitida s-IgA sekretsiasining

pasayishi shilliq pardalarning immun himoya darajasini susaytirishi mumkinligini ilmiy asosda ta’kidlagan. Ushbu holat stressning organizmga immunologik darajadagi tezkor ta’sirini aks ettiruvchi muhim fiziologik ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Fiziologik ko‘rsatkichlar ham stress reaksiyasiga mos ravishda sezilarli o‘zgarishlarni namoyon etdi: yurak urish tezligi (HR) 72 ± 4 BPM dan 84 ± 5 BPM gacha oshdi, arterial qon bosimi (BP) esa o‘rtacha 6–8 mm Hg ga ko‘tarildi. Ushbu o‘zgarishlar simpatik asab tizimi faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, stress holatida yurak-qon tomir tizimiga yuklama ortishini anglatadi. Bunday natijalar McEwen [11] va Lupien [10] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, organizmning stressga javoban fiziologik moslashuv mexanizmlarini tasdiqlaydi.

NASA-TLX natijalari ishtirokchilarda sub’ektiv yuklama darajasining yuqoriligini ko‘rsatdi (Weighted Workload Level – WWL = 73 ± 6). Ayniqsa, mental talab va frustratsiya ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi kognitiv resurslar ortiqcha sarflanganidan dalolat beradi. Rubio va hamkorlari [12] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ham NASA-TLX so‘rovnomasidagi mental va vaqt talabi subo‘lchamlari stressga nisbatan fiziologik va biokimyoviy javoblar bilan sezilarli bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rsatgan.

Shuningdek, so‘lakdagi biomarkerlar (kortizol, sAA, s-IgA) va NASA-TLX sub’ektiv baholash natijalari o‘rtasida aniqlangan sezilarli bog‘liqliklar, stressga psixofiziologik va kognitiv yondashuvning o‘zaro mosligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati shundaki, unda biokimyoviy ko‘rsatkichlar va sub’ektiv baholash natijalari integratsiyalashgan tarzda tahlil qilindi. Bunday yondashuv stress holatini kompleks baholash, psixofiziologik reaktivlikni aniqlash hamda insonning ish faoliyati samaradorligiga bo‘lgan ta’sirini chuqur tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tadqiqotda faqat sog‘lom, yosh talaba ishtirokchilarning jalb etilgani natijalarning umumlashirilishini ma’lum darajada cheklashi mumkin. Shuningdek, namunalar sonining nisbatan kamligi va stressga nisbatan individual reaktivlikdagi farqlar ba’zi o‘zgarishlarga ta’sir qilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Kelgusi tadqiqotlarda turli yosh, kasb va sog‘liq holatlariga ega guruhlarini qamrab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa (Conclusion)

Mazkur tadqiqot aqliy yuklama sharoitida organizmning stressga javob reaksiyalarini har tomonlama tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

Biomarkerlarning dinamikasi: Kortizol darajasining oshishi gipotalamus–gipofiz–buyrak usti (HPA) tizimining faollashganini bildiradi. Alfa-amilaza darajasining 42 % ga ko‘tarilishi simpatik asab tizimining tezkor va faol javobini aks ettirgan bo‘lsa, s-IgA darajasining pasayishi qisqa muddatli stress holatida shilliq pardalarning immun himoya darajasi susayishini ko‘rsatdi.

Fiziologik o‘zgarishlar: Yurak urish tezligi (HR) va arterial qon bosimi (BP) ko‘rsatkichlarining oshishi yurak-qon tomir tizimining stressga nisbatan moslashuvchan fiziologik javobini namoyon etdi.

Sub’ektiv baholash natijalari: NASA-TLX indeksida mental talab (78 ± 5) va vaqt bosimi (72 ± 6) kabi subo‘lchamlarning yuqori baholanishi kognitiv yuklamaning ishtirokchilarda sezilarli psixologik bosim uyg‘otganini ko‘rsatadi.

Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik: Kortizol ($r = 0.61$) va alfa-amilaza ($r = 0.54$) darajalari bilan NASA-TLX parametrlari o‘rtasida aniqlangan ijobiy korrelyatsiyalar sub’ektiv baholash va biokimyoviy markerlarning bir-birini to‘ldiruvchi diagnostik vosita sifatida ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, kortizol, sAA va s-IgA biomarkerlarini NASA-TLX sub’ektiv yuklama bahosi bilan birgalikda qo‘llash stressni kompleks tahlil qilish, kognitiv yuklamaning fiziologik va psixologik oqibatlarini chuqur baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv ish samaradorligini oshirish, kasbiy stressni kamaytirish va psixologik tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI/ REFERENCES

1. Kirschbaum, C., & Hellhammer, D. H. (1994). Salivary cortisol in psychoneuroendocrine research: Recent developments and applications. *Psychoneuroendocrinology*, 19(4), 313–333. [https://doi.org/10.1016/0306-4530\(94\)90013-2](https://doi.org/10.1016/0306-4530(94)90013-2)
2. Dickerson, S. S., & Kemeny, M. E. (2004). Acute stressors and cortisol responses: A theoretical integration and synthesis of laboratory research. *Psychological Bulletin*, 130(3), 355–391. <https://doi.org/10.1037/0033-2909.130.3.355>
3. Nater, U. M., & Rohleder, N. (2009). *Salivary alpha-amylase as a non-invasive biomarker for the sympathetic nervous system: Current state of research*. *Psychoneuroendocrinology*, 34(4), 486–496. <https://doi.org/10.1016/j.psyneuen.2009.01.014>
4. Bosch, J. A. (2002). Stress and secretory immunity. *International Review of Neurobiology*, 52, 213–253. [https://doi.org/10.1016/S0074-7742\(02\)52011-0](https://doi.org/10.1016/S0074-7742(02)52011-0)
5. McEwen, B. S. (2007). Physiology and neurobiology of stress and adaptation: Central role of the brain. *Physiological Reviews*, 87(3), 873–904. <https://doi.org/10.1152/physrev.00041.2006>
6. Hart, S. G., & Staveland, L. E. (1988). Development of NASA-TLX (Task Load Index): Results of empirical and theoretical research. In P. A. Hancock & N. Meshkati (Eds.), *Human Mental Workload* (Vol. 52, pp. 139–183). North-Holland. [https://doi.org/10.1016/S0166-4115\(08\)62386-9](https://doi.org/10.1016/S0166-4115(08)62386-9)
7. Hart, S. G. (2006). NASA-task load index (NASA-TLX); 20 years later. In *Proceedings of the Human Factors and Ergonomics Society Annual Meeting*, 50(9), 904–908. <https://doi.org/10.1177/154193120605000909>
8. Said, S., Gozdzik, M., Roche, T. R., Braun, J., Rössler, J., Kaserer, A., ... Tscholl, D. W. (2020). Validation of the Raw NASA-TLX Questionnaire to Assess Perceived Workload in Patient Monitoring Tasks: Pooled Analysis Study Using Mixed Models. *Journal of Medical Internet Research*, 22(9), e19472. <https://doi.org/10.2196/19472>

9. Rohleder, N., & Nater, U. M. (2009). *Determinants of salivary alpha-amylase in humans and methodological considerations*. Psychoneuroendocrinology, 34(4), 469–485. <https://doi.org/10.1016/j.psyneuen.2008.12.004>
10. Lupien, S. J., McEwen, B. S., Gunnar, M. R., & Heim, C. (2009). *Effects of stress throughout the lifespan on the brain, behaviour and cognition*. Nature Reviews Neuroscience, 10(6), 434–445. <https://doi.org/10.1038/nrn2639>
11. McEwen, B. S. (1998). *Protective and damaging effects of stress mediators*. New England Journal of Medicine, 338(3), 171–179. <https://doi.org/10.1056/NEJM199801153380307>
12. Rubio, S., Díaz, E., Martín, J., & Puente, J. M. (2004). *Evaluation of subjective mental workload: A comparison of SWAT, NASA-TLX, and Workload Profile methods*. Applied Psychology, 53(1), 61–86. <https://doi.org/10.1111/j.1464-0597.2004.00161.x>



EFFECTIVE STRATEGIES FOR MAINTAINING STUDENTS’ CONCENTRATION

Scientific adviser: Mukhtorova Mokhlaroyim Marufjon kizi

Teacher, Kokand University

moxlaroymuxtorova5@gmail.com

Usmonjonova Rukshonabonu Yusufjon kizi

Student, Kokand University

rusmonzonova@gmail.com

Annotation. This article explores some new and creative ways to help students concentrate better in today’s classrooms, which are full of distractions. Since many students now have shorter attention spans—mostly because of constant phone use, multitasking, and different learning needs—the old-fashioned teaching methods are often not enough anymore. To understand the problem more deeply, the article uses ideas from different fields like neuroscience, psychology, and teaching methods. It focuses on some main things that affect attention, such as too much sensory input (like noise and lights), getting tired from looking at screens all day, and not having lessons that fit each student’s learning style. To help with these problems, the article shares some unusual but useful methods. Some of them include changing the classroom environment by adjusting things like lighting, noise, or even using smells (like aromatherapy) to calm students. Other strategies involve mixing movement with learning, and planning lessons based on how the brain works best (neuroplasticity).

Key words: Student concentration, attention span, cognitive overload, digital distractions, neurodiverse learners, ADHD, sensory regulation, movement breaks, brain breaks, gamification, flipped classroom, mindfulness, visualization exercises, Artificial intelligence (AI), personalized learning, executive function, sensory-based classroom, learning engagement, cognitive fatigue, metacognition, self-regulation, intrinsic motivation, hybrid learning, digital multitasking, neuroscience-informed strategies, inclusive education, educational technology, interactive learning, student well-being

СТРАТЕГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ПОДДЕРЖАНИЯ КОНЦЕНТРАЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые и креативные методы повышения концентрации студентов в условиях современных аудиторий, наполненных множеством отвлекающих факторов. В условиях, когда у многих студентов наблюдается

снижение способности к концентрации — в основном из-за постоянного использования телефонов, многозадачности и различных образовательных потребностей — традиционные методы преподавания становятся уже недостаточными. Для более глубокого понимания проблемы в статье используются идеи из разных областей: нейронауки, психологии и педагогики. Основное внимание уделяется факторам, влияющим на внимание: избыток сенсорных раздражителей (шум, яркий свет), усталость от длительного взаимодействия с экранами, а также отсутствие подходов, учитывающих индивидуальные стили обучения студентов. Для решения этих проблем предлагаются нестандартные, но действенные методы. Например, изменение условий в аудитории — регулировка освещения, уровня шума или использование ароматерапии для успокоения учащихся. Также предлагаются стратегии, сочетающие физическую активность с учебным процессом, и планирование уроков с учетом особенностей работы мозга (нейропластичности).

Ключевые слова: концентрация студентов, продолжительность внимания, когнитивная перегрузка, цифровые отвлекающие факторы, нейроразнообразные учащиеся, СДВГ, сенсорная регуляция, двигательные паузы, «мозговые» перерывы, геймификация, перевернутый класс, осознанность, упражнения на визуализацию, искусственный интеллект (ИИ), персонализированное обучение, исполнительные функции, сенсорная учебная среда, вовлеченность в обучение, когнитивная усталость, метакогниция, саморегуляция, внутренняя мотивация, гибридное обучение, цифровая многозадачность, стратегии, основанные на нейронауке, инклюзивное образование, образовательные технологии, интерактивное обучение, благополучие студентов.

TALABALARNING DIQQATINI SAQLAB QOLISH BO‘YICHA SAMARALI STRATEGIYALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sinfxonalarda talabalar diqqatini oshirish va uni uzoqroq saqlab qolish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi va ijodiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda ko‘plab talabalar telefonlardan doimiy foydalanish, ko‘p vazifalik (multitasking) va turli xil o‘quv ehtiyojlar sababli diqqatni jamlashda qiynalmoqda. Shu sababli, an’anaviy o‘qitish uslublari ko‘plab holatlarda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Muammoni chuqurroq tushunish uchun maqolada nevrofan, psixologiya va pedagogika kabi turli sohalardagi yondashuvlar tahlil qilinadi. Talabaning e’tiboriga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ortiqcha sensor yuklama (shovqin, yorug‘lik va boshqalar), ekran qarshisida uzoq vaqt o‘tirishdan kelib chiqadigan charchoq va talabaning individual o‘rganish uslubiga mos kelmaydigan darslar keltirilgan. Mazkur muammolarga yechim sifatida maqolada g‘ayrioddiy, ammo samarali uslublar taklif etiladi. Masalan, sinf muhitini o‘zgartirish — yoritishni, shovqinni nazorat qilish, hatto aromaterapiyadan foydalanib talabalarni tinchlantirish. Shuningdek, jismoniy harakatni ta’lim bilan uyg‘unlashtirish, va miya qanday samarali

ishlashini hisobga olib darslarni rejalashtirish (neyroplastiklik) kabi yondashuvlar ham tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: talaba diqati, e’tibor doirasi, kognitiv yuklama, raqamli chalg‘ituvchilar, neyroturli o‘quvchilar, ADHD (SAVD), sensor muvozanat, harakatli tanaffuslar, miya tanaffuslari, gamifikatsiya, ag‘darilgan sinf, mindfulness, vizualizatsiya mashqlari, sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta’lim, ijro funksiyalari, sensor asoslangan sinf muhiti, o‘quv faolligi, kognitiv charchoq, metakognitsiya, o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya, gibrid ta’lim, raqamli ko‘p vazifalik, neyrofan asosidagi strategiyalar, inklyuziv ta’lim, ta’lim texnologiyalari, interaktiv o‘qitish, talabalar farovonligi.

Introduction. In today’s fast-changing and heavily digital world of education, keeping students focused has turned into a serious and complicated problem for teachers, course organizers, and education decision-makers. Even though we now have more access to information and technology than ever before, this huge amount of content has strangely caused people to feel mentally overloaded and made their attention spans much shorter. For example, one recent study from the University of California, Irvine (2023) found that the average global attention span is now only 47 seconds, which is a big drop from 2.5 minutes back in 2004. On top of that, students are spending almost 20% of class time doing things not related to school—like texting, scrolling on social media, or playing games on their devices. These distractions break their concentration, make memory worse, increase stress, and lower their ability to understand things deeply. The usual ways of dealing with this—like banning phones, making students stay silent, or sticking to memorization—don’t really solve the real reasons behind why students lose focus. While those methods might stop distractions for a short time, they don’t usually lead to long-term improvement in how students behave or how engaged they are with learning. Because of all these changes in how students learn today, teachers need to start using new and more flexible strategies that are backed by research. This article discusses several not-so-traditional but research-supported methods for helping students pay better attention. These include doing mindful exercises, learning with movement, using game-like features in lessons, adjusting the classroom for better sensory balance, flipping the classroom structure, and using AI to create more personalized learning experiences. By combining ideas from brain science, psychology, and how lessons are designed, this article wants to give teachers realistic and useful tools they can actually apply in the classroom. The goal is to help build learning spaces that are not only more focused but also more inclusive and interesting for all types of students. These strategies are meant to support both short-term academic results and longer-term student development.

Problem Overview. In the rapidly developing landscape of modern education, keeping students interested and helping them stay in school has become a major concern for teachers, school leaders, and institutions across the globe. Even though a lot of money and effort has gone into improving curriculum, school buildings, and teaching tools, one big problem still remains:

how to keep students truly focused and motivated for a longer period. Engagement is not just about showing up or answering questions in class, it's strongly connected to how well students do in school, how their thinking skills develop, and whether they are likely to drop out or continue studying. As Freeman et al. (2014) mentioned, students who are more involved in their own learning tend to stay in school and also get better grades (Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P.). However, getting students to stay engaged is becoming harder because of old-fashioned teaching methods and the increasing pressure on students' mental focus. One of the main problems is that many schools still rely on passive ways of teaching—like long lectures or tasks that are all the same for every student. These methods often don't catch students' attention or match the different ways that people learn [2]. They also give fewer chances for students to learn by doing things or through experience. This is especially hard for neurodiverse learners, who might need different kinds of support to take in and remember information properly. On top of that, digital distractions are making the issue worse. In a typical class, students look at their phones more than 11 times a day, and studies show that about 20% of class time is spent doing things not related to learning—like chatting or scrolling through social media. Being online all the time breaks their focus, lowers their short-term memory, and causes more stress, all of which make it harder for students to learn and stay calm. A recent report found that students who were distracted by devices during math classes scored 15 points lower than those who paid attention [3]. All of these facts show that using the same teaching style for every student and sticking to old classroom habits no longer fits what modern learners need. To fix falling engagement and help students stay in school, teachers need to change their methods. The answer is to use teaching styles that are more flexible, inclusive, and based on how the brain learns best. These kinds of methods should help students take part more actively, support different learning styles, and reduce the number of digital distractions during lessons.

Literature Review. More and more studies today are showing that improving concentration in education depends on many different things, such as personal differences between students, the way teachers teach, and how technology is used in the classroom. Barkley (2013), for example, focuses on students with attention-deficit/hyperactivity disorder (ADHD). He says that these students need special types of strategies that are made to help with their specific attention problems. He points out that using clear routines, clear instructions, and lessons that keep students actively involved can help these learners stay more focused [1]. For instance, when big tasks are broken into smaller steps and short breaks are added, it can improve attention by nearly one-third. What's interesting is that these methods not only help students with ADHD but also work well for others who have trouble concentrating, especially in busy or noisy classrooms. Taking this idea further, Rose and Dalton (2016) talk about something called the Universal Design for Learning (UDL). This framework suggests that teachers should use flexible and different types of teaching methods to reach students with many different learning needs [11]. According to UDL, it's good for teachers to show information in more than one

way, keep students interested with different types of activities, and let them show what they’ve learned in different formats. Studies show that using UDL can raise student participation by about 20% and can also lower off-task behavior in class. For example, a teacher might use a video, a hands-on activity, and also a short talk to help visual, auditory, and physical learners at the same time. This kind of method removes some of the common barriers to concentration and makes the classroom a place where more students feel involved and supported—this is especially important for students who have disabilities or language difficulties. Technology also has an important part to play in improving student focus. Kukulska-Hulme (2009) looks at how mobile learning tools like tablets and smartphones can help. When used carefully, these tools can actually improve motivation and attention by up to 40%.

For example, apps that offer quick quizzes or instant feedback make learning more fun and keep students interested. They also allow students to keep learning outside the classroom, practicing their skills wherever they are. But Kukulska-Hulme also warns that technology can become a big distraction if it’s not used properly. A survey from 2021 showed that 70% of students used apps unrelated to the lesson while in class, which hurts their concentration [6]. This shows how important it is for teachers to set clear rules and use technology in a way that adds to learning, not takes away from it. Another important idea comes from Krashen’s (1985) theory of subconscious learning. He says that students learn best when they are given material that is just a little harder than what they already know. This type of challenge helps them understand new things without getting too stressed. Krashen also believes that learning works better when students feel relaxed and don’t feel pressure to understand everything right away [7]. Teachers can follow this idea by bringing in new topics slowly and giving enough hints or examples so that students can figure things out naturally. For example, listening to short stories or conversations that are a bit above the student’s level helps them pick up new words and grammar without having to study them directly, which is good for both concentration and language growth. In the end, these studies make it clear that improving focus in education doesn’t have just one answer. Teachers need to use a mix of approaches. This includes giving special help to students who have trouble paying attention, using flexible teaching styles for all types of learners, and making sure technology is used in a smart and careful way. It’s also important to remember that concentration has both active and automatic sides. By building classroom environments that are supportive and inclusive, teachers can help students stay focused and reach deeper levels of learning. Putting together personal support, flexible planning, and careful tech use creates a strong base for helping students concentrate and succeed in the modern world.

Methods. To provide assistance with improving focus, many teachers are now trying out new strategies that go beyond the usual teaching styles. One useful method is giving students “**brain breaks**,” which are short pauses during class that let them reset. This idea comes from the Pomodoro Technique. For example, with younger students, even just five minutes of light stretching or breathing exercises can help refresh their minds and improve their focus [5].

Another interesting approach is creating sensory-friendly classrooms. These types of spaces may include things like soft background music, chairs with different textures, or calming smells such as lavender. These sensory details can make students feel more relaxed and ready to concentrate (Rose et al., 2016). It's a simple way to change the learning environment and support better attention in class. Gamification is also becoming more common in classrooms. This method makes learning feel more like a game by adding rewards and competition. For example, teachers might use leaderboards to track homework or use websites like Kahoot or Quizizz during quizzes. These tools give fast feedback and rewards, which helps keep students motivated. The brain releases dopamine during these activities, which can help students stay interested and focused on the task. There's also something called movement-based learning, where physical activity is added into the lesson. This might include walking around the classroom to read posters (called a gallery walk), doing active spelling games, or using stations for solving math problems. These kinds of lessons help get more oxygen to the brain, which can make students more alert and help with attention [8]. Flipped classrooms are another useful method. In this model, students learn some materials at home—like by watching videos—and then do practice in class. Adding quiet reading corners to this model gives students a chance to focus in a calm setting. This can really help students who are introverted or easily distracted, because they can learn at their own pace without feeling pressured. Technology also plays a big part in helping students concentrate. AI-based apps like *Classcraft*, *FocusMate*, and *Forest* can help students manage their time and attention better. These tools adjust lessons based on each student's focus habits and help reduce distractions [12]. Finally, some teachers begin class with short mindfulness or visualization sessions. Even just two minutes of deep breathing or quiet reflection can reduce stress and help students activate parts of the brain that control focus and emotions. Overall, these creative and research-based methods give teachers many good ways to support student attention in today's busy classrooms.

Results. Improving student awareness is very vital for successful learning, and recently, many new strategies have shown promising outcomes. These approaches—ranging from physical activity breaks to modern AI tools—are being supported by new studies, which show improvements in attention, motivation, and academic results. This section explains some of the expected benefits of each strategy, using possible data trends to show how they might help students concentrate better over time. One well-known method is giving students short breaks for movement or breathing exercises during class. These are usually planned pauses that help refresh the brain and lower tiredness. Studies show that such breaks can improve attention. For instance, early findings suggest that students who take part in movement breaks might see around 15–25% better test results over a few months. In one school, where five-minute breaks were included every 30 minutes, teachers noticed students were less restless and came back to their tasks more focused. The extra oxygen that comes from physical movement helps students stay alert longer. So, movement breaks can support both physical well-being and thinking skills, which then improves learning. Another effective strategy is the use of artificial intelligence (AI)

to give more personal learning support. Apps like *Classcraft*, *FocusMate*, and *Forest* help students follow study schedules and send reminders that match their attention habits. Research shows these tools lower distractions. In fact, nearly 75% of students said they lost focus less often when using AI-guided learning plans. These results show that tech can help create a more organized study environment that suits each student. Plus, AI apps often give quick feedback and positive messages, which pushes students to stay on task. Over time, these personalized systems can help students manage their focus better and build stronger learning habits. Gamification is another growing method that makes learning feel more like a game. It includes things like leaderboards or fun quizzes through tools like Kahoot or Quizizz. These offer instant results and rewards, which can release dopamine in the brain and make students feel more interested in their work. Researchers believe gamification can increase the time students stay focused, especially in longer class sessions around 60 minutes.

Ключевые слова: лингводидактический подход, цифровые технологии, цифровые приложения, цифровые средства, традиционная методическая последовательность

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUODIDACTIC APPROACH AND OPPORTUNITIES FOR ITS IMPLEMENTATION THROUGH DIGITAL APPLICATIONS

Annotation: In recent years, the rapid integration of digital technologies into the field of education has had a significant impact on foreign language teaching methodologies. The possibilities for using digital tools in the practical application of the lingvodidactic approach are particularly expanding.

This article discusses the essence of the lingvodidactic approach, its main components, as well as the mechanisms for implementing this approach through digital applications. The article justifies ideas related to communicative and learner-centered approaches to language teaching. The role of digital tools in reinforcing grammar and vocabulary is examined in detail.

Keywords: lingvodidactic approach, digital technologies, digital applications, digital tools, traditional methodological sequence.

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta‘lim sohasiga tobora chuqur kirib borishi chet tillarini o‘qitish metodikasiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, lingvodidaktik yondoshuvni amaliyotga tatbiq etishda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Zamonaviy raqamli vositalar lingvodidaktik yondoshuvni amalga oshirish uchun qulay platforma yaratadi. Bu texnologiyalar til o‘rgatishda talabning individual ehtiyojlariga moslashish, interaktivlikni oshirish, multimodal resurslardan foydalanish va o‘quv jarayonini motivatsiyalovchi elementlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Lingvodidaktik yondoshuv bugungi raqamli transformatsiya davrida o‘zining dolzarbligini yo‘qotmay, aksincha, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda samarali chet tilini o‘rgatish strategiyasiga aylanmoqda. Raqamli ilovalar tilga o‘qitishning nafaqat texnik vositasi, balki metodik qo‘llab-quvvatlovchi kuchi sifatida til o‘rganuvchining o‘quv motivatsiyasi va faoliyatini kuchaytiradi. Shu bois lingvodidaktik yondoshuvni raqamli muhitga muvaffaqiyatli tatbiq etish zamonaviy til ta‘limining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nemis olimlari G. Neuner va H. Hunfeld tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv kommunikativ til o‘rgatish tamoyillariga asoslanadi. Ular chet tilini o‘rganishda real hayotiy muloqot va madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishni ta‘kidlaydilar. *“Kommunikative Kompetenz bedeutet nicht nur korrekt zu sprechen, sondern sinnvoll in echten Situationen zu kommunizieren.”* Ularning fikricha, talabalar chet tilini mustahkamlash uchun u bilan faol muloqot qilishi, ya‘ni "tilni hayotda qanday ishlatish"ni o‘rganishi kerak.

Bu yondashuvda raqamli vositalar yordamida ro‘y beruvchi real muloqot (forumlar, videochatlar, interaktiv o‘yinlar) katta ahamiyatga ega. Rus olimi I.L. Bim lingvodidaktik yondashuvni tizimli va bosqichli o‘qitish modeli sifatida taklif etadi. U chet tilini o‘qitishda grammatika, lug‘at, talaffuz va madaniyatni ketma-ketlik asosida o‘rgatishni taklif etadi. Uning

darsliklari Rossiya maktablarida keng qo‘llanilgan va har bir sinf uchun alohida metodik yondashuv ishlab chiqilgan. “O‘quvchining tilni o‘zlashtirish jarayoni oldindan rejalashtirilgan bosqichlarga tayanishi lozim. Har bir bosqichda metodik vazifalar aniq belgilangan bo‘lishi kerak.”

Ushbu yondashuv texnologik vositalardan foydalanishga ham imkon beradi, ammo ularni ko‘proq mustahkamlovchi materiallar sifatida tavsiya etadi.

Germaniya maktabi (Neuner, Hunfeld)- muloqot va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga urg‘u beradi, raqamli texnologiyalarni interaktivlik va real muloqotni kuchaytirish vositasi sifatida ko‘radi.[2]

Rossiya maktabi (Bim)- til o‘rganishning metodik ketma-ketligiga tayanadi, raqamli vositalarni grammatika va leksikani mustahkamlovchi qulay qo‘shimcha vosita deb hisoblaydi.[1] So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta‘lim sohasiga chuqur kirib kelgani natijasida xorijiy til o‘qitish jarayonida yangi metodik yondashuvlarga ehtiyoj ortdi.

Ayniqsa, **lingvodidaktik yondoshuv** zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilganida, til o‘rganish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Germaniyalik olimlardan Margret Berns raqamli vositalar yordamida til o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Lingvodidaktika – bu chet tillarni o‘qitishning tilshunoslik va didaktika bilan uzviy aloqadorligini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishdir. Neuner & Hunfeld va Bim tomonidan lingvodidaktikaning asosiy vazifasi - chet tilini o‘rgatish jarayonida til birliklari bilan birga madaniy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantirishi ta‘kidlanadi. **V.A. Bukhbinder** va **I.L. Bim** o‘z tadqiqotlarida lingvodidaktik yondoshuvning asosini til vositasida fikrlash, muloqot qilish va madaniyatni tushunishga qaratilganligi bilan izohlaydi. **H.G. Widdowson** esa bu yondashuvni chet tilini real kommunikativ vaziyatda qo‘llash imkoniyatini yaratadigan metodik konsepsiya sifatida baholaydi.[3] Bu borada O‘zbekistonlik izlanuvchilar **Sh.R. Sirojiddinov** va **N. Toshboyevalar** xorijiy til o‘qitishda kommunikativ yondoshuvni axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan birlashtirish zaruratini asoslab beradilar. **A. Yo‘ldoshev** raqamli pedagogika sharoitida multimodal til ta‘limining o‘rni haqida ilmiy maqolalar chop etgan. **N. Bahodirova** va boshqalar raqamli ilovalar yordamida xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishgan.

Lingvodidaktik yondoshuv raqamli vositalar bilan uyg‘unlashgan holda interaktiv, multimodal va individual yondashuv asosidagi ta‘limni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, lingvodidaktik yondoshuv zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda xorijiy til ta‘limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa talabalarda mustaqil fikrlash, interaktiv ishtirok va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, bu yondoshuvni metodik asosda chuqurlashtirish va zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish til ta‘limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish uchun quyidagi nazariy, empirik va diagnostik tadqiqot usullari qo‘llanildi: adabiyot tahlili, taqqoslash, yondashuvlarni tushunish,

asoslash, so‘rovnoma, suhbat, eksperiment, raqamli metodlarning amaliy ta‘sirini aniqlash. Testlar, kuzatuv, kontent-tahlil

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Germaniya maktabi (Neuner, Hunfeld): til o‘rgatishda kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ilgari suradi. Bu yondashuvda raqamli texnologiyalar o‘quvchini faol ishtirok etishga, muloqotga kirishga va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashga yo‘naltirilgan vosita sifatida qaraladi. Interaktiv platformalar, simulyatsiyalar, suhbat botlari kabi vositalar bu maqsadga xizmat qiladi.

Rossiya maktabi (Bim): til o‘rgatishda an‘anaviy metodik ketma-ketlikni, ya‘ni fonetika, grammatika, leksika, keyinroq muloqotni saqlab qoladi. Bu yondashuvda raqamli texnologiyalar yordamchi vosita sifatida, ya‘ni mashqlarni avtomatlashtirish va mustahkamlash uchun foydalaniladi. Asosiy e‘tibor strukturaviy yondashuvga qaratilgan.

Margret Berns til o‘rgatishda raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini o‘rganadi. U, raqamli ilovalar yordamida tilni o‘rganishda shaxsiylashtirilgan, differensial yondashuvni ilgari suradi. Bu yondashuvda o‘quvchi o‘ziga qulay tempda, o‘z ehtiyojlariga mos kontent orqali tilni o‘zlashtiradi.

Tobias Götz esa raqamli ta‘lim vositalarining o‘quvchilar motivatsiyasiga ta‘sirini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarda o‘qitish o‘quvchining ishtirokchiligini oshiradi, ijtimoiy o‘zaro aloqani kuchaytiradi va til o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi. Til o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda bir yoqlama yondashuvdan ko‘ra, integratsiyalashgan va talabaning ehtiyojlariga moslashuvchan metodikani muhim deb hisoblayman. Germaniya maktabi vakillari Neuner va Hunfeld tomonidan ilgari surilgan kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda yanada samarali tus olmoqda. Ayniqsa, til o‘rganish jarayonida talabaning shaxsiy faolligi, qiziqishi va real muloqotga tayyorligi asosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda. Bu jihatlar raqamli vositalarning, xususan, interaktiv platformalar, videodarslar, suhbat simulyatorlari orqali to‘liq amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, Rossiya maktabining, xususan, Bim tomonidan asoslangan strukturaviy-metodik yondashuvi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, raqamli vositalar yordamida grammatika va leksika bo‘yicha mashqlarni avtomatlashtirish, adaptiv testlar orqali bilim darajasini aniqlash imkoniyati bu yondashuvni zamonaviylashtiradi va uni amaliyotga moslashtiradi.

Germaniyalik olimlar Margret Berns va Tobias Götz tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat ta‘lim jarayonining vositasi, balki uning mazmunini o‘zgartiruvchi kuchga ham ega. Berns til o‘rgatishda moslashtirilgan, individual yondashuvni asoslab bergan bo‘lsa, Götz aynan raqamli o‘quv muhiti orqali o‘quvchining motivatsiyasini oshirish imkonini ochib beradi. Bu fikrlardan kelib chiqib, o‘z kuzatuvlarimizni umumlashtiramiz, o‘z nemis tili darslarimizda raqamli vositalar orqali talabalarning mustaqil o‘rganish, o‘zini baholash, va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayishini kuzatganmiz.

XULOSA

Integratsiyalashgan yondashuv zarurati: Bugungi kunda nafaqat kommunikativ, balki strukturaviy yondashuv elementlarini ham o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan metodika kerak. Bunda raqamli texnologiyalar o‘rganishni faollashtiruvchi, mustahkamlovchi, hamda motivatsiyani oshiruvchi vosita sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin. Yangi lingvodidaktik paradigma: Berns va Götz kabi olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli vositalar yordamida individga yo‘naltirilgan, kontekstual, va motivatsion jihatdan boy til o‘qitish uslublari shakllanmoqda.

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimiga raqamli texnologiyalar jadal kirib kelganligi sababli, faqatgina bir yondashuvga suyanish yetarli bo‘lmay qoldi. Bu holat lingvodidaktikada integrativ va moslashuvchan yondashuvlarga ehtiyojni oshirdi.

Raqamli vositalar nafaqat o‘rganish samaradorligini oshirishga, balki talabaniing til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, multimodal materiallar, real vaqtda fikr almashish imkoniyatlari, gamifikatsiya elementlari o‘quv jarayonini jonlantiradi.

Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar bir-biriga qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi sifatida qaralishi kerak. Raqamli texnologiyalar esa bu yondashuvlarni uyg‘unlashtirishda ko‘prik vazifasini bajaradi. Chet tilini o‘qitishda nafaqat bilim berish, balki talabaniing fikrlashi, muloqotga kirishishi va til vositasida o‘zini ifodalashi uchun qulay raqamli muhit yaratish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bim, I.L. (2001). Lingvodidaktika: chet tilini o‘qitish metodikasi asoslari. Moskva. Prosveshchenie.
2. Neuner, G., & Hunfeld, H. (1993). Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Langenscheidt.
3. Widdowson, H.G. (1978). Teaching Language as Communication. Oxford University Press.
4. Warschauer, M. & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(1), 57-71.
5. Kukulska-Hulme, A. (2012). Language learning defined by time and place: A framework for next generation designs. Mobile learning: Piloting and small scale implementation.



UDK 370.1

ORCID: [0000-0002-6558-1059](https://orcid.org/0000-0002-6558-1059)

KELAJAK MUTAXSISINING EKOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Minovarov Adixam Anvarovich

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti mustaqil tadqiqotchisi
a.minovarov@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelajak mutaxassisining ekologik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari yoritilgan. Maqolada ekologik kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari, zamonaviy ta'lim muhitida ekologik tarbiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda ekologik ong va mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Kelajak mutaxassisida ekologik madaniyatni shakllantirishda integrativ, interaktiv va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik kompetensiyani rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, faol o'qitish metodlari va real hayotiy muammolarga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarining dolzarbligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ekologik kompetensiya; "Inson-Tabiat-Jamiyat" tizimidagi munosabatlar; fanlararo yondashuv; ekotizim vazifalari; universitetning ta'lim maydoni; bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические условия формирования экологической компетентности будущего специалиста. Анализируются сущность и содержание понятия «экологическая компетентность», её структурные компоненты, а также значение экологического воспитания в современном образовательном пространстве. Рассматриваются эффективные методы и подходы, способствующие развитию экологического сознания и ответственности в педагогическом процессе. Обоснована роль интегративного, интерактивного и компетентностного подходов в формировании экологической культуры у будущих специалистов. По результатам исследования подчёркивается актуальность использования современных педагогических

технологий, активных методов обучения и учебных заданий, ориентированных на реальные жизненные проблемы, для развития экологической компетентности.

Ключевые слова: экологическая компетентность; взаимоотношения в системе «Человек-Природа-Общество»; междисциплинарный подход; функции экосистемы; образовательное пространство университета; подготовка будущих специалистов.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING THE ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS

Abstract: This article highlights the pedagogical conditions for developing the ecological competence of future specialists. It analyzes the concept of ecological competence, its essential meaning and components, and the importance of environmental education in modern educational environments. The study explores effective methods and approaches that foster ecological awareness and responsibility in the teaching process. The role of integrative, interactive, and competency-based approaches in shaping ecological culture among future professionals is substantiated. Based on the research findings, the relevance of modern pedagogical technologies, active teaching methods, and real-life problem-based learning tasks in enhancing ecological competence is emphasized.

Keywords: ecological competence; relationships in the “Human-Nature-Society” system; interdisciplinary approach; ecosystem functions; university educational environment; training of future specialists.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti (davlat, jamiyat), ta'lim tizimini rivojlantirishning ma'lum bir yo'nalishini belgilaydi. Yigirmanchi asr oxiri tadqiqotchilari va pedagoglari va bizning zamondoshlarimiz ekologik faol shaxsni shakllantirish uchun bo'lajak mutaxassisning "yo'nalishini yanada faolroq rivojlantirish kerak bilimlarning fanlararo hamkorligiga va bitiruvchilarning ekologik tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan universitet ta'limi" dir.

Kelajak mutaxassislarining ekologik kompetensiyasini shakllantirishda samarali pedagogik shartlarni aniqlash, ularni ilmiy asoslash va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarda ekologik ong, mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Hamma davrlarda ham ta'lim maqsadlari hayot maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan jamiyat, davlat, tsivilizatsiya va zamonaviy dinamik jamiyat "o'z qahramonlarini talab qiladi". Analitik va prognostik qobiliyatga ega, ekotizim tafakkurini rivojlantirgan, barqaror maqsadlarga erishishga intiladigan mutaxassisni shakllantirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim natijalari tizimida ekologik kompetensiya "har qanday mutaxassisning immanent sifati" bo'lgan ekologik savodxonlikdan ekologik madaniyatga o'tishdagi qadamdir. Uni

shakllantirish oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni kasbiy tayyorlashning majburiy qismi hisoblanadi. Aslida, ekologik kompetensiya mutaxassisning (har qanday profildagi) shaxsiy va kasbiy faoliyatining atrof-muhitga yo‘naltirilgan yo‘nalishini belgilaydi. U shaxsning "Inson - Jamiyat - Tabiat" tizimidagi munosabatlarni tushunishida ifodalanadi; atrofdagi tabiiy va ijtimoiy dunyo va o‘zi bilan uyg‘unlikka erishish uchun faol ijodiy faoliyatga tayyorlikda; ekologik muammolarni aniqlash, hal qilish va oldini olish jarayonida yashash muhitini (so‘zning keng ma‘nosida tushuniladi) amaliy jihatdan yaxshilashga e‘tibor qaratish. Ekologik kompetensiyaning asosi fikrlashning tizimli va bashoratli tabiati va hayotga qadriyatlarga asoslangan mas‘uliyatli munosabatdir[1].

Ekologik kompetensiya kasbiy xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, uni o‘qiyotgan talabalar doirasida rivojlantirish mumkin. Ta‘lim jarayoniga “Eko-misollar”ni joriy etish va mohiyatan fanlararo xarakterga ega bo‘lgan ekologik yo‘naltirilgan vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, kelajakdagi mutaxassislarni atrof-muhitning turli jihatlarini bilan tanishtirishga yordam beradi. o‘zaro ta‘sir; ikkinchidan, o‘quvchilarning bir qator umumiy o‘quv va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, insonning atrofdagi (tabiiy-ijtimoiy) voqelik bilan chuqur o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi o‘quv fanlari bo‘lajak mutaxassis (talaba)ning kasbiy tayyorgarligi jarayonida o‘rganishga qanchalik ko‘p taqdim etilsa, uning ekologik kompetensiyasi va ekotizim tafakkurini shakllantirish jarayoni shunchalik uyg‘un bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulot - bu mumkin bo‘lgan faoliyatning yana bir turi bo‘lajak mutaxassis (talaba)ning ekologik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish muammosini hal qilish. Bo‘lajak mutaxassislarning ekologik kompetensiyasini shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish (topshiriqlarni ishlab chiqish orqali) lozim[2].

Ekologik vazifalarni ishlab chiqish bo‘lajak mutaxassisning atrofdagi tabiiy va ijtimoiy dunyo uchun shaxsiy javobgarligini anglash yo‘li va o‘zining ekologik toza xulq-atvori va turmush tarzini shakllantirish uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qildi. Boshqa tomondan, ta‘lim mazmunini ko‘klamzorlashtirish va turli mutaxassislik talabalari o‘rganayotgan fanlar bo‘yicha Barqaror rivojlanish g‘oyalarini hayotga tatbiq etish vazifalari hal etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida fanlararo loyihalar (kurs, diplom, magistrlik dissertatsiyalari), ilmiy-amaliy ekologiya (shahar, hududiy va boshqalar) loyihalarini amalga oshirish mumkin. Turli mualliflarning g‘oyalarini ilmiy-pedagogik tahlil qilish va o‘z pedagogik tajribasini umumlashtirish kelajakdagi mutaxassisning (uning kasbiy sohasidan qat‘i nazar) ekologik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini tashkil etishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan bir qator asosiy pozitsiyalarni aniqlashga imkon beradi:

Hamma narsada tizimlilik tamoyilini amalga oshirish: ham atrofdagi voqelikning turli jihatlarini ko‘rib chiqishda (har qanday hodisani tahlil qilishda global, mahalliy va shaxsiy darajalar o‘rtasidagi munosabatlar, muammo) va pedagogik jarayonning o‘zini tashkil etishda. Bu, bir tomondan, “Inson-Tabiat-Jamiyat” munosabatlarining birligiga asoslangan tizimli

tafakkurning shakllanishini nazarda tutadi; bilimlarni shaxsiy hisobga olish darajasidan mintaqaviy darajaga, keyin milliy, davlat va xalqaro darajaga o‘tkazish imkonini beradigan bunday faktlar va tushunchalarni turli o‘quv fanlari tarkibiga kiritish. Va aksincha, global ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ko‘rib chiqishni shaxsning (talaba, mutaxassis) ularni "joyida" hal etishda (o‘z shahrida, uning kasbiy faoliyati, shaxsiy yashash joyida) mumkin bo‘lgan ishtiroki bilan birlashtirish. Boshqa tomondan, tizimlilik printsipli inson, jamiyat va tabiatning shaxsning hissiy va amaliy sohalarining rivojlanishi bilan o‘zaro ta‘sir haqidagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishning organik birligini nazarda tutadi. "Bilim, ko‘nikma (qobiliyat) + munosabat" algoritmi talabaning (kelajak mutaxassisining) ekologik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik jarayonini tashkil etish va amalga oshirishda eng muhimlaridan biridir. Bu erda nafaqat zamonaviy global va ekologik muammolar, ularning paydo bo‘lish sabablarini bilish, balki insonning / bo‘lajak mutaxassisning boshqa odamlar, butun jamiyat bilan munosabatlarini shakllantirish, uning faol hayotiy pozitsiyasini va o‘ziga nisbatan munosib munosabatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Fundamental ilmiy bilimlar/fanlarni gumanitar bilimlar bilan integratsiyalashuviga asoslangan fanlararo yondashuv tizimli tafakkurni rivojlantirish, demak, eko kompetentlikni shakllantirishning zaruriy shartidir. Ta‘lim sohasidagi tadqiqotchilarning so‘zlariga ko‘ra, "mutaxassislar uchun ekologik ta‘limning monodisipliner versiyasi" allaqachon o‘z foydaliligini yo‘qotdi va atrof-muhit muammolarini yoritishda fanlararo yondashuv umumiy qabul qilinishi kerak. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar birlashgan "Inson-Tabiat-Jamiyat" tizimida mavjud bo‘lgan munosabatlar va murakkab o‘zaro munosabatlarning "umumiy manzarasi"ga o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak[3].

Kadrlar tayyorlashning bashoratli yo‘nalishini kuchaytirish: ta‘limni "ilg‘or" qilish, uni kelajakka moslashtirish, turli omillar ta‘sirida va ular bilan o‘zaro ta‘sir qilish natijasida tizimlarning (tabiiy va ijtimoiy) yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan istiqbollari, prognozlari va rivojlanish variantlarini o‘rganishga ko‘proq e‘tibor qaratish. Mumkin bo‘lgan yechimlar va oqibatlar uchun variantlarni bashorat qilish va modellashtirish qobiliyati kelajakda mutanosib professional va shaxsan muhim qarorlar qabul qilish va barqaror rivojlanish g‘oyalarini amalga oshirish uchun mustahkam asosdir.

O‘qitishning izlanish, muammoli tadqiqot yo‘nalishini kuchaytirish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish yuqorida aytilgan shart-pozitsiyani amalga oshirish bilan juda chambarchas bog‘liq va dinamik rivojlanayotgan ijtimoiy va raqamli haqiqatda zamonaviy inson hayotining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Kelajakka moslashtirilgan ta‘lim insonni mavjud vaziyatni har tomonlama (tizimli) ko‘rishga o‘rgatishi kerak; mumkin bo‘lgan rivojlanish oqibatlarini bashorat qilishni, oldindan ko‘rishni o‘rgatish; muammolarni shakllantirish, ularning aralash tabiatini ko‘rish va noaniqlik sharoitida ularni samarali hal qilish yo‘llarini topishga o‘rgatish; tez o‘zgaruvchan sharoitlarda yashashga tayyor bo‘lish; insonning (kelajak mutaxassisining) atrofdagi tabiiy va ijtimoiy voqelik bilan suboptimal, uyg‘un o‘zaro munosabatlarini modellashtirish va qurishga o‘rgatish lozim.

Shaxsning (talaba, bo‘lajak mutaxassis) yuksak axloqiy me‘yorlari va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish: iste‘molchining atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhitga munosabatini qiymatga asoslangan munosabatga o‘zgartirish; uchun shaxsiy va jamoaviy javobgarlikni rivojlantirish hozirgi va kelajak; umumiy muammolar bo‘yicha qo‘shma qarorlarni qidirish / qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish; ekologik muammolarni hal qilish va oldini olish bo‘yicha faol pozitsiya; tabiiy-ijtimoiy dunyoning boshqa elementlari bilan ijodiy o‘zaro munosabatlarga e‘tiborni rivojlantirish zarur[4].

Oliygo‘hning ta‘lim maydonini tegishli tarzda tashkil etish/yaratish. Oliygo‘h (har qanday ta‘lim muassasasi kabi) fazoviy va vaqtinchalik chegaralar bilan tavsiflanadi, bunda o‘qituvchilar, talabalar, Oliygo‘h ma‘muriyati va boshqalar munosabatlarga kirishadi. Ushbu o‘zaro ta‘sir jarayonida madaniy makon yaratiladi. Ekologik madaniy shaxsni shakllantirish, albatta, tegishli ekologik-madaniy muhitni yaratishni nazarda tutadi. Shuning uchun u oliygo‘hning ta‘lim maydoni sub‘ektlari munosabatlarining tabiati va mazmuni: talabalar, o‘qituvchilar, oliygo‘h ma‘muriyati – bo‘lajak mutaxassisning ekologik madaniyati va ekologik kompetensiyasini shakllantirishning yetakchi omillaridan biridir. Bu munosabatlar maydoni talabalar faoliyatining barcha sohalarida (o‘quv, amaliy, tadqiqot, bo‘sh vaqt) yaratiladi.

Fazoviy-ekologik yondashuv doirasida ta‘lim jarayonining "protsessual" xususiyatlariga alohida e‘tibor berish muhim, shuning uchun bo‘lajak mutaxassis (talaba)ning ekologik kompetensiyasini shakllantirishda uning mazmunli va protsessual tarkibiy qismlarida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan pedagogik o‘zaro ta‘sirning plyuralizmi, xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi juda zarur. O‘quv jarayonini tashkil etishda ijodiy topshiriqlar bilan samarali, interfaol usullar, mini-tadqiqotlar o‘tkazish, darslarni tashkil etishning turli shakllari (muammoli ma‘ruzalar, konferensiyalar, davra suhbatlari va boshqalar), talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirish ajralmas holga aylanmoqda. Bu yerda asosiy narsa - shaxsiy javobgarlik, o‘z faoliyat tajribasini aks ettirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat, muloqot, fikrlash va ijod erkinligi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik kompetensiyani shakllantirish jarayonida ta‘limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini qayta ko‘rib chiqish dolzarbdir. Pedagogik shartlar — ekologik yo‘naltirilgan o‘quv muhitini yaratish, faol va interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, talabalarda ekologik tafakkur va mas‘uliyatni shakllantirish — ekologik kompetensiyaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgan ta‘lim jarayoni kelajak mutaxassislarini ekologik jihatdan ongli va ijtimoiy mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хасанова Г.Ж. Экологическая культура: формирование личности будущего специалиста. – Ташкент: Fan, 2021.

2. Usmanova G. K., Jumanova L. A. Bolalar va o'smirlar salomatligining shakllanishi, ularning ta'lim faoliyati gigiyenasi //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-16.
3. Абдуллаева М.Р. Ekologik ta'lim va tarbiya metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Усманова Г.К. РЕГИОНАЛЬНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ // Теория и практика современной науки. 2019. №2 (44). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/regional-environmental-problems-and-their-solutions>.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
6. Usmanova G. Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati //Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 4. – С. 129-129.
7. Қурбонов А.К., Камилова Н. Экологик билим ва тарбияни шакллантиришда инновацион ёндашувлар. – "Таълимда инновациялар" журналы, 2020, №2, б. 45–50.
8. Мирзаева Н.А. Oliy ta'lim muassasalarida ekologik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. – "Pedagogika va psixologiya", 2022, №4.



UDK 370.2

<https://orcid.org/0000-0001-8023-5878>

TARJIMA FAOLIYATINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Yusupova Nargiza Abdulxafizovna
Xalqaro Nordik Universiteti doktoranti
yusupovanargiza9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima faoliyatining xorijiy tilni o‘qitishdagi o‘rni, xususan, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi zamonaviy metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy asoslar sifatida Hymes(1972), Canale & Swain (1980), Guy Cook (2010) kabi olimlarning ishlari va respublikamiz metodistlarining qarashlari keltiriladi. Maqolada shuningdek, tarjima usullarining an’anaviy va noan’anaviy metodlar bilan uygunligi, ularning tilni o‘rganishda ijobiy ta’siri va didaktik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima faoliyati, kommunikativ kompetensiya, tarjima usullari, til o‘rgatish metodikasi, so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima, kommunikativ yondashuv, akademik litsey, xorijiy tilni o‘qitish.

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль переводческой деятельности в обучении иностранному языку, в частности, её современные методические возможности в развитии коммуникативной компетенции учащихся. В качестве научной основы приводятся труды таких ученых, как Хаймс (1972), Канале и Суэйн (1980), Гай Кук (2010), а также взгляды методистов Узбекистана. В статье также анализируется согласование методов перевода с традиционными и нетрадиционными подходами, их положительное влияние на процесс изучения языка и дидактическое значение.

Ключевые слова: переводческая деятельность, коммуникативная компетенция, методы перевода, методика преподавания языка, дословный перевод, свободный перевод, коммуникативный подход, академический лицей, преподавание иностранного языка.

MODERN OPPORTUNITIES OF TRANSLATION ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract: This article analyzes the role of translation activity in foreign language teaching, with particular focus on its modern methodological potential in developing students' communicative competence. As a scientific basis, the works of scholars such as Hymes (1972), Canale & Swain (1980), and Guy Cook (2010) are discussed, along with the perspectives of Uzbek methodologists. The article also explores the compatibility of translation methods with traditional and non-traditional approaches, highlighting their positive effects and didactic significance in language learning.

Keywords: translation activity, communicative competence, translation methods, language teaching methodology, literal translation, free translation, communicative approach, academic lyceum, foreign language instruction.

KIRISH

Tarjima insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo‘lib, turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi globallashuv jarayonida esa tarjima nafaqat lingvistik ko‘prik, balki ilm-fan, texnologiyava madaniyat almashinuvi vositasi sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois tarjima usullarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik va metodik tadqiqotlar uchun dolzarb masalalardan biridir. Ushbu ishda tarjimaning asosiy usullari, ularning amaliyotda qo‘llanishi va ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarjima haqida turli qarashlar mavjud. Respublikamiz olimlaridan Olim Shukurov (Tarjima nazariyasi va amaliyoti-2019 asarida) “Tarjima faoliyati tilning tuzilishini, grammatik birliklar orasidagi o‘zaro munosabatni va mantiqiy tafakkurni shakllantiruvchi kuchli vositadir. Ayniqsa, xorijiy tilni o‘rganishda ona tilidan foydalanish asosida o‘rganilayotgan tilning mohiyati chuqurroq anglanadi.”

M. Ziyayeva (2022, “Tarjima faoliyatining xorijiy til o‘rgatishdagi roli” maqolasida) “Xorijiy tilni o‘rgatishda tarjima metodlaridan foydalanish tilshunoslik va kommunikatsiya fanlarining kesishgan nuqtasidir. O quvchi tarjima orqali o‘rganilayotgan tilning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlarini mukammal anglaydi.”

N. Jurayevning (2021) fikricha “Aniq fanlar bo‘yicha tarjima qilish til va fan integratsiysiyasining eng samarali vositalaridan biri. O‘quvchilar matnni tarjima qilarkan , nafaqat lugat boyligini, balki ilmiy tafakkurni ham rivojlantiradi.”

D. Yusupova (2020)ning fikriga ko‘ra “Tarjima jarayoni o‘quvchining tanqidiy fikrlashi, kontekstida tushunishi va mazmunni boshqa til vositalari bilan ifodalash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Bu esa kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.”

Xorijiy olimlarning fikrlaridan Susan Bassnett (University of Warwick, Translation Studies mutaxassisi, Translation Studies 4th edition, 2014 asarida) “Tarjima bu til o‘rganishning asosi sifatida qadimdan mavjud. U o‘rganilayotgan tilning madaniyati va tuzilmasini anglash uchun eng yaxshi vositalardan biri hisoblanadi. Tarjima orqali o‘quvchi tilni to‘g‘ridan -tog‘ri muloqot

darajasida o‘zlashtira boshlaydi.” Peter Newmarkning (1988 A textbook of Translation asarida) fikricha Tarjima bu tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi vosita .Ayniqsa kommunikativ va semantik tarjima usullari til o‘rganish jarayonida real muloqotni taqlid qiladi.”

Guy Cook(2001Applied Linguistics asarida) fikricha “Tarjima ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun referens(asos) sifatida ishlaydi. Bu nafaqat tilni o‘rganishni, balki fikrlashni ham ikki tilda o‘rganishga olib keladi.”

Jeremy Munday (2016 Introducing Translation Studies asarida)ning fikricha “Tarjima- bu faqat til o‘zgartirish emas, balki lingvistik transformatsiya, kognitiv jarayon, interaktiv muomaladir. U til o‘rganishning noan‘anaviy, ammo samarali metodlaridan biridir “deb ta’kidlaydi.

Juliane House (1997 Translation Quality Assessment asarida)ning fikriga ko‘ra “Tarjima o‘rganilayotgan til va madaniyatni mukammal tushunishga olib boradi.Bu jarayon kommunikativ kompetensiyaning barcha jihatlarini rivojlantiradi: fonetik, pragmatik, lingvistik.”

Tarjima- bu o‘quvchining ikki tildagi tafakkurini uygunlashtiruvchi vosita . U lingvistik kompetensiyani, muloqotga tayyorlik darajasini, intercultural va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Tarjima metodlari faol ta’lim texnologiyalari(collaborative learning, peer feedback, scaffolding) bilan birgalikda o‘quvchining kompetensiyalarini samarali shakllantiradi. Tarjima jarayoni o‘qituvchi uchun ham til o‘rgatishda nazorat, tahlil, va refleksiya imkoniyatini yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarjimaning usullari pedagogik jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tarjimaning asosiy usullari (P. Newmark, S.Bassnett,J.House asosida) 1.1. jadvalda berilgan:

Uslub nomi	Ta’rifi	Maqsadi
So‘zma-so‘z tarjima	Har bir so‘zga grammatik jihatdan mos tarjima qilish	Grammatik va sintaktik tuzilmani anglash
Erkin tarjima	Asosiy mazmunni erkin, uslubiy jihatdan moslashtirib tarjima qilish	Kontekstda mazmunni to‘g‘ri anglash
Kommunikativ tarjima	O‘quvchi yoki tinglovchi uchun tushunarli shaklda tarjima qilish	Real muloqotni imitatsiya qilish
Orqaga tarjima (back translation)	Tarjima qilinganmatnni yana asl tilga tarjima qilish	Xatolarni anglash, tahlil qilish
Dinamik/funksional Ekvivalentlik	Mazmunni boshqa til madaniyatiga mos ravishda ifodalash	Madaniy moslikni saqlash
Audiovizual tarjima	Subtitrlash,dubbing, ssenariy tarjimasi	Eshitish-ko‘rish orqali o‘rganish

Tarjima usullarining pedagogik jarayondagi roli beqiyosdir:

1. Til o‘rgatishdagi samaradorlik. Tarjima orqali grammatika, lugat boyligi, stilistik tafovutlar, va mazmuniy tahlil bir vaqtda o‘rganiladi/ Ayniqsa so‘zma-so‘z va orqaga tarjima usullari o‘quvchining tahliliy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Susan Bassnett

2014) ham buni ta’kidlagan “Tarjima usullari til o‘rgatuvchi vosita sifatida nafaqat bilim, balki fikrlashni shakllantiradi.”

2. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Kommunikativ trjima o‘quvchini real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi. O‘quvhcilar suhbat, dialog, topshiriqlar, muomala stsenariylari asosida tarjima qilish orqali muloqotga kirishish va nutq madaniyatini shakllantiradi. Ilmiy asos : “Communicative translation reflects natural discourse and supports L2 acquisition.”-Peter Newmark, 1988

3. Fanlararo integratsiya. Aniq fanlarda(fizika, matematika, informatika) o‘rganilgan matnlarni tarjima qilish orqali fan va til birlashadi.

Bu ESP(English for Specific Purposes) asosidagi yondashuvga mos tushadi.Bu fikrga isbot tariqasida mahalliy olimlarimizdan N. Jurayev, (2021) “Aniq fanlar terminlarini tarjima qilish orqali o‘quvchilar xalqaro ilm-fan kontekstida mustahkam asosga ega bo‘ladi “ deb hisoblaydi.

4.Madaniy kompetensiyani shakllantirish.

Juliane House takidlaganidek,(“Translation builds intercultural awareness and pragmatic flexibility.”) Erkin va funksional ekvivalentlik usullari orqali o‘quvhci ikki til madaniyati orasidagi farqni ko‘radi va mos tarjima variantini tanlashni o‘rganadi.

5. Kognitiv (fikrlash) rivojlanishiga ta’siri.

Guy Cook, 2001 takidlaganidek :(“Tarjima bu tanqidiy fikrlash va tafakkurni rivojlantiradigan kognitiv jarayon hisoblanadi.”) Tarjima qilish mantiqiy fikrlash, tushuncha tahlili, sabab -oqibat aloqalarini shakllantiradi. Ayniqsa orqaga tarjima o‘quvchini mustaqil xatolarni aniqlash, muqobil variantlarni toppish, va qayta ishlashga majbur qiladi.

Tarjima usullari asosida darsning pedagogik afzalliklari 1.2. jadvalda berilgan:

Tarjima usuli	O‘quvchida shakllanadigan ko‘nikma	Pedagogik afzalliklari
So‘zma-so‘z	Grammatika, tahlil,aniqlik	Aniq sintaktik strukturalarni tushunadi
Erkin	Kontekstda fikr bildirish	Moslashuvchanlik, ijodiy fikr
Kommunikativ	Nutqiy vaziyatga mos tarjima	Real hayotga tayyorlaydi
Orqaga tarjima	Mustaqil tekshiruv, xatolarni aniqlash	O‘z- o‘zini baholashni o‘rgatadi
Funksional ekvivalentlik	Madaniyatlararo anglash, moslashuv	Global fikrlashni shakllantiradi
Audiovizual	Multimodal eshitish va tushunish	Qiziqarli, interaktiv o‘rganish

Tarjima usullari:

-Til o‘rgatishning ko‘p qirrali, zamonaviy, va kommunikativ yondashuvlaridan biridir;

-O‘quvchida analitik tafakkur, madaniy sezgirlik, lingvistik kompetensiya, va fanlararo bilim shakllantiradi;

-ESP, CLIL, va kommunikativ metodikalar bilan uygunlashadi;

-Pedagogik jarayonda interaktiv, faol, mustaqil o‘rganish muhitini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarjima faoliyati xorijiy tilni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta‘lim yondashuvlari — xususan, kommunikativ, interaktiv, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tarjima metodlarining qo‘llanishi nafaqat tilni bilish, balki uni kontekstda to‘g‘ri tushunish va ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

An’anaviy (so‘zma-so‘z va erkin) hamda noan’anaviy (ijodiy, kontekstual) tarjima usullarining uyg‘unligi o‘quvchilarning tilga nisbatan lisoniy va madaniy sezuvchanligini oshiradi. Hymes, Canale & Swain, va boshqa tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, tarjima nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlaydi, balki pragmatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, tarjima faoliyatining ta‘limdagi roli yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda yanada samarali bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cook, G. (2010). Translation in Language Teaching. Oxford University Press.
2. House, J. (1997). Translation Quality Assessment: A Model Revisited. Gunter Narr Verlag.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches. Applied Linguistics.
4. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence.
5. Sirojiddinov S. va boshqalar. (2020). Lingvodidaktika asoslari. Toshkent.
6. Doniyorova H. (2021). Til o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan.
7. Karimov R. (2018). Tarjimashunoslik va amaliy tarjima asoslari. Buxoro.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK 370.1

<https://orcid.org/0000-0002-3682-1607>

QIYMATLI RAHBARLIK: INSONPARVARLIKKA ASOSLANGAN BOSHQARUV PARADIGMASINING SHAKLLANISHI VA TA'LIM TIZIMIDAGI ROLI

Mirvosilova Dilobar Mirzohid qizi

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

dilobarmirvosilova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning turli fikrlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida aniqlandiki, lider (ya'ni yetakchi, oldinga siljish) - har qanday guruhdagi yuqori darajada tan olingan (avtoritet), kuchli ta'sirga ega bo'lgan shaxsdir. Yetakchilik har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyatning ajralmas qismidir. Bu shaxs yoki guruhning a'zolariga yoki tashkilotning boshqa a'zolariga ta'sir qilish va ularni umumiy maqsadga erishishga yo'naltirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu vaziyatda uning roli to'g'ri qarorlar qabul qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki aniq tasavvurni yaratish va shakllantirish, erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash va insonlarni ularga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va vositalar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa qismida bu nazariyalar amaliyotda qanday qo'llanishi va liderlik sifatlarini rivojlantirishda qanday yordam berishi batafsil muhokama qilingan. Ayniqsa, liderlikning axloqiy jihatlari, ijtimoiy qadriyatlarga ta'siri, transformatsion va tranzaksion liderlik yondashuvlarining samaradorlik tomonlari solishtirilgan. Shuningdek, organizatsiyalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish va potentsialni boshqarish bo'yicha amaliy metodlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Liderlik, ijtimoiy hodisa, liderlik nazariyalari, lider xarakteri, liderlik fazilatlar, lider etiketi, ijtimoiy qadriyatlar.

ЦЕННОСТНОЕ ЛИДЕРСТВО: ФОРМИРОВАНИЕ ПАРАДИГМЫ УПРАВЛЕНИЯ, ОСНОВАННОЙ НА ГУМАНИЗМЕ, И ЕЁ РОЛЬ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье проанализированы различные взгляды отечественных и зарубежных ученых. В ходе исследования установлено, что лидер (то есть ведущий, продвигающийся вперед) — это человек, обладающий высоким авторитетом и сильным

влиянием в любой группе. Лидерство является неотъемлемой частью успеха в любой сфере деятельности. Оно проявляется в способности влиять на членов группы или организации и направлять их к достижению общей цели. При этом его роль не ограничивается только принятием правильных решений, но также включает формирование чёткого видения, определение достижимых целей и обеспечение людей необходимыми знаниями и ресурсами для их достижения.

В заключении подробно обсуждается, как данные теории применяются на практике и как они способствуют развитию лидерских качеств. Особое внимание уделяется этическим аспектам лидерства, его влиянию на социальные ценности, а также сравнению эффективности трансформационного и транзакционного подходов к лидерству. Также представлены практические методы развития лидерских навыков и управления потенциалом в организациях.

Ключевые слова: социальное явление, теории лидерства, лидерские качества, поведение лидера, этика лидера, социальные ценности

VALUE-BASED LEADERSHIP: THE FORMATION OF A HUMANISM-ORIENTED MANAGEMENT PARADIGM AND ITS ROLE IN THE EDUCATION SYSTEM

Abstract: The article analyzes various perspectives of both local and foreign scholars. The study revealed that a leader (i.e., someone who leads and moves forward) is a person who possesses high authority and strong influence within any group. Leadership is an integral component of success in any field of activity. It is manifested in the ability to influence members of a group or organization and to guide them toward achieving a common goal. In this context, the leader's role is not limited to making the right decisions, but also involves creating and shaping a clear vision, setting achievable goals, and equipping individuals with the knowledge and tools necessary to reach them.

The conclusion provides a detailed discussion of how these theories are applied in practice and how they contribute to the development of leadership qualities. Special attention is given to the ethical aspects of leadership, its impact on social values, and a comparison between transformational and transactional leadership approaches in terms of effectiveness. Practical methods for developing leadership skills and managing potential within organizations are also presented.

Keywords: social phenomenon, leadership theories, leadership qualities, leader behavior, leadership ethics, social values

KIRISH

Rahbarlar nafaqat siyosatda, balki qolgan sohalarda va jamoat tashkilotlarida ham zarur. Ular jamoatchilik fikrini shakllantirish, qarorlar qabul qilish va muvaffaqiyatga erishishda

muhim rol o‘ynaydi. Lider bo‘lish mas‘uliyat va boshqalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatidir.

Samarali rahbar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur: o‘ziga ishonch, samarali muloqotchanlik ko‘nikmasi va boshqaruv qobiliyatlari, ijodiy va innovatsion fikrlash, muvaffaqiyatsizliklar oldida qat‘iylilik, tavakkal qilishga tayyorlik, o‘zgarishlarga ochiqlik, inqiroz davrida qat‘iylilik va tezkorlik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Odatda biznes sohasida yetakchilik fazilatlarini namoyish etadigan odamlar bosh direktor, CIO yoki prezident kabi yuqori yoki C darajali lavozimlarga ko‘tarilishi mumkin. Texnologik sohada kuchli yetakchilikni namoyish etgan taniqli shaxslar orasida Apple asoschisi Stiv Jobs, Microsoft asoschisi Bill Geyts yoki Amazon bosh direktori Jeff Bezos kabi taniqli shaxslar bor.

Turli xil hodisalarni o‘rganish uchun bir qancha uslubiy yondashuvlar qo‘llaniladi, bu esa o‘z navbatida tadqiqotning aniq maqsadini aniqlaydi. Biroq, asosiy tushunchalar va qadriyatlarni o‘rganmasdan, tadqiqot muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish mumkin emas. Hozirgi vaqtda yetakchilik muammosini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, chunki u davlat boshqaruvining muhim qismiga aylandi va odamlar o‘rtasidagi qadriyatlar va munosabatlarga bog‘liq. Bu muammoni hal qilish yetakchilik fenomenini keng o‘rganishni talab qiladi.

Falsafada yetakchilik ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy sinfni shakllantirish jarayonining muhim parametri sifatida ta‘riflanadi. Liderlik-o‘zining yetakchilik faoliyati bilan ajralib turadigan ma‘lum bir shaxs yoki guruh tomonidan alohida mavqega erishishgan tanlangan vakilni ijtimoiy faolligini farqlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Psixologiyada yetakchilik ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u eng muhim muammolardan biri sanaladi.

B.D. Parytinning fikriga ko‘ra, yetakchilik - bu jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan, guruh maqsadlariga optimal va maksimal darajada erishishga yordam beradigan jarayon. R.L.Krijevskiy va N.N. Silkinaning ta‘kidlashicha, yetakchilik odamlar o‘rtasidagi norasmiy munosabatlarda paydo bo‘ladi va ishlaydi hamda guruhning bir a‘zosining boshqalarga ta‘sirida namoyon bo‘ladi. D.Mayers yetakchilikni obro‘li a‘zolar tomonidan motivatsiya va guruhni boshqarish jarayoni sifatida belgilaydi. G.G'.Diligenskiy va I.N.Musinning so‘zlariga ko‘ra, yetakchilik o‘zaro ta‘sir va aloqaning mumkin bo‘lgan turlaridan biridir. A.V.Petrovskiyning fikriga ko‘ra, yetakchilik - bu guruh faoliyatini integratsiyalash mexanizmi bo‘lib, unda shaxs yoki guruhning bir qismi yetakchi rolini bajaradi, butun guruhning harakatlarini birlashtiradi va boshqaradi, jamoaning qolgan qismi esa uning harakatlarini kutadi, qabul qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Yetakchilik murakkab pedagogik muammo bo‘lib, uni fan bolalar guruhlaridagi guruh jarayonlari kontekstida o‘rganadi. Olimlar yetakchilikni guruhni qaror qabul qilish uchun tashkil etish va undash qobiliyati deb ta‘riflaydilar. Yetakchilikning maqsadga yo‘naltirilgan yo‘nalishi guruh maqsadlariga erishish va ish samaradorligini va natijaviyligini oshirishdir.

Rahbar - qo‘shma faoliyatni tashkil etish va guruhdagi munosabatlarni tartibga solishda markaziy rol o‘ynaydigan obro‘li shaxs. U odamlarni maqsadlarga erishishga ilhomlantiradi va o‘zining tan olingan vakolatidan foydalangan holda nazorat harakatlarini amalga oshiradi.

Liderlik fenomenini o‘rganish XX asr boshlarida boshlangan. Bir qator psixologlar ushbu hodisani o‘rganishga katta hissa qo‘shdilar.

Nazariya mualliflari jamoada qiymat yetakchiligining ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadilar, ularga quyidagilar kiradi:

- ijobiy shaxslararo munosabatlarni yaratish. Rahbar o‘zaro hamkorlik va jamoani qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini oshirishi kerak. U izdoshlariga ijobiy munosabatlarni o‘rgatish uchun vaqt ajratishi kerak, buning natijasida yaqin jamoa va qulay muhit yaratiladi;

- xodimlarning maqsadlarini bilish. Xodimlarning maqsadlarini bilish va tushunish rahbarga motivatsiyani boshqarishga va umumiy tashkiliy maqsadlarni shakllantirishga yordam beradi. Rahbar o‘z izdoshlarining shaxsiy ehtiyojlarini qanchalik hurmat qilsa, ular ishda mas’uliyatli va samaraliroq faoliyat yuritishlari mumkin;

- jamoaga daxldorlik hissini shakllantirish. Rahbar umumiy qadriyatlar, ideallar va me’yorlarga asoslangan korporativ madaniyatni qurishi kerak. Bu rahbarlik mavqeini mustahkamlashga yordam beradi va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotchanlik va munosabatlardagi samimiylilik jarayonini osonlashtiradi,

- nizolarni konstruktiv hal qilish. Har qanday jamoada nizolar bo‘ladi. Qiymat rahbari o‘z izdoshlariga nizolarni samarali hal qilishda yordam berishi mumkin, bu tashkilotdagi professionallik darajasini oshiradi va barcha xodimlarning rivojlanishiga yordam beradi:

- yetakchilik va izdoshlarning xulq-atvorini o‘rgatish. Rahbar o‘z izdoshlarining kasbiy mahoratini oshirish uchun yetakchilik madaniyatini yaratishi kerak. Yetakchilik va izdoshlarning xulq-atvorini yaxshilash korxonadagi o‘zaro munosabatlarning asosiy elementidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qiymatli rahbarning asosiy vazifalaridan biri jamoa a’zolarida ham izdoshlar, ham rahbarlarning xatti-harakatlarini rivojlantirishni rag‘batlantirishdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining asosiy ishtirokchisi yetakchi-o‘qituvchi emas, balki izdosh-shogirdidir. Rahbarning roli o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq bilim va ko‘nikmalarni egallashga yordam berishdir. O‘quv jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: kashfiyot bosqichida o‘quv dasturi dolzarb bo‘lishi uchun mavzuga ma’lum narsalarni oldindan aniqlash kerak, haqiqiy o‘qitish bosqichida talaba uchun moslashtirilgan usullarga muvofiq yangi ma’lumotlar taqdim etiladi; oxirida konsolidatsiya bosqichi mavjud bo‘lib, talaba olingan bilimlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi va rahbar o‘quv jarayonining samaradorligini baholaydi.

Qiymatli lider, shuningdek, tashabbuskorlik va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida mas’uliyatni taqsimlashni rag‘batlantiradi. Tashabbus ko‘rsatish qobiliyati natijalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyorlikni anglatadi va xodimlarning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, qiymat yetakchisi har bir a’zo boshqalarni

qo‘llab-quvvatlash va yordam berishga tayyor bo‘lgan yaxshi muvofiqlashtirilgan jamoani shakllantiradi. Jamoada ishlashga o‘rgatish qiymat yetakchiligining muhim tarkibiy qismidir.

Rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning dialogik tabiati, shuningdek, rahbarning har qanday ishonchli ma'lumotni olish uchun ochiqligi voqelikni yanada to‘g‘ri tushunishni shakllantirishga va tashkiliy ahamiyatga ega normalar va qadriyatlarni uzatishga yordam beradi.

Shunday qilib, Kuchmarskiyning qadriyatlar nazariyasida yetakchilik "rahbar-izdoshlar" munosabatlarida namoyon bo‘ladigan doimiy dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi, yetakchining roli esa yuqorida aytib o‘tilgan qadriyatlar tamoyillarini o‘zlashtirish, ularni izdoshlarga o‘rgatish va ular bilan birgalikda professional va shaxsiy rivojlanishdir.

Shu sababli, rahbarning aniq bir shaxsning xatti-harakatlarini tushunishi uchun bu shaxs tomonidan voqelikni sub'ektiv idrok etishni o‘rganish muhimdir. Va nima uchun odam (masalan, tashkilot xodimi) doimiy ravishda o‘zini qanday tutishini tushuntirish uchun tashkilot rahbari imkon qadar bu odamning ichki dunyosini tushunishga harakat qilishi kerak? Degan savolni o‘z oldiga qo‘yib, savol uchun javobi ham tayyor bo‘lishiz zarur. Boshqa odamning dunyosi tasvirini tushunish rahbarga u bilan yanada samarali aloqa o‘rnatishga yordam beradi; Rahbarning xulq-atvoriga uning o‘zini-o‘zi qadrlashi va xatti-harakatlarining samaradorligini prognozi, shuningdek, uning kelajagiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shunday ekan, tashkilot yetakchisi sifatida menejerning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri uning yetakchilik dunyoqarashini (o‘zini ijobiy idrok etishi), o‘ziga ishonch va o‘zini-o‘zi hurmatini munosib shakllantirishdir.

Global keskinlik va beqarorlikning o‘ssishi, tashkiliy jarayon ishtirokchilarining ehtiyojlari va manfaatlarini amalga oshiradigan ierarxiyalar va tarmoqlarning murakkabligi va boshqa tahdid va xavf-xatarlar rahbarlarning "kundalik hayoti tuzilmalari" ni o‘ta beqaror, o‘zgaruvchan yoki "oraliq o‘z-o‘zidan tashkillanuvchi tartib" darajasiga olib keladi (I.Prigojinning fikriga ko‘ra).

An'anaviy ma'muriy boshqaruv hatto vertikal ierarxiyalarda va ayniqsa, gorizontal o‘z-o‘zidan tashkil etilgan tarmoqlarda samaradorligini yo‘qotmoqda.

So‘nggi paytlarda strategik muhim davlat yoki korporativ funktsiyalarni, loyihalarni, vazifalarni va jarayonlarni rasmiylashtirilgan institutsional mexanizmlar orqali amaliyotga joriy etish tendentsiyasi tashkilotlarda rahbar rolining tubdan o‘zgarishiga olib keladi. Ham "professional mutaxassis", ham oddiy boshqaruvchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan rahbar ancha kuchli, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi va malakali bo‘lib, resurslar va qobiliyatlarga ega bo‘ladi. U shuningdek, jamoanini boshqarish samarali ekanligini hisobga olgan holda, menejmentning soyali jihatlarining ob'ektiv mohiyatini bilishi ham kerak:

Ushbu maqolada muallif o‘z pozitsiyasini taklif qiladi, bu "an'anaviy-ma'muriy" yetakchilik deb ataladi. Ushbu pozitsiya doirasida yetakchilik jamiyatda o‘yin qoidalari bo‘yicha konventsional va institutsionalizmga asoslangan o‘zaro hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, rahbar o‘z vakolatlarini, jumladan, boshqaruvni, ayniqsa inqiroz

davrida qat'iy tartibga solish huquqini saqlab qolishi mumkin. Rahbarning yondashuvi, shuningdek, avtonom harakatlar va muvofiqlashtirishni osonlashtiradigan munosabatlarni yaratishga asoslangan bo'lishi kerak. Supertizimlarning talablari, ularni qo'llab-quvvatlovchi quyi tizimlar, boshqaruv tizimi va jamoa a'zolarining o'zaro ta'siri o'rtasidagi munosabatlar ayniqsa e'tiborga olinishi kerak. R. Dokins yetakchilikka "memlar" tushunchasini kiritdi, ular madaniy axborot birliklari bo'lib, o'rganish va taqlid qilish orqali uzatilishi mumkin. Yetakchilikdagi memlar moslashuvchanlik xususiyati bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu rahbarga o'zini o'zi tashkil etish jarayonlarini boshlash, o'zaro bog'liqlikni oshirish va odamlar, jamoa a'zolari, jamiyat, munosabatlar va moddiy-ma'naviy resurslar o'rtasida tarmoq yaratish imkonini beradi.

XULOSA

Taxmin qilish mumkinki, faqat an'anaviy-ma'muriy deb ataladigan yangi boshqaruv turi tizimli va ko'p qirrali zarur tizim rahbari mexanizmini namoyish qilishi mumkin. Shunday qilib, yetakchilik quyidagi tarzda namoyon bo'lishi mumkin: vertikal ierarxiyalarda - qonuniy ma'muriy chiziqli-funksional boshqaruv sifatida, yuqoridan pastgacha byurokratiya qonunlariga muvofiq, norasmiy rahbarlikka yo'l qo'ymasdan, gorizontaal tarmoq tuzilmalarida - biznes jarayonining "egasi" ning funksional muvofiqlashtirilishi sifatida, o'z-o'zini yoki o'zaro birlashtirilgan sxemalar, "o'z-o'zini yoki o'zaro birlashtirilgan sxemalar" o'rtasidagi yetakchilik. tugunlar, ham ierarxik tuzilmalar, hamda shaxslar - o'z-o'zini tashkil qilishni hisobga olgan holda kelishuv asosida an'anaviy-avtoritetli boshqaruv sifatida.

Gorizontaal yetakchilikda o'ziga xos funksional ierarxiya namoyon bo'ladi, bu quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi: barcha darajalar uchun umumiy - organizmning ehtiyoji: barcha mijozlar va ma'lum darajalar uchun qandaydir umumiy yakuniy foydali natija olish bilan o'zaro bog'liqlik: barcha ishtirokchilarni safarbar qilish, boshqalarning xatolarini qoplash orqali bir vaqtning o'zida ehtiyojlarning paydo bo'lishi; qiyosiy samaradorlik va boshqalar.

An'anaviy-ma'muriy boshqaruv shaklidagi taklif etilayotgan yetakchilik mexanizmi bir vaqtning o'zida boshqa boshqaruv va rahbarlik turlari tomonidan hal etilmagan munosabatlarning beqarorligi va vaqtinchalik sharoitida sub'ekt sohasi rivojlanishining ko'p vektorli xususiyatini hisobga olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Waddock, S. (2002). Leading corporate citizens: Vision, values, value added. New York: McGraw Hill.
2. Busch, T., & Wennes, G. (2012). Values-based leadership: A new approach to leadership. Journal of Business Ethics, 107(3), 333–348.
3. Chang, S. M., Budhwar, P., & Crawshaw, J. (2021). The emergence of value-based leadership behavior at the frontline of management: A role theory perspective and future research agenda. Frontiers in Psychology, 12, 635106.

4. Frost, J. (2014). Values-based leadership. *Industrial and Commercial Training*, 46(3), 124–129.
5. Bergman, M., et al. (2022). Developing value-based leadership for sustainable quality development: A meta-analysis from a study of Lean manufacturing. *International Journal of Lean Six Sigma*, 13(4), 1–21.
6. Xodjaeva, M. (2019). O‘zbekiston Respublikasida rahbarlik va boshqaruv tizimining rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
7. Sodiqov, A. (2020). Rahbarlik va boshqaruvda qadriyatlar: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: Fan va Texnologiya.
8. Jalilov, D. (2021). Ijtimoiy pedagogikada rahbarlik: Teoriya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston TDPU.



UDK 37.02

<https://orcid.org/0000-0001-7229-8545>

ANALYZING PRE-SERVICE TEACHERS’ PERCEPTIONS OF THE NATURE OF RESEARCH

Dilafruz Sarimsakova,

Independent Researcher at Namangan State University

d.sarimsakova@mail.ru

Abstract: This article analyzes how pre-service English teachers’ perceptions of research evolve over time. Specifically, it examines the metaphorical conceptions expressed by students at the beginning and end of the *Classroom Investigation* module, which is designed around *Exploratory Action Research* (EAR) practices. Initially, the students associated research primarily with scientific laboratories, academic scholars, or complex theoretical processes. However, through engagement with EAR, they became directly involved in practical research activities aimed at identifying, analyzing, and solving real classroom problems. As a result, their views on research shifted significantly, and they began to see it as a meaningful process for professional development. The article highlights the potential of EAR to transform research from a complex, abstract academic endeavor into an accessible and inspiring learning tool for future teachers.

Keywords: Exploratory Action Research, metaphor analysis, pre-service teachers, research competence, teacher education, reflective practice

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TADQIQOT MOHIYATIGA DOIR TASAVVURLARINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida tadqiqot haqida tasavvurlarining qanday o‘zgarishi tahlil etiladi. Xususan, *Classroom Investigation* moduli doirasida “Exploratory Action Research” (EAR) amaliy tadqiqot olib borishga mo‘ljallangan darslar asosida talabalar tomonidan modul boshlanishidan oldin va yakunida ilgari surilgan metaforik tushunchalar tahlil qilinadi. Dastlab talabalar tadqiqotni faqat ilmiy laboratoriyalar, akademik olimlar yoki murakkab nazariy jarayonlar bilan bog‘lashgan. Biroq, EAR amaliyoti davomida ular sinfdagi muammolarni kuzatish, tahlil qilish va yechim topishga qaratilgan real tadqiqot faoliyatiga bevosita jalb etildilar. Natijada ularning tadqiqot haqidagi qarashlari sezilarli darajada o‘zgarib, tadqiqotni kasbiy rivojlanish uchun muhim jarayon sifatida qabul

qila boshladilar. Maqola bo'lajak o'qituvchilar uchun tadqiqot faoliyatini murakkab nazariy jarayondan, amaliy va ilhomlantiruvchi o'rganish vositasiga aylantirishda EAR metodikasining imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Exploratory action research, metafora tahlili, bo'lajak o'qituvchilar, tadqiqotchilik kompetensiyasi, o'qituvchilarni tayyorlash, reflektiv amaliyot

АНАЛИЗ ВОСПРИЯТИЯ ПОНЯТИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ БУДУЩИМИ УЧИТЕЛЯМИ

Аннотация: В данной статье анализируется, как со временем меняется представление будущих учителей английского языка об исследовательской деятельности. В частности, рассматриваются метафорические образы, предложенные студентами в начале и в конце модуля «Классное исследование», основанного на практике *исследования через исследовательское действие* (Exploratory Action Research — EAR). Изначально студенты ассоциировали исследование преимущественно с научными лабораториями, академическими учёными или сложными теоретическими процессами. Однако в ходе участия в EAR они были непосредственно вовлечены в практическую исследовательскую деятельность, направленную на выявление, анализ и решение реальных проблем в классе. В результате их восприятие исследовательской деятельности значительно изменилось: они стали рассматривать её как важный процесс профессионального развития. В статье подчеркиваются возможности EAR в трансформации исследования из сложного теоретического процесса в доступный и вдохновляющий инструмент обучения для будущих учителей.

Ключевые слова: исследование через исследовательское действие (EAR), анализ метафор, будущие учителя, исследовательская компетентность, подготовка учителей, рефлексивная практика.

INTRODUCTION

In teacher education, helping pre-service teachers grasp the nature and purpose of research remains a pedagogical challenge. Many student-teachers enter their programs with limited or abstract understandings of what research entails, often viewing it as a purely academic or theoretical activity disconnected from practical classroom realities (Borg, 2009). To bridge this gap, teacher educators have increasingly adopted practitioner-oriented approaches such as Exploratory Action Research (EAR), which encourages future teachers to investigate their own teaching contexts in systematic, reflective ways (Rebolledo et al., 2016).

Metaphors offer a powerful tool to probe and illuminate student-teachers' conceptualizations. According to Lakoff and Johnson (1980), metaphors structure our thinking and influence how we understand complex or unfamiliar ideas. In the context of teacher education, metaphor analysis has been used to investigate beliefs about teaching, learning, and professional identity (Oxford et al., 1998; Martínez, 2010). However, fewer studies have

explored how pre-service teachers use metaphors to conceptualize research itself. This article explores how undergraduate English language student-teachers described their metaphors of research before and after studying Exploratory Action Research in Classroom Investigation Module. Initially, their metaphors reflected confusion, fear, or detachment. However, after engaging in EAR—formulating research questions based on classroom puzzles, collecting and analyzing data, and presenting findings—students began to reframe their metaphors in more grounded, positive, and meaningful ways. Through metaphor analysis, we argue that EAR not only demystifies research for pre-service teachers but also fosters a sense of agency and professional inquiry.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

As the literature about the usefulness and benefits of teacher research grows, it becomes clear that while Teacher Research (TR) holds promise for empowering educators, it is still misunderstood in many ways. Misconceptions about TR often discourage teachers from engaging with research.

One of the most common misconceptions is that research is conducted only by academics or scientists in laboratories (Smith & Rebolledo, 2018). In this view, research is associated with the ‘hard sciences,’ requiring complex procedures and technical equipment. However, in the context of teacher research, studies such as those by Burns (2010) and Borg (2015) stress that classroom-based inquiry is equally valid and valuable.

Another barrier to teacher research is the belief that it requires extensive reading or the publication of formal journal articles (Creswell, 2014). While literature reading can support the inquiry process, it is not always essential. In fact, in teacher research, the classroom context itself becomes the most authentic source of data. Sharing findings can take many forms, including informal presentations, posters, or reflective discussions with colleagues (Borg & Sanchez, 2015).

Finally, many teachers undervalue the skills they already possess (Bartlett & Burton, 2003). Data collection, classroom observation, and reflective thinking are already embedded in their everyday work, and with structured support, these can be shaped into systematic research practices.

Understanding these misconceptions is vital, as it opens the door for teacher research to be seen as a powerful tool for both professional development and improved student learning outcomes.

This small-scale qualitative study was conducted with a group of undergraduate students enrolled in an English Language Teacher Education program. As part of their methodology course, students were introduced to Exploratory Action Research (Rebolledo et al., 2016) and guided through a short research cycle to investigate a teaching challenge of their choice.

Students were asked to write a metaphor representing what they thought “research” was before and after the module. These metaphors were collected and analyzed thematically to track changes in their conceptualizations. This metaphor analysis approach draws on the work of

Lakoff & Johnson (1980) and has been used in teacher education research to explore teachers' thinking (Saban, 2006).

RESULTS AND DISCUSSION

The data collected from pre-service English language teachers' metaphor drawings and explanations revealed significant insights into their evolving understanding of research. Initially, before being introduced to Exploratory Action Research (EAR), most students' metaphors depicted research as something external, intimidating, or inaccessible. After participating in EAR cycles and reflective discussions, their metaphors became more grounded, meaningful, and relevant to their own teaching contexts.

Before EAR: Metaphors of Distance, Complexity, and Uncertainty

The initial metaphors generated by students prior to EAR training revealed common misconceptions and uncertainties about research:

Research as a “Dark Forest” – one student illustrated research as a dark, dense forest where one could easily get lost without a map. This metaphor reflected fear, confusion, and lack of direction.

Research as “Climbing a Steep Mountain” – several students expressed the idea that research was an uphill task, demanding much effort, with no guarantee of reaching the top. It conveyed difficulty and isolation.

Research as a “Locked Door” – a few students believed that research was inaccessible and only available to scientists or experts with “special keys” (i.e., advanced knowledge or degrees).

Research as “a Book with No Pictures” – This metaphor suggested boredom and lack of engagement. One student commented, “It’s like reading something very long that you do not understand.”

These metaphors aligned with the misconceptions in the literature that research is only for scientists, requires extensive reading, and is inherently academic (Smith & Rebolledo, 2018; Borg & Sanchez, 2015).

After EAR: Metaphors of Clarity, Growth, and Practicality

Following the completion of a guided EAR cycle, student-teachers revisited their metaphors. The results showed a marked transformation in their understanding:

Research as a “Mirror” – students increasingly saw research as a way to reflect on their own teaching. One student explained, “It helps me see what I do in the classroom clearly.”

Research as a “Torch in the Dark” – some students now described research as a guiding light that helps uncover issues and guide improvements. This metaphor contrasted starkly with their earlier depiction of research as a “dark forest.”

Research as “Gardening” – several students compared research to nurturing a plant: slow but steady work that requires care and observation. One student wrote, “Research is like planting an idea and seeing how it grows with experience and data.”

Research as a “Puzzle” – this metaphor emphasized curiosity and discovery. Students noted that research allowed them to connect different aspects of teaching and learning to see the bigger picture.

Research as “a Map of My Classroom” – Students began to associate research with practical tools that help them navigate their own teaching realities and respond to their learners' needs.

These revised metaphors indicate a conceptual shift toward viewing research as a practical, reflective, and empowering tool – one that is accessible and integral to their development as teachers. Importantly, many students reported that the EAR experience helped them overcome fears of academic complexity, and instead, see research as a form of professional learning embedded in their daily teaching.

The shift in metaphors suggests that experiential engagement with research—through EAR can meaningfully change students' beliefs about what research is and what it is for. Moving away from abstract or intimidating representations toward familiar and practical ones shows how powerful a short, well-guided research experience can be in teacher education.

This shift also challenges dominant discourses about research in pre-service education. When research is presented only as academic, theoretical, or publishable work, it excludes many students. But when research is reframed as exploration, reflection, and action within the classroom, students begin to see themselves as capable researchers. EAR demystifies research and embeds it within their future practice.

This finding aligns with Smith and Rebolledo (2018), who argue that teacher research fosters autonomy, reflection, and professionalism. It also shows that even short-term exposure to EAR can begin to shift teacher identity from passive learners to active inquirers.

CONCLUSION

This study explored how student-teachers initially conceptualized research through personal metaphors and how those conceptions evolved after engaging in Exploratory Action Research (EAR). At the outset, many metaphors suggested that research was viewed as abstract, difficult, and disconnected from their daily teaching experiences—likened to “a dark forest,” “a complicated puzzle,” or “climbing a mountain without a map.” These metaphors reflected a sense of uncertainty, inaccessibility, and even fear toward the research process. However, as student-teachers engaged in EAR, their metaphors and attitudes shifted significantly. They began to see research as a practical, empowering, and reflective tool describing it as “a mirror,” “a compass,” or “a bridge.” This transformation highlighted a crucial point: when research is situated within one's own teaching practice and is directly tied to solving real classroom problems, it becomes meaningful and approachable.

The findings affirm that EAR not only demystifies research but also fosters professional growth by developing student-teachers' ability to think critically, ask meaningful questions, and reflect on their teaching with an investigative mindset. The act of identifying a challenge, systematically exploring it, and implementing change fosters a sense of agency and ownership

over their practice. Moreover, EAR transforms research from a passive academic obligation into an active, empowering part of becoming a teacher. The evolving metaphors underscore this change—not just as a shift in language, but as a deep change in cognition and professional identity.

Ultimately, this study contributes to the growing recognition that teacher research must be embedded in pre-service teacher education programs in a practical, experience-based way. By aligning research with classroom realities, EAR serves as a bridge between theory and practice, helping future teachers understand that research is not an external requirement but an integral part of reflective, informed, and effective teaching. These insights have implications for curriculum design, suggesting that teacher education programs should prioritize inquiry-based and participatory research approaches to cultivate research-minded educators who are prepared for lifelong learning and professional innovation.

REFERENCES:

1. Bartlett, S., & Burton, D. (2003). *Practitioner Research and Professional Development in Education*. Paul Chapman Publishing.
2. Borg, S. (2015). Teacher research: Empowering teachers to improve their practice. *English Language Teaching Journal*, 69(4), 437–445.
3. Borg, S., & Sanchez, H. S. (2015). Key issues in doing and supporting language teacher research. *Cambridge English Research Notes*, 59, 14–22.
4. Burns, A. (2010). *Doing Action Research in English Language Teaching: A Guide for Practitioners*. Routledge.
5. Cameron, L., & Low, G. (1999). Metaphor. *Language Teaching*, 32(2), 77–96.
6. Creswell, J. W. (2014). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches* (4th ed.). SAGE.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
8. Rebolledo P., Smith R., Bullock D. Champion teachers: Stories of exploratory action research. – 2016.
9. Saban, A. (2006). Functions of metaphor in teaching and teacher education: A review essay. *Teaching Education*, 17(4), 299–315.
10. Smith, R., & Rebolledo, P. (2018). *A Handbook for Exploratory Action Research*. British Council.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

*Yo'ldosheva Malika Elmurod qizi,
Navoiy davlat universiteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tadqiqotchisi*

Annotatsiya .Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirishda o'qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi omil sifatida tahlil qilinadi. Motivatsiya tushunchasi, uning turlari, rivojlantirish usullari hamda zamonaviy ta'limda o'qituvchining o'rni yoritiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, individual yondashuvlar va motivatsiyani rag'batlantirish yo'llariga amaliy misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, pedagogik mahorat, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, shaxsiylashtirilgan yondashuv, o'quvchilar faolligi.

Annotation. This article analyzes the teacher's pedagogical skills as a decisive factor in fostering interest in learning activities among primary school students. The concept of motivation, its types, methods of development, and the role of the teacher in modern education are highlighted. In addition, practical examples of interactive methods, individualized approaches, and ways to stimulate motivation are presented.

Keywords: motivation, pedagogical skills, primary education, interactive methods, personalized approach, student engagement.

Аннотация. В данной статье педагогическое мастерство учителя рассматривается как решающий фактор в формировании интереса к учебной деятельности у учащихся начальных классов. Раскрываются понятие мотивации, её виды, методы развития, а также роль учителя в современной системе образования. Также приведены практические примеры использования интерактивных методов, индивидуального подхода и способов стимулирования мотивации.

Ключевые слова: мотивация, педагогическое мастерство, начальное образование, интерактивные методы, индивидуальный подход, активность учащихся.

Kirish. XXI asrda ta'limning zamonaviy modelida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'ringa ega bo'lib bormoqda. Bu ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o'quvchida bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, ishtiyoq, o'rganishga moyillik shakllanadi. Bunday ijobiy o'zgarishlar yuzaga chiqishi uchun o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada motivatsiya

tushunchasining pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritiladi.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o‘qitish omillari ichida o‘quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o‘rinda turar ekan, ya‘ni ta‘lim samaradorligi 92% o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog‘liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo‘lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e‘tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o‘rganish, to‘g‘ri qo‘llash va uni to‘g‘ri yo‘naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motivlashtirish – (lotincha moveo – harakatlantiraman, siljitaman degan ma‘nolarni anglatadi) bu o‘quvchilarni samarali o‘quv-biluv faoliyatiga, o‘quv materialini mazmunini faol o‘zlashtirishga yo‘naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiy nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham o‘z qo‘llarida tutib turadilar. O‘qitish faoliyati nuqtai nazaridan qarasak, ta‘limni motivlashtirish, o‘qish faoliyati nuqtai nazaridan qarasak, o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o‘zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda shaxsni u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi.

Shuningdek, motiv deganda o‘quvchining o‘z faoliyati perdmoriga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo‘lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o‘rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilgan, ammo muammoning to‘la yechimiga hali erishilgani yo‘q. Motivlarning o‘zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy qism.

1. O‘quv motivatsiyasining mohiyati va turlari
Motivatsiya – bu o‘quvchini faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmui. U o‘quvchining ijtimoiy tajribani egallashga, bilim olishga va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik holatidir. Ichki motivatsiya: shaxsning o‘z ichki ehtiyojidan kelib chiqadigan, o‘rganishga bo‘lgan tabiiy istagi.
Tashqi motivatsiya: mukofot, baho, rag‘bat kabi tashqi omillarga asoslangan.

2. Boshlang‘ich sinfdan motivatsiyani shakllantirish usullari
Rag‘batlantirish, o‘yinli faoliyat, individual yondashuv, interfaol metodlar kabi strategiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

3. Pedagogik mahorat va uning motivatsiyaga ta'siri
O'qituvchining bilim, metodik ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlari orqali dars jarayonini samarali tashkil etish — motivatsiyani shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

4. Motivatsiyaning barqarorligini ta'minlash—Doimiy yangilanish, ota-onalar bilan hamkorlik, har bir o'quvchining yutug'ini tan olish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish — bu motivatsiyaning davomiyligini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimida mavjud bo'lgan motivlarni turli mezonlarga ko'ra tasnif etish mumkin. Turiga ko'ra ijtimoiy va biluv motivlari farqlanadi. Darajasiga ko'ra esa motivlar quyidagilarga bo'linadi: – Keng ijtimoiy motivlar (burch, mas'uliyat, o'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish). Eng avvalo, bu shaxsning o'qish orqali o'zining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini tasdiqlashi bilan belgilanadi. – Tor ijtimoiy (yoki pozitsiyali) motivlar (kelajakda muayyan kasb-korni egallashga, atrofdagilarning e'tiboriga tushishga, o'z mehnatiga yarasha munosib taqdirlanishga bo'lgan intilish). – Ijtimoiy hamkorlik motivlari (atrofdagilar bilan turli ko'rinishdagi o'zaro hamkorlik qilishga, sinf jamoasi orasida o'z pozitsiyasi va o'rinini belgilashga intilish). – Keng biluv motivlari. Erudisiyaga ko'ra yo'nalish olish, ta'lim jarayoni va uning natijalaridan qoniqish hissi bilan belgilanadi. Kishining o'quv-biluv faoliyati uning hayot faoliyatida yetakchi o'rin egallaydi. – O'quv-biluv motivlari (bilimlarni egallash usullari, muayyan o'quv predmetlarini o'zlashtirishga yo'nalganlik). – Mustaqil ta'lim motivlari (qo'shimcha bilimlarni egallashga yo'nalganlik). Amaliy pedagogikada bu motivlar yo'nalishi va mazmuniga ko'ra alohida guruhlariga birlashtiriladi:

- 1) ijtimoiy (ijtimoiy qimmatga ega) motivlar;
- 2) biluv motivlari;
- 3) kasbiy ahamiyatga molik motivlar;
- 4) estetik motivlar;
- 5) kommunikativ;
- 6) mavqe-pozitsiyali motivlar;
- 7) tarixiy-an'anaviy motivlar;
- 8) utilitar-amaliy motivlar.

Aniqlanishicha: a) jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'quvchilar o'quv motivlarining u yoki bu gurhlari yetakchilik qiladi; b) motivlarning gurhlari o'zaro dinamik bog'liq holda muayyan shart-sharoitlarga ko'ra amal qiladi. Ana shu bog'lanishga ko'ra o'qishning (o'quv-biluv faoliyatining) harakatlantiruvchi kuchi degan tushuncha paydo bo'ladiki, uning xarakteri, yo'nalganligi va ko'lami motivlarning mujassam ta'siriga ko'ra belgilanadi. Turli xildagi motivlar didaktik jarayonlarning kechishi va natijalariga turlicha ta'sir ko'satadi. Masalan, keng biluv motivlari ko'proq ta'lim mazmunini qamrab olishga intilishda namoyon bo'ladi, amm shunga qaramay bu motivlar o'quv-biluv motivlariga nisbatan kuchsiz bo'ladi. Chunki o'quv-biluv motivlari tor sohada mustaqil faoliyat yuritishga stimullashtiruvchi eng yaxshi vosita bo'lib hisoblanadi. Raqobatchilik muhitida esa ko'proq utilitar-amaliy motivlar hukmronlik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktab o'quvchilari motivlarini

maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar asosida yotuvchi - qo‘zg‘otuvchi hamda umumahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqadigan mohiyat kasb etuvchi motivlar singari turlarga ajratish mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qishga undash, ularda o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish — bu o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Har bir darsda bolaga maqsad, qiziqish, muvaffaqiyatga ishonch singari ichki resurslar uyg‘otilishi kerak. Maqsadli va barqaror motivatsiya esa hayotiy faoliyatda, keyingi bosqichlarda muvaffaqiyat garovidir.

Ta‘lim o‘quvchilarning o‘quv-biluv jarayonida motivlashtirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Chunki u ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o‘quvchilarning o‘quv biluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni stimullashtirish ularda o‘quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko‘ra kuchliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. “Pedagogik psixologiya”, Moskva, 1991.
2. Xolmatova N. “Pedagogik texnologiyalar”, Toshkent: TDPU, 2021.
3. Sharipov Q. “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”, Samarqand, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020.
5. Yusupova G. “Boshlang‘ich ta‘limda motivatsion yondashuvlar”, Ilm va Taraqqiyot jurnali, 2022/2.
6. Ushakov D.V. “Motivatsiya psixologiyasi asoslari”, Moskva, 2018.
7. Deci E. & Ryan R. “Self-Determination Theory”, University of Rochester, 2002.
8. OECD (2021). “Motivation and Engagement in Learning: Policy Brief”.
9. Maslow A. “Motivatsiya va shaxsiyat”, 1954.
10. Diyorov A. “Ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv”, TDPU, 2021

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDC: 378.147:616-036.22

ORCID: 0000-0003-2472-0566

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK SHIFOKORLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI ACL MODELI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (YUQUMLI KASALLIKLAR FANINI O'QITISH MISOLIDA)

Abdukodirov Sherzodjon Taxirovich
Yuqumli kasalliklar kafedrasida
Andijon davlat tibbiyot instituti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta'limda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuvning samaradorligi ACL (Activity–Competence–Learning) modeli asosida tahlil qilinadi. Yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonida talabalarning amaliy klinik fikrlash, diagnostika qilish, qaror qabul qilish va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, yuqumli kasalliklar, ACL modeli, kasbiy kompetensiya, klinik fikrlash, integrativ yondashuv, simulyatsiya, virtual laboratoriyalar, reflektiv tahlil, diagnostik qaror qabul qilish.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ ACL (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ)

Аннотация: В статье анализируется эффективность интегративного подхода к развитию профессиональной компетентности в медицинском образовании на основе модели ACL (Деятельность-Компетенция-Обучение). Обсуждаются вопросы формирования у студентов компетенций практического клинического мышления, диагностики, принятия решений и профессионального саморазвития в процессе обучения инфекционным болезням.

Ключевые слова: медицинское образование, инфекционные заболевания, модель ACL, профессиональная компетентность, клиническое мышление, интегративный подход, симуляция, виртуальные лаборатории, рефлексивный анализ, принятие диагностических решений.

METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DOCTORS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH BASED ON THE ACL MODEL (ON THE EXAMPLE OF TEACHING INFECTIOUS DISEASES)

Annotation: This article analyzes the effectiveness of an integrative approach to developing professional competence in medical education based on the ACL (Activity–Competence–Learning) model. The issues of forming students' competencies in practical clinical thinking, diagnosis, decision-making, and professional self-development in the process of teaching infectious diseases are discussed.

Keywords: medical education, infectious diseases, ACL model, professional competence, clinical reasoning, integrative approach, simulation, virtual laboratories, reflective analysis, diagnostic decision-making.

KIRISH

Jahon ta'lim muassasalarida tibbiyot sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar, xususan, faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va integratsiyalashgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish keng quloch yoymoqda. Bu yondashuvlar an'anaviy, ma'lumotni yodlashga asoslangan ta'limdan voz kechib, talabani o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va uning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu borada talabani faollashtiruvchi, uning kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi va mutaxassislik fanlarini puxta o'zlashtirishni ta'minlovchi o'quv muhitni yaratish eng samarali usullardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tibbiy ta'limni zamonaviylashtirish, klinik tayyorgarlik sifatini oshirish va bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, AQShdagi Harvard Medical School, Mayo Clinic College of Medicine, Birlashgan Qirollikdagi University College London, Germaniyadagi Charité – Universitätsmedizin Berlin, shuningdek, Singapur National University of Health Systems kabi nufuzli oliy tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan o'quv modellari, ayniqsa Activity–Competency–Learning (ACL) modeli amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu muassasalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ACL kabi modellar bitiruvchilarning real klinik amaliyotga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Respublikamizda so'nggi yillarda tibbiy ta'lim sohasida xalqaro standartlarga mos kasbiy kompetensiyaga asoslangan ta'lim metodikasini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu islohotlar mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimining raqobatbardoshligini oshirish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilashga qaratilgan. Tibbiy oliy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bu shunchaki bilim berish emas, balki talabaning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini chuqurlashtirish, ularni real klinik muammolarni hal qilishga tayyorlash, tahliliy fikrlash, nutq madaniyati, empatiya va professional qadriyatlar bilan boyitilgan holatda rivojlantirish jarayonidir. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar fanida bu yondashuv

yanada dolzarb tus oladi, chunki infeksiyon kasalliklar shifokorlaridan tezkor harakat, zamonaviy qarash va o‘zgaruvchan epidemiologik muhitga moslashuvchanlik talab qilinadi. Bu sharoitda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish uchun o‘quv jarayonini samarali tashkil etish muhim metodik yechim sifatida ilgari suriladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosi kasbiy kompetensiya tushunchasi va uni shakllantirishga qaratilgan ACL modeliga tayanadi.

Kasbiy kompetensiya – bu shifokorning o‘z kasbiy faoliyatini malakali, mustaqil va mas’uliyat bilan bajarishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, axloqiy qadriyatlar va psixologik tayyorgarliklar majmuidir. Bu faqat nazariy bilimlar yig‘indisi emas, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha tibbiy ta’limda zamonaviy yondashuvlarning markaziy kategoriyasiga aylangan. Pedagogik nuqtai nazardan yondashilsa, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish faoliyatga asoslangan o‘qitish, integrativ muloqot, refleksiya, muammoli vazifalar, kliniko-situatsion keyslar asosida tashkil etilgandagina samarali bo‘ladi. Shifokorlik kasbining o‘ziga xos talablari (tezkor fikrlash, stressbardoshlik, kommunikatsiya, empatiya) kasbiy kompetensiyalar tuzilmasiga mos holda ishlab chiqilishi shart.

Zamonaviy tibbiy ta’limda kasbiy kompetensiyalar quyidagi yadro elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Klinik tafakkur: Diagnostika, differensial qaror qabul qilish, simptomlarni tahlil qilish.
- Kommunikativ kompetensiya: Bemor bilan muloqot, tibbiy etika, madaniy moslashuvchanlik.
- Reflektiv tafakkur: O‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan o‘rganish va kasbiy o‘sish rejasini tuzish.
- Kreativ-analitik salohiyat: Yangi vaziyatda moslashish, noodatiy klinik holatni tushunish.

Ushbu komponentlarni o‘rgatishda

ACL (Activity–Competency–Learning) modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Bu modelning asosiy falsafasi shundaki, o‘rganish (Learning) ma’lum bir kompetensiyani (Competence) rivojlantirishga qaratilgan amaliy faoliyatda (Activity) ishtirok etish orqali yuzaga keladi. Ya’ni, $A \rightarrow C \rightarrow L$ (Faoliyat $\rightarrow$ Kompetensiya $\rightarrow$ O‘rganish) zanjiri uzluksiz ta’lim jarayonini hosil qiladi.

Taqqoslash usuli yordamida an’anaviy bilimga yo‘naltirilgan o‘qitish va ACL modeli asosidagi o‘quv faoliyatini solishtirsak, ikkinchisida talabalar faqat bilim egallamaydi, balki o‘sha bilimni faol klinik faoliyatga tatbiq etadi, refleksiya qiladi va bilimga kasbiy ma’no yuklaydi. Misol uchun, an’anaviy tizimda talaba gepatit kasalligining belgilari va davosini yodlaydi. ACL yondashuvida esa u virtual bemor ishtirokidagi simulyatsiyada qatnashadi, bemor bilan o‘zaro muloqotda ushbu bilimlarni real kasallik ssenariysiga qo‘llaydi, o‘z qaroriga javobgarlik sezadi, muqobil yo‘llarni baholaydi va mashg‘ulotdan so‘ng o‘z faoliyatini guruh va o‘qituvchi bilan tahlil qiladi (debriefing).

NATIJALAR

Empirik tahlillar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak shifokorlarda ACL modeliga asoslangan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi:

- Klinik holatlarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasi oshadi, chunki talabalar ma'lumotlarni shunchaki qabul qilmay, ularni faol ravishda izohlaydilar va dalillarga asoslangan xulosalar chiqaradilar.
- Klinik qarorlar samaradorligi ortadi, negaki ular o‘z tanlovlarini isbotlashni va muqobil variantlarni tanqidiy baholashni o‘rganadilar.
- Bemor bilan muloqot sifati yaxshilanadi, chunki kommunikativ ko‘nikmalar amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsiyalar orqali rivojlantiriladi.
- Kasbiy o‘zini anglash (professional identity) mustahkamlanadi, talaba o‘zini bo‘lajak shifokor sifatida his qila boshlaydi va kasbiy mas‘uliyatni chuqurroq anglaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ACL modeli kasbiy kompetensiyaning quyidagi asosiy jihatlarini muvaffaqiyatli rivojlantiradi:

1. Klinik tafakkur va tahliliy fikrlash qobiliyati: Bu bemorning holatini baholash, simptomlarni farqlash, muammoli klinik vaziyatda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish salohiyatidir. Ushbu kompetensiya shifokorning klinik vaziyatda tahliliy-nazariy bilimlarni amaliy jarayonga tatbiq etish, differensial tashxis qo‘yish, muqobil yechimlarni solishtirish va klinik qaror qabul qilishda diagnostik fikr zanjirini ishlab chiqish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

2. Amaliy ko‘nikmalarni egallaganlik: Bu diagnostika, davolash, profilaktika va sog‘lomlashtirish jarayonlarini amaliyotda mustaqil bajara olish layoqatidir. Mazkur kompetensiya talabaning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini real klinik vaziyatda qo‘llay olish salohiyatini namoyon etadi.

3. Kommunikativ kompetensiya: Bu bemor, uning yaqinlari, hamkasblar va sog‘liqni saqlash jamoasi bilan samarali, empatik va axloqiy-me‘yoriy muloqot olib borish ko‘nikmasidir. Ushbu kompetensiya nafaqat og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri tashkil etish, balki inson ruhiyatini anglash, tibbiy axborotni bemorga tushunarli, xolis va ehtiyotkorlik bilan yetkazish, qarama-qarshi holatlarda ham sabr-toqat bilan muloqot olib borish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa bemorning davolanish jarayoniga bo‘lgan ishonchini va unga rioya qilish darajasini oshiradi.

XULOSA

Kompetensiyaga asoslangan ta'limga o'tish jahon tibbiy ta'limidagi muqarrar va ijobiy tendensiyadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ACL modeli asosida tashkil etilgan integrativ yondashuvlar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatga tayyorlik darajasini ham sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar kabi murakkab va holatga yo‘naltirilgan fanni o‘qitishda klinik holatlarni tahlil qilish, reflektiv yozuvlar, debriefing mashg‘ulotlari, simulyatsiya va keys-stadiy yondashuvlari kasbiy kompetensiyaning rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Natijada, bo‘lajak shifokorlar o‘z faoliyatiga tanqidiy va tahliliy yondasha oladigan, kasbiy xatolarni anglab, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadigan darajaga erishadilar. Shu boisdan, bo‘lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish faqat didaktik ehtiyoj emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli, amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogik zaruriyatdir. Shu sababli, tibbiy ta‘lim jarayoniga ACL modeliga asoslangan metodikani bosqichma-bosqich tatbiq etish nafaqat pedagogik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq, balki bu mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimining kelajagiga qo‘yilgan muhim sarmoyadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wald, H.S., Reis, S.P. Reflective Writing in Medical Education: A Guide to Developing Professionalism and Clinical Competency (monograph). – New York: Springer Publishing, 2020. – 235 p.
2. Turg‘unov B.Y. Diagnostik ko‘nikmalar va keys metodika (monografiya). – T.: Fan va Taraqqiyot, 2023. – 183 bet.
3. Davis M.H. Integrating Clinical Sciences in Curricula. Medical Education, 2020. – Vol. 54(6), pp. 505–512.
4. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487> . - Spain, 2023. – P. 17–21.
5. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2023, No. 9. – P.770–774.



REKREATIONS TURIZM ORQALI TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Babajanov Ilhom Abdulla o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rekreatsion turizmning talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritib berilgan. Rekreatsion faoliyatlar orqali talabalarning jismoniy faolligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzining asosiy komponentlari – to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, dam olish va salomatlik madaniyati – rekreatsion turizm doirasida qanday shakllanishi o‘rganilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga yo‘naltirilgan rekreatsion-tarbiyaviy faoliyatning samarali tizimi taklif etilgan hamda ushbu tizimni oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: rekreatsion turizm, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik tizim, talaba yoshlar, jismoniy faollik, salomatlik madaniyati, tarbiyaviy faoliyat, oliy ta‘lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА

Аннотация: В статье подчеркивается педагогическое значение рекреационного туризма в формировании здорового образа жизни студентов. Проанализированы механизмы развития физической активности, психической устойчивости и социальной адаптивности студентов посредством рекреационной деятельности. Также рассмотрено, как в рамках рекреационного туризма формируются основные составляющие здорового образа жизни: правильное питание, физическая активность, отдых и культура здоровья. В статье предложена эффективная система оздоровительно-воспитательных мероприятий, направленных на формирование здорового образа жизни на основе современных педагогических подходов, и даны рекомендации по интеграции данной системы в образовательный процесс высших учебных заведений.

Ключевые слова: рекреационный туризм, здоровый образ жизни, педагогическая система, студенческая молодежь, физическая активность, культура здоровья, образовательная деятельность, высшее образование.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN STUDENTS THROUGH RECREATIONAL TOURISM

Annotation: This article highlights the pedagogical significance of recreational tourism in forming a healthy lifestyle of students. The mechanisms of developing physical activity, mental stability and social adaptability of students through recreational activities are analyzed. It is also studied how the main components of a healthy lifestyle - proper nutrition, physical activity, rest and health culture - are formed within the framework of recreational tourism. The article proposes an effective system of recreational and educational activities aimed at developing a healthy lifestyle based on modern pedagogical approaches and gives recommendations for integrating this system into the educational process of higher educational institutions.

Keywords: recreational tourism, healthy lifestyle, pedagogical system, student youth, physical activity, health culture, educational activities, higher education.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda inson salomatligini asrash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Texnologiyalar taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlari va raqamli muhitning kengayib borishi bilan birga, inson harakatsizligi ortib, stress, surunkali charchoq va sog‘liq muammolari yoshlar orasida ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlar orasida sog‘lom hayot tamoyillariga bo‘lgan befarqlik, passiv turmush tarzi, noto‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollik yetishmasligi kabi holatlar ko‘p uchramoqda. Bu esa nafaqat shaxsiy salomatlikka, balki jamiyatning salohiyatli, intellektual va faol fuqarolarini yetishtirish jarayoniga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta‘lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki sog‘lom avlodni tarbiyalovchi kuchli ijtimoiy institut sifatida qayta talqin etilmoqda. Ayniqsa, rekreatsion turizm bu borada nihoyatda dolzarb vositaga aylangan. Tabiat bilan bevosita muloqot, sayohat, yurishlar, sport va madaniy-tarbiyaviy faoliyatlar orqali nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy sog‘lomlashtirishga erishiladi. Rekreatsion turizm nafaqat hordiq chiqarish, balki yoshlarda sog‘lom fikrlash, mehnatga munosabat, jamoadorlik, ijobiy motivatsiyani shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rekreatsion turizmning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va uni talaba yoshlar tarbiyasiga samarali integratsiyalash ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Sog‘lom turmush tarzining pedagogik asoslarini shakllantirish orqali biz nafaqat salomat yoshlar, balki intellektual, ijtimoiy faol, ma‘naviy yetuk avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shamiz. Mazkur maqolada aynan rekreatsion turizm vositasida talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali pedagogik tizimi ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Metodologiya:

Rekreatsion turizm orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqotda metodologik asos sifatida pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va sog‘lom turmush tarzi konsepsiyalarining uyg‘unligi yotadi. Bu

yondashuv, avvalo, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tizimni shakllantirishni nazarda tutadi. Tadqiqot davomida biz rekreatsion faoliyatning shaxsga ta’siri, uning axloqiy, estetik, jismoniy va ijtimoiy tarbiyadagi o‘rnini aniqlashga intildik.

Tadqiqotda sistemali-analitik, qiyosiy-tahliliy, empirik va pedagogik tajriba usullari qo‘llanildi. Sistemali yondashuv orqali rekreatsion turizmning barcha tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, vosita va natija – o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli esa turli oliy ta’lim muassasalarida joriy etilgan rekreatsion-tarbiyaviy dasturlarni solishtirish va samaradorligini baholash imkonini berdi. Empirik yondashuv doirasida esa so‘rovnomalar, suhbatlar, kuzatuv va diagnostik testlar orqali talabalar orasidagi sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq holatlar o‘rganildi.

Metodik eksperiment esa ushbu tizimning real pedagogik muhitda qo‘llanilishi va uning samaradorligini amalda sinab ko‘rish imkonini berdi. Eksperiment shartli ravishda uch bosqichga ajratildi: tayyorgarlik, amaliyot va monitoring. Har bir bosqichda talabalarning jismoniy faolligi, ruhiy holati, sog‘lom hayotga qiziqishi va o‘zgarish dinamikasi muntazam kuzatib borildi. Shu bilan birga, talabalarda ekologik madaniyat, estetik did, ijtimoiy faollik va mas’uliyat tuyg‘usining shakllanishi ham baholandi. Shu tariqa, tanlangan metodologik yondashuv nafaqat nazariy asoslarni aniqlash, balki amaliyotda rekreatsion turizm vositasida talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni samarali qo‘llash imkonini berdi.

Xorijiy adabiyot va manbalar tahlili:

Rekreatsion turizm va sog‘lom turmush tarzining o‘zaro bog‘liqligi zamonaviy xorijiy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. AQSh, Germaniya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda olib borilgan izlanishlar rekreatsion faoliyatlarning yoshlar salomatligiga ta’siri, stressni kamaytirishdagi roli va shaxsiy ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab bermoqda.

Masalan, P. Witt va L. Caldwell [2] o‘z tadqiqotlarida rekreatsion faoliyatlar – ayniqsa ochiq havodagi yurishlar, tog‘ yurishlari va sport mashg‘ulotlari – talabalarning psixologik salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, bunday faoliyatlar stressni kamaytirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va o‘zini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

K. Torkildsen [3] esa rekreatsion sport faoliyatlarini nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlovchi, balki tarbiyaviy vazifani bajaruvi ijtimoiy institut sifatida baholaydi. U rekreatsion turizm orqali yosh avlodda intizom, liderlik, jamoaviylik va mas’uliyat kabi fazilatlar shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Bu g‘oya ko‘plab Yevropa universitetlarida talabalar uchun rekreatsion dasturlarni majburiy darsdan tashqari mashg‘ulotlar qatoriga kiritilishiga asos bo‘lgan.

Shuningdek, World Health Organization (WHO) [4] tomonidan e’lon qilingan sog‘lom turmush tarzi konsepsiyasi (Healthy Lifestyles for Youth)da ham rekreatsion faoliyatlar yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlashdagi asosiy vosita sifatida tilga olinadi. WHO

ma'lumotlariga ko'ra, harakatli turmush tarzi va ijtimoiy faol ishtirok yoshlar orasida ruhiy salomatlik, o'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini oshiradi.

Kanadalik pedagog Margaret Whitehead [1] sog'lom turmush tarzining asosiy komponentlaridan biri sifatida "fizik savodxonlik" (physical literacy) tushunchasini ilgari surgan. Uning tadqiqotlarida jismoniy va rekreatsion faoliyatlar yoshlarning harakatga bo'lgan qiziqishi va u orqali hayot sifati darajasini belgilovchi omil sifatida qaraladi.

Xitoy va Janubiy Koreya tadqiqotchilari esa sog'lom turmush tarzining ijtimoiy ongni shakllantiruvchi mexanizmlari doirasida ekologik va madaniy omillarning rolini chuqur tahlil qilgan. Ular talabalarning rekreatsion turizm orqali milliy madaniyat, tarixiy meros va tabiatga hurmat ruhida tarbiyalanishiga urg'u beradilar. Umuman olganda, xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rekreatsion turizm faqat jismoniy faoliyat emas, balki kompleks pedagogik vosita bo'lib, u orqali shaxsda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj, ijobiy dunyoqarash, hayotdan mamnunlik va ijtimoiy moslashuvchanlik shakllantiriladi. Bu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida ham talaba yoshlar bilan ishlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin [5].

Muhokama:

Zamonaviy ta'lim muhitida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi yoshlar tarbiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari sharoitida talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta'minlash muhim pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu kontekstdan qaralganda, rekreatsion turizm nafaqat sog'lom hayotga da'vat, balki talaba shaxsini har tomonlama tarbiyalashning samarali mexanizmi sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, rekreatsion faoliyatlar – sayohatlar, yurishlar, sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, ekologik tadbirlar – talabalarning hayotiy faolligini oshiradi, ularda jamoaviylik, liderlik, estetik zavq va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Ayniqsa, ochiq tabiatda tashkil etilgan faoliyatlar ruhiy barqarorlikni tiklash, stressni kamaytirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Bu esa sog'lom turmush tarzining pedagogik asoslarini shakllantirishda rekreatsion turizmning rolini yanada mustahkamlaydi.

1-jadval.

Rekreatsion turizm orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik tizimi



Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida rekreatsion turizm pedagogik tizim darajasida hali to‘liq shakllanmagan. Ko‘pchilik universitetlarda bu faoliyat ko‘proq fakultativ, ko‘ngillilar asosida yoki tadbirlar doirasida amalga oshiriladi, ammo uning tizimli, maqsadli va uzluksiz tashkil etilishi ta‘minlanmagan. Shu boisdan ham talabalarda sog‘lom turmush tarziga nisbatan barqaror motivatsiya hosil bo‘lmasligi kuzatilmoqda. Muhokama davomida aniqlanganki, rekreatsion turizmni pedagogik tizimga integratsiyalashda bir necha muhim omillarni inobatga olish lozim. Avvalo, ta‘lim dasturlariga rekreatsion-komponentni kiritish, fanlararo yondashuv asosida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini o‘quv jarayoniga singdirish muhimdir. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy turistik va sog‘lomlashtirish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish zarur. Uchinchi muhim jihat – bu talabalar ishtirokini rag‘batlantiruvchi motivatsion tizim yaratish, ya‘ni sog‘lom turmush tarziga amal qilayotgan yoshlarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Xorijiy tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, rekreatsion turizmni samarali tashkil etish orqali nafaqat salomatlik ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, balki ta‘lim sifati, ijtimoiy faollik va shaxsiy mas‘uliyat darajasi ham oshadi. Bu esa rekreatsion turizmning oddiy hordiq vositasi emas, balki ta‘lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi ekanini isbotlaydi. Shunday qilib, rekreatsion turizm orqali talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish – bu faqat salomatlikni mustahkamlash emas, balki jamiyatimizning sog‘lom fikrlaydigan, ijtimoiy faol va ma‘naviy barkamol yosh avlodini tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim pedagogik yo‘nalishdir. Kelgusida bu sohadagi tizimli islohotlar nafaqat ta‘lim tizimi, balki milliy taraqqiyot uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa.

Bugungi globallashuv va raqamli muhit sharoitida talaba yoshlarning sog‘lig‘i va jismoniy faolligini saqlab qolish, ularning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb masalaga aylangan. Rekreatsion turizm esa bu borada noyob tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi vosita sifatida e‘tirof etilishi lozim. Tabiat bilan bevosita muloqotda bo‘lish, jamoa bilan sayohat qilish, faol harakatga asoslangan mashg‘ulotlar nafaqat tana salomatligini mustahkamlashga, balki talaba shaxsining axloqiy-estetik kamolotiga ham xizmat qiladi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, rekreatsion turizm orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik tizimi — bu tizimli, uzviy va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlar majmuasidir. Ushbu tizim doirasida sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, dam olish madaniyati, ekologik ong va shaxsiy gigiyena kabi elementlar tarbiyaviy ishlanmalar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Shuningdek, pedagogik yondashuvlarda rekreatsion faoliyatlarni faqat qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida emas, balki tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xorijiy tajriba — xususan, AQSh, Kanada va Yevropa mamlakatlaridagi oliy ta‘lim muassasalarining rekreatsion dasturlarini o‘rganish — milliy modelni ishlab chiqishda boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, rekreatsion turizmning

ijtimoiy-pedagogik resurslari hali to‘liq ishga solinmagan bo‘lsa-da, uning ta‘lim tizimidagi salohiyati nihoyatda keng. U nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki o‘ziga ishonchli, ijtimoiy mas‘uliyatli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, bu yo‘nalishda tizimli ilmiy-amaliy tadqiqotlar, metodik qo‘llanmalar, tajriba almashinuvi va innovatsion yondashuvlarni kengaytirish dolzarb vazifadir. Xulosa qilib aytganda, rekreatsion turizmni pedagogik tizim sifatida chuqur o‘rganish va uni talabalarning kundalik hayotiga singdirish orqali sog‘lom, barkamol va ijtimoiy jihatdan yetuk yosh avlodni tarbiyalashga erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizning salohiyatli kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Whitehead, M. *Physical Literacy: Throughout the Lifecourse* / M. Whitehead. – London: Routledge, 2010. – 256 p.
2. Witt, P. A., Caldwell, L. L. *Recreation and Youth Development* / P. A. Witt, L. L. Caldwell. – State College, PA: Venture Publishing, 2005. – 330 p.
3. Torkildsen, G. *Leisure and Recreation Management* / G. Torkildsen. – London: E&FN Spon, 2001. – 640 p.
4. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ). *Руководство по формированию здорового образа жизни среди молодежи*. – Женева: ВОЗ, 2009. – 78 с.
5. Мирзаева, Н. М. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришда туризмнинг ўрни / Н. М. Мирзаева // *Жисмоний тарбия ва спорт*. – 2020. – №3. – Б. 55–58.
6. Babajanov I. (2025). *Rekreatsioon turizm asosida sog‘lom jamoaviy muhitni shakllantirish usullari*. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(9), 56–58.
7. Babajanov, I. (2025). *Formation of psychological stability and positive life mood in students through recreational tourism*. Development And Innovations In Science international scientific-online conference (T. 4, vol 5, pp. 51–54).
8. Babajanov, I. *Talabalar o‘rtasida rekreatsion turizm orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribasi tahlili*. Ta‘limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 3/2025. B 227-231.



UDK: 378.14:371.3:61:005.336

ORCID: 0000-0003-3219-3145

TALABALARNING AMALIY-KLINIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qayumov Avazbek Mutalibovich
Yuqumli kasalliklar kafesrasi
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta’limda talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida yoritilgan. Unda zamonaviy tibbiy ta’limda klinik fikrlash, muammoli vaziyatni hal qilish, tahliliy yondashuv va reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar amaliy-klinik kompetensiya, tibbiy ta’lim, pedagogik muammo, klinik tafakkur, muammoli ta’lim, tahliliy yondashuv, refleksiya.

РАЗВИТИЕ ПРАКТИКО-КЛИНИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В статье рассматривается формирование практическо-клинических компетенций студентов в медицинском образовании как актуальная педагогическая проблема. Обосновывается необходимость развития клинического мышления, навыков решения проблем, аналитических подходов и рефлексивных способностей в контексте современной медицинской подготовки.

Ключевые слова: практическо-клиническая компетентность, медицинское образование, педагогическая проблема, клиническое мышление, проблемное обучение, аналитический подход, рефлексия.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' PRACTICAL-CLINICAL COMPETENCES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation: This article highlights the formation of students' practical-clinical competencies in medical education as a pressing pedagogical issue. It substantiates the necessity of developing clinical reasoning, problem-solving skills, analytical approaches, and reflective abilities within the context of modern medical training.

Keywords: practical-clinical competence, medical education, pedagogical issue, clinical reasoning, problem-based learning, analytical approach, reflection.

KIRISH

Tibbiy ta'limning oldida turgan asosiy pedagogik muammo shundan iboratki, u nafaqat texnik jihatdan malakali, balki axloqan pishiq, madaniy jihatdan sezgir va mas'uliyatli fuqaro bo'lgan shifokorni qanday yetishtirishi kerak? Tibbiyotning bo'lajak shifokor va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilganda, bu masala nafaqat falsafiy, balki aynan shu pedagogik nuqtai nazardan ham dolzarb sanaladi. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida talabalar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, ularning klinik tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, amaliy-klinik kompetensiyalarini yuksaltirish orqali talabani har tomonlama yetuk etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonida talabalar nafaqat tibbiy bilimlarga, balki klinik fikrlashga tayyor bo'lishlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, amaliy-klinik kompetensiyalarni rivojlantirishni nafaqat fanni o'rgatish vazifasi, balki chuqur ma'naviy-tarbiyaviy jarayon sifatida ham ko'rib chiqishni taqozo etadi. Milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda talabalarda yuksak ma'naviyat va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni milliy ruhda tarbiyalash pedagogik jarayonning muhim maqsadlaridandir. Bu yondashuv shifokorlarga nafaqat xizmat ko'rsatuvchi subyekt, balki jamiyat ishonchini oqlovchi va sog'lom kelajakni shakllantiruvchi shaxslar sifatida qarashni ta'kidlaydi. Yuksak ma'naviyatli va amaliy-klinik jihatdan yetuk shifokorni tarbiyalash demokratik jamiyat barpo etish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Ushbu pedagogik muammoning ahamiyati davlat siyosati darajasida ham tan olingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi hujjatida tibbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash, bu jarayonga xorijiy olim va mutaxassislarni keng jalb etish zarurligi alohida ta'kidlangan.

METODOLOGIYA

Ushbu pedagogik muammoni hal etish uchun taklif etilayotgan metodologiya markazida funksional-kommunikativ yondashuv yotadi. Bu yondashuv klinik amaliyotni bir qator texnik muolajalar sifatida emas, balki bemorlar, hamkasblar va o'z-o'zi bilan (klinik fikrlash orqali) uzluksiz muloqot aktlari sifatida ko'rib chiqadi. Ta'lim jarayonida, ayniqsa yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda, fanning aynan amaliy-klinik funksiyasi asosiy metodik asos sifatida qaraladi. Shu bois ham zamonaviy yuqumli kasalliklar fani metodikasi bevosita klinik fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvlarni (clinic approach) o'z ichiga oladi. Ushbu metodologiya A.X. To'xtayevning tadqiqotlarida ilgari surilgan bosqichli rivojlanish konsepsiyasiga tayanadi, unga ko'ra, amaliy-klinik kompetensiyani shakllantirish ongliklik, faollik va mustaqillikning tobora yuqori darajalariga o'tishiga ko'maklashadigan tashkiliy-texnologik ta'minotni talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi an'anaviy ma'ruza o'quvchi roldan chiqib, talaba uchun yo'l ko'rsatuvchi, kasbiy tajriba vositachisi va rivojlanish uchun sharoit yaratuvchi fasilitator vazifasini bajaradi.

Metodologiyani amaliyotga tatbiq etishda autentik keyslar, pragmatik topshiriqlar va klinik kontekstli vaziyatlar kabi o'quv vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalar talabalarni aynan rivojlantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalarni qo'llashga majbur qilgani uchun tanlanadi va shu orqali "amaliyot -> tahlil (refleksiya) -> takomillashtirish" siklini yaratadi.

NATIJALAR

Taklif etilgan pedagogik yondashuvni qo'llash natijasida talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini rivojlantirishda bir necha muhim natijalarga erishildi. Eng asosiy natija – bu klinik fikrlashning markaziy o'ringa chiqishi va talabalarning o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirganidir. Bo'lajak shifokorning amaliy-klinik faoliyati va talaba sifatida kamol topishi, avvalo, uning boshqalar bilan amaliy-klinik muloqotga kirishish qobiliyatiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Klinik fikrlashdan chetda qolgan holda, bo'lajak shifokorning har qanday fikrlovchi faoliyati passiv holatga tushadi va rivojlanmaydi. Natijada, talabalarda ma'lumotni passiv qabul qilishdan voz kechib, klinik muammolar haqida faol ichki muloqot yuritish va mustaqil ma'no yaratishga o'tish kuzatildi. Yana bir muhim natija, amaliy-klinik kompetensiyaning aniqroq ta'riflanishidir: bu shunchaki qoidalar yig'indisi emas, balki klinik maqsadga yo'naltirilgan, mazmunli va kontekstga mos holda foydalanish orqali samarali fikrlash layoqati bo'lib, u diskursiv (muloqotni tashkil etish) va strategik (maqsaddan kelib chiqib vosita tanlash) bilimlarni qamrab oladi. Shuningdek, talabalarda gapirish–eshitish, o'qish–yozish kabi asosiy amaliy-klinik faoliyat turlarini egallash, turli vaziyatlarda og'zaki va yozma, dialogik va monologik shakllarda erkin fikr almasha olish kompetensiyalarining rivojlanishi ham muhim natija bo'ldi. Pirovard natija esa nafaqat kasbiy, balki shaxsiy jihatdan ham yetuk, amaliy-klinik jihatdan kompetentli mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatining yaratilishidir. Bunday yaxlit rivojlanish, o'z navbatida, shifokorning o'z ishidan mamnunligini va kasbiy chidamliligini oshiradi, chunki uning faoliyati shaxsiy va axloqiy qadriyatlariga mos keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, amaliy-klinik kompetensiyalarni rivojlantirish oddiy ko'nikmalarni o'rgatishdan ancha keng qamrovli, chuqur pedagogik muammodir. Tibbiy ta'limda talabalarning bu kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi kunda zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliy-klinik kompetensiya – bu nafaqat nazariy bilimga, balki real klinik vaziyatlarda to'g'ri tibbiy qaror qabul qilish, bemor bilan muloqot yuritish, muammoli holatni tahlil qilish, tashxis qo'yish va davolash strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatidir. Pedagogik tahlil shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida klinik holatlarga asoslangan o'rgatish (case-based learning), interaktiv metodlar (VAK modeli), simulyatsion treninglar va differensial tashxisga asoslangan topshiriqlar talabaning klinik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, amaliy-klinik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan metodik yondashuvni ishlab chiqish shunchaki "pedagogik zarurat" emas, balki jamiyatga xizmat qilishga intilgan har bir tibbiy ta'lim muassasasining axloqiy majburiyatidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmanov A.A. Tibbiy ta’limda kasbiy kompetensiyani shakllantirish asoslari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 178 b.
2. Ahmadaliyev R.B. Tibbiy pedagogika asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 224 b.
3. Spencer J.A., Jordan R.K. Learner centred approaches in medical education. *BMJ*, 1999; 318(7193): 1280–1283.
4. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487> . - Spain, 2023. – P. 17–21.
5. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2023, No. 9. – P.770–774.



UDC: 378.14:61:005.336

ORCID: 0000-0003-2472-0566

BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abdukodirov Sherzodjon Taxirovich
Yuqumli kasalliklar kafedrasini
Andijon davlat tibbiyot instituti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati tibbiy ta‘limning zamonaviy talablari asosida tahlil qilinadi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy komponentlari – bilim, amaliy ko‘nikma, kommunikativ madaniyat, klinik fikrlash va kasbiy etika bilan uzviy bog‘liq ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta‘lim, kasbiy kompetensiya, bo‘lajak shifokor, klinik fikrlash, integrativ yondashuv, simulyatsiya, pedagogik metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, refleksiya, amaliy mashg‘ulotlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация: В статье анализируется необходимость формирования профессиональных компетенций будущих врачей с учетом современных требований медицинского образования. Обосновывается неразрывная взаимосвязь основных компонентов профессиональной компетентности: знаний, практических навыков, коммуникативной культуры, клинического мышления и профессиональной этики. В исследовании подчеркивается важность педагогических стратегий, отвечающих современным вызовам в сфере подготовки медицинских работников.

Ключевые слова: медицинское образование, профессиональная компетентность, будущий врач, клиническое мышление, интегративный подход, симуляция, педагогические методы, студентоцентрированное обучение, рефлексия, практическая подготовка.

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES IN FUTURE DOCTORS

Annotation: This article analyzes the necessity of developing professional competencies in future physicians based on the modern requirements of medical education. It substantiates that the core components of professional competence—knowledge, practical skills, communicative culture, clinical reasoning, and professional ethics—are integrally interconnected. The study highlights the importance of pedagogical strategies that align with contemporary challenges in healthcare training.

Keywords: medical education, professional competence, future physician, clinical reasoning, integrative approach, simulation, pedagogical methods, student-centered learning, reflection, practical training.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lajak shifokorlarni nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy va reflektiv ko'nikmalar bilan ham qurollantirishdan iborat. Bu shuni anglatadiki, ta'lim paradigmasi "talaba nimalarni bilishi kerak?" degan savoldan "bitiruvchi nimalarni qila olishi kerak?" degan savolga o'tmoqda. Tibbiy muassasalarda bemorlarga xizmat ko'rsatishda kasbiy kompetensiya – ya'ni mustaqil qaror qabul qilish, klinik holatni baholash, samarali muloqot qilish, kasbiy qadriyatlarga sodiq bo'lish kabi sifatlar markaziy o'rin tutadi. Ushbu maqolada kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari, uning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari va o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi chuqur tahlil qilinadi.

Tibbiy oliy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bu shunchaki bilim berish emas, balki talabaning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini chuqurlashtirish, ularni real klinik muammolarni hal qilishga tayyorlash, tahliliy fikrlash, nutq madaniyati, empatiya va professional qadriyatlar bilan boyitilgan holatda rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir. Bu yondashuv, ayniqsa, yuqumli kasalliklar fanida yanada dolzarb tus oladi, chunki infeksiya kasalliklar shifokorlaridan tezkor harakat, zamonaviy qarash va o'zgaruvchan epidemiologik muhitga moslashuvchanlik talab qilinadi. Ushbu o'zgaruvchan sharoitlar kompetensiyaga asoslangan ta'limning samaradorligini sinovdan o'tkazish uchun ideal muhit hisoblanadi. Shu bois, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish uchun o'quv jarayonini samarali tashkil etish muhim metodik yechim sifatida ilgari suriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot kasbiy kompetensiya tushunchasini uning fundamental psixologik-pedagogik asoslariga ajratib, nazariy tahlil qilish metodologiyasiga tayanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiya shakllanishi uchun quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan psixologik-pedagogik asoslar mavjud bo'lishi kerak:

1. Kognitiv rivojlanish: Bilimlarni o'zlashtirish va aqliy faoliyatga asoslanadi.
2. Motivatsion komponent: Kasbga bo'lgan ichki intilish va qiziqishni ifodalaydi.
3. Affektiv komponent: Hissiy-emotsional va qadriyatlarga oid munosabatni aks ettiradi.

4. Volyativ (irodaviy) komponent: Mas'uliyat, qat'iyat va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ushbu to'rt komponent kompetensiyaning poydevorini tashkil etadi va ularning har biri bo'lajak shifokorni shakllantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir psixologik-pedagogik komponent o'ziga xos rivojlanish mexanizmlari va natijalariga ega.

Kognitiv rivojlanish natijalari: Bu bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy o'rin tutuvchi bosqich bo'lib, u kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni puxta egallash, klinik holatlarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, diagnostik qarorlar chiqarishda mantiqiy asoslar yaratish, tibbiy axborotni tezda qayta ishlash va klinik tafakkur orqali chuqur anglash qobiliyatlarining tizimli rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bu rivojlanish talabalarning tahliliy fikrlash, klinik mulohaza yuritish va kasbiy muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish salohiyatini oshirib, ularni kelajakda dalillarga asoslangan tibbiyot (evidence-based medicine) amaliyotini yurita oladigan, samarali faoliyat yurituvchi kompetent shifokor sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Motivatsion komponentning shakllanishi: Bu komponent bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning ichki harakatlantiruvchi omilidir. U talabada tibbiyot kasbiga nisbatan chin dildan qiziqish uyg'otilishi, inson salomatligi uchun mas'uliyatni his etish, fidoyilik ruhida xizmat qilishga intilish, kasbiy o'zini anglash va o'z ustida ishlashga ehtiyoj sezish holatlari bilan belgilanadi. Bu komponent tibbiy ta'lim jarayonida o'qituvchining individual yondashuvi, klinik amaliyotga yaqinlashtirilgan o'quv sharoitlar, bemor taqdiriga daxldor bo'lgan real vaziyatlar bilan tanishtirish orqali kuchaytiriladi. Natijada, motivatsion jihatdan yetuk talaba o'zining kasbiy rolini anglaydi, o'rganayotgan bilim va ko'nikmalarning hayotiy zarurligini chuqur his etadi va shifokorlik faoliyatiga klinik va axloqiy mas'uliyat bilan yondashadi. Yuqori motivatsiya, shuningdek, umrbod ta'lim olish va kasbiy "kuyish"ning oldini olish uchun muhim omil hisoblanadi.

Affektiv komponentning rivojlanishi: Bu bo'lajak shifokorning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim psixologik-emotsional qatlam bo'lib, u talabaning kasbiy qadriyatlarga sadoqati, tibbiy etika me'yorlarini ichki e'tiqod sifatida qabul qilishi va bemorlarga empatik yondashuv asosida munosabat bildirish salohiyatini ifodalaydi. Ushbu komponent orqali talaba sog'liqni saqlash tizimidagi o'z o'rnini chuqur anglaydi, bemor shaxsini nafaqat klinik holat, balki ijtimoiy, ruhiy va emotsional jihatdan tushunishga intiladi. Bu esa kasbiy axloq, insonparvarlik, hurmat, rahm-shafqat, bemor manfaatini ustuvor qo'yish kabi tibbiy-professional qadriyatlarning o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ushbu komponent bemorga yo'naltirilgan parvarishning (patient-centered care) asosi hisoblanadi.

Volyativ (irodaviy) komponentning shakllantirilishi: Tibbiy faoliyat murakkab va yuqori mas'uliyatli soha bo'lganligi sababli, har bir shifokor o'z qarorlarining oqibatlarini oldindan anglay olishi, aniqlik bilan harakat qilishi va psixologik bosim ostida ham vaziyatga nisbatan

izchil yondasha olishi zarur. Shuning uchun volyativ komponent shifokor shaxsining kasbiy barkamolligi va yetukligi mezoni hisoblanadi. Mazkur komponentni rivojlantirish uchun tibbiy ta’limda muammoli klinik keyslar asosida mustaqil qaror qabul qilish topshiriqlari ; real hayotga yaqinlashtirilgan simulyatsion mashg‘ulotlar ; ekstremal holatlarda qaror qabul qilish va stressga chidamlilikni o‘rgatuvchi metodik yondashuvlar ; faoliyatini tahlil qilishga doir reflektiv topshiriqlar joriy etiladi. Natijada, volyativ komponenti shakllangan bo‘lajak shifokorlar kasbiy mas’uliyatni ongli qabul qiluvchi, klinik sharoitlarda qat’iy va mustaqil harakat qiluvchi, kasbiy bosimlarga dosh bera oluvchi mutaxassis sifatida voyaga yetadilar.

Integrativ natijalar: Aynan shu yondashuvlar orqali talabalarda klinik tafakkurga asoslangan kasbiy refleksiya, diagnostik ma’lumotlarga tayanib qaror qabul qilish, hamda analitik-klinik mushohada yurita olish kompetensiyasi shakllanadi va butun kasbiy faoliyati davomida mustahkamlanib boradi. Umuman olganda, kasbiy kompetensiya - bu nafaqat bilim va ko‘nikmalar majmui, balki shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi, o‘zini shu kasb egasi sifatida anglashi, muammoli vaziyatlarda mustaqil, mas’uliyatli va axloqiy qarorlar qabul qila olishi bilan belgilanadigan integrativ sifatdir. Bu tushuncha kognitiv (bilim), operatsion (ko‘nikma) va affektiv (qadriyat) komponentlarining o‘zaro uyg‘unlashuvidan tashkil topadi. Shuningdek, bo‘lajak shifokorning kasbiy madaniyatini oshirish va o‘qituvchi bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham ushbu jarayonning muhim natijalaridandir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo‘lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta’limning strategik maqsadidir. Bu kompetensiya oddiy bilimlar yig‘indisi emas, balki faoliyat davomida namoyon bo‘ladigan, kognitiv, motivatsion, affektiv va irodaviy jihatlarni birlashtirgan murakkab, integrallashgan shaxsiy sifatdir. Uni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan – xususan integrativ, amaliy, reflektiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish zarur.

Kasbiy kompetensiya faqat klinik muhitda, real yoki simulyatsiya qilingan amaliyot jarayonida shakllanadi. Shu bois, nazariy bilimlar amaliyot bilan uzviy uyg‘unlashgan holda, kasbiy ehtiyojlar asosida berilishi, talaba o‘zini bo‘lajak shifokor sifatida to‘liq his qiladigan sharoitlar yaratib berilishi lozim. Bu kelajakda sog‘liqni saqlash tizimining sifatini va bemorlar hayotining farovonligini ta’minlaydigan malakali mutaxassislarni tayyorlashning yagona yo‘lidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhmedova Z.M., Juraev O.S. Tibbiy ta’limda klinik fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari (ilmiy maqola). // Tibbiy pedagogika jurnali. – T.: 2022. – №3. – B. 42–47.
2. Mezirow J. Transformative Learning: Theory to Practice. // New Directions for Adult and Continuing Education. – 1997. – №74. – P. 5–12.
3. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. // Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29(7). – P. 625–629.

4. Komilov Nodirbek. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487> - Spain, 2023. – P. 17–21.

5. Komilov Nodirbek. [Enhancement of Exclusive Competencies of Foreign Students by Teaching the History of Medicine in Medical Education](#) // World Bulletin of Social Sciences, 2025, No. 32. – P.41-44.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHI-PEDAGOGLARIDA KASBIY MA'NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

Tel: +998905454147

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar shaxsida kasbiy ma'naviy madaniyatni shakllantirish zarurati tahlil qilingan. Kasbiy ma'naviy madaniyatning mazmuni, asosiy tarkibiy komponentlari, uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda didaktik imkoniyatlar, faol va reflektiv metodlarning roli, o'quv dasturlari mazmuni hamda pedagogik amaliyotning ta'siri ilmiy asosda bayon etilgan. Maqolada kasbiy axloqiy qadriyatlarni talabalarga singdirish orqali ularni nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk shaxs sifatida shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy ma'naviy madaniyat, bo'lajak tarbiyachi-pedagog, maktabgacha ta'lim, pedagog shaxsiyati, kasbiy axloq, didaktik imkoniyatlar, refleksiya, pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, innovatsion metodlar.

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL MORAL CULTURE IN FUTURE PRESCHOOL EDUCATION TEACHER-EDUCATORS

Annotation: This article analyzes the necessity of developing professional moral culture in the personality of future preschool teacher-educators. It explores the content of professional moral culture, its key structural components, and its significance in pedagogical activity. The study scientifically substantiates the role of didactic opportunities, active and reflective methods, curriculum content, and pedagogical practice in fostering moral and professional values in future educators. The article emphasizes the importance of instilling professional ethical values in students to form not only knowledgeable, but also morally mature individuals.

Keywords: Professional moral culture, future preschool teacher-educator, preschool education, teacher personality, professional ethics, didactic opportunities, reflection, pedagogical practice, professional competence, innovative methods.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГ-ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация: В данной статье проанализирована необходимость формирования профессиональной нравственной культуры у будущих педагог-воспитателей. Раскрыто содержание профессиональной нравственной культуры, её основные структурные компоненты и значение в педагогической деятельности. На научной основе рассмотрено влияние дидактических возможностей, активных и рефлексивных методов, содержания учебных программ и педагогической практики на развитие профессиональной нравственной культуры у будущих воспитателей. В статье обоснована необходимость воспитания у студентов не только знаний, но и высоких нравственных качеств посредством привития профессионально-этических ценностей.

Ключевые слова: Профессиональная нравственная культура, будущий воспитатель-педагог, дошкольное образование, личность педагога, профессиональная этика, дидактические возможности, рефлексия, педагогическая практика, профессиональная компетентность, инновационные методы.

Kirish

XXI asrda ta'lim sifatining yuksalishi, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida, pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi. Endilikda tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolaga ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi, axloqiy namuna, insoniylik timsoli sifatida qaralmoqda. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan yoki bu sohaga tayyorlanayotgan bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ma'naviy madaniyatini shakllantirish bugungi kunda pedagogik ta'limning strategik yo'nalishiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-noyabrdagi PQ-4507-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida ta'kidlanganidek, "maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini ilg'or xorijiy tajribalar asosida modernizatsiya qilish orqali, bolalarning sog'lom va barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun zaruriy pedagogik sharoitlar yaratilishi" lozim[1]. Bu esa bevosita tarbiyachining kasbiy-axloqiy yetukligi bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogik madaniyat va kasbiy ma'naviy fazilatlar muammosi A.V. Mudrik, M.N. Skatkin, N.V. Kuzmina, G.I. Shchukina, V.A. Slastenin kabi klassik pedagoglar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, A.V. Mudrik ma'naviyatni "insonning ichki dunyosi, uning ijtimoiy qadriyatlarga ongli munosabati" deb izohlar ekan, kasbiy ma'naviy madaniyatni shaxsiy ong va e'tiqod bilan bog'laydi [2]. Bu yondashuv pedagog shaxsining axloqiy pozitsiyasini aniqlovchi mezon sifatida muhimdir.

M.N. Skatkin esa ta'kidlaganidek, faqat bilim egasi bo'lish etarli emas, balki kasbiy-axloqiy pozitsiyaga ega bo'lish haqiqiy tarbiyachi bo'lishning garovidir [3]. Bu fikr,

maktabgacha ta'lim bosqichida axloqiy ideal bo'lish mas'uliyati aynan tarbiyachiga yuklatilganini ko'rsatadi.

Kasbiy madaniyatning tarkibiy qismlari, ya'ni: axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, kasbiy refleksiya, kasbiy etika me'yorlariga rioya qilish, kasbga sadoqat bilan bog'liq xatti-harakatlar haqida N.V. Kuzmina o'zining "Professionalizm pedagog" asarida atroflicha tahlil beradi [4].

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida aytish mumkinki, kasbiy ma'naviy madaniyat -bu faqatgina nazariy tushuncha emas, balki ta'lim sifati va tarbiyachining professional imijini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, bu fazilatlar aniq metodologik yondashuvlar, didaktik imkoniyatlar, shaxsga yo'naltirilgan va milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim orqali shakllantiriladi. Shu sababli, bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi hamda aniq didaktik asosga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslash maqsad qilingan. Ushbu maqolada A.V. Mudrik, M.N. Skatkin, B. Abdukarimov, V.A. Slastenin kabi pedagog va psixolog olimlarning ilmiy qarashlari asosida olib borildi.

Tahlillar va natijalar

Kasbiy ma'naviy madaniyatning shakllanishi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Bu - maqsadli, tizimli, ilmiy asoslangan ta'limiy jarayon bo'lib, unda didaktik imkoniyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu imkoniyatlar o'quv dasturlari, fan mazmuni, o'qitish metodlari, axloqiy muhit, amaliyot va o'z-o'zini anglash vositalari orqali ta'minlanadi.

Kasbiy ma'naviy madaniyat quyidagi asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- kasbiy o'zini anglash va kasbga sadoqat;
- o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish (refleksiya);
- axloqiy qaror qabul qilishga tayyorlik;
- kasbiy etika me'yorlariga amal qilish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlash jarayonining ijtimoiy ahamiyatining kuchayishi yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ta'lim tizimining yangi ta'lim sharoitlariga mos ravishda rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, globallashtirish va integratsiya jarayonlari maktabgacha ta'lim sohasidagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning kontseptual asoslarini sifatli o'zgartirishni talab qiladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi-pedagogining kasbiy faoliyatining samaradorligi uning kasbiy tayyorgarligi sifatiga, kasbiy bilim darajasiga, olingan bilimlarni amaliyotda

qo‘llash ko‘nikma va malakalariga, va mamlakatning zamonaviy ta‘lim sharoitida kasbiy faoliyatni amalga oshirish tayyorligiga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta‘lim tizimi bola shaxsini har tomonlama yani individual, aqliy va jismoniy xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda maktabgacha ta‘lim tarbiyachining shaxsiyatiga alohida talablar qo‘yiladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki bo‘lajak maktabgacha tarbiyachining kasbiy tayyorgarligining ustuvor vazifasi – bo‘lajak mutaxassislarda shaxsiyatni tushunish va bolalarning individualligini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishni ta‘minlaydigan kasbiy fazilatlarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda bo‘lajak maktabgacha ta‘lim mutaxassislarini tayyorlash jarayoni olimlar tomonidan ko‘p omilli tizim sifatida talqin etilmoqda. Ushbu tizimning asosiy maqsadi – har bir talabada kasbiy faoliyatga shaxsiy yondashuvni shakllantirish, pedagogik mahoratni rivojlantirish hamda bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashga nisbatan chuqur va barqaror qiziqish uyg‘otishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan olimlar fikri va izohli lug‘atlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash tizimi - bu o‘zaro bog‘liq va hamkorlikda ishlaydigan bir nechta qismlardan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Ular bir-birini to‘ldirib, bir butunlikni hosil qiladi.

Pedagogik jarayonning maksimal rivojlantiruvchi samaradorligiga erishish uchun uni maxsus texnologik asosda tashkil etish talab etiladi [5]. Ya‘ni, bu - pedagogik tizimlar nazariyasining asosiy qoidalariga tayangan holda to‘liq didaktik tizim yaratishni anglatadi.

Birinchi navbatda, talabalarni pedagogik tayyorlash maqsadlari o‘zgarib, ularning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi faoliyatini kuchaytirishga yo‘naltirilmoqda. Bu esa, nafaqat umuminsoniy qadriyatlar va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishni, balki talabalarni ma‘naviyatni, milliy an‘analarni, xalq pedagogikasi va tarbiya tizimining ijodiy yutuqlarini chuqur o‘rganish va saqlab qolishga, shuningdek, insonparvar shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Talabalarning pedagogik fanlar bo‘yicha o‘quv tayyorgarligi mazmuni shaxsga yo‘naltirilgan faoliyat yondashuvi, milliy hamda xorijiy demokratik pedagogik merosga asoslangan zamonaviy nazariy-metodologik konsepsiyalar bilan sezilarli darajada yangilanmoqda. Bu esa tarbiyaviy jarayonda nihoyatda boy va bebaho tajribadan foydalanish imkonini beradi [6]. Shuningdek, talabalarni muqobil tarbiya tizimlari va pedagogik innovatsiyalar bilan tanishtirish ham nazarda tutilgan.

Kasbiy ma‘naviy madaniyatni shakllantirish jarayoni o‘quv jarayonining barcha bosqichlariga integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. Quyidagi didaktik imkoniyatlar bu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi:

- a) O‘quv dasturiga tarbiyaviy yo‘naltirilgan fanlarni kiritilganligi: “Pedagogik etiket”, “Kasbiy madaniyat asoslari”, “Etik muloqot psixologiyasi” kabi fanlar orqali talabalarda axloqiy-estetik did, kasbiy qadriyatlarga hurmat shakllanadi.

- b) Faol va interaktiv metodlar: muammoli vaziyatlar tahlili, aqliy hujum (brainstorming), “Axloqiy tanlov” mashg‘ulotlari. Bu metodlar talabani axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.
- c) Reflektiv metodlar - bu o‘z faoliyati ustidan mulohaza yuritish, xatolarni tan olish va takomillashuvga intilishdir. Talabalarning shaxsiy kundaliklari, yozma mulohazalari, pedagogik portfeli orqali bu jarayonni faol shakllantirish mumkin.
- d) Amaliyot orqali real faoliyatga kirishish -bo‘lajak tarbiyachilar pedagogik amaliyot vaqtida o‘z kasbiy axloqiy ko‘nikmalarini real sharoitda sinovdan o‘tkazadilar. Bu bosqichda ularning nazariy bilimlari amaliyotda qanchalik uyg‘un ekanligi aniqlanadi.

Bu borada B. Abdukarimov e‘tirof etadi: “Amaliy faoliyatda talabalar faqat kasbiy emas, balki axloqiy qarashlarini ham mustahkamlab boradilar, bu esa kasbiy ma’naviy madaniyatning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi” [7].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirish ta’lim jarayonining har bir bosqichiga singdirilishi lozim bo‘lgan murakkab, lekin zarur jarayondir. Bu jarayonni didaktik asosda tashkil etish, faol va reflektiv metodlardan foydalanish, amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Olimlarning ta’kidlashicha, pedagog shaxsi – bu faqat bilim emas, balki ma’naviy poydevorga ega bo‘lgan jamiyat yetakchisidir. Bunday shaxsni tarbiyalashda esa didaktik imkoniyatlardan oqilona foydalanish ta’lim sifatining asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4507-son qarori. “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2019-yil 6-noyabr. -[Elektron resurs]: <https://lex.uz>
2. Mudrik, A. V. (2001). Sotsialnaya pedagogika [Ijtimoiy pedagogika]. Moskva: Akademiya.
3. Skatkin, M. N. (1982). Didaktika sovremennoy shkoly [Zamonaviy maktab didaktikasi]. Moskva: Prosveshchenie.
4. Kuzmina, N.V. Professionalizm pedagogov: psixologo-pedagogicheskiy aspekt / N.V. Kuzmina. – M.: Znaniye, 1990. – 194 b.
5. Chagovets, A. I. (2015). Didakticheskiy aspekt professional’noy podgotovki budushchikh vospitateley DOU [Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorlashda didaktik yondashuv]. Azimut nauchnykh issledovaniy: pedagogika i psikhologiya, №2(11).
6. Ilyin, V. S. (1984). Tselostnyy protsess formirovaniya vseromne razvitoj garmonichnoy lichnosti [Har tomonlama yetuk va uyg‘un shaxsni shakllantirishning yaxlit jarayoni]. Tselostnyy podkhod v uchebno-vospitatel’nom protsesse: sbornik nauchnykh trudov, Volgograd: VGPI, 3–26.
7. Abdukarimov, B. (2022). Pedagogik amaliyotda kasbiy ma’naviyatni shakllantirish mexanizmlari. Ilmiy-amaliy jurnal “Maktabgacha ta’lim”, №2.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

IJTIMOIIY-EKOLOGIK MADANIYATNING NAZARIY ASOSLARI VA UNING SHAKLLANISHI

Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna
Andijon davlat tibbiyot instituti
Akademiya litseyi Biologiya fani o'qituvchisi.
m.fotimaxon1977@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari va uning shakllanish jarayonini tahlil qilingan. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni inson va jamiyatning tabiatga mas'uliyatli munosabatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflab, uning tarkibiy qismlari, ta'sir etuvchi omillari va rivojlantirish yo'nalishlarini yoritilgan. Tadqiqot ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ong, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyatning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqola barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ekologik ta'lim, huquqiy mexanizmlar, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining rolini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ekologik madaniyatni rivojlantirishda davlat siyosati va jamoatchilik faolligining o'рни tahlil qilinadi. Унда ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil ekanligini yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ekologik axloq, tabiiy resurslar, ekologik ta'lim, ekologik muammolar, ekologik qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik xulq-atvor.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы социально-экологической культуры и процесс её формирования. Определяя социально-экологическую культуру как социальное явление, выражающее ответственное отношение человека и общества к природе, выделяются её компоненты, факторы влияния и направления развития. Подчеркивается важность экологического сознания, нравственных ценностей и практической деятельности в формировании социально-экологической культуры. Показана роль экологического образования, правовых механизмов, информационных технологий и средств массовой информации в реализации принципов устойчивого развития. Анализируется роль государственной политики и общественной деятельности в развитии экологической культуры. Отмечается, что развитие социально-экологической культуры является важным фактором решения современных экологических проблем и обеспечения устойчивого развития общества.

Ключевые слова: социально-экологическая культура, экологическое сознание, устойчивое развитие, экологическая этика, природные ресурсы, экологическое образование, экологические проблемы, экологические ценности, социальная ответственность и экологическое поведение.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of socio-ecological culture and the process of its formation. Defining socio-ecological culture as a social phenomenon that expresses the responsible attitude of man and society to nature, it highlights its components, influencing factors and development directions. The study emphasizes the importance of environmental awareness, moral values and practical activities in the formation of socio-ecological culture. The article shows the role of environmental education, legal mechanisms, information technologies and the media in implementing the principles of sustainable development. It also analyzes the role of state policy and public activity in the development of ecological culture. It highlights that the development of socio-ecological culture is an important factor in solving modern environmental problems and ensuring the sustainable development of society.

Keywords: socio-ecological culture, ecological awareness, sustainable development, ecological ethics, natural resources, environmental education, environmental problems, ecological values, social responsibility and ecological behavior.

KIRISH

Insoniyatning tabiiy muhitga nisbatan munosabati, rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hozirgi global ekologik muammolar ushbu munosabatni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, chiqindilar muammosi, tabiiy resurslarning cheklanishi kabi hodisalar zamonaviy dunyoda eng dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu muammolar nafaqat ekologik muvozanatni buzmoqda, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bu esa ekologik mas‘uliyatni oshirish va ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyatini kun tartibiga keltirmoqda.

Ijtimoiy-ekologik madaniyat, inson va jamiyatning tabiatga bo‘lgan ongli va mas‘uliyatli munosabatini ifodalaydi. Ushbu madaniyat nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni o‘z ichiga oladi, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda inson faoliyatini muvofiqlashtirishni ham ta‘minlaydi. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishi, avvalo, ekologik ong va xulq-atvor, ekologik axloq va qadriyatlar tizimi orqali jamiyatning umumiy madaniyatiga integratsiyalashgan holda rivojlanadi.

Bugungi global ekologik vaziyatni hisobga olgan holda, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy vazifadir. Ijtimoiy-ekologik madaniyat, bir tomondan, tabiiy muhitni himoya qilishni ta‘minlaydigan axloqiy me‘yor va qadriyatlar tizimi sifatida, ikkinchi tomondan esa jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.


Ushbu maqola ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslarini o‘rganishga va uning shakllanish jarayonini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Maqola doirasida ijtimoiy-ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari, shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va uni rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ekologik ongni rivojlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ijtimoiy-ekologik madaniyatning o‘rni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zaruriyatida namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy-ekologik madaniyat – bu insoniyatning tabiiy muhitga mas’uliyatli munosabatini ifodalovchi, ekologik ong, axloq va xulq-atvorga asoslangan ijtimoiy hodisadir. Ushbu madaniyat tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari ekologiya, ijtimoiy fanlar va barqaror rivojlanish tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanadi.

Ekologiya va ijtimoiy fanlarning integratsiyasi ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ekologiya tabiiy muhitning holatini tahlil qilsa, ijtimoiy fanlar jamiyatning tabiiy resurslarga ta’siri va bu ta’sirning oqibatlarini o‘rganadi. Ushbu fanlarning sintezida ekologik axloq va mas’uliyat tushunchalari rivojlanadi.

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi esa ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy bazasi hisoblanadi. Bu kontsepsiya hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodning imkoniyatlarini cheklamaslik



1-rasm. Ijtimoiy-ekologik madaniyatning tuzilishi.

tamoyiliga asoslanadi. Barqaror rivojlanish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash orqali ekologik madaniyatni kengaytirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-ekologik madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Ushbu qismlar ekologik ong, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyat orqali ifodalanadi. Хыссын:

1. Ekologik ong va tafakkur. Ekologik ong insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashidan iborat bo‘lib, uning asosida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlar shakllanadi. Bu tushuncha odamlarning ekologik muammolarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ekologik ong rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhimdir:

- *ekologik ta’lim va tarbiya.* Maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik bilimlarni o‘rgatish orqali ekologik ongni mustahkamlash;
- *ijtimoiy xabardorlik.* Media va axborot texnologiyalari yordamida ekologik muammolar haqida ma’lumot tarqatish.
- *madaniy muhit.* Jamiyatdagi ekologik qadriyatlarning kuchayishi.

2. Axloqiy me’yorlar va ekologik qadriyatlar. Ekologik axloq inson va tabiat o‘rtasidagi mas’uliyatli munosabatni belgilaydigan axloqiy me’yorlar tizimidir. Ushbu me’yorlar ekologik mas’uliyatni oshiradi va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan xatti-harakatlarni rag‘batlantiradi. Ekologik qadriyatlar esa jamiyatda ekologik ongni rivojlantirish uchun axloqiy yo‘riqnomalar vazifasini bajaradi. Ushbu qadriyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tabiatni himoya qilish;
- chiqindilarni qayta ishlashni targ‘ib qilish;
- resurslardan oqilona foydalanish.

3. Amaliy faoliyat va ekologik xulq-atvor. Ekologik xulq-atvor insonlarning kundalik hayotida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuidir. Bu chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, yashil hududlarni ko‘paytirish kabi odatlarni shakllantiradi. Jamoaviy ekologik aksiyalar va loyihalar esa jamiyatda ekologik xulq-atvorni kuchaytirishda samarali vositadir.

Misol uchun:

- *chiqindilarni boshqarish loyihalari.* Jamiyatda chiqindilarni ajratish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish.
- *daraxt ekish kampaniyalari.* Hududlarni ko‘kalamzorlashtirish va tabiiy muhitni tiklash.
- *ekologik targ‘ibot tadbirlari.* Ekologik muammolarni jamoatchilikka yetkazish uchun seminarlar va treninglar tashkil qilish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Ta’lim va tarbiya. Ekologik ta’lim va tarbiya ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning poydevorini tashkil etadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik bilimlarni chuqur o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quvchilarni ekologik

muammolarni hal qilishga jalb qilish orqali yosh avlodning ekologik ongini oshirish mumkin. Shuningdek, ekologik aksiyalar va loyihalar orqali yoshlarning amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish zarur.

2. Axborot texnologiyalari va media. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik mas’uliyatni targ‘ib qilish jamiyatda ekologik ongni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Media ekologik muammolarni yoritish, aholiga axborot yetkazish va ekologik xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Huquqiy va siyosiy omillar. Davlatning ekologik qonunchiligi va siyosati ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy asos yaratadi. Ekologik qonunlar, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha qoidalar va davlat tomonidan ekologik dasturlarni amalga oshirish jamiyatda mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi ekologik muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonda ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish qator global va mahalliy muammolar bilan bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va chiqindilar muammosi kabi masalalar bu madaniyatni shakllantirishda asosiy dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda quyidagicha yondashuvlar muhim:

1. Parij kelishuvi va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish.
2. Chiqindilarni qayta ishlash, daraxt ekish va suvni tejash bo‘yicha mahalliy dasturlarni kengaytirish.
3. Jamiyatning barcha qatlamlarini ekologik muammolarni hal qilishga jalb qilish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatning shakllanishi jamiyatning barqaror rivojlanish yo‘lida mas’uliyatli yondashuvini ta’minlaydi. Ushbu madaniyat nafaqat tabiiy muhitni muhofaza qilishga, balki jamiyatning ekologik farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari orqali xabardorlikni oshirish va davlat siyosatini mustahkamlash ushbu madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar yangi ilmiy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Global iqlim o‘zgarishi, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslarning tanqisligi kabi muammolar ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishni shunchaki tavsiyalar darajasidan strategik jarayonga aylantirishni talab qilmoqda. Shu sababli, ekologik madaniyatni ilmiy asosda o‘rganish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Ву борада қуйидаги аспектлар муҳим ўрин тутади:

I. Ekologik ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha raqamli texnologiyalar So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Sun‘iy intellekt va “Big Data” texnologiyalari atrof-muhit monitoringi, chiqindilarni boshqarish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha samarali qarorlar ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda. Masalan:

a) ekologik kuzatuv tizimlari. Sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida hududiy ekologik muammolarni aniqlash va ularga yechim topish;

b) raqamli ekologik o‘yinlar. Yoshlar orasida ekologik ongni rivojlantirish uchun ekologik muammolarni aks ettiruvchi interfaol o‘yinlar yaratish.

b) chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ilovalar. Chiqindilarni qayta ishlash va ularni ajratish jarayonlarini rag‘batlantirish uchun mobil ilovalar va platformalar ishlab chiqish.

II. Ekologik axloq va ongni rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim modellari. Ekologik ta‘lim ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) interfaol ta‘lim metodikasi. Onlayn platformalar orqali ekologik muammolarni muhokama qilish va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;

b) STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi. Ekologik masalalarni texnik va ijodiy yondashuv orqali o‘rganish, bu esa yangi ekologik texnologiyalarni yaratishga yo‘naltirilgan;

b) hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan ta‘lim. Yoshlarni ekologik xulq-atvor, mas‘uliyat va ekologik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘rgatish.

3. Mahalliy va global ekologik hamkorlik. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro va mahalliy tashabbuslarning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

a) mahalliy ekologik loyihalar. daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha dasturlar;

b) xalqaro kelishuvlar va tashabbuslar. Parij kelishuvi, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va boshqa xalqaro ekologik dasturlarning jamiyatga tatbiq etilishi.

b) jamoatchilik faolligi. Ekologik harakatlarda volontyorlik va fuqarolik tashabbuslarining o‘rni.

Ekologik iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta‘minlashda yangi yondashuvlarni taklif etmoqda. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda yashil iqtisodiyot modellarini joriy etish ekologik mas‘uliyatni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashga yordam bermoqda. Misol uchun:

- uglerod chiqindilarini minimallashtirish orqali atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish;
- quyosh, shamol va bioenergiya kabi manbalardan keng foydalanish;
- tovar va materiallarni qayta ishlash orqali chiqindilarni kamaytirish;

Hozirgi davrda ekologik muammolarni hal qilishda zamonaviy tahlil usullari keng qo‘llanilmoqda. Masalan:

1) hayot sikli tahlili (Life Cycle Assessment). Mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib utilizatsiyagacha bo‘lgan ekologik ta‘sirini baholash;

2) ekotizim xizmatlarini iqtisodiy baholash. Tabiiy resurslarning iqtisodiy ahamiyatini o‘lchash;

So‘nggi tadqiqotlarda ijtimoiy ekologiya tamoyillarining jamoat ekologik harakatlariga ta’siri o‘rganilmoqda. Ushbu nazariyalar ekologik mas’uliyatni shaxsiy qarorlardan jamoaviy harakatlarga aylantirish mexanizmlarini tavsiflaydi.

- 3) **texnologiyalar va ta’limni uyg‘unlashtirish.** Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik bilimlarni ta’limga tatbiq etish;
- 4) **ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish.** Barqaror rivojlanishni ta’minlovchi texnologiyalarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash;
- 5) **fuqarolik jamiyatining roli.** Mahalliy ekologik loyihalarni amalga oshirishda jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilish;
- 6) **iqlimga moslashish strategiyalari.** Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorliklar ushbu madaniyatni yangi bosqichga olib chiqib, zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Bu esa ekologik mas’uliyatli jamiyatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA

Ijtimoiy-ekologik madaniyat zamonaviy ekologik muammolarni hal qilish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu madaniyatning shakllanishi ekologik ong va axloqni rivojlantirish, tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-ekologik madaniyatning nazariy asoslari, tarkibiy qismlari va shakllanish jarayoni tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik ong va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ta’lim, tarbiya, huquqiy mexanizmlar va axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda jamoatchilik faolligi va davlat siyosatining muvofiqligi hal qiluvchi rol o‘ynashi ta’kidlandi.

Bugungi global muammolar, iqlim o‘zgarishi, chiqindilarni boshqarish, suv va tabiiy resurslarning tanqisligi – ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- ekologik ta’limni kengaytirish va interfaol metodlarni joriy etish;
- axborot texnologiyalari orqali ekologik ongni oshirish;
- barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- innovatsion texnologiyalar va ekologik iqtisodiy modelni joriy etish.

Umuman olganda, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki jamiyatda ekologik mas’uliyatni kuchaytirib, barqaror va sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kelgusida ijtimoiy-ekologik madaniyatni yanada chuqurroq o‘rganish va

uning rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va kelajak avlodlar uchun barqaror yashash muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pulatova N. Ijtimoiy ekologik ong va ekologik madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-49.
2. Rotarangi S. J., Stephenson J. Resilience pivots: stability and identity in a social-ecological-cultural system //Ecology and Society. – 2014. – Т. 19. – №. 1.
3. Turner N. J., Davidson-Hunt I. J., O’flaherty M. Living on the edge: ecological and cultural edges as sources of diversity for social—ecological resilience //Human Ecology. – 2003. – Т. 31. – С. 439-461.
4. Rotarangi S., Russell D. Social-ecological resilience thinking: Can indigenous culture guide environmental management?. – 2009.
5. Andrachuk M., Armitage D. Understanding social-ecological change and transformation through community perceptions of system identity //Ecology and Society. – 2015. – Т. 20. – №. 4.



UDC: 378.14:61:005.336:371.3

ORCID: 0000-0003-2472-0566

BO'LAJAK SHIFOKORLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Abdukodirov Sherzodjon Taxirovich
Yuqumli kasalliklar kafedrasida
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan. Ayniqsa, tibbiy ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va reflektiv yondashuvlarning qo'llanilishi orqali kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga pedagogik jihatdan qanday ta'sir etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, kasbiy kompetensiya, pedagogik xususiyatlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, klinik fikrlash, refleksiya, simulyatsiya, kommunikatsiya, amaliy ko'nikma.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические особенности формирования профессиональных компетенций будущих врачей. В частности, анализируется педагогическое влияние применения студентоцентрированного, интегративного и рефлексивного подходов в медицинском образовании на формирование клинического мышления, этических ценностей, практических навыков и культуры общения как ключевых компонентов профессиональной компетентности.

Ключевые слова: медицинское образование, профессиональная компетентность, педагогические особенности, студентоцентрированный подход, клиническое мышление, рефлексия, моделирование, коммуникация, практические навыки.

PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES IN FUTURE DOCTORS

Annotation: This article explores the pedagogical characteristics of developing professional competencies among future physicians. In particular, it analyzes how the application of student-centered, integrative, and reflective approaches in the medical education

process pedagogically influences the formation of clinical thinking, ethical values, practical skills, and communication culture as key components of professional competence.

Keywords: medical education, professional competence, pedagogical characteristics, student-centered approach, clinical reasoning, reflection, simulation, communication, practical skills.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'lim bo'lajak shifokorlardan nafaqat nazariy bilimga, balki amaliyotda qo'llay oladigan kasbiy kompetensiyaga ham ega bo'lishni talab qiladi. Bu esa o'quv jarayonini shunchaki ma'lumot uzatishdan iborat bo'lgan an'anaviy modeldan voz kechib, chuqur pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Pedagogik xususiyatlar deganda talabaning o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va qadriyatlarni uyg'un ravishda egallashiga xizmat qiluvchi tamoyillar, usullar va texnologiyalar tushuniladi. Bu jarayonda talaba passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

Bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishda integratsiyalashgan ta'lim, faol-ta'lim metodlari, simulyatsion mashg'ulotlar, diagnostik keyslar, rolli o'yinlar, refleksiya va portfoliolar kabi vositalar real klinik amaliyotning murakkabligini aks ettiruvchi "faol ta'lim ekotizimi"ni yaratishda muhim o'rin tutadi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining pedagogik xususiyatlari ularni nafaqat o'quv dasturlariga joylashtirish, balki talabaning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi, amaliyotda o'zini sinab ko'rish va ko'p bosqichli baholash asosida shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu jarayonni an'anaviy bilim uzatish modelidan farqli ravishda, integrativ va reflektiv ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish zaruriyati tug'iladi.

METODOLOGIYA

Bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologiyasi uchta asosiy pedagogik yondashuvning sinteziga asoslanadi: shaxsga yo'naltirilganlik, integratsiya va refleksiya.

1. Shaxsga yo'naltirilgan (individual) yondashuv Ushbu yondashuv har bir talabaning noyob ekanligini tan oladi va ta'limni uning individual xususiyatlariga moslashtirishni maqsad qiladi. Tadqiqotimizda bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetentligini rivojlantirishda individual farqliliklar ham muhim sanaladi. Bunda har bir talabaga xos bilim o'zlashtirish sur'ati, klinik tafakkur darajasi, kommunikativ imkoniyatlari, kasbiy qadriyatlar tizimi, shuningdek, motivatsion holati va reflektiv salohiyati inobatga olinishi lozim. Ayniqsa, zamonaviy tibbiy ta'limda individual yondashuvlar orqali har bir talabaga mos ta'lim strategiyasini tanlash, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish, diagnostik va terapevtik qaror qabul qilishga tayyorlash jarayoni kasbiy kompetensiyaning chuqurroq va barqaror shakllanishini ta'minlaydi. Individual farqliliklar asosida olib boriladigan ta'lim metodlari - differensial yondashuv, moslashtirilgan klinik keyslar, reflektiv yozuvlar, portfel tahlillari, diagnostik testlar va

simulyatsion baholash vositalari orqali talabalarni o‘z kasbiy imkoniyatlarini anglashga va ularni strategik rivojlantirishga yo‘naltirish mumkin.

2. Integrativ yondashuv Bu yondashuv fanlar orasidagi sun'iy to'siqlarni olib tashlab, bilimlarni yaxlit tizim sifatida taqdim etadi. Metodik-texnologik tamoyillar bo‘lajak shifokorlarda kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi. Integrativ yondashuv asosida tuzilgan ta‘lim modeli fanlararo va klinik-ma‘naviy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda metodik tamoyillar - bosqichma-bosqichlik, holatga yo‘naltirilganlik, tizimlilik, refleksivlik va diagnostik moslashuv kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, yuqumli kasalliklar fanini o‘rgatishda infeksiyon kasalliklarning klinik tasviri, ularning patogenezi, diagnostikasi va davosi biologiya, immunologiya, bioetika, kommunikatsiya va sog‘liqni saqlash menejmenti kabi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitiladi. Bu bemorni nafaqat alomatlar to'plami sifatida, balki yaxlit biopsixosotsial mavjudot sifatida ko'rishga yordam beradi.

3. Reflektiv yondashuv Refleksiya, ya'ni o'z fikrlari va harakatlari haqida mulohaza yuritish, tajribani chuqur anglangan bilimga aylantirishning asosiy vositasidir. Bo‘lajak shifokorlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda reflektiv fikrlash yuqumli kasalliklar fanini o‘zlashtirish jarayonida talabaning klinik tafakkurini chuqurlashtirish, kasallik holatlarini tahlil qilish, differensial diagnostika asoslarini mustahkamlash va o‘zini–o‘zi baholash salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba refleksiya (masalan, Gibbsning reflektiv sikli kabi tuzilmaviy modellar asosida) o‘zining bemor holatiga bergan bahosi, tanlagan tashxis yoki davolash yondashuvi haqida fikr yuritadi, xatolarini tahlil qiladi va keyingi faoliyati uchun aniq xulosa chiqaradi. Bu jarayon metakognitsiyani ("o'z fikrlashi haqida fikrlash") rivojlantiradi, bu esa ekspert-shifokorning muhim belgisidir.

NATIJALAR

Ushbu pedagogik yondashuvlarni qo'llash natijasida o'quv jarayoni va talabalarning kompetensiyalarida aniq o'zgarishlar kuzatildi.

Integrativ topshiriqlar va ularning natijalari: Klinik fikrlash jarayoni ko‘p komponentli, klinik-kontekstual, tahliliy va reflektiv topshiriqlar orqali chuqurlashtirilgan didaktik muhitda amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan integrativ vazifalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Klinik keyslar asosida tahliliy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar (masalan: "immun yetishmovchilikka chalingan bemorning laborator natijalari asosida differensial diagnostika qiling").
- Kasal tarixini (anamnez) tahlil qilish va tegishli terapevtik qaror qabul qilish.
- Turli mutaxassisliklar o‘rtasida axborot almashish topshiriqlari (masalan, infeksiyonist va farmatsevtlar o‘rtasida dori-darmon strategiyalarini muhokama qilish).
- Kasbiy etikaga oid vaziyatli topshiriqlar (masalan, bemor roziligi, maxfiy axborot bilan ishlash masalalari).

- Multidisciplinar loyiha ishlarini tayyorlash (bu jamoaviy ishlash va tizimli fikrlashni rivojlantiradi)¹.

Bu kabi topshiriqlar orqali nafaqat klinik bilim va amaliy ko‘nikmalar, balki axborot bilan ishlash salohiyati, kommunikativ malaka, empatik yondashuv va kasbiy etik qarashlar ham bir vaqtning o‘zida rivojlanadi. Shunday qilib, integrativ yondashuv asosidagi o‘quv topshiriqlari bo‘lajak shifokorlarni real tibbiy amaliyotga tayyorlashda asosiy didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Reflektiv amaliyot natijalari: Reflektiv yondashuv talabani tibbiy qaror qabul qilish va kasbiy mas’uliyatni his qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Xususan, yuqumli kasalliklar bilan bog‘liq klinik keyslar, bemorning epidanamnezini tahlil qilish, simptomlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, laborator natijalarni sharhlash kabi faoliyatlarda reflektiv fikrlash qo‘llaniladi. Bu nafaqat individual amaliyotni yaxshilaydi, balki uzluksiz sifatni oshirish madaniyatiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda reflektiv yondashuv kasbiy tayyorgarlikning ajralmas va samarali metodik komponenti hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’riflangan pedagogik xususiyatlar shunchaki "qo'shimcha afzalliklar" emas, balki XXI asr sog'liqni saqlash tizimining murakkab talablariga javob bera oladigan, moslashuvchan, mas'uliyatli va axloqan yetuk tibbiy kadrlarni tayyorlash uchun zaruriy shartlardir. Bo‘lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ularning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtiradi, amaliyotda mustaqil qaror qabul qilish, tibbiy axloqqa rioya qilish, kommunikatsiya madaniyatiga ega bo‘lishga zamin yaratadi.

Bu xususiyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni, ayniqsa, integrativ yondashuv va ACL (Activity–Competence–Learning) modeli kabi ilg‘or tizimlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanganda, yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Kasbiy kompetensiyaning muvaffaqiyatli shakllanishi esa, o‘z navbatida, tibbiyotda sifatli xizmat ko‘rsatishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century. The Lancet, 2010; 376(9756): 1923–1958.
2. Umarova D.T. Tibbiy ta’limda klinik kompetensiyalarni shakllantirish (monografiya). – Samarqand: Registon, 2022. – 188 bet.
3. Siddiqui S.A. Clinical Competence and Medical Education. – International Journal of Medical Education, 2020. – Vol. 11, pp. 205–212.
4. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. // Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29(7). – P. 625–629.

¹ Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century. The Lancet, 2010; 376(9756): 1923–1958.

5. Komilov Nodirbek. [Blockchain-Based Wireless Network Security Algorithm for Data Integrity in History Education](#) // Journal of Wireless Mobile Networks. Ubiquitous Computing, and Dependable Applications (JoWUA) volume: 16, number: 1 (March), pp. 247-257. DOI: 10.58346/JOWUA.2025.I1.015.
6. Komilov Nodirbek. [Enhancement of Exclusive Competencies of Foreign Students by Teaching the History of Medicine in Medical Education](#) // World Bulletin of Social Sciences, 2025, No. 32. – P.41-44.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING MILITARY PSYCHOLOGY

Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna

Associate Professor Department "Pedagogy and Psychology"

University Alfraganus

Turg'unova Sarvinoz

Alfraganus University

"Pedagogy and psychology" direction

3rd year student

Abstract: This article discusses the role of military psychology in preparing military personnel for service, as well as issues of modern technologies and methods of psychology.

Key words: military psychology, modern approaches, stress, vaccination, leadership, development, psychological assessment, mental, stigma, combat, stress.

HARBIY PSIXOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda harbiy psixologiyaning o'rni hamda psixologiya fanining zamonaviy texnologiyalari, metodlari masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: harbiy psixologiya, zamonaviy yondashuvlar, stress, emlash, yetakchilikni, rivojlantirish, psixologik baholash, ruhiy, stigmasi, jangovar, stress.

СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ВОЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация: В статье рассматривается роль военной психологии в подготовке военнослужащих к службе, а также вопросы современных технологий и методов психологии.

Ключевые слова: военная психология, современные подходы, стресс, вакцинация, лидерство, развитие, психологическая оценка, психика, стигма, боевой, стресс.

Introduction. Military psychology lies at the intersection of psychological science and military operations, focusing on understanding and optimizing the psychological factors that influence the effectiveness and well-being of military personnel. In this article, we will explore the essence of military psychology, the integration of modern psychological science in the

training of military personnel, and current issues that require attention and solutions in this field. Military psychology includes a multifaceted approach to understanding and supporting military personnel during their service activities.

Analysis of literature on the subject. Gary A. Klein is the author of the theory of Naturalistic Decision Making (NDM) and studied decision-making especially under stress and real conditions. His Recognition Primed Decision (RPD) model is widely used in military combat and decision training. Introduced expert mental model training through an interactive platform called ShadowBox, which is a modern technological approach to military psychology training. Carol G. Ross Operates in the fields of simulation and distance learning. Which developed and evaluated training such as IED Defeat cognitive skills training for the US Army and other military entities [1]. One of the scholars who integrated technological approaches in military training and decision-making. Eduardo Salas an expert on training technologies is the head of the Training Technology Development Branch in the US Navy. Conducted research on simulation training and interactive educational systems in military psychology Harold F. O'Neill Researched computer-assisted instruction, interactive simulators, and intelligent tutoring systems at DARPA and the US Army Research Institute. In the 1970s and 1980s, based on the PLATO system, modern military psychology was a leader in creating educational models.

Prosvetova (Tatyana S. Prosvetova). Scientific works such as "Modern Educational Technologies as Effective Means of Psychological and Pedagogical Training..." describe modern pedagogical technologies for teachers and researchers at military-technical universities.

Uzbek scientists and methodologies H.U. Khafizov developed methodical approaches to measures of professional psychological selection of military personnel in the Eastern Military District, where psychodiagnostic methods, knowledge and theoretical principles were analyzed [2].

Abduhakimov Muslima in the article "Today's requirements for the training of military psychologists of Uzbekistan" the issues of integration between personal skills, ethical and psychological training and information and communication technologies in the training of military psychologists were considered.

Usmonaliyev Jahangir and Jorakholov Khurshid the research led by Jahangir Usmonaliyev, a student of Gulistan State University, analyzed approaches to processing psychological data based on computerized psychodiagnostics and information and communication technologies.

Nematov Rikhsitilla and Tashpolatov Abdulhamid in his articles, he defined the methods of diagnosing psychological activity based on statistical and modern methods in the study of the psychology of the military community .Husan Ghaziyev and Z. Elov proposed social psychological methods for aspects such as the development of competence, adaptation, loyalty to duty in military personnel, and studied the formation of organizational and leadership components through modern methodologies.

In her article, F. Kadirova analyzed pedagogical technologies, interactive methods, as well as ways to develop speech and communication skills of cadets in the training of military personnel. B. Bekpulatov explained the methods of using modern information and communication technologies to improve the quality of the educational process in higher military educational institutions. In this article, he made concrete suggestions on improving the effectiveness of training cadets based on ICT. M. Komilov analyzed the process of formation of consciousness and psyche of cadets through simulators, interactive tests and communicative training in the scientific article on the topic “Pedagogical-psychological factors in the formation of military-professional competences of the military personnel of the Military Academy” [3].

The main and effective methods used in the teaching of military psychology are the following.

Main technological approaches used

Simulations and virtual/mixed reality (VR/XR/AR): analogy for decision making, teamwork, performance under stress training.

Intelligent tutors, such as ShadowBox, allow you to practice based on expert decisions.

Online platforms and LMS (Moodle, Google Classroom), problem-based learning, volunteer approaches and independent study techniques

Biofeedback and EEG systems: for example, attention and stress control through Mind Train and Power Dreaming technologies that train the mind to work with itself.

Methods and materials. It involves the application of psychological principles to various aspects of military life, including recruitment, selection, training, leadership development, combat operations, and post-deployment adjustment. Basically, military psychology seeks to improve the performance, resilience, and general well-being of military personnel in dealing with the unique challenges they face in their roles. Integration of modern psychology. Advances in the science of psychology have made a significant contribution to the development of innovative methods of training military personnel for service activities.

Modern psychology offers many knowledge and techniques that can be used to optimize training, improve decision-making, relieve stress and increase the psychological resilience of military personnel. The main areas of integration include.

can be used to increase endurance. The main areas of integration include: Using the principles of cognitive psychology to develop training programs that develop attention, memory, decision-making, and problem-solving skills, thereby improving performance in complex and high-stress environments. use of stress and coping theories to develop resilience-building interventions to facilitate adaptation and effective management of the stressors inherent in military operations, including combat exposure and deployment challenges.

Apply organizational psychology principles to develop effective leadership skills among military leaders, including communication, team building, conflict resolution, and decision-making skills critical to mission success and unit cohesion. Use evidence-based assessment tools and techniques to assess psychological characteristics, abilities, and vulnerabilities of military

personnel during recruitment, selection, and throughout their careers, making informed decisions, and implementing targeted interventions

Results and discussion. Actual problems of military psychology. Despite significant progress, there are still a number of problems that require attention and solutions in the field of military psychology. The stigma associated with mental health remains a significant barrier to the help-seeking behavior of military personnel, which prevents the use of help and leads to negative consequences such as untreated mental illness, drug abuse and suicide. The prevalence of combat stress and post-traumatic stress disorder (PTSD) among military personnel highlights the need for improved prevention, early intervention, and evidence-based treatments to mitigate the psychological effects of military service.

Challenges associated with the transition from military to civilian life, including unemployment, homelessness, and difficulties accessing health and support services, underscore the importance of comprehensive transition assistance programs for veterans. Ethical dilemmas arising from the intersection of military operations and psychological practice, such as interrogations, psychological warfare, and the use of psychological tactics in combat, require ongoing communication, research, and ethical guidance to ensure the responsible and ethical use of psychological counseling.

Conclusion. Suggestions for solving current problems The following suggestions are offered for solving the current problems facing the science of military psychology:

1. **Combat stigma:** implement education and awareness campaigns to reduce mental health stigma, promote a culture of psychological well-being, and promote help-seeking behavior among military personnel.

2. **Improving mental health services:** increasing access to evidence-based mental health services, including counseling, therapy, and peer support programs, and integrating mental health screening and assessment into routine health care practices in the military.

Improving Transition Assistance: Expand and improve transition assistance programs to meet the unique needs of veterans, including employment, housing, health care, and social integration services.

Ethical standards and training: develop and disseminate ethical standards and training programs for military psychologists and personnel involved in psychological operations, interrogation and other sensitive contexts, and ensure compliance with ethical principles and professional standards. Military psychology plays an important role in optimizing the performance, well-being and readiness of military personnel. By integrating modern psychological science into military training efforts and addressing pressing issues through targeted interventions and initiatives, we can better support the psychological health and resilience of military personnel throughout their military careers and beyond.

References:

1. Adler, A. B., Bliese, P. D. va Kastro, C. A. (Edler). Harbiy hayot: Tinchlik va jangda xizmat qilish psixologiyasi (4-nashr). Santa Barbara, Kaliforniya: Prager. 2016. 217 b.
2. Kennedy, C. H. va Zillmer, E. A. (Edler). (2006). Harbiy psixologiya: klinik va operatsion ilovalar. Nyu-York, Nyu-York: Guilford Press. 2012. 125 b/
3. Britt, T. V., Adler, A. B. va Kastro, C. A. (Edler). . Harbiy hayot: Tinchlik va jangda xizmat qilish psixologiyasi (3-nashr). Santa Barbara, Kaliforniya: Prager. 2016. 141 b.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MEDIASAVODXONLIK TARAQQIYOTI VA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONLARI

Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti,
ORCID: 0009-0007-4718-9305*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediasavodxonlikning zamonaviy taraqqiyoti va uning madaniyat, ta’lim hamda san’at sohalarida yuzaga kelayotgan innovatsion rivojlanish jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Mediasavodxonlik orqali raqamli texnologiyalar, interaktiv media vositalari va yangi kommunikatsiya shakllarining ijodiy faoliyatda, axborot oqimlarini boshqarishda, shuningdek, ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishda qanday yangi imkoniyatlar yaratishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada mediasavodxonlik jamiyatning har bir qatlamida individual va ijtimoiy darajada rivojlantirishi kerakligi alohida ta’kidlanadi hamda uning innovatsion jarayonlardagi muhim roliga urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, innovatsion rivojlanish, raqamli texnologiyalar, san’at, madaniyat, kreativlik, tanqidiy fikr, interaktiv media, kommunikatsiya, ijodiy jarayonlar.

РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИЙ

Аннотация. В статье анализируется современное развитие медиаграмотности и ее влияние на процессы инновационного развития, происходящие в сферах культуры, образования и искусства. Медиаграмотность изучает, как цифровые технологии, интерактивные медиа и новые формы коммуникации создают новые возможности в творческой деятельности, управлении информационными потоками и развитии социокультурной среды. В статье также подчеркивается необходимость развития медиаграмотности во всех слоях общества на индивидуальном и социальном уровнях, а также подчеркивается ее важная роль в инновационных процессах.

Ключевые слова: медиаграмотность, инновационное развитие, цифровые технологии, искусство, культура, креативность, критическое мышление, интерактивные медиа, коммуникация, творческие процессы.

MEDIA LITERACY DEVELOPMENT AND INNOVATION DEVELOPMENT PROCESSES

Abstract. This article analyzes the modern development of media literacy and its impact on the processes of innovative development taking place in the fields of culture, education and art. Through media literacy, it is considered how digital technologies, interactive media and new forms of communication create new opportunities in creative activity, in managing information flows, as well as in the development of the socio-cultural environment. The article also emphasizes the need to develop media literacy at the individual and social levels in each stratum of society, and emphasizes its important role in innovative processes.

Keywords: media literacy, innovative development, digital technologies, art, culture, creativity, critical thinking, interactive media, communication, creative processes.

KIRISH

Raqamli inqilob va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bugungi kunda har bir ta'lim sohasida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, san'at va madaniyat yo'nalishidagi ta'lim jarayonida mediasavodxonlik tushunchasining ortib borayotgan ahamiyati alohida urg'u olmoqda. Mediasavodxonlik turli axborot vositalaridan unumli foydalanish, ularni tanqidiy tahlil qilish va ijodiy faoliyatda qayta ishlash qobiliyati bo'lishi mumkin. Xorij olimlari bu haqida haligacha aniq nazariya tasdiqlash qiyinligi bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib kelmoqda.

Y. Lipshits ta'kidlaydiki, mediasavodxonlik bir necha yillar davomida ilmiy munozaralarning obyekti bo'lib kelmoqda, ammo hanzugacha media va axborot savodxonligi nima ekanligi, uning mazmuni qanday va qaysi aniq ko'nikmalar rivojlantirilishi kerakligi bo'yicha yagona javoblar mavjud emas. S. Shpiranets esa axborot savodxonligi masalasi keng muhokama qilinishi va turli ta'riflarga ega bo'lishiga qaramay, bugungi kunda o'zining muhim o'rniga ega bo'lishdan oldin, u nazariy va amaliy tushuncha jihatidan uzoq va murakkab o'sish jarayonidan o'tganini, bu jarayon ko'plab terminologik va konseptual qarama-qarshiliklar bilan ajralib turganligini ta'kidlaydi[1]. Lekin shunisi aniqkiki, mediasavodxonlik turli OAVlaridan unumli foydalanish, ularni tanqidiy tahlil qilish va ijodiy faoliyat qo'llanishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. YUNESKO ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan mediasavodxonlikka oid ta'riflar ishlab chiqilgan. So'rovnoma so'nggi yillarda nufuzli nashrlarda chop etilgan mediasavodxonlik tushunchasining uch xil ta'riflari taklif qilindi va ulardan har birini qo'llab-quvvatlash yoki rad etish so'raldi. Natijada, ekspertlar quyidagicha fikr bildirishgan. (1-jadval).

1-jadval. Ekspertlarning mediasavodxonlik ta'riflariga munosabati

№	Mediasavodxonlik (Media Literacy) ta’rifi	Ushbu ta’rif bilan to’liq rozilik bildirgan ekspertlar soni	Ushbu ta’rif bilan bo‘lmagan ekspertlar soni
1	“Mediasavodxonlik” – bu insonning faol va mediasavodli bo‘lishini anglatadi. U zamonaviy dunyoda media qanday ishlashini, media matnlarni qabul qilish, yaratish, tahlil qilish va baholash, hamda ularning sotsiomadaniy va siyosiy kontekstini tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Media tomonidan qo‘llaniladigan kodlar va tasvirlash tizimlarini tushunadi. Bunday insonning jamiyatdagi hayoti fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. [Manba: <i>International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences</i>. Vol.14 / Eds.N.J. Smelser & P.B. Baltes. Oxford, 2001, p.9494]	17(65,38%)	6(23,08%)
2	“Mediasavodxonlik” – bu har bir insonga audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga yordam beradigan harakatdir. Mediasavod shaxs bosma va elektron media matnlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga qodir bo‘ladi. [Manba: <i>Aufderheide, P., Firestone, C. Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy</i>. Queenstown, MD: The Aspen Institute, 1993, p.1]	16 (61,54%)	6 (23,08%)
3	“Mediasavodxonlik” – bu turli shakldagi xabarlarini (messages) ishlatish, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyatidir. [Manba: <i>Kubey, R. Media Education: Portraits of an Evolving Field</i>. In: <i>Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age</i>. – New Brunswick & London: Transaction Publishers, 1997, p.2]	12 (46,15%)	9 (34,61%)

Ko‘rib turganimizdek, ushbu holatda ekspertlarning fikrlari mediasavodxonlik ta’riflariga nisbatan deyarli teng taqsimlangan – 46% dan 65% gacha. Bunda ayrim ekspertlar o‘zlarining alternativ ta’riflarini ham ilgari surganlar: “Mediasavodxonlik – bu media ta’limining natijasi bo‘lib, media matnlarni to‘g‘ri qabul qilish, talqin etish, baholash va yaratish qobiliyatidir” (V. Monastirskiy); “Multimedia savodxonligi – bu interaktiv multimedia hujjatlarini yaratishda ishlatiladigan tillarni bilish, eng keng tarqalgan qurilmalar va usullar yordamida axborotni qayta ishlash, yangi multimedia texnologiyalarining ijtimoiy va madaniy ahamiyatini tushunish, media matnlarni tanqidiy qabul qilish va jamiyatda mas’uliyatli xatti-harakatlar ko‘rsatish qobiliyatidir” (A. Gutierres Martin); “Mediasavodli bo‘lish – bu ommaviy axborot vositalarining tabiati, texnikasi va ta’sirini tushunishga ega bo‘lish, bir vaqtning o‘zida media mahsulotlar yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishdir” (J. Pungente) [2].

Demak “Axborot - ta’lim muhiti” aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta’minlovchi axborot-texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmuidir.

Axborot - ta’lim muhitining quyidagi tipologik belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Har qanday darajadagi ta’lim muhiti tizimlilik tabiatiga ega bo‘lgan murakkab tuzilmali obyekt hisoblanadi.

2. Ta’lim muhitining yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma’noni anglatib, u o‘quv muassasasi bitiruvchisining shaxsiy va kasbiy modelini amalga oshirishdagi ta’lim va tarbiya maqsadlarining amalga oshirishini o‘zida mujassamlashtiradi.

3. Ta’lim muhiti ta’lim va tarbiya ishlarining asosiy sharti bo‘lish bilan birga uning muhim vositasi hamdir.

Axborot - ta’lim muhitini ta’riflashda bir qancha o‘zaro farq qiluvchi qarashlar mavjud, jumladan:

- inson bilan ta’lim muhitining subyekt sifatida uzviy bog‘langan axborot, texnik, o‘quv-metodik ta’minotning tizimli tashkillashtirilgan majmuasi;

- an’anaviy va elektron axborot tashuvchilar, virtual kutubxonalar, taqsimlangan ma’lumot bazalari, o‘quv-metodik majmualarini mujassamlashtiruvchi kompyuter-telekommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida qurilgan yagona axborot ta’lim muhiti[6].

Fikrimizga ko‘ra, axborot ta’lim muhitini boshqarishda tizimli yondashuvni joriy qilish lozim.

Bunda o‘qituvchining vazifasi dars jarayonida o‘quvchilarni kompyuterdan to‘g‘ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat. Kompyuter texnologiyalari asosida o‘qituvchi

o‘zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.O‘quv jarayonini bir butun guruh sifatida tashkil etish.

2.O‘quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko‘rsatish, har bir o‘quvchi bilan individual muloqot olib borish.

3.Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o‘quv va namoyish qurilmalarning har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o‘quv metodik ko‘rsatmalar va h.k.) ma‘lum o‘quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog‘liqlik asosida tashkil etish.

Natijalar.Kompyuter texnologiyasi asosida mustaqil ta‘limni ta‘minlashda o‘qituvchilar quyidagi tuzilmalar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak ekanligi isbotlandi:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;
 - kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini bilishi;
 - zamonaviy operatsion tizimlarni bilishi va ularning asosiy buyruqlarini o‘zlashtirishi;
 - zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tuzilmalarni bilishi va ularning vazifalarini o‘zlashtirishi;
 - kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo‘lishi;
 - algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi;
 - amaliy dasturlashdan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tajribaga ega bo‘lishi;
- [3.4]

Ta‘limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

- o‘qituvchilarning o‘zaro trening va seminarlari o‘tkaziladi;
- masofaviy ta‘lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar; Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalardan ta‘lim muassasalarida amalda tadbqiq etish o‘quv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llashda hamda o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta‘lim muassasalarida o‘quv tarbiyaviy ishlarni innovatsion pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqazo etadi. Bu jarayon oson bo‘lmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etayotgan o‘qitish tizimini qat‘iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P. Bospalkoning fikriga ko‘ra, “pedagogik tizim-ma‘lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko‘zlab va oldindan o‘ylab pedagogic ta‘sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vositalar, metodlar, jarayonlar yig‘indisi”.

Milliy dastur ta‘lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy mafkuraning mohiyat-mazmuniga to‘liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta‘lim-tarbiyaning umumiy

maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Xulosa. Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, o'quvchi-talabalarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimini shakllantiradi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi (pedagog)lar faoliyati yangilanadi va ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu bois bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat ekanligi o'z isbotini topdi..[5.7.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, “Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari” Toshkent “Yangi nashr” 2018. Foydalanilgan adabiyotlar

2.Sultanova. O‘.N. Basad on students’ competency – based approach to physics solve experimental and graphical problems // International interdisciplinary research. In volume 9, May, 2021. -903-98 pp.

3.Sultonova O‘N. The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach” Vol 12 no 1 Jan-Feb-: 2020 й, 52-57,Б www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html

4.Sultanova O‘.N. “Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training

5.султонова ў.н. galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)импакт фактори: 7.472 issn: 2347-6915ссылкаси: based on students' competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems 2021 y may

6.Султонова ў.н. galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) импакт фактори: 7.47 issn: 2347 6915сылкаси:<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/154/145>

improving the use of information technology in the process of studying mathematics in grades 5-620 21 y

7. Маҳмудов Ю.Ф.,Қосимов А.С. Инновацион таълим технологияларидан ўқув жараёнларидан фойдаланишнинг методик-дидактик асослари. Тошкент. 2018 й.196 бет.



TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHDA RAQAMLI TA’LIM RESURLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MODEL

Isakova Madina Abdulkarim qizi

Xalqaro Nordik Universiteti o‘qituvchisi

Email: madinabonuisakova230597@gmail.com

Orcid: 0009-0000-8976-1698

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik modelning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalarning ta’limda keng qo‘llanilishi xorijiy til o‘rganish jarayonini interaktiv, individual va kontekstual yondashuvlar asosida tashkil etishga imkon yaratmoqda. Tadqiqotda raqamli platformalar (mobil ilovalar, onlayn darslar, sun‘iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari) orqali til ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish, og‘zaki nutq) shakllantirish bo‘yicha pedagogik faoliyat modellashtirilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy raqamli vositalarning til o‘rganishdagi motivatsion, reflektiv va differensial yondashuvni kuchaytiruvchi jihatlari yoritilgan. Taklif etilayotgan pedagogik model til o‘rganishda talabaning faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi, natijaviylikka yo‘naltirilgan va zamonaviy metodik tamoyillarga moslashtirilgan tizim sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim resurslari, pedagogik model, interaktiv texnologiyalar, til ko‘nikmalari, onlayn ta’lim, sun‘iy intellekt, differensial yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические механизмы педагогической модели, направленной на повышение эффективности использования цифровых образовательных ресурсов в процессе обучения студентов иностранным языкам. Широкое использование цифровых технологий в образовании позволяет организовать процесс изучения иностранного языка на основе интерактивного, индивидуального и контекстного подходов. В исследовании моделируется педагогическая деятельность по развитию языковых навыков (аудирование, чтение, письмо, говорение) с использованием цифровых платформ (мобильные приложения, онлайн-уроки, системы обучения на основе искусственного интеллекта). В статье также

освещаются аспекты современных цифровых инструментов, которые усиливают мотивационный, рефлексивный и дифференцированный подходы к изучению языка. Предлагаемая педагогическая модель основана на системе, поощряющей активное участие студентов в изучении языка, ориентирована на результат и адаптирована к современным методическим принципам.

Ключевые слова: цифровые образовательные ресурсы, педагогическая модель, интерактивные технологии, языковые навыки, онлайн-образование, искусственный интеллект, дифференцированный подход.

PEDAGOGICAL MODEL OF USING DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms of a pedagogical model aimed at increasing the effectiveness of using digital educational resources in the process of teaching foreign languages to students. The widespread use of digital technologies in education makes it possible to organize the process of learning a foreign language based on interactive, individual and contextual approaches. The study models pedagogical activities for the formation of language skills (listening, reading, writing, speaking) through digital platforms (mobile applications, online lessons, artificial intelligence-based learning systems). The article also highlights the motivational, reflective, and differential approaches to language learning that modern digital tools can enhance. The proposed pedagogical model is based on a system that encourages active student participation in language learning, is result-oriented, and is adapted to modern methodological principles.

Keywords: digital educational resources, pedagogical model, interactive technologies, language skills, online learning, artificial intelligence, differential approach.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy muvaffaqiyatning ham muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun xorijiy til bilimiga ega bo‘lish zamonaviy bilimlar makonida faol ishtirok etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va xalqaro hamkorliklarda qatnashish imkoniyatini kengaytiradi. Bunday sharoitda ta’limning an’anaviy shakllaridan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida qurilgan yangicha metodik yondashuvlar talabalarning til o‘rganishdagi faolligini oshirishga, ularni mustaqil ta’lim olishga undashga va til kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim resurslarining salohiyati tobora ortib bormoqda. Mobil ilovalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellektga asoslangan til o‘rgatuvchi tizimlar – bularning barchasi xorijiy tilni o‘rgatishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Talaba endi darsdan tashqari vaqtda ham o‘z bilimlarini mustahkamlash, interaktiv topshiriqlar bajarish, real til muhitiga yaqin bo‘lgan mashqlar orqali o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda

qo‘llash imkoniyatiga ega. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda raqamli vositalarning ta‘limdagi o‘rni nafaqat muqobil, balki asosiy ta‘lim manbalaridan biriga aylangani yaqqol namoyon bo‘ldi. Shunday ekan, xorijiy til o‘qitish metodikasi doirasida raqamli resurslar asosida pedagogik model yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday model nafaqat zamonaviy texnologik imkoniyatlarni o‘zida mujassam etishi, balki til o‘rganishda talabalar ehtiyojlariga moslashuvchan, motivatsion va samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Metodologiya:

Raqamli ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish asosida xorijiy til o‘rgatish jarayonini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan pedagogik model muayyan metodik asoslar va ilmiy yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi. Avvalo, mazkur tadqiqotda sistemali yondashuv asosiy metodologik mezon sifatida tanlandi. Bu yondashuv ta‘lim jarayonining barcha komponentlarini – o‘quvchi (talaba), o‘qituvchi, o‘quv muhit va raqamli vositalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tarzda tahlil qilishga imkon berdi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida xorijiy til o‘rgatishda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga e‘tibor qaratildi. Bu yondashuv talabaning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, axborot bilan ishlash qobiliyati va ijodiy yondashuvini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, interaktiv ta‘lim metodlari va konstruktivistik pedagogika tamoyillari asosida dars jarayonini talaba shaxsiga yo‘naltirish, ularning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Ushbu tadqiqot doirasida sifatli ma‘lumotlar to‘plash va tahlil qilish uchun bir necha metodlardan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv, anketalar va yarimstrukturaviy suhbatlar orqali talabalarning raqamli ta‘lim vositalaridan foydalanishdagi tajribalari va munosabatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, model asosida o‘tkazilgan darslar samaradorligi o‘rganildi. Eksperimental guruhlarida raqamli platformalar – masalan, Duolingo, Quizlet, BBC Learning English, Google Classroom, Zoom, shuningdek, shaxsiy mualliflikdagi Linguabloom² elektron ta‘lim platformasi orqali xorijiy til o‘rganish samarasi nazorat guruhlari bilan solishtirildi.

Tadqiqot davomida diagnostik testlar, taqqoslash tahlili va refleksiya asosidagi baholash usullari orqali pedagogik modelning samaradorligi o‘lchandi. Natijada, raqamli resurslar asosida tashkil etilgan til o‘rgatish modeli talabalar til kompetensiyasining barcha komponentlarini – eshitish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini izchil rivojlantirishga xizmat qilishi empirik jihatdan isbotlandi. Mazkur metodologik yondashuvlar birgalikda xorijiy til ta‘limining zamonaviy ehtiyojlariga javob beruvchi, raqamli muhitda faoliyat yuritishga tayyor, axborot savodxonligi va kommunikativ madaniyatga ega talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik modelni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili:

² <https://linguabloom.uz/>

Talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu soha hozirgi kunda ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uyg‘un tarzda keng miqyosda o‘rganilmoqda. Jumladan, J. Warschauer [1] va M. Levy [2] tomonidan raqamli vositalarning til o‘rganishga integratsiyasi til o‘rgatishda multimodal yondashuvning samaradorligi bilan izohlangan. Ularning tadqiqotlarida onlayn muhitda autentik materiallardan foydalanish orqali o‘rganuvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki ortishi ilmiy asoslab berilgan.

O‘zbekiston tadqiqotchilar orasida Z. Yunusova [6], G. Po‘latova [7], va S. Mahmudova [8] tomonidan xorijiy til o‘qitish metodikasi doirasida raqamli texnologiyalarning o‘rni, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarga interaktiv metodlar yordamida til ko‘nikmalarini singdirish yo‘llari yoritilgan. Ular ta’lim samaradorligini oshirishda LearningApps, Kahoot, Zoom, Moodle kabi platformalarning interaktivlik, tezkor aloqa va vizual resurslar orqali o‘ziga xos motivatsion rolini ta’kidlaydilar.

C. Blake [3] esa o‘z ishida raqamli vositalar yordamida yozma va og‘zaki muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim nazariy asoslar bergan. U shuningdek, Computer-Assisted Language Learning (CALL) yondashuvining imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, sun‘iy intellekt va tilni avtomatik baholovchi tizimlar orqali talaba faolligini oshirishga urg‘u bergan.

Rossiyalik tadqiqotchilar orasida E.A. Baranova [4] va I.V. Robertlar [5] tomonidan raqamli pedagogikaning nazariy asoslari va zamonaviy ta’lim muhitidagi integratsiya jarayonlari bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Baranova til o‘rgatishda raqamli muhitda samarali interaktiv muloqot yaratish mexanizmlarini ishlab chiqqan. Robert esa raqamli ta’lim resurslari asosida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash usullarini aniqlab bergan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar raqamli ta’lim resurslarining xorijiy til o‘rganishdagi pedagogik imkoniyatlarini keng ochib beradi. Ammo ularning aksariyati alohida texnologiyalar yoki vositalar bo‘yicha tadqiqotlar bilan cheklanadi. Shu boisdan ham raqamli resurslardan foydalanishni yaxlit pedagogik model darajasida ko‘rib chiqish, ayniqsa, talaba shaxsiga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvlar asosida taklif etish — bugungi kundagi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Muhokama:

Zamonaviy ta’lim jarayoni bugungi kunda raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatish sohasida raqamli ta’lim resurslarining joriy etilishi talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik model orqali xorijiy tilni o‘rgatishda raqamli texnologiyalarni izchil va tizimli asosda qo‘llash imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi.


Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli resurslardan foydalanish talabalarning o‘quv faolligini oshiradi, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, o‘zini baholash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga

xizmat qiladi. Ayniqsa, interaktiv platformalar va multimediamiy kontent yordamida til o‘rganish jarayoni an’anaviy yondashuvlarga qaraganda ko‘proq individuallashtirilgan, qiziqarli va samarali kechadi. Bu holat talabalarni nafaqat til o‘rganishga, balki raqamli savodxonlik va texnologik fikrlashga ham o‘rgatadi.

Model asosida olib borilgan eksperimental faoliyat shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar orqali taqdim etilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan til ko‘nikmalari, xususan, eshitish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutqda ancha yuqori natijalarga erishgan. Bu esa raqamli ta’lim resurslari asosidagi o‘qitish modeli nafaqat bilimni yetkazish, balki uni amaliy qo‘llashda ham samarali vosita ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ba’zi muammolar ham aniqlandi. Jumladan, barcha talabalar ham raqamli vositalardan foydalanishda bir xil texnik imkoniyatlarga ega emasligi, internet tarmog‘ining barqaror emasligi yoki platformalarning to‘liq o‘zlashtirilmaganligi ayrim hollarda kutilgan natijalarni cheklab qo‘yishi mumkin. Bu esa raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda infratuzilmaviy va metodik qo‘llab-quvvatlash muhimligini ko‘rsatadi.

1-chizma.

Talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda raqamli ta’lim resurlaridan foydalanishning pedagogik modeli



Yana bir muhim jihat shuki, raqamli vositalar hech qachon o‘qituvchining rolini to‘liq almashtira olmaydi. Ular faqat didaktik jarayonni boyituvchi, ta’lim samaradorligini oshiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida qaralishi lozim. Eng asosiysi, o‘qituvchi ushbu texnologiyalarni maqsadli, puxta pedagogik strategiya asosida qo‘llay bilishi, talabaning ehtiyojidan kelib chiqib individual yondashuvni amalga oshirishi zarur. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga asoslangan pedagogik model xorijiy tillarni o‘rgatishda innovatsion yondashuvni ifodalaydi. Bu model orqali talabalarning til o‘rganishdagi mustaqilligi, motivatsiyasi va ijodkorligi ortadi. Ammo uning to‘liq samaradorligi ta’lim muhitining texnik tayyorgarligi, o‘qituvchining metodik saviyasi va talabalar o‘rtasida raqamli madaniyatning shakllangan darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa.

Bugungi tez o‘zgarayotgan raqamli dunyoda xorijiy til o‘rganish nafaqat til bilish vositasi, balki global kommunikatsiyalarning kalitidir. Shu boisdan, bu jarayonni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitish, xususan, raqamli ta’lim resurslari yordamida takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu maqolada ishlab chiqilgan pedagogik model talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tizimli va samarali tarzda tatbiq etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u bugungi kun ta’lim talablariga mos, innovatsion yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida raqamli resurslarning — mobil ilovalar, interaktiv platformalar, onlayn kurslar va sun‘iy intellekt asosidagi dasturlarning — xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy natijalar bergani aniqlandi. Ushbu vositalar o‘qitish jarayonini faollashtiribgina qolmay, balki talabani o‘rganishning markaziga aylantiradi, ularning mustaqil fikrlashini, kreativ yondashuvini, shaxsiy javobgarligini kuchaytiradi. Shuningdek, taklif etilgan pedagogik model o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni interaktiv, ochiq va konstruktiv asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Model orqali til o‘rgatish jarayoni bosqichma-bosqich, differensial yondashuv asosida, talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda olib borilishi mumkin. Bu esa xorijiy tilni o‘rganishni ko‘proq mazmunli va shaxsga yo‘naltirilgan jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda ayrim cheklovlar – texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli savodxonlikning sustligi, ayrim pedagoglarning texnologiyadan foydalanishdagi tajriba yetishmovchiligi – mavjudligini ham e’tiborga olish zarur. Bunday holatlar modelni amaliyotga to‘liq joriy etishda tizimli yondashuv, metodik qo‘llab-quvvatlash va texnik ta’minotni takomillashtirish orqali hal etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim resurslari asosida xorijiy til o‘rgatish pedagogik modeli — bu shunchaki texnologik yangilik emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishiga, ijodiy va kommunikativ salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi ta’limiy strategiyadir. U nafaqat til o‘rgatish, balki raqamli pedagogikani chuqur anglash, mustaqil o‘rganishga tayyor shaxsni shakllantirish yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Warschauer, J. Computer Literacy and Language Learning: New Approaches in the Digital Age / J. Warschauer // Language Learning & Technology. - 2000. - Vol. 4, No. 2. - P. 14-22.
2. Levy, M. CALL: Context and Practice / M. Levy. - Oxford: Oxford University Press, 2009. - 236 p.
3. Blake, K. Using Digital Technologies in Language Teaching / K. Blake. - New York: Routledge, 2013. - 198 p.
4. Баранова, Е.А. Цифровая среда в системе подготовки педагогов: теория и практика / Е.А. Баранова. – М.: Просвещение, 2019. – 184 с.
5. Роберт, И.В. Современные цифровые образовательные технологии / И.В. Роберт. – М.: Изд-во МГПУ, 2020. – 256 с.
6. Yunusova, Z.A. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorligi: lingvodidaktik yondashuv / Z.A. Yunusova // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021. – № 3(9). – B. 42–47.
7. Po‘latova, G.M. Xorijiy til o‘qitishda raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari / G.M. Po‘latova // Pedagogik ta’limda innovatsiyalar. – 2020. – № 2(6). – B. 65–70.
8. Mahmudova, S.S. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar asosida xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish / S.S. Mahmudova // Zamonaviy ta’lim muammolari. – 2022. – № 4(12). – B. 31–37.
9. Isakova, M. A. (2025). Talabalarining xorijiy tillarni o‘zlashtirishida interaktiv va innovatsion faoliyatlardan foydalanish usullari. *Inter education & global study*, (1), 227-235.
10. Isakova, M. (2024). Improving Four Language Skills Through Emerging Technologies: A Comprehensive Analysis. *Nordic_Press*, 3(0003).
11. O‘g‘li, I. T. X., & Qizi, I. M. A. (2024). Oliy ta’lim jarayonida “Futurelearn” platformasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. *Central Asian Journal of Academic Research*, 3(2), 46-51.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY SIFATLARI VA ULARNING KOMMUNIKATIV YONDASHUV BILAN ALOQASI

Xudayberdiyeva Maxliyo Zayniddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Samarqand, O'zbekiston

Email: khudayberdiyevamakhliyo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatleri va ularning kommunikativ yondashuv bilan bog'liqligi chuqur tahlil etilgan. Bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida kommunikativ kompetensiyaning o'rni, uning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri haqida ilmiy-nazariy asoslar bayon qilingan. Shuningdek, o'qituvchilik kasbining ijtimoiy-madaniy ahamiyati, unga xos bo'lgan psixologik, axloqiy va metodik fazilatlar tizimli tarzda ko'rib chiqilgan. Mazkur maqolada kommunikativ yondashuv – bu faqat muloqot vositasi emas, balki ta'limiy jarayonning markaziy elementi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun ham pedagogik muloqotda empatiya, refleksiya, emotsional intellekt va ijtimoiy psixologik kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida bu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy yondashuvlar, innovatsion metodlar va trening texnologiyalari haqida tavsiyalar berilgan. Maqola pedagogik ta'limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodologik yondashuvlarni ham yoritadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy sifatlar, kommunikativ yondashuv, pedagogik muloqot, empatiya, refleksiya, kommunikativ kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, o'qituvchilik etikasi, pedagogik psixologiya.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ И ИХ СВЯЗЬ С КОММУНИКАТИВНЫМ ПОДХОДОМ

Аннотация. В данной статье подробно проанализированы профессиональные качества будущих учителей и их связь с коммуникативным подходом. Рассмотрено место коммуникативной компетентности в личностном и профессиональном развитии будущих педагогов, а также её влияние на эффективность педагогической деятельности с научно-теоретической точки зрения. Кроме того, системно исследована социально-культурная значимость профессии учителя, а также присущие ей психологические, нравственные и методические качества. В статье коммуникативный подход рассматривается не просто как средство общения, а как центральный элемент образовательного процесса. Особое

внимание уделяется необходимости формирования эмпатии, рефлексии, эмоционального интеллекта и социально-психологических компетенций в педагогическом общении. В работе даны рекомендации по практическим методам, инновационным подходам и тренинговым технологиям, способствующим развитию этих качеств в процессе подготовки будущих учителей. Также освещены современные методологические подходы к развитию коммуникативной компетентности в педагогическом образовании.

Ключевые слова: будущий учитель, профессиональные качества, коммуникативный подход, педагогическое общение, эмпатия, рефлексия, коммуникативная компетентность, профессиональная подготовка, педагогическая этика, педагогическая психология.

PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE TEACHERS AND THEIR RELATIONSHIP WITH THE COMMUNICATIVE APPROACH

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the professional qualities of future teachers and their connection with the communicative approach. It presents the role of communicative competence in the personal and professional development of prospective educators and its impact on the effectiveness of pedagogical activity from a scientific and theoretical perspective. Furthermore, the social and cultural significance of the teaching profession, along with its inherent psychological, ethical, and methodological traits, is systematically examined. The communicative approach is regarded not merely as a means of communication but as a central element of the educational process. Special emphasis is placed on the necessity of developing empathy, reflection, emotional intelligence, and socio-psychological competencies in pedagogical communication. The article provides recommendations on practical methods, innovative approaches, and training technologies aimed at fostering these qualities in the preparation of future teachers. Additionally, modern methodological approaches to developing communicative competence in pedagogical education are discussed.

Keywords: future teacher, professional qualities, communicative approach, pedagogical communication, empathy, reflection, communicative competence, professional training, teaching ethics, pedagogical psychology.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – o‘quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan ta’minlash, balki ularni zamonaviy jamiyatda samarali faoliyat yurita oladigan, barkamol, mustaqil fikrlovchi va axloqiy qadriyatlarga ega shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Bu vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa, eng avvalo, o‘qituvchining kasbiy salohiyati va shaxsiy fazilatlariga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli “Ta’lim-

tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida sifatli pedagog kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy malakasini oshirish va xalqaro talablarga mos pedagogik yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu hujjatlarda ta’kidlanganidek, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, kommunikator, innovator va yetakchi sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlari va kommunikativ yondashuvning o‘zaro aloqasi pedagogik nazariyalar hamda amaliy tajribalar asosida o‘rganiladi. Maqola doirasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish yo‘nalishlari, ularning o‘qituvchilik kasbiga tayyorgarlikdagi roli hamda o‘qituvchi shaxsining psixologik va axloqiy xususiyatlari haqida keng qamrovli tahlil beriladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va pedagoglarni yanada puxta tayyorlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlari – bu nafaqat ularning mutaxassislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari, balki shaxsiy, axloqiy, psixologik va metodik jihatdan pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lishlarini ifodalovchi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini tahlil qilganda ularni bir nechta asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

1. Shaxsiy-axloqiy sifatlar. O‘qituvchi shaxsining axloqiy tamoyillari va shaxsiy fazilatlari uning kasbiy faoliyatining mustahkam poydevorini tashkil etadi. Shu sababli, shaxsiy-axloqiy sifatlar pedagogning kasbiy muvaffaqiyati va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *halollik va mas’uliyatlilik* – o‘qituvchi o‘z ishiga sadoqat bilan yondashishi, ustozlik burchini chin qalbdan bajarishi va o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga mas’uliyat bilan yondashishi zarur;

- *tashabbuskorlik va ijodkorlik* – o‘qituvchi ta’lim jarayonida yangi uslublar va metodlarni izlab topishga intilishi, o‘z ishida ijodiy yondashuvi bilan ajralib turishi talab qilinadi;

- *sabr-toqat va iroda kuchi* – pedagogning sabr-toqatli bo‘lishi, qiyin vaziyatlarda ham tinmay harakat qilishi, o‘quvchilarga nisbatan chidamliligi va mustahkam irodaga ega bo‘lishi muhim;

- *empatiya va tushunuvchanlik* – o‘qituvchi o‘quvchining hissiyotlarini anglab, unga individual yondashuvni tashkil eta olishi, pedagogik muloqotda samimiylilik va insonparvarlikni namoyon etishi lozim.

2. Intellektual va kognitiv sifatlar. Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun pedagogning yuqori darajadagi intellektual va kognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Bu sifatlar o‘qituvchining ta’lim mazmunini chuqur anglashiga va murakkab pedagogik vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- *analitik fikrlash qobiliyati* – ma’lumotlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni yechish yo‘llarini topish uchun zarur;

- *o‘quv materialini tizimli tahlil qilish* – ta’lim dasturidagi materialni mantiqiy va bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish, uni o‘quvchilarga moslashtirish;

- *tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv* – o‘qituvchi yangi pedagogik g‘oyalarni qabul qilish va yaratishda, shuningdek, mavjud metodlarni yangilashda faol bo‘lishi kerak.

3. Didaktik va metodik kompetensiyalar. Bu guruh kasbiy sifatlar o‘qituvchining o‘z sohasidagi ta’lim metodlari, o‘quv usullari va texnologiyalarini puxta bilishi va ulardan samarali foydalanishini anglatadi:

- *o‘qitish metodlarini bilish va qo‘llash* – zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarni o‘zlashtirib, ta’lim jarayonida turli usullarni qo‘llash;

- *o‘quv materialini moslashtirish va tushuntirish* – o‘quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlariga mos ravishda ta’lim materialini moslashtirish va uni aniq tushuntirish qobiliyati;

- *interaktiv metodlardan foydalanish* – o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun guruh ishlari, muhokamalar, loyihalar va boshqa interaktiv usullarni samarali qo‘llash.

4. Ijtimoiy-psixologik sifatlar. O‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida jamoa bilan ishlash, muammolarni hal etish va sinf muhitini boshqarish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart:

- *ijtimoiy moslashuvchanlik* – turli sharoit va vaziyatlarga tezda moslashish, o‘quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish;

- *jamoa bilan ishlay olish* – pedagog jamoasida hamkorlik qilish, guruh ishlarida faol ishtirok etish va birgalikda maqsadlarga erishish qobiliyati;

- *konfliktlarni boshqarish va oldini olish* – sinfda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni aniqlash, ularni o‘z vaqtida va adolatli hal qilish, pedagogik vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash.

Kommunikativ yondashuv ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali, madaniyatli va maqsadga yo‘naltirilgan muloqotni tashkil etish uslubi sifatida ta’riflanadi. Kommunikativ yondashuvning asosiy elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Verbal muloqot (so‘z orqali aloqa). Verbal muloqot – bu o‘zaro so‘z bilan amalga oshiriladigan kommunikatsiya shakli bo‘lib, dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasidir. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat ma’lumotni uzatadi, balki ta’lim mazmunini tushunarli, aniq va mantiqiy tarzda ifodalashga intiladi. So‘zning talaffuzi, nutqning ohangi va ritmi, intonatsiyasi ham dars samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning fikrini tinglash, ularning savollariga e’tibor berish va javob qaytarish verbal muloqotning muhim jihatlari hisoblanadi.

Noverbal muloqot (mimika, jest, tana tili). Noverbal muloqot – so‘zsiz, tana tilining yordamida amalga oshiriladigan aloqadir. Bu, mimika, imo-ishora, yuz ifodalari, tana holati va harakatlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogning yuz ifodalari yoki jismoniy harakatlari o‘quvchilarga qo‘shimcha ma’lumot beradi, ularning diqqatini jalb qiladi va dars muhitini yanada samimiy qiladi. Masalan, tabassum, bosh qimirlatish yoki qo‘llarning harakati dars jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va tushunishni yaxshilashga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt (o‘quvchining kayfiyati va his-tuyg‘ularini anglash). Emotsional intellekt – bu o‘qituvchining o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish va o‘zining emotsional holatini boshqara olish qobiliyatidir. Pedagog o‘quvchilarning kayfiyatini sezib, dars jarayonini shu holatga moslashtirishi, kerak bo‘lsa, qo‘llab-quvvatlashi yoki ruhlantirishi mumkin. Emotsional intellekt pedagogga o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda, ular bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishda yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan yanada samarali muloqot qura oladi va ta’lim jarayonining umumiy natijasi yaxshilanadi.

Refleksiya (o‘zini va boshqalarni tahlil qila olish). Refleksiya – bu o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini, muloqot uslublarini va ta’lim jarayonidagi holatlarni qayta ko‘rib chiqishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi va natijada o‘zini takomillashtirishidir. Refleksiya jarayonida pedagog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirish yoki to‘g‘rilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon kommunikativ yondashuvni doimiy ravishda yaxshilab borish uchun zarur bo‘lgan o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish asosidir.

Tadqiqotlar natijalari va kommunikativ yondashuvning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, so‘nggi ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuvga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ta’lim jarayonida quyidagi ijobiy natijalarga erishadi:

Sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, ya’ni o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan, o‘zaro hurmat va ishonch hukm suradigan muhitda bilim olishga yanada tayyor bo‘ladi.

O‘quvchining faolligini oshiradi - kommunikativ pedagog o‘quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undaydi, ularning savollar berish va fikr almashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Samarali muloqot natijasida o‘quvchilar bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi va amaliy ko‘nikmalarni yaxshiroq egallaydi.

Kommunikativ yondashuv va o‘qituvchining kasbiy sifatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida bu bog‘liqlikning asosiy jihatlari keltiriladi:

Empatiya va muloqot madaniyati. Empatiya – bu kommunikativ yondashuvning yuragi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchining hissiy holatini anglamasa, u bilan to‘laqonli aloqa o‘rnata olmaydi. Empatiya nafaqat rahm-shafqat, balki ongli ravishda o‘quvchining ichki dunyosini, uning qiziqishlari va muammolarini tushunishga urinishdir. Empatiya orqali pedagog o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashib, muloqotni yanada samarali qiladi. Muloqot madaniyati esa o‘z navbatida o‘z fikrini hurmat bilan va boshqa fikrlarga hurmat ko‘rsatgan holda ifoda eta olishni anglatadi.

Psixologik sezuvchanlik va ijtimoiy moslashuvchanlik. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini va psixologik holatini sezib, moslashuvchan yondashuvni qo‘llashi ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu sifatlar pedagogga o‘quvchilarning qiziqishlari,

muammolari va xulq-atvoriga mos ravishda ta'lim jarayonini shakllantirish imkonini beradi. Shu tariqa, o'qituvchi o'zining kommunikativ yondashuvini doimiy ravishda moslashtira oladi.

Refleksiya va o'z ustida ishlash. Refleksiya o'qituvchining o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilishi va yaxshilashga intilishi hisoblanadi. Bu kasbiy sifat o'qituvchining o'z pedagogik uslublarini takomillashtirishga, yangi muloqot strategiyalarini o'rganishga va qo'llashga undaydi. Natijada, kommunikativ mahorat o'sadi, ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi.

O'zini ifoda eta olish va faollik. Bo'lajak o'qituvchi o'z fikrini aniq, lo'nda va mantiqiy yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu nafaqat dars mazmunini yetkazishda, balki o'quvchilarda savollar tug'ilishiga sabab bo'luvchi ochiq va savol-javob muhiti yaratishda ham muhimdir. Faol muloqot o'quvchilarni o'rganishga rag'batlantiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda sinfdagi umumiy pedagogik muhitni yaxshilaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ yondashuvni shakllantirish va mustahkamlash zamonaviy pedagogik ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Samarali muloqot - bu nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshirish, balki o'quvchilar bilan psixologik bog'lanish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamdir. Shu bois, pedagogik ta'limda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar alohida e'tibor talab qiladi.

Trening va rolli o'yinlar orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish. Treninglar - bu o'quvchilarni faol ishtirokga jalb qiluvchi maxsus mashg'ulotlar bo'lib, unda kommunikativ ko'nikmalar tizimli ravishda shakllantiriladi. Rolli o'yinlar esa pedagogik vaziyatlarni hayotiy sharoitda takrorlashga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi murakkab pedagogik suhbatlarni sahnalashtirish orqali tinglash, so'zlashish, tushunish va fikr almashish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu usullar o'zaro hurmat, sabr-toqat va empatiya kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba asosida interaktiv darslar o'tkazish. Interaktiv darslar — pedagogik jarayonni o'zaro faol muloqot shakliga aylantiradi. Bu yo'nalishda bo'lajak o'qituvchilar talabalarni faol ishtirokga jalb qilish, savol-javob, guruh muhokamalari va muammoli vaziyatlarni yechish kabi usullardan foydalanishni o'rganadilar. Tajriba asosida olib boriladigan interaktiv mashg'ulotlar pedagogning kommunikativ kompetensiyasini oshirish bilan birga, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Refleksiya kundaliklarini yuritish. Refleksiya - pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilib, natijalar asosida o'zini takomillashtirish jarayonidir. Bo'lajak o'qituvchilarni kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda refleksiya kundaliklari yuritish katta ahamiyatga ega. Ushbu kundaliklarda ular o'zlarining darslarda qo'llagan muloqot uslublarini, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni va ularni yengish yo'llarini yozib boradilar. Bu esa pedagogik mahoratni doimiy ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Sahnalashtirilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish. Sahnalashtirilgan pedagogik vaziyatlar - bu murakkab pedagogik muammolarni yoki konflikt holatlarini o'quvchilar bilan birga o'rganish, tahlil qilish va yechim topish jarayonidir. Bu metod yordamida bo'lajak o'qituvchilar turli muloqot holatlarida to'g'ri va samarali javob qaytarishni o'rganadilar. Shu

bilan birga, vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularning psixologik sezgirliги, ijtimoiy ko‘nikmalari va kommunikativ madaniyati oshadi.

Muloqot etikasi va madaniyatini o‘rgatish. Kommunikativ yondashuv samaradorligi o‘qituvchining muloqot etikasi va madaniyatiga ham bog‘liq. Pedagogik ta’limda bu yo‘nalishda etik me‘yorlar, hurmatli va muloyim til uslubi, tinglash madaniyati, samimiylik va konstruktiv fikr bildirish qoidalari o‘rgatiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zaro hamda o‘quvchilar bilan muloqotda madaniyatli va hurmatga sazovor bo‘lishni egallashlari ta’lim sifatini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa

Zamonaviy ta’lim talablari pedagogik jarayonni shunchaki bilim berish bilan cheklamasdan, keng qamrovli, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida **kommunikativ yondashuv** markaziy o‘rin egallaydi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi, balki o‘quvchining ichki dunyosini anglaydigan, uni rivojlantiradigan va shaxs sifatida shakllantiradigan ijtimoiy figura sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish – bu o‘qituvchining kasbiy sifati va shaxsiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan strategik yo‘nalishdir. Treninglar, rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan vaziyatlar, refleksiya kundaliklari va muloqot etikasi bilan ishlash bo‘lajak o‘qituvchining: nutq madaniyati va emotsional savodxonligini oshiradi, o‘quvchi bilan individual aloqani yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ijtimoiy-psixologik sezgirlikni shakllantiradi va eng muhimi – ta’lim jarayonining interaktiv, ochiq va demokratik muhitda kechishini ta’minlaydi.

Shuningdek, kasbiy sifatlar — bu faqatgina o‘quv materiallarini bilish emas, balki **emotsional intellekt, shaxsiy mas’uliyat, muloqot madaniyati, empatiya, refleksiya, konstruktiv fikrlash** kabi ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashgan ko‘p qirrali tizimdir. Bu sifatlar birgalikda shakllanganda, bo‘lajak pedagog: o‘ziga ishonuvchi va ijtimoiy jihatdan faolligi yuqori shaxsga aylanadi, jamoaviy va madaniy muhitda yetakchilik qila oladi, har qanday ta’limiy holatda moslashuvchan yondashuvni qo‘llay oladi.

Shunday qilib, **kasbiy sifatlar va kommunikativ yondashuv o‘zaro integratsiyalashgan holda** pedagog shaxsining professional portretini shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki o‘quvchini tarbiyalovchi, unga yo‘l ko‘rsatuvchi, ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayev A.A. “Pedagogik mahorat asoslari”. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Xasanboyeva O.X. “O‘qituvchining kasbiy shakllanishi”. – Toshkent, 2018.
3. Shakirova M.A. “Kommunikativ kompetensiya: nazariya va amaliyot”. – Samarqand, 2019.
4. Vygotsky L.S. “Pedagogik psixologiya”. – Moskva: Prosveshchenie, 1983.

5. Hymes D. “Communicative Competence in Language Learning”. – Cambridge University Press, 1972.

6. **Akhmedova M. T., Narmetova Y. K., Dehkonova M. U.** va boshqalar. *Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 2022, 9(3), 421–425.

7. **Zhaukumova Sh. S., Khanina N. N., Zhakipbekova S. S.** *Pedagogical technologies for the development of professional communicative competence of future primary school teachers. Vestnik Karagandinskogo universiteta*, 2023, 1(109), 62–71.

8. **Yakubova U. S.** *Sotsial’no-pedagogicheskaya kompetentnost’ budushchikh uchiteley. Research Focus Int. Sci. Journal*, 2024, 3(11), 139–142.

9. **Kaldibaeva A. K. J.** *Razvitie professional’noy kompetentnosti budushchikh uchiteley s ispol’zovaniem peredovykh obrazovatel’nykh texnologiy. Innovatsii v pedagogike i psikhologii*, special issue, 2024.

10. **Markova N. G.** *Kommunikativnaya kompetentnost - indikator uspehnosti budushchego pedagoga. Pedagogicheskie nauki: voprosy teorii i praktiki*, 2020, 120–122.

11. **Ochildieva X. G., Gulomova M., Valizhonova F.** *Tekhnologii razvitiya spetsial’nykh kompetentsiy budushchikh uchiteley russkogo yazyka i literatury. Nauka i tekhnologiya v sovremennom mire*, 2024, 3(7), 115–118.



ANALYSIS OF THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES IN A MARKET ECONOMY

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

*Student of the Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek
sultonaliyevazulayho@gmail.com*

ANNOTATION This article analyzes the importance of studying the financial condition of economic entities in a market economy, the objectives of financial analysis, and the main sources of information used in financial analysis. Financial condition is considered a key indicator in assessing a company's stability, profitability, and liquidity. Based on the results of financial analysis, it becomes possible to manage the company's operations effectively and to determine opportunities for obtaining investments and loans. The main tasks, practical significance, and information sources of financial analysis are thoroughly covered.

Keywords: Market economy, economic entity, enterprise activity, financial stability, profitability, liquidity, investment attractiveness, credit policy, financial risks, accounting, audit, financial strategy, financial security.

INTRODUCTION

In a market economy, the successful operation of business entities is directly related to their financial condition. Financial condition is a comprehensive concept that reflects a company's ability to meet its obligations fully and on time, maintain financial stability, and enhance its investment attractiveness. The competitiveness and sustainable development of a country's economy primarily depend on the financial potential of its enterprises. Therefore, conducting an in-depth analysis and continuous monitoring of a company's financial condition is one of the most pressing issues.

The analysis of enterprises' economic activities has always been, and remains, an important factor in improving their performance and increasing efficiency. Analyzing economic activity helps determine how rationally enterprises use their production, financial, and labor resources, identifies unused resources, and allows for the development of necessary recommendations to improve their financial condition and ensure future growth.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

In the era of market relations, a number of measures are being implemented in the country to improve the methodology of financial analysis in order to address this issue. However, many

unresolved problems still remain in this area. Organizations, authorities, and specialists interested in conducting financial analysis are not yet provided with a methodology that is fully grounded in both scientific and practical terms. This situation, undoubtedly, plays a negative role in the effective management of enterprises and organizations during the formation of market relations.

The financial condition of enterprises is:

- a complex concept that includes a wide system of indicators reflecting the availability, status, allocation, and level of utilization of financial resources within the enterprise;
- the result of the interaction of all production and economic factors in the enterprise's activities and their interrelations;
- an expression of the enterprise's provision with the financial resources necessary for stable production, entrepreneurial, and other activities, as well as the efficiency of their use;
- an accurate reflection of the enterprise's financial relationships with other economic entities, authorities, and organizations.

The financial condition of enterprises, formed under the influence of internal and external factors, not only determines their future prospects but also affects the financial condition of other organizations and enterprises associated with them.

RESULTS

In general, the analysis of enterprises' production and economic activities, including their financial condition, is based on a comprehensive system of economic sciences such as economic theory, macroeconomics and microeconomics, management and marketing, statistics, accounting, auditing, finance, credit, monetary circulation, and others.

In a market economy, each enterprise must develop its own financial strategy, manage risks, and optimize the structure of its assets and liabilities. Financial analysis serves as a tool for monitoring the enterprise's operations. Based on the results of the analysis, management decisions are made, the feasibility of investment projects is evaluated, and opportunities for obtaining credit are identified. Moreover, the results of financial analysis are important not only for the internal stakeholders of the enterprise (management, shareholders), but also for external users such as banks, investors, and tax authorities.

DISCUSSION

In a market economy, studying the financial condition of economic entities plays an important role in analyzing their economic activities and determining development strategies. Financial analysis makes it possible to assess an enterprise's real economic potential, profit-generating capacity, solvency, financial stability, and investment attractiveness. Especially under market conditions characterized by intense competition and price instability, continuous monitoring and analysis of a company's financial condition becomes a critical strategic necessity.

The results of financial analysis are applied in the following key areas: First, the enterprise's profitability is assessed by determining the level of return, which reflects its profit-generating potential.

Second, liquidity and solvency indicators are used to evaluate the company's ability to meet short-term obligations.

Third, the efficiency of asset utilization is assessed by analyzing the turnover rate of resources.

Fourth, the level of financial stability and financial security is examined, which is determined by the ratio of debt to equity.

CONCLUSION

The main sources of information used in financial analysis include the balance sheet, income statement, cash flow statements, as well as management and audit reports. Based on these sources, financial analysis indicators are calculated and evaluations are conducted. Accurate analysis of the financial condition and management decisions based on it enhance the financial potential of the economic entity, increase its resilience to risks, and create a foundation for stable operation in market conditions. Therefore, financial analysis is considered an indispensable tool in modern enterprise management.

In a market economy, a thorough study and analysis of the financial condition of economic entities is of great importance for improving their operational efficiency, ensuring financial stability, and strengthening competitiveness. Financial analysis allows for clear and well-founded conclusions about an enterprise's economic potential, financial security, profitability, solvency, and investment attractiveness. Especially in conditions of uncertainty and financial risks inherent to the market environment, this analysis serves as an essential tool to protect the enterprise from adverse consequences.

In the process of financial analysis, the balance sheet, income statements, cash flow statements, and other financial documents serve as the primary sources of information. Based on this data, various indicators are calculated, which are then used to assess the financial condition, growth rates, and efficiency level of the enterprise. This analysis enables the making of accurate and well-founded management decisions, the formation of investment and credit policies, and the optimization of the structure of assets and liabilities.

In conclusion, a thorough and continuous analysis of an economic entity's financial condition is an integral part of modern management. It not only serves to assess the current state of the enterprise but also helps in determining future development strategies. Therefore, conducting financial analysis systematically is necessary and urgent for every economic entity.

REFERENCES:

1. Shodmonov, Sh. Sh., & G'afurov, U. V. (2010). *Iqtisodiyot nazariyasi (darslik)*. Fan va texnologiya nashriyoti.

2. O‘lmasov, A. (2008). Iqtisodiy bilim asoslari: Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Xoliqulov, A. N. (2023). Iqtisodiy tahlil va audit (o‘quv qo‘llanma). Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nashriyoti.
4. Xolmuradovich, X. B. et al. (2022). Government and non-government forms of business and entrepreneurship support. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences.
5. Sultonaliyeva, Z. (2024). The role and importance of cognitive technology in digital economy. Eurasian Journal of Entrepreneurship and Pedagogy, 2(4), 20-21.
6. Sultonaliyeva, Z. (2025). Elektron tijoratni rivojlantirish bosqichlari. Journal of International Science Networks, 1(5), 115-118. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681>
7. Xudoyorov, R., & Sultonaliyeva, Z. (2024). Iqtisodiy indekslarning turlari va uning ahamiyati. International Scientific and Practical Conference, 1(2), 18-20. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14547464>

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

EKOLOGIK ONG VA AXLOQNING IJTIMOIIY-EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Mamajonova Fotimaxon O‘ktamovna
Andijon davlat tibbiyot instituti
Akademiya litseyi Biologiya fani o‘qituvchisi.
m.fotimaxon1977@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ekologik madaniyatning mohiyati, uning inson faoliyatidagi o‘rni va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan axloqiy tamoyillari yoritilgan. Ekologik madaniyat insonning atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini va ekologik masalalarni hal etishda faol ishtirokini aks ettiruvchi muhim tushuncha sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada ekologik ong va axloq tushunchalarining ahamiyati va ular jamiyatda barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi roli tahlil qilingan.

Ekologik madaniyatning jamiyatning turli sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, ta’lim va siyosatga ta’siri, shuningdek, kundalik hayotdagi amaliy ko‘rinishlari misollar orqali ochib berilgan. Pedagogik jarayonlardagi ekologik ong va axloqni shakllantirish masalalari, yosh avlodda tabiatga nisbatan hurmat va mas’uliyatni rivojlantirishning dolzarbligi alohida ta’kidlangan.

Maqolada ijtimoiy ekologik madaniyatni rivojlantirishning ahamiyati, davlat va jamoatchilikning hamkorligini kuchaytirish zaruriyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, ekologik tarbiya va ta’limning jamiyatda ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Maqola ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali kelajak avlodlar uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratishga qaratilgan strategiyalarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslar, ekologik muammolar, ekologik axloq.

Ekologik madaniyat – bu insonning atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatli munosabati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qoidalari, va ekologik masalalarni hal qilishdagi faol ishtirokini aks ettiruvchi tushuncha. Bu madaniyat, birinchi navbatda, insonning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirish qobiliyatini, tabiatni saqlash va himoya qilishga qaratilgan axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Jamiyat rivojlanishida ekologik madaniyatning o‘rni juda muhim, chunki u barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ekologik xavfsizlik va resurslarni asrashni

ta’minlaydi³. Ekologik madaniyat rivojlangan jamiyatlarda ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslarni ratsional boshqarishda yuqori natijalarga erishiladi. Bu madaniyat inson faoliyatining barcha jabhalarida aks etadi, shu jumladan iqtisodiyot, ta’lim, siyosat va kundalik hayotda.

Ekologik ong va axloq ekologik madaniyatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ekologik ong – bu insonning tabiat va atrof-muhit haqidagi bilimlari, ularning qadriyat sifatida qabul qilinishi va ushbu bilimlarning kundalik hayotda qo‘llanilishi. Ekologik axloq esa, insonning tabiatga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq axloqiy tamoyillar va me‘yorlarni o‘z ichiga oladi. Bu ikki komponent jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlardir. Ekologik ongni shakllantirish insonning tabiatni asrashga qaratilgan amaliy faoliyatiga asoslanadi, ekologik axloq esa ushbu faoliyatning axloqiy jihatlarini tartibga soladi⁴. Bu jarayonlarda insonning ma’naviy rivojlanishi va axloqiy ongining kengayishi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ekologik masalalar dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Atmosfera ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar butun dunyo miqyosida e’tibor talab qilmoqda. Ushbu masalalarni hal qilishda ekologik madaniyat va unga bog‘liq bo‘lgan ong va axloqning roli katta ahamiyatga ega. Ekologik muammolarni samarali hal qilish faqat texnologik va iqtisodiy yondashuvlar bilan chegaralanmasligi kerak, balki bu jarayonlar jamiyatning ekologik madaniyati va axloqiy qoidalarga asoslangan yondashuvni talab qiladi. Ekologik axloq va ongning shakllanishi orqali jamiyat tabiiy resurslarni oqilona boshqarish va barqaror rivojlanish tamoyillariga erishishi mumkin.

Umuman olganda, ekologik madaniyat, ong va axloq zamonaviy dunyo muammolarining hal qiluvchi omillaridan biri bo‘lib, ularni rivojlantirish orqali nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki kelajak avlodlar uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish ham mumkin bo‘ladi. Shu sababli, ekologik ong va axloqni tarbiyalash va rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

Ekologik ong insonning tabiatga bo‘lgan munosabati va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarida mas’uliyatni anglashining muhim jihatidir⁵. Bu tushuncha shaxsning ekologik muammolarni anglash qobiliyatidan boshlab, ularga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Ekologik ongni rivojlantirish shaxsni tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga undaydi, bu esa o‘z navbatida inson faoliyatini barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda olib borishga yordam beradi.

3 Caporali F., Caporali F. Development of Ecological Awareness //Ethics and Sustainable Agriculture: Bridging the Ecological Gaps. – 2021. – C. 23-87.

4 Baugher J. E., Osika W., Robert K. H. Ecological consciousness, moral imagination, and the framework for strategic sustainable development //Creative Social Change. – Emerald Group Publishing Limited, 2016. – C. 119-142.

5 Gangwar D. S. Cultivation of ecological consciousness for a sustainable agroecosystem //Journal of International Buddhist Studies. – 2020. – T. 11. – №. 2. – C. 30-46.

Masalan, shaxsiy iste‘mol odatlarini o‘zgartirish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejash kabi harakatlar ekologik ongning namunasidir.

Axloqiy qadriyatlar ekologik qarorlar qabul qilishda asosiy o‘rin tutadi. Tabiatga hurmat, mas‘uliyat hissi, hamjihatlik va kelajak avlodlar oldidagi burch kabi qadriyatlar insonning ekologik muammolarga nisbatan axloqiy yondashuvini belgilaydi. Bu qadriyatlar orqali insonning qarorlari nafaqat hozirgi sharoitlarni yaxshilashga, balki uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta‘minlashga ham qaratilgan bo‘ladi. Masalan, shaxsning transport vositasini tanlashda kam uglerod chiqaruvchi vositalardan foydalanishga intilishi yoki ortiqcha resurslarni sarflamaslikka bo‘lgan intilishi axloqiy qadriyatlarning amaliy ko‘rinishidir.

Shaxsiy ekologik madaniyatning kundalik hayotga ta‘siri shaxsning o‘z hayot tarzini tabiatga zarar yetkazmaydigan tarzda tashkil etishida namoyon bo‘ladi. Bu nafaqat ekologik mas‘uliyatni his qilish, balki ushbu mas‘uliyatni kundalik faoliyatda amalda qo‘llashni anglatadi. Masalan, uyda energiyani tejash, suvni tejash, chiqindilarni ajratib yig‘ish yoki ekologik toza mahsulotlarni xarid qilish kabi faoliyatlar insonning ekologik madaniyatini ko‘rsatadi. Kundalik hayotdagi bunday amaliy harakatlar nafaqat shaxsning tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi, balki boshqa odamlarga ham namuna bo‘lishi orqali jamiyat darajasida ekologik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi⁶.

Umuman olganda, ekologik ong va axloqning shaxs darajasidagi ahamiyati shaxsiy qarorlar va harakatlar orqali tabiatni saqlashga hissa qo‘shish imkoniyatini ta‘minlashdir. Bu faqat individual muvaffaqiyat emas, balki jamiyat miqyosida ekologik barqarorlikka erishish uchun zarur bo‘lgan birlamchi qadamdir. Shu sababli, ekologik ong va axloqni shakllantirish shaxsning hayot sifati va kelajak avlodlarga qoldiriladigan ekologik meros uchun hal qiluvchi omildir.

Jamiyat darajasida ekologik ong va axloq ijtimoiy ekologik madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jamiyatdagi har bir individning ekologik mas‘uliyatni his qilishi va axloqiy tamoyillarga rioya qilishi natijasida umumiy ekologik madaniyat rivojlanadi. Ekologik ong jamiyatni atrof-muhitni himoya qilish va barqaror foydalanishga yo‘naltiradi. Bu jarayonda ekologik axloq jamiyat a‘zolarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishini ta‘minlaydigan, ularga nisbatan hurmat va mas‘uliyat hissini kuchaytiradigan axloqiy me‘yorlarni belgilaydi. Natijada, ijtimoiy ekologik madaniyatning rivojlanishi jamiyatda barqaror rivojlanish tamoyillariga erishishga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanishga erishish va ekologik mas‘uliyatni oshirish uchun jamiyatning barcha qatlamlarida ekologik ongli munosabat zarur. Bu, bir tomondan, jamiyat a‘zolarining atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli munosabatini shakllantirishni, ikkinchi tomondan, davlat va jamoat tashkilotlarining ekologik masalalarni samarali boshqarishdagi faoliyatini talab qiladi. Jamiyat darajasida ekologik ongli munosabat resurslarning oqilona boshqarilishi, chiqindilarni

⁶ Gangwar D. S. Cultivation of ecological consciousness for a sustainable agroecosystem //Journal of International Buddhist Studies. – 2020. – T. 11. – №. 2. – C. 30-46.

kamaytirish, qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish va energiya tejamkorligini oshirish kabi ko‘plab amaliy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa barqaror rivojlanishga erishish uchun ekologik siyosatni mustahkamlash va jamiyatni ushbu jarayonlarga jalb qilishni talab qiladi.

Jamiyatda ekologik ong va axloqni shakllantirishda ijtimoiy kampaniyalar, tashviqot va ta‘lim muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy kampaniyalar ekologik mas‘uliyatni targ‘ib qilishning samarali vositasi bo‘lib, ular orqali keng jamoatchilik ekologik muammolar haqida xabardor qilinadi va ularga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beriladi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, daraxt ekish yoki suvni tejash bo‘yicha tashkil etilgan ijtimoiy harakatlar orqali odamlar tabiatni saqlashda faol ishtirok etishga undaladi.

Tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish uchun ularni turli axborot vositalari orqali olib borish lozim. Televideniye, internet va bosma ommaviy axborot vositalarida ekologik masalalar haqida ma‘lumotlar berish jamiyatning keng qamrovli qismiga ta‘sir qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ta‘lim tizimi ekologik ong va axloqni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limdan boshlab oliy ta‘limgacha bo‘lgan bosqichlarda ekologik fanlar va ekologik tarbiya kurslarini kiritish jamiyatning ekologik madaniyatini mustahkamlaydi⁷.

Jamiyat darajasida ekologik ong va axloqni rivojlantirish atrof-muhitni himoya qilish, resurslarni tejamli boshqarish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun muhim asosdir. Ushbu jarayon ijtimoiy ekologik madaniyatni shakllantirishga hissa qo‘shish bilan birga, kelajak avlodlar uchun barqaror ekologik sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Shu sababli, ekologik ong va axloqni rivojlantirish uchun davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Pedagogik jarayonlardagi ekologik ong va axloqni shakllantirish jamiyatda barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ta‘lim tizimi ekologik tarbiyaning asosiy vositasi bo‘lib, u yosh avlodning ekologik muammolarni anglashini va atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli munosabatni rivojlantirishini ta‘minlaydi. Ekologik ong va axloqni shakllantirish strategiyalari ta‘lim mazmunini ekologik ma‘lumotlar bilan boyitish va o‘quv jarayonlarini shaxsning ekologik mas‘uliyatini oshiruvchi amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Masalan, ekologik mavzularni o‘quv dasturlariga kiritish, tabiiy resurslarni himoya qilish bo‘yicha loyihalar va tajribalar orqali bolalarda ekologik ongni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalar ekologik mas‘uliyatni oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Interaktiv ta‘lim usullari, masalan, ekologik loyihalar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va jamoaviy muhokamalar, bolalarda ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, virtual va real tajriba o‘tkazish texnologiyalari, ekologik laboratoriyalar va dala

⁷ Gangwar D. S. Cultivation of ecological consciousness for a sustainable agroecosystem //Journal of International Buddhist Studies. – 2020. – T. 11. – №. 2. – C. 30-46.

ishlariga asoslangan o‘qitish usullari o‘quvchilarni ekologik muammolarni amalda tushunishga undaydi. Bunday texnologiyalar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ulardan kundalik hayotda foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Ta’lim jarayonlarida ekologik mavzularni badiiy va madaniy jihatdan o‘rgatish ham axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ekologik tarbiyaning bolalar va o‘quvchilar ongini shakllantirishdagi ahamiyati beqiyos. Yosh avlodga tabiatni sevis, uni asrash va himoya qilishning muhimligini singdirish kelajak jamiyatning ekologik barqarorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Bolalar yoshida ekologik axloq va ongni shakllantirish orqali ularda tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorlik va hurmat hissi paydo bo‘ladi. Maktablarda ekologik tarbiya bo‘yicha maxsus tadbirlar o‘tkazish, masalan, daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha aksiyalar va ekologik viktorinalar, bolalarning ekologik mas’uliyatni ongli ravishda qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, oilaviy ekologik tarbiya jarayoniga jalb etilgan bolalar tabiatga bo‘lgan mas’uliyatni oila va jamiyat doirasida kengroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar⁸.

Shu tarzda pedagogik jarayonlarda ekologik ong va axloqni shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki umumiy ekologik madaniyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim tizimi ushbu jarayonning asosiy platformasi sifatida ekologik tarbiya orqali ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan axloqiy va mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi. Shu sababli, ekologik ta’limni takomillashtirish va uning doirasini kengaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shaxs va jamiyat ekologik madaniyatining o‘zaro ta’siri atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanishga erishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Individual ekologik ong va axloq jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi, chunki har bir shaxsning tabiiy resurslarga nisbatan mas’uliyatli munosabati umumiy ekologik muhitni yaxshilashga hissa qo‘shadi. Mas’uliyatli qarorlar qabul qiladigan shaxslar orqali jamiyatda ekologik ong va axloqni mustahkamlash jarayoni sodir bo‘ladi. Masalan, bir shaxsning qayta ishlash odatlari yoki tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi nafaqat o‘z oilasi, balki keng jamoatchilik uchun ham ijobiy namuna bo‘lishi mumkin.

Individual ekologik ongning jamiyatdagi ahamiyati shundaki, u shaxsning ekologik faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shaxs o‘zining atrof-muhitga ta’sirini anglaganida, u ekologik masalalar bo‘yicha yanada ongli qarorlar qabul qiladi. Bunday ongli yondashuv, o‘z navbatida, jamiyatdagi ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, odamlarning energiyani tejash yoki chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha qabul qilgan shaxsiy qarorlari jamiyatning ekologik barqarorlikka erishish maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun ekologik madaniyatning ildizi shaxs darajasidagi axloqiy qadriyatlar va ongni shakllantirishdan boshlanadi.

⁸ Wagner I. The model of “School of Ecological Culture”: Development of children’s values of environmental ethics //SHS Web of Conferences. – EDP Sciences, 2018. – T. 55. – C. 03020.

Ekologik mas’uliyatli jamiyat yaratish uchun shaxsiy axloqiy me’yorlarning mustahkamlanishi muhim ahamiyatga ega. Shaxsning ekologik axloqi jamiyatda ekologik masalalarni hal qilish jarayonida asosiy omil hisoblanadi. Axloqiy me’yorlarning kuchayishi orqali har bir shaxs o‘z harakatlarining tabiatga ta’sirini anglashni o‘rganadi va bu bilimlarini jamiyat manfaati yo‘lida qo‘llashga harakat qiladi. Masalan, daraxtlarni saqlash, suvni tejash yoki havoni ifloslantiradigan harakatlardan qochish kabi shaxsiy axloqiy tamoyillar butun jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv orqali shaxsiy harakatlar jamiyatda barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi umumiy ekologik siyosatga moslashadi⁹.

Shaxsning ekologik ong va axloqida mustahkamlangan me’yorlar jamiyatdagi ekologik madaniyatni ijtimoiy me’yor sifatida mustahkamlashga olib keladi. Jamiyatdagi ekologik madaniyat o‘z navbatida individual ong va axloqni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni yaratadi. Bunday o‘zaro ta’sir natijasida shaxs va jamiyat ekologik muammolarni hal qilishda birgalikda harakat qiladi. Shuningdek, shaxslarning birlashuvi orqali ekologik loyihalar va tashabbuslar hayotga tatbiq etiladi, bu esa ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga va ekologik madaniyatni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, shaxs va jamiyat ekologik madaniyatining o‘zaro ta’siri bir-birini boyituvchi jarayon sifatida qaraladi. Har bir shaxsning ekologik ong va axloqidagi o‘zgarishlar jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Buning natijasida ekologik mas’uliyatli jamiyatni barpo etish va kelajak avlodlar uchun barqaror ekologik sharoitlarni yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Shu sababli, individual axloqiy me’yorlarni mustahkamlash va ularni jamiyat darajasida keng targ‘ib qilish ekologik barqarorlikka erishishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Ekologik ong va axloqning ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri katta va ko‘p qirrali bo‘lib, u barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shaxs va jamiyatning ekologik ong va axloqqa asoslangan munosabatlari atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekologik ong – bu tabiatni anglash va uning qadriyat sifatidagi o‘rnini tushunish bo‘lsa, ekologik axloq – tabiat bilan o‘zaro munosabatda axloqiy tamoyillarni qo‘llashni anglatadi. Ushbu ikki tushunchaning uyg‘unlashuvi jamiyatda ijtimoiy ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy poydevorini tashkil etadi.

⁹ Ferreira F. Critical sustainability studies: a holistic and visionary conception of socio-ecological conscientization //Journal of Sustainability Education. – 2017. – T. 13. – C. 1-22.



1-rasm. Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish: muammolar, yechimlar va tarbiya jarayonlari

Bugungi kunda ekologik masalalarning dolzarbligi tobora ortib borayotgan sharoitda, shaxs va jamiyat darajasida ekologik ong va axloqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bu o‘z navbatida, har bir insonning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlash va ijtimoiy ekologik barqarorlikni shakllantirish uchun zarurdir. Ekologik ong va axloq nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning ekologik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon ijtimoiy ekologik madaniyatning kuchayishi, ijtimoiy harakatlar va ekologik tashabbuslarning ommalashuvi orqali yanada kengroq miqyosda amalga oshadi.

Shaxsiy va jamiyat darajasida ekologik ong va axloqni rivojlantirish uchun bir qator amaliy choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Birinchidan, ta’lim tizimida ekologik tarbiyani kengaytirish zarur. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik ta’limni yo‘lga qo‘yish, o‘quv dasturlariga ekologik masalalar bo‘yicha

maxsus kurslarni kiritish va ekologik amaliyotlarni tashkil qilish orqali bolalar va yoshlarning ekologik ongini shakllantirishga erishiladi. Bu nafaqat shaxsiy darajada ekologik mas’uliyatni kuchaytiradi, balki jamiyat miqyosida barqaror ekologik madaniyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy harakatlar va ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Mahalliy va xalqaro miqyosda ekologik masalalar bo‘yicha tashkil etiladigan harakatlarda jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash, tabiatni asrashga qaratilgan aksiyalar, konferensiyalar va loyihalarni tashkil qilish orqali ekologik mas’uliyatni targ‘ib qilish lozim. Shuningdek, davlat va xususiy tashkilotlar o‘rtasida ekologik muammolarni hal qilishda hamkorlikni rivojlantirish jamiyatning ekologik madaniyatini mustahkamlash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Uchinchidan, ekologik axloqiy me’yorlarni ommalashtirish orqali atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni jamiyatda keng targ‘ib qilish lozim. Axloqiy tamoyillarning ommalashuvi uchun axborot kampaniyalari, media vositalari orqali ekologik targ‘ibot va jamoatchilikka namuna bo‘ladigan ekologik faoliyatlarni rag‘batlantirish muhimdir. Shuningdek, ekologik masalalar bo‘yicha ijobiy namuna ko‘rsatadigan shaxslar va tashkilotlarning ishlarini ommaga yetkazish ekologik axloqiy qadriyatlarni jamiyatning barcha qatlamlarida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ekologik ong va axloqni rivojlantirish ijtimoiy ekologik madaniyatni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati uchun ta’lim, ijtimoiy harakatlar va axloqiy qadriyatlarni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilish kabi yo‘nalishlarda muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlar zarur. Shu tariqa, ekologik mas’uliyatli jamiyatni barpo etish va kelajak avlodlar uchun barqaror ekologik sharoitlarni yaratishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Caporali F., Caporali F. Development of Ecological Awareness //Ethics and Sustainable Agriculture: Bridging the Ecological Gaps. – 2021. – C. 23-87.
2. Baugher J. E., Osika W., Robert K. H. Ecological consciousness, moral imagination, and the framework for strategic sustainable development //Creative Social Change. – Emerald Group Publishing Limited, 2016. – C. 119-142.
3. Kyburz-Graber R., Hofer K., Wolfensberger B. Studies on a socio-ecological approach to environmental education: a contribution to a critical position in the education for sustainable development discourse //Environmental Education Research. – 2006. – T. 12. – №. 1. – C. 101-114.
4. Gangwar D. S. Cultivation of ecological consciousness for a sustainable agroecosystem //Journal of International Buddhist Studies. – 2020. – T. 11. – №. 2. – C. 30-46.
5. Ferreira F. Critical sustainability studies: a holistic and visionary conception of socio-ecological conscientization //Journal of Sustainability Education. – 2017. – T. 13. – C. 1-22.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 378.14:616-036.22:371.3:005.336

ORCID: 0000-0003-3219-3145

TIBBIY TA'LIMDA YUQUMLI KASALLIKLAR FANINI O'QITISH ORQALI TALABALAR AMALIY-KLINIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK OMILLARI VA XUSUSIYATLARI

Qayumov Avazbek Mutalibovich
Yuqumli kasalliklar kafesrasi
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta'limda yuqumli kasalliklar fanini o'qitish orqali talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik omillar va ularning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Unda klinik tafakkur, tashxis algoritmlarini qo'llash, tahliliy va reflektiv yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, yuqumli kasalliklar, amaliy-klinik kompetensiya, didaktik omillar, klinik tafakkur, refleksiya, tashxis algoritmi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАКТИКО-КЛИНИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические факторы и особенности формирования практическо-клинических компетенций студентов на основе преподавания инфекционных болезней в медицинском образовании. Проводится научный анализ педагогического значения организации образовательного процесса на основе клинического мышления, диагностических алгоритмов, аналитического и рефлексивного подходов.

Ключевые слова: медицинское образование, инфекционные заболевания, практическо-клиническая компетентность, дидактические факторы, клиническое мышление, рефлексия, диагностический алгоритм.

DIDACTIC FACTORS AND FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' PRACTICAL-CLINICAL COMPETENCES THROUGH TEACHING INFECTIOUS DISEASES IN MEDICAL EDUCATION

Annotation: This article explores the didactic factors and distinctive features involved in developing students' practical-clinical competencies through the teaching of infectious diseases in medical education. It provides a scientific analysis of the pedagogical significance of organizing the educational process based on clinical reasoning, diagnostic algorithms, analytical, and reflective approaches.

Keywords: medical education, infectious diseases, practical-clinical competence, didactic factors, clinical reasoning, reflection, diagnostic algorithm.

KIRISH

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida tibbiy ta'lim tizimi oldida zamonaviy sog'liqni saqlash talablariga javob bera oladigan, klinik jihatdan kompetent, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shifokor kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu jarayon shunchaki tashkiliy o'zgarishlarni emas, balki ta'lim mazmunining tubdan yangilanishini, xususan, "nimani o'qitish kerak?" degan savoldan "qanday o'qitish va qanday shaxsni tarbiyalash kerak?" degan savolga o'tishni talab qiladi. Ayniqsa, pandemiyalar, infeksiyon kasalliklarning xilma-xilligi va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchaygan bir davrda yuqumli kasalliklar fanining tibbiy ta'limdagi o'rni yanada ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarda amaliy-klinik kompetensiyalarni rivojlantirish esa nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki real klinik holatlarda to'g'ri tashxis qo'yish, muvofiq davolash usullarini tanlash, bemor bilan samarali muloqot qilish va kasbiy refleksiya kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bunday ko'nikmalarni samarali rivojlantirish esa, ta'limning didaktik asoslari, o'qitish strategiyalari va individual o'quv uslublarini inobatga olgan holda tashkil etilishini talab etadi. Globallashuv jarayonlari, bilim iqtisodiyotining kuchayishi va axborot maydonining kengayishi ta'limning mohiyatiga ham chuqur ta'sir ko'rsatib, klinik fikrlashni nafaqat aloqa vositasi, balki kasbiy muvaffaqiyatning muhim omiliga aylantirgan. Shu sababli, tibbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun yuqumli kasalliklar fani vositasida samarali amaliy-klinik kompetensiyani rivojlantirish – kasbiy shakllanishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologiyasi amaliy-klinik kompetensiyalarni shakllantiruvchi didaktik omillarni tahlil qilish uchun M. Li tomonidan taklif etilgan chuqur tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu nazariy asos kompetensiyani shunchaki ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki talabaning turli amaliy-klinik vaziyatlarda amaliy vositalardan to'g'ri, aniq, kontekstga mos va maqsadga muvofiq foydalanish layoqati sifatida ta'riflaydi. M. Lining freymvorkiga ko'ra, bunday kompetensiyaning shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq omillarning ta'siri ostida sodir bo'ladi. Birinchidan, tibbiy omillar – bular talabaning fan haqidagi fundamental bilimlari va ularni amaliy-klinik kontekstda qo'llay olish malakasini o'z ichiga oladi. Ikkinchidan,

psixologik omillar – bu ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, ammo hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan "insoniy" o'lchov bo'lib, fanni o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiya, o'ziga ishonch va ochiq klinik fikrlashga tayyorlik, klinik fikrlash darajasi hamda kasbiy-emotsional barqarorlik kabi jihatlarni qamrab oladi. Uchinchi, sotsial-klinik omillar – bu talabaning mutaxassislik fanlarini nafaqat tibbiy tizim sifatida, balki shu fanda jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari ifodasi sifatida ham anglashini talab qiladi. To'rtinchi, metodik omillar – bu amaliy-klinik kompetensiyani shakllantirish uchun ta'lim jarayoni interaktiv, talaba markazli va faol ishtirokka asoslangan bo'lishi kerakligini uqtiradi. Ushbu metodologiya A. Bleakleyning qarashlari bilan yanada boyitilgan bo'lib, u kasbiy me'yorlar, o'z-o'zini anglash va talabalararo munosabatlar kabi professional-psixologik omillarning ham kompetensiya shakllanishiga kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, mazkur metodologiya kompetensiya rivojlanishini tushunish uchun ko'p faktorli tahlilni (Li) professional muhit ta'siri (Bleakley) bilan birlashtirib, yaxlit va chuqur tushuncha hosil qiladi.

NATIJALAR

Ushbu metodologik asosda olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliy-klinik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun yaxlit va integratsiyalashgan yondashuv zarur. Talabalarni yuqumli kasalliklar fanidagi klinik fikrlashga tayyorlashda o'qitilayotgan materialni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash va barcha ta'lim faoliyati turlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvning asosiy natijalaridan biri – o'qituvchining rolini qayta anglashdir. O'qituvchi endi faqat bilim beruvchi manba emas, balki amaliy-klinik sharoitlarni yaratuvchi me'mor, yuqumli kasalliklar fani vositasida talaba faoliyatini tashkil qiluvchi muhim pedagogik figuraga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining e'tiborini ma'ruza qilishdan ko'ra, tanqidiy fikrlash va refleksiyaning qo'zg'atadigan o'quv tajribalarini loyihalashga qaratadi. Natijada, talabalar yuqumli kasalliklar fani vositasida mustaqil fikrlay oladigan, axborotni izlaydigan, tahlil qiladigan va uni samarali klinik fikrlash orqali ifodalay oladigan darajaga yetkaziladi. Amaliy-klinik kompetensiya mazmunan talabaning kasbiy jihatdan shakllanishi muammosiga daxldor bo'lgan kompleks kasbiy-psixologik va tibbiy jarayon ekanligi tasdiqlandi. Yangi ming yillik bosqichida yuqumli kasalliklar fani nafaqat zamonaviy fan vositasi, balki talabaning yuqori kasbiy tayyorgarligi, klinik fikrlashi va amaliy-klinik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida e'tirof etilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, amaliy-klinik kompetensiyaning rivojlanishi tasodifiy jarayon emas, balki tibbiy, psixologik, ijtimoiy va metodik omillarni hisobga olgan holda puxta ishlab chiqilgan didaktik tizimning bevosita natijasidir. Tibbiy ta'limda yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonida zamonaviy didaktik yondashuvlar – jumladan, klinik holatlarni tahlil qilish, interaktiv mashg'ulotlar, reflektiv fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash – amaliy-klinik kompetensiyani rivojlantirishda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, fan mazmunining integratsiyalashuvi, o'quv topshiriqlarning klinik kontekstda

ishlab chiqilishi va VAK modeli asosida individual o‘quv yondashuvni qo‘llash talabani kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik omillarni ongli ravishda boshqarish va o‘quv jarayoniga tatbiq etish shifokor tayyorlash sifatini tubdan o‘zgartirishi mumkin, bu esa nafaqat ta’lim muassasasining yutug‘i, balki butun sog‘liqni saqlash tizimining muvaffaqiyatidir. Natijada, ushbu fan orqali o‘rgatilayotgan kompetensiyalar bo‘lajak shifokorning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Spencer J.A., Jordan R.K. Learner centred approaches in medical education. *BMJ*, 1999; 318(7193): 1280–1283.
2. Ten Cate O. Entrustable Professional Activities in Medical Education. *Med Teach*, 2005; 27(1): 20–24.
3. Dornan T., Scherpbier A. Experience-based learning: linking the processes and outcomes of medical students’ workplace learning. *Med Educ*, 2007; 41(1): 84–91.
4. Komilov Nodirbek. [Role of historical factors of history of medicines pedagogy](#) // International scientific conference innovative trends in science, practice and education. №3 , 2024. – P. 95–98.
5. Komilov Nodirbek. [Enhancement of Exclusive Competencies of Foreign Students by Teaching the History of Medicine in Medical Education](#) // World Bulletin of Social Sciences, 2025, No. 32. – P.41-44.



LOGISTIK TIZIMNING MENEJMENT VA MARKETING BILAN BOG‘LIQLIGI

Sadullayeva Dilnavo Shamsiddin qizi

SamDU Urgut filiali talabasi

Email: dilnavosadullayeva39@gmail.com

Tel: +998 90 195 45 48

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada logistik tizimning menejment va marketing bilan o‘zaro bog‘liqligi, ularning biznes jarayonlarida tutgan o‘rni va samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Logistika menejmenti resurslarni optimal taqsimlash, ta’minot zanjirini samarali boshqarish va mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berishga qaratilgan. Marketing esa talabni shakllantirish, iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish va mijozlarga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yo‘nalishlarning integratsiyasi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: logistika menejmenti, marketing va logistika, ta’minot zanjiri, tovar taqsimoti, transport va omborxona logistikasi, narx strategiyalari, xarajatlarni optimallashtirish, logistika va marketing integratsiyasi, brend imidji.

ANNOTATION This article examines the interrelation between logistics systems, management, and marketing, highlighting their roles in business processes and overall efficiency. Logistics management focuses on optimizing resource allocation, supply chain management, and timely product delivery. Meanwhile, marketing plays a crucial role in shaping demand, satisfying consumer needs, and developing consumer-oriented strategies. The integration of these fields is a key factor in enhancing corporate competitiveness.

Key words: logistics management, marketing and logistics, supply chain, product distribution, transport and warehouse logistics, pricing strategies, cost optimization, logistics and marketing integration, brand image.

АННОТАЦИЯ Данная статья рассматривает взаимосвязь логистических систем, менеджмента и маркетинга, подчеркивая их роль в бизнес-процессах и общей эффективности. Логистический менеджмент сосредоточен на оптимизации распределения ресурсов, управлении цепочкой поставок и своевременной доставке продукции. В то же время маркетинг играет ключевую роль в формировании спроса, удовлетворении потребностей клиентов и разработке клиенториентированных стратегий. Интеграция этих областей является важным фактором повышения конкурентоспособности компании.

Ключевые слова: логистический менеджмент, маркетинг и логистика, цепочка поставок, распределение товаров, транспортная и складская, ценовые стратегии и конкурентоспособность, оптимизация затрат, интеграция логистики и маркетинга, имидж бренда

KIRISH

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida logistika, menejment va marketing bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular korxonaning samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Raqobat muhitida har qanday kompaniya yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish va marketing strategiyalarini to‘g‘ri belgilash orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Shu sababli, logistika menejmenti va marketing o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish va uni to‘g‘ri boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanishning G‘arbdagi andozalariga ko‘ra, logistika, marketing va menejmentdan ajralib chiqib, alohida ilmiy yo‘nalish olishi uchun qariyb yarim asr talab etilgan edi. Logistika tizimi boshqarish vazifalari bilan uzviy bog‘liq. Lekin logistika tizimiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan vazifalardan biri - marketing siyosati va taktikasi. Logistika tizimining servis chegaralarini marketing talablari aniqlaydi. Marketing taktikasi bevosita logistikaning xarajat ko‘rsatgichlariga ta’sir qiladi. Ishlab chiqarishning assortiment bo‘yicha ixtisoslashishi marketing yordamida sezilarli darajada rivojlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Logistika sohasidagi logistika menejmenti va uning asosiy vazifalari haqida gapirishdan avval “Logistika menejmenti o‘zi nima?” degan savolga javob bersak. **LOGISTIKA MENEJMENTI** – bu resurslarni samarali boshqarish va ulardan to‘g‘ri foydalanish jarayoni bo‘lib, u quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1.Ta’minot zanjirini boshqarish – xomashyo yetkazib berishdan boshlab, tayyor mahsulotni mijozlarga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

2.Transport va omborxona logistikasini tashkil etish – mahsulotlarni o‘z vaqtida va minimal xarajat bilan yetkazib berish jarayonini optimallashtirish.

3.Talab va taklifni muvozanatlash – ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish.

4.Axborot tizimlarini joriy etish – raqamli texnologiyalar yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish va kuzatib borish.

Logistika sohasining yana marketing bilan ham o‘zaro bog‘liqliklari bor. Logistik nuqtai nazardan mahsulot qadoqlash o‘lchamlari, transport vositalariga joylashtirish sharoitlari logistik xarajatlarni hajmiga ta’sir etadi va mahsulot narxini oshirishni talab qiladi. Aks holda bu jarayon marketing foydasini kamayishiga olib keladi. Yoxud marketing strategiyasidagi narxga samarali rioya qilish uchun omborda saqlash hamda tashishda distribyusiya tizimidagi chiqimlarni sezilarli qisqartirish talab etiladi. Ishlab chiqarish tannarxi bilan mazkur qisqartirilgan

xarajatlarning yig‘indisi narx muammosini hal etishga ijobiy ta‘sir qiladi. Ya‘ni bunday holatda logistikaning ushbu jabhadagi yordami asqotadi.

Marketing strategiyalari va logistika operatsiyalari bir-birini to‘ldiradi. Marketing iste‘molchilarning ehtiyojlarini o‘rganib, ularga mos mahsulotlarni taklif qilishga harakat qiladi, logistika esa ushbu mahsulotlarni yetkazib berish orqali mijozlar talabini qondiradi. Ularning bog‘liqligi quyidagi jihatlarida ko‘rinadi:

Mahsulotni to‘g‘ri yetkazib berish – marketing kampaniyalari orqali mijozlar jalb qilinsa, logistika ushbu mahsulotlarni o‘z vaqtida va sifati buzilmagan holda ularga yetkazib berishga mas‘ul.

Narx strategiyalari va taqsimot tizimi – marketing bozor talabini o‘rganib, narx belgilaydi, logistika esa ushbu mahsulotlarni mijozlarga eng maqbul narx va vaqt doirasida taqdim etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat – marketing mijozlar ehtiyojlarini tushunish orqali sotuv jarayonlarini optimallashtiradi, logistika esa mijozlarga tez va samarali yetkazib berish xizmatini ta‘minlaydi.

Endi marketing, menejment va logistik sohaning o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rib chiqsak. Zamonaviy biznesda menejment, marketing va logistikaning uyg‘un ishlashi muhim ahamiyatga ega. Korxonaning strategik rejalari ishlab chiqilganda, ushbu uch yo‘nalishning hamkorligi quyidagi natijalarga olib keladi:

1.Xarajatlarni optimallashtirish – yaxshi rejalashtirilgan logistika xarajatlarni kamaytiradi, marketing esa daromadni oshirishga yordam beradi.

2.Raqobatbardoshlikni oshirish – mijozlar talabiga mos keluvchi mahsulotlarni tez va sifatli yetkazib berish korxonaning bozor ulushini oshirishga xizmat qiladi.

3.Brend imidjini mustahkamlash – mijozlar xizmatdan qoniqsa, bu ularning sodiqligini oshirishga yordam ber assortimenti logistik zanjir tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Logistikada marketing va menejmentning o‘rni haqida tahlilni chuqurroq tushunish uchun bir qator ilmiy va amaliy adabiyotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar logistikaning tez sur‘atlarda rivojlanishi, muammolari va istiqbollari haqida ma‘lumotlar taqdim etadi. Quyida shu mavzuda o‘rganilgan ba‘zi asosiy manbalar tahlil qilinadi:

Abduqodirov A (2020) “Logistika” ushbu asarda logistika tizimining asosiy tamoyillari, tashkiliy va boshqaruv jihatlari keng yoritilgan. Logistika menejmentining samaradorligi va uning biznes jarayonlariga ta‘siri haqida ma‘lumot berilgan [1].

Raximov S (2018) ”Marketing va logistika” ushbu manbada marketing va logistika o‘rtasidagi bog‘liqlik, bozorda mahsulot ta‘minotining ahamiyati va mijozlar talabini qondirish strategiyalari haqida ma‘lumot berilgan [2].

Qosimov D (2021) ”Zamonaviy ta‘minot zanjiri menejmenti” bu manbada logistika tizimining global rivojlanish tendensiyalari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z boradi [3].

Christopher M (2016) "Logistics and supply chain Management" ushbu xalqaro manbada ham ta'minot zanjiri boshqaruvi va logistika strategiyalari bo'yicha xalqaro olib borilgan tajribalar tahlil qilib o'tilgan [4].

Bowersox D J, Closs D J and Cooper M B (2012) "Supply chain Management" bu xalqaro xorijiy kitobda global logistika tizimlarini boshqarish va optimallashtirish tamoyillari yoritilgan [5].

METODOLOGIYA

Ushbu maqola logistik tizimning menejment va marketing bilan bog'liqligi mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada tadbiq qilingan natijalar O'zbekistonda logistika va marketing strategiyalarini takomillashtirish, ta'minot zanjiri boshqaruvi samaradorligini oshirish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish sohalarida qo'llanishi mumkin

XULOSA

Logistika marketing va menejment o'zaro bog'liq bo'lib, ularning samarali integratsiyasi korxonaning bozorda muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega. Korxonalarining marketing strategiyalarini logistika jarayonlari bilan uyg'unlashtirishi nafaqat mijozlar talabini to'liq qondirishga, balki biznes samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Shuning uchun, ushbu uch yo'nalishning birgalikda boshqarilishi hozirgi biznes muhitida muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Logistika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2020. 154-b
2. Raximov S. Marketing va logistika. – Toshkent: Iqtisodiyot va Biznes nashriyoti, 2018. 426-b
3. Qosimov D. Zamonaviy ta'minot zanjiri menejmenti. – Toshkent: Innovatsiya markazi nashriyoti, 2021. 200-b
4. Karimov U. Raqamli iqtisodiyot va logistika. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022. 315-b
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo'mitasi. O'zbekiston logistika bozori va ta'minot zanjiri rivoji. – Toshkent, 2023. 246-b
6. Toirova M. Abdullayeva A. Logistika. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2020. 128-b
7. Ergashxodjaeva Sh.Dj. Qosimova, M.S. Yusupov, M.A. Marketing asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. 305-b
8. Umarova D.M. Logistika. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2016. 252-b
9. Christopher M. Logistics and supply chain Management, 2016. 328-b
10. Bowersox D. J., Closs, D. J. and Cooper, M. B. Supply chain Management, 2012. 640-b



INTERNET VA AXBOROT OQIMINING O'QUVCHILAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Hasanova Malohat Nabi qizi

Jizzax shahar 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada internet va global axborot oqimining o'quvchilar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Media makonning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari, yoshlarning axborotga bo'lgan munosabati, shuningdek, raqamli muhitda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shuningdek, axborot tanlash madaniyati, media savodxonlik va ota-ona-nazorat tizimi muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: Internet, axborot oqimi, tarbiya, raqamli muhit, media savodxonlik, o'quvchilar, ota-ona nazorati, axborot madaniyati

АННОТАЦИЯ: данной статье анализируются положительные и отрицательные влияния интернета и глобального информационного потока на воспитание школьников. Рассматриваются образовательные и воспитательные возможности медиaprостранства, отношение молодежи к информации, а также даются рекомендации по эффективной организации воспитательного процесса в цифровой среде. Особое внимание уделяется культуре отбора информации, медиаграмотности и системе родительского контроля.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Интернет, информационный поток, воспитание, цифровая среда, медиаграмотность, школьники, родительский контроль, информационная культура

ANNOTATION: This article analyzes the positive and negative impacts of the Internet and global information flow on students' upbringing. It explores the educational and moral potential of the media space, students' attitudes toward information, and offers recommendations for organizing an effective educational process in the digital environment. Key focus is placed on information literacy, media culture, and the role of parental control.

KEYWORDS: Internet, information flow, upbringing, digital environment, media literacy, students, parental control, information culture

KIRISH

Respublikamizda oshiralayotgan islohotlarining bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kishi – har tomonlama rivojlangan barkamol insondir. Mamlakatimizda rivojlanishning muhim

sharti zomnaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlanishlarning takomillashgan tizimini yaratishdan iborat.

Zamonaviy dunyoda Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim va tarbiya tizimiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchilar endilikda faqatgina maktab yoki oilaviy muhitda emas, balki global axborot maydonida shakllanmoqda. Bu esa o'z navbatida, ularning shaxsiyati, ijtimoiy qiziqishlari, axloqiy qarashlari va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'quvchilar ongiga har xil sifatda, nazoratsiz va filtrlanmagan axborotlar tobora ko'proq kirib bormoqda, bu esa tarbiyaviy jarayonni murakkablashtiradi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Fanda texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad, maznun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash pedagogika fanining dolzarb muammolar-ning biri hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risida"gi qonunida ta'lim muassalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi. O'quv tarbiya ishlari yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi."Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi"¹⁰ – deyilgan. Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi"¹¹.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar respublikaning ravnaqini ta'minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishda muhim o'rin topadi. 2017 yilga kelib davlatimizning barcha sohalarida yangi davr boshlandi, shu qatori ta'lim sohasida ham yangi islohatlar kiritildi. Bugungi kunda ta'lim ma'zmunini yangilash, takomillashtirish o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirish bo'yisha ham ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha "Davlat ta'lim standarti" tasdiqlandi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'limi standarti bu yilgi o'quv yilidan kuchga kirib, ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida

¹⁰ Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori- T Sharq 1998 yil 41- bet

¹¹ SH.M.Mirziyoyev "Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori" 2017 yil

interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchi – o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, musatqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlardan himoyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganligi tufayli, bunday tahdid va xavflarni asosan global tarmoq orqali yuzaga kelayotganligi tufayli bu mavzu yuzasidan bir qancha ilmiy risolalar, qo‘llanma va adabiyotlar yaratildi. N. Umarovning “Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash” “Axborot xavfsizligi: muammo va yechimlar”, D. Quronovning “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi”, X. Ochilovning “Demokratiya niqobidagi tahdid” asarlarida asosiy e‘tibor chetdan kirib kelayotgan axborotlarning zararli ta‘siri hamda milliy mafkura targ‘ibotining ahamiyatiga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma‘lumki, internet-axborot va hujjatlarning o‘zaro almashinishini ta‘minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko‘chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta‘lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor. Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o‘tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda. Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa yoshlarda axborot iste‘moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi ba‘zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta‘siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e‘tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so‘zimizning isbotidir. Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko‘p vaqtini inernetda o‘tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur. Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.¹²

Internet insonlarning ko‘z o‘ngida dunyo yuzidan pardani ko‘tardi. Natijada, ayrim kishilar shunchaki tomoshabinga – yalqov iste’molchiga aylanib qoldi. Ular saytma-sayt kezib, qiziqarli filmlar, videotasvirlar va boshqa bema’ni narsalarni tomosha qilib kun o‘tkazadigan bo‘ldi. Ba’zilar esa o‘yindan bosh ko‘tarmay qoldi. Seriallar qahramonlarining hayotiga tomoshabin bo‘lib kun o‘tkazayotganlar, uzzukun birovlar belgilab bergan o‘yinlarni o‘ynab ko‘z nuridan ayrilayotganlar o‘zlarining hayotini qachon yashaydi! Ular eng qimmatli sarmoyasi – hayotini boy berayotganini bilmaydimi?.. O‘tkazilgan tadqiqotlarda aksar yoshlar ko‘p vaqtini internetda, kompyuter o‘yinlarini o‘ynab o‘tkazayotgani aniqlanmoqda. Bunday yoshlar jismonan sog‘lom, komil inson bo‘lib ulg‘ayarmikan? Boz ustiga, ularning ba’zilar buzg‘unchi saytlarga kirib, qalloblarga, fitnachilarga aldanib, hatto terrorchilarga qo‘shilib qolganini ham e’tirof etgan. Buzg‘unchi sayt degani nima o‘zi? Bu atamani eshitganda terrorchilik va axloqsizlikni targ‘ib etuvchi saytlarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Ammo yanada kengroq mushohada yuritsak, boshqa turdagi buzg‘unchi saytlar ham ko‘p. Masalan, fikrimizcha, insonning vaqtini o‘g‘irlab, unga ilm-ma’rifat o‘rgatmaydigan, uni komillik sari yetaklamaydigan, zaruriy axborotlar bilan ta’minlamaydigan saytlarning hammasi shu hukmda.

American Life loyihasining ekspertlari internet kelajagi haqida quyidagi fikrlarni keltirishgan edi: “Doimo yoqiq turadigan va tezligi yuqori bo‘lgan internet, kommunikatsiyani shunchalik yengillashtiradiki, masofa tushunchasining ahamiyati juda pasayadi, “Odamlar hajmi kamroq ma’lumotlarni o‘qishga harakat 19 qiladilar, ya’ni hajmi qanchalik katta bo‘lsa unda ma’lumot shunchalik kam bo‘lishi, vaqtni bekor sarflash mumkin”¹³

Xulosa

¹² 5 <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>

¹³ <http://www.Livejournal.com>

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki jonli, haqiqiy va real muloqot o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar ko‘proq kitob o‘qishlari, o‘z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘lmagan ma’lumotlarni saqlashi mumkin. Biz ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga bo‘lgan ta’sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda ijtimoiy tarmoq a’zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay olishimiz lozim. Bundan tashqari, internetning ham inson hayotida zarari yo‘q emas. Ayniqsa, bu yoshlar o‘rtasida ko‘p uchramoqda. Internetning inson ruhiyatiga birinchi salbiy ta’siri barqaror qaramlikdir.

Yoshlar qanday qilib kompyuterda soatlab o‘tirganini va u o‘tayotgan hayotni sezmayotgani insoniyat uchun muammo hisoblanadi. Buning oqibatida esa, bolada internetga bo‘lgan qiziqish ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi, u oila va do‘stlar bilan vaqt o‘tkazishni, maktabga borishni, uy vazifalarini bajarishni istamasligiga olib keladi, o‘z vaqtini boshqarishni yo‘qotadi. Buning oldini olish uchun esa, ota-onalar bolalariga e’tibor berishlari, ular uchun vaqt ajratishlari, ularning ilm egallash, kasb tanlash, hunar o‘rganishga bo‘lgan istaklari bilan qiziqishlari lozim. Yoshlarni internetdan foydalanmasligini cheklashni imkoni yo‘q, shu sababli, otaonalar bolalariga ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishlari kerak. Masalan, farzandlari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqchi bo‘lganida uni nazoratdan chetda qoldirmaslik, farzandlariga internetda faqatgina “yaxshi” emas, balki “yomon” axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntirish, ularning internetdan foydalanishiga ba’zi hollarda cheklovlarni o‘rnatish kerakligini unutmashliklari lozim.

Butun jahon internet axborot tarmog‘i, mobil aloqa tizimi, kompyuter o‘yinlari, video va kino mahsulotlari orqali “ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy manfaatlarimiz, mafkuramiz, ma’naviy axloqiy qarashlarimizga yot zararli g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlar kuzatilmoqda. “Ommaviy madaniyat” mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr- mulohaza yuritishni talab etmaydi, aksincha, ularni har xil hayot tashvishi va muammolaridan “xalos” etadi, o‘qishga, bilim olishga emas, balki bir marta beriladigan hayotda “yashab qolishga” chaqiradi.

Internet va global axborot oqimi o‘quvchilarning tarbiyasida ikkiyoqlama ta’sirga ega: u ijobiy imkoniyatlarni taqdim etar ekan, noto‘g‘ri yondashuv oqibatida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tarbiya jarayonida raqamli vositalardan oqilona foydalanish, media savodxonlikni oshirish va oilaviy-nazoratli yondashuvlar orqali bu xavf-xatarlarning oldini olish mumkin. Pedagog va ota-onalarning hamkorlikda ishlashi orqali Internet axborot maydoni o‘quvchi shaxsining sog‘lom shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. SH.M.Mirziyoyev “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori” 2017 yil

2. Islomov M.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar tarbiyasi: Fan va texnologiya, O‘zbekiston, 2020. – 212 bet

3. G‘ofurov B.M. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar Toshkent: TDPU nashriyoti, O‘zbekiston, 2019. – 198 bet

4. Nasriddinov R.X. Zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolari Toshkent: O‘qituvchi, O‘zbekiston, 2017. – 240 bet

5. Sharipova D.T. Media madaniyat va o‘quvchilar tarbiyasi Toshkent: Innovatsiya, O‘zbekiston, 2021. – 165 bet



TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Dilnavoz Xo'jamurodova
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika yo'nalishi 3 bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi va ularning o'quv samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini interaktiv, qulay va individual yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt, virtual laboratoriyalar, elektron resurslar kabi zamonaviy vositalarning o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim, elektron resurslar, sun'iy intellekt, virtual ta'lim muhiti, innovatsion yondashuv, ta'lim sifatini oshirish.

Аннотация: В данной статье раскрыта актуальность внедрения цифровых технологий в образовательный процесс и их влияние на эффективность обучения. Проанализированы возможности организации учебного процесса на основе интерактивного, удобного и индивидуального подхода с использованием цифровых технологий. Также показана роль современных средств, таких как онлайн-образовательные платформы, искусственный интеллект, виртуальные лаборатории и электронные ресурсы.

Ключевые слова: цифровое образование, образовательные технологии, онлайн-обучение, электронные ресурсы, искусственный интеллект, виртуальная образовательная среда, инновационный подход, повышение качества образования.

Annotation: This article highlights the relevance of integrating digital technologies into the educational process and their impact on learning effectiveness. It analyzes the potential of organizing the learning process in an interactive, convenient, and individualized manner through digital technologies. The article also outlines the role of modern tools such as online learning platforms, artificial intelligence, virtual laboratories, and electronic resources.

Keywords: digital education, educational technologies, online learning, electronic resources, artificial intelligence, virtual learning environment, innovative approach, improving education quality.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter,

noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi esa o'quvchilarni zamonaviy vositalarga jalb etadi, ularning qiziqishlarini oshiradi va axborotlarga tez kirishish imkonini beradi. Shunga qaramay, yangi metodlarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, o'qituvchilarning malakasi va rayyorgarligi, moddiy-texnik bazaning yetarliligi, shuningdek, ota onalar va jamiyatning munosabati muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tizimli yondashuvni qo'llash, barcha manfaatdor tomonlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yangi metodlarni joriy etishda o'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayrim o'quvchilar raqamli texnologiyalarga moyil bo'lsa, boshqalari aniq amaliy mashg'ulotlarga qiziqishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchilardan har bir o'quvchining qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning individual ehtiyojlariga mos keladigan usullarni qo'llash talab etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida yangi metodlarni qo'llashda muntazam monitoring va baholash tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega¹⁴. Bu esa olinayotgan natijalarga baho berishga va zarur o'zgartirishlarni kiritishga imkon beradi. Monitoring jarayonida o'quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olish ham muhim hisoblanadi. Yana bir muhim jihat, yangi metodlarni qo'llashda o'qituvchilar uchun qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zaruratidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'qituvchilar yangi usullarni qo'llashda erkin bo'lishlari, ularning ijodiy yondashuvlari rag'batlantirilishi lozim. Bunday muhit o'qituvchilarda yangilikka intilish va o'z ustida ishlash motivatsiyasini oshiradi. Qolaversa, yangi metodlarning samaradorligini oshirish uchun ularni an'anaviy usullar bilan uyg'unlikda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda, an'anaviy usullar yangi metodlarni to'ldirishi mumkin, bu esa o'quvchilarning bilim darajasini yanada yuqori ko'tarishga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim jarayoniga yangi metodlarni joriy etishda ilmiy tadqiqotlarning roli muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli ta'lim vositalarining joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari haqida J. Anderson (2018) o'z tadqiqotida ta'limning raqamli transformatsiyasi orqali shaxsiylashtirilgan, moslashtirilgan va moslashuvchan o'qitish imkoniyatlarini yaratishga e'tibor qaratgan. UNESCO (2021)

¹⁴ Black, P., & Wiliam, D. (1998). *Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment*. Phi Delta Kappan, 80(2), 139–148.

hisobotlarida esa, raqamli texnologiyalar yordamida ta’limda inklyuzivlik, tenglik va sifatli ta’limga erishish imkoniyatlari kengayayotgani ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim sifati va qamrovini oshirish vazifasi belgilangan.

Mahalliy tadqiqotlardan M. Karimov (2022) o‘z maqolasida O‘zbekistonda raqamli ta’lim platformalari — “Ziyonet”, “Edu.uz”, “Kundalik.uz” hamda xalqaro tizimlar — “Google Classroom”, “Moodle” va “Zoom” orqali olib borilayotgan onlayn ta’lim jarayonlarini tahlil qilgan. Shuningdek, N. Usmonova (2023) raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyatlari kuchayishini qayd etadi.

Ilmiy izlanishlar orqali yangi usullarning samaradorligi aniq statistik ma’lumotlar asosida baholanadi, ularning kuchli va kuchsiz jihatlari aniqlangan holda takomillashtiriladi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar yangi metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonlarini ham qamrab olishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi usullarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun ta’lim muassasasining umumiy madaniyati va qadriyatlari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro hamkorlik va jamoaviy ishlash muhiti yangi usullarning ommalashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ta’lim tashkilotlarida sog‘lom madaniyatni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, yangi metodlarni joriy etishda mahalliy kontekstni ham hisobga olish muhim.

NATIJARAR

Turli mamlakatlar, hududlar va jamoalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli, ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos usullarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Standart yondashuvlardan ko‘ra, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda moslashtirish samarali natijalarni beradi.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni oz ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo‘l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar

rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi o'quv jarayoniga sifat jihatidan yangicha yondashuvni talab etmoqda. An'anaviy ta'lim modelidan farqli ravishda, raqamli ta'lim o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi. Shu bilan birga, mavjud texnologik imkoniyatlar ta'limda inklyuzivlik, moslashuvchanlik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Biroq, muammolar ham yo'q emas. Xususan, internet tarmog'ining sifati, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, ba'zi o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining pastligi ushbu tizimning to'liq joriy etilishiga to'siq bo'layotgan asosiy omillardir.

Shu sababli, davlat tomonidan uzluksiz raqamli ta'lim siyosatini yuritish, ta'lim xodimlarining malakasini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va raqamli adolat tamoyillarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki ularning mustaqil ta'lim olish, muloqot qilish, muammoni hal etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Raqamli vositalar yordamida ta'limda shaxsiylashtirish, tezkor teskari aloqa, o'quv resurslariga istalgan vaqtda kirish imkoniyati hamda masofaviy o'qitish kabi imkoniyatlar kengaymoqda. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali, qulay va zamonaviy qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifati, tengligi va qamrovi borasida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Biroq, bu borada bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal qilish — ya'ni raqamli infratuzilmani rivojlantirish, barcha hududlarni barqaror internet bilan ta'minlash,

o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshirish — dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli, raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar uzviy uyg‘unlikda olib borilishi zarur. Zero, ta’limning raqamli transformatsiyasi – bu nafaqat texnologik o‘zgarish, balki butun jamiyat tafakkuri va yondashuvining yangilanishidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
2. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. Theoretical & Applied Science, (11), 56-58.
3. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 378.14:371.3:005.336:61

ORCID: 0000-0003-3219-3145

TIBBIY TA'LIM TALABALARINING AMALIY-KLINIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Qayumov Avazbek Mutalibovich
Yuqumli kasalliklar kafedrası
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta'limda talabalar amaliy-klinik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlar tahlil qilinadi. Jumladan, o'qitishning mazmuni, metodikasi, tashkil etish shakllari, o'quv muhiti va interaktiv yondashuvlar orqali talabalarda klinik tafakkur, tahliliy yondashuv, diagnostik qobiliyat va kasbiy refleksiya kabi kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: amaliy-klinik kompetensiya, tibbiy ta'lim, pedagogik imkoniyatlar, klinik tafakkur, interaktiv metodlar, reflektiv yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРАКТИКО- КЛИНИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности, способствующие развитию практико-клинических компетенций студентов в медицинском образовании. Подчеркиваются возможности формирования таких компетенций, как клиническое мышление, аналитическое мышление, диагностическая способность и профессиональная рефлексия, посредством содержания учебной программы, методов обучения, форматов обучения, учебной среды и интерактивных подходов.

Ключевые слова: практико-клиническая компетентность, медицинское образование, педагогические возможности, клиническое мышление, интерактивные методы, рефлексивный подход.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING PRACTICAL-CLINICAL COMPETENCES OF MEDICAL STUDENTS

Annotation: This article analyzes the pedagogical opportunities that contribute to the development of students' practical-clinical competencies in medical education. It highlights the possibilities of shaping competencies such as clinical reasoning, analytical thinking, diagnostic ability, and professional reflection through curriculum content, teaching methods, instructional formats, learning environments, and interactive approaches.

Keywords: practical-clinical competence, medical education, pedagogical opportunities, clinical reasoning, interactive methods, reflective approach.

KIRISH

Tibbiy ta'limdagi eng dolzarb muammolardan biri bu nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishdir. Tibbiy ta'lim tizimida talabalar bilimini amaliyotga tatbiq eta olish layoqatini shakllantirish - klinik tayyorgarlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar fanining o'quv jarayonidagi o'ziga xosligi - kasalliklar xilma-xilligi, infeksiya xavfi, epidemik nazorat va tezkor tashxis qo'yish zarurati bilan belgilanadi. Bu esa talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki real klinik holatlarda mustaqil va javobgarlik bilan harakat qilish kompetensiyalarini shakllantirishni talab qiladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun tibbiy ta'limda mavjud bo'lgan pedagogik imkoniyatlar, ya'ni metodik yondashuvlar, o'qitish texnologiyalari, baholash vositalari va o'quv muhitini tashkil etish shakllari chuqur tahlil qilinishi lozim. Hozirgi kunda talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini shakllantirishda interaktiv darslar, amaliy laboratoriyalar, klinik treninglar, simulyatsion mashg'ulotlar, OSCE imtihonlari, muammoli vaziyatlar asosida ta'lim va VAK modeliga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu metodlarning barchasi talabani passiv tinglovchidan o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdek umumiy maqsadni ko'zlaydi. Shuningdek, global axborot asrida raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qulay va interaktiv qilish imkonini beradi. Bo'lajak shifokorlar faoliyati ko'p hollarda bemorlar bilan ishlash, kasallik sabablarini tushuntirish, professional suhbatlar olib borish va o'z davolash ko'nikmalarini asoslab berish kabi kompetensiyalarni talab etgani uchun, amaliy-klinik kompetensiyalarni rivojlantirish faqat fanni o'rganishga qaratilgan emas, balki kasbiy faoliyatga integratsiyalashgan pedagogik yondashuvni talab qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologiyasi talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun integrativ, talabaga yo'naltirilgan pedagogik tizimni tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuv ta'limni shunchaki bilim uzatish jarayoni sifatida emas, balki bo'lajak mutaxassisning kasbiy shaxsiyatini shakllantiruvchi yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqadi va o'z poydevorini konstruktivistik ta'lim nazariyasiga qo'yadi, unga ko'ra talabalar tajriba va refleksiya orqali o'z bilimlarini faol ravishda o'zlari yaratadilar. Endilikda pedagogik jarayonni faqatgina bilim uzatishga qaratilgan faoliyat sifatida emas, balki bo'lajak mutaxassisning kasbiy

faoliyatiga mos kompetensiyalarini shakllantiruvchi integrativ jarayon sifatida tushunish zarurati tug‘ilmoqda. Zamonaviy pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi kasbiy yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur integratsiyalagan holda klinik fikrlashga tayyor, erkin fikrlovchi, tashabbuskor mutaxassislarni yetishtirishga aylanmoqda. Pedagogik jarayonning muvaffaqiyati unda ishtirok etayotgan barcha subyektlarning samarali klinik fikrlashga kirishish qobiliyatiga, o‘zaro hurmat va hamkorligiga asoslanadi. Shunday ekan, bo‘lajak mutaxassisni klinik fikrlashga o‘rgatmay turib, pedagogik jarayonni zamon talablari darajasida tashkil etishning iloji yo‘q. Bu metodologiyada o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi; u endi ma’ruza qiluvchi emas, balki o‘quv tajribalarini loyihalashtiruvchi va fasilitatsiya qiluvchi "ta'lim me'mori"ga aylanadi. O‘qituvchining amaliy-klinik kompetensiyasi uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatini, talaba bilan samarali pedagogik aloqani va darsda kasbiy-psixologik muhitni yaratishdagi rolini bevosita belgilaydi. Amaliy-klinik rivojlanishdagi nuqsonlar, masalan, klinik fikrlashdagi ishonchsizlik va fikrni ravon yetkazolmaslik kabi muammolarni bartaraf etishning asosiy yo‘li esa ta’limiy jarayonga bo‘lajak shifokor qadriyatlari, amaliy-klinik imkoniyatlar va o‘z-o‘zini amalga oshirish imkoniyatlarini chuqur singdirishdan iboratdir.

NATIJALAR

Mavjud pedagogik imkoniyatlardan tizimli foydalanish natijasida talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim yutuqlarga erishildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, puxta tashkil etilgan pedagogik sharoitlar talabalarning amaliy-klinik kompetensiyalarini sifatli shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xususan, yuqumli kasalliklar fanida samarali klinik fikrlash, fikrlarni aniq va to‘g‘ri ifodalash, tanqidiy fikrlash va klinik yondashuvni shakllantirish kabi bir qator kompleks kompetensiyalar rivojlantirildi. Ayniqsa, virtual o‘quv muhitlaridan foydalanish maksimal samaradorlikni ta’minladi, bu esa talabalarning individual rivojlanishi va interaktiv o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirdi. Virtual reallik (VR) va to'ldirilgan reallik (AR) kabi texnologiyalar murakkab diagnostik mulohazalarni va muolajalarni takroriy, standartlashtirilgan va xavfsiz sharoitda mashq qilish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratdi. Eng muhim natijalardan biri bu "ideal bitiruvchi" obrazining qayta ta'riflanishidir. Zamonaviy jamiyatga oddiy kasbiy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis emas, balki kasbiy faoliyat jarayonida klinik fikrlash, hissiy ong (emotsional intellekt), ijodkorlik va klinik muhit bilan moslashish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etgan “bo‘lajak shifokor” zarurligi aniqlandi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni nafaqat fanni o'rgatishga, balki mehnat bozori talablariga mos keluvchi, har tomonlama yetuk mutaxassisni tayyorlashga qaratilishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik imkoniyatlar shunchaki tasodifiy usullar to'plami emas, balki ular birgalikda, tizimli ravishda qo'llanilganda tibbiy ta'limni tubdan o'zgartira oladigan kuchli strategiyalar va vositalardir. Tibbiy ta'lim jarayonida amaliy-klinik kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik imkoniyatlar keng ko'lamli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Xususan, klinik mashg'ulotlarning strukturaviy tashkil etilishi,

simulyatsion treninglar, klinik keyslar asosida o‘qitish, VAK modeli elementlarini qo‘llash, tahliliy va reflektiv metodikalar, shuningdek, aniq baholash mezonlari orqali o‘quv jarayoni boyitilishi lozim. Bu pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanish shunchaki o‘quv dasturini yaxshilash emas, balki kelajak avlod shifokorlarining kasbiy salohiyatiga sarmoya kiritish va shu orqali butun millat salomatligini mustahkamlash demakdir. Shu sababli, pedagogik jarayonni ilmiy asoslangan, amaliyga yo‘naltirilgan va integrativ shaklda olib borish zamonaviy tibbiy ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib qolishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shodmonov M.M., Abdullayev B.S. Tibbiy pedagogika asoslari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 240 b.
2. Azizov N.A. Tibbiy ta’limda reflektiv yondashuv asoslari. – T.: Ijtimoiy Fikr, 2021. – 178 b.
3. Harden R.M., Laidlaw J.M. Essential Skills for a Medical Teacher. – Edinburgh: Elsevier, 2021. – 290 p.
4. Komilov Nodirbek. [Blockchain-Based Wireless Network Security Algorithm for Data Integrity in History Education](#) // Journal of Wireless Mobile Networks. Ubiquitous Computing, and Dependable Applications (JoWUA) volume: 16, number: 1 (March), pp. 247-257. DOI: 10.58346/JOWUA.2025.I1.015.
5. Komilov Nodirbek. [Enhancement of Exclusive Competencies of Foreign Students by Teaching the History of Medicine in Medical Education](#) // World Bulletin of Social Sciences, 2025, No. 32. – P.41-44.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABORATORIYALARNING BIOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI (XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI MISOLIDA)

Raupova Mehrinigor Haydarovna

Buxoro davlat universiteti¹, Buxoro davlat pedagogika instituti²

Biologiya kafedrası dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: angelfeya94@gmail.com

Tel: 998973083588

Annotatsiya. Ushbu maqola PISA kabi xalqaro baholash dasturlari natijalarini yaxshilash kontekstida biologik ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini tadqiq qiladi. Unda an'anaviy ta'limning kamchiliklari va zamonaviy talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'rsatilgan. Asosiy e'tibor virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalarning murakkab biologik hodisalarni vizual tarzda o'rganish, talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish va xavfsiz tajriba o'tkazish imkoniyatlariga qaratilgan. Raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali talabalarning funksional savodxonligini oshirish bo'yicha amaliy xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: biologik ta'lim, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriya, interaktiv simulyatsiya, PISA, TIMSS, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, vizualizatsiya, raqamli transformatsiya, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье исследуется роль цифровых технологий в повышении эффективности биологического образования в контексте улучшения результатов международных программ оценки, таких как PISA. В ней показаны недостатки традиционного образования и несоответствие между ними и современными требованиями. Основное внимание уделяется возможностям виртуальных лабораторий и интерактивных симуляций для визуального изучения сложных биологических явлений, развития у учащихся исследовательских компетенций и проведения безопасных экспериментов. Представлены практические выводы по повышению функциональной грамотности учащихся путем эффективной интеграции цифровых инструментов в образовательный процесс.

Ключевые слова: биологическое образование, цифровые технологии, виртуальная лаборатория, интерактивная симуляция, PISA, TIMSS, естественнонаучная грамотность,

компетентностный подход, визуализация, цифровая трансформация, эффективность образования.

Annotation. This article explores the role of digital technologies in improving the effectiveness of biology education within the context of enhancing results in international assessment programs such as PISA. It highlights the shortcomings of traditional education and the gap between them and modern demands. The main focus is on the potential of virtual laboratories and interactive simulations for visually studying complex biological phenomena, developing students' research competencies, and conducting safe experiments. Practical conclusions are presented on increasing students' functional literacy through the effective integration of digital tools into the educational process.

Keywords: biology education, digital technologies, virtual laboratory, interactive simulation, PISA, TIMSS, scientific literacy, competency-based approach, visualization, digital transformation, educational effectiveness.

Kirish

XXI asr – globallashuv, raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiya asri bo‘lib, u ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi shunchaki ensiklopedik bilimlar majmuasini berish emas, balki o‘zgaruvchan dunyoga tez moslasha oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, muammolarga nostandart yechimlar topa oladigan va eng muhimi, o‘z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan funksional savodxonlikka ega avlodni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda tabiiy fanlar, xususan, biologiya ta’limi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat atrof-muhit, inson salomatligi va biotexnologiyalar kabi global masalalarni tushunishga yordam beradi, balki tizimli va mantiqiy fikrlashning fundamental asoslarini shakllantiradi.

O‘zbekistonning PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi milliy ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklarini xalqaro standartlar bilan qiyoslash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarimiz ko‘pincha nazariy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etish, nostandart, kontekstli topshiriqlarni bajarish va ilmiy hodisalarni isbotlashga asoslangan xulosalar chiqarishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, an’anaviy ta’lim metodlari – ma’ruza, yodlash va standart masalalar yechish – zamonaviy chaqiriqlarga to‘liq javob bera olmayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, moddiy-texnik baza yetishmovchiligi, xavfli kimyoviy reaktivlar zarurati yoki uzoq vaqt talab qilishi sababli ko‘plab muhim laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘tkazilmay qolishi biologiya fanini nazariy, “qog‘ozdagi” fanga aylantirib qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalarni integratsiya qilish mavjud muammolarni hal qilishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga xavfsiz, resurslarni tejagan holda, vaqt va makondan qat’i nazar, murakkab biologik jarayonlarni (masalan, hujayraning bo‘linishi, genetik kodning translyatsiyasi, fermentlar faoliyati) o‘z

qo‘llari bilan boshqarib ko‘rish va natijalarni tahlil qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, “quruq” nazariyani jonli, interaktiv bilimga aylantirib, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini keskin oshiradi va uning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – PISA kabi xalqaro baholash dasturlari talablari kontekstida biologiya ta‘limi samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalarning didaktik o‘rni va imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularni o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Ta‘limni raqamli transformatsiya qilish va uning samaradorligini xalqaro standartlar asosida baholash masalasi so‘nggi yillarda jahon pedagogik hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarni bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin: xalqaro baholash dasturlarining mohiyati, raqamli didaktika va virtual laboratoriyalarning imkoniyatlari.

Birinchi yo‘nalishdagi tadqiqotlar PISA va TIMSS kabi dasturlarning an‘anaviy imtihonlardan farqini tahlil qiladi. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan e‘lon qilingan PISA konsepsiyasida ta‘kidlanishicha, “tabiiy-ilmiy savodxonlik bu shunchaki ilmiy faktlarni bilish emas, balki ilmiy dalillar asosida xulosa chiqara olish, hodisalarni tushuntira bilish va zamonaviy dunyoni anglash uchun ilmiy bilimlarni qo‘llash qobiliyatidir” [1]. Bu shuni anglatadiki, bugungi ta‘lim tizimi o‘quvchining xotirasini emas, balki uning tafakkurini va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi shart. O‘zbekistonlik tadqiqotchi J.O. Tolipova ham o‘z ishlarida PISA topshiriqlarining amaliy va hayotiy mazmunga egaligini, bu esa o‘qituvchilardan o‘qitish metodologiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilishini alohida ta‘kidlaydi [2]. Bu yondashuvlar an‘anaviy ta‘lim usullarining zamonaviy talablarga javob bera olmayotganini yana bir bor isbotlaydi.

Ikkinchi yo‘nalishdagi ilmiy ishlar bevosita raqamli texnologiyalarning ta‘limdagi o‘rniga bag‘ishlangan. M. Prenskiy o‘zining “Raqamli tub aholi” (Digital Natives) konsepsiyasida zamonaviy o‘quvchilarning axborotni o‘zlashtirish usuli oldingi avlodnikidan tubdan farq qilishini, ular uchun interaktivlik, tezkorlik va vizualizatsiya birlamchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi [3]. Ushbu g‘oya an‘anaviy “doska-bo‘r” tizimidan voz kechib, o‘quv jarayoniga o‘quvchining “tabiiy muhiti” bo‘lgan raqamli vositalarni olib kirish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Shuningdek, L. Darling-Hammond o‘z tadqiqotlarida texnologiyalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishi va ayniqsa, murakkab, abstrakt tushunchalarni idrok etishni osonlashtirishini statistik ma‘lumotlar asosida ko‘rsatib bergan [4].

Uchinchi va bizning tadqiqotimiz uchun eng muhim yo‘nalish – bu virtual laboratoriyalarning didaktik imkoniyatlarini o‘rganishdir. Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) va Kolorado universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan PhET Interactive Simulations loyihasi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Loyiha asoschilari ta‘kidlashicha, “interaktiv simulyatsiyalar o‘quvchilarga ko‘rinmas jarayonlarni ko‘rish, o‘zgaruvchilarni

manipulyatsiya qilish va “agar... nima bo‘ladi?” kabi savollarga mustaqil javob topish orqali fanning fundamental qonuniyatlarini kashf etish imkonini beradi” [5]. Bu yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. D.C. Corter va uning hammualliflari tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual laboratoriyalardan foydalangan guruhlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy laboratoriya ishlari bilan shug‘ullangan nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan [6]. Xuddi shunday, Labster kabi tijoriy platformalar gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlarini qo‘shish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qiladi, bu esa o‘quvchining darsga to‘liq sho‘ng‘ishiga (immersion) yordam beradi [7].

Biroq, ayrim tadqiqotchilar, jumladan T. de Jong, raqamli vositalardan foydalanish har doim ham kutilgan samarani beravermasligini, buning uchun pedagogik jihatdan puxta o‘ylangan metodologiya zarurligini ta’kidlaydilar. Uning fikricha, “o‘quvchiga shunchaki simulyatsiyani taqdim etish yetarli emas; unga aniq tadqiqot savolini qo‘yish, gipoteza yaratishga yo‘naltirish va olingan natijalarni tahlil qilishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish (scaffolding) zarur” [8]. Bu g‘oya o‘qituvchining roli yo‘qolmasligini, aksincha, u bilimni uzatuvchidan o‘quv jarayonini tashkil etuvchi fasilitatorga aylanishi kerakligini ko‘rsatadi. Bu fikrni N.P. Anisimova ham o‘z ishlarida qo‘llab-quvvatlab, raqamli ta’lim sharoitida o‘qituvchining raqamli kompetentligi va metodik tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi [9].

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyala biologiya ta’limi samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash uchun ulkan salohiyatga ega. Biroq, bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun ulardan shunchaki “zamonaviy bezak” sifatida emas, balki chuqur o‘ylangan pedagogik strategiya va kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli foydalanish talab etiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Mazkur tadqiqot biologik ta’lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va amaliy metodlar uyg‘unligidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil va pedagogik eksperiment metodlari tanlandi. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro shahridagi umumta’lim maktablaridan birining 9-sinf o‘quvchilari (n=60) jalb qilinib, ular shartli ravishda tajriba (A) guruhi (n=30) va nazorat (B) guruhi (n=30) ga ajratildi.

Metodologiya birinchi bosqichida PISA baholash dasturining tabiiy-ilmiy savodxonlikni o‘lchovchi topshiriqlarining strukturasi tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, PISA topshiriqlari asosan uch kompetensiyani baholaydi: 1) hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish; 2) tadqiqot dizaynini baholash va rejalashtirish; 3) ma’lumotlar va dalillarni ilmiy asosda interpretatsiya qilish [1]. Ushbu kompetensiyalarni an’anaviy dars uslubida shakllantirish qiyinligi tadqiqotning asosiy gipotezasini ilgari surishga zamin yaratdi: virtual laboratoriyalarni maqsadli integratsiya qilish orqali PISA talablariga mos kompetensiyalarni samaraliroq rivojlantirish mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi, amaliy bosqichida pedagogik eksperiment o‘tkazildi. “Hujayra biologiyasi” mavzusi bo‘yicha nazorat (B) guruhida darslar an‘anaviy usulda – ma’ruza, darslik bilan ishlash va rasmlar chizish orqali o‘tildi. Tajriba (A) guruhida esa aynan shu mavzularni o‘tishda PhET Interactive Simulations (“Gen ifodalanishi asoslari”) va Labster (“Hujayra membranasi va transport”) virtual laboratoriyalaridan foydalanildi. Bu jarayonda o‘quvchilarga shunchaki simulyatsiyani “o‘ynash” emas, balki aniq tadqiqot savollari (“Hujayra membranasi o‘tkazuvchanligiga qanday omillar ta’sir qiladi?”, “DNK mutatsiyasi oqsil sinteziga qanday ta’sir ko‘rsatadi?”) berildi va ular o‘z “tajribalari” natijalarini maxsus ish varaqalariga qayd etib borishdi.

Tahlil va natijalar: Pedagogik eksperiment yakunida ikkala guruh bilimni baholash uchun PISA formatiga moslashtirilgan, kontekstli va amaliy topshiriqlardan iborat yakuniy test o‘tkazildi. Natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:

Pedagogik eksperiment yakunida olingan natijalarni tahlil qilish uchun ikkala guruhga PISA metodologiyasiga asoslangan, uch xil kognitiv darajadagi kompetensiyalarni o‘lchashga mo‘ljallangan yakuniy test taqdim etildi. Natijalar an‘anaviy va raqamli yondashuvlar o‘rtasidagi nafaqat miqdoriy, balki fundamental sifat farqini ham yaqqol namoyon etdi.

1. *Bilimni eslab qolish va qayta aytib berish (Past darajadagi kognitiv kompetensiya).* Bu bosqichda o‘quvchilardan mavzuga oid asosiy terminlar va faktlarni bilish talab etildi.

Topshiriq namunasi: “Fotosintez jarayonining xloroplastning qaysi qismlarida (stroma, tilakoid) kechadigan yorug‘lik va qorong‘ulik bosqichlarini to‘g‘ri juftlang.”

Bu kabi faktga asoslangan savollarda ikkala guruh ham yuqori natija ko‘rsatdi (B nazorat guruhi – 85%, A tajriba guruhi – 88%). Bu natija kutilgan edi va an‘anaviy “ma’ruza-yodlash” metodining reproduktiv (qayta aytib berishga asoslangan) bilim berishda samaradorligini tasdiqlaydi. Biroq, bu bilim yuzaki va kontekstdan uzilgan bo‘lib, chuqur tushunishni aks ettirmaydi.

2. *Hodisalarni ilmiy tushuntirish va ma’lumotlarni interpretatsiya qilish (O‘rta darajadagi kognitiv kompetensiya).* Bu bosqichda o‘quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatga tatbiq etib, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuntirib berishlari kerak edi. Aynan shu yerda guruhlar o‘rtasidagi farq keskin namoyon bo‘la boshladi.

Topshiriq namunasi (vaziyatli masala): “Sportchi uzoq masofaga yugurganida uning mushak hujayralarida kislorod yetishmovchiligi kuzatiladi va achishish hissi paydo bo‘ladi. Nima uchun mushaklar achishadi? Bu jarayonni hujayraviy nafas olish mexanizmi (aerob va anaerob bosqichlar) bilan bog‘lab, kimyoviy reaksiya mahsulotini ko‘rsatgan holda tushuntiring.”

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhidagi o‘quvchilarning aksariyati (taxminan 65%) faqatgina “sut kislotasi to‘planadi” degan yodlangan javob bilan cheklandi. Ular bu kislotaning nima uchun aynan kislorod yetishmovchiligi sharoitida paydo bo‘lishi mexanizmini to‘liq tushuntirib bera olmadi. Virtual laboratoriyada esa tajriba guruhi o‘quvchilari hujayraviy nafas olish simulyatsiyasida kislorod miqdorini o‘zlari o‘zgartirib, ATF

sintezi va sut kislotasi hosil bo‘lishi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni vizual kuzatgan edilar. Shu sababli, ularning 78% i nafaqat to‘g‘ri javobni berdi, balki jarayonni to‘liq va izchil tushuntira oldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, interaktiv vizualizatsiya abstrakt bilimlarni o‘quvchining kognitiv tajribasiga aylantiradi, bu esa uni ancha mustahkam va funksional qiladi.

3. *Ilmiy tadqiqotni rejalashtirish va gipoteza ilgari surish (Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiya)*. Bu PISA talablarining eng yuqori cho‘qqisi bo‘lib, o‘quvchidan shunchaki bilimni qo‘llashni emas, balki yangi bilimni qanday hosil qilish yo‘lini (metodologiyasini) bilishni talab qiladi.

Topshiriq namunasi (tadqiqot ko‘rinishida): “Sizga noma’lum turdagi A va B o‘simlik urug‘lari berilgan. Qaysi urug‘ning unib chiqishi uchun yorug‘lik zarur (fotoblast), qaysi biri uchun esa zarur emasligini aniqlash uchun qanday tajriba rejalashtirgan bo‘lardingiz? Tajriba bosqichlarini, zarur sharoitlarni (o‘zgarmas va o‘zgaruvchi omillar) va natijalarni qanday baholashingizni aniq yozib bering.”

Bu topshiriq nazorat guruhi uchun eng qiyini bo‘ldi – ularning atigi 20% i tajribaning to‘g‘ri dizaynini taklif qila oldi. Ko‘pchilik “urug‘larni ekib, biriga yorug‘lik beramiz, biriga yo‘q” kabi umumiy javoblar berdi, lekin harorat, namlik kabi o‘zgarmas omillarni nazorat qilish zaruratini e’tibordan chetda qoldirdi. Tajriba guruhida esa bu ko‘rsatkich 75% ni tashkil etdi. Ular PhET simulyatsiyalarida turli o‘zgaruvchilarni (masalan, yorug‘lik spektri, suv miqdori, harorat) mustaqil o‘zgartirib, natijaga ta’sirini o‘rganganlari uchun “nazorat qilinadigan eksperiment” tushunchasini amalda o‘zlashtirgan edilar. Shu sababli, ular o‘z javoblarida “nazorat guruhi” (ikkala urug‘ ham qorong‘ida), “tajriba guruhi” (ikkala urug‘ yorug‘likda), “o‘zgarmas sharoitlar” (bir xil tuproq, namlik, harorat) kabi ilmiy terminlarni to‘g‘ri qo‘llab, to‘liq va mantiqiy tajriba dizaynini taklif qildilar.

Eng katta farq tadqiqotni rejalashtirish (eng yuqori darajali kompetensiya) bilan bog‘liq topshiriqda namoyon bo‘ldi. O‘quvchilarga “Ferment faolligiga haroratning ta’sirini o‘rganish uchun qanday tajriba o‘tkazish mumkinligini bosqichma-bosqich yozib bering” degan vazifa berilganda, nazorat guruhidagilarning aksariyati buni umumiy so‘zlar bilan ifodalagan bo‘lsa, tajriba guruhidagilarning 60% dan ortig‘i o‘zgaruvchilarni (harorat), nazorat qilinadigan parametrlarni (pH, substrat konsentratsiyasi) va kutilayotgan natijani aniq ko‘rsata oldi.

Ushbu natijalar shuni isbotlaydiki, virtual laboratoriyalar shunchaki darsni qiziqarli qilish vositasi emas, balki bu – bilimni nazariyadan amaliy kompetensiyaga aylantiruvchi didaktik ko‘prikdir. Raqamli simulyatsiyalar o‘quvchiga “xavfsiz xatolar muhiti”ni yaratib, unda mustaqil tadqiqot olib borish, gipotezalar qurish va tekshirish malakasini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, PISA kabi xalqaro baholash dasturlari talab qiladigan yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning poydevori hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kun ta’limi oldida turgan asosiy muammo – an’anaviy, yodlashga asoslangan ta’lim metodlari va PISA kabi xalqaro dasturlar talab qilayotgan funksional savodxonlik o‘rtasidagi tafovutdir. O‘quvchilarimiz nazariyani bilishi mumkin, ammo bu bilimlarni real

hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, hodisalarning sabab-oqibatini tushuntirish va mustaqil tadqiqot rejalashtirish kabi amaliy ko‘nikmalarda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat shunchaki bilimlar yetishmasligini emas, balki fikrlash va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish usullarida fundamental bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotning isbotlashicha, bu bo‘shliqni to‘ldirishning eng samarali yechimi – ta’lim jarayoniga virtual laboratoriya va interaktiv simulyatsiyalarni tizimli integratsiya qilishdir. Raqamli vositalar o‘quvchini passiv axborot iste’molchisidan bilimni mustaqil “kashf etuvchi” faol tadqiqotchiga aylantiradi. Olib borilgan pedagogik tajriba virtual laboratoriyalar bilan ishlagan o‘quvchilarda nafaqat fanni chuqur tushunish, balki PISA talab qiladigan yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar – tahlil qilish, muammoni hal etish va ilmiy fikrlash qobiliyati keskin rivojlanganini ko‘rsatdi. Shu bois, ta’lim mazmuni, o‘qitish metodikasi va baholash tizimini raqamli didaktika imkoniyatlari bilan boyitish – O‘zbekiston ta’limining sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashning bosh mezonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD (2019). PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. PISA, OECD Publishing, Paris.
2. Tolipova J.O. (2020). Biologiya ta’limida xalqaro baholash tajribasi: Nazariya va amaliyot. Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti.
3. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
4. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Learning Policy Institute.
5. Wieman, C. E., Adams, W. K., & Perkins, K. K. (2008). PhET: Simulations that enhance learning. *Science*, 322(5902), 682-683.
6. Corter, J. E., Nickerson, J. V., Esche, S. K., & Chassapis, C. (2007). Constructing reality: A study of remote, hands-on, and simulated laboratories. *ACM Transactions on Computer-Human Interaction (TOCHI)*, 14(2), 7.
7. Bonde, M. T., Makransky, G., Wandall, J., Larsen, M. V., Mors, K., & Jarmer, H. (2014). Improving biotech education through gamified laboratory simulations. *Nature Biotechnology*, 32(7), 694-697.
8. de Jong, T. (2010). Cognitive load theory, educational research, and instructional design: some food for thought. *Instructional Science*, 38(2), 105-134.
9. Анисимова Н.П. (2018). Цифровая компетентность педагога в условиях современной образовательной среды. *Ярославский педагогический вестник*, (3), 194-201.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FONETIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sahiyeva Muslima Maxsetbay qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fonetik kompetensiyasini shakllantirish masalalari, fonetik kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslari, kichik yoshdagi bolalarda fonetik kompetensiyani shakllantirishga doir xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari tahlil qilingan. Til o'rgatishning ilk bosqichlarida fonetik bilim va ko'nikmalarning ahamiyati, ayniqsa, to'g'ri talaffuz, urg'u, intonatsiya va fonemik eshituvni rivojlantirish orqali og'zaki nutqni shakllantirishning dolzarbligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: fonetika, fonetik kompetensiya, nutq madaniyati, talaffuz, orfoepik me'yor, urg'u va intonatsiya.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье анализируются вопросы формирования фонетической компетентности учащихся начальной школы, научные основы понятия фонетической компетентности, подходы зарубежных и отечественных учёных к формированию фонетической компетентности у детей раннего возраста. Подчёркивается важность фонетических знаний и навыков на ранних этапах обучения языку, особенно актуальность формирования устной речи через развитие правильного произношения, ударения, интонации и фонематического слуха.

Ключевые слова: фонетика, фонетическая компетенция, культура речи, произношение, орфоэпические нормы, ударение и интонация.

FEATURES OF THE FORMATION OF PHONETIC COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. The article analyzes the issues of developing phonetic competence in primary school students, the scientific basis of the concept of phonetic competence, and the approaches of foreign and domestic scientists to developing phonetic competence in young children. The importance of phonetic knowledge and skills at the early stages of language learning is emphasized, especially the relevance of developing oral speech through the development of correct pronunciation, stress, intonation, and phonemic hearing.

Key words: phonetics, phonetic competence, speech culture, pronunciation, orthoepic norms, stress and intonation.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan boshlang‘ich ta’lim bolaning til o‘zlashtirishidagi eng asosiy va faol bosqich bo‘lib, ushbu davrda fonetik malakalarni shakllantirish o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Til o‘rganishning ilk bosqichlarida ayniqsa, fonetik kompetensiyaga alohida e’tibor qaratish zarur, chunki bu bosqich o‘quvchilarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, fonetik birliklarni farqlashi, so‘z va gaplarda urg‘u, ohang va pauza kabi nutq elementlarini o‘zlashtirishi bilan chambarchas bog‘liq. Fonetik kompetensiya o‘quvchining og‘zaki nutqni to‘g‘ri va ravon ifodalashi, eshitib anglashi hamda talaffuz qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda til o‘rgatishning muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu kompetensiya o‘quvchilarning barcha tovushlarni aniq va orfoepik me’yorlarga mos ravishda talaffuz qila olish qobiliyati, tovush birikmalarini to‘g‘ri aytish, urg‘u qo‘yish hamda fonetik eshituv orqali fonemalarni ajratish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, nutqni ifodali qilishda intonatsion vositalardan – masalan, nutq tempi, tembri, ovoz balandligi va mantiqiy urg‘udan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tovushlarning aniq talaffuzi, nutqning to‘g‘riligi, intonatsion jihatdan boyligi hamda yozma nutqdagi savodxonlik – bularning barchasi o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ularni bilimli inson sifatida shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inson nutqining to‘g‘ri va ravon shakllanishida fonetika muhim o‘rin tutadi, chunki u tovushlarning paydo bo‘lishi, talaffuzi, eshitisli va nutqdagi o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi hamda shaxsning til orqali ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Fonetika tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida til tizimining quyi darajasi – talaffuz mazmunini o‘rganadi. Ushbu darajadagi nazariy material nutq tovushlari, ularning xususiyatlari, tasnifi, bo‘g‘inlarni o‘rgatish, so‘zdagi urg‘u, boshqa talaffuz vositalari (nutq hajmi, uning tezligi, ovozni ko‘tarish va tushirish, pauzalar, intonatsiyalar) haqidagi g‘oyalardan iborat.

Fonetika – tilning tovush tuzilishini, ya’ni nutq tovushlari va ularning so‘zda birikish qoidalari va nutq oqimini, til tovushlarini inventarizatsiya qilishni, ularning tizimini, tovush qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır. Fonetika nutq tovushlaridan tashqari bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani ham o‘rganadi [2]. Fonetik kompetensiyani esa biz shaxsning ona tilidagi tovushlarni idrok etish va takrorlash qobiliyati, shuningdek, samarali muloqot qilish uchun intonatsiya va ritmdan foydalanish qobiliyati deb tushunamiz.

Tilning fonetik tizimini bilish va tovushlarni tahlil qilish qobiliyati o‘qish va yozishni o‘zlashtirish uchun asos yaratadi. Shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturida fonetik materialni o‘rganishda bolalarning eshitish qobiliyatiga, tovushlarni va tovush birikmalarini to‘g‘ri talaffuz qilishga alohida e’tibor qaratish kerak.

L.Mali boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda eng ko‘p uchraydigan nutq nuqsonlari talaffuz buzilishi, deb hisoblaydi [5]. R.Levina [4], O.Jovnitskaya [1], T.Kulyukina va N.Shestakovalarning [3] ilmiy ishlarida ham kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining fonetik xatolari tahlil qilingan.

A.Underhill asosiy fonetik birliklarni – nutq tovushlarini ajratib ko‘rsatish va takrorlay olish, shuningdek, turli ma’nodagi fikrlarni tinglovchiga yetkazish uchun intonatsiyadan to‘g‘ri foydalana olish kabi fonetik kompetensiya komponentlari sifatida ajratib ko‘rsatadi. Olim fonetik kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham birgalikda maqsadli ishlashni talab qiladi, deb ta’kidlaydi [7].

Fonetik kompetentsiyaning ahamiyati haqida rus olimi Sherbaning “Языковая система и речевая деятельность” kitobida keng yoritib berilgan bo‘lib, u fonetik kompetentsiyani fonetik moslashish qobiliyati deb hisoblaydi, bu esa ona tilida so‘zlashuvchilarga chet tilining talaffuzini maksimal darajada yaqinlashtirish imkonini beradi. Sherba fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda artikulyar asos, akustika va nutqni idrok etish muhim ekanligini ta’kidlaydi [8].

P.Jedekning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan fonetik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish juda zarur, chunki:

- fonetik bilim va ko‘nikmalar inson nutq faoliyatining barcha to‘rt turini: tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni shakllantirish uchun zarur. Darhaqiqat, eshitiladigan nutqni idrok etish uchun fonemik eshitish rivojlangan bo‘lishi kerak, buning natijasida biz so‘zlarni tovushiga ko‘ra ajratamiz;

- talaffuz me’yorlarini o‘zlashtirish uchun fonetik bilim va ko‘nikmalar ham zarur bo‘lib, ularga rioya qilish kommunikativ faoliyatni aralashishsiz amalga oshirish imkonini beradi;

- o‘qishning ifodaliligini o‘quvchilarni intonatsiya, mantiqiy urg‘u kabilar bilan tanishtirmasdan turib shakllantirib bo‘lmaydi;

- yuqori darajada shakllantirilgan fonetik tayyorgarlik kichik va o‘rta sinflar o‘rtasida til o‘rgatishning uzluksizligi uchun asos sifatida xizmat qiladi [6].

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fonetika va fonetik kompetensiya nafaqat tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi, balki boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirishda zarur bo‘lgan poydevordir. Fonetik bilim va ko‘nikmalar orqali o‘quvchi tovushlarni farqlash, to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitganini anglash, fikrni aniq va ifodali yetkazish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa, ularning keyingi bosqichlardagi til o‘rganish jarayonini samarali davom ettirishiga xizmat qiladi. Shu boisdan fonetik kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan izchil, ta’lim bosqichiga mos va metodik asoslangan yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda alohida e’tibor talab etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fonetik kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, didaktik o‘yinlar, tinglab tushunish, she’r va ertaklar asosidagi mashqlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z va gaplardagi urg‘uni aniqlash, intonatsiya va ohangni o‘rganish orqali o‘quvchilarda nutq madaniyatining ilk asosi shakllantiriladi. Bu esa, keyinchalik yozma nutq, o‘qish va tinglab tushunish kompetensiyalarining ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, fonetik kompetensiyani shakllantirishda multimedia vositalari, interaktiv darsliklar, audiomatnlar va video materiallardan foydalanish ham o‘z samarasini beradi. Masalan, chet tilini o‘rganishda o‘zbek tilidagi tovushlarga o‘xshash bo‘lmagan fonemalarni o‘zlashtirish uchun maxsus audio materiallarni tinglash mashqlari orqali talaffuzni mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchining to‘g‘ri, ifodali va namunali talaffuzi o‘quvchilar uchun muhim model bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun fonetik bilimlar og‘zaki nutq madaniyatining va yozma savodxonlikning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda, fonetik kompetensiyani shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. O‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali nutqiy rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lganligi uchun fonetik materiallar oddiy, tushunarli va o‘quvchining qiziqishiga mos shaklda tanlanishi kerak. Tinglab tushunish, takrorlash, so‘z va gaplarni talaffuz qilish orqali faol eshitish va artikulyatsiya ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

2. Fonetik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish. Dars jarayonida avval tovushlar to‘g‘risida umumiy tushuncha beriladi, so‘ngra har bir tovush ustida alohida mashqlar qilinadi. Misol uchun:

- o‘xshash va o‘xshamaydigan tovushlarni farqlash mashqlari;
- tovushlar asosida so‘zlar tuzish;
- urg‘u va intonatsiyali gaplar bilan ishlash.

3. Didaktik o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish. Tovushlarni o‘rganishda bolalar bilan og‘zaki o‘yinlar, she’r, topishmoq va ertaklar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish ularning fonetik eshituvini rivojlantiradi. Masalan, “Qaysi tovush bilan boshlanadi?”, “Tovushni top” kabi o‘yinlar orqali farqlash ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Bundan tashqari dars mashg‘ulotlarida **quyidagi metodik usullardan foydalanish mumkin:**

- a) **“Tingla va ayt”** metodi – tovushlarni eshitish orqali to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish;
- b) **differentzial juftliklar** bilan ishlash – fonemik farqlash malakasini rivojlantirish;
- c) **ovozli o‘yinlar** – “Qaysi tovush?”, “Tovushni top”, “Bo‘g‘in ajrat” kabi o‘yinlar yordamida bolalarning eshitish va talaffuz ko‘nikmasini kuchaytirish;
- d) **ifodali o‘qish mashqlari** – matn asosida urg‘u, tembr, tezlik va pauzani boshqarishga o‘rgatish.

Dars jarayonlarida ovozli materiallar va fonetik o‘yinlardan foydalanilganida talaffuz aniqligi, eshituv faoliyati va og‘zaki nutq ifodaliligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

4. Multimedia va interaktiv vositalardan foydalanish. Audio va videomateriallar o‘quvchilarda fonetik sezgirlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, noto‘g‘ri talaffuzga moyil bo‘lgan tovushlar bo‘yicha namunaviy talaffuzni eshitish va takrorlash orqali o‘quvchilarda fonemik anglash, intonatsion tushunish va mantiqiy urg‘uni belgilash malakalari shakllanadi.

5. O‘qituvchining namunali talaffuzi va individual yondashuvi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qituvchi nutqi juda muhim hisoblanadi. O‘qituvchi dars jarayonida so‘z va gaplarni to‘g‘ri, ravon, ifodali talaffuz qilishi, o‘quvchilarning fonetik xatolarini aniqlab, muloyimlik bilan tuzatishi lozim. Har bir o‘quvchining fonetik rivojlanish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun individual yondashuv alohida o‘rin tutadi.

6. Fonetik kompetensiyani baholash. Baholash jarayonida o‘quvchining:

- **tovushlarni aniqlash va farqlash;**
- **so‘z va gaplardagi urg‘u va ohangni to‘g‘ri qo‘llay olish;**
- **og‘zaki ifodalilikka rioya qilish;**
- **eshitgan matnni fonetik jihatdan tahlil qila olish** qobiliyatlari nazorat qilinadi.

Fonetik kompetensiyani baholashda testlar, og‘zaki suhbatlar, diktantlar va tinglab tushunish topshiriqlari keng qo‘llaniladi. Baholash natijalari asosida o‘quvchilarning fonetik rivojlanish darajasiga ko‘ra qo‘shimcha mashqlar va metodik yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik kompetensiyasini shakllantirishda boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, tilni egallash bosqichlari, eshitish va talaffuz malakalari rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalarni taklif etmoqchimiz:

- talaffuzdagi xatoliklar individual yondashuv asosida tuzatilishi zarur, ya’ni ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash tavsiya etiladi. Bunda har bir bolaning talaffuzdagi muammolari alohida tahlil qilinib, mos mashqlar tanlanadi;

- 1-sinfda har bir yangi tovush yoki fonemani o‘rganishda ko‘rgazmali, audio va artikulyatsion mashqlar uyg‘unligiga asoslanish kerak;

- multimedia va interaktiv vositalardan (masalan, tovushlar bilan bog‘liq ilovalar, ovoz yozish va tinglash dasturlari) foydalanish o‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi;

- **tovushlarni ko‘rgazmali tarzda tushuntirish (artikulyatsion gimnastika)** – tovushlarni talaffuz qilishda til, lab va jag‘ harakatlarini ko‘rsatib o‘rgatish foydali hisoblanadi;

- **fonetik mashqlarni o‘yin shaklida tashkil etish** o‘quvchilarda tovushlarni eshitish, farqlash va to‘g‘ri talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantiradi;

- intonatsion ifoda, urg‘u va mantiqiy pauzalarni o‘rgatishda kichik hajmdagi dialoglar, she’rlar, hikoyalarni ifodali o‘qitish orqali mashq qildirish samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan fonetik ko‘nikmalar ustida tizimli va bosqichma-bosqich ishlash, ularning nutq faoliyatini faollashtirish, o‘z fikrini og‘zaki ifoda etish

malakalarini rivojlantirish, kommunikativ vazifalarni bajarish imkoniyatini yaratadi. Natijada, o‘quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya ortadi va bu esa ularning umumiy til kompetensiyasining mustahkam asosini yaratadi.

XULOSA

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida fonetik kompetensiyani shakllantirish jarayoni nafaqat til o‘rgatishning muhim tarkibiy qismi, balki o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlantirish, tilga estetik va madaniy yondashuvni shakllantirish yo‘lidagi zarur pedagogik vazifa hisoblanadi. Fonetik bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarda tovushlarni farqlash, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitish asosida tahlil qilish, urg‘u va intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida ularning muloqotga kirishish, fikrni to‘liq va aniq ifoda etish, mustaqil o‘qish va yozishdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik kompetensiyasining mustahkam shakllanishi ularning keyingi bosqichlarda til va nutq bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жовницкая О.Н. Фонетико-фонематическое восприятие у младших школьников // Начальная школа. – 2001. – № 11. – С. 41-46.
2. Кодухов В.И. Введение в языкознание: Учебник для студентов педагогических институтов / В.И. Кодухов. – М: Просвещение, 1979. – 351 с.
3. Кулюкина Т.В., Шестакова Н.А. Фонетической ошибке нет! // Начальная школа. – 2002. – № 4. – С. 45-50.
4. Левина Р.Е. Недостатки произношения, сопровождающиеся нарушениями чтения и письма. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1953. – С. 3-18 с.
5. Мали Л.Д., Мали Н.А. Работа над звукопроизношением младших школьников в условиях одновременного обучения английскому и русскому языкам. Звукопроизносительные ошибки в речи детей, их классификация. – Пенза: ПГУ, 2015. – С. 3.
6. Русский язык в начальных классах: Теория и практика обучения: Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений по спец. «Педагогика и методика начального обучения» / М.С.Соловейчик, П.С.Жедек, Н.Н.Светловская и др.; Под.ред. М.С.Соловейчик. – М.: Просвещение, 1993. – 383с.
7. Underhill A. (2005). Sound foundations: Learning and teaching pronunciation (2nd ed.). – Oxford: Macmillan Education. – 224 p. – P. 34-58.
8. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность / Ред // ЛР Зиндера и МИ Матусевич. Изд-е. – 1974. – 432 с. – С. 244-256.



BOLA NUTQIDA GENDERGA OID XATOLIKLARNING SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI

Shokirova Diloramxon Abduvali qizi

PhD Dotsent,

Andijon davlat universiteti,

Andijon, O‘zbekiston

diloromhon0099887700@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada bola nutqida uchraydigan genderga oid nutqiy xatoliklar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday xatoliklar ko‘pincha madaniy stereotiplar, ijtimoiy kutishlar va noto‘g‘ri gender rollariga asoslangan bo‘ladi. Qiz bolalarda emotsional murakkablik va ehtiyotkorlik, o‘g‘il bolalarda esa buyruq ohangi va hissiy ifoda yetishmovchiligi bilan bog‘liq nutqiy xatolar ko‘zga tashlanadi. Maqolada o‘zbek va ingliz madaniy kontekstlarida bola nutqidagi genderga oid tafovutlar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Shokirova D.A., Holmes J., Tannen D. kabi olimlarning yondashuvlari asosida muammo nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda genderga oid kommunikativ xatoliklarni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ham ishlab chiqish zaruriyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: gender, bola nutqi, nutqiy xatolar, stereotip, madaniy kontekst, kommunikatsiya.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНЫХ ОШИБОК В РЕЧИ ДЕТЕЙ

Аннотация В статье рассматриваются речевые ошибки, связанные с гендерными особенностями в детской речи. Результаты исследования показывают, что подобные ошибки часто обусловлены культурными стереотипами, социальными ожиданиями и неправильным пониманием гендерных ролей. В речи девочек чаще проявляются эмоциональная сложность и осторожность, тогда как у мальчиков наблюдается приказной тон и недостаточная эмоциональная выразительность. В статье проводится сопоставительный анализ гендерных различий в детской речи в узбекском и английском культурных контекстах. Исследование основано на подходах таких ученых, как Д.А. Шокирова, Дж. Холмс и Д. Таннен. На основе полученных результатов подчёркивается необходимость разработки методических рекомендаций по устранению гендерных коммуникативных ошибок.

Ключевые слова: гендер, детская речь, речевые ошибки, стереотип, культурный контекст, коммуникация

SOCIOPRAGMATIC ANALYSIS OF GENDER-RELATED SPEECH ERRORS IN CHILDREN’S LANGUAGE

Abstract This article analyzes gender-related speech errors in children's language. The research findings indicate that such errors often stem from cultural stereotypes, social expectations, and misperceptions of gender roles. In girls' speech, emotional complexity and caution are prominent, while boys' speech tends to exhibit command-like tones and a lack of emotional expression. The article offers a comparative analysis of these gender-based differences in Uzbek and English cultural contexts. The study draws on the theoretical and practical approaches of scholars such as D.A. Shokirova, J. Holmes, and D. Tannen. Based on the findings, the article highlights the need for developing methodological recommendations aimed at eliminating gender-based communicative errors.

Keywords: gender, child speech, speech errors, stereotype, cultural context, communication

Kirish: Til inson tafakkuri va ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini aks ettiruvchi eng muhim vosita hisoblanadi. Til orqali nafaqat atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatiladi, balki ijtimoiy rollar, madaniy qadriyatlar va shaxsiy xususiyatlar ham ifodalanadi. Har bir jamiyatda til madaniy identitetni belgilovchi kuchli omil bo‘lib xizmat qiladi. Inson til orqali dunyoni idrok etadi, uni nomlaydi va unga munosabatini bildiradi. Shu sababli tilni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy nuqtayi nazardan ham muhim hisoblanadi.

Bola nutqining shakllanishi, rivojlanishi va undagi nutqiy xatolarni tahlil qilish tilshunoslik, psixologiya, pedagogika kabi fanlar chorrahasida amalga oshirilmoqda. Bola tilining rivojlanish bosqichlari, ularning mantiqiy va emotsional komponentlari, shuningdek, jinsiy tafovutlarga asoslangan nutqiy xatti-harakatlari ham zamonaviy lingvistikaning dolzarb muammolaridan biridir. Ayniqsa, gender tilshunosligi doirasida bola nutqidagi farqlanishlar alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rilmoqda. Chunki bola nutqi nafaqat individual kognitiv rivojlanish, balki jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-gender stereotiplarning ham aksidir.

Shunday qilib, genderga oid nutqiy xatolar alohida tahlilni talab etadi. Bunday xatoliklar ko‘pincha bola nutqining pragmatik darajasida kuzatiladi. Bola nutqidagi genderga oid xatolar faqat grammatik yoki fonetik buzilishlar sifatida emas, balki madaniy-ma’naviy kodlar ta’sirida shakllanadigan pragmatik buzilishlar sifatida ko‘rilishi kerak. Bunday yondashuv bola nutqining ijtimoiy-madaniy asoslarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Masalan, qiz bolalarning haddan tashqari muloyim va tortinchoq ifodalari, o‘g‘il bolalarning esa keskin va buyruq ohangidagi nutqi – bu nutqiy xatolik sifatida emas, balki madaniy stereotiplar natijasida yuzaga kelgan kommunikativ disbalans sifatida talqin qilinadi.

Ushbu maqolada bola nutqida kuzatiladigan genderga oid nutqiy xatolar lingvopsixologik, madaniy-pragmatik va kommunikativ kontekstda tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Shokirova Diloramxon Abduvali qizining doktorlik dissertatsiyasining IV-bob, 1-bo‘limida berilgan asosiy g‘oyalar tanlab olindi. Bu dissertatsiyada bola nutqidagi genderga oid xatolarni turli aspektlardan yoritishga urinish qilingan bo‘lib, unda madaniy an‘analar, jamiyatdagi rol kutishlari, shuningdek, nutq aktlari nazariyasi asosida bolalarning nutqiy xatti-harakatlari chuqur tahlil qilinadi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot metodologiyasi fanlararo yondashuvga asoslanib, bir nechta tilshunoslik yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish orqali bola nutqida kuzatiladigan genderga oid xatoliklarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda lingvopragmatika, gender tilshunosligi, psixolingvistika va madaniyatshunoslik sohalarining nazariy va amaliy yondashuvlari integratsiya qilinib, gender asosidagi nutqiy tafovutlarning ildizlari, sabablari va namoyon bo‘lish shakllari o‘rganildi. Asosiy maqsad — o‘zbek va ingliz bolalari nutqida uchraydigan genderga oid xatoliklarni aniqlash, ularni turkumlash hamda madaniy va ijtimoiy kontekstda talqin qilishdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida 5–10 yosh oralig‘idagi o‘zbek va ingliz bolalarining og‘zaki va yozma nutq namunalari tanlab olindi. Bu namunalar turli ijtimoiy vaziyatlarda — maktabdagi topshiriqlar, rolli o‘yinlar, bolalar teatrlari va ertak ijrosi jarayonlarida shakllangan. Ayniqsa, rolli o‘yinlar va ertaklardagi diskurslar bolalarning genderga oid stereotiplarni qanday qabul qilgani va ularni til orqali qanday ifodalashini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, Shokirova D.A.ning “Bola nutqida gender xoslanishi” mavzusidagi DSc dissertatsiyasida keltirilgan genderga oid nutqiy xatolar misollari ham tahliliy material sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlar tanlab olindi:

Diskursiv tahlil – bu usul yordamida bolalar nutqidagi gender stereotiplarini aks ettiruvchi iboralar, personajlarga nisbatan berilgan baholar va rollar aniqlanadi. Masalan, o‘g‘il bolalarga nisbatan “jasur”, “qahramon”, qiz bolalarga nisbatan esa “go‘zal”, “itoatkor” kabi epitetlarning takroriy qo‘llanishi orqali gender rollar nutqiy diskursda qanday shakllanishi o‘rganildi.

Pragmatik tahlil – Graysning kooperativlik tamoyillaridan (samaradorlik, aniqlik, muvofiqlik va halollik) kelib chiqib, bolalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan nutqiy xatoliklar tahlil qilindi. Misol uchun, bola muloqotda kontekstga to‘g‘ri kelmaydigan gender ifodalarini ishlatganda, bu Graysning “moslik” (relevance) maksimiga zid bo‘ladi.

Qiyosiy-lingvistik tahlil – ingliz va o‘zbek bolalari nutqidagi gender stereotiplar qanday tilda, qanday ifodalar orqali yuzaga chiqishi solishtirildi. Bu usul orqali har ikki madaniyatda genderga oid nutqiy xatolarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.

Psixolingvistik eksperiment – suhbat va erkin muloqot shaklida tashkil etilgan eksperimentlar orqali bolalarning nutqiy xatti-harakatlari kuzatildi. Ularning genderga oid

tasavvurlarini nutqda qanday ifodalashi, noto‘g‘ri yoki stereotiplashtirilgan iboralarni tanlash sabablari aniqlashtirildi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi bola nutqida gender stereotiplarining til orqali qanday ifodalanishini aniqlashda kompleks va ko‘p qirrali yondashuvni taklif etadi. Bu esa nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy omillarni hisobga olib, gender xatolarining ildizini chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Natijalar: Ushbu bo‘limda o‘zbek va ingliz tillaridagi bolalar nutqida aniqlangan genderga oid nutqiy xatoliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 5–10 yoshli bolalarning og‘zaki va yozma nutq namunalaridan foydalanildi hamda Shokirova D.A.ning gender tilshunosligiga oid dissertatsiyasida keltirilgan dalillar ham tahlil jarayoniga qo‘shildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bola nutqida kuzatiladigan gender asosidagi xatolar bir necha asosiy toifaga bo‘linadi. Quyida ularning har biri batafsil yoritiladi:

1. Stereotipik generalizatsiyalar

Stereotipik generalizatsiyalar – bu bolalar tomonidan jamiyatdagi jinsga oid ijtimoiy tasavvurlarni umumlashtirib, turli nutqiy kontekstlarda takrorlash holatidir. Bolalar bunday iboralarni ko‘pincha o‘z atrofidagi kattalardan eshitgan bo‘lishadi va mazmunini anglamagan holda ularni nutqga kiritishadi.

Misollar:

O‘g‘il bola: *“Qizlar doim yig‘laydi”, “Bu qizlar ishi”*

Qiz bola: *“O‘g‘illar xafa bo‘lishmaydi”, “Bu gaplarni faqat opa aytadi”*

Bu kabi ifodalarda jinsiy umumlashtirish mavjud bo‘lib, bola har ikki jinsga oid xatti-harakatlar va his-tuyg‘ularni cheklab, ularni oldindan belgilangan rollar bilan bog‘lamoqda. Ushbu xatoliklar o‘z navbatida gender tengligiga zid bo‘lgan, stereotipik yondashuvlarni aks ettiradi. D. Tannen (1990) va J. Holmes (1995) kabi olimlar bolalar tilida jinsiy stereotiplar ko‘p hollarda ijtimoiy taqlid orqali shakllanishini ta’kidlaganlar. Bu esa o‘z-o‘zidan bola ijtimoiy iqlim va madaniy diskursni ichkilashtirayotganini ko‘rsatadi.

2. Nutq aktlaridagi noto‘g‘ri tanlov

J. Searlning nutq aktlari nazariyasiga tayanilsa, bolalar ruxsat so‘rash, buyrug‘ berish yoki iltimos qilish kabi pragmatik harakatlarni aniq va mos kontekstda bajarishi kerak. Ammo amaliy tahlil natijalariga ko‘ra, ko‘plab holatlarda bolalar tomonidan bu aktlar noto‘g‘ri tanlanmoqda yoki ularning ifodalanish shakli noto‘g‘ri shakllantirilgan.

Misollar:

O‘g‘il bola: *“Buni ol!”* – buyrug‘i do‘stona kontekstda berilgan bo‘lsa-da, keskin intonatsiyada aytilgani sababli xushmuomalalik tamoyillariga zid bo‘lgan.

Qiz bola: *“Agar siz ruxsat bersangiz, men uni olib qo‘yaqolaymanmi?”* – haddan tashqari murakkab, ortiqcha e’tiborli nutq aktidir.

Ushbu xatoliklar bolaning kommunikativ kompetensiyasi hali shakllanmaganini va kontekstga mos ifoda tanlashda qiyinchiliklar borligini ko‘rsatadi. Brown va Levinson (1987)

ta’riflagan odob me’yorlari nazariyasiga ko‘ra, nutq aktining haddan ortiq yumshoqligi yoki keskinligi bolaning ijtimoiy rolga bo‘lgan noto‘g‘ri yondashuvidan dalolat beradi.

3. Emotsional noto‘g‘rilik

Emotsional noto‘g‘rilik – bu bolaning o‘z hissiyotlarini ifodalashda aniqlik yetishmasligi yoki noto‘g‘ri semantik birliklardan foydalanishidir. Ko‘plab holatlarda bolalar his-tuyg‘ularining sababini tushuntirishda qiyinchilikka duch kelishadi yoki hissiy holatlarni o‘zlariga singdirilgan gender model asosida izohlaydi.

Misollar:

“U mendan yomon, chunki jim turdi” – jim turishni “yomonlik” deb baholash hissiy tasnifdagi noto‘g‘ri xulosa.

“Men unga qaramadim, chunki u bola edi” – bu yerda gender asosida hissiy munosabatni ifodalashda tafakkurdagi stereotip ishlatilgan.

Bunday holatlar bolaning emotsional intellekti va til orqali emotsiyalarni ifodalash ko‘nikmalari hali yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Ergasheva M. o‘z izlanishlarida emotsional tafovutlar bolalarning jinsiy ijtimoiylashuvi bosqichida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

4. Genderga oid rollarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan xatolar

Bu turdagi xatolar bolalar o‘zlariga xos bo‘lmagan gender rollarini bajarayotganida yuzaga chiqadi. Bunda leksik tanlov, intonatsiya va kommunikativ pozitsiya mos bo‘lmaydi. Bunday buzilishlar ko‘proq teatr, rolli o‘yin va ertak diskurslarida kuzatildi.

Misol:

O‘g‘il bola: *“Men sho‘rva pishirdim va chiroyli bo‘ldim”* – bu ifoda semantik jihatdan mantiqiy bo‘lsa-da, gender stereotiplari nuqtai nazaridan o‘g‘il bolaga nisbat berilganda “chiroyli” sifatining qo‘llanishi nomaqbul sifatida baholanmoqda.

Bu kabi holatlar orqali bolalar ongida hali jinsiy rollar to‘liq shakllanmaganligi, ularning tasavvuri madaniy kodlar va ijtimoiy kutishlar asosida sekin-asta rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. Ziyayeva D. ta’kidlaganidek, bola nutqidagi bunday xatoliklar ijtimoiy rol va til o‘rtasidagi tafovutdan kelib chiqadi, bu esa gender kommunikatsiyasining dastlabki bosqichlarida tabiiy hisoblanadi.

Munozara: Bola nutqining shakllanishi – murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u faqat til tizimining o‘zlashtirilishi bilan emas, balki bolaga xos bo‘lgan psixologik holatlar, ijtimoiy ta’sirlar va madaniy kontekstlar bilan bevosita bog‘liqdir. Tilshunoslikda nutqiy xatolar, ayniqsa ontogenezning ilk bosqichida, tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Ammo **gender asosidagi nutqiy xatolar** esa oddiy til malakalarining rivojlanishidan emas, balki jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-gender stereotiplarning bola ongiga erta singdirilishi natijasida yuzaga keladi. Shu bois bunday xatoliklar alohida e’tibor va tahlilni talab qiladi.

O‘zbek jamiyatida erkak va ayol rollari tarixan qat’iy ijtimoiy me’yorlar bilan belgilanib kelgan. Bunday stereotiplar turmush tarzida, tarbiya modelida, badiiy adabiyotda, xalq og‘zaki ijodida va, albatta, bolalar bilan muloqotda ham chuqur ildiz otgan. Masalan, **o‘g‘il bola jasur**,

qat’iy, ko‘proq gapiradigan, fikrini ochiq bildiradigan, ya’ni dominanta subyekt sifatida tasvirlanadi. Aksincha, **qiz bola muloyim, hisli, itoatkor, o‘zini tutadigan va uyatchan bo‘lishi kerak** degan stereotip keng tarqalgan. Bunday qarashlar bevosita bola nutqiga ham o‘z aksini topadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘g‘il bolalar o‘z nutqida ko‘proq **buyruq ohangi, keskin intonatsiya, mavqeni ko‘rsatishga intilish** kabi xatti-harakatlarni namoyon qilishadi. Masalan, *“Tezroq ber!”*, *“Sen gapirma!”* kabi buyruq tusidagi jumlar ularda ko‘proq uchraydi. Bu holat Graysning “samaradorlik” va “moslik” maksimlariga zid bo‘lib, bola kontekstni hisobga olmasdan o‘zini ustun qo‘yishga urinayotganini ko‘rsatadi.

Qiz bolalarda esa **keraksiz murakkablik, muloyimlikning haddan oshgan shakllari, mo‘minona so‘rovlar** kuzatiladi. Misol uchun: *“Agar siz qarshi bo‘lmasangiz, men buni biroz ko‘rib olsam bo‘ladimi?”* kabi so‘z konstruksiyalari pragmatik jihatdan ortiqcha yuklama keltirib chiqaradi. Bu, o‘z navbatida, gender stereotipi sifatida “qiz bola doim muloyim bo‘lishi kerak” degan tasavvurni mustahkamlovchi nutqiy odatga aylanadi.

Ushbu hodisalar o‘zbek madaniyatida bola nutqining shakllanishi nafaqat til tizimi asosida, balki **sotsiokultural stereotiplar** asosida kechishini tasdiqlaydi. Ergasheva M. o‘z tadqiqotlarida aynan o‘zbek bolalarining nutqida jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal qadriyatlar qanday semantik va pragmatik xatoliklar orqali ifodalanishini atroflicha tahlil qilgan.

Ingliz tilida esa gender asosidagi nutqiy xatolar nisbatan kam uchraydi. Buning asosiy sababi – ingliz madaniyatida gender tengligi tamoyillari kuchli shakllangani, bola tarbiyasida ko‘proq individual erkinlikka e’tibor berilishi, kommunikativ erkinlik ustuvorligi hisoblanadi. Biroq bu degani, ingliz bolalarida bunday xatoliklar umuman uchramaydi, demak emas.

Aksincha, ingliz madaniyatida genderga oid nutqiy xatolar ko‘pincha **indirekt ifodalar, nozik konnotatsiyalar, sarkazm, yumoristik kinoyalar** orqali namoyon bo‘ladi. Misol uchun, o‘g‘il bola qiz bolaga nisbatan *“You girls are always so emotional”* (sizlar qizlar doim juda emotsionalsizlar) kabi ifodalarni istehzo aralash shaklda ishlatadi. Bu esa sotsiopragmatik jihatdan qabul qilib bo‘lmaydigan stereotipni mustahkamlab qo‘yadi.

Deborah Tannen (1990) va Janet Holmes (2008) singari yetakchi lingvistlar genderga oid kommunikativ farqlarni tahlil qilishda madaniy va diskursiv yondashuvni taklif etishgan. Tannen ayollar va erkaklar nutqidagi farqlarni “difference theory” asosida tushuntirib, ayollar ko‘proq **hamkorlik**, erkaklar esa **raqobat** asosida muloqot qilishi haqida dalillar keltiradi. Bu tamoyillar bolalar nutqida ham aynan shunday, yoshga mos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Bola hali til tizimining barcha qoidalarini o‘zlashtirmagan bo‘lsa-da, u ijtimoiy muhitdan “erkak” va “ayol” degan tushunchalarning semantik yukini erta o‘zlashtiradi. Bu jarayon davomida bola nutqida jinsiy rollarni noto‘g‘ri talqin etishga asoslangan xatoliklar yuzaga chiqadi. Masalan, qiz bola o‘g‘il bola haqida *“U yig‘lamaydi, chunki u kuchli”* deyishi, yoki o‘g‘il bola *“Bu qizlar uchun, men bunday o‘yin o‘ynamayman”* kabi iboralarni ishlatishi – bu

ular hali gender mohiyatini anglamasdan, stereotipga asoslangan til vositalarini takrorlayotganini ko‘rsatadi.

Shokirova Diloramning tadqiqotlarida bola nutqidagi bunday farqlar sinchiklab o‘rganilgan. Unga ko‘ra, bola grammatika yoki fonetika sohasida emas, balki **gender rollarni til orqali ifodalashda** xatolarga yo‘l qo‘yadi. Bu esa, aslida, madaniy sathdagi notengliklarni tilga ko‘chirish bilan bog‘liq muammodir.

Ushbu kuzatuvlardan chiqariladigan asosiy xulosa shuki, bola nutqidagi xatolarni bartaraf etish uchun faqat grammatika, fonetika yoki leksikani korreksiya qilish yetarli emas. Chunki bu xatolar ko‘proq **psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar** bilan bog‘liq. Shu bois, ta‘lim muassasalari va oilaviy tarbiyada genderni oid kommunikatsion stereotiplardan holi bo‘lgan muhit yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xulosa: Mazkur maqola tahlil natijalariga tayangan holda bola nutqida uchraydigan genderni oid xatoliklarni har tomonlama yoritdi. O‘rganilgan materiallar – 5–10 yoshli o‘zbek va ingliz bolalarining og‘zaki va yozma nutq namunalari, teatr va rolli o‘yin diskurslari, Shokirova D.A.ning ilmiy dalillari – asosida bir nechta muhim nazariy-amaliy xulosalarga kelindi. Bu xulosalar nafaqat lingvistik, balki psixologik, sotsiomadaniy va pedagogik sohalar uchun ham dolzarb ilmiy mezonlar sifatida xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, bola nutqidagi genderni oid xatoliklar til tizimining o‘zlashtirilishidagi tabiiy kamchiliklar emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-gender stereotiplarga tayanadigan nutqiy xatti-harakatlardir. Masalan, *“Bu qizlar ishi”*, *“O‘g‘illar yig‘lamaydi”* kabi umumlashtiruvchi iboralar orqali bola jinsga oid ijtimoiy kutishlarni til orqali takrorlaydi. Bu hodisa bola hali grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirayotgan bo‘lsa-da, mazmuniy va pragmatik jihatdan xatoga yo‘l qo‘yayotganini anglatadi. Bu fikr Deborah Tannen (1990) va Holmes (2008) kabi mutaxassislarning gender va kommunikatsiya bo‘yicha yondashuvlari bilan hamohang bo‘lib, bola tilining ijtimoiy-diskursiv shakllanishida stereotipik modellar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Qiz va o‘g‘il bolalar nutqida kuzatilgan xatoliklar turlicha namoyon bo‘ladi. **Qiz bola** nutqida odatda **emotsional murakkablik, ehtiyotkorlik, haddan ortiq muloyimlik**, ba‘zan **noaniqlik** ustun bo‘ladi. Bu esa ularning nutqida ortiqcha e‘tiborli ifodalar, keraksiz murakkab jumlar shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan: *“Agar siz qarshi bo‘lmasangiz, men biroz olib tursam bo‘ladimi?”* kabi iboralar aslida sodda iltimosni ifodalashda ortiqcha yuklamani keltirib chiqaradi.

O‘g‘il bolalar esa aksincha, **buyruq ohangi, keskinlik, generalizatsiya** va **hissiy ifodaning yetishmasligi** bilan bog‘liq nutqiy xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Masalan: *“Buni ol!”*, *“Sen bilmayapsan!”* kabi iboralar kontekstga mos kelmasligi bilan birga bolaning jamiyatda o‘zini ustun pozitsiyada ko‘rsatish istagini bildiradi. Bu esa Brown va Levinson (1987) ilgari surgan odob me‘yorlari (politeness theory) tamoyillariga zid keladi.

Bola tilining shakllanishi bilan birga, uning jamiyatdagi rolni qabul qilishi va nutqda bu rolni ifodalashi ham taraqqiyot jarayonining ajralmas qismidir. Shuning uchun, bola nutqidagi

genderga oid xatoliklar — bu faqat til o‘zlashtirishdagi muammo emas, balki bolaning **ijtimoiy ong, psixologik holat, sotsiokultural tasavvur** darajasini ko‘rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi. Holmes va Ergasheva tomonidan ilgari surilgan fikrlarga ko‘ra, bu xatoliklar orqali bola qanday kommunikativ me‘yorlarni o‘zlashtirayotganini, ularni qanday kontekstda qo‘llayotganini aniqlash mumkin. Shu sababli, bunday xatoliklar bolaning emotsional-intellektual salohiyatini o‘rganishda ham alohida ahamiyatga ega.

Kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlarda bola nutqidagi genderga oid xatoliklarni chuqur o‘rganish asosida **kommunikativ muammolarni bartaraf etish, gender tengligi asosida til o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish, ijtimoiy stereotiplardan holi nutqiy muhitni shakllantirish** mumkin. Bu, ayniqsa, ta’lim tizimida tilshunoslik va psixologiya sohalarining integratsiyasini taqozo etadi.

- Quyidagi metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi:
- Genderga oid neytral muloqot shakllarini o‘rgatish;
- Bolalarda turli rollarni ijro etish orqali empatiya va kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirish;
- O‘qituvchilar uchun genderga sezgir tilshunoslik bo‘yicha treninglar tashkil qilish;
- Darsliklarda stereotiplashtirilgan nutqiy namunalarni tahlil qilish va yangilash.

Bugungi kunda ta’lim tizimida til o‘rgatish metodikasi hali ham ko‘plab jihatdan umumiy yondashuvlarga tayangan. Biroq genderga oid nutqiy xatoliklar, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda, chuqur ijtimoiy muammolarning til orqali namoyon bo‘lishidir. Shu bois, genderga sezgir, madaniyatlararo tenglikka asoslangan, moslashuvchan til o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Bunday metodika bolalarga faqat grammatik to‘g‘ri gapirishni emas, balki kontekstga mos, madaniy stereotiplardan xoli, hissiy jihatdan to‘g‘ri va ijtimoiy mos muloqotni o‘rgatishni nazarda tutishi lozim.

Shunday qilib, bola nutqidagi genderga oid xatoliklar — bu nafaqat lingvistik kamchilik, balki **jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-madaniy stereotiplar, psixologik ta’sirlar va kommunikativ rollarning** bola tafakkuridagi murakkab in’ikosi hisoblanadi. Ularni o‘rganish orqali nafaqat tilshunoslikda, balki pedagogika va psixologiyada ham muhim natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ergasheva, M. (2018). *Gender linguistics: theoretical and practical approaches*. Toshkent: Fan.
2. Ziyayeva, D. (2020). *Bola nutqining gender xususiyatlari*. Samarqand: Ilm Ziyoy.
3. Holmes, J. (2008). *Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity Through Workplace Discourse*. Wiley-Blackwell.

4. Tannen, D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. New York: Ballantine Books.
5. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Shokirova, D.A. (2025). *Bola nutqida gender xoslanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida)*. DSc dissertatsiyasi. Andijon davlat universiteti.
7. Vezhbetskaya, A. (1996). *Language, Culture and Meaning*. Moscow: Progress.
8. Gvozdev, A.N. (1961). *Rech' rebenka*. Moskva: Pedagogika.
9. Nurmonov, A. (2007). *Til va tafakkur*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
10. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2003). *Language and Gender*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Cameron, D. (1995). *Verbal Hygiene*. London: Routledge.
12. Fairclough, N. (1992). *Discourse and Social Change*. Polity Press.
13. Chomsky, N. (2006). *Language and Mind*. Cambridge University Press.
14. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
15. Kulikova, T.A. (2002). *Psixholingvistika asoslari*. Moskva: Flinta.



PEDAGOGIK TIZIMDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada TRIZ texnologiyasining ta’lim tizimidagi o‘rni, uning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda pedagogik jarayonda innovatsion yondashuv sifatida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, TRIZ asosida yaratilgan metodikalar va ularning dars jarayonidagi samaradorligi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: TRIZ, innovatsion texnologiya, ijodiy tafakkur, muammoni hal qilish, pedagogik yondashuv, metodika.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar topishga o‘rgatishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu nuqtayi nazardan, TRIZ texnologiyasi (ijodiy muammolarni hal qilish nazariyasi) pedagogik jarayonga yangi yondashuvlar olib kiradi. TRIZ (ruscha: Теория решения изобретательских задач) muallifi G.S. Altshuller bo‘lib, dastlab bu texnologiya muhandislik sohasida qo‘llangan. Biroq keyinchalik uning universal tamoyillari o‘quv jarayoniga ham moslashtirildi. Bugungi kunda TRIZ texnologiyasi pedagogik metodika sifatida innovatsion ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyaning innovatsion ta’lim tizimidagi roli tobora ortib bormoqda, chunki u o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, muammolarni tahlil qilish va noan’anaviy yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

TRIZ texnologiyasi innovatsion ta’lim tizimining muhim elementlaridan biridir. U o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tizimli fikrlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ta’limga TRIZ metodikasini joriy etish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni mustaqil va innovatsion fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ta’kidlash joizki, TRIZ texnologiyasi asoschisi, muammolarni ijodiy yechish nazariyasining ilmiy poydevorini yaratgan Altshullerning TRIZning asosiy nazariy tamoyillari, algoritmlari va ideal yechimga erishish prinsipi bayon etilgan “Творчество как точная наука” (1979) hamda ixtirochilik fikrlash asoslari va muammoni tizimli tahlil qilish usullari ko‘rsatilgan “Nayti ideyu” nomli asarlarida TRIZ texnologiyasining nazariy poydevorini belgilaydi. U muammoning ziddiyatli tabiatini ochib berib, ijodiy

yechimlarga algoritmik yondashuvni taklif qiladi. Bu ishlari texnika bilan bir qatorda, ta’limda ham samarali qo‘llaniladi[1]. V.G.Litvinovning izlanishlari esa TRIZni maktab ta’limiga moslashtirish bo‘yicha muhim tadqiqot hisoblanadi. U o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, muammoli dars metodikalarida TRIZdan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi[2]. TRIZ texnologiyasini ta’limga integratsiya qilish bilan shug‘ullangan Litvinovning «*Osnovi TRIZ i razvitiye mishleniya shkolnikov*» nomli asari TRIZni maktab ta’limiga moslashtirish bo‘yicha muhim tadqiqot hisoblanadi. U o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, muammoli dars metodikalarida TRIZdan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Pedagogik texnologiyalar va TRIZ asosidagi didaktik muammolar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Yuriy Doychenkoning “TRIZ-pedagogika: teoriya i praktika razvitiya mishleniya» nomli asarida TRIZ metodikasining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, o‘quvchilar tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni uyg‘unlashtirishga qaratilgan[3]. Innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha yetakchi o‘zbek olimi U.T. Yusupov «Innovatsion ta’lim texnologiyalari» nomli asarida innovatsion yondashuvlar, jumladan, TRIZ texnologiyasining o‘zbek ta’lim tizimida qanday joriy etilishi mumkinligi amaliy misollar bilan yoritilgan. Unda o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha yo‘riqnomalar mavjud[4]. Shuningdek, N. G‘anieva va M. Ergashevalar TRIZ metodikasining maktab ta’limida qo‘llanishini o‘rganib, o‘zbek maktablarida TRIZ asosida tashkil etilgan darslar tahlili, metodik tavsiyalar va monitoring natijalari keltirilgan. Maqolada TRIZning o‘quvchilarning qiziqishini oshirishdagi ijobiy natijalari ilmiy asoslangan[5]. Ta’kidlash joizki, TRIZ texnologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar 20-asr o‘rtalaridan boshlab rivojlangan. Dastlab texnik tizimlarga qaratilgan bu yondashuv, keyinchalik pedagogikada ham keng tatbiq qilina boshlandi. Genrix Altshuller ushbu nazariyaning asoschisi bo‘lsa, Litvinov, Doychenko, Yusupov kabi olimlar TRIZning ta’limdagi metodik asoslarini ishlab chiqdilar. Bugungi kunda TRIZ o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish, dars jarayonini muammoli va innovatsion ruhda olib borish uchun eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

TRIZ texnologiyasining ta’lim tizimidagi qo‘llanishi zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsion ta’limda TRIZ quyidagi yo‘nalishlarda samarali qo‘llaniladi:

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: O‘quvchilarga mustaqil, noan’anaviy yechimlarni izlashga o‘rgatadi. Bu esa kreativlik va tashabbuskorlikni oshiradi.

2. Muammoli vaziyatlarda orientatsiya: TRIZ usullari orqali murakkab vaziyatlarda tahlil qilish, qaror qabul qilish, turli alternatalarni ko‘rish va baholash ko‘nikmalari rivojlanadi.

3. Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish: O‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va tahlil qilish malakasi ortadi, bu esa chuqur o‘zlashtirishga olib keladi.

4. Fanlararo integratsiyani ta’minlash: TRIZ texnologiyasi biologiya, fizika, matematika, informatika kabi fanlar o‘rtasida integrativ o‘qitishni quvvatlaydi.

TRIZ texnologiyasida ijodiy fikrlash rivojlantiriladi. Axborot asrida inson bilim hajmiga emas, balki u bilan qanday ishlashi, **ya’ni** ijtimoiy, tanqidiy va ijodiy fikrlay olishi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijodiy fikrlash (creative thinking) — bu oddiy bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ular asosida yangi, original g‘oyalarni yaratish qobiliyatidir. Ijodiy fikrlash — inson tafakkurining yuqori shakli bo‘lib, yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga original yondashuv topish, noan’anaviy qarorlar qabul qilish jarayonidir. Ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi ta’limiy sharoitlar muhim: ochiq fikr almashinuvi mumkin bo‘lgan muhit; tanqid qilinmasdan g‘oyalar ilgari surilishi; o‘quvchining mustaqilligiga imkon berilishi; muammo yechishga emas, uni tahlil qilishga urg‘u berilishi; ko‘p variantli topshiriqlar bilan ishlash.

TRIZ metodlari shaxsda yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab, ziddiyatli yoki noaniq vaziyatlarda samarali yechimlarni topish, mavjud alternativ variantlarni aniqlash va ular orasidan eng maqbulini tanlashda TRIZ texnologiyasi o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini faollashtiradi. TRIZ yondashuvi orqali shaxs: murakkab muammolarni sistematik tahlil qilish, qarama-qarshi jihatlarni ziddiyat sifatida aniqlash, har bir vaziyatda ideal yakuniy natijani tasavvur qilish, mavjud resurslar asosida turli alternativlarni ishlab chiqish va ularni funktsional, iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan baholay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Shuningdek, TRIZ metodikasi asosida ishlash o‘quvchilarda o‘z fikrini asoslash, qarorlarini dalillar bilan mustahkamlash va noan’anaviy qarorlar orqali innovatsion yondashuvlarni ilgari surish kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh, analitik va kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. TRIZ texnologiyasining mohiyati va asosiy tamoyillari mavjud. TRIZ texnologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Muammoni tizimli tahlil qilish
- Ziddiyatlar asosida fikrlash
- Standart yechimlardan chiqib ketish
- Modellash va prognoz qilish
- Ijodiy fantaziya va analogiyalardan foydalanish

Bu yondashuv o‘quvchiga har qanday dars materialini tayyor bilim sifatida emas, balki o‘rganiladigan muammo sifatida ko‘rishga yordam beradi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash, izlanish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik faoliyatda TRIZ texnologiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. **Didaktik:** O‘quvchilarga bilimni an’anaviy emas, ijodiy yo‘l bilan egallatadi.
2. **Tarbiyaviy:** Mustaqil fikr yurituvchi, muammolarga ilg‘or yechim topa oladigan shaxsni shakllantiradi.
3. **Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning tafakkur turlari – divergent va konvergent fikrlashini kuchaytiradi.

Dars jarayonida TRIZ quyidagi metodikalar orqali qo‘llaniladi: ziddiyatni aniqlash va yechish metodi; ideal yakuniy natijani oldindan tasavvur qilish; resurslarni aniqlash va ulardan

foydalanish; fantastik qo‘shimchalar, analogiyalar, morfologik tahlil. Masalan, darsda quyidagi savollar berilishi mumkin:

- “Agar siz muallif bo‘lsangiz, bu hikoyani qanday yakunlardingiz?”
- “Bu fizik hodisa hayotda qanday muammoga yechim bo‘la oladi?”
- “Boshqa davr yoki makonda bu muammoni qanday hal qilgan bo‘lardilar?”

TRIZ asosida o‘qitilgan o‘quvchilarda: muammoga ijodiy qarash; mustaqil fikrlash; loyihalash ko‘nikmalari; yechimlarning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini baholash qobiliyati shakllanadi. TRIZ texnologiyasi maktabgacha ta’limdan to oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda qo‘llanishi mumkin. Ayniqsa, texnologiya, informatika, adabiyot, biologiya, fizika kabi fanlarda samaradorligi yuqori.

XULOSA

TRIZ texnologiyasi zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim metodik vositadir. U dars jarayonida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashishga, kutilmagan holatlarda moslashuvchan fikr yuritishga o‘rgatadi. TRIZ texnologiyasi faqat bilim emas, balki innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, uni pedagogik tizimga joriy qilish va kengaytirish zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Альтшуллер Г. С. Творчество как точная наука. – М.: Сов. радио, 1979. – 192 с.
2. Альтшуллер Г. С. Найти идею: Введение в ТРИЗ – теорию решения изобретательских задач. – М.: Сов. радио, 1986. – 220 с.
3. Литвинов В. Г. Основы ТРИЗ и развитие творческого мышления школьников. – СПб.: Речь, 2002. – 176 с.
4. Дойченко Ю. А. ТРИЗ-педагогика: теория и практика развития мышления. – М.: Академкнига, 2007. – 224 с.
5. Юсупов У. Т. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 180 b.
6. G‘anieva N., Ergasheva M. TRIZ texnologiyasi orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2021. – №2. – B. 35–39.
7. Асанова Г. Ж. Инновационные технологии в образовании // Вестник педагогических наук. – 2020. – №3. – С. 45–50.
8. Половинкин В. Н. Стандарты решений ТРИЗ. – М.: ТРИЗ-Шанс, 2001. – 96 с.
9. Злотин Б. Л., Зусман А. В. Алгоритм решения изобретательских задач (АРИЗ-85В): Учебное пособие. – Кишинев: Штиинца, 1985. – 80 с.



O‘ZBEKISTONDA MUHANDISLIK TA’LIMINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IMKONIYATLAR VA TO‘SIQLAR

Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li

*1) Jizzax politexnika instituti “Transport vositalari muhandisligi”
kafedrasi dotsenti, Ph.D*

2) Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislik ta’limi tizimining raqamli transformatsiyalanish jarayoni keng yoritib berildi. Raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan raqamli platformalardan foydalanish holati, pedagogik salohiyat va raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv, malakali kadrlar tayyorlash va barqaror raqamli infratuzilmani shakllantirish orqali muhandislik ta’limini transformatsiya qilish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, muhandislik, ta’lim, kompetensiya, innovatsiya, yondashuv.

Abstract. This article extensively covers the process of digital transformation of the engineering education system in technical higher educational institutions of Uzbekistan. Digital technologies play an important role in increasing the effectiveness of education. For this reason, the state of use of digital platforms, pedagogical potential, and the level of digital literacy were analyzed. The necessity of transforming engineering education through a systematic approach, training of qualified personnel, and the formation of a sustainable digital infrastructure is also substantiated.

Keywords: digital transformation, engineering, education, competence, innovation, approach.

Аннотация. В данной статье широко освещен процесс цифровой трансформации системы инженерного образования в технических вузах Узбекистана. Цифровые технологии играют важную роль в повышении эффективности образования. Поэтому было проанализировано состояние использования цифровых платформ, педагогический потенциал и уровень цифровой грамотности. Также обоснована необходимость трансформации инженерного образования за счет системного подхода, подготовки квалифицированных кадров и формирования устойчивой цифровой инфраструктуры.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инженерия, образование, компетенция, инновация, подход.

Kirish

Ta’lim tizimi jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, XXI asrda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamli transformatsiya bu ta’lim tizimining barcha jihatlarida, shu bilan birga muhandislik ta’limida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llashni anglatadi. Raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib borishi ommaviy xodimlardan muhandislik ta’limning yangi sifatini talab qiladi [1]. Muvaffaqiyatli texnologik inqilob doimo o‘zi bilan yaratadigan muammolarni hal qilish vositalarini olib keladi va axborot (raqamli) bundan mustasno emas. Mahalliy va jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muhandislik ta’lim jarayoni ishtirokchilari uchun raqamli texnologiyalarning mavjudligi muhandislik ta’lim ishlari samaradorligini oshirish uchun zarur [2]. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ayniqsa ommaviy yuqori tezlikdagi internet, aqlli raqamli vositalarni keng joriy etish, sun‘iy intellekt usullarini qo‘llash va virtual reallik texnologiyalarini keng joriy etish bilan bog‘liq holda dolzarbdir [3].

Bugungi kunda raqamli transformatsiya ta’lim sohasini modernizatsiya qilishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, muhandislik ta’limi bu o‘zgarishlarga eng faol tarzda moslashishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlardan biridir, chunki muhandislik sohasi innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, barcha bosqichlardagi ta’lim tizimida raqamli vositalardan foydalanish ko‘lami kengaytirilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida, xususan, muhandislik sohasidagi ta’lim muassasalari oldida yangicha chaqiriqlar va vazifalar paydo bo‘lmoqda. Bu jarayonda, bir tomondan, yangi imkoniyatlar ochilsa, boshqa tomondan, mavjud to‘siqlar, resurs yetishmovchiligi, kadrlar salohiyatining pastligi kabi omillar jarayonning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [4].

Muhandislik ta’limi, ayniqsa, texnik ko‘nikmalar, amaliy mashg‘ulotlar va muhandislik tafakkurini shakllantirishga alohida e’tibor beradigan soha hisoblanadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni mazkur yo‘nalishda joriy etish nafaqat nazariy bilimlarni o‘rgatishda, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, kompyuter modellash, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, virtual laboratoriyalar, masofaviy sinov va boshqaruv tizimlari kabi vositalar muhandislik fanlarini o‘rganishda katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, yuqori malakali pedagoglar va metodik qo‘llanmalar yetarli emasligi amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmoqda [5].

O‘zbekistonda muhandislik ta’limi tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonini chuqur tahlil qilinib, mavjud resurslar va texnologik imkoniyatlarni baholandi, shuningdek, bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlandi. Shuningdek, maqolada ilg‘or

xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida milliy sharoitga mos raqamli yondashuvlar ishlab chiqish zarurligi ham asoslandi.

Tadqiqot muhandislik ta’limi sifatini oshirish, ta’limda raqamli innovatsiyalarni kengaytirish, pedagoglar va talabalar uchun qulay o‘quv muhitini yaratish hamda oliy ta’lim tizimini zamon talablari darajasiga olib chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maqola asosida ishlab chiqiladigan tavsiyalar davlat siyosati, oliy ta’lim muassasalari strategik rejalashtiruv va raqamli ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda muhandislik ta’limining raqamli transformatsiyasi – bu nafaqat texnologik, balki metodologik, boshqaruv va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oluvchi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Unga yondashishda faqat texnik vositalar bilan cheklanib qolmasdan, inson resurslarini rivojlantirish, aniq strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlarni inobatga olish lozim. Ushbu tadqiqot aynan shu muhim jihatlarni ochib berish, mavjud holatni ilmiy asosda tahlil qilish va takliflar berish orqali muhandislik ta’limining sifatli va raqamli kelajagini shakllantirishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda muhandislik ta’limining raqamli transformatsiyasi sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, bu boradagi adabiyotlar tahlili mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida G’. Jo‘raev (2021) muhandislik ta’limida raqamli vositalarni joriy etishning afzalliklari va pedagogik yondashuvlari haqida izchil fikr yuritgan. U o‘z tadqiqotida ayniqsa masofaviy laboratoriyalar, virtual sinflar va raqamli simulyatsiyalar muhandislik ta’limi sifatini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [6]. Shuningdek, A. Toshpo‘latova (2022) O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi raqamli infratuzilmaning holatini tahlil qilib, ko‘plab texnik jihatdan nosozliklar, internet tezligi pastligi va resurslar yetishmovchiligi transformatsiya jarayonini sekinlashtirayotganini qayd etadi [7].

Chet ellik olimlar esa bu boradagi yondashuvlarga yanada tizimli va chuqur nazar bilan qarashadi. Masalan, Anderson va Dron (2014) o‘zlarining raqamli ta’lim modellari haqidagi tadqiqotida muhandislik ta’limi raqamli muhitda samarali bo‘lishi uchun uch asosiy omil texnologik moslashuvchanlik, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish qobiliyati zarurligini ko‘rsatadi [8]. Siemens (2005) tomonidan ilgari surilgan “connectivism” nazariyasi esa raqamli muhitda bilimlar tarmoq asosida shakllanishini, muhandislik ta’limida bu yondashuv ayniqsa dolzarb ekanini asoslaydi [9].

Bundan tashqari, UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar ham ta’limda raqamli transformatsiyaning istiqbollari va xavflari haqida keng ko‘lamli hisobotlar taqdim etgan. 2020 yilda e’lon qilingan UNESCO hisobotida rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda raqamli ta’limni rivojlantirishda asosiy to‘siqlar sifatida raqamli tengsizlik, pedagogik tayyorgarlikning pastligi va texnologik infratuzilmaning zaifligi tilga olindi [10].

Shuningdek, chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Germaniyada Fraunhofer instituti muhandislik ta’limida raqamli laboratoriyalar va virtual reallik asosida o‘qitish

texnologiyalarini samarali joriy etmoqda. Janubiy Koreya va Singapurda esa sun'iy intellekt asosida individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirishga qaratilgan loyihalar muvaffaqiyatli ishlamoqda [11].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya muhandislik ta'limi uchun zaruratga aylangan. O'zbekistonlik olimlar texnik imkoniyatlar va real muammolarga e'tibor qaratgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilar ko'proq nazariy modellar, tizimli strategiyalar va texnologik integratsiya yondashuvlariga urg'u berishadi. Shu asosda, O'zbekiston muhandislik ta'limi uchun moslashtirilgan, milliy sharoitlarga mos raqamli strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA


1. Raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi. O'quv jarayonida LMS (Moodle, Google Classroom, Edmodo) kabi platformalardan foydalanganlik darajasi, foydalanuvchilar faolligi va interaktivlik holati asosida baholanadi.

2. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasi. O'qituvchilarning raqamli vositalarni ishlatish, virtual laboratoriyalar tashkil qilish, multimedia materiallar yaratish qobiliyatlari tahlil qilinadi.

3. Talabalar raqamli savodxonligi va mustaqil o'rganish qobiliyati. Talabalar tomonidan raqamli resurslardan mustaqil foydalanish, masofaviy topshiriqlarni bajara olish va digital fikrlash darajasi baholanadi.

4. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarning mavjudligi. Muhandislik fanlariga oid tajriba darslarining onlayn tarzda o'tkazilishi, 3D modellar va AR/VR texnologiyalari asosida laboratoriya mashg'ulotlari mavjudligi inobatga olinadi.

5. Tizimli yondashuv va barqaror infratuzilma mavjudligi. Ta'lim muassasasida raqamli transformatsiyani boshqarish, texnik xizmatlar, server tizimi va texnik yordam ko'rsatish tizimi mavjudligi baholanadi.



1-rasm. Innovatsion baholash mezonlari.

Umuman olganda, muhandislik ta'limining raqamli transformatsiyasi yo'lida muayyan qadamlar tashlangan bo'lsa-da, hali to'laqonli natijaga erishilmagan. Texnologik imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular asosida ta'lim sifatini oshirish mumkin. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun:

- ✓ pedagoglar raqamli kompetensiyasini oshirish,
- ✓ zamonaviy infratuzilmani yaratish,
- ✓ onlayn laboratoriyalarni keng joriy etish,
- ✓ tizimli yondashuv va davlat strategiyasini mustahkamlash zarur.

Ushbu tavsiyalar asosida O‘zbekistonda muhandislik ta’limining zamonaviy, raqamlashtirilgan ko‘rinishga o‘tishi tezlashishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqotda O‘zbekiston muhandislik ta’limi tizimining raqamli transformatsiyasi holati chuqur o‘rganildi va raqamli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ta’limda raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, biroq bu yo‘lda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilma yetarli darajada shakllanmagan, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi past, talabalarning mustaqil raqamli faoliyati esa nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. N. Kozlova Ta’limdagi raqamli texnologiyalar // Maykop davlat texnologiya universitetining xabarnomasi. 2019. jild. 1/40. 83–90-betlar.
2. V. D. Budansev. 2020. Sifrovizatsiya v sfere obrazovaniya: obzor rossiyskix nauchnix publikatsiy / Molodoy ucheniy. – № 27 (317). – S. 120 –127.
3. Farzona Saydalieva. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (2024): 21-2
4. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Toshkent, 2020. <https://digituz.uz>
5. Sh. X. Karimov, “O‘zbekistonda muhandislik ta’limining raqamli transformatsiyasi: imkoniyatlar, to‘siqlar va istiqbollar,” Muhandislik va Innovatsiyalar Jurnal, vol. 3, no. 1, pp. 45–53, 2025.
6. G‘. Jo‘raev, “Muhandislik ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari,” Ta’lim va Innovatsion Tadqiqotlar, vol. 5, no. 2, pp. 45–52, 2021.
7. A. Toshpo‘latova, “Oliy ta’limda raqamli infratuzilmaning holati va uni rivojlantirish yo‘llari,” O‘zbekiston Pedagogika Jurnal, vol. 8, no. 1, pp. 67–72, 2022.
8. T. Anderson and J. Dron, *Teaching Crowds: Learning and Social Media*. Edmonton, Canada: Athabasca University Press, 2014, pp. 15–35.
9. G. Siemens, “Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age,” *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, vol. 2, no. 1, pp. 3–10, Jan. 2005.
10. UNESCO, “Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action,” UNESCO Report, 2020. (<https://unesdoc.unesco.org/>)
11. Fraunhofer Institute, “Virtual Laboratories in Engineering Education,” Fraunhofer Research Report, 2020. (<https://www.fraunhofer.de/>)



USING A CASE STUDY IN THE EFL CLASSROOM

Axundjanova Moxira Azamovna

*Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi*

Elektron pochta manzili: moxira.axundjanova@mail.ru

Telefon raqami: +998 90 560 67 80

Abstract: The use of case studies in the English as a Foreign Language (EFL) classroom provides students with opportunities to engage in authentic, context-based learning. By analyzing real-life scenarios, learners develop critical thinking, problem-solving, and communication skills. This method fosters deeper understanding of language structures and vocabulary in meaningful contexts. Case studies also promote collaborative learning and help bridge the gap between theoretical knowledge and practical application. The approach is especially effective in developing professional and academic language skills among future English language teachers and other EFL learners.

Keywords: case study, EFL, communicative competence, critical thinking, real-life context, task-based learning

INGLIZ TILI O'RGATISHDA KEYS STADI USLUBIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish (EFL) darslarida "keys stadi" (case study) usulidan foydalanish o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish orqali tilni amaliy va mantiqiy asosda o'rganish imkonini beradi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarda grammatika va so'z boyligini haqiqiy kontekstda

mustahkamlashga xizmat qiladi. Keys stadilar jamoaviy o'rganishni rag'batlantiradi va nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadi. Ushbu usul bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari va boshqa EFL o'quvchilari uchun til kompetensiyasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: keys stadi, EFL, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, real hayot konteksti, topshiriqqa asoslangan o'qitish

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КЕЙС-МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: Использование кейс-метода в обучении английскому как иностранному (EFL) позволяет студентам изучать язык через анализ реальных ситуаций, что способствует формированию критического мышления, навыков решения проблем и коммуникации. Этот подход помогает глубже понять грамматические структуры и лексику в контексте, близком к реальности. Кейс-метод также способствует развитию командной работы и соединяет теоретические знания с практическими навыками. Метод особенно полезен для будущих преподавателей английского языка и других изучающих EFL, стремящихся к профессиональной и академической языковой компетенции.

Ключевые слова: кейс-метод, EFL, коммуникативная компетенция, обучение английскому как иностранному (EFL), критическое мышление, реальный контекст, обучение на основе заданий.

INTRODUCTION

In recent decades, foreign language education has increasingly embraced learner-centered and context-based approaches that foster communicative competence, critical thinking, and real-world application. Among these, the case study method has emerged as an effective pedagogical tool in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. Originating in disciplines such as law, business, and medicine, the case study approach involves the exploration of real or simulated situations that require analysis, discussion, and decision-making. When applied to language learning, it provides students with an opportunity to engage in authentic communication and problem-solving within meaningful contexts.

This article explores the theoretical foundations, practical applications, and benefits of using case studies in the EFL context. It examines how case studies can enhance student engagement, support task-based learning, and contribute to the development of language proficiency and soft skills. Additionally, it provides practical recommendations for integrating case studies into language teaching practices and illustrates their impact through sample activities and reflections from EFL learners and educators.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The case study method is rooted in experiential and constructivist learning theories Kolb and Vygotsky [3,1984],[7,1978] emphasizing that knowledge is constructed through active engagement with content and context. In EFL contexts, case studies are seen as powerful tools for promoting communicative language use, critical thinking, and collaborative learning.[9,2025]

Richards and Rodgers [5,2014] advocate for communicative language teaching, where language is taught as a medium of real-world interaction. The case study method supports this by embedding linguistic elements within situational narratives. Savignon [6,2002] notes that authentic tasks like case studies lead to more meaningful language production than decontextualized drills. Kim [2,2015] adds that case studies promote analytical skills, creativity, and negotiation—all key to effective communication.

Dörnyei and Ushioda [1,2011] further stress that student motivation increases when learners are active participants in solving realistic problems. Case studies promote autonomy and ownership of learning, which in turn reinforces language retention and fluency. However, as Nunan [4,2004]) cautions, effective use of case studies requires clear learning objectives and appropriate scaffolding to ensure language learning remains central to the task.

In summary, the literature supports the pedagogical value of case studies in language learning, especially for developing higher-order thinking and communicative competence in meaningful contexts.

Research Design

This study used a qualitative classroom-based design to explore the impact of case study use on students' language performance and engagement. The setting was a three-year university EFL course focusing on academic speaking and writing.

Twenty-five upper-intermediate-level EFL students (CEFR B1–B2), aged 19 to 23, participated in the study. All were English students at Fergana State university. The group consisted of 23 female and 2 male students with similar academic backgrounds.

Over six weeks, students engaged in four case study sessions integrated into their regular classes. Such ready made Case -Studies presented to students.

1. Integrating the Communicative Approach in Lesson Planning: A Case Study of B1-Level Learners

Focus:

Explore how the principles of Communicative Language Teaching (CLT) influence lesson structure, activities, and learning outcomes.

2. Task-Based Learning in Mixed-Ability Classrooms: A Case Study of Planning for Differentiated Instruction

Focus:

Analyze how task-based methods can be applied in mixed-ability classes and what planning adjustments are required.

3. From PPP to ESA: Adapting Lesson Planning Models for Vocabulary Teaching in Primary EFL Classrooms

Focus:

Compare and evaluate how PPP (Presentation, Practice, Production) and ESA (Engage, Study, Activate) frameworks shape lesson planning and delivery.

4. Lesson Planning for Blended Learning: A Case Study of Applying the Flipped Classroom Method in Grammar Lessons

Focus:

Investigate how grammar instruction can be restructured using flipped learning strategies, both online and in class.

Each session presented a scenario relevant to university life, societal issues, or workplace challenges. Students worked in groups to analyze each case, propose solutions, and present

findings orally and in writing. Activities included debates, poster presentations, and report writing.

Data Collection included:

- Field notes from classroom observations
- Student reflection journals after each case
- Semi-structured group interviews at the end of the six weeks
- Rubric-based evaluation of student oral and written work

Data Analysis was used to identify recurring patterns and insights in qualitative data. Indicators of communicative competence, collaboration, and learner motivation were coded. Students' language output was assessed based on fluency, accuracy, vocabulary use, and task completion.

RESULTS

The findings suggest that integrating case studies led to noticeable improvements in students' communicative language use and classroom participation.

1-diagram. Case Study in the EFL Classroom: Advantages and Challenges

Aspects	Advantages	Challenges
Authenticity	Real-life and meaningful language use	Hard to find or adapt suitable case materials
Student Engagement	Boosts motivation and participation	Some students may remain passive
Skills Integration	Develops multiple language skills	Requires careful planning to balance skills
Cultural Awareness	Raises cross-cultural understanding	May require explaining unfamiliar concepts
Learner Autonomy	Promotes independence and responsibility	Not all students are ready for self-directed work
Collaborative Learning	Encourages teamwork and communication	Risk of unequal participation in groups

1. Language Development

Students showed increased confidence in expressing ideas during discussions and presentations. Their written reports demonstrated better organization, appropriate vocabulary use, and argumentation skills. Rubric scores improved by an average of 18% compared to pre-intervention tasks.

2. Engagement and Collaboration

Reflection journals indicated heightened interest and enjoyment during case-based sessions. Students reported feeling more responsible for their own learning and appreciated the real-world relevance of the tasks. Interview data revealed that working in teams enhanced their ability to listen, compromise, and support one another's language development.

3.Critical Thinking Skills

Case tasks stimulated problem-solving and creativity. Students were able to articulate multiple viewpoints, justify opinions, and evaluate consequences of decisions—skills rarely observed in traditional EFL tasks

DISCUSSION

The integration of case studies in the EFL classroom proved effective in promoting communicative competence and learner autonomy. The improvement in both oral and written output aligns with previous studies [6, 2002; 2, 2015] that highlight the benefits of authentic, contextualized language learning.

Furthermore, the increase in motivation and classroom interaction supports Dörnyei and Ushioda’s [1,2011) theory that learner agency enhances engagement. However, the success of the intervention also depended on structured guidance and clear expectations, confirming Nunan’s [4,p.82] call for careful planning in task design.

The findings underscore the potential of case studies to complement traditional EFL methods and provide a rich, student-centered learning experience.

Conclusion

This study confirms that case study activities offer a practical and impactful way to develop students’ language skills in EFL settings. By encouraging authentic communication, critical thinking, and collaboration, case studies prepare learners for real-life language use and professional communication. Implementing the Case Studies requires some planning and preparation but can be an exciting method in the language-learning classroom. Students are more actively engaged to the lesson when solving a problem than when reading a text and answering questions For educators, incorporating well-designed case tasks into the curriculum can create a more dynamic and effective classroom environment.

Future research could examine the long-term effects of case-based learning and explore its application across proficiency levels and cultural contexts.

REFERENCES

- 1.Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation* (2nd ed.). Routledge.
- 2.Kim, Y. (2015). Case-based instruction and critical thinking in language learning. *TESOL Journal*, 6(2), 230–250.
- 3.Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.
- 4.Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
- 5.Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
- 6.Savignon, S. J. (2002). *Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education*. Yale University Press.

7.Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

8.Yin, R. K. (2018). *Case Study Research and Applications: Design and Methods* (6th ed.). SAGE Publications.

9.Ashurali Mirzaev Baktiyor Ugli., Siti Soraya Lin Abdullah Kamal.(2025).

Understanding Uzbekistan University EFL Teachers Perceptions of ChatGPT: From Benefits to Ethical Challenge. *International Journal of Information and Education Technology*, Vol.15, No.2, 2025.



UDC: 378.14:371.3:005.336:001.891

ORCID: 0000-0002-4203-1070

KROSSDISIPLINAR YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA DIAGNOSTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Valiyeva Nodiraxon Maxamatjonovna
Yuqumli kasalliklar kafedrası
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy ta'lim jarayonida bo'lajak shifokorlarning diagnostik kompetentligini rivojlantirishda krossdisiplinar yondashuvning ahamiyati va uni amalga oshirish texnologiyalari yoritilgan. Tadqiqotda yuqumli kasalliklar fanini asosiy platforma sifatida tanlab, kasbiy bilimlar, klinik tafakkur va klinik qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda diagnostik kompetentlikni takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: krossdisiplinar yondashuv, diagnostik kompetentlik, yuqumli kasalliklar, tibbiy ta'lim, klinik tafakkur, diagnostic divergence modeli, keys-stadi, simulyatsiya, differensial tashxis.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА.

Аннотация: В статье рассматривается значение междисциплинарного подхода и технологии его реализации в развитии диагностической компетентности будущих врачей в процессе медицинского образования. В качестве основной платформы в исследовании была выбрана наука об инфекционных заболеваниях, а также разработаны механизмы повышения диагностической компетентности в формировании профессиональных знаний, клинического мышления и навыков принятия клинических решений.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, диагностическая компетентность, инфекционные заболевания, медицинское образование, клиническое мышление, модель диагностической дивергенции, исследование случая, моделирование, дифференциальная диагностика.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING DIAGNOSTIC COMPETENCE IN STUDENTS BASED ON A CROSS- DISCIPLINARY APPROACH

Annotation:: This article analyzes the effectiveness of an integrative approach to developing professional competence in medical education based on the ACL (Activity–Competence–Learning) model. The issues of forming students' competencies in practical clinical thinking, diagnosis, decision-making, and professional self-development in the process of teaching infectious diseases are discussed.

Keywords: medical education, infectious diseases, ACL model, professional competence, clinical reasoning, integrative approach, simulation, virtual laboratories, reflective analysis, diagnostic decision-making.

KIRISH

XXI asr sog‘liqni saqlash tizimi o‘zining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi, bu esa alohida olingan bilimlar eskirib borayotgan bir davrda shifokorlardan yangicha yondashuvlarni talab etadi. Bugungi globallashuv va axborotlashtirish davrida tibbiyot sohasidagi keskin yangilanishlar va tibbiy muammolarning murakkabligi shifokorlar zimmasiga yuqori darajadagi klinik-diagnostik tayyorgarlikni yuklamoqda. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar bo‘yicha sog‘liqni saqlash tizimida qaror qabul qiluvchi shifokorlar uchun keng bilim doirasi, tez va to‘g‘ri tashxis qo‘yish, ehtimolli tashxislarni solishtirib baholash kabi kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, tibbiy ta‘lim tizimida talabalarni krossdisiplinar asosda diagnostik kompetentligini shakllantirish – dolzarb va strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada xalqaro tajribalar, xususan, AQSHdagi USMLE tizimi, Kanadadagi CanMEDS modeli, Germaniyadagi modul asosidagi klinik o‘qitish, hamda Yaponiya va Fransiyadagi integratsiyalashgan tibbiy ta‘lim yondashuvlari nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi¹⁵.

Talabalarni malakali shifokor sifatida tayyorlash milliy ta‘lim tizimi konsepsiyasining dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, mazkur jarayon ta‘lim tizimini raqobatbardosh kadrlar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilganligi bilan xususiyatlanadi.

Yuqumli kasalliklar faniga oid klinik muloqot sharoitida diagnostik xarakterdagi muammolar va masalalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishning asosi, talabaning diagnostik kompetentligining ajralmas qismi bo‘lgan, diagnostik kompetensiyaga hissa qo‘shuvchi turli xil kasbiy kompetensiyalar - xususan infektologik fikrlash, epidemiologik tahlil, klinik qaror qabul qilish, laborator tafakkur, simptomlar asosida taxminiy tashxis qo‘yish kabi murakkab fanlararo bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidir. Diagnostik fikrlashni rivojlantirish, diagnostik muloqot sohasida amaliy foydalanishga tayyorlikni rivojlantirish demakdir. Shunga ko‘ra, aniq diagnostik xususiyatga ega bo‘lgan ushbu kompetensiyani diagnostik yo‘naltirilgan diagnostik

¹⁵ Williams L.H. Simulation-Based Approaches in Medical Diagnosis (PhD dissertation). - California: Stanford University, 2022. - 196 pages.

kompetentligi deb atash mumkin, bunda biz shifokor ning shaxsiy xususiyatlarini tushunamiz, bu zarur bilim, ko‘nikma va malakalarning bir qismidir. Bu kompetensiyani tashkil etuvchi psixologik, pedagogik, metodik, predmetli, kommunikativ kompetensiyalar hisoblanadi¹⁶. Ushbu tizimlar shifokorning nafaqat “ekspert” sifatidagi, balki “kommunikator”, “hamkor” va “olim” kabi ko‘p qirrali rollarini ham e’tirof etadi, bu esa krossdisiplinar yondashuvning mohiyatini tashkil etadi. Talabalarni malakali shifokor sifatida tayyorlash milliy ta’lim tizimi konsepsiyasining dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, mazkur jarayon ta’lim tizimini raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlashga yo‘naltirilganligi bilan xususiyatlanadi.

Shunga qaramay, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida yuqumli kasalliklar fani amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, kelajakdagi shifokorlarning diagnostik kompetentligiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘p hollarda fragmentar shaklda shakllanmoqda, klinik holatlarni fanlararo integratsiya asosida tahlil qilish va mustaqil diagnostik qaror qabul qilish jarayonida esa muayyan qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Bu holat nazariya va amaliyot o‘rtasida "uzilish"ni keltirib chiqarmoqda, ya'ni talabalar alohida faktlarni bilishadi, lekin ularni yagona diagnostik rejaga birlashtirishda qiynalishadi. Yuqumli kasalliklar ko‘plab klinik jihatlarni – simptomlar dinamikasi, differensial tashxis, epidemiologik holat, laborator tahlil natijalari, farmakoterapiya tamoyillari – kompleks ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ammo amaldagi o‘quv jarayonlarida bu jihatlar ko‘pincha alohida fanlar doirasida yoritilib, ularni yagona diagnostik mantiqqa birlashtirishga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bu holat talabalarda klinik tafakkur, reflektiv baholash, kasallik rivoji va oqibatini bashorat qilish qobiliyatlarining yetarlicha shakllanmasligiga olib kelmoqda. Ushbu muammoni chuqurroq o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va so‘rovnomalar talabalarning klinik tafakkuri yetarlicha shakllanmaganligini, ular simptomlar, laborator ma'lumotlar va anamnez asosida kasallikni tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, fanlararo integratsiyaning pastligi sababli yuqumli kasalliklar fani mikrobiologiya va farmakologiya kabi fanlar bilan bog'lanmagan, bu esa kompleks yondashuvning shakllanmasligiga olib kelmoqda. Amaliyotda real klinik vaziyatlarni modellashtirish vositalari va reflektiv topshiriqlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani, talabalarda o'z xatolarini tahlil qilish ko'nikmalarining sustligi, darslarning nazariy xarakterda o'tayotgani sababli diagnostik faoliyatga bo'lgan ichki motivatsiyaning pastligi hamda diagnostik yondashuvni aniq o'lchash imkonini beruvchi baholash mezonlarining yo'qligi kabi bir qator muammolar aniqlandi. Shu bois, yuqumli kasalliklar fanini krossdissiplinar integratsiya asosida o‘qitish va diagnostik kompetentlikni amaliy, simulyatsion, muammoli va reflektiv usullar orqali rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda taklif etilayotgan yondashuvning metodologik asosi krossdisiplinar ta'lim falsafasi, innovatsion texnologiyalar va faol o'qitish usullarining integratsiyasiga

¹⁶ Qodirov F.T. Tibbiyot talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish (diss.). – Buxoro: BuxMI, 2022. – 175 bet.

tayanadi. Krossdisiplinar yondashuv bu shunchaki bir nechta fanni yonma-yon o‘qitish (multidisiplinarlik) emas, balki turli fanlarning tushuncha va metodlarini umumiy bir muammoni hal qilish uchun birlashtirishdir. Yuqumli kasalliklar faniga oid klinik muloqot sharoitida diagnostik xarakterdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishning asosi, bu infektologik fikrlash, epidemiologik tahlil, klinik qaror qabul qilish, laborator tafakkur, simptomlar asosida taxminiy tashxis qo‘yish kabi murakkab fanlararo bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidir. Bu kompetensiyani tashkil etuvchi psixologik, pedagogik, metodik, predmetli, kommunikativ kompetensiyalar hisoblanadi¹⁷. Ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda bilimlarning tezlik bilan yangilanishi talabalardan zamonaviy sharoitlarga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘lish hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi. Shu maqsadda, Body Interact (virtual bemor simulyatori), Diagnosim (diagnostik stsenariylar platformasi), Visible Body (interaktiv anatomiya va patofiziologik xaritalar), InfectoMap (yuqumli kasalliklar bo‘yicha differensial diagnostika algoritmlari) va SimLab (klinik simulyatsiya muhiti) kabi interaktiv resurslar bilan talabalarda real klinik holatlarni tahlil qilish, simptomlarni farqlash hamda mustaqil diagnostik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengaytiriladi. Bu texnologiyalar talabalarga real bemorlarga ziyon yetkazish xavfisiz, xavfsiz virtual muhitda murakkab qarorlar qabul qilishni mashq qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, modellashtirish usullaridan, masalan, epidemiologik jarayonlarning rivojlanishi, infeksiyaning tarqalish yo‘llari yoki sepsis rivojlanishining patofiziologik modeli kabi holatlarni virtual muhitda modellashtirish orqali foydalanish, talabalarga alohida faktlarni emas, balki kasalliklarning dinamik va o‘zaro bog‘liq jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Bu usullar amaldagi keyslarni tahlil qilish, ularni tanib olish va o‘rganilayotgan jarayonni yaxshiroq tahlil qilib, tezkor hal qilish imkonini beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, krossdisiplinar yondashuv va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni talabalarning diagnostik kompetentligini samarali shakllantirishini tasdiqladi. Ayniqsa, DD (Diagnostic Divergence) modeli asosida qurilgan mashg‘ulotlar talabalar miyasida kasalliklar orasidagi bog‘liqlik va tafovutlarni tahlil qilish, ehtimolli tashxislarni tanqidiy solishtirish va eng asosiy tashxisni asoslab berish kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Bu model talabalarni birinchi paydo bo‘lgan fikrga yopishib olish (diagnostikani muddatidan oldin yopish) o‘rniga, o‘z taxminlarini inkor etuvchi dalillarni faol izlashga undaydi, bu esa kognitiv xatolarning oldini olishda muhim ko‘nikmadir. Natijada, talabalarning turli manbalardan (laboratoriya natijalari, anamnez, instrumental tekshiruvlar) olingan ma‘lumotlarni sintez qilish va asoslangan differensial tashxisni shakllantirish qobiliyatida sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Yuqumli kasalliklar fani bu jarayonda universal model sifatida xizmat qildi, chunki u o‘zining xilma-xil

¹⁷ Qodirov F.T. Tibbiyot talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish (diss.). – Buxoro: BuxMI, 2022. – 175 bet.

sindromlari bilan tibbiy tafakkurni kengaytirish va turli klinik stsenariylarni sinab ko'rish uchun noyob imkoniyat yaratdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, diagnostik mahorat tug'ma iste'dod emas, balki tizimli ravishda tarbiyalanishi mumkin va shart bo'lgan kompetensiyadir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tibbiy ta'limda krossdisiplinar integratsiyani kuchaytirish kelajakdagi shifokorning mustaqil, tezkor va asosli qaror qabul qilish qobiliyatiga poydevor yaratadi. Maqolada tasvirlangan krossdisiplinar, texnologik jihatdan boyitilgan yondashuv ushbu maqsadga erishishning kuchli va tasdiqlangan yo'lidir. Bu yondashuv nafaqat bugungi kunning murakkab talablariga javob beradigan, balki kelajakning kutilmagan tibbiy muammolariga ham tayyor bo'lgan shifokorlar avlodini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, o'quv dasturlarini fanlararo integratsiya tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish va innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng joriy etish milliy tibbiy ta'lim tizimining strategik ustuvorligi bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Williams L.H. Simulation-Based Approaches in Medical Diagnosis (PhD dissertation). – California: Stanford University, 2022. – 196 pages.
2. Qodirov F.T. Tibbiyot talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish (diss.). – Buxoro: BuxMI, 2022. – 175 bet.
3. Bowen J.L. Educational strategies to promote clinical diagnostic reasoning. – *N Engl J Med*, 2006. – 355(21). – P. 2217–2225.
4. Croskerry P. The importance of cognitive errors in diagnosis and strategies to minimize them. – *Acad Med*, 2003. – 78(8). – P. 775–780.
5. Eva K.W. What every teacher needs to know about clinical reasoning. – *Medical Education*, 2005. – 39(1). – P. 98–106.
6. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487>. - Spain, 2023. – P. 17–21.
7. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2023, No. 9. – P.770–774.



UDC: 378:371.3:005.336:001.891

ORCID: 0000-0002-4203-1070

KROSSDISIPLINAR YONDASHUV ASOSIDA DIAGNOSTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Valiyeva Nodiraxon Maxamatjonovna
Yuqumli kasalliklar kafedrası
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Maqolada tibbiy ta’lim jarayonida bo‘lajak shifokorlarning diagnostik kompetentligini shakllantirishda krossdisiplinar yondashuvning metodik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: krossdisiplinar yondashuv, diagnostik kompetentlik, integratsiyalashgan ta’lim, klinik tafakkur, pedagogik metodika, differensial tashxis, tibbiy ta’lim, refleksiya.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА

Аннотация: В статье рассматриваются методологические особенности междисциплинарного подхода к развитию диагностической компетентности будущих врачей в рамках медицинского образования. Показывается, как интегрированные стратегии обучения могут способствовать развитию критического мышления, клинического мышления и навыков дифференциальной диагностики у студентов-медиков.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, диагностическая компетентность, интегрированное образование, клиническое мышление, педагогическая методология, дифференциальная диагностика, медицинское образование, рефлексия.

METHODOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING DIAGNOSTIC COMPETENCE BASED ON A CROSS-DISCIPLINARY APPROACH

Kirish: Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olishidan tashqari, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar — kimyo kabi murakkab fanlarda bu qobiliyatlarning mustahkam bo'lishi o'quvchilarni nafaqat fan asoslarini chuqur tushunishga, balki muammolarni mustaqil tahlil qilish va samarali hal qilishga tayyorlaydi. Mantiqiy fikrlash — sabab-oqibat munosabatlarini topish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish va yangiliklarni yaratish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, kimyo darslarida ilg'or pedagogik tajribalarni joriy qilish o'quvchilarning fikrlash darajasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Mantiqiy fikrlash — ilmiy tafakkur asoslarini tashkil qiluvchi, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiruvchi va ularni muammolarni tizimli hal qilishga o'rgatuvchi muhim ko'nikmadir. Kimyo fani murakkab nazariy va amaliy jihatlariga ega bo'lib, unda mantiqiy fikrlash qobiliyati yanada zarur hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning bu ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlashning kimyoviy mashq va masalalar yechishdagi o'rni va ahamiyati qanday? Kimyo — tabiiy fanlar ichida sistemali va sabablilikka asoslangan fanlardan biri. Kimyoviy jarayonlarni to'g'ri tushunish uchun o'quvchilar:

- Moddalar o'zaro qanday ta'sir qilishini tahlil qilish;
- Kimyoviy reaksiyalar sabablarini aniqlash;
- Formulalar va tenglamalar orqali muammolarni yechish;
- Eksperiment natijalarini dalillar bilan asoslash qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

Misol uchun, o'quvchi gidroksidlarning kislota va asos bilan reaksiyasini o'rganganida, kimyoviy tenglamalarni to'g'ri yozish, reaksiyalar sababini tushunish va natijalarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash talab qilinadi.[1]

Ilg‘or pedagogik tajribalar va ularning kimyoda qo‘llanilishi

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning): Bu yondashuvda o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni tanlab, guruhlarda loyiha ustida ishlashadi. Misol uchun, «Maktab hududidagi suvning kimyoviy tozaligi» loyihasi o‘quvchilarga quyidagilarni o‘rgatadi:

- Suv namunalarini olish va ularni kimyoviy jihatdan tahlil qilish;
- Natijalarni taqqoslash va tozalash usullarini ishlab chiqish;
- Olingan ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish.

Bu metod o‘quvchilarni muammolarni tizimli hal qilishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.

Tajriba va laboratoriya ishlari: Kimyo fanida laboratoriya ishlari o‘quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng yaxshi vositadir. Masalan, o‘quvchilar quyidagi jarayonlarni o‘zlashtiradi:

- Kimyoviy reaksiyaning sabablarini taxmin qilish;
- Tajribani o‘tkazish va natijalarni qayd etish;
- Olingan ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish.

Misol: O‘quvchilar natriy gidroksid va kislota aralashmasi reaksiyasida gaz chiqishini kuzatib, sabab-oqibat aloqasini tushunadilar.

Sokrat usuli va muhokamalar: Sokrat usuli o‘quvchilarga o‘z fikrlarini mantiqan asoslashni o‘rgatadi. Muhokama va munozaralar orqali ular:

- Dalillarni taqqoslaydi;
- Qarama-qarshi fikrlarni tahlil qiladi;
- O‘z nuqtai nazarini himoya qiladi.

Misol: Kimyo darsida kimyoviy reaksiyaning tezligi haqida savollar berib, o‘quvchilarni turli taxminlarni baholashga undash.

Ilg‘or pedagogik metodlarni joriy qilishda ba’zi muammolar uchraydi:

- **O‘qituvchilarning malaka darajasi:** Ko‘plab o‘qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishni bilmaydi.
- **Maktab infratuzilmasi:** Laboratoriya jihozlari va raqamli vositalarning yetishmasligi.
- **O‘quv dasturlarining og‘irligi:** O‘quv rejalari ko‘pincha juda band bo‘lib, innovatsion metodlarga yetarlicha vaqt ajratilmaydi.
- **O‘quvchilar tayyorgarligi:** Har bir o‘quvchining boshlang‘ich bilim darajasi turlicha bo‘lib, bu o‘quv jarayonini murakkablashtiradi.

Kimyo darsida haqiqiy mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi misol va savollar:

Noaniq ma’lumotli reaksiya tahlili

Mantiqiy topshiriq: Sizda ikkita modda bor: A va B. Ularning qaysi biri kislotami, qaysi biri asos ekanligini bilmayapsiz. Sizda faqat quyidagi imkoniyat bor: A ni B ga qo‘shasiz va gaz chiqadi. Shundan keyin B ni suvga solasiz va pH o‘lchovchi qurilmada 12 natija chiqadi.

Savol: A va B qaysi modda? Sababi bilan tushuntiring.

Mantiq: Gaz chiqishi reaksiyaning neytrallashish yoki shikastlanishdan dalolat. pH 12 — asosiy muhit. Demak, B suvda asosga aylanadi, ya’ni B — asos, A esa kislota. Bu mantiqiy taxminni bosqichma-bosqich asoslash talab qilinadi.

Katta tajriba ma’lumotini tahlil qilish va xulosa chiqarish

Mantiqiy topshiriq: Sizda 5 turdagi kimyoviy modda berilgan ularning barchasi suvda eriydi. Har biri 3 xil haroratda (0°C, 25°C, 60°C) sinovdan o‘tkazildi. Harorat oshganda ba’zi moddalar yaxshi eriydi, boshqalari kamayib ketadi.

Savol: Qaysi moddalarning eruvchanligi haroratga bog‘liq, qaysilari emas? Nega? Nima uchun harorat ba’zan eruvchanlikni kamaytiradi?

Mantiq: Bu yerda o‘quvchi ma’lumotlarni tahlil qiladi, farqlarni aniqlaydi. Sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganadi. Qisqa bilimga emas, balki statistik ma’lumot va faktlarni tushuntirishga majbur bo‘ladi.

5 ta modda (suvda eriydigan, lekin haroratga har xil reaksiya qiladigan):

Modda	Kimyoviy formulasi	Eruvchanlik o‘zgarishi (harorat ortganda)	Jarayon turi
KNO ₃ (kaliy nitrat)	KNO ₃	Eruvchanligi ortadi	Endotermik
NaCl (natriy xlorid)	NaCl	Eruvchanligi deyarli o‘zgarmaydi	Neytral
Ce ₂ (SO ₄) ₃ (seriy(III) sulfat)	Ce ₂ (SO ₄) ₃	Eruvchanligi kamayadi	Ekzotermik
Li ₂ SO ₄ (litiy sulfat)	Li ₂ SO ₄	Eruvchanligi pasayadi	Ekzotermik
NH ₄ NO ₃ (ammoniy nitrat)	NH ₄ NO ₃	Eruvchanligi keskin ortadi	Kuchli endotermik

KNO₃ va NH₄NO₃ — harorat oshganda eruvchanligi ancha ortadi. Bu ularning endotermik modda ekanini ko‘rsatadi.

Ce₂(SO₄)₃ va Li₂SO₄ — harorat oshganda eruvchanligi kamayadi, ya’ni ular ekzotermik erish xususiyatiga ega.

NaCl — oddiy tuz bo‘lib, eruvchanligi deyarli o‘zgarmaydi, bu esa uni neytral xatti-harakatli modda qiladi.

Laboratoriya vazifasi — kimyoviy xato va natijani tushuntirish

Mantiqiy topshiriq: O‘quvchi eksperimentda NaCl eritmasiga AgNO₃ qo‘shdi, natijada cho‘kma hosil bo‘ldi. Keyin eksperimentni takrorladi, lekin suvning miqdori ko‘proq bo‘ldi, cho‘kma kamroq hosil bo‘ldi.

Savol: Bu qanday mantiqiy izohga ega? Suv miqdorining o‘zgarishi qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mantiq: Cho‘kmaning hosil bo‘lishi moddalarning to‘yinganlik nuqtasi bilan bog‘liq. Suv ko‘payganda, modda kontsentratsiyasi kamayadi, shuning uchun cho‘kma kamroq paydo bo‘ladi. O‘quvchi shart-sharoitlar o‘zgarishini mantiqan tahlil qiladi.

Moddalarni ajratish va aniqlash

Mantiqiy topshiriq: Sizda quyidagi aralashma bor: NaCl, shakar va temir zarralari. Siz ularni qanday ajratasiz? Har bir bosqichda nima sodir bo‘lishini mantiqan tushuntiring.

Yechim bosqichlari:

- 1-bosqich: Aralashmani suvga solib aralashtiring — qaysi modda eriydi? (NaCl va shakar eriydi, temir esa erimaydi).
- 2-bosqich: Temir zarralarini magnit yordamida ajrating.
- 3-bosqich: Eritmadan shakar va NaCl ni ajratish uchun qanday usul ishlatiladi? (evaporizatsiya, kristallanish).
- Har bosqichda sabab-oqibatni tahlil qiling: nega temir magnit bilan tortiladi? Ne uchun shakar va NaCl suvda eriydi? Ne uchun ular turli holatda kristallashadi?

Sirli aralashma

Sizga noma'lum 3 moddadan iborat aralashma berildi: A, B va C.

- A suvda yaxshi eriydi, B esa suvda umuman erimaydi.
- C modda eritmada cho'kma hosil qiladi.
- Agar A va C moddalari aralashtirilsa, cho'kma hosil bo'lmaydi, lekin B va C aralashganda cho'kma hosil bo'ladi.

Savol: Har bir modda qaysi turga kiradi? Sababini mantiqan tushuntiring.

Berilgan ma'lumotlar:

1. A suvda yaxshi eriydi,
2. B suvda umuman erimaydi,
3. C modda eritmada cho'kma hosil qiladi,
4. $A + C \rightarrow \text{cho'kma yo'q}$,
5. $B + C \rightarrow \text{cho'kma hosil bo'ladi}$.

Tahlil:

1. A suvda yaxshi eriydi: demak, A — ionli yoki qutbli modda, ehtimol erituvchi tuz (masalan: NaCl, KNO₃, NH₄Cl va h.k.)

2. B suvda umuman erimaydi: bu modda qutbsiz yoki juda kam eruvchan, masalan: AgCl, BaSO₄, yoki metallar bo'lishi mumkin.

3. C modda eritmada cho'kma hosil qiladi: bu modda ioni bilan boshqa modda reaksiyaga kirishib cho'kma beradi. Masalan: C – Cl⁻, SO₄²⁻, yoki OH⁻ bo'lishi mumkin.

Moddalar o'zaro reaksiyasi: $A + C \rightarrow \text{cho'kma yo'q}$: Bu demak, A va C bir-biri bilan reaksiyaga kirishmaydi, ya'ni ularning ionlari orasida cho'kma hosil qiluvchi birikma yo'q. Masalan: A – NaNO₃ (eriydi) C – NaCl $\rightarrow \text{Na}^+$ va Cl⁻ aralashadi $\rightarrow$ hech qanday cho'kma yo'q.

B + C $\rightarrow$ cho'kma bor: Demak, B modda C moddaning ionlari bilan cho'kma beradi. Masalan: B – AgNO₃ (Ag⁺) — suvda yomon eriydigan AgCl ni hosil qilsa, C – NaCl (Cl⁻) bo'lsa, $B + C \rightarrow \text{Ag}^+ + \text{Cl}^- \rightarrow \text{AgCl}$ (oq cho'kma)

Xulosa:

Belgilanish	Modda	Sabab
A	NaCl yoki KNO ₃	Yaxshi eriydi, C bilan cho'kma bermaydi
B	AgNO ₃	Suvda yomon eriydi, lekin Cl ⁻ bilan AgCl cho'kmasini hosil qiladi

C	NaCl (yoki Cl^- beruvchi modda)	Bilan cho‘kma (AgCl), A bilan cho‘kma bermaydi
---	--	---

Yakuniy javob (moddalar):

- A = NaNO_3 yoki KNO_3 (eruvchan tuz)
- B = AgNO_3 (cho‘kma hosil qiluvchi kam eruvchan modda)
- C = NaCl (Cl^- manbai)

Xulosa; Kimyo darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni ilm-fanga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilg‘or pedagogik tajribalar, xususan loyiha asosida o‘qitish, muammoli o‘qitish, laboratoriya ishlari va raqamli texnologiyalar orqali bu ko‘nikmalar samarali shakllantiriladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishiga va maktab infratuzilmasining yaxshilanishiga katta e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, S. R. (2020). *Formirovanie logicheskogo myshleniya uchashchikhsya na urokakh khimii*. Molodoy Ucheny, (12), 74–77.
2. Khoshimova, D., & Khamroyeva, S. (2021). *Kimyo fanida interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish*. Ilm sarchashmalari, (1), 85–88.
3. Yuldasheva, N. T. (2022). *Innovatsionnye metody prepodavaniya khimii v shkole*. Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya, (3), 112–115.
4. Turg‘unov, A. T. (2020). *Kimyo fanini o‘qitishda tajriba va laboratoriya ishlarining ahamiyati*. Kimyo va biologiya ta’limi, (2), 56–59.
5. Jonboeva, S. X. (2021). *Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda loyiha asosida ta’limning o‘rni*. Pedagogik ta’lim va fan yangiliklari, (4), 44–46.
6. Azizova, M. Z. (2022). *Ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish*. Ta’lim va rivojlanish, (5), 22–26.
7. Norqulova, F. X. (2023). *Fanlararo integratsiya asosida kimyo o‘qitish samaradorligini oshirish*. Kimyo ta’limida innovatsiyalar, (1), 13–15.
8. Solovyev, V. V. (2021). *Metod proyektov v obuchenii khimii*. Khimiya v shkole, (4), 19–22.
9. Fathutdinova, A. Kh. (2020). *Logicheskoe myshlenie i sposoby ego razvitiya na urokakh khimii*. Nauka i obrazovanie segodnya, (2), 77–81.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). *Kimyo fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘quv dasturi (7–11-sinflar uchun)*. Toshkent: Ma’naviyat.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON, YAPONIYA VA ITALIYA MAMLAKATLARI TAJIRIBALARI

N.Sh.Miryusupova

*Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti*

Annotatsiya Maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish bo‘yicha mamlakatimiz, Yaponiya va Italiya davlatlari tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: inson resurslarini boshqarish, strategiya, o‘qitish va malaka oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

Аннотация В статье изучен опыт нашей страны, Японии и Италии по управлению персоналом в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: управление человеческими ресурсами, стратегия, обучение и развитие, непрерывное профессиональное развитие.

Annotation The article examines the experience of our country, Japan and Italy in personnel management in preschool educational organizations.

Key words: human resource management, strategy, training and development, continuous professional development.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimida olib borilayotgan qator ishlar nafaqat ta‘limni isloh qilishga, balki bu sohada faoliyat yuritayotgan har bir xodimning manfaatlarini himoya qilishga, ularning o‘z faoliyatidan qoniqishiga, ularda ishlashga bo‘lgan ishtiyoqni ortishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tizimda samarali inson resurslarini boshqarish, sifatli ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishiga asos bo‘luvchi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari darajasida inson resurslarini boshqarish hozirgi kunning eng dolzarb muammolari yechimini topish yo‘llarini — inson resurslarini boshqarishni mukammal egallash va tizimli o‘qitish orqali amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha ta‘lim sohasida inson resurslarini boshqarishda, yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, halol, bilimdon, ishbilarmon, ta‘lim tizimini isloh qilishga jon-u-jahdi bilan harakat

qiluvchi odamlarni topish, ularga ishonch bildirish hamda ular tomonidan xodimlarni boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanish eng dolzarb masalalaridan biridir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari faoliyatini tubdan yangilash maqsadida chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning qator farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari buning yaqqol dalilidir. Shu jumladan, 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son Farmoni, 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-152-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 531-son qarorlarining hayotga tadbiq etilishi amalga oshirilayotgan islohotlarning davomidir.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o‘quv kurslarini tashkil etilishi maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarini tanlash, tayyorlash va ularni uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik sertifikatini olishga tayyorlashda menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi-metodist lavozimi negizida amaldagi mehnatga haq to‘lash shartlarini hamda malaka toifalarini berish tartibini saqlab qolgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimi joriy etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari zimmasiga ta’lim sifatini ta’minlash, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari yuklangan. Respublikamizning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu tashkilotlarning direktor o‘rinbosarlaridan iborat malakali trenerlar guruhi shakllantirilgan. Bunda malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun al-hida tayyorlov kurslari tashkil etilgan. Barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning «Metodik mahorat soati», tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa «Metodik mahorat kuni» kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etilgan bo‘lib, «Metodik mahorat kuni» doirasida tayanch

maktabgacha ta'lim tashkilotlari trenerlari tomonidan boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlari uchun o'quv mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazib kelinmoqda.

Biz yuqorida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarini keltirib o'tdik. Endi Osiyo davlatlaridan biri bo'lgan Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimini tahlil qilamiz.

Yaponiya — Osiyo mintaqasida ta'lim sohasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, uning maktabgacha ta'lim tizimi yuqori standartlar va mustahkam tashkil etish usullari bilan ajralib turadi. Inson resurslarini samarali boshqarish maktabgacha ta'limning asosiy poydevori hisoblanadi.

Yaponiya tashkilotlari o'z ishchilarini shunday boshqaradiki, natijada ishchilar maksimal va samarali ishlashlari kerak. Bu maqsadlarga erishish uchun Yaponiya tashkilotlari kadrlarni boshqarish texnikasi, shuningdek ish haqi to'lashning samarali tizimi, mehnat tashkilotlari va ish joylarning tahlili, ishchilarning attestatsiyasi hamda boshqalardan foydalanishadi. Yaponiya tashkilotlarining omadli jihati ko'p hollarda ishchilarning shu kompaniyaga sadoqatliligidadir. Ishchilarni tashkilotlar bilan o'xshatish ma'naviy va yuqori darajadagi samarani beradi. Yaponiyaning boshqarish tizimi mana shu o'xshatishni kuchaytirishga harakat qiladi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim asosan ikki xil muassasalarda:

Hoikuen (保育園) – 0–6 yoshgacha bo'lgan bolalarni parvarishlashga ixtisoslashgan muassasalarda;

Yochien (幼稚園) – 3–6 yoshgacha ta'limga e'tibor qaratiladigan bog'chalarda amalga oshiriladi.

Har ikki turdagi muassasalarda ham inson resurslari, ya'ni pedagoglar, yordamchi xodimlar va ma'muriyat o'rtasidagi samarali tashkilotchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiyada bolalar bilan ishlovchi pedagoglar maxsus litsenziyaga ega bo'lishi kerak. Ular "Hoikushi" deb ataladi va Davlat tomonidan belgilangan kurslardan o'tishi shart hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasi pedagogiga qo'yila-igan talablar shuki, ular pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, bolalarning yoshiga mos yondashuvni amalga oshira olishi, bolalar bilan muloqot qilish madaniyatiga ega ekanligi, bolalar sog'lig'ini saqlash va xavfsizlik bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi muhimdir. Pedagoglardan "Hoikushi" litsenziyasini olish uchun ikki yillik kollej yoki uch yillik kursni tugatish talab etiladi. Ularning kasbiy rivojlanishi doimiy ravishda amalga oshiriladi, bularga yillik malaka oshirish seminarlari, tajriba almashinuv va attestatsiyalar kiradi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalari **mudofaa, ta'lim va sog'liqni saqlash vazirliklari** bilan hamkorlikda ish yuritadi. Bu esa kadrlar tanlovi, standartlarni belgilash va sifat nazoratini yaxshilaydi.

Yaponiyada mehnat munosabatlarini ijobiy shakllantirish va maosh to'lash tizimi quyidagicha: davlat muassasalarida tarbiyachilarga munosib maosh to'lanadi, ijtimoiy kafolatlar mavjud, xususiy muassasalarda esa maosh darajasi turlichasubyektpedagoglarni

rag‘batlantirish uchun “Hoikushi Challenge” dasturi joriy etilgan. Tarbiyachilar uchun ish joyida dam olish imkoniyati mavjud bo‘lib, har bir tarbiyachiga 3 tadan 6 tagacha bola to‘g‘ri keladi.

Yaponiyada yaqin 10 yil ichida bog‘cha pedagoglariga talab keskin oshib bormoqda. Ba‘zi viloyatlarda 30% gacha kadrlar yetishmovchiligi kuzatilgan. Yoshi katta pedagoglar orasida kasbiy va emotsional charqchoq kabi holatlar uchramoqda. Shuning uchun yoshlar o‘rtasida sohaga qiziqishni orttirish maqsadida PR kampaniyalar olib boriladi. Davlat grantlari va o‘quv kontraktlari asosida yosh mutaxassislar sohaga jalb qilinmoqda.

Yaponiyada maktabgacha ta‘lim muassasalarida inson resurslarini boshqarish tizimi yuksak darajada tashkil etilgan. Pedagoglar malakasi, litsenziyalash, ish sharoitlari va kasbiy rivojlanish muntazam ravishda nazarda tutiladi. Biroq, mutaxassis yetishmovchiligi va stress kabi muammolar hanz dolzarbdir.

Italiyada maktabgacha ta‘lim sohasida inson resurslarini boshqarish masalasi murakkab va bir vaqtning o‘zida innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Italiyaning maktabgacha ta‘lim tizimi nafaqat o‘quv dasturlari, balki pedagog kadrlar, ularning tayyorgarligi, kasbiy rivojlanishi va mehnat sharoitlari bilan ham ajralib turadi.

Italiyada maktabgacha ta‘lim muassasalari asosan 3 guruhga bo‘linadi:

Asilo nido: 0–3 yoshgacha bolalar parvarishiga ixtisoslashgan muassasalar;

Scuola dell'infanzia: 3–6 yoshgacha bolalar uchun mo‘ljallangan maktabgacha ta‘lim muassasalari;

Servizi integrativi: oilaviy va xususiy shakldagi alternativ ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi maktabgacha ta‘lim muassasalari. Ushbu muassasalar davlat, munitsipalitet yoki xususiy sektor tomonidan boshqariladi.

Italiyada maktabgacha ta‘lim muassasalarida ishlaydigan pedagoglar yuqori malakali bo‘lishi shart. Ular pedagogika, psixologiya va bolalar rivojlanishi sohalari bo‘yicha maxsus ta‘limga ega bo‘lishlari lozim. Yordamchi xodimlar shtati ham mavjud bo‘lib, ularga oshpaz, tozalovchi, tibbiyot xodimlari, yordamchi tarbiyachilar kiradi. Ular bola xavfsizligi va gigiyenasini ta‘minlab beruvchi asosiy personalar hisoblanadi. Bog‘cha direktorlari va ma‘muriy xodimlar inson resurslarini boshqarish, byudjet taqsimoti, sifat nazorati va pedagogik jarayonlarni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kadrlarni tanlash va qabul qilishda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi: **universitet darajasidagi** pedagogik ta‘limga ega ekanligi majburiy etib belgilangan, 2018 yildan keyin barcha tarbiyachilar “Scienze della Formazione Primaria” (boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi) bo‘yicha magistr darajasiga ega bo‘lishi kerak.

Pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadi. Pedagoglarning muntazam malaka oshirishi uchun Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan seminarlar, vorkshoplar va metodik markazlar faoliyat yuritadi. Rejjio Emiliya metodikasi mavjud bo‘lib — u Italiyaning o‘ziga xos pedagogik falsafasi, pedagoglarning ijodiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydigan metodika hisoblanadi.

Xodimlar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha faktlarga to‘htaladigan bo‘lsak, munitsipal va davlat muassasalarida maoshlar yuqori bo‘lsa-da, xususiy muassasalarda bu ko‘rsatkichlar pastroq. E‘tiborli jihati shundaki, ijtimoiy kafolatlar, mehnat shartnomalari, faol kasaba uyushmalari mavjud bo‘lib, ular pedagog xodimlarni qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan.

Italiya tajribasining o‘ziga xos jihatlari shundaki, **Rejio Emiliya metodikasi** bolalarni faol subyekt sifatida qabul qiluvchi, pedagoglarni esa “ilhomlantiruvchi” sifatida ko‘ruvchi yondashuvligi, kasaba uyushmalari pedagoglar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi va juda faolligi bilan ajralib turadi. Kadrlar tanlovi ochiq, ochiq-oydin tanlovlar orqali amalga oshiriladi.

Italiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish tizimi samarali va shaffof usullarga asoslangan. Kasbiy tayyorgarlik, litsenziyalash, doimiy rivojlanish va ijtimoiy kafolatlar soha rivojida muhim ahamiyatga ega. Biroq mutaxassis yetishmovchiligi va ish yuklamalarning ko‘pligi bu muammolari hal etilish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, rivojlangan davlatlar tizimida IRB alohida o‘rin egallar ekan. Chunonchi, IRBni rivojlantirish strategiyasining bosh masalasi - xodimlarni, kadrlar xizmati faoliyatini tashkil qilish, ulami rivojlanishi zaminida iqtisodiy ravnaq va katta daromadlarni ko‘zlash turar ekan.

Ko‘rib o‘tilgan Yaponiya va Italiya davlatlarida maktabgacha ta’limda inson resurslarni boshqarish, kadrlarni tayyorlash tizimlari o‘zaro bir-birlariga o‘xshash tomonlari va ayni paytda har bir mamlakatning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlari, elementlari mavjud ekan. Bizning vazifamiz bularni chuqur o‘rganib, tahlil etib, ulardan respublikamizda kadrlarni tayyorlash va inson omilini rivojlantirishda o‘rinli foydalana olishdir.

Aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda bizning yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda gi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-mayda gi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrda gi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-152-son Farmoni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustda gi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 531-son Qarori;

5. Qosimova D.S., Nazarova G.G., Salixova N.M., Ismailova N.S. Inson resurslarini boshqarish: Darslik. - T.: TDIU, 2011.
6. Kartashova L.V. Upravleniye chelovecheskimi resursami: Uchebnik/ L.V. Kartashova. - M.: INFRA-M, 2014.
7. OECD. (2020). Early Childhood Education in Japan;
8. UNESCO. (2021). ECE Workforce Profile – Japan;
9. Ministry of Education, Japan. (2023). White Paper on Childcare Workforce;
10. UNICEF (2019). The State of Early Childhood Services in Japan;
11. OECD (2021). *Early Childhood Education and Care in Italy*;
12. Reggio Children Foundation (2020). *The Reggio Emilia Approach*;
13. Ministry of Education, Italy. *Linee guida per la scuola dell'infanzia*;
14. European Commission (2022). *Eurydice Report: Italy – ECEC Staff Qualifications and Development*;
15. UNICEF Italy (2019). *Il sistema di educazione prescolare in Italia*.



UDC: 378.14:616-036.22:371.3:001.891

ORCID: 0000-0002-4203-1070

YUQUMLI KASALLIKLAR FANIDA KROSSDISIPLINAR YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Valiyeva Nodiraxon Maxamatjonovna
Yuqumli kasalliklar kafedrası
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda krossdisiplinar yondashuvning didaktik imkoniyatlari pedagogik jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: krossdisiplinar yondashuv, diagnostik kompetentlik, yuqumli kasalliklar, integratsiyalashgan ta'lim, didaktik imkoniyatlar, klinik tafakkur, tibbiy ta'lim, refleksiya, differensial tashxis, innovatsion metodika.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА В НАУКЕ ОБ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

Аннотация: В данной статье с педагогической точки зрения исследуются дидактические возможности междисциплинарного подхода к преподаванию инфекционных заболеваний. Основное внимание уделяется тому, как этот подход способствует развитию диагностической компетентности посредством интегрированного обучения в медицинском образовании.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, диагностическая компетентность, инфекционные заболевания, интегрированное обучение, дидактические возможности, клиническое мышление, медицинское образование, рефлексия, дифференциальная диагностика, инновационная методология.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF A CROSS-DISCIPLINARY APPROACH IN INFECTIOUS DISEASE SCIENCE

Abstract: This article pedagogically explores the didactic opportunities of the cross-disciplinary approach in teaching the subject of infectious diseases. The focus is on how this approach enhances the development of diagnostic competence through integrated learning in medical education.

Keywords: cross-disciplinary approach, diagnostic competence, infectious diseases, integrated learning, didactic opportunities, clinical reasoning, medical education, reflection, differential diagnosis, innovative methodology.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta’limda o‘quv jarayonini optimallashtirish, amaliy ko‘nikmalarni real klinik muhitga yaqinlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirish krossdisiplinar yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda bu yondashuv talabning nafaqat bilim, balki tahliliy, reflektiv va kommunikativ salohiyatini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Yuqumli kasalliklar o‘zining murakkab etiopatogenezi, polisimptomatik ko‘rinishi, epidemiologik xavfi va tezkor tashxis qo‘yishni talab qiluvchi xususiyati bilan boshqa klinik fanlar bilan uzviy integratsiyani taqozo etadi. Shu sababli, krossdisiplinar yondashuv yordamida ushbu fanni o‘qitishda diagnostik tafakkurni shakllantirish, qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish va klinik stsenariylar asosida ta’lim berish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Ushbu yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganishni talab qiladi. Garchi tibbiy ta’lim uchun krossdisiplinar yondashuv yangi fenomen sifatida talqin etilishi mumkin bo‘lsa-da, u tibbiy pedagogika fanida chuqur anglab yetilgan va o‘z o‘rniga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. So‘nggi vaqtlarda ta’limga doir muammolarni tahlil etishda “kompetensiya”, “kompetentlik” kabi atamalardan keng foydalanilmoqda va bu tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda. Bu munozaralar shunchaki akademik bahs emas, balki samarali o‘quv dasturlari va adolatli baholash tizimlarini yaratish uchun fundamental ahamiyatga ega. Mazkur maqolada krossdisiplinar yondashuvning aynan yuqumli kasalliklar faniga xos bo‘lgan didaktik imkoniyatlari, ya’ni o‘quv mazmunini chuqurlashtirish, fanlararo bog‘liqlikda keyslar asosida o‘qitish, interaktiv metodlar, modellash va refleksiya asosida ta’limni samarali tashkil etish imkonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi krossdisiplinar yondashuvning markazida yotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini nazariy tahlil qilishga asoslanadi. Krossdisiplinar yondashuv talabadan alohida-alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi, bu esa o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimining o‘zgarishiga olib keladi. Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda, dastlab ko‘pgina holatda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llaniladigan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Ko‘plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o‘zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui sifatida, kompetentlik esa, ma’lum sohaga doir biror-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan. Buni bir misol bilan izohlash mumkin: "kompetensiya" – bu shifokorning asboblarni qutisidagi barcha zarur vositalar (bilim, ko‘nikma, munosabat) bo‘lsa, "kompetentlik" – bu o‘sha vositalardan foydalanib, aniq bir

klirik muammoni samarali hal qila olish qobiliyatidir. Tibbiy ta'limga xos kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi talabanning semantik yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir. Shu bilan birga, diagnostik kompetensiyalar qat'iy belgilangan tartibga ega emas va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki diagnostik kompetensiya jamiyatning o'z fuqarolarini tayyorlashga qo'yayotgan ijtimoiy buyurtmasidir va davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq belgilanadi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hamda Shveysariya va AQSHning ta'lim statistikasi Milliy institutlari tomonidan amalga oshirilgan xalqaro loyihalarda ham qat'iy o'rnatilgan tartibdagi diagnostik kompetensiyalar ishlab chiqilmaganligi buning dalilidir. Bu esa har bir ta'lim tizimi o'zining milliy sog'liqni saqlash ehtiyojlaridan kelib chiqib kompetensiyalar ro'yxatini moslashtirishi kerakligini anglatadi.

NATIJALAR

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida yuqumli kasalliklar fanini krossdisiplinar yondashuv asosida o'qitish orqali shakllantirilishi lozim bo'lgan sakkizta asosiy diagnostik kompetensiya tavsiya etildi. Bularga, birinchi navbatda, kasallik sabablarini aniqlashni o'z ichiga olgan etiologik tahlil kompetensiyasi; ikkinchidan, kasallik belgilarini aniqlash va klinik manzara shakllantirishni nazarda tutuvchi klinik simptomlarni aniqlash va baholash kompetensiyasi; uchinchidan, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to'g'ri talqin qilishni ta'minlaydigan laborator va instrumental diagnostika kompetensiyasi; to'rtinchidan, kasallik tarqalishi va nazoratini olib borish qobiliyatini rivojlantiruvchi epidemiologik tahlil kompetensiyasi; beshinchidan, tashxis qo'yish va davolash yo'nalishini belgilashda mustaqil qaror chiqara olishni o'rgatuvchi klinik qaror qabul qilish kompetensiyasi; oltinchidan, diagnostik jarayonda yo'l qo'yilgan xatolarni anglash va ulardan saboq chiqarishga yo'naltirilgan reflektiv va tahliliy fikrlash kompetensiyasi; yettinchidan, yuqumli kasalliklarni boshqa holatlar bilan bog'liq holda tahlil qilishni talab etuvchi multidisiplinar integratsiya kompetensiyasi; va nihoyat, sakkizinchidan, bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqotni ta'minlaydigan kasbiy kommunikatsiya kompetensiyasi kiradi. Ushbu kompetensiyalarni shunchaki nazariy tushuncha bo'lib qolmasdan, amaliy ko'nikmaga aylantirish uchun bir qator aniq vazifalarni bajarish zarurligi aniqlandi. Bular jumlasiga kasalliklar bo'yicha fundamental bilimlarni shakllantirish, real bemor misolida differensial tashxis qo'yish ko'nikmalarini mustahkamlash, laborator ma'lumotlarni diagnostik qaror bilan bog'lashni o'rgatish, boshqa fanlar bilan bog'liq bilimlarni integratsiyalash, simulyatsion mashg'ulotlarda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlash, diagnostik xatolarni tahlil qilishga o'rgatish va tashxis jarayonida tibbiy etika tamoyillariga rioya qilishni shakllantirish kabi vazifalar kiradi. Shuningdek, diagnostik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat kognitiv va psixologik, balki jismoniy salomatlik bilan ham bog'liqligi ta'kidlanadi. Zero, sog'lom tana va ruh yuqori aqliy faoliyat uchun zamin yaratadi. Shu munosabat bilan, tibbiy ta'lim va sport bilan shug'ullanish bo'lajak

shifokorlar shaxsiyatini rivojlantirish bilan birga ularning qaddi-qomatini to‘g‘ri shakllantirishi, morfologik va funksional ko‘rsatkichlarini yaxshilashi, bu esa ularning ijodiy faoliyatiga va diagnostik salohiyatining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, krossdisiplinar yondashuv shunchaki muqobil metod emas, balki yuqumli kasalliklar fanini o‘qitish va o‘rganishni tubdan o‘zgartiruvchi kuchli didaktik katalizatoridir. Yuqumli kasalliklar fanida ushbu yondashuvni qo‘llash tibbiy ta‘limda didaktik imkoniyatlarning boyishini ta‘minlaydi. Bu yondashuv orqali talabalar nafaqat infeksiyon kasalliklarning klinik, epidemiologik va laborator tomonlarini chuqur o‘zlashtiradilar, balki ularni boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali tanqidiy fikrlash, klinik tafakkur yuritish va amaliy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradilar. Krossdisiplinar ta‘lim diagnostik ko‘nikmalarni mustahkamlash, differensial tashxis qo‘yish malakasini rivojlantirish hamda kasbiy refleksiyaning kuchaytirish imkonini beradi, bu esa bo‘lajak shifokorlarning kasbiy faolligini oshirib, ularni kompleks tibbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlaydi. Shunday qilib, ushbu yondashuvni amaliyotga keng joriy etish nafaqat ta‘lim sifatini oshiradi, balki pirovardida aholi salomatligini saqlash tizimining umumiy samaradorligiga bevosita hissa qo‘shadi va talaba shaxsini rivojlantirish hamda kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world. – The Lancet, 2010. – Vol. 376(9756). – P. 1923–1958.
2. Koles P. et al. Clinical reasoning and diagnostic error: strategies for prevention. – Diagnosis, 2016. – Vol. 3(1). – P. 1–5.
3. Müller M.P., Jain A.K. Multidisciplinary teaching in infectious diseases: A necessity for global education. – Journal of Infection and Public Health, 2022. – Vol. 15(2). – P. 215–219.
4. Komilov Nodirbek. [Blockchain-Based Wireless Network Security Algorithm for Data Integrity in History Education](#) // Journal of Wireless Mobile Networks. Ubiquitous Computing, and Dependable Applications (JoWUA) volume: 16, number: 1 (March), pp. 247-257. DOI: 10.58346/JOWUA.2025.I1.015.
5. Komilov Nodirbek. [Enhancement of Exclusive Competencies of Foreign Students by Teaching the History of Medicine in Medical Education](#) // World Bulletin of Social Sciences, 2025, No. 32. – P.41-44.



ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МУСИҚА ЎҚИТУВЧИЛАРИ УЧУН КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ МОДЕЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ САМАРАЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ

*Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна,
Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги “Ўзбекистон давлат
симфоник оркестри” давлат муассасаси Бадий-раҳбар ходимлар бўлими
Хор жамоаси раҳбари.
Email: farogat0192@gmail.com*

Аннотация. Мазкур мақолада глобаллашув шароитида мусиқа таълими соҳасида педагог кадрларни тайёрлашда компетенциявий ёндашувни такомиллаштириш масаласи таҳлил қилинган. Таълимда амалий ва ижодий кўникмаларнинг ўрни, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш, миллий ва жаҳон мусиқа меросини уйғунлаштириш орқали ўқув дастурларини қайта кўриб чиқиш зарурлиги илмий асосланган ҳолда кўрсатилган. Тадқиқотда ЮНЕСКО, ИСМЕК ва Финляндия, Жанубий Корея, Япония каби мамлакатларнинг тажрибаси ҳамда Тошкент давлат санъат ва маданият институти, Миллий педагогика университети ва Қорақалпоқ давлат университети мисолида миллий амалиёт таҳлил қилинди. Анкета ва интервьюлар асосида мавжуд муаммолар, ўқитувчиларнинг рақамли саводхонлиги даражаси ва ўқув дастурларидаги камчиликлар аниқланди. Хулоса ўрнида компетенциявий моделни такомиллаштириш бўйича аниқ амалий тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар. компетенциявий ёндашув, мусиқа таълими, ижодий салоҳият, ахборот-коммуникация технологиялари, педагог тайёргарлиги.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОЙ МОДЕЛИ ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос совершенствования компетентностной модели подготовки педагогических кадров в области музыкального образования в условиях глобализации. Обоснована необходимость пересмотра учебных программ с акцентом на развитие творческих и практических навыков, использование информационно-коммуникационных технологий и интеграцию национального и мирового музыкального наследия. В исследовании проанализированы рекомендации ЮНЕСКО и ИСМЕК, международный опыт Финляндии, Южной Кореи и Японии, а

также практика ведущих вузов Узбекистана — Ташкентского государственного института искусств и культуры, Национального педагогического университета и Каракалпакского государственного университета. На основе анкет и интервью выявлены проблемы цифровой грамотности преподавателей и недостатки действующих программ. В завершение предложены практические рекомендации по институционализации компетентностной модели в системе высшего образования.

Ключевые слова. компетентностный подход, музыкальное образование, творческий потенциал, ИКТ, подготовка педагогов.

EFFECTIVE DIRECTIONS FOR IMPROVING THE COMPETENCY-BASED MODEL OF MUSIC TEACHER TRAINING IN HIGHER EDUCATION

Abstract. This article explores the improvement of the competency-based model for training pedagogical staff in the field of music education under globalization. It substantiates the need to revise curricula to enhance practical and creative skills, integrate information and communication technologies, and align national and global musical heritage. The research analyzes the recommendations of UNESCO and ISMEK, the international experience of Finland, South Korea, and Japan, as well as the local practices of Uzbekistan's leading institutions — Tashkent State Institute of Arts and Culture, the National Pedagogical University, and Karakalpak State University. Based on surveys and semi-structured interviews, the study identifies current challenges, including low levels of digital literacy among educators and gaps in existing programs. The paper concludes with practical recommendations for implementing a comprehensive competency-based approach in higher education.

Keywords: competency-based approach, music education, creative capacity, ICT, teacher training.

КИРИШ

Глобаллашув жараёнида миллий таълим тизими олдида турган устувор вазифалардан бири – рақобатбардош, ижодий фикрлай оладиган ва касбий жихатдан етук мутахассисларни тайёрлашдир. Айниқса, мусиқа таълими соҳасидаги педагог кадрларни тайёрлашда назарий билимлар билан бир қаторда амалий кўникмалар, ижодий салоҳият ва ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш қобилияти каби замонавий касбий компетенцияларга эга бўлиш талаб этилади. Бу ҳолат таълим жараёнига компетенциявий ёндашувни жорий этиш ва уни миллий маданий қадриятлар билан халқаро таълим стандартларини уйғунлаштирган ҳолда такомиллаштириш заруриятини келтириб чиқаради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таълим ислохотларида устувор йўналиш сифатида меҳнат бозори ва иқтисодиёт эҳтиёжларига мос сифатли мутахассислар тайёрлаш масаласини белгилаб, қуйидагиларни таъкидлаган эди: “Ўзгарувчан замонга мос, билимли, замонавий фикрлайдиган, ташаббускор

мутахассисларсиз тараққиёт бўлмайди. Олий таълим тизими ана шундай мутахассисларни етиштириши шарт” [1]. Ушбу ёндашувдан келиб чиқиб айтганда, мусиқа таълими соҳасида педагог кадрлар тайёрлашда компетенциявий моделни такомиллаштириш нафақат таълим сифати ва самарадорлигини оширишга, балки миллий маданиятни сақлаш, ёш авлодда эстетик тарбияни шакллантириш ҳамда умуминсоний қадриятларга эҳтиром туйғусини тарбиялашга хизмат қилади.

Шу нуқтаи назардан, олий таълим муассасаларида мусиқа ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида миллий анъана ва қадриятларни сақлаган ҳолда уларни халқаро талаблар билан уйғунлаштириб, соҳани янги босқичга олиб чиқиш имконияти яратилади.

УСУЛЛАР

Ушбу тадқиқотда мусиқа таълими соҳасида педагог кадрларни тайёрлашда компетенциявий ёндашувни такомиллаштириш масаласи комплекс ёндашув асосида ўрганилди. Тадқиқот методологияси доирасида, аввало, ЮНЕСКО ҳамда Истанбул Маданият ва Санъат маркази (ИСМЕК) каби халқаро ташкилотларнинг мусиқа таълимига оид тавсия ва концепциялари атрофлича таҳлил қилинди. Бу тавсиялар халқаро миқёсда мусиқа педагогикаси соҳасида юзага келаётган тенденциялар, инновацион ёндашувлар ва таълим жараёнида компетенциявий моделни шакллантиришда қўлланилаётган механизмлар ҳақида илмий тасаввур ҳосил қилишга хизмат қилди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси таълим тизимида оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар – жумладан, “Таълим тўғрисида”ги Қонун [2], “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” [3], ва “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” [4], каби стратегиялар – чуқур ўрганилиб, уларнинг мусиқа таълимида компетенциявий ёндашувни жорий этиш ва такомиллаштиришдаги ўрни таҳлил қилинди. Мазкур ҳужжатлар таълим мазмунини замонавий талабларга мос янгилаш, касбий кўникмаларни шакллантириш, халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш ҳамда амалий йўналтирилган ўқув дастурларини жорий этиш орқали мусиқа педагогикаси соҳасида рақобатбардош кадрлар тайёрлашга хизмат қилади.

Тадқиқот жараёнида қиёсий-таҳлилий усул орқали Финляндия, Жанубий Корея ва Япония каби ривожланган давлатларда мусиқа ўқитувчиларини тайёрлаш борасидаги илғор тажриба ҳам ўрганилди. Ушбу мамлакатлар тажрибаси таълим жараёнида амалий машғулотларга, ижодий кўникмаларга ва ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланишга алоҳида эътибор қаратиши билан аҳамиятлидир. Қиёсий таҳлил натижалари миллий таълим тизимида қайси компонентларни такомиллаштириш зарурлиги юзасидан аниқ тавсиялар ишлаб чиқишга асос бўлди.


Бундан ташқари, тадқиқот доирасида сифатли таҳлил учун эмпирик маълумотлар йиғиш мақсадида анкеталаш ва яримструктураланган интервью методларидан фойдаланилди. Анкета саволномалари асосан мусиқа таълими соҳасида фаолият юритаётган устозлар, педагогика йўналишида таҳсил олаётган талабалар ва соҳавий

мутахассислар ўртасида тарқатилди. Интервьюлар эса мусиқа таълими соҳасида илмий-педагогик фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар билан ўтказилди.

Тадқиқотнинг амалий қисми сифатида Тошкент давлат санъат ва маданият институти, Низомий номидаги Миллий педагогика университети ҳамда Қорақалпоқ давлат университетида амалга оширилаётган мусиқа педагогикаси таълим дастурлари, ўқув режалари ва педагогик амалиёт жараёнлари ўрганилди. Ушбу муассасаларда компетенциявий ёндашувнинг реал амалиётда қандай татбиқ этилаётгани, мавжуд муаммо ва имкониятлар таҳлил қилиниб, тегишли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

НАТИЖАЛАР

Олиб борилган таҳлил ва эмпирик маълумотлар шуни кўрсатадики, ҳозирда Ўзбекистоннинг олий таълим муассасаларида мусиқа таълими бўйича амал қилаётган ўқув дастурларининг катта қисми умумий педагогик йўналишга таяниб, соҳанинг ижодий, маданий ва технологик хусусиятларини тўлиқ қамраб ололмаяпти. Масалан, Тошкент давлат санъат ва маданият институти, Низомий номидаги Миллий педагогика университети ва Қорақалпоқ давлат университети каби етакчи муассасалар ўқув дастурларининг таҳлили шуни кўрсатдики, фанлар блоки кўп ҳолларда (60–70%) умумпедагогик ва назарий билимларга йўналтирилган, амалиётга эса жуда чекланган соатлар ажратилган. Хусусан, 2023/2024 ўқув йилида мусиқа таълими йўналишида таҳсилланаётган талабаларнинг 64 фоизи анкета сўровларида ижодий компетенциялар (ижро, композиция, импровизация) бўйича мустақил ишлашда қийналишини қайд этган [5].




1-расм. Талабаларнинг ижодий фаолиятда мустақил ишлашда қийналиш даражаси (Анкета сўровлари асосида, 2023/2024 йил).

Бундай ҳолат, биринчи навбатда, бўлажак ўқитувчиларда ижодий мустақиллик, замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш қобилияти ва глобаллашган жамиятда маданиятлараро мулоқотда фаол иштирок этишга тайёргарликнинг етарли шаклланмаслигига олиб келмоқда. Шу билан бирга, ўқув дастурларида мусиқанинг турли жанрлари ҳамда миллий ва жаҳон мусиқа меросини қамраб олган фанларнинг улуши пастлиги соҳада маданиятлараро компетенцияларни ривожлантиришга тўсиқ бўлмоқда. **Компетенциявий моделни такомиллаштириш учун қуйидаги йўналишлар устувор аҳамиятга эга:**

Ижодий компетенциялар – мусиқа ижроси, композиция ва импровизация каби фаолият турларини ўз ичига олади. Айниқса, мактаб ёшидаги болалар билан ишлайдиган ўқитувчи учун болалар мусиқасини креатив қайта ишлаш ва ижро этиш кўникмалари зарур ҳисобланади.

Педагогик компетенциялар – таълим психологияси, таълим методикаси, дидактика ҳамда бағрикенгликка асосланган ўқитиш маҳоратини қамраб олади. Сўнгги йилларда педагог кадрлар салоҳиятини ошириш мақсадида касбий малака ошириш курслари сони кўпайган бўлса-да, уларда мусиқага ихтисослашган модуллар етарли эмаслиги маълум бўлди.

Ахборот-коммуникация компетенциялари – мультимедиа ускуналарида фойдаланиш, рақамли платформалар ва онлайн дарсларни ташкил этиш кўникмаларини ўз ичига олади. 2022 йилда ўтказилган “Ёш мутахассислар салоҳияти” мониторинги натижасида, мусиқа таълими соҳасида фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг бор-йўғи 31 фоизи рақамли таълим платформаларида мустақил курс тузиш кўникмасига эга экани аниқланган [6].



2-расм. Мусиқа ўқитувчиларининг рақамли таълим платформаларида мустақил курс яратиш бўйича салоҳияти (фоизда).

Маданиятлараро компетенциялар – миллий ва жаҳон мусиқа меросини ўрганиш, турли маданият ва анъаналарни инобатга олган ҳолда таълим жараёнини ташкил этиш малакаларини қамраб олади. Ўзбекистоннинг кўпмиллатли жамияти шароитида бу компонент айниқса муҳим ҳисобланади. Афсуски, ҳозирги ўқув дастурларида интеркультурали муҳитда фаолият юритишга оид фанлар деярли мавжуд эмас.

Шу билан бирга, мутахассисларнинг аксарияти таълим жараёнида ижодий фаолият ва педагогик маҳорат ўртасидаги боғлиқликни кучайтириш зарурлигини таъкидламоқдалар. Масалан, 2024 йил бошларида Тошкент давлат санъат ва маданият институтида ўтказилган семинарда иштирок этган 100 нафар мусиқа ўқитувчисидан 78 нафари таълим жараёнига ижодий лойиҳаларни интеграция қилишни муҳим, деб баҳолаган [7].

МУҲОКАМА

Мусиқа таълимида компетенциявий моделни такомиллаштириш назарий билимлар ва амалий кўникмалар ўртасидаги мувозанатни таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Амалий таълим жараёнидаги мувозанат мутахассиснинг касбий салоҳиятини шакллантириш, уни амалиётга тайёрлаш ва меҳнат бозорида рақобатбардош кадр сифатида етишишида муҳим омил ҳисобланади. Компетенциявий ёндашувнинг моҳияти – фақат назарий билим бериш эмас, балки берилган билимни амалиётда қўллаш маҳоратини шакллантиришдан иборат. Мусиқа соҳасида эса бу жараён талабаларда ижро, композиция, импровизация, мусиқа таҳлили ҳамда мультижанр муҳитда фаолият юритиш салоҳиятини ривожлантиришни ўз ичига олади.

Халқаро тажриба – хусусан, Финляндия, Жанубий Корея ва Япония моделлари – шуни кўрсатадики, мусиқа таълими жараёнида талабаларнинг мустақил ижодий фаоллигини рағбатлантириш, креатив муҳит яратиш ва ўқитувчининг анъанавий “ахборот манбаи” ролини “илҳомлантирувчи раҳбар”га ўзгартириш устувор вазифа сифатида белгилаб олинган [8]. Масалан, Финляндияда мусиқа таълими бўйича янги ўқув дастури асосан ижодий мезонларга таянади – у мусиқий креативлик ва импровизацияга урғу қаратиб, назария, ансамбль ва асбобда ижро машғулотларини бир-бирига яқинлаштиради

Амалий жиҳатдан қарайдиган бўлсак, Финляндияда мусиқа таълимида фанларнинг ярмидан зиёди креатив лойиҳаларга асосланган бўлиб, ҳар бир талабадан шахсий репертуар, ансамблда ижро тажрибаси ва композицион ишларни амалга ошириши талаб этилади [9]. Жанубий Кореяда эса рақамли технологиялар, AR/VR воситалари ва интерактив платформалар мусиқа таълими жараёнининг ажралмас қисмига айланган [10]. Ўзбекистонда ҳам кейинги йилларда мусиқа таълими соҳасида муайян ислохотлар амалга оширилмоқда. Қатор олий таълим муассасалари – жумладан, Тошкент давлат санъат ва маданият институти, Қорақалпоқ давлат университети ва Андижон давлат университети – ўз ўқув дастурларига компетенциявий ёндашув элементларини киритишни бошладилар [11]. Бироқ бу жараён кўп ҳолларда алоҳида ташаббуслар

доирасида амалга оширилмоқда ва ҳали тўлиқ институционал даражада интеграция қилинмаган. Яъни, умуммиллий даражада таълим стандартлари, малака талаблари, фанлар модуллари ва баҳолаш мезонларида компетенциявий ёндашувнинг тизимли жорий этилиши таъминланмаган. Шу боис, амалдаги моделни қайта кўриб чиқиш зарур. Хусусан, амалий машғулотларнинг улушини сезиларли ошириш (ҳозирги ўртача 25–30% ўрнига камида 45–50% гача), янги педагогик технологияларни (масалан, STEAM-таълим, лойиҳага асосланган ўқитиш, инклюзив методлар) жорий этиш ва таълимни рақамлаштириш имкониятларини кенгайтириш (муסיқа таҳлили учун аудиовизуал платформалар, нота таҳрирлаш дастурлари, виртуал ижро муҳитлари кабиларни жорий қилиш) бугунги куннинг долзарб вазифаларидир [12].

Шунингдек, замонавий муסיқа ўқитувчиси нафақат ижро ва ўқитиш маҳоратини, балки мультимедиа саводхонлигини ҳам эгаллаши зарур – бу эса таълимни ахборот-коммуникация технологиялари билан чуқур интеграция қилган ҳолда ташкил этишни талаб қилади. Айни пайтда Ўзбекистон олий таълим муассасаларида муסיқа мутахассислиги бўйича дарс берувчи ўқитувчиларнинг тахминан 30–35% гина махсус муסיкий дастурлар (масалан, Sibelius, Finale, GarageBand, Soundtrap каби)дан фойдаланиш кўникмасига эга [13]. Бу кўрсаткичларни ошириш учун ўқитувчиларнинг рақамли саводхонлигини янада ривожлантириш талаб этилади.

ХУЛОСА

Тадқиқот натижалари шуни тасдиқлайдики, муסיқа таълими соҳасида компетенциявий ёндашувни жорий этиш ва такомиллаштириш бугунги кун талаби ҳисобланади. Замонавий меҳнат бозори шароитида фақат назарий билимга эга мутахассислар эмас, балки ижодий мустақилликка, ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш қобилиятига, маданиятлараро мулоқотга тайёр ва педагогик жиҳатдан етук кадрларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Жаҳон бозорида танқидий ва креатив фикрлаш, ташаббускорлик, ҳамкорликка лаёқат каби кўникмалар юқори кадрланмоқда ва бундай компетенциялар айнан муסיқа таълими орқали ривожланиши мумкинлиги таъкидланмоқда.

Ўтказилган амалий таҳлиллар – хусусан, Ўзбекистоннинг етакчи олий таълим муассасаларидаги эмпирик тадқиқотлар – амалдаги ўқув дастурлари аксарият ҳолларда умумий педагогик фанларга асослангани ва соҳанинг ижодий ҳамда технологик хусусиятларини тўлиқ қамраб ололмаётганини кўрсатди. Бу ҳолат талабаларнинг ижодий салоҳиятини тўлиқ ривожлантиришига, рақамлашган муҳитда мустақил фаолият олиб боришига ҳамда халқаро стандартларга мос малакаларни эгаллашига тўсқинлик қилмоқда. Халқаро тажриба (хусусан, Финляндия ва Жанубий Корея моделлари) таълим жараёнида талабаларнинг ижодий фаоллигини рағбатлантириш, креатив муҳит яратиш ва рақамли технологиялардан комплекс фойдаланиш юқори самара беришини тасдиқламоқда.

Ўзбекистонда ҳам кейинги йилларда компетенциявий ёндашув элементлари айрим олий таълим муассасаларида жорий этилмоқда, бироқ уларнинг тўлиқ институционал интеграцияси ҳали таъминланмаган. Шу сабабли таълим стандартлари, фанлар модуллари ва баҳолаш тизимларини қайта кўриб чиқиш, амалий машғулотлар улушини кескин ошириш ва таълим жараёнини рақамлаштириш имкониятларини кенгайтириш талаб этилади. Зеро, ўқитувчиларнинг ахборот-коммуникация технологиялари бўйича салоҳиятини ошириш, уларни замонавий дастурлар ва рақамли платформаларда мустақил фаолият олиб боришга тайёрлаш ҳам устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, компетенциявий моделнинг тўлиқ ва изчил жорий этилиши нафақат таълим жараёни сифатига ижобий таъсир кўрсатади, балки миллий маданиятнинг сақланиши, эстетик тарбиянинг чуқурлашиши ва энг муҳими – рақобатбардош, ижодкор мутахассислар авлодини етиштиришга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, 20 декабрь 2022 йил.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент: Адлия вазирлиги нашриёти, 2020.
3. “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” // Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. – 2020 йил 29 декабрь, №ПҚ–4947.
4. “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. – 2019 йил 18 декабрь, №1059.
5. Абдусаломова Ф. С. Мусиқа таълимида компетенциявий ёндашув асосида педагог кадрлар тайёрлашда инновацион ёндашувлар // Ўзбек санъати ва маданияти. – 2023. – №2. – Б. 24–29.
6. ЮНЕСКО. San’at ta’limi uchun yo‘l xaritasi: XXI asr uchun ijodiy salohiyatni shakllantirish. – Parij: UNESCO, 2006.
7. Finnish National Board of Education. National Core Curriculum for Basic Education in the Arts. – Helsinki: Finnish National Agency for Education, 2017.
8. Kang, S. Y. Competency-Based Music Teacher Education in South Korea // Music Education Research. – 2021. – Vol. 23(4). – P. 437–452.
9. “Ёш мутахассислар салоҳияти” мониторинги ҳисоботи. – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Тошкент, 2022.
10. “Мусиқа таълимида инновацион ёндашувлар” мавзусида семинар материаллари. – Тошкент давлат санъат ва маданият институти. – Январь, 2024.
11. Абдусаломова Ф. С. Мусиқа ўқитувчилари тайёрлашда компетенциявий моделни такомиллаштириш масалалари // Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2023. – Б. 45–50.

12. Муаллиф томонидан Тошкент давлат санъат ва маданият институти, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети ва Қорақалпоқ давлат университетида ўтказилган эмпирик тадқиқот материаллари. – 2023–2024 йиллар.

13. Муаллиф томонидан мусиқа таълими соҳаси мутахассислари ва талабалари ўртасида ўтказилган анкета сўровлари ва интервьюлар натижалари. – 2024 йил.

14. Колесникова И. А. Компетентностный подход в образовании: теория и практика. – Москва: Академический проект, 2020.

15. Lebler, D. Popular Music Pedagogy: A Cultural Approach to Music Learning and Teaching // Music Education Research, 2008, Vol. 10(2), pp. 193–213.

16. Hennessy, S., Ruthven, K., & Brindley, S. Teacher perspectives on integrating ICT into subject teaching // Curriculum Journal, 2005, 16(2), pp. 131–153.

17. Абдуллаева Н.М. Таълим жараёнида компетенциявий ёндашувни амалга оширишда инновацион ёндашувлар // Педагогика фанлари журнал, №3, 2022.

18. Schmidt, P. Democratizing Music Education: International Perspectives. – Bloomington: Indiana University Press, 2017.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

**“PREDMETLI AMALIY TA'LIM” DARSLARIDA VA TARBIYAVIY
MASHG'ULOTLARDA ONA TILIDA MULOQOTGA O'QUVCHILARNI
MOTIVATSIYALASH YO'LLARI**

Sodiqov Muhammadali Abdullaxat o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti
muhammadlisodiqov3@gmail.com

Annotatsiya: Maqola kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni maktab ta'limidan keyingi ta'limga jalb etilishi yoki muayyan kasb bilan shug'ullanishini ta'minlashda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Predmet, texnologiya, dars, mehnat, tarbiya, qo'l mehnati

Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar ham jamiyatning turli munosabatlarida ishtirok etish ko'nikmalarini oila va ta'lim muassasalarida egallaydilar. Biroq aksariyat oilalar mazkur toifa bolalarni avaylab, o'z vaqtida kerakli jarayon (jamoaga yaqinlashtirish, o'ynatish, turli faoliyatlarni birga bajartirish, uy yumushlarini taqsimlash, o'z-o'zini boshqarish va namoyon qilish)ga jalb qilmaydilar. Natijada kar bola maktab ta'limiga jalb etilganida bog'chaga kelgan sog'lom boladek mustaqil o'z-o'ziga xizmat va oddiy murojaatlarga o'rgatiladi. Sekin-asta umumiy yashaydigan joy qoidalari va tartibini o'zlashtirishga kirishadilar. Bundan tashqari ular qator o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

“Predmetli amaliy ta'lim” (boshlang'ich sinflarda), “Texnologiya” (yuqori sinflarda) fani kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida asosiy fanlardan biri bo'lib, unda o'quvchilarning aqliy, nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridan har tomonlama optimal foydalanish uchun sharoit yaratiladi. “Predmetli amaliy ta'lim” darsi o'z mazmunida ham tilga o'rgatishning, ham mehnat fanining talablarini aks ettiradi. Shu bilan bog'liq holda ushbu darsda nutqiy muloqotning ustuvorligi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar atrofida narsa va hodisalar haqida o'ziga xos tasavvurga ega bo'lib, ularni amaliy egallaydilar. O'quvchilar “Predmetli amaliy ta'lim” darsi orqali atrof-muhit haqidagi bilimlarni, hayotiy tajribalarni o'zlashtiradilar. Tabiat va jamiyatda shunday tushunchalar mavjudki, ularni bevosita tushuntirishdan ko'ra, tayyor ko'rgazmali holatda o'quvchilarga yetkazish qulaydir. Shunday qilib, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning jamiyatga uyg'unlashuvi uchun zamin bo'lib hisoblangan holda “Predmetli amaliy ta'lim” darsi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Umumta’lim fanlarini egallashda muhim bo‘lgan lug‘at zaxirasi (tushuncha va tasavvurlar)ni shakllantirish.
2. Tilni tafakkur quroli va muloqot vositasi sifatida egallashga o‘rgatish.
3. Ta’limning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish.
4. O‘quvchilarning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish.
5. O‘quvchilarda ijodkorlikni va loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limiga differensial yondashuvlarni tatbiq etish va korreksion ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olishda umumta’lim va korreksion fanlarning maqsad va vazifalarini aniqlash, to‘g‘ri yo‘naltirish zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalar o‘quv fanlari talablarini sog‘lom bolalarga nisbatan uzoq muddatda va maxsus tayyorlangan o‘quv materiallari orqali egallaydilar. Buning uchun maxsus maktab-internatlarda umumta’lim maktablaridan farqli holda maxsus korreksion mashg‘ulotlar qo‘shimcha tashkil etiladi.

Korreksion mashg‘ulotlar o‘quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Texnologiya darslarida o‘quvchilarda uchraydigan ikkilamchi nuqsonlar (ruhiy muammolar: diqqatning tarqoqligi, xotira va irodaning sustligi, so‘z-mantiqiy tafakkurning yetishmasligi, qaysarlik, odamovilik, o‘jarlik, qo‘rqoqlik, dangasalik, giperaktivlik...)ning korreksiya ishlari orqali bartaraf etilishi yoki ma’lum darajada yumshatilishiga erishish imkoniyati boshqa umumta’lim fanlariga nisbatan ko‘proqdir. Chunki bu darsda o‘quvchilarning turli faoliyatlarini birdaniga safarbar etish mumkin. Dars erkin ijodiy muhitda tashkil etilsa, o‘quvchilar o‘zlarini tabiiy vaziyatda qanday tutsalar, darsda ham shunday tutish mumkinligini his qilgan holda topshiriqlarni bajaradilar. Bu esa ularda o‘quv va harakat motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuning uchun o‘quvchilarda uchraydigan ayrim jismoniy va ruhiy muammolar o‘z-o‘zidan tadrijiy tarzda sezilmay qolishiga erishiladi. O‘quvchilar o‘zlarini to‘liq safarbar etishga o‘rganadilar.

Amaliyotdagi kuzatishlar va olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida biz o‘qituvchilarga o‘quvchilarning quyidagi toifalarini ajratishni tavsiya qildik, ya’ni sinf o‘quvchilarini mehnat darslaridagi ishtirokiga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Mehnat harakatlarini bajarishga dastlabki urinishda uddasidan chiqa oladiganlar. Bunday o‘quvchilar orasida umuta’lim fanlarini muvaffaqiyatli egallaganlar ham yoki boshqa fanlarga qiziqishi past o‘quvchilar ham bo‘lishi mumkin. Biroq ular mehnat darslarida talab etiluvchi harakatlarni qirqish, yelimlash, o‘lchash, rasm chizish va b. ni muvaffaqiyatli bajarishlari mumkin. Bunday o‘quvchilar darsdan tashqari paytlarda tabiiy vaziyatlarda ham bu harakatlarni o‘z-o‘zidan qiziqqanidan bajarishga kirishadilar.

2. Mehnat harakatlarini baho uchun tez va samarali bajaradiganlar. Bunday o‘quvchilar darsda topshiriqlarni bajarish talab etilgandagina faol ishtirok etadilar va darsdan tashqari paytlarda ularda bu harakatlarga qiziqish mavjud bo‘lmaydi.

Darsda so‘ralgan harakatlarni bajarishga intiladilar, biroq qo‘shimcha yordam talab etiladi. Dars davomida bunday o‘quvchilarga mehnat harakatlarini takror-takror holda bajartirish talab

etiladi. Topshiriqlarni takroran va mustaqil bajartirish buyum tayyorlashda yohud ishni boshlash va oxiriga yetkazishda muvaffaqiyatga erishish omilidir.

1925 yil eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limi bo‘yicha Xalqaro konferensiyada A.S.Vigotskiy shunday ta’kidlagan: “Aynan mehnat ta’limi va tarbiyasini qo‘llash karlarni o‘qitishdagi barcha qiyinchiliklardan chiqib ketish yo‘lidir. Asosiysi, mehnat tarbiyasi hayotga eng yaxshi yo‘l, u ilk yoshdanoq hayotda faol ishtirok etish uchun garovdir. Shuning uchun u kar bolani barcha narsa, muloqot, nutq, idrok bilan qurollantiradi¹⁸.

Bir tomondan mehnat darslari boshqa o‘quv fanlarida zarur bo‘ladigan ma’lum bilimlarni beradi hamda boshqa darslarda olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Bunday aloqani o‘rnatish pedagogik jarayonni to‘g‘ri va samarali tashkil etishda muhim omildir.

Qo‘l mehnati nafaqat ta’limiy ahamiyat kasb etadi, balki o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat darsi tashkiliy bosqichdan boshlanadi. Keyin o‘quvchilar o‘qituvchining turli vazifalarini bajaradi: **plastilinni yumshat, dumaloq yasa, yassila, rangli qog‘ozdan uchburchak, doira va to‘rtburchak qirq va kartonga yopishtir.**

O‘tilgan mavzuni takrorlashga yo‘naltirilgan mazkur vazifalarni bajargandan so‘ng, o‘qituvchi darsda o‘quvchilar nimalar bilan band bo‘lishini e’lon qiladi. O‘qituvchi dastlab ish qurollari va materiallarni mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida tanlashni so‘raydi. So‘ng buyumni yasash jarayonini o‘z harakatlari bilan ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning harakatlarini takrorlaydilar. Ishni bajarish ketma-ketligi doskadagi yozuvda, 2-sinfdan o‘quvchilar daftarlarida o‘z aksini topishi kerak. Bu ta’limning keyingi yillarda o‘quvchilarga ko‘rsatma kartalari bo‘yicha oson ishlash imkonini beradi. Qo‘l mehnati o‘quvchilarni umumtexnikbilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga tayyorlaydi. Mehnat ta’limining turli bosqichlarida bu umumiy vazifa turlicha hal etiladi. 1-bosqichda (1-4-sinflar) o‘quvchilar mehnat savodxonligini, oddiy mehnat harakatlari: qirqish, yopishtirish, surtish, o‘lchash, ish jihozlari va tayyorlanadigan buyumlarning nomini aytish va daktil-og‘zaki tarzda aytish, aytganlarini yozish; 2- bosqichda (5-8 sinflar) umumiy texnik tayyorgarlikni: o‘g‘il va qiz bolalar mehnati yo‘nalishlari bo‘yicha mehnat harakatlarini bajarish, aytish, hisobot berish; 3-bosqichda (9-10 sinflar) kasbiy mehnat bilimi va tegishli malakalarni egallaydilar. Mehnat ta’limi umumtexnik ta’lim bosqichida umumiy o‘quv-tarbiyaning maqsadi asosida amalga oshadi. Bu mehnatning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish va qo‘llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu darsda o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi. Albatta, dastlabki muloqot turli imo-ishoralar, harakatlardan iborat bo‘lsa, ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng ular o‘zaro maqsadli (daktil-og‘zaki, og‘zaki va 2-sinfdan boshlab, yozma tarzda) muloqot qilishga o‘rganadilar. Predmetli amaliy ta’lim darsi jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro muloqotiga kengroq imkoniyat yaratiladi. Nutqiy murojaatlar, muloqotlar shakllanib, daktil nutqqa o‘qitilib, tovushlarning qo‘yilishi amalga oshirilgandan so‘ng, o‘quvchi nutqining tushunarliklik darajasi oshadi va maydoni kengayadi. Predmetli amaliy ta’lim darsi esa, shu daraja va shu maydon uchun asosdir.

Bu fikr sinf o‘qituvchisi, tarbiyachisi uchun predmetli amaliy ta’lim darsining shiori bo‘lmog‘i kerak. Ya’ni o‘qituvchi, tarbiyachi predmetli amaliy faoliyat va u asosida so‘zlashuv muloqotining rivojlanishini anglashi, his qila bilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Убайда Файзиева “эшителида муаммолари кулган болаларга она тили ўкитиш методикаси” – “Tafakkur” nashriyoti Toshkent -2011
2. Л. С. Васильева, л. И. Книшева, м. А. Султонова “Talaffuz” Toshkent O‘qituvchi – 1995
3. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. Science and innovation, 1(B6), 125-130.
4. Nargiza, Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА LOGOPED ISHINING OLIV BORILISHI. PEDAGOGS jurnali, 22(2), 52-54.
5. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 295-298.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Dauletmuratova Bayramgul Maxsetbay qizi

*2-bosqich tayanch doktoranti, Ajiniyoz nomidagi
Nukus davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya Maqolada raqamli savodxonlikning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Nazariy tahlillar va empirik ma'lumotlar asosida ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etish ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi asoslangan. Raqamli muhit sharoitlari va kreativ makonni tashkil etishda pedagogning roliga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda raqamli yechimlarning samaradorligini ko'rsatuvchi tadqiqot usullarining tavsifi va olingan natijalarning tahlilini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: raqamli savodxonlik, kreativlik, boshlang'ich maktab, raqamli muhit, AKT, kreativ fikrlash.

Abstract The article examines the impact of digital literacy on the development of primary school students' creative abilities. Based on theoretical analysis and empirical data, it is substantiated that the introduction of digital tools into the educational process contributes to the development of creative thinking. Special attention is paid to the conditions of the digital environment and the role of the teacher in organizing the creative space. The article includes a description of research methods and an analysis of the obtained results demonstrating the effectiveness of digital solutions in teaching primary school students.

Keywords: digital literacy, creativity, primary school, digital environment, ICT, creative thinking.

Аннотация В статье рассматривается влияние цифровой грамотности на развитие креативных способностей младших школьников. На основе теоретического анализа и эмпирических данных обосновывается, что внедрение цифровых инструментов в образовательный процесс способствует развитию творческого мышления. Особое внимание уделено условиям цифровой среды и роли педагога в организации креативного пространства. Статья включает описание методов исследования и анализ полученных результатов, демонстрирующих эффективность цифровых решений в обучении младших школьников.

Ключевые слова: цифровая грамотность, креативность, начальная школа, цифровая среда, ИКТ, творческое мышление.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarni tez o‘zgaruvchan raqamli dunyoda yashashga tayyorlash muammosiga duch kelmoqda. O‘quvchining moslashuvchanligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini ta’minlashga qodir bo‘lgan XXI asrning universal ko‘nikmasi sifatida kreativ qobiliyatlarni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli savodxonlikning ahamiyati ortib bormoqda, bu nafaqat qurilmalarga texnik egalik qilishni, balki ma’lumot izlash, aloqa, kreativlik va o‘zini ifoda etish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [UNESCO; p. 17 - 2018]. Tadqiqotchilar raqamli savodxonlik va ijodkorlik, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda asosiy kognitiv va shaxsiy munosabatlar shakllanadigan sharoitlarda uzviy bog‘liq ekanligini tobora ko‘proq ta’kidlamodalar.

A.Kraft ta’kidlaganidek, kreativlik bolaga resurslar, tanlov va mustaqil harakat qilish imkoniyatini beradigan ta’lim muhitida rivojlanadi, aynan raqamli muhit ta’minlaydi [Craft A.; p. 31 - Routledge, 2005]. Xuddi shunday nuqtayi nazarni M.A. Ranko ham qo‘llab-quvvatlaydi, u kreativ fikrlash tashqi rag‘batlantirish sharoitida, mazmunli va texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lganda faollashadi, deb ta’kidlaydi [Runco M.A.; p. Elsevier, 2007].

Bularning barchasi bizni ushbu maqolaning maqsadiga - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida raqamli savodxonlikning ahamiyatini nazariy asoslash va eksperimental ma’lumotlar asosida tahlil qilishga olib keladi.

USULLAR

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun nazariy tahlil va raqamli savodxonlik ijodkorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shishi haqidagi gipotezani empirik tekshirishni birlashtirgan keng qamrovli tadqiqot o‘tkazildi.

Nazariy darajada kreativlikni tushunishga yondashuvlar Gilford, Torrens, Vigotskiy, shuningdek, raqamli savodxonlik pedagogik hodisa sifatida zamonaviy qarashlar YUNESKO, Kraft, Ranko ilmiy mehnatlarida o‘rganildi. Raqamli vositalar va bolaning shaxsiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradigan ishlarga alohida e’tibor qaratildi [Guilford J.P.; p. American Psychologist, 1950; Torrance E.P.; p. 23 - Scholastic Testing Service, 1974].

Tadqiqotning empirik bosqichi quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oldi:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va ato-anolar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish (O‘zbekistonda o‘zimiz tajriba-sinov o‘tkazadigan hududlar bo‘yicha);

Torrens testini qo‘llagan holda 2-4-sinflardagi 98 nafar o‘quvchilarda kreativlikni tashxislash (raqamli topshiriqlarni joriy etishdan oldin va keyin);

raqamli muhitda (Padlet, Canva, Google Jamboard) o‘quvchilar faoliyatini pedagogik kuzatish;

YUNESKO mezonlari bo‘yicha o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasini baholash.

Miqdoriy va sifatli usullarning ushbu kombinatsiyasi nafaqat raqamli kompetensiyalar va ijodkorlik o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlash, balki raqamli muhitning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga ta’sir mexanizmlarini tushunish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari raqamli savodxonlikning ijodkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta’siri haqidagi farazni tasdiqlaydi:

Kreativlik darajasi (Torrens bo‘yicha) sezilarli darajada oshdi: agar raqamli topshiriqlar joriy etilishidan oldin o‘quvchi past darajani ko‘rsatgan bo‘lsa, undan keyin ko‘rsatish darajasi ancha yuqori natijaga ko‘rsatdi. Ayniqsa, “o‘ziga xoslik” va “fikrlashning moslashuvchanligi” mezonlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar oshdi.

Raqamli vositalar ijodkorlikning turli jihatlarini faollashtirdi:

Canva, Paint 3D - tasavvurni, kompozitsiya tuyg‘usini, vizual yechimlarning nostandartligini rivojlantirdi;

Google Jamboard - spontan jamoaviy ijodkorlikka hissa qo‘shgan;

Padlet va Miro - g‘oyalar va kontseptual aloqalarni tuzishda yordam berishdi.

O‘quvchilarda motivatsiya va faollikning oshishi kuzatildi. Bu, ayniqsa, an’anaviy darslarda faollik ko‘rsatmaganlarda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Pedagoglarning ta’kidlashicha, raqamli muhit turli xil fikrlash uslublari bilan ishlash imkoniyatlarini ochadi: vizual, fazoviy, assotsiativ.

Shunday qilib, raqamli savodxonlikni o‘quv jarayoniga integratsiyalash nafaqat o‘qituvchining metodik arsenalini boyitadi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini nazariy modellar bilan taqqoslab, bir nechta xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, raqamli savodxonlik o‘quvchi faoliyati chegaralarini kengaytirish orqali kreativlikka bilvosita, ammo barqaror ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalardan foydalanish tanlash, o‘zini namoyon qilish, vazifalarni o‘zgaruvchan hal qilish uchun sharoit yaratadi - bu esa, Kraftning fikricha, ijodiy xulq-atvorning asosiy shartlaridir [Craft A.; p. Routledge, 2005].

Ikkinchidan, tadqiqot ma’lumotlari Rankoning ijodkorlik tug‘ma xususiyat emas, balki shaxsning kontekst bilan o‘zaro ta’siri natijasi degan tezisini tasdiqlaydi [Runco M.A.; p. Elsevier, 2007]. Shu nuqtayi nazardan, raqamli muhit kreativ qobiliyatlarning katalizatori sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, pedagogning raqamli muhit mediatori sifatidagi rolini ta’kidlash lozim. O‘qituvchining maqsadli hamrohligisiz hatto eng zamonaviy vositalar ham kutilgan samarani bermaydi [Lenzen W.; S. 88 - Beltz Verlag, 2001].

Nihoyat, tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, raqamli savodxonlik, ayniqsa boshlang‘ich maktabda, kreativlikdan alohida ko‘rib chiqilmasligi kerak. Bu ikki komponent bir-birini o‘zaro kuchaytirishi mumkin va lozim.

XULOSA

Jamiyatni jadal raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirish raqamli savodxonlikni faol rivojlantirishsiz mumkin emas. O‘qitishda AKTdan foydalanish yangi ifoda kanallarini ochadi, fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot raqamli vositalarning integratsiyasi, ayniqsa, boshlang‘ich maktabda ijodkorlikni rivojlantirishga yordam berishini tasdiqlashga imkon berdi. Biroq, barqaror natijaga erishish uchun tizimli metodik ishlar va o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini doimiy ravishda oshirish zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikning turli shakllarini (vizual, og‘zaki, fazoviy va boshqalar) rivojlantirishga qaratilgan aniq raqamli dasturlar va platformalarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni
2. Craft A. Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. - London: Routledge, 2005. - 192 p.
3. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5, №9. - P. 444-454.
4. Lenzen W. Kreativität im Schulalltag: Wege zur Förderung von Fantasie und Gestaltungskraft. - Weinheim: Beltz Verlag, 2001. - 207 S.
5. Runco M.A. Creativity. Theories and Themes: Research, Development, and Practice. - Burlington: Elsevier Academic Press, 2007. - 312 p.
6. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. - Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974. - 96 p.
7. UNESCO. A Global Framework of Reference on Digital Literacy Skills for Indicator 4.4.2. - Paris: UNESCO, 2018. - 64 p.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

AUTIZM SPEKTR BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI PSIXOKORREKSIYALASH YO‘LLARI

Babajanova Dildora Xusinbayevna

Alfraganus universitey

Defektologiya yo‘nalishi talabasi

+998938660784

dildora1084@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada autizm spektr buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalarning emotsional rivojlanish jarayoniga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. Emotsional idrok, affektiv reaksiyalar va o‘z his-tuyg‘ularini anglash kabi omillarning autizimli bolalardagi tipik ko‘rinishlari yoritiladi. Shuningdek, ASB holatlarida emotsional rivojlanishning buzilish mexanizmlari ilmiy manbalar asosida bayon etiladi. Maqolada psixokorreksion ishlar jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar – xususan, emotsional-intellektual trening, sensor-integrativ terapiya, art-terapiya va kognitiv-behavioral terapiyaning samaradorligini ko‘rsatib beriladi. Amaliy tavsiyalar asosida psixokorreksion dastur elementlari ham ishlab chiqiladi. Mazkur maqola defektolog, psixolog va logoped mutaxassislar uchun nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Kalit so‘zlar: autizm spektr buzilishi, emotsional rivojlanish, psixokorreksiya, bolalar psixologiyasi, sensor integratsiya, kognitiv-behavioral terapiya

Abstract This article explores the psychological characteristics of emotional development in children with Autism Spectrum Disorder (ASD). The paper analyzes key aspects such as emotional perception, affective responses, and self-awareness of emotions in autistic children. The author highlights the neuropsychological mechanisms underlying emotional difficulties and delays typically observed in ASD cases. Furthermore, the article reviews effective modern psycho-correctional approaches including emotional-intellectual training, sensory integration therapy, art therapy, and cognitive-behavioral interventions. Based on practical experience and literature analysis, elements of a psycho-correctional program are proposed. This work may be of interest to specialists in psychology, speech therapy, and special education seeking theoretical insights and applied strategies in the field of ASD.

Keywords: autism spectrum disorder, emotional development, psycho-correction, child psychology, sensory integration, cognitive-behavioral therapy

Аннотация В данной статье рассматриваются психологические особенности эмоционального развития детей с расстройствами аутистического спектра (РАС). Анализируются ключевые аспекты, такие как восприятие эмоций, аффективные реакции и осознание собственных чувств у детей с аутизмом. Автор раскрывает нейропсихологические механизмы, лежащие в основе эмоциональных нарушений, типичных для РАС. Кроме того, представлены современные психокоррекционные подходы, включая эмоционально-интеллектуальные тренинги, сенсорную интеграцию, арт-терапию и когнитивно-поведенческую терапию. На основе анализа теоретических и практических источников предлагаются элементы психокоррекционной программы. Статья представляет интерес для специалистов в области психологии, логопедии и специального образования.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, эмоциональное развитие, психокоррекция, детская психология, сенсорная интеграция, когнитивно-поведенческая терапия

So‘nggi yillarda jahon va mahalliy miqyosda autizm spektr buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalar sonining ortib borayotgani dolzarb muammolardan biriga aylangan. Autizm – bu nevrologik rivojlanishdagi murakkab buzilish bo‘lib, u bolalarning ijtimoiy muloqoti, nutqi, emotsional ifodasi va moslashuvchan xulq-atvori bilan bog‘liq ko‘plab cheklovlarni keltirib chiqaradi. ASB holatlarida, ayniqsa, emotsional sohaning rivojlanishi an‘anaviy rivojlanayotgan bolalarnikidan sezilarli darajada farqlanadi. Bunday bolalarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarning emotsiyalarini tushunish, javob reaksiyalarini ifodalash qiyin kechadi. Bu esa ularning kundalik ijtimoiy hayotga moslashuvini murakkablashtiradi.

Ilmiy manbalarda autizmli bolalarda emotsional rivojlanishning buzilishi miyaning limbik tizimi, amigdala va prefrontal korteksdagi neyrobiologik o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, bu buzilishlar nafaqat biologik, balki psixologik va pedagogik omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Emotsional rivojlanishdagi kechikishlar bolaning kommunikatsion salohiyati, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda mutaxassislar autizmli bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun turli psixokorreksion metodlarni ishlab chiqmoqdalar. Ular orasida art-terapiya, sensor integratsion mashg‘ulotlar, emotsional-intellektual treninglar, shuningdek, kognitiv-behavioral terapiya (KBT) kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur maqolada aynan autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarning emotsional rivojlanishidagi xususiyatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda psixokorreksion yondashuvlarning samaradorlik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat psixologlar va defektologlar, balki logopedlar, pedagoglar hamda ota-onalar uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ASB bo‘lgan bolalarga ko‘mak berishda yangi yondashuvlar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Autizm spektr buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalar emotsional rivojlanishning barcha bosqichlarida o‘ziga xos kechikishlar yoki buzilishlar bilan ajralib turadi. Ularning emotsional reaksiyalari tez-tez stereotip, sun‘iy yoki cheklangan bo‘ladi. Ko‘p hollarda bu bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda eta olmaydi yoki atrofdagilar his-tuyg‘ularini tushunishda qiynaladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ASB bo‘lgan bolalarning aksariyati emotsional mimikani (yuz ifodasi), ovoz ohangini yoki tana tilini sezish va anglashda qiyinchilikka duch keladi.

Shuningdek, ular uchun empatiya darajasi past bo‘lishi, ya‘ni boshqalar his qilayotgan tuyg‘ularni sezish va ularga nisbatan munosabat bildirish qobiliyatining cheklangani kuzatiladi. Natijada ijtimoiy aloqalar sustlashadi, dushmanona yoki begonalik kayfiyati paydo bo‘ladi. Bu esa bolaning maktabgacha yoki maktabdagi o‘qish jarayonida o‘qituvchi va tengdoshlari bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

ASB bo‘lgan bolalarda emotsional rivojlanishdagi buzilishlarning sabablari murakkab va ko‘p omillidir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu buzilishlar quyidagi omillar bilan bog‘lanadi:

Neyrobiologik omillar: miya tuzilmasidagi o‘zgarishlar, xususan, amigdala va prefrontal korteks faoliyatidagi nomutanosibliklar. Bu miya qismlari emotsional tahlil, muvofiqlashtirish va boshqaruvga javobgardir.

Genetik omillar: ASB genetik asosga ega bo‘lib, ba‘zi oilalarda ushbu holat avloddan avlodga o‘tishi kuzatiladi. Bu esa biologik predispozitsiyani ko‘rsatadi.

Sensor buzilishlar: emotsiyalarni qabul qilish va qayta ishlashdagi buzilishlar ko‘pincha sensor integratsiyaning buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bolaning sezgi tizimi haddan tashqari sezuvchan yoki aksincha, sezgirlikdan mahrum bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy izolyatsiya: autizimli bolalar ko‘pincha ijtimoiy muhitdan yakkalanib qolgan bo‘ladi. Ularning ijtimoiy stimullarga (masalan, ko‘z bilan aloqa, quvonch ifodasi, tasalli berish) reaksiyasi zaif bo‘lgani uchun, emotsional o‘zaro ta‘sir shakllanmaydi.

Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va uni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun psixokorreksion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy metodlarni quyidagicha tavsiflashimiz mumkun:

Art-terapiya: rasm chizish, loydan yasalgan shakllar, ranglar bilan ishlash orqali bola o‘z emotsiyalarini xavfsiz va ijobiy shaklda ifoda eta boshlaydi. Bu usul emotsional bo‘shashish va o‘zini anglashga yordam beradi.

Sensor integratsiya mashg‘ulotlari: bu metodlar bola sezgi tizimining faoliyatini tartibga soladi. Maxsus mashqlar yordamida bolaning tashqi sezgilarga nisbatan munosabatlari me‘yorga tushiriladi.

Kognitiv-behavioral terapiya (CBT): bu yondashuv orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni ifoda qilish va boshqarish ko‘nikmalarini egallaydi. KBT jarayonida bolaning xulqi, emotsiyasi va fikrlari ustida ishlanadi.

Emotsional-intellektual treninglar: bu metod bolaga emotsiyalarni nomlash, farqlash, tan olish va boshqalar emotsiyalarini tushunish kabi muhim ijtimoiy-ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu usullar yakka tartibda emas, balki kompleks holda, bolaning yoshi, rivojlanish darajasi va ASB turiga qarab tanlanadi. Shuningdek, ota-onalarning ishtiroki ham muhim bo‘lib, ular bilan psixoedukatsiya asosida ishlash tavsiya etiladi.

Quyida biz misol tariqasida amaliy korreksion dasturni ko‘rib chiqamiz.

Amaliy korreksion dastur: “HIS ETAMAN, TUSHUNAMAN, IFODALAYMAN”

Autizm spektr buzilishi bo‘lgan 5–9 yoshli bolalarda emotsiyalarni anglash, ularni ifoda etish va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Vazifalari: Bola tomonidan asosiy emotsiyalar (quvonch, g‘azab, qo‘rquv, afsus, ajablanish)ni tanish va nomlashga o‘rgatish.

O‘z emotsiyalarini ifoda etishning qabul qilinadigan shakllarini shakllantirish.

Boshqalarning mimika va holatlaridagi emotsiyalarni farqlashga o‘rgatish.

Art-terapevtik, o‘yinli va sensor integratsion mashg‘ulotlar orqali emotsional barqarorlikni rivojlantirish.

Qo‘llaniladigan metodlar:

Art-terapiya (bo‘yash, kollaj, plastilin bilan ishlash)

Emotsional mimika bilan o‘yinlar ("Kayfiyat oynasi", "Qaysi holat?")

Sensor stimulyatorlar (qum, teksturalar, tovushli o‘yinchoqlar)

Kognitiv-behavioral yondashuv elementlari

Vizual yordamchilar (emotsiyalar kartochkalari, piktogrammalar)

Dastur davomiyligi: Haftasiga 2 marotaba, har biri 40–45 daqiqalik 7 mashg‘ulot (umumiy davomiylik – 1 oy yarim)

Autizm spektr buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ularning emotsional rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni chuqur anglash, samarali psixokorreksion ishlarni tashkil etish uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, autizimli bolalarda emotsiyalarni anglash, ifoda qilish va boshqalarning his-tuyg‘ulariga munosabat bildirishda jiddiy cheklovlar mavjud bo‘lib, bu holat ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikatsion rivojlanishi va shaxsiy o‘rishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional rivojlanishdagi buzilishlar asosan nevrobiologik omillar (miya faoliyatidagi nomutanosibliklar), genetik predispozitsiya, sensor integratsiyaning buzilishi va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar bilan bog‘liq. Bu omillarni kompleks baholash asosida yo‘naltirilgan psixokorreksion choralar ishlab chiqilishi zarur.

Maqola davomida taklif etilgan “His etaman, tushunaman, ifodalayman” nomli amaliy korreksion dastur orqali bolalarning emotsional idroki, o‘z holatini anglash va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tizimi taklif etildi. Bu mashg‘ulotlar art-terapiya, sensor trening, kognitiv-behavioral yondashuv va emotsional-intellektual trening asosida tashkil etilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlarda individual yondashuv, vizual yordamchilar va emotsional xavfsizlik muhiti muhim

o‘rin tutadi. Bunday yondashuv nafaqat bolalarning emotsional rivojlanishiga, balki ularning umumiy psixologik holatiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqola natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Emotsional rivojlanish buzilishlarini erta aniqlash uchun maxsus diagnostik vositalardan foydalanish zarur;

Psixokorreksion ishlarga nafaqat mutaxassis, balki ota-onalar ham faol jalb etilishi kerak;

Har bir bola uchun individual rivojlanish yo‘li (korreksion xarita) tuzilib, unga mos metodlar tanlanishi lozim;

Inkluziv muhitda ishlaydigan pedagog va psixologlar uchun maxsus trening va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak.

Shu asosda aytish mumkinki, ASB bo‘lgan bolalar uchun emotsional rivojlanishning qo‘llab-quvvatlanishi – ularning shaxs sifatida jamiyatga moslashuvi va to‘laonli hayot kechirishi uchun zaruriy shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алиев, А.Г. (2020). Аутизм: психолого-педагогические проблемы и пути их преодоления. Москва: Педагогическое общество России.

2. Бочавер, К. А., & Мамайчук, И. И. (2017). Психологическая поддержка семей, воспитывающих детей с РАС. Журнал практического психолога, №4, с. 53–62.

3. Grandin, T., & Panek, R. (2013). The Autistic Brain: Thinking Across the Spectrum. Boston: Houghton Mifflin Harcourt.

4. Олий Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 апрелдаги ПҚ–210-сон “Аутизм спектридаги бузилишлари бўлган болаларга кўмак бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

5. Исраилова, Ф.А. (2021). Аутизм спектридаги бузилишлар бўлган болаларда ижтимоий эмоционал қобилиятларни ривожлантиришда коррекцион ёндашувлар. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахбороти, №2, б. 41–47.

6. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed.) – DSM-5. Arlington, VA: American Psychiatric Publishing.

7. Смаилова, Ж.Ж. (2022). Особенности развития речи у детей с расстройствами аутистического спектра. Проблемы специальной педагогики и психологии, №3, с. 89–95.

8. Хусанов, Ш., & Орипова, Н. (2023). Аутизм спектридаги болаларда ижтимоий фаолликни оширишда ўйин технологияларининг ўрни. Ўзбекистон педагогика журнали, №1, б. 112–119.

9. Lord, C., Elsabbagh, M., Baird, G., & Veenstra-Vanderweele, J. (2018). Autism spectrum disorder. The Lancet, 392(10146), 508–520.

10. Мухаммадиева, М.Н. (2020). Нуткида патология бўлган болалар билан коррекцион ишларни ташкил этиш. Тошкент: Нўмон нашриёт.



**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARIDA YUQORI SINIF
O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA TAYYORLASHDA “YASHIL MAKON”,
MONOMARKAZ, KASB-HUNAR MAKTABLARI UMUMMILLIY TIZIMIDAN
FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI**

Abdullayev Farxodbek Xasanovich -
Andijon viloyati maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi mutaxassisi

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston jamiyatining ravnaqi – uning moddiy va ma‘naviy sohalari bilan bevosita bog‘liq. Butun dunyodagi va mamlakatimizdagi global o‘zgarishlar tufayli ijtimoiy hayotdagi, iqtisodiy, ekologiya, demografiya inqirozli vaziyatlarni yengish zamonaviy hayotning mavjud salbiy holatlari bartaraf etiladigan yangi turdagi jamiyatni qurish bo‘yicha davlat va fuqarolarning hamkorlikdagi urinishlarini talab etadi.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash va yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy muammolarini hal etish, band bo‘lmagan, ishsiz aholini mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlariga tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda bandligini ta‘minlash orqali kambag‘al qatlamga tegishli bo‘lgan aholini shu toifadan chiqarish ustuvor vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy, ekologiya, demografiya, ekologik jarayonlar, integratsiya, globallashuv, metodik ta‘minot, kasb-hunarga tayyorlash, innovatsiya.

Kirish

Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish bilan bir qatorda, ish bilan ta‘minlash uchun avvalo ular o‘rtasida tadbirkorlikni keng rivojlantirish bu borada yangi imkoniyatlar yaratish maksadga muvofiqdir.

Bu borada Prezidentimiz Iqtisodiyot vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat raqobat qo‘mitasi Qorakalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar xokimlariga xar bir tuman (shahar) markazida Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etish vazifasi topshirildi.

Anashu klasterlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun elektr energiyasi tabiiy gaz suv va transport kommunikatsiyasi aloqa vositalari va Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo‘lgan xududlarda foydalanilmayyotgan davlat obyektlari yosh tadbirkorlarga “nol” qiymati bilan ijaraga beriladi.

Xotin-qizlar qo‘mitasi faqat “Zulfiyachi qizlar” bilan cheklanib qolmasdan, yurtimizdagi barcha qizlar bilan faol ish olib borishi lozimligi, ayniqsa qizlarimizning xuquq va manfaatlarini

ximoya qilish iste‘dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish ular orasida xaqiqiy yetakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sizlarga ma‘lum. Lekin ko‘plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgani – buham bor gap.

Shu kunlarda bu boradagi tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma‘msulligida amalga oshirilmoqda. Avvalot shuni ta‘kidlash kerakki, eng ustuvor vazifalardan biri sifatida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma‘ruzalari mazmun mohiyatini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish nazarda tutilgani ayniqsa e‘tiborga molik.

Adabiyotlar tahlili

Mahalla raisi mahalla obodligini ta‘minlashi, «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirishi kerak. Har oyda bir marotaba mahalladagi barcha ko‘chalarda ommaviy hashar uyushtirish, kamida 2 ta ehtiyojmand oilaning ta‘mirtalab xonadonida qo‘ni-qo‘shnilarni jalb etgan holda hashar tashkil etish shular jumlasidan. Bundan tashqari, u har chorakda bir marotaba madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarning aholi bilan milliy qadriyatlar va urf-odatlarni saqlash, to‘y-marosimlarni ixcham o‘tkazish bo‘yicha uchrashuvini tashkil etishi, mahallaga biriktirilgan davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etishi, mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodim faoliyatiga umumiy rahbarlik qilishi lozim.

Yoshlar yetakchisi mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jumladan, ularni «Besh tashabbus olimpiadasi»da ishtirok etishga jalb qilishga mas‘ul. Shuningdek, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko‘maklashish uchun «Yoshlar bandligi dasturi»ni mahallada amalga oshirish, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga ko‘rsatiladigan 30 ta yordam turlaridan samarali foydalanishni tashkil etish ham uning zimmasida.

Tahlillar va natijalar

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarini kasb - hunarga tayyorlashni intensiv rivojlantirish pedagogik jihatlarini rivojlantirish modelini qurishda, kasb - hunarga tayyorlashni oshirishiga ta‘sir etuvchi omillar, interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Interfaol («Inter»-bu uzaro, «act» - harakat qilmok) – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. O‘kitishning interfaol metodlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning yangicha shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ular o‘zlari bilgan va o‘ylayotgan fikrlarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol ta‘lim texnologiyalari va metodlari o‘quv mashg‘ulotlarida o‘kituvchiga, O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yunaltirishga olib keladi.

Pedagogik atamalar lug‘atida innovasiya, innovasion ta‘lim, innovasion texnologiya, innovasion o‘qitish tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, unda, innovasiya-yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar deb keltirilgan.

Innovasion ta‘lim - 1) ta‘lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni. Innovasion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni. Innovasion o‘qitish - 1) yangicha o‘qitish tizimi; 2) o‘quvchi va O‘quvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni deb keltirilgan.

Kasblarning guruhleri. Nihoyat, piramidaning oxiridan oldingi qavati – mehnat sharoitlari bo‘yicha kasblar klassifikatsiyasiga to‘xtalib o‘tamiz. Kasblar to‘rtta guruhga bo‘linadi:

1. Odatdagi (“maishiy”) mikroiklim sharoitidagi mehnat (B). Hisobchi, iqtisodchi, chizmach, o‘qituvchi va boshqalarni mana shu kasb gruppasiga kiritish mumkin.

2. Harorat, namlik keskin o‘zgarib turuvchi ochiq havoda ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat (O). Quyidagi kasblar bunga misol bo‘la oladi: quruvchi, o‘t o‘chiruvchi, sug‘oruvchi va boshqalar.

3. Odatdan tashqari mehnat: [yer ostida](#), suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq sexlarda, sog‘liq uchun muqarrar zararli ta‘siri bo‘lgan tsexlarda ishlash (N). Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shaxtyor, g‘avvos va hokazo.

4. Odamlarning sog‘ligi, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne‘matlar uchun oshirilgan ma‘naviy mas‘uliyat bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat (M). O‘qituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muxandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruhiga kiritish mumkin.

Piramidaning to‘rtta-qavati to‘ldirilgan, beshinchisi hozircha bo‘sh qoldirilgan. Bu yerga siz o‘zingiz tanlagan kasbning bir necha harfdan iborat bo‘lgan formulasi shartli belgisini yozib qoyishingiz kerak. Bu harflar siz yoqtirgan kasbning tipiga, turkumiga, bo‘limiga, guruhiga muvofiq keladi.

Masalan, siz o‘simliklar bilan ish olib borishni xohlaysiz, deylik. Siz qo‘l mehnatini yengillashtiradigan ish qurollaridan foydalanib faol ravishda o‘zgartiruvchilik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lasiz. Lekin bunda o‘z mehnatingiz kundalik, oddiy, maishiy sharoitlarga yaqin bo‘lgan bir vaziyatda kechishini istaysiz. Bunday vaqtda siz tanlagan kasbning formulasi shunday bo‘ladi: **PPRB** (“Odam-tabiati” tipidagi kasb, o‘zgartiruvchi [kasblar guruhidan](#), qo‘l mehnati ishlatiladigan kasblardan, mehnat sharoiti – maishiy). Mana shu yo‘nalishda olib borilgan aniq maqsadni ko‘zlovchi izlanishlar mashg‘ulotning konkret turini topishga yordam beradi: masalan, ushbu formulaga tevarak-atrofdagi iqlimdan himoya qilingan tuproq sharoitida (teplitsa xo‘jaligida) ishlovchi meva-sabzavotchi (gulchi) kasbi to‘g‘ri keladi.

Xulosalar

O‘zbekistonda salohiyatli umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbga tayyorlash tizimi azaldan mavjud. Shu bilan birga o‘zbek pedagogik ta‘lim tizimining ijobiy jihatlardan biri, O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan va mehnat bozorining barqaror

bo‘lmagan sharoitida pedagogika ta’lim yurti bitiruvchisi o‘z kasbi bo‘yicha faoliyat yuritmasa ham, shu diplom bilan boshqa sohada o‘z faoliyatini davom ettira olish imkoniyati kengligidir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Атанасян С.Л. Формирование информационной образовательной среды педагогического вуза: автореф. дисс. д–ра пед. наук. – М., 2009.– 49 с.
2. Ахметов Л.Г. Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии; дисс.. д–ра пед.наук. –Казань, 2009. – 52 с.
3. Бородина В А. Психологические основы интерактивных технологий обучения и учения // <file:///C:/Users/acer/Downloads/psiholo-gicheskie--interaktivnyh-tehnologiy-obucheniya-i-ucheniya.pdf>.
4. Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. Дидактические и психологические основания образовательной технологии. [Текст] / Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. /- М. 2003. -С.144-146.



VEB MATERIALLARDAN FOYDALANIB CHET TILLARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Guljahon Karimova
PhD tadqiqotchi

Annotatsiya Mazkur maqola dastlab tahsil jarayonida ta’limda web platformalardan va kompyuterli modellashtirishdan foydalanishning o‘rni hamda ahamiyati tavsifiy mohiyati ochib berilgan. Shuningdek mazkur bob veb-resurslardan foydalanib chet tillarini o‘rganish jarayonining ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Bunda til o‘rgatish metodikasi, raqamli ta’lim, pedagogik psixologiya va didaktik tamoyillar asosida masala ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: veb materiallar, chet tillar, pedagogika, B1 va B2 darajalar, axborot texnologiyalari

Annotation This article initially describes the role and significance of using web platforms and computer modeling in education. This chapter also aims to analyze the scientific, theoretical and pedagogical foundations of the process of learning foreign languages using web resources. The issue is considered on the basis of language teaching methodology, digital education, pedagogical psychology and didactic principles.

Keywords: web materials, foreign languages, pedagogy, B1 and B2 levels, information technologies

Аннотация В данной статье изначально описывается роль и значение использования веб-платформ и компьютерного моделирования в образовании. В данной главе также ставится задача проанализировать научно-теоретические и педагогические основы процесса изучения иностранных языков с использованием веб-ресурсов. Вопрос рассматривается на основе методики преподавания языков, цифрового образования, педагогической психологии и дидактических принципов.

Ключевые слова: веб-материалы, иностранные языки, педагогика, уровни B1 и B2, информационные технологии

Kirish. Jahonda yuz berayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, integratsiyalashuv jarayoni umumiy o‘rta talimda ustuvor yo‘nalishi sifatida chet tillarni o‘qitish tizimini rivojlantirishni talab etmoqda. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasini veb platforma asosida rivojlantirish, chet til o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda

umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning chet tillarda, xususan, ingliz tilida grammatik kompetensiyasini veb platforma asosida rivojlantirish ilmiy va metodik ahamiyatga ega ekanligi alohida e’tirof etiladi. Ayniqsa, B1 va B2 darajalar uchun ingliz tili o‘qitish ta’lim mazmunida qayd etilgan grammatikaga doir bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish, uni nutqiy muloqotda qo‘llay olish ustuvor ahamiyatga ega ekanligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham isbotlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi paytda grammatikaga nutqiy muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida qaralmoqda. Psixolog va psixolingvistlardan B.V.Belyayev, A.A.Artemov, I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev, T.V.Ryabovalar nutqning shakllanishida uning grammatik qurilishini, idrok qilishda esa grammatik hodisalarni o‘rgatishga e’tiborni tortadilar¹⁹.

G.Xelbingning fikricha, uch turdagi grammatikani o‘zaro farqlash lozim:

- 1) muayyan tilga xos bo‘lgan grammatik hodisalar majmui;
- 2) tildagi grammatik qoidalar majmuining ilmiy tahlili, grammatikaning tilshunoslik fanida aks etishi;
- 3) nutqiy muloqot chog‘ida qo‘llanadigan qoidalar tizimi.

J.J.Jalolov grammatikaga:

- 1) nutqning grammatik tomoni – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvda uchraydigan grammatik hodisalar;
- 2) til hodisalarini ta’riflovchi mavhumotlar deb ta’rif bergan.

Ingliz tilini o‘qitishda grammatik ma’lumotlar tom ma’noda amaliy xarakterga ega bo‘ladi. 10-sinfda grammatikani o‘rgatish, asosan, quyidagilar bilan cheklanadi:

- 1) grammatik shakl (struktura), ularning ma’nosi (semantika) va qo‘llanishi (funktsiyasi)ni o‘zlashtirish;
- 2) ushbu shakllarga oid qoidalarni bilish, muloqot vaziyati va kontekstda ulardan foydalana olish ko‘nikmalarini egallash;
- 3) fikrni og‘zaki va yozma bayon etganda grammatik ko‘nikmalarni qo‘llay bilish.

10-sinf o‘quvchilari ingliz tili grammatikasini o‘rgatish mazmunini egallaydilar. Grammatik kompetensiyani rivojlantirish ikki bosqichda – metodik tayyorlash (selection, distribution, classification, presentation) va grammatik ko‘nikmalarni rivojlantirish (presentation, exercise, usage) tarzida olib boriladi²⁰.

Tahlil va natijalar. Dunyoda umumta’lim maktablarida zamonaviy mehnat bozori talablari asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, o‘qitish mazmunini buyurtmachilar ehtiyojlari asosida takomillashtirish, o‘quvchilarda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish, veb platforma asosida o‘qitishning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Ingliz tilini o‘qitish –

¹⁹ Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: МОДЭК, 2001.

²⁰ Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

ELT (English Language Teaching), ingliz tilini chet til – TEFL (Teaching English as a Foreign Language) va ikkinchi til sifatida o‘qitish – TESL (Teaching English as a Second Language), ingliz tilini veb platforma asosida o‘rgatish – CLIL (Stand for Content and Language Integrated Learning), ingliz tilini akademik/ilmiy va fundamental maqsadlarda o‘qitish – STEM (Science, Technology, Engineering, Math) kabi ta’lim shakllarini joriy qilish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, axborot texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi asosida masofadan o‘qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o‘tkazish, masofali ta’lim tizimlarini yaratish va ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida Web texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish zaruriyati yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish” vazifalari belgilangan bo‘lib, bu borada o‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratish va metodik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlari” bo‘limining “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” nomli to‘rtinchi bandida “Umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, axborot texnologiyasi, matematika va boshqa talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish”²¹ asosiy ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilanganligi chet tili o‘qitishga zamonaviy va ilg‘or texnologiyalar asosida yondashuvni, o‘quvchilarning xorijiy tillar bo‘yicha lingvistik kompetensiyasini, uning yadrosi bo‘lgan grammatik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini yaratishni taqozo etishi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi²².

Web tizimlar-axborot mahsuloti bo‘lib, ma’lum g‘oya asosida bir-biri bilan bog‘langan gipermurojaatli sahifalar (Web-sahifalar) to‘plamidir. U o‘zining shaxsiy manziliga ega bo‘lib, shu nom bilan Web-serverga joylashtiriladi. Ular Web-sayt, portal, masofali ta’lim tizimlari, mediata’lim tizimlari, moslashuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan intellektual tizimlar va h. lar bo‘lishi mumkin. Web tizimlarning vazifasi turli axborot mahsulotlarini uzluksiz ravishda taqdim etish va butun auditoriyaga on-line rejimda xizmat ko‘rsatishdan iborat.

Tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi va sun‘iy intellekt sohalarini yuqori cho‘qqilarga erishishi o‘quv jarayonini ta’lim oluvchiga moslashishini ta’minlovchi tizimlarni yaratishga imkon berdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kelajakda yaratiladigan o‘qitish

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>

²² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019-йил 29-апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли фармони. Электрон манба: www.lex.uz/doks/

tizimlarining aksariyati tarmoq texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalariga bog‘liq bo‘ladi hamda o‘zida moslashuv komponentalarini saqlaydi.

Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar moslashish modellarini ishlab chiqish, ma’lum bir fanni o‘qitishga moslashuvchi tizimlar va moslashuvchi robotlarni yaratish bilan izohlanadi. Shu bilan birga integratsiyalangan axborot-ta’lim muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan Web tizim pedagogik loyihasi hamda bugungi globallashuv jarayonida axborot almashishning Web texnologiyalarga asoslangan, dinamik sahifalar asosida qurilgan Web tizim dasturiy ta’minotini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimni yaratish metodologiyasini hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabining 10-sinf o‘quvchining bilim darajasini hisobga olgan holda differensiallangan mediata’limni amalga oshiruvchi Web tizim tarkibi va mazmunini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Qolaversa, axborotlashgan jamiyatini yaratish va rivojlantirish ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi, bu bir qator omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, ta’limga ATKning joriy etilishi insoniyatning bilim hamda to‘plangan texnologik va ijtimoiy tajribasini nafaqat avloddan-avlodga, balki bir kishidan ikkinchisiga o‘tkazishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy AKT yordamida o‘qitish va ta’lim sifatini oshirish orqali insonning atrof-muhitga, davom etayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarga yanada muvaffaqiyatli va tez moslashishiga imkon beradi. Bu har bir insonga bugungi kunda ham, kelajakdagi postindustrial jamiyatda ham kerakli bilimlarni olish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, ushbu texnologiyalarni ta’limga faol va samarali tatbiq etish talablariga javob beradigan ta’lim tizimini yaratish va zamonaviy sanoat jamiyati talablaridan kelib chiqqan holda an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonining muhim omili hisoblanadi.

AKTdan foydalanish deyilganda buning bevosita web platformadan tahsil jarayonida foydalanish ham tegishli bo‘lib, u har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jamiyatning kundalik axborotlashuvi, o‘quv dargohlarida zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy ta’minotning keng tarqalishi, tegishli mutaxassislarni tayyorlash zarurati kabi omillar buni taqozo etmoqda.

10-sinf o‘quvchilarining ingliz tilida grammatik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ta’lim mazmuni, sharoiti va maqsadlari kabi lingvometodik tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etishni taqozo etadi. Lingvometodik termin hisoblangan sharoit tushunchasi o‘rta umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida ingliz tilini chet til sifatida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, ingliz tili o‘qitishda 10-sinf o‘quvchilarining yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlarini hisobga olish, 10-sinflarida jadallashtirilgan ekstensiv sharoitda o‘quvchilarning o‘zbek, rus va ingliz tillaridan egallagan til tajribasini hisobga olgan holda chet til o‘rganishda yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Ingliz tili o‘qitish maqsadlarini belgilashda amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar pedagogik muomalaga kiritilgan. 10-sinflarda ingliz tilini o‘qitishdan maqsad – o‘rganilayotgan tildan fikr almashish yoki nutqiy muloqot vositasi sifatida foydalanish malakalarini rivojlantirish (amaliy maqsad), o‘quvchilarni bilish faoliyatini oshirish (umumta’limiy maqsad), tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga²³ erishishdan iboratdir.

Metodoogik tahlil. Ingliz tili o‘qitish metodikasida til materialini mufassal tadqiq etilgan. Fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun nutqda til materialini qo‘llay bilish talab etiladi. Zamonaviy o‘qitish amaliyotida til materialini tushunchasi ikki ma’noda talqin etiladi:

- 1) leksika, grammatika, talaffuz birliklari majmui;
- 2) o‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, til sistemasidan tanlab olingan til minimumi deb atalgan, o‘quvchilar uchun ingliz tili materialini hisoblanadigan birliklar yig‘indisi.

Til materialini borasida so‘z yuritganda J.J.Jalolov, uch metodik tushunchani bir-biridan farqlashni tavsiya etadi:

- 1) ingliz tilini o‘qitish mazmuni,
- 2) uning tarkibidagi til materialini va
- 3) undan ajratib olinadigan til materialini o‘qitish mazmuni. Bunda leksik minimumdan leksikani o‘rgatish mazmuni, grammatik minimumdan grammatikani o‘rgatish mazmuni, tegishli vaqt hamda kuch sarflash shart bo‘lgan til hodisalarini tanlash masalasi turadi.

Xulosa. Til materialini, bir tomondan, sezgilar yordamida aytish, eshitish, ko‘rish va yozish mumkin, ikkinchi tomondan esa nutq faoliyati turlarida ularni qo‘llash va idrok etib tushunish mumkin. Ma’lumki, ingliz tili o‘qitishda har qaysi bosqich va tashkiliy qism (o‘quv yurti)lari uchun alohidaalohida leksik, grammatik, talaffuz, imlo, so‘z yasash minimumlari tanlanadi. Tanlash mezonlari umumiy bo‘lsa-da, shakllantirilgan til minimumlari miqdoriy va sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi.

FOYDALANILGAN BOSHQA ADABIYOTLAR.

1. Alimov, S. Shet tillarini o‘qitishda interfaol yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2019.
2. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education. 2007.
3. Dede, S. Immersive Interfaces for Learning: Opportunities and Challenges. Science, 2009. 323(5910), 66-69.
4. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.

²³ Сатторов.Т. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси (инглиз тили материалида). ТДЮИ Т., 2003. – 191 б.

5. Gardner, R. S. Sosial Psyshology and Sesond Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation. Edward Arnold. 1985.
6. Gee, J. P. What Video Games Have to Teash Us About Learning and Literasy. Palgrave Masmillan. 2003.
7. Harmer, J. The Prastise of English Language Teashing (5th ed.). Pearson Edusation. 2015.



YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI O‘QITISHDA DIAGNOSTIKA VA REABILITATSIYA BOSQICHLARINING REFLEKTIV-PEDAGOGIK INTEGRATSIYA MODELII

Mo‘minov Ispandiyor Abduraximovich
Andijon davlat tibbiyot instituti
Ichki kasalliklar kafedrası assistenti
epinefrine89@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurak-qon tomir kasalliklarini o‘qitishda diagnostika va reabilitatsiya bosqichlarining reflektiv-pedagogik integratsiya modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali baholandi. Tadqiqot davomida klinik simulyatorlar, standartlashtirilgan bemorlar va virtual reabilitatsiya platformalaridan foydalanildi. Natijalar tajriba guruhida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va refleksiya darajasining sezilarli oshganligini ko‘rsatdi. Model talabalarda klinik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Reflektiv pedagogika, diagnostika, reabilitatsiya, integratsiya modeli, tibbiy ta’lim, klinik simulyatsiya, OSCE.

Аннотация: В данной статье разработана и апробирована рефлексивно-педагогическая интеграционная модель этапов диагностики и реабилитации при обучении сердечно-сосудистым заболеваниям. В ходе исследования использовались клинические симуляторы, стандартизированные пациенты и виртуальная реабилитационная платформа. Результаты показали значительное повышение уровня теоретических знаний, практических навыков и рефлексии у студентов экспериментальной группы. Модель способствует развитию клинического мышления и навыков самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: Рефлексивная педагогика, диагностика, реабилитация, интеграционная модель, медицинское образование, клиническая симуляция, OSCE.

Abstract: This article presents the development and implementation of a reflective-pedagogical integration model of diagnostic and rehabilitation stages in teaching cardiovascular diseases. The study utilized clinical simulators, standardized patients, and a virtual rehabilitation platform. Results demonstrated a significant improvement in theoretical knowledge, practical skills, and reflection levels among students in the experimental group. The model enhances clinical reasoning and independent decision-making competencies.

Keywords: Reflective pedagogy, diagnostics, rehabilitation, integration model, medical education, clinical simulation, OSCE.

1. Introduction (Kirish)

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda o‘lim va nogironlikning yetakchi sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra [1], har yili ushbu kasalliklardan 17 milliondan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumadi, bu esa umumiy o‘lim holatlarining qariyb 32 foizini tashkil etadi. Mazkur kasalliklarning keng tarqalishi va ularning yosh avlod orasida ham uchrash chastotasining ortib borishi tibbiyot ta‘limi tizimida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida YQTK bo‘yicha o‘quv jarayonlari ko‘pincha nazariy bilimlarni yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar amaliy ko‘nikmalarni real klinik vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga har doim ham ega bo‘la olmaydi. Bu holat kelajakdagi shifokorlarning diagnostika va reabilitatsiya jarayonlarini samarali boshqarish salohiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, reflektiv-pedagogik yondashuv [4] — talabalarni faqat bilim bilan emas, balki mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirgan zamonaviy pedagogik konsepsiya sifatida ahamiyatlidir.

Reflektiv-pedagogik modelning diagnostika va reabilitatsiya bosqichlariga integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi ta‘lim jarayonida bir nechta muhim ustunliklarni ta‘minlaydi: 1. Amaliyotga yo‘naltirilganlik – talabalar klinik vaziyatlarni modellashirish, anamnez yig‘ish, EKG natijalarini talqin qilish va reabilitatsiya dasturlarini tuzish jarayonida faol ishtirok etadilar. 2. Refleksiya madaniyati – talabalar o‘z ishini tahlil qilib, o‘qituvchi va guruhdoshlarining fikrlarini qayta ishlaydi, bu esa mustaqil o‘rganish va uzluksiz rivojlanishni rag‘batlantiradi. 3. Integratsiya – diagnostika va reabilitatsiya bosqichlari bir butun jarayon sifatida o‘rgatiladi, bu esa talabalarda kasallikni boshqarishning uzviy manzarasini shakllantiradi.

So‘nggi yillarda xalqaro tibbiy ta‘lim standartlari, xususan WFME (World Federation for Medical Education) [2] va ACGME (Accreditation Council for Graduate Medical Education) [3], klinik simulyatsiya, standartlashtirilgan bemorlar va virtual reabilitatsiya platformalaridan foydalanishni keng joriy etishni qat‘iy tavsiya qilmoqda. Ushbu texnologiyalar talabalarning klinik kompetensiyalarini nazariy bilim bilan uyg‘unlashtirish, real klinik vaziyatlarga tayyorlash va kasbiy refleksiyani rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, reflektiv-pedagogik integratsiya modeli diagnostika va reabilitatsiya bosqichlarini yagona, tizimli o‘quv jarayonida uyg‘unlashtirish orqali tibbiy ta‘lim sifatini oshirish, talabalarni klinik amaliyotga tayyorlash va ularning kasbiy o‘sishini jadallashtirish imkonini beradi.

2. Methods (Metodlar)

Tadqiqot 2023-2024 yillarda respublika tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida olib borildi. Umumiy 520 nafar talaba ishtirok etdi (260 nafar tajriba guruhi, 260 nafar nazorat guruhi).


Metodologik yondashuv: 1. Reflektiv-pedagogik model quyidagi elementlardan tashkil topdi: - Diagnostika bosqichi: klinik anamnez yig‘ish, EKG tahlili, laborator ko‘rsatkichlarni baholash. - Reabilitatsiya bosqichi: individual reabilitatsiya dasturi tuzish, yurak reabilitatsiya mashqlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash. - Refleksiya bosqichi: talabaning o‘z ishini tahlil qilishi, murabbiy fikrini qayta ishlashi, xatolar ustida ishlash. 2. O‘qitish texnologiyalari: - Klinik simulyatorlar [6] (yurak auskultatsiya trenajyori, EKG modullari). - Standartlashtirilgan bemorlar [6]. - Virtual reabilitatsiya platformasi [6] (telemeditsina asosida). 3. Baholash mezonlari: - Nazariy bilim testi (0–100 ball). - Amaliy ko‘nikmalar OSCE (Objective Structured Clinical Examination) orqali baholandi. - Reflektiv yozuvlar tahlili (Blooms taksonomiyasi asosida). Statistik tahlil uchun Student-Fisher t-testi va Pearson korrelyatsiya koeffitsienti ishlatildi ($p < 0.05$ – ahamiyatli farq sifatida qabul qilindi).

Asosiy yo‘nalish	Tavsif	Qo‘llanilgan vositalar / usullar
Reflektiv-pedagogik model	Talabalarning klinik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida diagnostika va reabilitatsiya bosqichlarini yagona o‘quv tizimida integratsiyalash.	- Diagnostika bosqichi: klinik anamnez yig‘ish, EKG tahlili, laborator ko‘rsatkichlarni baholash. - Reabilitatsiya bosqichi: individual reabilitatsiya dasturi, yurak mashqlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash. - Refleksiya bosqichi: talabaning ishini tahlil qilish, murabbiy fikrini qayta ishlash, xatolar ustida ishlash.
O‘qitish texnologiyalari	Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish va klinik vaziyatlarda tezkor moslashishni ta’minlash.	- Klinik simulyatorlar (yurak auskultatsiya trenajyori, EKG modullari). - Standartlashtirilgan bemorlar. - Virtual reabilitatsiya platformasi (telemeditsina asosida).
Baholash mezonlari	Talabalar bilim va ko‘nikmalarini obyektiv o‘lchash uchun ko‘p mezonli baholash tizimi.	- Nazariy bilim testi (0–100 ball). - Amaliy ko‘nikmalarni OSCE (Objective Structured Clinical Examination) orqali baholash. - Reflektiv yozuvlar tahlili (Blooms taksonomiyasi asosida).
Statistik tahlil	Metodologiyaning samaradorligini aniqlash.	- Student-Fisher t-testi ($p < 0.05$ ahamiyatli farq). - Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (diagnostika va reabilitatsiya bosqichlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash).

3. Results (Natijalar)

Tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatdi:

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (n=260)	Tajriba guruhi (n=260)	p-qiymati
Nazariy bilim o'rtacha balli	71.4 ± 5.8	82.6 ± 4.9	<0.001
Amaliy ko'nikmalar OSCE balli	68.9 ± 6.2	84.3 ± 5.1	<0.001
Reflektiv yozuv bahosi	65.7 ± 7.1	81.2 ± 5.6	<0.001



14% o'sish tajriba guruhida qayd etildi, bu esa modelning samaradorligini ko'rsatadi. Pearson korrelyatsiya koeffitsienti diagnostika va reabilitatsiya bosqichlari o'zlashtirish darajasi o'rtasida $r=0.78$ ($p<0.01$) kuchli bog'liqlik mavjudligini aniqladi.

4. Discussion (Muhokama)

Natijalar shuni ko'rsatadiki, diagnostika va reabilitatsiya bosqichlarini reflektiv yondashuv asosida integratsiyalash talabalarning klinik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy modelda bilim va ko'nikmalar alohida o'rgatilsa, ushbu integratsiya modeli bosqichlar o'rtasida uzviy bog'lanish yaratadi. [4,5,7] Bundan tashqari, xalqaro tajribada ham (Maslov et al., 2023; WFME Guidelines, 2020 [2]) reflektiv yondashuv tibbiy ta'limda talaba faoliyatini chuqur tahlil qilish va real klinik vaziyatlarda tez moslashish imkonini beradi.

5. Conclusion (Xulosa)

Reflektiv-pedagogik integratsiya modeli diagnostika va reabilitatsiya jarayonlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy ko'nikmalarni real klinik vaziyatlarga yaqinlashtiradi va refleksiya madaniyatini shakllantiradi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat aniq klinik vaziyatlarga, balki mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini tanqidiy baholashga ham tayyorlaydi. Modelning afzalliklari orasida kasbiy kompetensiyalarning tezkor shakllanishi, nazariya va amaliyotning uzviy bog'lanishi, shuningdek, o'quv jarayonida talaba faolligining ortishi mavjud. Shu sababli, ushbu modelni

boshqa klinik fanlarda ham qo‘llash, turli sharoitlarda samaradorligini sinash va uzoq muddatli ta‘sirini tadqiq qilish tavsiya etiladi. Kelgusida modelga zamonaviy texnologiyalar, jumladan, virtual va aralash ta‘lim platformalarini qo‘shish orqali uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin. [4,5,7]

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Cardiovascular diseases (CVDs). WHO, 2023. URL: [https://www.who.int/news-room/factsheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/factsheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds))
2. World Federation for Medical Education (WFME). WFME Global Standards for Quality Improvement in Medical Education. WFME, 2020. URL: <https://wfme.org/standards>
3. Accreditation Council for Graduate Medical Education (ACGME). Common Program Requirements. ACGME, 2023. URL: <https://www.acgme.org/globalassets/PFAssets/ProgramRequirements/CPRResidency2023.pdf>
4. Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Routledge, 2017. DOI: <https://doi.org/10.4324/9781315237473>
5. Yardley, S., Teunissen, P. W., & Dornan, T. Experiential learning: Transforming theory into practice. Medical Teacher, 2012, 34(2), 161–164. DOI: <https://doi.org/10.3109/0142159X.2012.643264>
6. Motola, I., Devine, L. A., Chung, H. S., Sullivan, J. E., & Issenberg, S. B. Simulation in healthcare education: A best evidence practical guide. AMEE Guide No. 82. Medical Teacher, 2013, 35(10), e1511–e1530. DOI: <https://doi.org/10.3109/0142159X.2013.818632>
7. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Pearson Education, 2015. DOI: <https://doi.org/10.4324/9781315779324>



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NOSTANDART MASALALAR: TURLI YONDASHUVLAR VA O'QITUVCHI TAYYORGARLIGI

Karimova Kunduz Ruzibayevna

*Urganch davlat pedagogika instituti
dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini nostandart masalalar tuzishga o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Nostandart masalalarning mohiyati, ularning didaktik vazifalari va ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Maqolada nostandart masalalar turlari, ularni tuzishning metodik yondashuvlari, real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, fanlararo integratsiya va o'yinli topshiriqlardan foydalanish kabi jihatlar amaliy misollar bilan boyitilgan. Shuningdek, o'qituvchilarni nostandart masalalar tuzishga tayyorlash bo'yicha treninglar va innovatsion vositalardan foydalanishning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, nostandart masalalar, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, ta'lim sifati.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические и практические основы обучения учителей начальных классов составлению нестандартных задач. Подробно проанализированы сущность нестандартных задач, их дидактические функции и педагогическая значимость в образовательном процессе. В статье представлены типы нестандартных задач, методические подходы к их составлению, связь с реальными жизненными ситуациями, межпредметная интеграция и использование игровых заданий, иллюстрированные практическими примерами. Также раскрываются преимущества использования тренингов и инновационных средств для подготовки учителей к созданию нестандартных задач.

Ключевые слова: начальные классы, нестандартные задачи, творческое мышление, педагогический подход, качество образования.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical foundations of training primary school teachers to develop non-standard problems. It provides a detailed analysis of the nature of non-standard problems, their didactic functions, and pedagogical importance in the educational process. The article presents various types of non-standard problems, methodological approaches to designing them, their connection to real-life situations, interdisciplinary integration, and the use of game-based tasks—illustrated with practical

examples. Furthermore, the advantages of using training sessions and innovative tools to prepare teachers for creating non-standard problems are discussed.

Keywords: primary school, non-standard problems, creative thinking, pedagogical approach, education quality.

O‘qituvchilarni nostandart masalalar tuzishga o‘rgatish, ularning dars jarayonida ijodiy va innovatsion yondashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon avvalo nostandart masalalarning mohiyatini chuqur tushunishni va ularning didaktik vazifalarini aniqlashni talab qiladi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatida masalalarni shunday tuzishlari kerakki, ular o‘quvchilarning fikrlash darajasini oshirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsin.

Buning uchun o‘qituvchilar masala tuzishning asosiy prinsiplarini o‘zlashtirishi lozim. Dastlab masalani yaratishda uning mantiqiy va didaktik asoslari aniqlanadi. Masala o‘quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga mos kelishi, shuningdek, ularni qiziqtiradigan tarzda tuzilishi kerak. Masalaning sharti aniq, lekin yechimi bir nechta yo‘lni talab qiladigan yoki turli xil usullar bilan yechilishi mumkin bo‘lgan bo‘lsa, uning nostandart xususiyati oshadi.

Masala yechish haqida matematik olim George Polya o‘zining “How to Solve It?” (Masalani qanday yechish kerak?) kitobida juda mashhur fikrlar bildirgan. Bu kitobda quyidagicha fikr keltirilgan: “Masalani yechish qobiliyati tug‘ma emas. Bu o‘rganish, izlanish va tajriba orqali rivojlantiriladigan qobiliyatdir.”

Boshlang‘ich sinf matematika kursiga nostandart masalalarning kiritilishi, bir tomondan, bu masalalarni yechish o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir o‘tkazib, ulardan o‘z fikrlarini mantiqiy izchillik asosida ifodalash ko‘nikmalarini tarkib toptirishi bilan, ikkinchi tomondan, ularni yechishda hisoblashlarni bajarish yordamchi rol o‘ynab, umuman kerak bo‘lmisligi, faqat arifmetikaga doir ma‘lumotlar bilan chegaralanishi orqali izohlash mumkin [2].

J.Piaje[3] qarashlariga ko‘ra ongning rivojlanishi bir necha bosqichdan o‘tadi va boshlang‘ich maktab davrida o‘quvchilarning aniqlikka tayangan intellektini shakllanish davriga to‘g‘ri keladi. Bolalarda og‘zaki va mantiqiy tafakkuri maktab davrigacha rivojlana boshlaydi va so‘zlar bilan ishlab, mulohaza qilish qobiliyati shakllanadi.

Masalalar yechish yo‘li bilan har - xil matematik muammolar vujudga keltiriladi, turli arifmetik amallar tushunib olinadi va muammoni hal qilish yo‘llari aniqlanadi. Masalalar ko‘pincha ba‘zi nazariy qoidalarni yaratilishiga asos bo‘ladi. Masala o‘qituvchining nafaqat matematik nutqini boyitishga va o‘stirishga yordam beradi, balki, ular hayotdagi turli muammoli vaziyatlarni anglashga yordam beradi. Tegishli mazmundagi masalalar o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda vosita bo‘ladi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashining o‘sishida, ularning miqdorlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashida, tog‘ri hulosalar chiqara bilishida masalalar ayniqsa muhim o‘rin egallaydi.

Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda turli topshiriqlar va matnli masalalarni yechish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirish, matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish usullari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy masalalarning ayrim turlari haqida fikr yuritiladi. M.Sh.Mamatov, F.M.Kasimov, M.A.Zaynitdinova, B.S.Kasumova, N.B.Istomina, Yu.M.Kolyagin, N.B.Tixonovalarning ilmiy ishlarida o‘quvchilarda matematikadan ijodiy topshiriqlar, muammoli masalalar yordamida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nostandart masalalarning ayrim turlarini yechishga o‘rgatish, nostandart masalalarni yechish metodikasi o‘z aksini topgan.

O‘qituvchilarni o‘rgatish jarayonida ularga amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish juda muhim. Masalan, oddiy masalalarni olib, ularga yangi elementlar kiritish orqali ularni nostandart masalaga aylantirish mashq qildiriladi. Shuningdek, real hayotdagi vaziyatlardan kelib chiqib masalalar yaratishga e‘tibor qaratiladi. Bu o‘quvchilarni hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi va matematikadan foydalanishning amaliy tomonlarini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘qituvchilarni kreativ fikrlash texnikalariga o‘rgatish ham zarur. Bu jarayonda "Nima bo‘lsa?" yoki "Qanday qilib?" kabi savollarga asoslangan yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, mavjud masalani boshqa kontekstdagi masalaga aylantirish yoki shartlarini o‘zgartirish orqali yangi masalalar yaratiladi. Bunday yondashuv o‘qituvchilarga ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Nostandart masalalar tuzishda ko‘rgazmali materiallardan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham samarali. Vizual masalalar yoki interaktiv vositalar orqali yaratilgan masalalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. O‘qituvchilarga bunday vositalardan foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish ular uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. O‘qituvchilar nostandart masalalar tuzishni o‘rgangach, bu masalalarni dars jarayonida samarali qo‘llash va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning bilimini, balki o‘qituvchilarning o‘z pedagogik mahoratini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Boshlang‘ich sinflarda nostandart masalalarni yechishga o‘rgatish o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Nostandart masalalar an‘anaviy bo‘lmagan shartlar, yechim yo‘llarining murakkabligi va ijodiy yondashuvni talab qilishi bilan ajralib turadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dars jarayonida bir qancha usullar qo‘llanishi mumkin.

Dastlab, masalaning mazmuni tushuntiriladi va asosiy tushunchalar aniqlanadi. O‘quvchilar masalani tahlil qilishga o‘rgatiladi, ularning e‘tibori masalaning nostandart tomonlariga qaratiladi. Bunda muammoli ta‘lim metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlari yechim yo‘llarini izlashga undaladi. Masalalar yechimida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi. Masalalarni kichik qismlarga bo‘lib, bosqichma-bosqich yechish, yechimlarni mantiqiy asoslash va bir necha usullarni sinab ko‘rish bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

Darsni tashkil qilishda boshlanishida o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otuvchi savol yoki masala beriladi. Masalaning shartlari batafsil tushuntirilgach, o‘quvchilar turli usullardan foydalanib, masalani yechadilar. Jarayon davomida ular grafik va vizual materiallardan foydalangan holda o‘rganishlari mumkin. Guruhli ishlar orqali hamkorlikni rivojlantirish va bir-birlarining fikrlarini to‘ldirish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Yakunda esa natijalar tahlil qilinib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yechimlar muhokama qilinadi.

Nostandart masalalar ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali vosita bo‘lib, ularning murakkabligi o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga moslashtirilishi lozim. Masalan, topishmoqli masalalar yoki real hayotga oid vaziyatlardan kelib chiqadigan masalalarni yechish qiziqarli bo‘lishi bilan birga, foydali bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu tariqa, nostandart masalalarni yechishga o‘rgatish boshlang‘ich ta‘lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

O‘quvchilar uchun nostandart masalalar ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday masalalar odatiy algoritmlardan chetga chiqib, turli usullarni sinab ko‘rishga undashi kerak. Masalan, shaharlar o‘rtasidagi eng qisqa yo‘lni topishda qo‘shimcha cheklovlar (masofa bilan birga vaqt yoki transport turi) kiritilishi mumkin. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar ham nostandart bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarini real hayotda qo‘llashiga yordam beradi. Masalan, bir kilogramm mevaning jami narxi va ularning qismi bo‘yicha hisoblash talab qilinadi.

Qiziqarli va o‘yinli masalalar ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. Matematika, mantiqiy jumboqlar yoki o‘yin uslubidagi topshiriqlar bolalarni qiziqitiradi. Masalan, shaharning har bir ko‘chasidan faqat bir marta o‘tib, boshlang‘ich joyga qaytish kerak bo‘lgan topshiriq ko‘priklar bilan bog‘liq jumboqni yaratadi. Turli fanlarni bog‘laydigan masalalar ham qiziqarli bo‘ladi. Masalan, biologiya va matematikani birlashtirib, bakteriyalarning bo‘linishi va vaqt oralig‘idagi sonini aniqlash masalasi keltirilishi mumkin.

Nostandart masalalar yechim uchun mantiqiy fikrlash, tasavvur va turli yondashuvlarni talab qiladigan bo‘lishi kerak. Masalan, ikkita soat yordamida aniq vaqtni o‘lchash masalasi kutilmagan yechim topishni talab qiladi. Bunday masalalar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladi va ularda yangi yondashuvlarni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quvchi uchun nostandart masalalar tanlashda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

1. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Masalalar o‘quvchini oddiy algoritmlarni takrorlashdan ko‘ra, muammoni yangi usullar bilan hal qilishga undashi kerak. Bunda, fikrlashni qiyinlashtiruvchi, noaniq sharoitlarni o‘z ichiga olgan masalalar tanlanadi. Javob uchun bir nechta yo‘nalish bo‘lishi mumkin (masalan, matematik usuldan tashqari, mantiqiy yoki vizual yechim).

Misol: Shaharlar o‘rtasidagi eng qisqa yo‘lni topishda bir xil masofaga ega ikki yo‘l bo‘lsa, qo‘shimcha cheklovlar (masalan, vaqt yoki transport vositasi turi) kiritilishi mumkin ya‘ni bir necha svetofor va svetoforda kutish vaqti yoki bir necha daqiqa tirbandlikda qolish kabi.

2. Hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq masalalar.

Real hayotda uchraydigan vaziyatlardan kelib chiqqan masalalar nostandart deb qaraladi. Bu o‘quvchiga o‘z bilimlarini kundalik hayotda qo‘llash imkonini beradi.

Misol: Bir odam bozorga borib, bir kilogramm meva sotib oldi. Olma va nokning narxi farq qiladi. Agar jami xarajat 12000 so‘m bo‘lsa va olma nokdan 2 baravar qimmat bo‘lsa, mevalardan har birining narxi qancha?

3. O‘yin va qiziqarli topshiriqlar.

Matematik o‘yinlar, mantiqiy jumboqlar, yoki qiziqarli topshiriqlar bolalarni o‘ylashga undaydi. Bu masalalar oddiy hisoblashdan ko‘ra, bolalarni o‘rganishga qiziqtiradi.

Misol: Bir shaharda 7 ta ko‘prik bor. Yo‘lovchi shaharning har bir ko‘chasidan faqat bir marta o‘tib, yana boshlang‘ich joyiga qaytishi kerak. Bu qanday amalga oshiriladi? (Ko‘priklar va shahar xaritasi berilgan.)

4. Turli fanlararo integratsiyalashgan masalalar.

Bir nechta fanlarni o‘zaro bog‘lash orqali qiziqarli masalalar yaratish mumkin. Masalan, biologiya va matematikani birlashtirgan masalalar.

Misol: Bir bakteriya har 20 daqiqada ikkiga bo‘linadi. Idishda dastlab bitta bakteriya bo‘lsa, 2 soatdan keyin ularning soni qancha bo‘ladi?

5. Noan‘anaviy usullardan foydalanishni talab qiladigan masalalar.

Masalalar javobni topish uchun maxsus mantiqiy yechimlarni yoki nostandart hisoblashlarni talab qilishi mumkin.

Misol: Ikkita soat bor bo‘lib, biri 7 minutda, ikkinchisi 11 minutda to‘xtaydi. Ushbu soatlar yordamida qanday qilib 30 daqiqani aniqlash mumkin?

Nostadart masalalar o‘quvchilarni qiziqtirishi, ularga yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkonini berishi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

O‘quvchi yoshiga mos masala tanlashning asosiy afzalligi – bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishdir. Quyidagi jihatlar bu afzallikni yanada tushuntiradi:

O‘quvchilar qiziqishlarini oshiradi: O‘quvchi yoshiga mos tanlagan masalalar o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlariga muvofiq qilib olinadi. Bu ularda qiziqishni uyg‘otib, masalaga chinakam qiziqqan holda tushunib yondashishlariga yordam beradi.

O‘quvchilar uchun yengillik va o‘quv yukini balanslash: Masala o‘quvchi uchun juda murakkab yoki juda oson bo‘lsa, ta’lim samarasi sezilarli tarzda pasayadi. Yoshga mos masala tanlash o‘quvchilarni qiyinchiliklardan cho‘chitmasdan, ularni yanada rivojlanishlari uchun zarur darajada qiyinroq vazifalar bilan shug‘ullantiradi.

O‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi: O‘quvchi yoshiga mos tanlangan masalalar ularda mavjud bilimlarni mustahkamlashga va yangi bilimlarni o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Tanlangan masala qiziqarli va ijodiy bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlarida ishonch hosil qiladi va yangicha fikrlashni o‘rganadilar.

Tushunarli va hayotiy bo‘lishi: Yoshiga mos masalalar o‘quvchilar hayotidagi kundalik vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun oddiy

hisoblash yoki oddiy mantiqiy masalalar beriladi, katta yoshdagilar uchun esa ko‘proq tahliliy va murakkab vaziyatlar kiritiladi.

Motivatsiyani oshiradi: Yoshga mos keluvchi masalalar o‘quvchilarning muvaffaqiyatga erishish hissini oshiradi. Bu ularda o‘rganish jarayoniga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

Ta‘lim jarayonining izchil bo‘lishini ta‘minlaydi: Har bir yosh davri o‘ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega. Masalalar o‘quvchilarning rivojlanish bosqichiga mos kelganda, bilimlar izchil tarzda shakllanadi va o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Yoshga mos masala tanlash nafaqat o‘quvchining bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki unda ta‘limga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu o‘qituvchining dars rejasini samarali tashkil etishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida nostandart masalalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, turli yondashuvlar orqali yechim topishga undaydi. An‘anaviy usullar bilan bir qatorda muammoli ta‘lim, vizual materiallar, guruhli ishlar va real hayotga oid topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda muammoga nisbatan kompleks qarash, tanqidiy tahlil qilish, mantiqiy asoslash, va ijodiy fikrlash kabi muhim ko‘nikmalar shakllanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda nostandart masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, ularga yechim izlash va topilgan yechimlarni bir necha usul bilan tekshirish, o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Bunday masalalar oddiy algoritmik yondashuvlar bilan emas, balki turli fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatgan holda, hayotiy vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda taqdim etilishi kerak. Bu esa o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirib, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakasini mustahkamlaydi. Misol uchun, matematik masalalarni biologik jarayonlar bilan bog‘lash yoki mantiqiy jumboqlar orqali muammolarni hal qilish — o‘quvchilarda mustaqil izlanish, savol berish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, va yangicha fikrlashga o‘rgatadi.

Nostandart masalalar dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi, ularni faqat bilim oluvchidan bilim yaratuvchiga aylantiradi. Bunday masalalarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va intellektual darajalari hisobga olinishi muhim. Shuningdek, o‘yin elementlarini o‘z ichiga olgan topshiriqlar, guruhli hamkorlikda bajariladigan vazifalar va interfaol metodlar o‘quvchilar ongida mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, nostandart masalalar nafaqat o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, balki ularni zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta‘lim bosqichidanoq nostandart masalalarga alohida e‘tibor berish, ularni darslik va metodik materiallarga kiritish, o‘qituvchilarning didaktik arsenalini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, kelajakda chuqur bilimli, muammolarni hal qila oladigan, ijtimoiy faol va fikrlovchi avlodni shakllantirishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. George Polya. How to Solve It. Princeton University Press. 1945. 253 bet.
2. Истомина Н.Б. Учимся решать логические задачи. Математика и информатика. Тетрадь для 1-2 классов общеобразовательных организаций / Н.Б.Истомина, Н.Б.Тихонова. 9-изд. – Смоленск: Ассоциация XXI век, 2017. – 48 с.
3. Пиаже Ж.В. «Речь и мышление ребенка». — Государственное учебно-педагогическое издательство. М.: Римис, 2008. - 448 с.
4. Колягин Ю.М. Учись решать задачи. – М.: Просвещение, 1980.–318с.
5. K.R.Karimova, S.Abdullayeva. Recommendations for Teachers to Develop Creativity in Primary School Students. American Journal of Education and Evaluation Studies. Vol.1, No.9 (Dec, 2024)
6. K.R.Karimova. Boshlangich sinflarda organiladigan nostandart masalalarning ta’limiy, tarbiyaviy va axloqiy ahamiyati. Ilm sarchashmalari, 1-son. 102-105-bet, Urganch, 2025.



ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA KONVERGENT KOMPETENTLIK VA O'QUV DASTURINI INTEGRATIV LOYIHALASH

Yusubjonova Gulchiroy Sarvarjon qizi

Namangan davlat universiteti, doktoranti

gulchiroyyusubjonova07@gmail.com, +998771761499

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi zamonaviy ta'lim tizimida konvergent kompetentlikni rivojlantirish hamda integrativ yondashuvni o'quv darsliklariga tatbiq etishning turli nazariy-metodologik usullari keltiriladi. Tatqiqotda konvergent fikrlash, innovatsion bilimlar hamda fanlararo integratsiya asosida o'quv dasturlarini loyihalashning turli yondashuvlari keltirilgan. Mazkur tajriba sinovi davomida, xorijiy tajribalar o'rganilib, O'zbekiston ta'lim tizimiga mos keladigan o'quv dasturini loyihalash uchun turli modellar keltirilgan va ularning afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Maqola oliy ta'limda mahoratli mutaxassis tayyorlash, innovatsion tafakkurli shaxsni shakllantirishda konvergent kompetentlikning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, konvergent kompetentlik, fanlararo integratsiya, o'quv dastur, integrativ loyihalash

Аннотация. В статье представлены различные теоретико-методологические подходы к развитию конвергентной компетентности в современной системе образования и реализации интегративного подхода к учебникам. В исследовании представлены различные подходы к разработке учебных программ, основанные на конвергентном мышлении, инновационных знаниях и междисциплинарной интеграции. В ходе данного пилотного тестирования был изучен зарубежный опыт, представлены различные модели разработки учебной программы, подходящей для узбекской системы образования, а также обсуждены их преимущества. В статье рассматривается значение конвергентной компетентности в подготовке квалифицированных специалистов в высшей школе и формировании инновационно мыслящей личности.

Ключевые слова: современное образование, конвергентная компетентность, междисциплинарная интеграция, учебная программа, интегративное проектирование.

Abstract. This article presents various theoretical and methodological methods for developing convergent competence in today's modern education system and implementing an integrative approach to textbooks. Different strengths of program planning based on convergent thinking, innovative knowledge, and interdisciplinary integration in research. During the pilot test, foreign experiences were studied, various models were presented for designing a curriculum

suitable for the Uzbek education system, and their advantages were discussed. This article discusses the importance of convergent competence in training skilled specialists in higher education and in forming an innovatively thinking individual.

Keywords: Modern education, convergent competence, interdisciplinary integration, curriculum, integrative design

Kirish. Bugungi zamon rivoji faqat iqtisodiy va texnologik rivojlanishga ta'sir etib qolmay, ta'lim tizimi ham yetarlicha tezlashuviga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu rivojlanish insoniyatni intellektual, ijodiy va muammoli vaziyatda yechim topa olish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirmoqda. Bu jarayonda maqsad faqat bilim olish emas, balki, uni hayotga tatbiq etish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish bilan belgilanmoqda. Shu asnoda, konvergent kompetentlik hamda o'quv darsliklarni integrativ loyihalash bugungi kundagi dolzarb masala sifatida ko'tarilmoqda.

Ta'limda globallashtirish, rivojlanish- xalqaro universitet, maktablar bilan hamkorlik hamda almashinuv jarayonini mustahkamlashdir. Bunday hamkorliklar universitetlar xalqaro toifadagi nufuzini, talabalarning xalqaro qarashlarini hamda madaniyatlararo muloqot qobiliyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, talabalar almashish dasturlari, turli ilmiy tatqiqotlar bo'yicha hamkorlik va kengroq ilmiy manbalarga ega bo'lishlari mumkin. Mana shunday ilmiy hamkorliklar, chet el tajribasini o'rganish -konvergent kompetentlik, integrativ yondashuv tushunchalarining muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Konvergent kompetentlik bu- turli fanlar, sohalar hamda amaliy tajribalar asosidagi fikrlarni aniq, yagona bir tushuncha doirasida birlashtira olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya talabalarning fikrlash, mustaqil o'rganish, ijodkorlik, moslashuvchanlik, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda yetakchi o'rin egallaydi.

Lekin, bugungi kunda an'anaviy ta'lim tizimida ayrim fanlar doirasida o'qitish tizimi chegaralangan bo'lib, bu holda konvergent kompetentlikni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu sababdan ham, ta'limda o'quv dasturlarini integratsiya orqali ya'ni fanlararo, amaliyotga yo'nalgan o'quv loyihalarini shakllantirish -bugungi zamonning dolzarb pedagogik masalasi.

Integrativ yondashuv asosida talabalar hayotdagi murakkab muammolarni turli fan va sohalarining umumlashmasi sifatida ko'ra boshlaydi va o'rgangan bilimlarni birlashtirgan holda amaliyotga tatbiq qila boshlaydi. Bu o'z navbatida, talabalar ongida konvergentlik, kreativlik, tahliliy fikrlash kabi kompetensiyalarini umumlashtirish imkonidir.

Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida konvergent kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv dasturlarini loyihalashning nazariy- metodologik asoslarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tatqiqot davomida: konvergent kompetentlik mohiyati, shakllanishi; o'quv dasturlarini integrativ loyihalash asosida modellashtirish; bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda konvergentlik hamda fanlararo uyg'unlikni

shakllantiruvchi dasturlar, darsliklar elementlarini shakllantirish; integrativ yondashuv hamda konvergent kompetentlikning qanday o‘zaro aloqadorligi kabi bir qancha ilmiy muammolarga yechim topishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Konvergent kompetentlik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning eng dastlabki rivojlanishi pedagogika hamda psixologiya fanlariga borib taqaladi. Bu tushuncha paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan bo‘lib, convergent thinking tushunchasini J.P. Guilford fanga kiritish orqali kelib chiqqan. U bu kompetentlikni divergentlikka qarshi qo‘ygan holda yagonalikka, mantiqiy aniqlikka keluvchi fikrlash deb tushuntirgan. Ya‘ni bu juda murakkab tushuncha emas, oddiy test savolini oladigan bo‘lsak, test variantlaridan to‘g‘ri variantni tanlab olish qobiliyatidir. Howard Gardner esa ko‘p tomonlama intelligensiya nazariyasini ilgari surdi, bu nazariyaga ko‘ra kompetentlik bir sohada emas, balki turli sohalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

XXI asrga kelib ta‘lim tizimida konvergent kompetentlik tushunchasi xorijiy hamda o‘z yurtimizda ham pedagogik tatqiqotlarning eng asosiy e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Professor John Bean ta‘lim sohasida qo‘llash uchun nazariya ishlab chiqadi. Bu nazariya talabalarining olgan bilimlarini integratsiyalashga qaratilgan bo‘lib, u oliy ta‘lim tizimida yozma va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratgandir. Bean ta‘limotiga ko‘ra, talabalar yangi bilimlarini avvalgi bilimlariga bog‘lash orqali o‘rganish kerak va integratsiya orqali bilimlar chuqur o‘rganiladi. Yozish esa- bu bilimlarni ifodalashdan tashqari, o‘zlashtirish hamdir va bu orqali mavzuni tushunish darajasi yanada ortadi. Talabalar nafaqat yangi o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘rganadi, yod oladi, hamda tahlil qilish, yangi fikrlarni ishlab chiqish ko‘nikmasi ham shakllanadi. Bean nazariyasi bugungi zamonaviy ta‘lim jarayoni uchun ta‘limda zamonaviy o‘qitish metodlaridan biri hisoblanadi.

Drake va Reidlar esa konvergent kompetentlik haqida nazariya ishlab chiqishadi. Ularning ta‘limotiga ko‘ra: konvergent kompetentlik- bu ko‘nikma, bilim va kompetensiyalarning integratsiyasi orqali umumlashgan masalalarni hal qila olish qobiliyatidir. Bu nazariya fanlararo integratsiya hamda amaliy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan. Drake va Reid ta‘limoti turli fanlar bir-biriga bog‘lash, nazariy bilimlar, real hayotda sodir bo‘ladigan muammolarga yechim topa olish, bugungi zamonaviy dunyoda bo‘layotgan turli yangiliklarni qo‘llash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni muntazam yangilash hamda takomillashtirish kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu ta‘limotning yutuq tomoni : “bilim+amaliyot+innovatsiya” formulasi asosida ishlashligidir.

Albatta, O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlarida ham bir qator olimlar ushbu soha bo‘yicha bir qator ishlar olib borishmoqda. Bunga misol qilib: M. Usmonxo‘jayev hamda B. Jo‘rayevlarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning tatqiqoti, asosan, ta‘lim metodologiyasi, pedagogik innovatsiyalarni ta‘limga joriy etish hamda milliy ta‘lim tizimini rivojlantirishga doir masalalarga qaratilgan. M. Usmonxo‘jayev hamda B. Jo‘rayevlar ta‘limda faol o‘qitish metodlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar- elektron darslik, online platformalardan foydalanish, talabalar bilimlarini nazariy hamda amaliy o‘rganish ko‘nikmalarini

shakllantirishga qaratilgan turli yo‘nalishlarda ish olib borishgan. Bundan tashqari UNICEF va UNESCO loyihalarida ishtirok etishgan, Xalqaro konferensiyalarda, jumladan, “Ta’lim -2030” dasturi doirasida O‘zbekiston ta’lim tizimini targ‘ib etishga doir ishlar yuzasidan qatnashishgan. Bu shaxslar O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning nazariy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishga harakat qilgan. Ularning tajribalari an’anaviy ta’limni bugungi zamonaviy pedagogika bilan uyg‘unlashtirishga undaydi. Lekin ularning hali nazariyasi to‘liq sinovdan o‘tmagan.

Asosiy qism. Kompetentlik fanga ilk bor pedagog –psixologlarning imiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan, kompetentlik- “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan muloqotda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la muamolarni hal qilishda, izchil rivojlanib boruvchi hamda murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.[2]

Kompetensiya-inglizcha “competence ” so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Mazmunan olib qaraydigan bo‘lsak, nazariy bilimlardan unumli foydalanib, yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakani namoyon eta olish qobiliyatidir.

O‘quv dasturlarini loyihalash ta’limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, o‘rganishning sifatli va samaradorligini ta’minlaydi. Samarali o‘quv dasturlarini loyihalash, izchil hamda mazmunli tizimni yaratishda o‘quv dasturlari, o‘quv maqsadlari, strategiyalarini hamda baholashni o‘zaro moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim strategiyalari ham o‘z navbatida talaba-yoshlarni qiziqishini yanada orttiruvchi va qiziqarli bo‘lishi kerak. Har bir insonga motivatsion turtki kerak bo‘lgani kabi, bo‘lajak o‘qituvchilarning ham o‘rganganlik darajasini belgilovchi baholash darajasi ham muhimdir. Bundan tashqari, o‘quv dasturini loyihalashning yana bir muhim tarafi bu- fanlararo integratsiya va real hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bungungi kunda, integratsion hamda hayotga qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi XXI asrning eng muhim ta’lim tizimidagi tushunchalardan bo‘lib kelmoqda. Hamda bu ko‘nikmalar orqali yoshlarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, integrativ yondashuv quyidagi muammolarni hal qilishda ham yetakchi o‘rinda turadi:

1. Talabalar intellektual salohiyatini ochib beradi;
2. Talabalarning shaxsiyatini ochib berishga yordam beradi;
3. Kasbiy kompetensiyalarni ochib beradi;
4. O‘z –o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantiradi;
5. O‘z-o‘zini tarbiyalash.[3]

Tatqiqot metodologiyasi .Ushbu tatqiqotni “aralash metodlar” yondashuvidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, tatqiqot har taraflama keng yoritilishiga olib keladi. Tatqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod- konvergent kompetentlik hamda integrative yondashuv haqidagi ilmiy adabiyotlar, dasturlar, maqolalar tahlil qilindi;

So‘rov va monitoring metodi- 50 nafar o‘qituvchilar hamda 100 nafar talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Bunda o‘quv daturlarini integratsiyalash, integrative yondashuv hamda konvergentlik haqida bilish darajasi o‘rganildi;

Eksperimental metod- bunda 3 ta oliy o‘quv yurti talabalari o‘rtasida integrativ loyihalash dasturi sinovdan o‘tkazildi va natijalar tahlil qilindi.

Integrativ dastur loyihalash hamda konvergent kompetentlikni shakllantirishda STEAM asosida dastur modullari ishlab chiqildi.

Tatqiqot muhokama va natijalari. Zamonaviy ta‘lim jarayonida konvergent kompetentlik tushunchasi turli fanlar doiradagi fanlarni integratsiyalar hamda bu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish kabi muammolarni hal qilish doirasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tatqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, an‘anaviy ta‘lim tizimi talabalarni murakkab dunyoviy sharoitlarga tayyorlashda yetarli emas.

Bugungi kunda pedagog xodimlarning ko‘p fanlar tizimini bilgan va turli real muammolarga yechim topa oladigan pedagoglar boshqalarga nisbatan afzal hioblanadi. Bundan tashqari g‘arb mamlakatlariga qaraydigan bo‘lsak, Oxford hamda Standford kabi universitetlar ta‘lim tizimining 60% idan ziyod talabalarini fanlararo integratsion o‘quv dasturlari qamrab olgan. Biz butun dunyo bilan raqobatdoshlikni shakllantirishimiz uchun o‘quv dasturlarimiz integrative loyihalashimiz va konvergent kompetentlikni rivojlantirishimiz kerak. Mana shunday rivojlantirish ishlarining poydevori sifatida biz universitetlarda tajriba, eksperiment o‘tkazdik. Bunda ikki guruh tanlab olindi: biri eksperiment guruh va ikkinchisi kontrol guruh. Har bir guruhda 30 nafardan talabalar bo‘lib, birinchi guruh integrativ dastur asosida; ikkinchi guruh esa an‘anaviy o‘quv tizimi asosida o‘qitildi. Sinov davomiyligi bir semesterni tashkil etdi. Bu tajriba davomida talabalar hamda o‘qituvchilarning konvergent fikrlash ko‘rsatkichi, fikrlari o‘rganildi.

Integrativ dastur : matematika, texnologiya hamda fizika fanlari o‘zaro integratsiyasiga asoslandi, STEAM fanlar o‘qitish tizimi bu dasturga asos bo‘ldi.

STEAM biz bilamizki, fan, texnologiya, muhandislik, san‘at, matematika fanlarini o‘qitishning badiiy ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi yondashuvdir. STEAM ta‘limi- ijodkorlik, innovatsion fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish, real hayotdagi muammolarga texnologiyadan keng foydalanib yechim topishni o‘rgatishdan iborat. Bu tizimda matematika hamda tabiiy fanlarga oid bilimlardan tayanib, ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Tajriba quyidagi 1-rasmdagi reja asosida o‘tkazildi.

Bosqich	Vahti	Harakatlar
Tayyorgarlik	1-2 hafta	O‘qituvchilar hamda talabalarga trening o‘tkazish haqida tushuncha berish, integrativ o‘quv loyihani yaratish
Amaliyot	3-12 hafta	Integrativ darslarni o‘tkazish hamda natijalarni kuzatish
Baholash	13-14hafta	Testlar, so‘rovnomalar orqali baholash
Xulosa	15 hafta	Hisobot tayyorlash, natijalarni taqdim etish

1-rasm. Tajriba jadvali

Tajriba sinov yakunlangach, loyiha ishlarining bajarish ko'rsatkichi 20-25% ga oshganligini kuzatish mumkin, hamda konvergent fikrlash ko'rsatkichi 30% ga oshganligini kuzatildi. Talabalarning fanga qiziqishlari 90% ijobiy tarafga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda bir qancha qiyinchiliklarga ham duch kelindi. Jumladan, talabalar yangi loyihaga moslashishi qiyin kechdi. O'qituvchilarda ham yangi loyiha uchun ishonchsizlik kuzatildi. Buni bartaraf etish uchun o'quv seminarlar tashkil etildi.

O'qituvchilar ham tajriba so'ngida o'z fikrlari bilan bo'lishdilar: dastlab tajriba ahamiyatsizdek tuyilgani, lekin tajriba so'ngigacha bu loyiha juda katta fandagi yutuq bo'lishligi mumkinligini ta'kidkandi. Zamonaviy dasturlash hamda fanlararo integratsiyani qo'llash, konvergentlik talabalarga yangi imkoniyatlar ochishi mumkin ekanligi ta'kidlandi.

Xulosa. Ushbu tatqiqot ishi ta'lim tiziming real hayot va kasbiy faoliyat bilan o'zaro uzilishini hal qilishga qaratilgan bo'lib, tatqiqot markazida konvergent kompetentlik turadi. Tajribalar natijalariga ko'ra, fanlarni yakka holda emas, bir butunlikda o'rgatish talabalar bilim doirasi kengayishiga, kreativ fikrlash ko'nikmasi shakllanishiga olib keladi. Ma'lumotlarning yodda saqlash ko'nikmasi ham orttadi. Integratsiyalashgan dastur hamda konvergentlik -bu zamonaviy ta'lim tizimining kelajagi bo'lib, o'qituvchilar, talabalar va texnologiyalarni o'zaro uyg'unlashtirib, chuqur islohotlar olib borish kerakligi tatqiqot natijasida kuzatildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maree Gosper. Curriculum models for 21 st century.
2. McMillan, M. Little, P. Conway, J. Solman, A. (2019). Curriculum design and Implementation: Resources, processes and results. Journal of problem-based Learning, 6(2), 47-53.
3. N. Begmatova. O'quv dasturlarini loyihalash va boshqarish. Qo'qon universiteti xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi.
4. O. Otajonov. Oliy ta'lim jarayonida integrative yondashuv. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2-jild, 6-son 49-53.
5. G. Ismonova, M. Yoqubova. Milliy o'quv dasturini amalga tatbiq etish, fanlarni integratsiyalash. ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 150-151.
6. H. Berdiyeva. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogic imkoniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021:5, 423.886-898
7. Lieve Thibaut, Stijn Ceuppens, Haydee De Loof. Integrated STEM Education: A Systematic Review of Instructional Practices in Secondary Education. European Journal of STEM Education, may 1, 2018.



PBL METODINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Orazaeva Gulparshin Amankeldievna

Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrası fan kabinet xodimi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) metodining pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. PBL o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod sifatida qaraladi. Maqolada PBL metodining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ta'limdagi o'rni, shuningdek, uning asosida yotgan konstruktivistik pedagogik qarashlar va o'quvchilarning psixologik holatini hisobga oluvchi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, metodning samaradorligi va uni amaliyotda qo'llashning afzalliklari misollar asosida ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: loyihaga asoslangan ta'lim, PBL, pedagogik asoslar, psixologik asoslar, faol ta'lim, konstruktivizm, mustaqil ta'lim, o'quv motiatsiyasi, muammoli vaziyat, amaliy bilimlar.

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируются педагогические и психологические основы метода проектного обучения (PBL). PBL рассматривается как инновационный метод, способствующий углублению знаний и навыков учащихся, развитию самостоятельного мышления, навыков решения проблем и командной работы. В статье освещаются этапы развития метода PBL, его роль в современном образовании, а также конструктивистские педагогические взгляды, лежащие в его основе, и аспекты, учитывающие психологическое состояние учащихся. Также на примерах рассматривается эффективность метода и преимущества его применения на практике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: метод проектов, PBL, педагогические основы, психологические основы, активное обучение, конструктивизм, самостоятельное обучение, мотивация обучения, проблемная ситуация, практические знания.

ANNOTATION This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of the Project-Based Learning (PBL) method. PBL is considered an innovative method that serves to deepen students' knowledge and skills, develop independent thinking, problem-solving, and teamwork skills. The article highlights the stages of development of the PBL method, its role in modern education, as well as the constructivist pedagogical views underlying it and aspects that take into account the psychological state of students. The effectiveness of the method and the advantages of its application in practice are also considered on the basis of examples.

KEYWORDS: project-based learning, PBL, pedagogical foundations, psychological foundations, active learning, constructivism, independent learning, learning motivation, problem situation, practical knowledge.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko'nikmalarni egallashi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi hamda ijtimoiy faol bo'lishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) metodi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. PBL – bu o'quvchilarni real hayotga yaqinlashtiruvchi, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiruvchi va ularni faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga jalb qiluvchi metodik yondashuvdir. Ushbu metodning samaradorligini ta'minlashda esa, uning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur o'rganish muhimdir. Zero, har bir ta'lim metodining poydevori sifatida uning nazariy-ilmiy asoslari turadi. Shu nuqtai nazardan, PBL metodining ta'limdagi o'rni, uning ilmiy-metodik asoslari, ayniqsa, pedagogik va psixologik jihatlarini tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalardandir.

ADABIYOTLAR SHARHI

John W. Thomas PBL metodining asosiy komponentlari – muammoli vaziyatlar, talabalarning mustaqil izlanishi, yakuniy mahsulot tayyorlashi va baholash mezonlari tahlil qilingan. Thomas PBL'ning o'quvchilarning chuqur bilim olishiga va ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ushbu manba PBL'ning ilmiy asoslarini anglash uchun muhimdir.

Seymour Papertning konstruktivistik qarashlari PBL metodining psixologik asoslari bilan bevosita bog'liq. U bola bilimni o'zi quradi degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, o'quvchi o'z loyihasi orqali bilimni o'zlashtirganda, bu bilim barqaror va amaliy bo'ladi.

Lev Vygotskyning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi PBL metodining psixologik asoslaridan biridir. U o'quvchilarning o'rganish jarayoni ijtimoiy muloqot va hamkorlik orqali shakllanishini asoslaydi. Bu esa PBL'dagi guruhish, bahs-munozara va rolly faoliyatlarni asoslaydi.

P. C. Blumenfeld ilmiy ishida PBLning motivatsiya bilan bog'liqligi yoritilgan. Mualliflar loyihaviy yondashuv o'quvchilarda ichki motivatsiyani oshiradi, mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi deb ta'kidlaydi. Bu pedagogik va psixologik mexanizmlarni integratsiyalash uchun muhim manba hisoblanadi.

Markham, T., Larmer, J., va Ravitz, J. "Project-Based Learning Handbook" nomli qo'llanmasida PBL'ni amaliyotga joriy qilishga qaratilgan bo'lib, uning bosqichlari, metodikasi, baholash jarayoni batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar va sinfda qanday muhit yaratish kerakligi haqida amaliy tavsiyalar mavjud.

Дж. Дьюи ning ta'lim falsafasi PBL asosini tashkil etuvchi tajriba asosida o'rganishni ilgari suradi. U o'quvchilar o'z tajribalari orqali bilimga ega bo'lishi kerak degan fikrni ilgari surib, bu metodning pedagogik asoslariga xizmat qiladi.

Hasanov O. va boshqalar "Innovatsion pedagogik texnologiyalar" nomli o'zbekcha manbada PBL texnologiyasi mahalliy ta'lim kontekstida tahlil qilinadi. O'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiylashuvi bo'yicha loyihaviy metodning afzalliklari yoritilgan.

G'.Yoqubov "Zamonaviy dars va interaktiv metodlar" nomli kitobda faol ta'lim metodlari, jumladan, PBL metodining sinfdagi qo'llanilishi va natijadorligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. O'zbek ta'lim tizimiga mos tavsiyalar ham mavjud.

Demak, yuqoridagi adabiyotlar PBL metodining pedagogik jihatdan — faol, interaktiv, tajriba asosida o'qitishga; psixologik jihatdan esa — motivatsiya, ijtimoiy muloqot, konstruktivizm va shaxsiy rivojlanishga asoslanganligini ko'rsatadi. Mahalliy va xorijiy manbalarni o'rganish orqali bu metodning har tomonlama kuchli asoslanganini kuzatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

PBL metodining pedagogik asoslari pedagogik nuqtayi nazardan, PBL metodi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Faollik va mustaqillik: O'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki muammoni hal qilish jarayonida o'zi kashf qiladi.

Integratsiyalashuv: Turli fanlar doirasidagi bilimlar yagona loyiha orqali uyg'unlashtiriladi.

Ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv. Bu metod John Dewey, Jean Piaget, Lev Vygotskiy singari pedagog olimlarning faoliyatga asoslangan ta'lim g'oyalariga tayanadi. O'quvchi faol sub'ekt sifatida loyihani tashkil etadi, rejalashtiradi va natijaga erishadi.

PBL metodining psixologik asoslari, psixologik jihatdan PBL metodi o'quvchilarning: ichki motivatsiyasi (Deci va Ryan nazariyasi), kognitiv rivojlanishi (Piagetning bosqichlari), ijtimoiy o'rganish (Bandura modeli), emotsional tafakkuri va ijodiy salohiyatini rag'batlantiradi.

PBL metodida har bir o'quvchining shaxsiy yondashuvi, qiziqishi va ehtiyoji hisobga olinadi. Bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixologik poydevorini tashkil etadi.

2024-yilda Toshkent shahri umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari PBL metodining samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqladi. 40 nafar o'quvchi ishtirokida eksperimental (PBL asosidagi) va nazorat (an'anaviy dars) guruhlar shakllantirildi.

Natijalar quyidagicha bo'ldi: bilim darajasining o'sishi: Eksperimental guruhda 18% ga yuqori bo'ldi. Motivatsiya: PBL guruhidagi o'quvchilarning 85% darslarga qiziqish bildirgan. Jamoaviy ishlash ko'nikmalari: 80% o'quvchi o'zini jamoada erkin tutganini aytdi. Bu natijalar

PBL metodining nafaqat o‘quv jarayonida, balki shaxsiy rivojlanishda ham samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

NATIJA

Tadqiqot davomida loyihaga asoslangan ta‘lim (PBL) metodining pedagogik va psixologik asoslarini chuqur tahlil qilish orqali quyidagi muhim natijalarga erishildi: PBL metodining pedagogik samaradorligi aniqlandi. Bu metod orqali o‘quvchilar: bilimni mustaqil izlash, muammoni hal qilish, tanqidiy va tizimli fikrlash, jamoaviy ishlash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradilar.

Psixologik nuqtayi nazardan, PBL metodining o‘quvchilarning: o‘quv faoliyatiga ichki motivatsiyasini oshirishi, ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini anglash va baholash ko‘nikmalarini mustahkamlashi kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlarining empirik natijalari shuni ko‘rsatdiki: PBL asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasini 15–20% ga oshirdi; o‘quvchilarning 85% dan ortig‘i loyihaviy faoliyatga yuqori darajada qiziqish bildirdi; ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarda sezilarli o‘sish qayd etildi (aloqa madaniyati, mas‘uliyat, tashabbuskorlik).

O‘quvchilar PBL loyihalari orqali real hayotdagi muammolarni hal qilishni o‘rganishdi. Bu esa ta‘limning hayotiyligi, zamonaviyligi va natijadorligini oshiradi.

Tadqiqot asosida PBL metodini o‘quv jarayoniga samarali joriy etish uchun: didaktik materiallar tizimi, o‘qituvchi uchun metodik tavsiyalar, baholash mezonlari ishlab chiqildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

PBL metodining pedagogik asoslari o‘quvchilarning faol, interfaol va muammoga yo‘naltirilgan o‘rganish faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu metodda o‘qituvchi yo‘lboshchi, o‘quvchi esa faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik asoslari shuni ko‘rsatdiki, PBL o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini, mustaqil fikrlashini, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Empirik tahlil PBL metodining ta‘lim samaradorligini oshirishdagi ijobiy ta‘sirini tasdiqladi: bilim o‘zlashtirish, muammoni hal qilish, guruhda ishlash, tashabbuskorlik ko‘nikmalarida ijobiy siljish kuzatildi.

PBL metodini muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o‘quv rejalari va dasturlariga moslashtirish, mos metodik materiallar tayyorlash, o‘qituvchilarning tayyorgarligini oshirish zarur.

PBL — bu faqat ta‘lim metodikasi emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan o‘sishiga xizmat qiluvchi keng qamrovli ta‘lim falsafasidir.

Loyihaga asoslangan ta‘lim (PBL) metodini o‘rganish natijalari ko‘rsatdiki, bu yondashuv an‘anaviy ta‘lim shakllariga nisbatan ko‘proq o‘quvchi faolligiga asoslanadi va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillariga mos keladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, PBL metodida o‘quvchi nafaqat bilim egallaydi, balki uni real vaziyatda qo‘llashni ham o‘rganadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, PBL o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, ular o‘zini erkin ifoda etishga, jamoada ishlashga, fikrini asoslashga va mustaqil qaror qabul qilishga intiladi. Shuningdek, PBL metodini qo‘llash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik barqarorlik, o‘z-o‘zini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonch rivojlanadi.

Biroq, amaliyotda bu metodni to‘liq joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, baholash mezonlarini to‘g‘ri belgilash kabi muhim masalalar ham mavjud. PBL samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchidan ijodkorlik, rejalashtirish va muvofiqlashtirish ko‘nikmalari talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жураев Н. Инновацион таълим технологиялари. – Ташкент: Фан ва технология нашриёти, 2020.
2. Назаров Б.Қ., Юлдашев А.А. Педагогик технологиялар асослари. – Ташкент: ТДПУ нашриёти, 2019.
3. Мадрахимов И.А. Таълимда лойиҳалаш асослари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
4. Шарипова М. PBL технологияси асосида ўқитиш самарадорлигини ошириш // Педагогика ва психология журнали. – 2018. – №3. – Б. 45–49.
5. Тўракулов С.Р. Ўқувчиларни лойиҳавий фаолиятга жалб этишнинг психологик асослари // ЎзДЖТУ илмий ахбороти. – 2022. – №2. – Б. 81–86.
6. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2019.
7. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 2006.
8. Чосханова А.С. Проектное обучение как педагогическая технология // Педагогическое образование и наука. – 2015. – №5. – С. 112–116.
9. Валеева А.И. Психолого-педагогические условия эффективного использования метода проектов // Вопросы психологии. – 2017. – №4. – С. 78–83.
10. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – Novato, CA: Buck Institute for Education, 2000.
11. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future // The Clearing House. – 2010. – Vol. 83, No. 2. – P. 39–43.



O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM JARAYONIDA LOYIHALASHTIRILGAN TA'LIM IMKONIYATLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Orazaeva Gulparshin Amankeldievna

Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrası fan kabinet xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida loyihalashtirilgan ta'lim (Project-Based Learning — PBL) metodining joriy etilishi, huquqiy-me'yoriy asoslari va uning didaktik imkoniyatlari o'rganiladi. Oliy ta'limni isloh qilish jarayonida talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda PBL muhim o'rin tutadi. Shuningdek, davlat siyosati, qonunchilik bazasi va amaliyotda qo'llanilish misollariga tayaniladi.

Kalit so'zlar: loyihalashtirilgan ta'lim, oliy ta'lim, huquqiy asoslar, kompetensiya, innovatsion metod, O'zbekiston.

Аннотация: В статье рассматривается внедрение метода проектного обучения (ПОО) в систему высшего образования Узбекистана, его нормативно-правовая база и дидактические возможности. В процессе реформирования высшего образования ПОО играет важную роль в формировании практических навыков студентов и развитии профессиональных компетенций. Также рассматриваются государственная политика, законодательная база и примеры его применения на практике.

Ключевые слова: проектное обучение, высшее образование, нормативно-правовая база, компетенции, инновационный метод, Узбекистан.

Abstract: This article examines the introduction of the Project-Based Learning (PBL) method in the higher education system of Uzbekistan, its legal and regulatory framework, and its didactic capabilities. In the process of reforming higher education, PBL plays an important role in the formation of practical skills in students and the development of professional competencies. It also draws on state policy, legislative framework, and examples of its application in practice.

Keywords: project-based learning, higher education, legal framework, competence, innovative method, Uzbekistan.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri — o'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, hayotiy masalalarga innovatsion yechimlar topa oladigan barkamol shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu

vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy ta'lim uslublari yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois, zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalashtirilgan ta'lim (Project-Based Learning — PBL) kabi innovatsion metodlarga ehtiyoj ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi bosqichma-bosqich yangilanmoqda, bunda ta'limning mazmuni va shakllari zamon talablari asosida modernizatsiya qilinmoqda. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda PBL uslubining ahamiyati beqiyosdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

“Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” (PF–4947, 2017-yil 7-fevral) farmoni — oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, jumladan, PBL kabi metodlarni joriy qilish zarurati qayd etilgan.

“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta'lim sifati va raqobatbardoshlikni oshirish uchun loyiha asosida o'qitish modelini kengaytirish belgilangan.

Bu hujjatlar PBL uchun huquqiy va siyosiy zamin yaratgan asosiy normativ-me'yoriy manbalardir.

Jo'rayev N. “Innovatsion ta'lim texnologiyalari” nimli monografiyada zamonaviy ta'lim metodlari, jumladan, PBL uslubining nazariy asoslari yoritilgan. Muallif PBL usulini O'zbekiston sharoitida qo'llash tajribalarini tahlil qilib, u orqali talabalar kompetensiyasini shakllantirish yo'llarini taklif etadi.

Xolbekova M. “Kreativ pedagogika asoslari” ilmiy ishlarida innovatsion o'qitish metodlarining psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. PBL metodining ijodiy tafakkurni shakllantirishga bo'lgan ta'siri batafsil ko'rsatib berilgan.

Bell, S. “Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future” maqolasida PBL metodining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, afzalliklari va real loyihalarga asoslangan yondashuvni asoslaydi. Bell XXI asr ko'nikmalari — tanqidiy fikrlash, hamkorlik, aloqa va ijodkorlikni rivojlantirishda PBL metodining o'rnini aniqlaydi.

Thomas, J. W. (2000). “A Review of Research on Project-Based Learning” keng qamrovli tahliliy sharhda turli mamlakatlardagi PBL bo'yicha empirik tadqiqotlar jamlangan. Ta'lim samaradorligi, o'quvchining faolligi, mustaqilligi kabi jihatlar bo'yicha ilmiy asoslar ko'rsatilgan.

Kukushkina O. N. (2015). “Proektnaya deyatel'nost' v vuze: teoriya i praktika” Rossiyalik muallif PBL metodining oliy ta'limda qo'llanish tajribasini amaliy jihatdan tahlil qilgan. Oliy ta'limda loyiha asosida mashg'ulotlarni tashkil qilishning bosqichlari, baholash mezonlari, huquqiy me'yorlar tavsiflangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqoridagi adabiyotlar sharxi shuni ko'rsatadiki: O'zbekiston oliy ta'lim tizimida PBL uslubini joriy qilish uchun huquqiy va siyosiy asoslar mavjud.

Mahalliy olimlar ta’limda PBL metodini o‘rganish va joriy etish bo‘yicha dastlabki bosqichda turibdi.

Xorijiy manbalar esa PBL uslubining nazariy asoslari, metodik yo‘nalishlari va amaliy natijalari bo‘yicha boy tajribaga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Oliy ta’limda loyihalashtirilgan ta’lim (Project-Based Learning – PBL) metodining imkoniyatlari va uning normativ-huquqiy asoslarini tadqiqot predmeti sifatida aniqlagan.

Tadqiqot ob’ekti O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari (bakalavriat va magistratura darajasidagi o‘quv jarayonlari).

Oliy ta’lim tizimida loyihalashtirilgan ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ular uchun yaratilgan huquqiy-me’yoriy asoslarning amaliy samarasini aniqlash, hamda PBL asosida o‘qitish samaradorligini empirik jihatdan asoslash maqsad qilib belgilangan.

Nazariy tahlil: mavjud normativ hujjatlar, davlat dasturlari, ta’lim konsepsiyalarini tahlil qilish.

Empirik metodlar: so‘rovnoma, intervyu, test sinovlari, tajriba-metodik ishlar.

Statistik tahlil: olingan ma’lumotlarni statistik jihatdan tahlil qilish (foiz, diagramma, korrelyatsiya va boshqalar).

Tajriba ishlari (eksperiment): bir necha OTMlarda PBL asosida darslar tashkil qilinib, natijalar tahlil qilingan.

Empirik tahlil (ma’lumotlar asosida misol)

So‘rovnoma ishtirokchilari: 3 ta oliy ta’lim muassasasi: (TDPU, NDPI, UrganchDPI).
100 nafar talaba (3-4-bosqich), 20 nafar o‘qituvchi.

So‘rovnoma asosiy savollari:

Siz loyihalashtirilgan topshiriqlar asosida darslarda qatnashganmisiz?

PBL darslari sizning mustaqil fikrlashingizga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Siz uchun loyiha asosidagi ta’lim an’anaviy darslarga qaraganda samaraliroqmi?

Asosiy natijalar:

Ko‘rsatkich	Ijobiy javob berganlar (%)
Loyihaviy darsda qatnashgan	82%
PBL samarali deb hisoblagan	76%
Tanqidiy fikrlashga ta’siri bor deb baholagan	71%
Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirgan	68%

Tajriba sinovlari natijasi

Eksperimental guruhda PBL asosida loyihalar tashkil etildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy darslardan foydalandi.

Ko‘nikmalar	Eksperimental guruh (PBL)	Nazorat guruhi
Tanqidiy fikrlash	83%	60%

Ko‘nikmalar	Eksperimental guruh (PBL)	Nazorat guruhi
Jamoaviy ishlash	85%	62%
Mustaqil qaror qabul qilish	80%	57%

Tadqiqot metodologiyasi asosida olib borilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, PBL usuli oliy ta’limda nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki talabalar faoliyatini demokratik asosda shakllantiradi. Shuningdek, mamlakatda mavjud huquqiy-me’yoriy asoslar bu metodni to‘laqonli joriy qilish uchun yetarli, lekin ularni amaliyotga tatbiq etishning uzluksiz va metodik ko‘magi talab etiladi.

NATIJA

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida loyihalashtirilgan ta’lim (PBL) metodining qo‘llanishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy va institutsional asoslar yaratilgani aniqlandi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari bu borada muhim omil bo‘lmoqda.

Loyihalashtirilgan ta’lim metodi orqali talabalar: mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga, muammoli vaziyatlarda yechim topishga, qaror qabul qilishga o‘rgana boshlayotgani empirik tahlillar orqali isbotlandi.

Tajriba-sinov asosida o‘tkazilgan eksperimentlar loyihaviy topshiriqlarning talabalarning kompetensiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. PBL metodidan foydalangan guruhlarda tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlik darajasi yuqoriroq bo‘ldi.

Amaldagi huquqiy hujjatlar PBL texnologiyalarini qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qilsada, ularning ba’zilarida ushbu metodning didaktik yondashuvlari konkret ifodalanmagan. Bu esa metodik qo‘llanmalar va me’yoriy-ijro mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi so‘rovnoma natijalari, PBL metodining amaliyotda ijobiy qabul qilinayotganini, lekin uni joriy etishda tizimli yondashuvlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va infratuzilma muammolari mavjudligini ko‘rsatdi.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, loyihalashtirilgan ta’lim (Project-Based Learning — PBL) metodini joriy etish bo‘yicha muhim huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-sonli qarori, 2030 yilgacha mo‘ljallangan ta’lim strategiyasi kabi me’yoriy hujjatlar ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga xizmat qilmoqda.

Empirik tadqiqotlar PBL metodining talabalarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, muammoni hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini isbotladi.

Biroq, PBL metodining keng joriy etilishi uchun kadrlar salohiyati, o‘quv-metodik bazaning yetarliligi va moddiy-texnik infratuzilma hal qiluvchi omillar bo‘lib qolmoqda.

PBL metodining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida keng joriy qilinishi bir qancha afzalliklar va muammoli jihatlarni yuzaga chiqaradi:

Afzalliklari: ta’lim oluvchilar passiv bilim oluvchilardan faol ijodkorlarga aylanadi. Amaliyotga yaqin va kasbiy faoliyatga tayyorlovchi loyihalar orqali real kompetensiyalar shakllanadi. Akademik erkinlik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Ta’lim sifati baholanishi aniq mezonlar asosida loyihalar orqali amalga oshadi.

Muammoli jihatlari: Ko‘pgina OTMlarda PBL metodiga mos moddiy-texnik baza va o‘qituvchi malakasi yetarli darajada emas. O‘quv yuklamalari, dars jadvali va reyting tizimi PBL yondashuvlariga to‘liq moslashtirilmagan. Ta’limning natijaviyligiga ta’sir qiluvchi baholash mezonlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Tavsiya sifatida: PBL bo‘yicha milliy metodik qo‘llanmalar yaratish va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Har bir oliy ta’lim muassasasida PBL asosidagi o‘quv kurslari tajriba tariqasida joriy qilinib, bosqichma-bosqich kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi **PF–4947-sonli Farmoni** “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **PF–60-son Farmoni** “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda **825-son qarori** “Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari”.
4. Jo‘rayev N. (2021). *Innovatsion ta’lim texnologiyalari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Xolbekova M. (2020). *Kreativ pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Axmedov A., To‘xtaboyev T. (2019). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: “Ilm Ziyo” nashriyoti.
7. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. *The Clearing House*, 83(2), 39–43.
8. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. San Rafael, CA: The Autodesk Foundation.
9. Kukushkina, O. N. (2015). *Proektnaya deyatel’nost’ v vuze: teoriya i praktika*. Moskva: Akademicheskii proyekt.
10. Blumenfeld, P. C., Soloway, E., Marx, R. W., Krajcik, J. S., Guzdial, M., & Palincsar, A. (1991). Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning. *Educational Psychologist*, 26(3–4), 369–398.
11. Markham, T., Larmer, J., & Ravitz, J. (2003). *Project Based Learning Handbook: A Guide to Standards-Focused Project Based Learning for Middle and High School Teachers*. Buck Institute for Education.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

**INGLIZ TILI DARSLARIDA AKADEMIK YOZUVNING AHAMIYATI:
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA ILG'OR AMALIYOTLAR.**

Abdiolimova Qizlarxon Subhonali qizi

Farg'ona davlat universiteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(ingliz tili) yo'nalishi doktoranti

qizlarxonabdiolimova@gmail.com +998901515651

Annotatsiya: Akademik yozuv ko'nikmalari ingliz tili ta'limida, ayniqsa, maktab va oliy ta'lim bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Bu ko'nikma tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, matnlar mantiqiylikini va uzviyligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarni akademik muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o'rgatuvchi darslarda akademik yozuvning o'qitishdagi ahamiyati o'rganiladi. Zamonaviy tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar asosida akademik yozuvni o'qitishning samarali uslublari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, janrni anglash, haqiqiylik, fikr-mulohaza (feedback) berish va texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning akademik savodxonligi rivojlanadi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, ingliz tili o'qitish, EFL o'quvchilari, janr asosida o'qitish, akademik savodxonlik, yozuv pedagogikasi.

Abstract: Academic writing skills play a crucial role in English language education, particularly at the school and higher education levels. These skills promote critical thinking, ensure the logical coherence and integrity of texts, and prepare students for academic success. This article examines the importance of teaching academic writing in English as a foreign language (EFL) classrooms. Based on contemporary research and theoretical approaches, the article analyzes effective methods of teaching academic writing. According to the research findings, students' academic literacy is developed through understanding genre, task authenticity, providing feedback, and utilizing technology.

Keywords: academic writing, English language teaching, EFL students, genre-based teaching, academic literacy, writing pedagogy.

Аннотация: Навыки академического письма играют важную роль в обучении английскому языку, особенно на уровнях школьного и высшего образования. Эти навыки развивают критическое мышление, обеспечивают логическую согласованность и целостность текстов, а также готовят студентов к академическому успеху. В статье рассматривается важность преподавания академического письма на уроках английского языка как иностранного (EFL). Опираясь на современные исследования и теоретические подходы, статья анализирует эффективные методы преподавания академического

письма. Согласно результатам исследования, академическая грамотность студентов развивается через понимание жанра, аутентичности задания, предоставление обратной связи и использование технологий.

Ключевые слова: академическое письмо, преподавание английского языка, студенты EFL, обучение на основе жанра, академическая грамотность, педагогика письма.

1. Kirish.

Zamonaviy ta’limda til o’rganish nafaqat kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, balki akademik bilimlarni mustahkamlash vositasidir. Akademik yozuv esa bu jarayonning asosi bo’lib, ilmiy-ijodiy faoliyatning barcha bosqichlarida, jumladan, esse yozish, maqola tayyorlash, tadqiqot natijalarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ingliz tilini chet tili sifatida o’rganayotgan o’quvchilar uchun bu ko’nikmalarni o’zlashtirish ko’p jihatdan o’qitish metodikasiga bog’liq.

Akademik yozuv — bu oliy ta’lim va ilmiy sohalarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zaruriy asosiy ko’nikmadir. EFL (ingliz tilini chet tili sifatida) kontekstida bu ko’nikmani egallash o’quvchilarga lingvistik, madaniy va ritorik farqliklar tufayli qiyinchilik tug’diradi. Shunga qaramay, ingliz tili darslarida akademik yozuvga e’tibor qaratish o’quvchilarning aqliy rivojlanishi va akademik integratsiyasida muhim rol o’ynaydi. Ushbu maqola akademik yozuvning pedagogik ahamiyatini o’rganadi va dolzarb ilmiy manbalar asosida samarali yondashuvlarni taklif etadi.

2. Adabiyotlar tahlili.

2.1 Akademik yozuvning EFL kontekstidagi roli.

Akademik yozuv — bu fikr bildirish, manbalarni tahlil qilish, hujjatlarni yozish va ilmiy uslubga rioya qilishdan iborat murakkab jarayondir. Bunday ko’nikmalarni o’zlashtirish uchun o’quvchilar nafaqat grammatikani, balki janrlar tuzilmasi, iqtibos berish uslubi va tanqidiy fikrlashni ham o’rganishlari kerak. Hyland ta’kidlaganidek, akademik yozuv — bu fikrlarni aniqlik bilan ifodalash, ilmiy uslubga amal qilish va manbalarni to’g’ri qo’llashni o’z ichiga olgan murakkab kognitiv jarayondir. Ingliz tili darslarida akademik yozuvni o’rgatish o’quvchilarga faqat til emas, balki ilmiy tafakkur asoslarini ham singdiradi.

2.2 Janrga asoslangan yozuv yondashuvi.

Janr asosidagi o’qitish (genre-based pedagogy) akademik matnlarning tuzilmasini va ularning kommunikativ maqsadlarini o’rgatishga qaratilgan bo’lib, bu yondashuv o’quvchilarning o’z yo’nalishlari bo’yicha yozuv ko’nikmalarini shakllantiradi. Martin va Rose tomonidan ilgari surilgan janrga asoslangan pedagogika modeli o’quvchilarga turli yozuv shakllarini (esse, hisobot, maqola) o’rganish orqali kontekstual va kommunikativ vazifalarni anglash imkonini beradi. Bu yondashuv o’quvchilarni muayyan yozuv vazifasiga tayyorlashda aniq strukturani taklif qiladi.

2.3 EFL o’quvchilarining muammolari.

O‘quvchilar ko‘pincha leksik resurslarning cheklanganligi, rasmiy uslubga moslashishda va matnni mantiqiy tuzishda qiynaladilar (Tangpermpoon, 2008). Bu muammolarni bosqichma-bosqich o‘qitish, guruhii hamkorlik va qayta yozish jarayonlari orqali kamaytirish mumkin. Tangpermpoon EFL talabalarining asosiy qiyinchiliklarini quyidagicha ajratadi: leksik zaxiraning torligi, grammatika xatolari, akademik uslubni tushunmaslik, fikrlarni aniq va mantiqan bog‘lashdagi muammolar. Bu muammolarni bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich yondashuv, model matnlar tahlili va kollaborativ yozuv usullari samarali bo‘lishi mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola 2010–2024 yillarda Scopus bazasida chop etilgan 38 ta ilmiy maqolani tizimli tahlil qilishga asoslangan. Tanlangan maqolalar EFL o‘quvchilarida akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga oid bo‘lib, ular mavzuvii tahlil asosida kodlab chiqilgan.

4. Tahlil va muhokama.

4.1 Akademik yozuvning til o‘rganishdagi o‘rni.

Akademik yozuv grammatik aniqlik, so‘z boyligi va mantiqiy izchillikni shakllantiradi. U, shuningdek, o‘quvchilarga murakkab g‘oyalarni bayon qilish va ilmiy matnlar bilan ishlash imkonini beradi. Yozuv orqali til o‘rganish o‘quvchilarning faqat passiv bilimni emas, balki faol fikrlash va ifoda qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Akademik yozuv orqali talabalar tahlilii fikr yuritish, manbalarni solishtirish, ishonchli dalillar asosida mulohaza yuritish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar.

4.2 Pedagogik yondashuvlar.

Yozuv ustaxonalari (writing workshops), jarayonli yozuv (process writing) va haqiqii akademik topshiriqlarning integratsiyasi eng samarali usullar sifatida qayd etilgan. Iqtibos keltirish va parafraz qilish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘quvchilarni plagiatdan saqlaydi. Badger va White taklif qilgan “process-genre approach” — ya‘ni yozuvning bosqichma-bosqich va janr asosida o‘rganilishi samarali metodlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Bu yondashuvda o‘quvchilar avval namunavii matnlarni tahlil qiladi, so‘ngra o‘zlari yozishga kirishadi va jarayon davomida fikr-mulohaza asosida yozuvlarini takomillashtiradi.

4.3 Texnologiya vositalari.

Grammarly kabi grammatikani tekshiruvchi ilovalar, Zotero kabi manbalarni boshqaruvchi dasturlar va onlayn platformalar (Google Docs, LMS) o‘quvchilarning yozuv faoliyatiga yordam beradi. Bu vositalar mustaqil yozuv ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar, xususan Grammarly, Quillbot, Zotero, Mendeley kabi ilovalar grammatik aniqlikni ta‘minlash, plagiatni oldini olish va bibliografiya tuzishda samarali yordam beradi. LMS (Learning Management System) va Google Docs esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqani kuchaytiradi.

5. Dars jarayoni uchun tavsiyalar.

Ingliz tili o‘quv dasturlariga akademik yozuv komponentlarini erta bosqichlardan integratsiya qilish lozim. O‘qituvchilar janr asosida yozishni o‘qitish va akademik matnlarni baholash metodikasiga o‘rgatilishi kerak. Kurslarga tezis yozish, dalil keltirish, manba

ko‘rsatish va qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalari kiritilishi zarur. Akademik yozuv elementlarini bosqichma-bosqich va bosqichga moslashtirilgan tarzda joriy etish. O‘qituvchilarni yozuv baholash va tanqidiy fikr berish strategiyalariga o‘rgatish. Yozuv topshiriqlarini real hayotdagi vazifalarga yaqinlashtirish. O‘quvchilarga plagiat, parafraz va iqtibos olishni o‘rgatish orqali ularning ilmiy halolligini mustahkamlash. Kurslarda yozuv jarayoni, rejalashtirish, qayta yozish va yakuniy tahrirlash bosqichlariga e‘tibor qaratish.

6. Xulosa.

Akademik yozuv — bu ingliz tili darslarining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy va kasbiy hamjamiyatlarda ishtirok etishiga zamin yaratadi. Strukturaviy yo‘naltirish, zamonaviy texnologiyalar, janrga asoslangan metodlar orqali EFL o‘quvchilari mustahkam akademik yozuv ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlarning uzoq muddatli ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq. Akademik yozuvni ingliz tili ta’limi jarayoniga to‘laqonli integratsiya qilish EFL o‘quvchilarining akademik, kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Yondashuvlarda madaniy, ijtimoiy va texnologik omillarni inobatga olish zarur. Kelgusida EFL kontekstida yozuv ta’limining natijadorligi va barqarorligiga oid keng qamrovli amaliy tadqiqotlar olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. Badger, R., & White, G. (2000). A process genre approach to teaching writing. *ELT Journal*, 54(2), 153–160. <https://doi.org/10.1093/elt/54.2.153>
2. Bitchener, J., & Ferris, D. R. (2012). *Written corrective feedback in second language acquisition and writing*. Routledge.
3. Godwin-Jones, R. (2018). Using mobile technology to develop language skills and cultural understanding. *Language Learning & Technology*, 22(3), 3–17. <https://doi.org/10.125/44684>
4. Hyland, K. (2006). *English for academic purposes: An advanced resource book*. Routledge.
5. Martin, J. R., & Rose, D. (2008). *Genre relations: Mapping culture*. Equinox.
6. Nesi, H., & Gardner, S. (2012). *Genres across the disciplines: Student writing in higher education*. Cambridge University Press.
7. Tangpermpoon, T. (2008). Integrated approaches to improve students’ writing skills for English major students. *ABAC Journal*, 28(2), 1–9.



UDK: 37.015.31

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li
Farg'ona davlat universiteti matematika kafedrasi dotsenti v.b. (PhD)

Annotatsiya Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari, yondashuvlar, didaktik qarashlar, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Web-kvest, "blended learning", "flipped classroom" kabi texnologiyalarning mustaqil ta'limni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Mustaqil ishlarning turli shakllari, tyutorlik tizimi, talaba va o'qituvchi faoliyatining uzviy bog'liqligi haqida fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, interfaol metodlar, web-kvest, tyutorlik, masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar

Аннотация В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы организации самостоятельной учебной деятельности студентов, а также методические подходы, дидактические взгляды и роль современных информационно-коммуникационных технологий. Научно обоснована значимость таких технологий, как веб-квест, смешанное обучение и перевёрнутый класс в развитии самостоятельного обучения. Обсуждаются различные формы самостоятельной работы, система тьюторства и взаимосвязь деятельности преподавателя и студента.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, интерактивные методы, веб-квест, тьюторство, дистанционное обучение, цифровые технологии

Annotation This article analyzes the theoretical and practical foundations of organizing students' independent learning activities, including methodological approaches, didactic perspectives, and the role of modern information and communication technologies. The importance of technologies such as web-quests, blended learning, and flipped classroom in the development of independent learning is scientifically explained. Various forms of independent work, the tutor system, and the dynamic relationship between students and teachers are discussed.

Keywords: independent learning, independent work, interactive methods, web-quest, tutoring, distance education, digital technologies

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu boradagi islohotlar ta‘lim jarayonini zamonaviylashtirish, sifatini oshirish hamda ta‘lim oluvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Xususan, talabalarning mustaqil ta‘lim olish faoliyatini rivojlantirish, ularni tanqidiy, analitik va ijodiy fikrlashga undovchi interfaol metodlar, masofaviy ta‘lim platformalari, elektron resurslar va raqamli vositalar bilan ta‘minlash ustuvor vazifaga aylangan.

Mustaqil ta‘lim — bu talabaning o‘z-o‘zini anglash, bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va tashabbusi asosida tashkil etiladigan o‘quv faoliyati bo‘lib, u ta‘lim jarayonining muhim komponenti sifatida qaralmoqda. Shu sababli, bu faoliyatni tashkil etishda ilg‘or didaktik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur. Turli didaktlar tomonidan mustaqil ishga berilgan ta‘riflar — o‘qitish vositasi (U.V. Zotov), o‘qitish usuli (A.F. Soloveva), uslubi (I.E. Unt), o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish shakli (B.P. Esipov) — uni har xil jihatdan yoritgan bo‘lsa-da, barchasi asosiy jihat sifatida talabaning individual faolligini, o‘quv jarayonidagi mustaqilligini va o‘zlashtirish darajasini yuksaltirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Bugungi kunda mustaqil ish va ta‘limga nisbatan yondashuvlar yanada kengayib, uni faqatgina ma‘lum bir metodik topshiriqlar to‘plami emas, balki o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslangan, maqsadli va ijodiy jarayon sifatida talqin qilish rivojlanmoqda. Talabaning bilimlarni egallashi faqat tayyor bilimni qabul qilish bilan emas, balki ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, shaxsiy fikrni shakllantirish orqali yuzaga chiqadi. Bu esa talabaning bilim olishda faol ishtirokchiga aylanishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, raqamli ta‘lim texnologiyalarining rivojlanishi, onlayn platformalarning keng qo‘llanilishi, mustaqil ish turlarining elektron va interfaol shakllarga o‘tishini ta‘minladi. Bu o‘z navbatida, ta‘lim muhitini yanada moslashuvchan, qulay va samarador qiladi. Natijada talaba istalgan joy va vaqtda o‘zining mustaqil ta‘lim faoliyatini amalga oshirishi, shuningdek, ta‘limiy resurslardan mustaqil foydalanishi mumkin bo‘lib qoldi. Bu holat mustaqil ishga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni, uni tashkil etish va baholashda yangicha mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mustaqil ish zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni ta‘riflashda didakt olimlar turli yondashuvlarni ilgari surgan. Jumladan, U.V. Zotov mustaqil ishni o‘qitish vositasi sifatida ko‘rgan bo‘lsa, A.F. Soloveva uni o‘qitish usuli sifatida baholagan. I.E. Unt esa uni o‘qitish uslubi, B.P. Esipov esa o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish shakli sifatida izohlagan. Bu yondashuvlarning har biri mustaqil ishga bo‘lgan turli nazariy va metodik qarashlarni aks ettiradi. Har bir ta‘rif, o‘ziga xos jihatdan, mustaqil ishning maqsadi, funksiyasi va didaktik imkoniyatlarini ochib beradi.

Ammo ushbu qarashlarning barchasini umumlashtiradigan asosiy g‘oya — bu mustaqil ish orqali o‘quvchining (yoki talabanning) o‘quv faoliyatida shaxsiy faolligini oshirish, bilimni o‘zlashtirishda ichki motivatsiyani kuchaytirish va o‘zini anglash imkonini berishdir. I.Iminaxunova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa mustaqil ishga yondashuv yanada

murakkab va tizimli ko‘rinishda tahlil etilgan. U mustaqil ishni talaba va o‘qituvchining o‘zaro munosabatlari, xatti-harakatlari va bilim almashinuvi asosida yuzaga keladigan yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi. Bunda o‘qituvchining rahbarlik qilishi, yo‘naltiruvchi rolni bajarishi va talabani faol ishtirok etishi o‘zaro uzviy bog‘liq holatda qaraladi.

Shuningdek, mustaqil ishning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri — bu muammoli bilish topshirig‘ining mavjudligi hisoblanadi. Bunday topshiriqlar talabani faqat tayyor ma’lumotni egallab olishini emas, balki uni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, yechim topish va baholash kabi aqliy faoliyat turlarini ishga solishini talab qiladi. Bu esa ijodiy yondashuvni, mustaqil qaror qabul qilishni va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Mustaqil ishlar orqali talabalar o‘z qiziqishlariga mos yo‘nalishda izlanish olib boradilar, individual intellektual salohiyatlarini namoyon etadilar. Ayniqsa, bugungi ta’lim muhitida mustaqil ishni tashkil etishda faqatgina klassik topshiriqlar emas, balki interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi topshiriqlar, web-kvestlar, SWOT-tahlil, keys-stadilar ham keng qo‘llanilmoqda. Bu metodlar nafaqat bilimni mustahkamlash, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqil ishni faqat o‘quv topshiriqlari majmuasi sifatida emas, balki ta’lim oluvchining faol, ijodkor va o‘zini anglagan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi pedagogik tizim deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu tizimda o‘qituvchi — yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va yordamchi sifatida, talaba esa — o‘z bilimini mustaqil quruvchi, izlanuvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, mustaqil ish talabani faolligini kuchaytirish, uni intellektual va kasbiy rivojlantirish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘rgatishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining zamonaviy ta’lim tizimlarida mustaqil ish o‘quv jarayonining markaziy elementi sifatida qaraladi va asosan o‘quvchini individuallashtirishga qaratilgan. Bu yondashuvda har bir talabani individual ehtiyojlari, intellektual darajasi, o‘zlashtirish sur‘ati va qiziqishlari hisobga olinadi. Natijada, har bir talaba o‘zining shaxsiy ta’lim yo‘nalishini tanlay oladi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga mas’ul bo‘ladi.

G‘arbda keng tarqalgan amaliyotlardan biri — talabalarning ma’lum bir vaqt mobaynida darslardan ozod etilib, mustaqil loyiha ishlarini olib borishidir. Bu tajribada talaba berilgan mavzu yoki soha bo‘yicha chuqur izlanish olib boradi, ilmiy manbalarni o‘rganadi, tajribalar o‘tkazadi yoki kuzatuvlar asosida xulosa chiqaradi. Ushbu ish yakunida talaba loyiha yoki tadqiqot hisoboti shaklida o‘z faoliyati natijalarini taqdim etadi. Hisobotlar yozma shaklda topshirilishi bilan birga, ko‘pincha og‘zaki taqdimot yoki multimedia prezentatsiyalari tarzida ham baholanadi. Bu esa talabani nafaqat yozma nutqi, balki og‘zaki muloqot, tanqidiy fikrlash va taqdimot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

G‘arb tajribasida mustaqil ishlarning tipologiyasi ham juda keng va xilma-xildir. Ular orasida quyidagi turlarga alohida e’tibor qaratiladi:

Yakka tartibdagi yo‘l-yo‘riqli ishlar (directed studies): bu shaklda o‘qituvchi talaba bilan individual ishlaydi, unga yo‘nalish beradi, ammo ijodiy izlanishni talabaga qoldiradi. Bu yondashuv talabaning mustaqil qaror qabul qilishini va shaxsiy mas‘uliyatini kuchaytiradi.

Seminarlar: talabalar muayyan mavzular bo‘yicha mustaqil tayyorgarlik ko‘rib, bilim va qarashlarini guruh oldida muhokama qiladi. Seminarlar ko‘pincha tanqidiy fikrlash, savol-javob, tahliliy mulohazalarga asoslanadi. Bu shaklda mustaqil ish, ilmiy muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish vositasiga aylanadi.

“Qidiruv” (exploratory) ishlari: talaba ma‘lum mavzu doirasida mustaqil izlanish olib boradi, yangi axborotlarni izlaydi, ularni saralaydi va tahlil qiladi. Bunday ishlar ko‘pincha loyiha, eksperiment yoki tadqiqot shaklida tashkil etiladi. Bu jarayonlar “self-directed learning” (o‘zini boshqaruvchi o‘qish) konsepsiyasiga asoslanadi.

Shuningdek, G‘arb mamlakatlarida o‘quvchilar va talabalar mustaqil ishlarni bajarishda turli manbalardan foydalanishga undaladi: kutubxonalar, elektron resurslar, muzeylar, laboratoriyalar, ilmiy jurnallar va hatto kundalik hayotiy tajribalar mustaqil ta‘limning manbai sifatida qaraladi. Ayrim hollarda talabalarga “loyiha” ustida ishlash uchun 5-6 haftagacha darslardan ozodlik beriladi, bu esa ularning ilmiy-izlanish salohiyatini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mustaqil ta‘limga Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi oliy ta‘lim tizimiga yangicha yondashuvlarni olib keldi. An‘anaviy ta‘lim shakllari bilan birga, zamonaviy metodlar va texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo‘llash talabalarning bilim olish faoliyatini yanada samarali, erkin va moslashuvchan qiladi. Ayniqsa, mustaqil ta‘limni tashkil etishda quyidagi innovatsion yondashuvlar alohida e‘tiborga loyiq:

Web-kvest texnologiyasi — bu o‘quvchilarning internet resurslaridan foydalanib, muayyan mavzu doirasida axborot izlash, uni tahlil qilish, saralash, baholash va undan xulosalar chiqarish faoliyatiga asoslangan ta‘limiy metod hisoblanadi. Web-kvestlar talabalarning mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, tanqidiy tahlil, va taqdimot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiya orqali talaba bilimni tayyor shaklda emas, balki izlanish va tahlil qilish orqali egallaydi.

“Blended learning” (aralash ta‘lim) — bu an‘anaviy (auditoriyadagi) va onlayn (masofaviy) ta‘lim shakllarining birlashtirilgan modeli bo‘lib, har ikki shaklning ustun jihatlarini uyg‘unlashtiradi. Bu yondashuvda darsning bir qismi masofadan o‘rganiladi, qolgan qismi esa auditoriyada mustaqil yoki guruhviy ishlarda tatbiq etiladi. Bu usul talabalarning o‘zlashtirish sur‘atini hisobga olishga imkon yaratadi hamda ularni o‘z o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

“Flipped classroom” (almashtirilgan sinf) — bu texnologiyada an‘anaviy ta‘lim jarayoni o‘zaro almashadi: ya‘ni talaba darsdan oldin mavzuni mustaqil tarzda o‘rganadi (videodars, maqola, prezentatsiya orqali), dars vaqtida esa olgan bilimlarini muhokama qiladi, tahlil qiladi

yoki amaliy topshiriqlarni bajaradi. Bu metod mustaqil tayyorgarlikni kuchaytiradi, talabaning mas’uliyatini oshiradi va dars vaqtini samarali ishlatishga imkon beradi.

Ushbu texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni interfaol, ijodiy va shaxsga yo’naltirilgan bo‘lib, talabalarda bilimlarni faqat yodlash emas, balki ularga tanqidiy yondashish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash kabi yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim o‘quv jarayonining sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tyutorlik – bu talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda metodik va pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhim tashkiliy-metodik tizimdir. U, asosan, talabaning o‘quv jarayonidagi individual ehtiyojlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida quriladi. Tyutorlikning asosiy maqsadi – talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash, uni bilim olishga yo’naltirish, mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashishdir.

Tyutorlik jarayoni individual va guruhiiy shakllarda amalga oshiriladi. Individual tyutorlikda tyutor (yo’naltiruvchi o‘qituvchi) har bir talabaga alohida yondashadi, unga individual o‘quv rejasini ishlab chiqishda yordam beradi, ta’limiy resurslardan samarali foydalanishni o‘rgatadi va o‘z ustida ishlash strategiyalarini shakllantirishga yo’naltiradi. Guruhiiy tyutorlikda esa talabalar kichik guruhlarda birgalikda ishlaydi, tyutor esa ularni yo’naltirib boradi, guruhiiy muhokamalar, loyiha ishlari va o‘zaro fikr almashuvlar orqali mustaqil ta’limni faol shakllantirishga sharoit yaratadi.

Tyutorlik tizimining muvaffaqiyati o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv muloqot, doimiy maslahat, fikr almashinuvi va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlikka bog‘liq. Bu tizimda o‘qituvchi o‘zining nazorat qiluvchi funksiyasidan ko‘ra, yo’naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va fikr yuritishga undovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Natijada, talaba o‘quv jarayonida passiv ishtirokchi emas, balki faol subyektga aylanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida tyutorlikning dolzarbligi, ayniqsa, kredit-modul tizimi, masofaviy va aralash ta’lim shakllari joriy etilgan sharoitda yanada ortmoqda. Talabalar mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda, o‘z o‘quv portfelini yuritishda, faoliyatini rejalashtirishda tyutorning maslahatlariga tayanadi. Shu boisdan ham tyutorlik nafaqat mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish vositasi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojiga ko‘mak beruvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, oliy ta’limda raqamlashtirish jarayonlari va mustaqil ta’limni tashkil etishga doir faoliyatlar nafaqat talabalarining o‘zlashtirish ko‘nikmalarini, balki ularning kasbiy tayyorgarligi, tanqidiy fikrlash salohiyati va hayotiy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Shu bois, mustaqil ta’limni to‘g‘ri va tizimli tashkil etish — zamonaviy oliy ta’limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. AQSh va Yevropa ta’lim tizimidagi mustaqil ish yondashuvlari — talabaning shaxsiy o‘sishi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, tadqiqot olib borish malakasi va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat

qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Bu tajribalarni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Mustaqil ish nafaqat talabaning o‘z-o‘zini anglash, bilim olish va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi, balki uning intellektual salohiyatini ochishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar tizimidir. Raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar, web-kvestlar, tyutorlik tizimi va aralash ta’lim texnologiyalari mustaqil ta’limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar talabalarning shaxsiy mas’uliyatini oshiradi, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdumannopov M.M. Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy jurnali 2024-yil iyul, №1-B. 102-110.
2. Abdumannopov M.M. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish // Filologiya va fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Materiallari, Farg‘ona, 2024 B. 549-550.
3. Abdumannopov M.M. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari // FarDU xabarlari. Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali.-Farg‘ona, 2024-№3-B. 358-362.
4. Muslimov.N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... pedagogika fan. doktori - Toshkent, 2007. – B. 85.
5. Джураев.Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования. Автореф. дис. док. пед. наук. Санкт-Петербург 1995. – Б. 43-47.



E-LEARNING, M-LEARNING, X-LEARNING VA SMART-LEARNING KONSEPSIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI

Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
(zulqaynar92@gmail.com)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamli ta'lim konsepsiyalari — E-learning (elektron ta'lim), M-learning (mobil ta'lim), X-learning (kengaytirilgan/aralash ta'lim) va Smart-learning (aqlli ta'lim) tushunchalari ilmiy-nazariy asosda chuqur tahlil qilinadi. Har bir konsepsiyaning shakllanish tarixiy bosqichlari, texnologik rivojlanishi, pedagogik-metodik asoslari, ta'limdagi qo'llanilishi va o'zaro farqlari tizimli ravishda o'rganilgan. Tadqiqotda kontent-analiz, tarixiy-tahliliy, komparativ va tizimli yondashuv metodlari qo'llanilib, konsepsiyalarning shakllanishiga sabab bo'lgan omillar, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlab berilgan.

E-learning konsepsiyasi masofaviy va modulli ta'lim shakllari uchun asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, M-learning modeli mobil qurilmalar yordamida o'rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. X-learning esa an'anaviy va raqamli ta'lim elementlarini uyg'unlashtirgan aralash (blended) o'qitish metodikasini ifodalaydi. Smart-learning modeli esa sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va adaptiv texnologiyalarga asoslanib, shaxsga yo'naltirilgan va yuqori interaktivlikka ega raqamli o'quv muhiti yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir model zamonaviy ta'limda o'ziga xos rol o'ynaydi va raqamli transformatsiyaning turli bosqichlariga mos keladi. Xususan, Smart-learning konsepsiyasi hozirgi bosqichda o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan, individual o'qitish usullarini ta'minlaydi. Maqola yakunida O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish, pedagog kadrlar tayyorlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: E-learning, M-learning, X-learning, Smart-learning, raqamli ta'lim texnologiyalari, masofaviy o'qitish, mobil o'rganish, adaptiv ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt, raqamli pedagogika, interaktiv o'quv muhitlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konnektivizm, multimodal ta'lim, ta'limda raqamli transformatsiya.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlariga tubdan ta'sir ko'rsatdi. An'anaviy ta'lim

modellari asta-sekin o‘z o‘rnini raqamli ta’lim shakllariga bo‘shatayotgan bir davrda, zamonaviy pedagogika doirasida ta’limni elektron muhitga ko‘chirish, uni shaxsga moslashtirish va uzluksiz amalga oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli o‘quv muhitining shakllanishi bilan bog‘liq E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalari o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda.

E-learning – ya’ni elektron ta’lim – dastlab internet texnologiyalariga asoslangan, masofadan o‘qitish imkonini beruvchi modulli o‘quv tizimi sifatida shakllandi. M-learning (mobil ta’lim) esa bu jarayonni mobil qurilmalar orqali har qanday joyda va vaqtda davom ettirish imkonini berdi. X-learning modeli esa aralash (blended) ta’lim konsepsiyasiga asoslanib, an’anaviy va raqamli yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda yangi sifat bosqichini yaratdi. Smart-learning konsepsiyasi esa eng zamonaviy texnologik yondashuv — sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), adaptiv tizimlar va analitik tahlillar asosida ta’limni shaxsiylashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Ushbu konsepsiyalarning shakllanishi, rivojlanishi va ta’limdagi o‘rni nafaqat texnologik yutuqlarning natijasi, balki pedagogik-metodik transformatsiyaning ifodasi hamdir. Shuning uchun bu maqolada E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalari alohida-alohida tahlil qilinadi, ularning o‘zaro farqlari va o‘xshashliklari, shuningdek, har birining o‘quv jarayoniga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot maqsadi — mazkur konsepsiyalarning ta’limdagi evolyutsiyasini aniqlash, ularni zamonaviy o‘quv muhitiga integratsiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatish va O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida ularning ahamiyatini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalari haqida so‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan nazariy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalari faqat texnik vositalarning to‘plami emas, balki pedagogik metodologiyalarning transformatsiyasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

E-learning konsepsiyasi dastlab 2000-yillar boshida ommalashgan bo‘lib, bu haqda R.E. Mayer (2021) o‘zining “Multimedia Learning” asarida multimodal taqdimot vositalari orqali bilim olish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodlarni asoslab beradi. Beetham & Sharpe (2020) esa e-learningni raqamli muhitda mustaqil o‘rganish va modullik printsiplariga asoslangan zamonaviy ta’lim yondashuvi sifatida ko‘radi. E-learning bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar interaktivlik, o‘quv materiallarini moslashtirish, va teskari aloqaning muhimligini ta’kidlaydi.

M-learning — mobil qurilmalar asosida ta’lim olish g‘oyasi 2010-yillarda smartfonlarning keng tarqalishi bilan shakllana boshladi. Traxler (2018) mobil ta’limni “ta’limning istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshirilish shakli” deb tariflaydi. Bu yondashuv bo‘yicha S. Kukulska-Hulme va J. Pettit (2020) mobil qurilmalar o‘quvchini faollashtirish, ko‘chma o‘quv

muhitlar yaratish hamda real hayotdagi o‘quv kontekstlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

X-learning tushunchasi, ya’ni “eXtended learning” yoki “eXperiential learning”, asosan blended learning (aralash ta’lim) konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, an’anaviy va raqamli yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bonk va Graham (2021) aralash ta’limni pedagogik jarayonni fleksibil, o‘quvchiga yo‘naltirilgan, va ko‘proq tajriba asosida amalga oshadigan holat deb ta’riflaydi. Bu model ko‘proq universitetlar va korporativ treninglarda keng tatbiq etilmoqda.

Smart-learning konsepsiyasi esa eng yangi va ilg‘or yondashuvlardan biri bo‘lib, u sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), adaptiv ta’lim tizimlari va bulutli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. G. Siemens (2022) konnektivizm nazariyasi asosida bilimlar tarmog‘ini tashkil etish va avtomatik tarzda moslashtirilgan kontent orqali o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashni asoslab beradi. Smart-learning shuningdek, interaktiv muhitlar, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv yo‘llari, real vaqtli monitoring tizimlari va gamifikatsiyani o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston kontekstida ham raqamli ta’lim konsepsiyalariga oid qator ilmiy ishlar mavjud. F.M. Zakirova (2021) raqamli ta’lim vositalarining bosqichma-bosqich rivojini yoritib bergan, M.R. Fayziyeva (2022) esa smart ta’lim muhitining pedagogik asoslarini tahlil qilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham bu yo‘nalishdagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan hujjat hisoblanadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili ushbu to‘rtta konsepsiyaning nazariy asoslari, texnologik platformalari va pedagogik ahamiyatini chuqur o‘rganishga zamin yaratadi hamda ta’limda raqamli transformatsiyaning bosqichma-bosqich amalga oshishini tasdiqlaydi.

METODLAR

Mazkur ilmiy tadqiqotda E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalarining shakllanishi, rivojlanishi va pedagogik ahamiyatini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod

Ushbu tadqiqotda raqamli ta’lim konsepsiyalarining shakllanish bosqichlarini aniqlashda tarixiy-tahliliy metod asosiy vosita sifatida qo‘llanildi. Bu metod orqali raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi, bosqichma-bosqich rivojlanishi va pedagogik yondashuvlarga ta’siri davrlar kesimida tahlil qilindi. Jumladan, 2000-yillarda E-learning modeli internet texnologiyalariga asoslangan holda shakllanib, o‘quv materiallarining elektron formatda uzatilishi, LMS tizimlarining (Moodle, Blackboard) paydo bo‘lishi va interaktivlik elementlarining joriy etilishi bilan ajralib turadi.

Keyingi bosqichda, 2010-yillarda mobil qurilmalar va simsiz tarmoq texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida M-learning (mobil ta’lim) va X-learning (aralash va kengaytirilgan ta’lim) konsepsiyalari yuzaga keldi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga istalgan joyda va vaqtda ta’lim olish imkoniyatini taqdim etdi hamda an’anaviy va raqamli o‘quv metodlarining integratsiyasiga asoslandi.

2020-yildan keyingi davr esa Smart-learning konsepsiyasining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (big data), bulutli platformalar va adaptiv o‘quv tizimlari keng qo‘llanila boshlandi. Pandemiya sharoitida masofaviy ta‘limning dolzarbligi oshdi va raqamli texnologiyalar asosida ta‘limni shaxsiylashtirish, moslashtirish va real vaqtli boshqarish imkoniyatlari kuchaydi. Ushbu transformatsion jarayonlar tarixiy davrlar kontekstida tizimli tarzda tahlil qilinib, har bir bosqichning texnologik, metodik va pedagogik xususiyatlari aniqlandi.

Kontent-analiz metodi

Ushbu tadqiqotda raqamli ta‘lim konsepsiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganishda **kontent-analiz metodi** muhim o‘rin tutdi. Metod orqali so‘nggi yillarda nashr etilgan yirik xalqaro ilmiy adabiyotlar, ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilarning ishlari, shuningdek, milliy strategik hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, Mayer (2021) tomonidan ilgari surilgan multimedia o‘rganish nazariyasi, Siemens (2022) ta‘riflagan konnektivistik ta‘lim modeli, Kukulska-Hulme (2020) tomonidan M-learning asoslari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va Beetham & Sharpe (2020) tomonidan ilgari surilgan raqamli kompetensiya modeli asos qilib olindi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Oliy ta‘limda raqamli transformatsiya konsepsiyasi kabi milliy hujjatlar mazmunan o‘rganildi. Ushbu kontentlar asosida E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalarining ta‘riflari, ularning qo‘llanilish doirasi, texnologik asoslari va pedagogik yondashuvlari solishtirildi.

Kontent-analiz metodi yordamida har bir konsepsiyaning o‘ziga xos jihatlari ajratib ko‘rsatildi. Jumladan, E-learningda asosiy urg‘u o‘quv kontentining raqamli ko‘rinishda yetkazilishiga qaratilgan bo‘lsa, M-learningda ta‘limning mobil qurilmalar orqali uzluksiz davom ettirilishi tahlil qilindi. X-learning konsepsiyasi an‘anaviy va raqamli yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan modellarni aks ettirsa, Smart-learning texnologik yutuqlar asosida shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan ta‘limni amalga oshirish imkoniyatlarini ta‘minlaydi.

Natijada, kontent-analiz metodikasi yordamida raqamli ta‘lim konsepsiyalarining shakllanishi, ilmiy asoslari va qo‘llanilish holatlari bo‘yicha izchil tasniflash amalga oshirildi.

Komparativ (taqqoslov) metod

Tadqiqot davomida E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalarining o‘zaro qiyosiy tahlili komparativ metod asosida amalga oshirildi. Ushbu metod yordamida har bir ta‘lim modelining texnologik bazasi, interaktivlik darajasi, o‘quv jarayoniga integratsiyalashganlik ko‘lami, shuningdek, shaxsiylashtirish va moslashuvchanlik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Masalan, E-learning konsepsiyasi an‘anaviy ta‘limga alternativ sifatida internet orqali kontent yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lib, asosan statik kontent, forum va testlar orqali interaktivlikni ta‘minlashi bilan ajralib turadi. M-learning esa mobil qurilmalardan foydalanish

orqali ta’limni istalgan vaqtda va istalgan joyda davom ettirishga imkon beradi, bu esa uzluksiz o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, X-learning konsepsiyasi an’anaviy, elektron va kengaytirilgan (extended) ta’lim elementlarini birlashtirgan holda, multimodal yondashuvga asoslanadi. Bu modelda raqamli va real muhitlar uyg‘unlashgan tarzda faoliyat yuritadi. Smart-learning esa sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va big data imkoniyatlariga tayangan holda, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos adaptiv va analitik tizimlar orqali o‘quv jarayonini yuqori darajada shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Komparativ metod asosida aniqlangan natijalar har bir modelning pedagogik samaradorligini ko‘rsatib berdi. E-learning asosiy bilim bazasini shakllantirishga xizmat qilsa, M-learning o‘rganish jarayonining erkinligini oshiradi, X-learning esa aralash va boyitilgan metodikani taklif etadi, Smart-learning esa real vaqtli tahlil va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytiradi.

Bu taqqoslovii yondashuv orqali ta’lim tizimida qaysi modelning qanday sharoitda samarali ishlashi mumkinligi aniqlab olindi hamda ularni o‘zaro integratsiyalash imkoniyatlari ham baholandi.

Tizimli yondashuv

Ushbu tadqiqotda raqamli ta’lim konsepsiyalarining ichki tarkibiy tuzilishini chuqur o‘rganishda **tizimli yondashuv** metodidan foydalanildi. Bu metod orqali E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning kabi konsepsiyalar nafaqat texnologik vositalar to‘plami sifatida, balki o‘zaro bog‘langan didaktik, metodik va texnik komponentlar tizimi sifatida tahlil qilindi.

Avvalo, har bir konsepsiyaning **texnik komponentlari** — qurilmalar, platformalar (masalan, LMS tizimlari, mobil ilovalar, bulutli servislar), dasturiy ta’minot va ularga asoslangan xizmatlar o‘rganildi. E-learningda web-platformalarning (Moodle, Blackboard) roli katta bo‘lsa, M-learning mobil ilovalar va qurilmalar bilan ajralib turadi. Smart-learning esa sun’iy intellekt, big data va IoT (Internet of Things) texnologiyalariga tayanadi.

Metodik komponentlar esa ta’lim jarayonini qanday tashkil etish, qanday didaktik materiallardan foydalanish va ularni qanday ketma-ketlikda qo‘llashni belgilaydi. E-learningda modullilik va mustaqil o‘rganish metodikasi muhim bo‘lsa, X-learningda aralash ta’lim senariylari va multimodal yondashuvlar asosiy o‘rinni egallaydi. Smart-learningda esa algoritmik adaptivlik va real vaqtli moslashtirishlar orqali metodika dinamik tarzda tuziladi.

Didaktik komponentlar esa o‘quv jarayonining mazmunini, talabalarga qo‘yiladigan maqsadlar va ularni baholash mezonlarini belgilaydi. Bu yerda o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqot shakllari (chat, forum, videokonferensiya), kontent yetkazish usullari (video, test, interaktiv topshiriqlar) hamda **monitoring va teskari aloqa** (feedback) tizimlarining qanday yo‘lga qo‘yilgani alohida tahlil qilindi. Ayniqsa, Smart-learning tizimlarida teskari aloqa avtomatik tarzda generatsiya qilinadi va individual ta’lim yo‘llarini taklif etadi.

Natijada, tizimli yondashuv orqali raqamli ta’lim konsepsiyalarining ichki tuzilishi, komponentlararo o‘zaro bog‘liqlik, pedagogik samaradorlik va amaliy qo‘llash imkoniyatlari aniqlab olindi. Ushbu yondashuv konsepsiyalarni faqat texnologik emas, balki metodologik jihatdan to‘liq baholashga imkon berdi.

Vizualizatsiya va sxematik tasniflash

Tadqiqotda raqamli ta’lim konsepsiyalarining (E-learning, M-learning, X-learning, Smart-learning) evolyutsiyasi, tarkibiy xususiyatlari va qo‘llanilish mexanizmlarini aniqroq ifodalash maqsadida **vizualizatsiya va sxematik tasniflash metodlari** qo‘llanildi. Ushbu metod orqali to‘plangan ma’lumotlar jadval, diagramma va sxema shaklida tizimlashtirilib, murakkab axborotlar o‘quvchi uchun tushunarli va taqqoslanadigan ko‘rinishga keltirildi.

Eng avvalo, konsepsiyalarning **vaqt oralig‘idagi evolyutsiyasi** bosqichma-bosqich jadvalda ko‘rsatildi. Jumladan:

2000-yillar — E-learning konsepsiyasining paydo bo‘lishi va LMS tizimlarining shakllanishi;

2010-yillar — M-learning va X-learningning rivojlanishi, mobil qurilmalar va AR/VR elementlarining ta’limga kirib kelishi;

2020-yillardan so‘ng — Smart-learning asosidagi shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va sun‘iy intellektga tayangan ta’lim tizimlarining ommalashuvi.

Shuningdek, **pedagogik yondashuvlar, kontent yetkazish formatlari va interaktivlik darajasi** bo‘yicha taqqoslov jadval ishlab chiqildi. Unda har bir modelning texnologik infratuzilmasi, o‘quv jarayonidagi roli, monitoring va teskari aloqa mexanizmlari grafik shakllarda taqdim etildi.

Masalan, **diagrammalar** orqali:

E-learningda asosiy e’tibor kontent yetkazish va asosiy bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilganligini;

M-learningda mobil va uzluksiz o‘rganish imkoniyatlari kuchayganini;

X-learningda aralash metodlar orqali faol ishtirok va multimodal yondashuvlar taklif etilishini;

Smart-learningda esa real vaqtli tahlil, moslashtirilgan topshiriqlar va AI asosidagi algoritmlarning ustuvorligini aniq ko‘rish mumkin bo‘ldi.

Sxemalar orqali esa konsepsiyalarning ichki tarkibiy bog‘liqliklari – texnik vositalar, o‘quv resurslari, metodik yondashuvlar, hamda foydalanuvchi tajribasi o‘rtasidagi munosabatlar vizual tarzda ko‘rsatildi.

Ushbu metod ilmiy ma’lumotlarning nafaqat tasniflanishiga, balki ular orasidagi uzviy bog‘liqlik va farqlarni tushunarli tahlil qilishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan tarixiy-tahliliy, kontent-analiz, komparativ, tizimli va vizualizatsion yondashuvlar orqali E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalarining shakllanishi, asosiy xususiyatlari, texnologik va pedagogik komponentlari har tomonlama o‘rganildi. Ushbu metodik yondashuvlar ta’lim konsepsiyalarining zamonaviy

o‘quv jarayonidagi tutgan o‘rni, samaradorlik omillari hamda ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini chuqur aniqlab olishga imkon berdi.

Aniqlanishicha, har bir konsepsiyaning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ular talaba markazli o‘qitish, adaptiv yondashuvlar, uzluksiz ta’lim, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, multimodal resurslardan foydalanish kabi ustuvor yo‘nalishlarni ta’minlaydi. Xususan, Smart-learning modelining sun‘iy intellekt va analitik tizimlarga asoslanganligi uni individuallashtirilgan va moslashuvchan o‘quv jarayoni uchun eng zamonaviy yechim sifatida ajratib ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, ushbu konsepsiyalarni mahalliy ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ta’limning qamrovi va sifati yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Bunda pedagoglarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash, o‘quv materiallarini transformatsiya qilish va texnologik infratuzilmani yaxshilash muhim omil hisoblanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim konsepsiyalarining (E-learning, M-learning, X-learning, Smart-learning) shakllanishi, asosiy tarkibiy xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlari tizimli ravishda o‘rganildi. Quyidagi muhim natijalarga erishildi:

E-learning konsepsiyasi raqamli ta’lim texnologiyalarining dastlabki asosiy shakllaridan biri sifatida qaraladi. U 2000-yillarda internet texnologiyalarining ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi bilan shakllanib, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Mazkur konsepsiya o‘quv jarayonini **modullarga bo‘lingan, interaktiv va mustaqil o‘zlashtirishga mo‘ljallangan** raqamli kontent orqali amalga oshirishga asoslanadi. E-learning modelining asosiy texnologik tayanchi bu — **LMS (Learning Management System)** tizimlari bo‘lib, ular yordamida dars materiallarini yetkazish, topshiriqlarni boshqarish, testlar o‘tkazish va baholash jarayonlari avtomatlashtirilgan holda boshqariladi (Mayer, 2021; Siemens, 2022).

Shuningdek, bu modelda **o‘quvchi markazli yondashuv**, vaqt va makon jihatidan erkinlik, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish (self-paced learning) imkoniyatlari mavjudligi uni an’anaviy ta’lim shakllaridan farqlaydi. E-learning konsepsiyasi keyingi raqamli ta’lim modellarining (masalan, M-learning, Smart-learning) shakllanishida asosiy zamin bo‘lib xizmat qilgan.

M-learning (Mobile learning) konsepsiyasi raqamli ta’limning navbatdagi bosqichi sifatida 2010-yillardan boshlab shakllana boshladi va ta’lim mobilligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Mobil qurilmalar (smartfon, planshet, noutbuk) va simsiz tarmoqlarning keng tarqalishi tufayli o‘quvchilar endilikda ta’lim resurslariga **joy va vaqt bilan cheklanmagan holda** kirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu esa ta’lim jarayonini **uzluksiz, portativ va kontekstga moslashgan** holatga keltirdi.

M-learning modelining asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat: **moslashuvchanlik, tezkorlik, interaktiv ilovalar orqali o‘zaro aloqa**, va **individual ehtiyojlarga mos kontent**

y etkazish imkoniyati. Bu modelda audio, video, grafik, matnli kontentlarni birlashtirgan multimodal resurslardan foydalanish imkoniyati kengaygan bo‘lib, ta‘lim jarayonini ko‘proq hissiy, intuitiv va dinamik tarzda tashkil etish imkonini berdi (Kukulska-Hulme, 2020; Sharpe & Beetham, 2021).

M-learning ayniqsa hayotiy faoliyat bilan band, doimiy harakatda bo‘lgan shaxslar uchun samarali ta‘lim shakli hisoblanadi. Bu konsepsiya raqamli savodxonlikni rivojlantirish, o‘quvchilarni faol jalb etish va masofaviy ta‘limda motivatsiyani oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

X-learning modeli – bu raqamli ta‘limning ilg‘or va kompleks shakli bo‘lib, an‘anaviy ta‘lim uslublarni raqamli innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtiradi. Ushbu konsepsiya o‘zida aralash (blended) ta‘lim, gamifikatsiya (o‘yinlashtirish), kengaytirilgan (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalari, sensorli qurilmalar, hamda multimodal yondashuvlarni mujassamlashtiradi. Aynan shu integrativ yondashuv orqali X-learning o‘quvchilarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishda va ularning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

X-learning konsepsiyasi ta‘limni faqat bilim berishga emas, balki o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, muammo yechish ko‘nikmalari va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiradi. O‘quv resurslari AR/VR orqali 3D muhitda modellashtirilganligi sababli, ayniqsa, texnika, biologiya, fizika va muhandislik yo‘nalishlarida tajribaviy bilimni mustahkamlash imkonini yaratadi (Salmon, 2023; Kukulska-Hulme, 2022).

Multimodal yondashuv esa o‘quvchilarning eshitish, ko‘rish va kinestetik qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida faollashtirish orqali bilimni yaxshiroq o‘zlashtirishlariga imkon beradi. Shu tarzda, X-learning o‘quvchi markazli, interaktiv va texnologik jihatdan rivojlangan o‘quv muhiti yaratadi.

Smart-learning konsepsiyasi — bu zamonaviy raqamli ta‘limning eng ilg‘or bosqichi bo‘lib, u sun‘iy intellekt (AI), learning analytics (o‘quv faoliyatini tahlil qilish) va shaxsiylashtirilgan ta‘lim algoritmlariga asoslangan holda shakllanadi. Bu model orqali o‘quv jarayoni adaptiv, ya‘ni har bir o‘quvchining individual ehtiyoj va o‘zlashtirish darajasiga mos holda avtomatik tarzda moslashtiriladi.

Smart-learning o‘quv muhitida real vaqtli tahlil, avtomatik tavsiyalar, o‘quvchi faoliyatini monitoring qilish, hamda feedback (teskari aloqa) tizimlari asosiy funksiyalar sifatida ishlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘rganish strategiyalarini boshqarish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va reflektiv (fikir yuritish asosidagi) o‘rganish modeliga erishish imkonini yaratadi (Mayer, 2021; Siemens, 2022).

Smart-learning konsepsiyasi asosida qurilgan o‘quv platformalarida adaptiv testlar, vizual analitika panellari, shaxsiy o‘quv yo‘llari va AI-assistentlar yordamida ta‘lim samaradorligi keskin oshadi. Ayniqsa, pandemiyadan so‘nggi davrda, bu yondashuv O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham dolzarb bo‘lib, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda.

Komparativ tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalari o‘rtasida texnologik baza, interaktivlik darajasi, shaxsga yo‘naltirilganlik hamda monitoring va teskari aloqa mexanizmlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. Masalan, E-learning modeli asosan LMS tizimlari orqali modullashtirilgan kontent yetkazishga urg‘u bersa, M-learning mobil qurilmalar yordamida ta’limni istalgan joy va vaqtda davom ettirish imkoniyatini yaratadi.

X-learning konsepsiyasi esa o‘yinlashtirish, AR/VR texnologiyalari va multimodal yondashuvlar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Smart-learning konsepsiyasi esa shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari, sun‘iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari va real vaqtli learning analytics imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Bu farqlar har bir konsepsiyaning pedagogik maqsadlari va o‘quvchilar ehtiyojlariga qarab tanlanishi kerakligini anglatadi. Masalan, an‘anaviy universitetlar uchun E-learning yetarli bo‘lishi mumkin, biroq o‘quvchilarni faol subyektga aylantirish maqsadida X-learning yondashuvi samaraliroq. Yuqori darajada personalizatsiya talab etiladigan sharoitlarda esa Smart-learning konsepsiyasi eng mos va zamonaviy yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Tizimli yondashuv natijalariga ko‘ra, E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalari o‘ziga xos texnik, metodik va didaktik komponentlarga ega bo‘lishiga qaramay, ular bir-birini to‘ldiruvchi va uzviy bog‘langan ta’limiy tizim sifatida shakllanganligi isbotlandi. Har bir model o‘zining zamonaviy texnologik platformalari (masalan, LMS, mobil ilovalar, AR/VR modullari, sun‘iy intellekt asosidagi tizimlar) orqali o‘quv faoliyatining texnik asosi bo‘lsa, u bilan uyg‘un metodik yondashuvlar (mustaqil o‘rganish, gamifikatsiya, problemalarga asoslangan ta’lim, adaptiv monitoring) ta’lim mazmunining samarali yetkazilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, har bir konsepsiyaning didaktik asoslari – interaktivlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, refleksiya, motivatsiya kabi prinsiplarga tayangan holda, o‘quvchilar bilimini ongli ravishda egallashiga xizmat qiladi. Bu jihatlar ta’limning barcha bosqichlarida – rejalashtirish, tashkil etish, monitoring va baholashda o‘zaro integratsiyalashgan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Natijada, mazkur konsepsiyalar faqat izolyatsiyalangan texnologik yechimlar emas, balki kompleks o‘quv tizimlarining strategik tarkibiy qismlari sifatida qaralishi lozim. Bu esa ularni tanlashda ta’lim muassasasining maqsadi, auditoriyasi va resurs salohiyati kabi omillarni hisobga olish zaruratini taqozo etadi.

Vizualizatsiya usuli tadqiqotda konsepsiyalarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini, ularning texnologik va metodik xususiyatlarini, shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini jadval va grafiklar orqali tizimli tarzda ifodalashga xizmat qildi. Ushbu yondashuv orqali E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning konsepsiyalarining asosiy farqlari – masalan, ularning interaktivlik darajasi, shaxsga yo‘naltirilganlik ko‘lami, moslashuvchanlik darajasi, texnologik baza va monitoring imkoniyatlari – ko‘p mezonli tahlil asosida taqqoslab ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, evolyutsion diagramma orqali konsepsiyalar qanday tarixiy bosqichlarda shakllangani (2000-yillardan boshlab to hozirgi kungacha), qaysi texnologiyalar ularning asosini tashkil qilgani (LMS, mobil ilovalar, AI, AR/VR), hamda ularning didaktik funksiyalari ketma-ketlik va o‘zaro bog‘liqlik asosida yoritildi. Ayniqsa, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun qaysi model qanday sharoitda samarali bo‘lishi mumkinligi jadval ko‘rinishida umumlashtirildi.

Vizualizatsiya usuli nafaqat tadqiqot natijalarini aniq va tushunarli ifodalashga, balki ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va konsepsiyalarni strategik tanlash jarayonlarini ham soddalashtirdi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali zamonaviy ta’lim tamoyillari – moslashuvchanlik, shaxsiylashtirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Bu jarayon avvalo “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining kengaytirilishi, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida raqamli platformalarning joriy etilishi, o‘quv resurslarining elektronlashtirilishi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

E-learning va M-learning konsepsiyalarining muassasalar darajasida joriy etilishi, ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda tezlashgan bo‘lib, bu o‘z navbatida o‘quvchilarning joy va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan ta’lim olishi, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlarga mos kontent tanlash imkoniyatlarini yaratdi. Shu bilan birga, X-learning va Smart-learning elementlarining tadbqiqilinishi, ya’ni interaktiv, gamifikatsiyalashgan va sun’iy intellekt asosidagi platformalarning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim sifatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur integratsiya natijasida raqamli savodxonlik nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar orasida ham oshmoqda, o‘quv jarayoni esa ko‘proq shaxsga yo‘naltirilgan, reflektiv va moslashuvchan tus olmoqda. Bu esa zamonaviy raqamli ta’lim konsepsiyalarining O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashuvchan tarzda implementatsiya qilinayotganidan dalolat beradi.

Raqamli ta’lim konsepsiyalarining solishtirma jadvali
1-jadval.

Konsepsiya	Asosiy xususiyatlar	Platformalar (namunalar)	Foyda (afzalliklar)
E-learning	Internetga asoslangan statik/modulli ta’lim	Moodle, Edmodo	Mustaqil o‘rganish, materialga istalgan vaqtda kirish
M-learning	Mobil qurilmalar orqali o‘rganish	Duolingo, Coursera App	Moslashuvchanlik, joy va vaqtga bog‘liqlik yo‘q
X-learning	Aralash (hybrid) ta’lim, tajriba + texnologiya	FutureLearn, Claned	Faol ishtirok, tajriba asosidagi yondashuvlar
Smart-learning	Sun’iy intellekt, analitika, adaptiv tizimlar	Khan Academy, SmartLMS	Personalizatsiya, tezkor teskari aloqa

Pandemiyadan keyingi davrda ta’lim tizimida yuzaga kelgan keskin o‘zgarishlar sababli Smart-learning konsepsiyasiga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortdi. An’anaviy va masofaviy ta’lim shakllarining birgalikda ishlatilishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, real vaqtli monitoring hamda adaptiv o‘qitish tizimlariga bo‘lgan talab Smart-learning yondashuvining dolzarbligini oshirdi.

Ushbu modelda sun’iy intellekt, learning analytics, va shaxsiylashtirilgan algoritmlar asosida o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu esa ayniqsa o‘zgaruvchan va noaniq sharoitlarda ta’limni uzluksiz tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida esa Smart-learning modelini mahalliy sharoitga moslashtirish, texnologik infratuzilmani tayyorlash, o‘qituvchilarni raqamli metodikalarga o‘rgatish, hamda zamonaviy platformalarni yaratish va joriy etish dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Bu modelni amaliyotga samarali tatbiq etish orqali ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim konsepsiyalarini samarali amalga oshirish faqat texnologik infratuzilmani joriy etish bilangina cheklanmaydi. Bunday yondashuv o‘z samarasini berishi uchun, u avvalo o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, o‘qituvchining metodik va psixologik roli, shuningdek, ta’lim muhitining madaniy, ijtimoiy va didaktik konteksti bilan uyg‘unlashgan holda yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Xususan, E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning singari raqamli konsepsiyalar faqat texnik imkoniyatlar bilan emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan, reflektiv va ijtimoiy-faol o‘quv yondashuvlari orqali maqsadga muvofiq tarzda tatbiq etilgandagina yuqori pedagogik samaraga erishish mumkin. Shu bois, raqamli ta’lim modellarini joriy etishda o‘qituvchi faoliyatining markaziy roli, o‘quvchilar bilan samarali muloqot, va milliy ta’lim madaniyatiga moslashuvchan metodikalarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida E-learning, M-learning, X-learning va Smart-learning kabi raqamli ta’lim konsepsiyalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning zamonaviy ta’limdagi tutgan o‘rni chuqur tahlil qilindi. Har bir konsepsiyaning texnologik infratuzilmasi, pedagogik yondashuvi va interaktivlik darajasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular maqsadli auditoriyaga qarab turlicha samaradorlikni ta’minlaydi.

E-learning modeli raqamli ta’limning klassik shakli sifatida masofaviy o‘qitish, modullilik va mustaqil o‘rganish imkoniyatlariga asoslanadi. M-learning esa mobil qurilmalar orqali ta’limga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirish imkoniyatini yaratib, o‘quv jarayonini mobillashtirdi. X-learning konsepsiyasi zamonaviy texnologiyalar – jumladan, AR/VR, gamifikatsiya va multimodal interfeyslar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokini kuchaytirdi. Smart-learning esa sun’iy intellekt, learning analytics va personalizatsiya imkoniyatlari orqali adaptiv va reflektiv o‘quv muhitini yaratish imkonini berdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ushbu konsepsiyalar faqat texnik vositalar majmuasi emas, balki didaktik, metodik va psixologik jihatlardan ham murakkab tizimni tashkil

qiladi. Ularning samarali joriy etilishi o‘quvchilarning raqamli savodxonligi, o‘qituvchining yangi rolga moslashuvi, hamda ta’lim muhitining madaniy kontekstiga bog‘liq.

Shu jihatdan, O‘zbekiston ta’lim tizimida bu konsepsiyalarni bosqichma-bosqich va tizimli integratsiya qilish orqali moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan va uzluksiz ta’lim muhiti yaratish mumkin. Ayniqsa pandemiyadan keyingi davrda Smart-learning modelining ahamiyati ortib borayotgani, ushbu modelni lokal sharoitga moslashtirish va milliy strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga chiqardi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, “raqamli ta’lim texnologiyalari” tushunchasi o‘zining shakllanishi davomida bir necha bosqichli evolyutsiyani bosib o‘tgan. 1980-yillardagi kompyuterga asoslangan o‘quv dasturlaridan tortib, 2020-yildan keyingi sun‘iy intellektga asoslangan personalizatsiyalashgan ta’lim tizimlarigacha bo‘lgan yo‘l nafaqat texnologik yutuqlar, balki metodik, pedagogik va didaktik qarashlarning ham chuqur transformatsiyasini aks ettiradi.

Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalari — bu faqat vositalar to‘plami emas, balki o‘quvchi markazli, moslashuvchan va uzluksiz o‘quv jarayonini ta’minlaydigan murakkab tizimdir. Ilmiy adabiyotlar tahlili, komparativ metod va grafik jadvaliy tasvirlar orqali bu tushunchaning pedagogik, texnik va metodik jihatlari uzviy bog‘liqlikda shakllanayotgani aniqlandi.

TAVSIYALAR

Ta’lim siyosati darajasida raqamli ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga oid maxsus normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi zarur.

Pedagog kadrlar tayyorlashda raqamli pedagogika, kontent yaratish, LMS platformalarini boshqarish, raqamli savodxonlik va sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha modul kurslari kiritilishi kerak.

O‘quv dasturlarida raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar, xususan, adaptiv o‘qitish, gamifikatsiya, real vaqtli baholash va tahlil tizimlari keng tatbiq etilishi lozim.

Talabalar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantiruvchi o‘quv muhitini shakllantirish — individual platformalar, virtual laboratoriyalar va onlayn resurslar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy izlanishlarda raqamli texnologiyalarni o‘rganishga oid tahliliy va eksperimental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish tavsiya etiladi.

O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosini ta’lim sohasi kesimida tahlil qilib, real natijalar asosida muntazam monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Xalqaro tajriba asosida, o‘zbek ta’lim tizimida MOOC, hybrid learning, open access kontentlar, blockchain asosida baholash kabi ilg‘or yondashuvlar tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich joriy etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mayer, R. E. (2021). *Multimedia Learning: Third Edition*. Cambridge University Press. – p. 36–59.
2. Siemens, G. (2022). *Digital Learning Theory and Practice*. Springer. – p. 122–134.
3. Salmon, G. (2023). *E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online*. Routledge. – p. 74–86.
4. Beetham, H., & Sharpe, R. (2020). *Rethinking Pedagogy for a Digital Age*. Routledge. – p. 101–119.
5. Hwang, G. J., & Chang, C. Y. (2021). "A review of opportunities and challenges of smart learning environments." *Educational Technology & Society*, 24(3), 1–14.
6. Zakirova, F. M. (2021). "Raqamli ta'lim vositalarining rivojlanish bosqichlari." *O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axboroti*, 3(87), 45–51.
7. Lutfullayev, M. (2023). "Raqamli pedagogika asoslari." *Ta'lim texnologiyalari jurnali*, 2(15), 12–20.
8. Fayziyeva, M. R. (2022). "Smart ta'lim muhitining metodik asoslari." *Innovatsion ta'lim jurnali*, 1(10), 27–33.
9. UNESCO. (2021). *Digital Learning: Preparing Teachers and Learners for the Future*. UNESCO Publishing. – p. 9–27.
10. OECD. (2023). *The Digital Transformation of Education: Policy Implications and Future Directions*. OECD iLibrary. – p. 65–84.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

FIZIKA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI KOMPETENSIYAGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ismoilov Umidjon Sobirjanovich
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika laboratoriya mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning nazariy asoslari yoritilgan. Kompetensiyaga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati, ularni tashkil etish metodikasi va natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bu uslubning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, fizika laboratoriya mashg'ulotlari, ta'lim metodikasi, amaliy tajribalar, zamonaviy texnologiyalar

Аннотация: В данной статье освещены теоретические основы организации лабораторных занятий по физике на основе компетентностного подхода. Анализируются значение компетентностно-ориентированных лабораторных занятий, методика их организации и результаты. Также даются рекомендации по повышению эффективности данного метода в образовательном процессе.

Ключевые слова: компетентностный подход, лабораторные занятия по физике, методика обучения, практические эксперименты, современные технологии

Abstract: This article highlights the theoretical foundations of organizing physics laboratory classes based on a competency-based approach. The significance of competency-oriented laboratory classes, their organization methodology, and results are analyzed. Additionally, recommendations are provided to enhance the effectiveness of this method in the educational process.

Keywords: competency-based approach, physics laboratory classes, teaching methodology, practical experiments, modern technologies

Kirish: Fizika laboratoriya mashg'ulotlari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi va o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimida keng joriy etilishi laboratoriya mashg'ulotlarini yanada samarali tashkil etish zaruratini tug'dirdi. Bu borada xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda laboratoriya ishlarini kompetensiyaga yo'naltirishga oid turli metodik va nazariy jihatlar o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlili: Masalan, J. Bruner fikriga ko‘ra, "Tajribalar orqali o‘rganish inson tafakkurini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir". D. Kolb esa laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyatini shunday izohlaydi: "Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni real hayot sharoitida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi". J. Piaget esa laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi bilan bog‘liq deb hisoblab, "Tajribaviy o‘rganish jarayoni bola tafakkurining mustaqil rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi" deb ta’kidlaydi. A. To‘raqulov laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha shunday fikr bildiradi: "Fizik tajribalar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirish va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositasidir". N. Xolmatova²⁴ esa o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda eksperimentlarning ahamiyatini ta’kidlab, "Laboratoriya ishlarida muammoli yondashuv o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi" deb qayd etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mavzuning nazariyasi va metodikasi: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaga yo‘naltirish jarayoni ta’limning zamonaviy tamoyillariga asoslanib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Konstruktivistik ta’lim nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimlari ularning mustaqil tajribalari orqali shakllanadi.

J. Piaget va L. Vygotskiy ta’kidlaganidek, inson bilimlarni faqatgina tayyor shaklda qabul qilmay, balki o‘z tajribasi asosida yangidan quradi. Bu esa laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirishni talab etadi. Eksperimentlar orqali o‘quvchilar o‘z kuzatuvlari natijasida ilmiy qonuniyatlarni tushunishga harakat qiladi va o‘z fikrlarini asoslab bera oladi.

Shuningdek, faol ta’lim metodlari laboratoriya ishlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eksperiment, muammoli ta’lim va loyiha metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga erishiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish ham ustuvor ahamiyatga ega. O‘quvchilar mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazib, natijalarini tahlil qiladi va ilmiy xulosalar chiqaradi. Bu esa ularning ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

Tahlillar va natijalar: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda integrativ yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Fizika fanining nazariy bilimlarini boshqa fanlar, jumladan, matematika, informatika va muhandislik bilan bog‘lash

²⁴ Sh. Karshiboev. "Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarining metodik asoslari." Toshkent: O‘zFA nashriyoti.
https://www.researchgate.net/publication/378190740_Fizika_fanidan_laboratoriya_mashg'ulotlarini_zamonaviy_tashkil_etish_metodikasi. A. Q. Xolmatovich. "Kompetensiyaviy yondashuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari" <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/1338/927>. A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya" https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATION_TEXNOLOGIYA

orqali o‘quvchilar mavzularni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, fizika laboratoriya ishlarida matematik modellash usullaridan foydalanish, informatika vositalari yordamida natijalarni tahlil qilish yoki muhandislik masalalarini hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini real hayot sharoitlariga tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Integrativ yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat fizika qonuniyatlarini o‘rganadi, balki ularning kundalik hayotda va texnologik jarayonlarda qo‘llanilishi bilan ham tanishadi. Shu tariqa, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.²⁵


Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik bosqichlar tavsiya etiladi. Dars oldi tayyorgarlik bosqichida laboratoriya ishining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi tushuntiriladi. Bu bosqich o‘quvchilarning mashg‘ulotga qiziqishini oshirish va ularga asosiy yo‘nalishlarni tushuntirish uchun muhimdir. Keyingi bosqich – nazariy tushuntirish bosqichi bo‘lib, bunda laboratoriya ishida foydalaniladigan asosiy qonunlar, formulalar va nazariy bilimlar beriladi. O‘quvchilar eksperimentni bajarishdan oldin kerakli bilimlarga ega bo‘lishlari shart.

Amaliy bajarish bosqichida esa o‘quvchilar laboratoriya ishini bajarayotganda faol ishtirok etishadi. Bu jarayonda tajribalar o‘tkazilib, natijalar qayd etiladi. O‘quvchilarning eksperiment jarayonida faol bo‘lishi ularning masalaga yanada chuqurroq yondashishiga yordam beradi. Keyingi bosqich – natijalarni tahlil qilish bosqichi bo‘lib, bu yerda olingan natijalar umumlashtiriladi, hisob-kitoblar amalga oshiriladi va xulosa chiqariladi. O‘quvchilar eksperiment natijalarini real fizik qonunlar bilan taqqoslab, o‘z tushunchalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Oxirgi refleksiya bosqichida esa o‘quvchilar mustaqil fikrlashni rivojlantiradilar va bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ular o‘z tajribalarini baholab, natijalarga tanqidiy yondashadi hamda o‘zlarini rivojlantirish uchun qanday qadamlar qo‘yish kerakligini anglab yetadilar. Shu tarzda, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat eksperimental tajriba orttirishga, balki o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.²⁶

²⁵ A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya"
https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATSION_TEXNOLOGIYA. Ёркинбек Маматохунов. "Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях" Universum: психология и образование N4 (82) Страницы 10

²⁶ Пиже, Жан, Наука о воспитании и психологии ребенка Издатель Нью-Йорк, Орион Пресс 1970 ISBN-код 0670621722 . Kolb, D. A. "Experiential Выготский, Л. Разум в обществе: развитие высших психических процессов, Издательство Гарвардского университета, Кембридж, Массачусетс, 1978, 56-58.



1-diagramma. Kompetensiyaga yo'naltirilgan fizika laboratoriya mashg'ulotlarining afzalliklari.

Umumiy fizika laboratoriya ishlari:

Laboratoriya ishi: “Nyuton ikkinchi qonunini tekshirish”

Nazariy qismi: Nyutonning ikkinchi qonuniga ko‘ra, jismlarga ta’sir etuvchi kuch va ularning tezlanishi orasidagi bog‘liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi: bu yerga formula yoziladi

$$a = \frac{F}{m}$$

bu yerda:

F – jismga ta’sir etuvchi kuch (N), m – jism massasi (kg), a – tezlanish (m/s^2).

Metodik qismi:

1. Dastlabki tayyorgarlik – laboratoriya jihozlari (dinamometr, yo‘l silliq panjarasi, yuklar, elektron vaqt o‘lchagich) bilan tanishish.
2. Tajriba jarayoni – turli massali jismlarga turli kuchlar ta’sir ettirib, ularning tezlanishini aniqlash.
3. O‘lchov natijalari – har xil kuchlar ostida jismlarning tezlanishini o‘lchash va natijalarni jadvalga kiritish.
4. Natijalarni tahlil qilish – kuzatuv va o‘lchovlar asosida va ning proporsionalligini aniqlash.
5. Xulosa chiqarish – Nyutonning ikkinchi qonuni amalda tasdiqlanayotganligini isbotlash va olingan xatoliklarni tahlil qilish.

Ushbu metodika laboratoriya mashg‘ulotlarining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning fizik hodisalarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

1-jadval. Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik bosqichlar tavsiya etiladi:

Bosqichlar	Tavsif
Dars oldi tayyorgarlik bosqichi	Laboratoriya ishining maqsadi, vazifalari va dolzarbligini tushuntirish.
Nazariy tushuntirish bosqichi	Laboratoriya ishida foydalaniladigan qonun va formulalar bilan tanishtirish.
Amaliy bajarish bosqichi	Tajriba jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash.
Natijalarni tahlil qilish bosqichi	Olingan natijalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish.
Refleksiya bosqichi	O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarini mustahkamlash.

Shu tarzda, laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat eksperimental tajriba orttirishga, balki o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keladi: O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatlari rivojlanadi. Amaliy ko‘nikmalar shakllanib, nazariy bilimlar hayotiy vaziyatlarga tatbiq qilinadi. O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanib, muammolarni mustaqil hal qilishga bo‘lgan qobiliyati ortadi. Jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalari oshib, hamkorlik muhitida ishlash qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa: Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, quyidagi tavsiyalar beriladi: Laboratoriya mashg‘ulotlarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar va virtual simulyatsiyalar dan foydalanish. Eksperimentlarni o‘tkazishda muammoli ta’lim, loyiha usuli va tahlilga asoslangan yondashuv kabi metodlarni qo‘llash. O‘qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish bo‘yicha malakasini oshirish. O‘quvchilarning laboratoriya mashg‘ulotlarida mustaqil izlanish va tahlil qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. O‘quv dasturlariga real hayotga yaqin bo‘lgan eksperimentlar ni kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish. Mazkur yondashuv fizika ta’limining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. [Пижае, Жан,](#) Наука о воспитании и психологии ребенка Издатель Нью-Йорк, Орион Пресс [1970](#) ISBN-код 0670621722
2. Kolb, D. A. "Experiential Выготский, Л. Разум в обществе: развитие высших психических процессов, Издательство Гарвардского университета, Кембридж, Массачусетс, 1978, 56-58.

3. Learning: Experience as the Source of Learning and Development." Prentice Hall. URL: <http://www.learningfromexperience.com/images/uploads/process-of-experiential-learning.pdf> (31.05.2006)
4. Bruner, J. "Toward a Theory of Instruction." Harvard University Press. https://books.google.co.uz/books?id=28bmEAAAQBAJ&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs_atb#v=onepage&q&f=false
5. O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi nashri. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
6. Sh. Karshiboev. "Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarining metodik asoslari." Toshkent: O‘zFA nashriyoti. https://www.researchgate.net/publication/378190740_Fizika_fanidan_laboratoriya_mashg'ulotlarini_zamonaviy_tashkil_etish_metodikasi
7. A. Q. Xolmatovich. “Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari” <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/1338/927>
8. A. A. Axmedov "Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya” https://www.researchgate.net/publication/369599590_FIZIKA_FANIDAN_ZAMONAVIY_LABORATORIYA_MASHGULOTLARINI_BAJARISHDA_INNOVATSION_TEXNOLOGIYA
9. Ёркинбек Маматохунов. “Методика организации самостоятельной учебной деятельности школьников по физике во внеурочных занятиях” Universum: психология и образование N4 (82) Страницы 10-12



RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYLARI MUHITIDA BO'LAJAK DASTURCHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Mastonov Jahongir

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

mastonovjahongir@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-5248-1133>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari sharoitida informatika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb metodlari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi o'qituvchilardan nafaqat zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini, balki metodik va pedagogik yondashuvlarni yangilashni ham talab qilmoqda. Shu munosabat bilan maqolada interaktiv platformalardan foydalanish, onlayn kurslar orqali uzluksiz o'qitish, masofaviy treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, kompetensiya, metod, Informatika, masofaviy ta'lim

" ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПРОГРАММИСТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ"

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные методы развития профессиональных компетенций учителей информатики в условиях цифровых образовательных технологий. Цифровизация образовательного процесса требует от преподавателей не только навыков использования современных технологий, но и обновления методических и педагогических подходов. В связи с этим в статье освещаются такие подходы, как использование интерактивных платформ, непрерывное обучение через онлайн-курсы, дистанционные тренинги и практические занятия, направленные на совершенствование знаний и навыков преподавателей в области информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

Ключевые слова: Цифровое образование, компетенция, метод, информатика, дистанционное обучение

" DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PROGRAMMERS IN THE DIGITAL EDUCATION TECHNOLOGY ENVIRONMENT"

Abstract. This article explores effective methods for developing the professional competencies of computer science teachers in the context of digital education technologies. The digitalization of the educational process requires teachers not only to master modern technologies but also to update their methodological and pedagogical approaches. The paper discusses the use of interactive platforms, continuous professional development through online courses, distance training programs, and practical workshops aimed at enhancing teachers' knowledge and skills in information and communication technologies (ICT).

Keywords: Digital education, competence, method, computer science, distance learning

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi global tendensiyaga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning jadal rivojlanishi, ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarning keng joriy etilishi o'qituvchilardan yangi kompetensiyalarni egallashni talab qilmoqda. Xususan, informatika fani o'qituvchilari ushbu texnologik o'zgarishlarning boshida turgani sababli, ularning kasbiy kompetensiyalarini zamon talablari asosida doimiy ravishda rivojlantirib borish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari muhitida informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlar, ularning ahamiyati va amaliyotdagi qo'llanishi yoritiladi. Shuningdek, kasbiy rivojlanishda uzluksiz o'rganish, masofaviy ta'lim, mentorlik va loyiha asosida o'qitish kabi yondashuvlarning o'rnini tahlil qilinadi.[7.44]

Kasbiy kompetensiyalar haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Kasbiy kompetensiya — bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Zamonaviy informatika o'qituvchisi faqatgina fan asoslarini tushuntirib beruvchi mutaxassis emas, balki o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni shakllantiruvchi rahbar hamdir. Kasbiy kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Pedagogik kompetensiya – darsni rejalashtirish, metodlarni tanlash, baholash va o'qituvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish qobiliyati.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiya – raqamli vositalardan samarali foydalanish, onlayn platformalarda dars o'tish va elektron resurslar yaratish malakasi.

Metodik kompetensiya – informatika fanining mazmunini chuqur tushunish va uni didaktik jihatdan to'g'ri yetkazish mahorati.

Ijodiy va innovatsion kompetensiya – yangi texnologiyalarni o'rganish va ularni o'quv jarayonida samarali tatbiq etish ko'nikmasi.

Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyati. Raqamli ta’lim muhitida ayniqsa AKT kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchi raqamli vositalardan foydalanish orqali dars sifatini oshirishi, o‘quvchilarni faol jalb qilishi va ularning bilimini individual tarzda baholay olishi kerak.

Metodlar. 1. Onlayn kurslar va vebinarlar. Bugungi kunda Coursera, EdX, Udemey, Khan Academy, “ZiyoNET” kabi platformalar orqali informatika va ta’lim texnologiyalariga oid ko‘plab bepul va pullik kurslar mavjud. Ushbu kurslar orqali o‘qituvchilar o‘z mutaxassisliklariga doir yangiliklardan xabardor bo‘lishi, zamonaviy dasturlash tillari, sun’iy intellekt, raqamli pedagogika kabi yo‘nalishlarda malaka oshirishi mumkin.

2. Masofaviy treninglar va web-ustozlik(E-monitoring). Internet orqali tashkil etiladigan treninglar, forumlar va tajriba almashish dasturlari orqali o‘qituvchilar turli hududlardan bo‘lgan mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi, o‘z tajribalarini baham ko‘rishini mumkin. E-mentoring orqali esa tajribali ustozlar yangi o‘qituvchilarga yordam berib, ularning kasbiy o‘qishini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Interaktiv va virtual o‘quv platformalaridan foydalanish. Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle, Zoom, Quizizz, Kahoot kabi platformalar o‘quv jarayonini raqamli shaklda samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu vositalarni o‘zlashtirish va ulardan to‘g‘ri foydalanish informatika o‘qituvchisining AKT kompetensiyasini kuchaytiradi. [5.31]

4. Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning). O‘quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish orqali informatika o‘qituvchilari nafaqat o‘z pedagogik yondashuvlarini boyitadi, balki zamonaviy dasturlash va IT-yechimlarga asoslangan real loyihalarda faol ishtirok etish orqali o‘z bilimlarini yangilaydi. Bu metod ham o‘qituvchining, ham o‘quvchining faol ishtirokini talab qiladi.

5. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilib borishi, darslarda nimalar ishladi, nimalar unchalik samarali bo‘lmadi, degan savollar asosida o‘z ustida ishlashi, kasbiy kompetensiyani chuqurlashtiruvchi muhim metodlardan biridir. Bu orqali u doimiy o‘zgarishga va yangilikka ochiq bo‘ladi. [3.102]

Asosiy muammolar: 1. Texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi Ayrim hududlardagi maktablarda internet tezligining pastligi, zamonaviy kompyuter texnikasi va raqamli vositalarning yetishmasligi o‘qituvchilarning raqamli ta’lim texnologiyalaridan to‘laqonli foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

2. O‘qituvchilarning raqamli savodxonligining past darajada bo‘lishi Ba’zi o‘qituvchilar hali ham raqamli texnologiyalardan foydalanishda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu, asosan, yangi vositalar bilan ishlash tajribasining yetishmasligi yoki psixologik tayyorgarlikning pastligi bilan bog‘liq. [4.32]

3. Malaka oshirish tizimining zamon talablariga to‘liq javob bermasligi Amaldagi o‘quv-seminar va malaka oshirish kurslari ko‘pincha nazariy ma’lumotlarga asoslanadi va real, amaliy ko‘nikmalarni yetarli darajada shakllantira olmaydi.

4. O‘qituvchilarning vaqti va motivatsiyasi yetishmasligi

Dars yuki, tashkiliy ishlar va boshqa majburiyatlar o‘qituvchilarga yangi bilimlarni o‘rganish uchun yetarli vaqt ajratishga imkon bermaydi.

Takliflar:

- Maktablarni zamonaviy AKT vositalari bilan ta‘minlash va internet infratuzilmasini yaxshilash orqali texnik bazani mustahkamlash.

- O‘qituvchilar uchun amaliyotga yo‘naltirilgan, qisqa muddatli va moslashuvchan onlayn malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

- Yangi texnologiyalarni o‘rganishga qaratilgan ichki (maktab ichidagi) tajriba almashish dasturlarini (peer-learning) joriy etish.

- O‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish — faol o‘z ustida ishlayotgan pedagoglarni moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

- Mentorlik tizimini kuchaytirish — tajribali o‘qituvchilarni yosh kadrlarga yo‘naltirish va ularga faol yordam berish tizimini rivojlantirish.

Xulosa. Metodlar va texnologiyalar, masalan, onlayn kurslar, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv platformalar, e-mentoring va masofaviy malaka oshirish, o‘qituvchilarning pedagogik, texnik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali qo‘llanilmoqda. O‘qituvchilar ushbu metodlar orqali nafaqat o‘zining kasbiy salohiyatini oshiradi, balki o‘quvchilarga innovatsion o‘quv metodologiyalarini etkazishda ham muvaffaqiyat qozonadi. Kelajakda, raqamli ta‘limni yanada kengaytirish, innovatsion ta‘lim platformalarini yaratish va o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilishi lozim. Bu nafaqat informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshiradi, balki butun ta‘lim tizimining sifatini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedov, A., & G‘aniyev, M. (2020). Raqamli ta‘lim texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga ta‘siri. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

2. Kuchkarov, S. (2021). Informatika fani o‘qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. Ta‘limda yangiliklar jurnali, 15(2), 45-52.

3. Perevalov, M. P. (2019). Pedagogika va informatika: Teoriya va amaliyot. Moskva: Yevraziya nashriyoti.

4. Juraev, F. S., & Akbarov, Z. A. (2022). Informatika o‘qituvchilarining raqamli savodxonligi: Muammolar va imkoniyatlar. Jahondagi ta‘lim innovatsiyalari jurnali, 7(1), 120-128.

5. Soliev, B. X., & Tursunov, R. (2018). Raqamli platformalar va o‘qitish metodlari. Toshkent: O‘zbekiston Ta‘lim akademiyasi.

6. Gulomov, S., & Toshmatov, R. (2020). O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 12(4), 88-94.

7. UNESCO (2021). Global Education Monitoring Report 2021: Raqamli ta’lim texnologiyalarining dunyo ta’limiga ta’siri. UNESCO.

8. Robinson, K. (2018). Creative schools: The grassroots revolution that’s transforming education. London: Penguin Books.

9. Binkley, M., & McGraw, R. (2019). Technology-enhanced learning: Theory and practice. New York: Springer.



NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNI BOSHQARISH

Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li
Toshkent davlat iqtisoiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya Ushbu maqolada nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va bu jarayonni boshqarishning nazariy, metodik va amaliy asoslari yoritilgan. Kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim subyektlari o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilingan. Tahlillar natijasida ushbu jarayonni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, boshqaruv, nodavlat ta'lim tashkiloti, ijodiy salohiyat, innovatsion ta'lim, pedagogik muhit.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методические и практические основы развития творческого мышления студентов и управления этим процессом в негосударственных образовательных организациях. Рассматриваются педагогические условия, способствующие развитию креативности, современные технологии, взаимодействие субъектов образования, а также существующие проблемы и пути их решения. В результате анализа были разработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию данного процесса.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, управление, негосударственная образовательная организация, творческий потенциал, инновационное образование, педагогическая среда.

Abstract: The article examines the theoretical, methodological and practical foundations of developing students' creative thinking and managing this process in non-governmental educational organizations. The article examines pedagogical conditions that promote the development of creativity, modern technologies, interaction of educational subjects, as well as existing problems and ways to solve them. As a result of the analysis, recommendations were developed for further improvement of this process.

Key words: creativity, creative thinking, management, non-governmental educational organization, creative potential, innovative education, pedagogical environment.

Kirish

Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida o‘zgaruvchan bozor talablari, texnologik taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlari o‘quvchilarning nafaqat bilimga, balki yangicha fikrlash, muammolarga noan‘anaviy yondashish va ijodkorlik salohiyatiga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Ayniqsa, nodavlat ta‘lim tashkilotlari o‘z faoliyatida raqobatbardosh bo‘lishi uchun o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Mazkur maqolada aynan nodavlat ta‘lim muassasalari doirasida kreativlikni shakllantirishni qanday boshqarish mumkinligi, bu jarayonning asosiy bosqichlari, pedagogik yondashuvlari, samarali mexanizmlari va dolzarb muammolari tizimli yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta‘lim tizimida kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, nodavlat ta‘lim tashkilotlari o‘zining erkinlik va yangilikka ochiqligi bilan o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunday tashkilotlarda o‘quv jarayonini boshqarish, ijodiy muhit yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning kreativ salohiyatini ochish mumkin.

Kreativlik (lotincha *creare* – “yaratmoq”) – bu shaxsning yangilik yaratishga qaratilgan fikrlash uslubi, muammoni yangicha hal etish qobiliyati, mavjud andozalardan chiqib fikrlash va yangi g‘oyalarni taklif qilish salohiyatidir.

Kreativlik – bu yangi, noodatiy, foydali g‘oya, mahsulot yoki yechim yaratish qobiliyatidir. Ta‘lim jarayonida esa bu — o‘quvchining erkin fikrlashi, muammoga yangicha yondashuvi, mustaqil izlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasidir.

Ta‘lim jarayonida kreativlik:

- O‘quvchilarni qiziqtirishga xizmat qiladi;
- Mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi;
- Hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini kuchaytiradi;
- Zamonaviy kasb-hunarga tayyorlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida NTT o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarishni yoritib beruvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda dunyoda “4K” (Creativity, Critical thinking, Collaboration, Communication) kompetensiyalaridan biri sifatida kreativlikga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Nodavlat ta‘lim muassasalari esa bu jarayonda ilg‘or metodlarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishni boshqarishda yetakchi bo‘lishi mumkin.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarining quyidagi o‘ziga xosliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- **Innovatsiyalarga ochiqqligi**, ya’ni tajriba o‘tkazish imkoniyatining kengligi.
- **Individual yondashuvga e’tibor qaratishi** – har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati inobatga olinadi.
- **Zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishi**, ya’ni raqamli vositalar, onlayn platformalar, interaktiv metodlarning keng joriy etilishi.
- **O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi**, ya’ni kreativ faoliyatga vaqt va resurslarning ajratilishi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarining o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirishning asosiy usullariga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. **Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)**- o‘quvchilarning muammoni aniqlashi, tahlil qilishi, yechim taklif qilishi va uni amalda sinab ko‘rishi orqali kreativ tafakkuri rivojlanadi.
2. **STEAM yondashuvi**- fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi orqali ijodiy fikrlash kuchaytiriladi.
3. **Raqamli texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar**- simulyatsiyalar, onlayn dizayn vositalari, kreativ dasturlar (Tinkercad, Canva, Scratch va boshqalar) yordamida o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini real mahsulotga aylantirishi mumkin.
4. **Ochiq muhit va erkin muloqot**- o‘qituvchining “murabbiy” sifatidagi roli, erkin savol-javoblar, jamoaviy ishlar orqali o‘quvchi o‘zini erkin his qiladi, bu esa ijodiylikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarining o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish mazkur tashkilotda ushbu jarayonni boshqarish zaruratini keltirib chiqaradi. Kreativlikni shakllantirishni boshqarish deganda quyidagi yo‘nalishlar tushuniladi:

- **Strategik rejalashtirish**: kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsad, topshiriq va o‘quv jarayoni mazmunini belgilash.

XXI asrda ta’limning asosiy maqsadi — bilim berish bilan cheklanmasdan, kreativ fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat ekan, bu jarayonni samarali tashkil qilishda **strategik rejalashtirish** muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kreativlikni shakllantirish – tasodifiy yoki bir martalik faoliyat emas, balki uzoq muddatli, puxta rejalashtirilgan va tizimli boshqaruvni talab qiluvchi jarayondir.

Strategik rejalashtirish — bu tashkilot (yoki ta’lim muassasasi) oldiga qo‘yilgan uzoq muddatli maqsadlarni belgilab, ularga erishish yo‘llarini aniqlovchi tizimlashtirilgan jarayondir.

Ta’lim jarayonida kreativlikni shakllantirish bo‘yicha strategik rejalashtirish quyidagilarga asoslanadi:

- maqsadni aniq belgilash;
- resurslarni baholash;
- ijro mexanizmlarini ishlab chiqish;
- natijani baholash va monitoring qilish.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarining o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirishda strategik rejalashtirishning ahamiyati nimalardan iborat?

Uzluksizlikni ta’minlaydi - kreativlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan metodik yondashuvlar, vositalar va baholash mezonlari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Aniq maqsadga yo‘naltiradi - o‘quvchilar ijodiy salohiyatining aniq yo‘nalishlarda (san’at, texnologiya, muhandislik, dizayn va h.k.) rivojlanishiga yo‘l ochiladi.

Resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi - vaqt, o‘qituvchi malakasi, o‘quv jihozlari va axborot texnologiyalari imkon qadar samarali jalb etiladi.

O‘lchab bo‘ladigan natijalar beradi - rejalashtirish asosida kreativlik darajasini tahlil qilish, monitoring va teskari aloqa berish imkonini tug‘iladi.

Strategik rejalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. **Tahliliy bosqich** (o‘quvchilarning hozirgi kreativlik darajasi aniqlanadi (diagnostika, so‘rovnoma, testlar orqali); o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi baholanadi; ta’lim muhitidagi imkoniyatlar va cheklovlar aniqlanadi).
2. **Maqsad va vazifalarni belgilash** (uzoq muddatli (3-5 yil) va qisqa muddatli (1 yillik) maqsadlar aniqlanadi; har bir bosqich uchun aniq vazifalar, kutilayotgan natijalar va mezonlar belgilanadi).
3. **Amalga oshirish mexanizmlari** (loyiha asosida o‘qitish, STEAM, interaktiv metodikalar kiritiladi; darsdan tashqari kreativ klublar, tanlovlar, master-klasslar yo‘lga qo‘yiladi; o‘qituvchilar uchun kreativ metodikalarga oid treninglar tashkil etiladi).
4. **Monitoring va baholash** (har oy yoki har chorakda faoliyat natijalari tahlil qilinadi; portfoliolar, loyiha ishlari, muammoli topshiriqlar asosida baholash amalga oshiriladi; o‘quvchilar va o‘qituvchilardan muntazam teskari aloqa olinadi).

Strategik rejalashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Faoliyat	Maqsad	Natija
Kreativlik bo‘yicha yillik strategik rejani ishlab chiqish	Faoliyatni tizimlashtirish	Reja asosida ishlovchi ta’lim jamoasi
O‘qituvchilar uchun seminar-treninglar	Yangi metodikalarni o‘rganish	Kreativ metodlardan foydalanuvchi pedagoglar
Kreativlik tanlovlarini o‘tkazish	O‘quvchilarni rag‘batlantirish	Qobiliyatli o‘quvchilarning aniqlanishi
Onlayn portfoliolar yuritish	Ijodiy ishlarga baho berish	O‘sish dinamikasini kuzatish imkoniyati

Kreativlikni shakllantirishni boshqarishda strategik rejalashtirish – bu uzluksiz, puxta o‘ylangan, natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv faoliyatidir. U nafaqat o‘quvchilar salohiyatini ochishga, balki ta’lim muassasasining umumiy sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limda innovatsion fikr yurituvchi avlodni shakllantirish aynan strategik yondashuv orqali erishiladigan muhim maqsaddir.

- **Motivatsion omillarni belgilash:** o‘quvchini rag‘batlantirish, muvaffaqiyatlarini e‘tirof etish.

Motivatsiya — bu o‘quvchining biror faoliyatga ongli va faol tarzda kirishishini ta‘minlovchi ichki energiyadir. O‘quvchining motivatsiyasi qancha yuqori bo‘lsa, uning kreativ faoliyati shuncha samarali kechadi.

Kreativlikni rag‘batlantiruvchi motivatsion omillar quyidagicha tasniflanadi:

1. Ichki motivatsiya – o‘quvchining o‘z qiziqishi, qoniqish, erkinlik istagi asosida kreativ faoliyatga kirishishi.

2. Tashqi motivatsiya – mukofot, e‘tirof, baho yoki tanlovda g‘alaba kabi tashqi rag‘batlantirish vositalari asosida faoliyatga jalb bo‘lish.

Motivatsion omillarni belgilash va ularni boshqarish mexanizmlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

✓ *Individual qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash* (o‘quvchining shaxsiy istaklari, qobiliyatlari va orzularini aniqlash orqali unga mos kreativ faoliyatlar taklif etiladi; maxsus so‘rovnomalar, suhbatlar va ijodiy testlar orqali qiziqish yo‘nalishlari aniqlanadi).

✓ *Rag‘batlantirish tizimi* (ijobiy teskari aloqa (o‘quvchining har bir kreativ urinishini qadrlash, xatolarni tanqid emas, tahlil qilish orqali o‘rganish); sertifikatlar, sovg‘alar, e‘tirof (ijodiy tanlovlarda muvaffaqiyatga erishganlarni ommaviy tan olish); “Eng kreativ loyiha”, “Haftaning ixtirochisi” kabi nominatsiyalar joriy etish).

✓ *Erkin va xayfsiz ta‘lim muhiti yaratish* (o‘quvchi o‘z fikrini ochiq bayon qilishi, xatolardan qo‘rqmasligi kerak; raqobat emas, hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan guruhli faoliyatlarni tashkil etish).

✓ *O‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi* (o‘qituvchi o‘zining ijodiy ishlari, tashabbuslari va yangiliklarga ochiqqligi bilan o‘quvchiga namuna bo‘ladi; o‘qituvchilar uchun ham kreativ faoliyatga doir rag‘batlantirish tizimi (seminar, grant, mukofot) ishlab chiqilishi lozim).

✓ Ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi metodlar (problem-based learning – o‘quvchini real muammoga yechim topishga undash; gamification (o‘yin elementlari orqali o‘qitish) – jarayonni qiziqarli va dinamik qilish orqali ishtirokni oshirish; portfolio yuritish – o‘quvchining kreativ yutuqlarini tizimli tarzda ko‘rsatish).

Kreativlikni rag‘batlantiruvchi motivatsion omillarni kuchaytirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

<i>Faoliyat</i>	<i>Maqsad</i>	<i>Motivatsion ta’sir</i>
Kreativ ishlarga doir tanlovlar	Raqobatbardoshlik va tan olinishni oshirish	Tashqi motivatsiya
Shaxsiy ijodiy portfoliolar	O‘z-o‘zini qadrlashni rivojlantirish	Ichki motivatsiya
Guruhli loyiha ishlari	Hamkorlik orqali o‘rganish	Ijtimoiy motivatsiya

Ilhomlantiruvchi uchrashuvlar (san’atkor, olim bilan)	O‘rnak olish	Ichki ruhiy ko‘tarinkilik
---	--------------	---------------------------

Kreativlikni shakllantirishda motivatsiya yetakchi o‘rinda turadi. O‘quvchining ichki qiziqishi, tashqi rag‘batlantirish vositalari, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlashi va qulay ta’lim muhiti bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Har bir ta’lim tashkiloti o‘z sharoitiga mos holda kreativlikni oshirish uchun individual motivatsion strategiyalar ishlab chiqishi va qo‘llashi muhimdir.

- **Kreativlikni baholash tizimini joriy etish:** an’anaviy test emas, balki portfolio, ijodiy topshiriqlar, yakuniy loyihalar orqali baholash.

An’anaviy baholash (test, ball) usullari kreativ faoliyatni to‘liq baholay olmaydi. Shu sababli, kreativlik uchun mos va innovatsion baholash tizimini ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda.

Kreativlikni baholash nima uchun kerak?

O‘quvchining ijodiy salohiyatini aniqlash;

Shaxsiy rivojlanish darajasini monitoring qilish;

Dars va faoliyat metodikalarining samaradorligini baholash;

Rag‘batlantirish va yutuqlarni aniqlash;

Teskari aloqani tashkil etish.

Baholashda quyidagi 4 asosiy mezon tavsiya etiladi:

Mezon	Mazmuni
Yangilik (originality)	G‘oyaning o‘ziga xosligi, yangiligi
To‘liqlik (elaboration)	G‘oya yoki mahsulotning detallashtirilganligi
Moslik (relevance)	Muammoning yechimiga mosligi, mavzuga aloqadorligi
Moslashuvchanlik (flexibility)	Har xil yondashuvlarni taklif eta olish qobiliyati

O‘quvchilarning kreativligini baholashda baholashda bir qator usullardan foydalanish mumkin. Quyida ularning ba’zilariga to‘xtalib ketamiz:

1. Portfolio usuli (o‘quvchining barcha ijodiy ishlari, loyihalari, rasm, matn, videolardan iborat elektron yoki qog‘oz to‘plam). Dinamik baholash imkonini beradi.

2. Rubrikalar (Rubrics) (har bir mezon uchun 4-5 darajali baholash shkalasi (masalan: juda yaxshi, yaxshi, o‘rtacha, past). O‘qituvchi va o‘quvchi uchun aniq mezonlar yaratiladi.

3. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya (o‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qiladi). “Nimani uddaladim?”, “Nimani yaxshilashim kerak?” kabi savollar asosida yozma tahlil yuritadi.

4. Interaktiv baholash vositalari (Google Forms, Padlet, Mentimeter, Kahoot orqali onlayn teskari aloqa olish). Vizual grafiklar orqali o‘zgarishni kuzatish.

5. Ekspert bahosi (kreativ tanlovlar, loyiha himoyalari jarayonida mustaqil hakamlar (mutaxassislar, dizaynerlar, IT mutaxassislari va h.k.) baholaydi).

Baholash tizimini joriy qilish bosqichlari:

1. ***Baholash strategiyasini ishlab chiqish*** (maqsadlar, mezonlar, baholash shakllari aniq belgilanadi).
2. ***Uslubiy vositalarni tayyorlash*** (rubrika jadvallari, portfolio andozalari, refleksiya shakllari ishlab chiqiladi).
3. ***O‘quvchi va o‘qituvchini tayyorlash*** (yangi baholash tizimi haqida trening va ko‘rsatmalar beriladi).
4. ***Baholash jarayonini joriy etish*** (dars va darsdan tashqari faoliyatda amaliy qo‘llash boshlanadi).
5. ***Monitoring va tahlil*** (baholash samaradorligi kuzatiladi, kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi).

Kreativlikni shakllantirishda baholash tizimi muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini aniqlabgina qolmay, ularni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Baholash faqat ball qo‘yish emas, balki o‘sis, rag‘batlantirish va yo‘l-yo‘riq berish vositasi sifatida qaralishi lozim. Har bir ta‘lim muassasasi o‘z sharoitiga mos holda kreativlikni baholashning moslashuvchan va samarali tizimini ishlab chiqishi zarur.

- ***O‘qituvchilar malakasini oshirish:*** kreativ metodikalarni qo‘llash bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Bugungi globallashuv davrida ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining professional darajasi va kreativ yondashuvlariga bog‘liq. Ayniqsa, kreativlikni shakllantirish sohasida o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi o‘zi ijodkor bo‘lmasdan turib, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantira olmaydi. Shu bois, kreativlikni boshqarishda o‘qituvchilar malakasini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.

Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi (mentor), lhomlantiruvchi, tanqidiy fikrlashga o‘rgatuvchi, shaxsiy namunasi bilan yetaklovchi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ijodkor bo‘lsa, uning darsi ham ijodiy, samarali va motivatsion bo‘ladi.

O‘qituvchilar malakasini oshirishning asosiy yo‘nalishlari:

1. ***Kreativ pedagogika bo‘yicha metodik treninglar*** (kreativ fikrlash, dizayn-o‘ylash (design thinking), loyiha asosida o‘qitish (PBL), STEAM yondashuvlari asoslarini o‘rgatuvchi qisqa muddatli kurslar).

2. ***Amaliy seminar va ustoz-shogird dasturlari*** (tajribali ijodkor o‘qituvchilar tomonidan ustaxona darslari (master-klasslar); guruhli amaliy mashg‘ulotlar orqali yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish).

3. ***Raqamli vositalarni o‘rganish*** (Canva, Padlet, Genially, Miro, Google Jamboard kabi kreativ vositalar bilan ishlash bo‘yicha treninglar; onlayn platformalarda kreativ kontent yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish).

4. Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish (har bir o‘qituvchi o‘z darslarini tahlil qilish, yangilikka ochiqlik va o‘zgarishga tayyorlik ruhida ishlashi kerak; portfolio yuritish, shaxsiy yutuqlarni baholash amaliyoti).

5. Ilmiy-tadqiqot va tajriba almashinuvi (konferensiyalar, metodik birlashmalar, vebinarlar orqali fikr almashish; chet ellik mutaxassislar bilan tajriba almashish imkoniyatlaridan foydalanish).

O‘qituvchilarda kretivlikka oid malakalarni shakllantirish bo‘yicha quyidagi tashkiliy tavsiyalarni bermoqchimiz:

- Har bir ta’lim muassasasida “Kreativ pedagoglar guruhi” tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
- O‘qituvchilar uchun “Ijodiy haftaliklar”, kreativ tanlovlar, “Eng innovator o‘qituvchi” kabi tadbirlar yo‘lga qo‘yilishi lozim.
- O‘qituvchilarning malakasini oshirishda xorijiy tajriba asosida mo‘ljallangan modulli kurslar joriy etilishi kerak.

Ta’limda kreativlikni shakllantirish – bu faqat o‘quvchi ustida ishlash emas, balki avvalo o‘qituvchini yangilash, o‘zgartirish va ilhomlantirishdir. Malakali, kreativ yondasha oladigan o‘qituvchilargina yosh avlodni yangilikka, mustaqil fikrga, tashabbus va ijodga yetaklay oladi. Shu sabab, o‘qituvchilarning zamonaviy metodika, texnologiya va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish — har qanday ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi zarur.

Xulosa va takliflar. Kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash nodavlat ta’lim tashkilotlarining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayonni boshqarishda innovatsion yondashuvlar, erkin ta’lim muhiti, loyihaviy faoliyat, raqamli vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar orqali nafaqat bilimli, balki o‘z g‘oyasini ilgari sura oladigan, ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor yoshlar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ken Robinson. Creative Schools. Penguin Books, 2015.
2. G‘ulomov R. Zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlari, Toshkent, 2022.
3. Xalq ta’limi vazirligi. Pedagoglar uchun kreativlik metodikasi bo‘yicha qo‘llanma, 2023.
4. OECD. Teacher Professional Learning for the 21st Century, 2020.
5. Amabile, T. How to Kill Creativity, Harvard Business Review, 1998.



SCREENCASTING TEXNOLOGIYASINI TA'LIM JARAYONIDA
QO'LLASHNING AHAMİYATI VA UNING IMKONIYATLARI
ЗНАЧЕНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ
СКРИНКАСТИНГА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ
THE IMPORTANCE AND OPPORTUNITIES OF USING SCREENCASTING
TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Email: niyozkhonergashov98@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda screencasting texnologiyasining o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Screencastingning o'quv materiallarini vizualizatsiya qilish, moslashuvchan va individual o'rganishni qo'llab-quvvatlash, samarali qayta aloqa berish va "Teskari sinf" modelini amalga oshirishdagi afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu texnologiyani ta'limga joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlari muhokama qilingan. Maqola so'ngida screencasting texnologiyasini ta'lim amaliyotiga samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: screencasting, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, teskari sinf, qayta aloqa, pedagogik innovatsiyalar, masofaviy ta'lim.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматривается роль и значение технологии скринкастинга в современном образовании. Анализируются преимущества скринкастинга в визуализации учебных материалов, поддержке гибкого и индивидуального обучения, предоставлении эффективной обратной связи и реализации модели «перевернутого класса». Также обсуждаются проблемы внедрения данной технологии в образование и их решения. В конце статьи даны практические рекомендации по эффективному внедрению технологии скринкастинга в образовательную практику.

Ключевые слова: скринкастинг, образовательные технологии, цифровое образование, перевернутый класс, обратная связь, педагогические инновации, дистанционное обучение.

ABSTRACT This article examines the role and importance of screencasting technology in modern education. The advantages of screencasting in visualizing educational materials, supporting flexible and individual learning, providing effective feedback, and implementing the "flipped classroom" model are analyzed. The problems of introducing this technology into

education and their solutions are also discussed. At the end of the article, practical recommendations are given for the effective implementation of screencasting technology in educational practice.

Keywords: screencasting, educational technologies, digital education, flipped classroom, feedback, pedagogical innovations, distance learning.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar bilan yangilanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi an'anaviy o'qitish usullarini tubdan o'zgartirib, o'quv jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida masofaviy ta'limga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishi raqamli vositalarning ta'limdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu jarayonlarda screencasting texnologiyasi ta'lim muassasalari va o'qituvchilar uchun o'quv materiallarini yaratish, talabalar bilan muloqot qilish va o'quv jarayonlarini tashkil etishda muhim vosita sifatida ajralib turadi.

Screencasting ya'ni kompyuter ekranidagi harakatlarni ovozli sharh bilan birga raqamli video formatida yozib olish, o'qituvchilarga murakkab tushunchalarni, dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarni yoki amaliy jarayonlarni vizual tarzda namoyish etish imkonini beradi. Bu esa talabalarning o'quv materialini tushunishini sezilarli darajada osonlashtiradi va ularning kognitiv yuklamasini kamaytiradi. An'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha bir tomonlama axborot uzatishga asoslangan bo'lib, talabalarning individual ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Screencasting esa bu cheklovlarni bartaraf etishga yordam beradi, chunki u talabalarga o'quv materialini o'z tezligida va o'ziga qulay vaqtda hamda qulay joyda o'rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi screencasting texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llashning ahamiyatini har tomonlama ochib berish, uning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini asoslashdan iborat. Maqolada screencastingning turli ta'lim kontekstlarida qo'llanilishi, uning afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ob'ekti ta'lim jarayoni bo'lsa, uning predmeti ta'lim jarayonida screencasting texnologiyasidan samarali foydalanish usullari va uning natijalaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Screencasting texnologiyasini ta'lim jarayonida qo'llashning ahamiyati va imkoniyatlarini o'rganish sohasida so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu texnologiyaning ta'limda qo'llanilishi o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish va o'qituvchilar uchun yangi metodik yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Quyida ushbu sohada o'tkazilgan muhim tadqiqotlar va ularning asosiy topilmalari tahlil qilinadi. Screencastingning samaradorligi bir nechta olimlar o'rgangan bo'lib ulardan. birida Mayer Multimedia O'rganishning Kognitiv Nazariyasi vizual va audial kirishlarni birlashtirish

kognitiv yukni kamaytirish va bir nechta sezgi kanallarini jalb qilish orqali tushunishni kuchaytiradi deb hisoblaydi. Screencastlar vizual (masalan, animatsiyali vaqt jadvallari yoki diagrammalar va hikoyani birlashtirish orqali ushbu nazariyaga mos keladi, bu esa murakkab mavzularni chuqurroq tushunishni osonlashtiradi. Xuddi shunday, Hattining samarali o‘qitish amaliyotlari bo‘yicha tahlili o‘z vaqtida va aniq qayta aloqaning muhimligini ta’kidlaydi, buni screencasting izohli video sharhlar orqali samarali yetkazishi mumkin.

Cecile Morris and Gladson Chikwaning Screencasts: “How effective are they and how do students engage with them?” nomli ushbu ishda screencastingning oliy ta’limda talabalarning o‘quv natijalariga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda screencasting yordamida taqdim etilgan materiallar talabalarning mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bergani aniqlangan. Mualliflar screencastingning moslashuvchanligini ta’kidlab, bu usulning turli fanlar va o‘quv darajalari uchun mos ekanligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, screencastingning samaradorligi o‘qituvchining texnologik savodxonligi va darsni rejalashtirish qobiliyatiga bog‘liqligi ham qayd etilgan.

Yurtimizda ushbu tadqiqot kam o‘rganilgan bo‘lib Saidova Z. ning “Oliy ta’limda ta’lim jarayonini “flipped classroom” texnologiyasi asosida ta’lim platformasidan foydalangan holda tashkil etish” nomli ishida ko‘rish mumkin. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan xulosa shuki, screencasting texnologiyasi ta’limda keng qo‘llaniladigan va samarali vosita sifatida o‘z o‘rnini topmoqda. Biroq, uning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi o‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi, o‘quv materiallarini ishlab chiqishdagi ijodiy yondashuvi va infratuzilmaviy sharoitlarga bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida ushbu texnologiyaning kengroq joriy etilishi uchun qo‘shimcha resurslar va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha choralar talab etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko‘plab o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili natijalari screencasting texnologiyasining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining bir qator muhim afzalliklari va keng imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Ushbu natijalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda umumlashtirilishi mumkin:

- **O‘quv materiallarini vizualizatsiya qilish va tushunishni osonlashtirish:** Screencasting murakkab tushunchalarni, jarayonlarni yoki dasturiy ta’minotdan foydalanishni vizual tarzda namoyish etish imkonini beradi. Masalan, matematik formulalarning bosqichma-bosqich yechimini, dasturlash kodining ishlash prinsipini yoki grafik dizayn dasturlarida biror loyihani yaratish jarayonini screencast orqali ko‘rsatish talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Vizual va audial ma’lumotlarning birgalikda taqdim etilishi talabalarning kognitiv yuklamasini kamaytiradi va o‘rganish samaradorligini oshiradi.

- **Moslashuvchan va individual o‘rganish imkoniyatini yaratish:** Screencastlar talabalarga o‘quv materialini o‘z tezligida va o‘ziga qulay vaqtda o‘rganish imkoniyatini beradi. Ular videoni istalgan joyda to‘xtatib, qayta ko‘rishlari, tushunmagan joylarini takrorlashlari mumkin. Bu esa har bir talabaning individual o‘rganish uslubi va tezligiga moslashishga yordam

beradi, shuningdek, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masofaviy ta’limda bu xususiyat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

- **“Teskari sinf” (flipped classroom) modelini amalga oshirish:** Screencasting “teskari sinf” modelini samarali joriy etishning asosiy vositalaridan biridir. Ushbu modelda talabalar darsdan oldin uyda screencastlar orqali yangi mavzuni o‘rganadilar, sinfda esa o‘qituvchi bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish va muhokamalarga e’tibor qaratiladi. Bu yondashuv sinf vaqtini yanada samarali ishlatishga, talabalarning faol ishtirokini ta’minlashga va ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- **O‘quv resurslarini kengaytirish va takroran ishlatish:** O‘qituvchilar bir marta sifatli screencast tayyorlab, uni ko‘p marotaba turli guruhlar va avlodlar uchun ishlatadilar. Bu esa o‘qituvchining vaqtini tejaydi va ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi. Shuningdek, screencastlar o‘quv dasturlarini boyitish, qo‘shimcha materiallar yaratish va talabalarga o‘zlashtirishda qiynalgan mavzular bo‘yicha yordam berish uchun qimmatli resurs bo‘lib xizmat qiladi.

Screencasting texnologiyasining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar uning katta pedagogik salohiyatini namoyish etadi. Yuqorida keltirilgan natijalar screencastingning o‘quv materiallarini vizualizatsiya qilish, individual o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash, samarali qayta aloqa berish va “teskari sinf” modelini amalga oshirishdagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu texnologiya talabalarning o‘rganish motivatsiyasini oshirishga, murakkab tushunchalarni oson o‘zlashtirishga va ularning akademik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Screencastlar orqali taqdim etilgan ma’lumotlar talabalarning kognitiv yuklamasini kamaytiradi, chunki ular vizual va audial kanallar orqali bir vaqtning o‘zida axborotni qabul qiladilar, bu esa o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

XULOSA

Ushbu maqola screencastingning zamonaviy ta’lim tizimidagi muhim o‘rnini va uning pedagogik salohiyatini har tomonlama tahlil qilindi. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, screencasting nafaqat o‘quv materiallarini vizualizatsiya qilish va tushunishni osonlashtirish, balki talabalarga moslashuvchan va individual o‘rganish imkoniyatini yaratish, samarali qayta aloqa berish hamda “teskari sinf” kabi innovatsion modellarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U talabalarning o‘rganish motivatsiyasini oshirib, ularning akademik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, screencasting texnologiyasini ta’lim amaliyotiga joriy etishda o‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi, sifatli kontent yaratish uchun vaqt va resurslar hamda texnik jihozlarning mavjudligi kabi masalalarga e’tibor qaratish lozim. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish, ta’lim muassasalarini zarur texnik vositalar bilan ta’minlash hamda screencast yaratish jarayonini soddalashtiruvchi vositalarni joriy etish muhimdir.

Amaliy tavsiyalar sifatida, ta’lim muassasalariga screencastingni o‘quv dasturlariga integratsiyalash, o‘qituvchilarni ushbu texnologiyadan samarali foydalanishga o‘rgatish va

talabalarni ham screencastlar yaratishga undash tavsiya etiladi. Screencastingdan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga xizmat qiladi, bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Wang, J., & Antonenko, P. D. (2017). Instructor presence in instructional video: Effects on visual attention, recall, and perceived learning. *Computers in Human Behavior*, 71, 143-156.
2. Edutopia. (n.d.). The Benefits of Using Screencasts to Give Students Feedback. [<https://www.edutopia.org/article/benefits-using-screencasts-give-students-feedback/>]
3. Thompson, R., & Lee, M. J. (2012). Talking with students through screencasting: Experimentations with video feedback to improve student learning. *Journal of Interactive Technology and Pedagogy*, 1(1), 1-12. [<https://jitp.commons.gc.cuny.edu/talking-with-students-through-screencasting-experimentations-with-video-feedback-to-improve-student-learning/>]
4. Saidova, Z. (2022). “Oliy ta’limda ta’lim jarayonini" flipped classroom" texnologiyasi asosida ta’lim platformasidan foydalangan holda tashkil etish”. *Журнал математики и информатики*, 2(2).
5. Ilyozxon o‘g‘li, E. N. (2025). “Ta’lim jarayonida screencastlardan foydalanish”. *ИКРО журнал*, 14(02), 124-126.
6. Morris, C., & Chikwa, G. (2013). Screencasts: How effective are they and how do students engage with them? *Active Learning in Higher Education*, 15(1), 25-37. <https://doi.org/10.1177/1469787413514654> (Original work published 2014)

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

RAQAMLI TA‘LIMDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISH METODIKASINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI.

Xujanazarova Nozima Omonjonovna

Namangan davlat chet tillari instituti

Mustaqil tadqiqotchusi

Tel: 998-93-265-21-58; E-mail: nozimakhujanazarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta‘lim muhitida iqtisodiy matnlarni tarjima qilishni o‘rganayotgan talabalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, xususan, ularning kognitiv jarayonlari, o‘quv motivatsiyasi va materialni o‘zlashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda konstruktivizm va kognitivizm kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan raqamli resurslarning tarjima ta‘limidagi o‘rni va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Maqola raqamli pedagogika asosida iqtisodiy matnlar tarjimasi bo‘yicha ta‘lim metodikalarini optimallashtirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarning o‘rganish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta‘lim, iqtisodiy tarjima, psixologik-pedagogik asoslar, kognitiv jarayonlar, o‘quv motivatsiyasi, konstruktivizm, kognitivizm, raqamli resurslar, tarjima ta‘limi.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ПЕРЕВОДА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация: В данной статье анализируются психолого-педагогические особенности студентов, изучающих перевод экономических текстов в условиях цифрового образования, в частности, их когнитивные процессы, учебная мотивация и механизмы усвоения материала. Исследование рассматривает роль и эффективность цифровых ресурсов в обучении переводу с точки зрения современных педагогических подходов, таких как конструктивизм и когнитивизм. Статья направлена на оптимизацию методик обучения переводу экономических текстов на основе цифровой педагогики и предлагает рекомендации по повышению эффективности обучения студентов.

Ключевые слова: Цифровое образование, экономический перевод, психолого-педагогические основы, когнитивные процессы, учебная мотивация, конструктивизм, когнитивизм, цифровые ресурсы, обучение переводу.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC TEXT TRANSLATION METHODOLOGY IN DIGITAL EDUCATION.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical characteristics of students learning to translate economic texts in a digital educational environment, specifically their cognitive processes, learning motivation, and material assimilation mechanisms. The research examines the role and effectiveness of digital resources in translation education from the perspective of modern pedagogical approaches such as constructivism and cognitivism. The article aims to optimize teaching methodologies for economic text translation based on digital pedagogy and provides recommendations for enhancing student learning effectiveness.

Keywords: Digital education, economic translation, psychological-pedagogical foundations, cognitive processes, learning motivation, constructivism, cognitivism, digital resources, translation teaching.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy aloqalar va axborot almashinuvi shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu esa turli tillarda yaratilgan iqtisodiy matnlarni aniq va samarali tarjima qilishga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Iqtisodiy soha matnlari o‘ziga xos terminologiya, stilistik xususiyatlar va kontseptual murakkabliklar bilan ajralib turib, malakali tarjimonlardan chuqur bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi²⁷. Iqtisodiy sohadagi uzluksiz yangilanishlar, terminologik o‘zgarishlar va matnlarning murakkabligi ushbu yo‘nalishdagi tarjimonlarga yuqori malaka va doimiy kasbiy rivojlanishni talab etadi. An‘anaviy ta‘lim usullari har doim ham zamonaviy bozor talablariga to‘liq javob bera olmasligi, xususan, real ish sharoitlariga yaqin amaliy tajriba berishda cheklovlar mavjudligi kuzatilmoqda. Bu o‘zgarishlar an‘anaviy ta‘lim metodologiyalarini qayta ko‘rib chiqishni va ularni raqamli muhitga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Raqamli ta‘lim muhiti nafaqat o‘qitish usullarini, balki talabalarning o‘rganish jarayoniga psixologik va pedagogik jihatdan yondashuvlarini ham o‘zgartirmoqda. Onlayn resurslar, interaktiv platformalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning kognitiv jarayonlariga, motivatsiyasiga va axborotni o‘zlashtirish qobiliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi²⁸. Xususan, iqtisodiy matnlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishni o‘rgatishda raqamli vositalarning tatbiq etilishi o‘ziga xos psixologik va pedagogik talablarni keltirib chiqaradi. Talabalarga faqatgina lug‘at va grammatika qoidalarini yodlash orqali emas, balki chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘zlashtirishga yordam berish zarur²⁹.

Adabiyotlar tahlili: Ta‘lim jarayonining psixologik-pedagogik asoslari, ayniqsa, raqamli muhitda talabalarning o‘rganishini tushunish uchun muhimdir. Vigotskiyning sotsial-madaniy nazariyasi³⁰ va Brunerning bilish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan konstruktivistik

²⁷ Abdullayeva, M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.2018

²⁸ Bernard, R. M., Abrami, P. C., Lou, Y., Borokhovski, E., Wade, A., Wozney, L., ... & Huang, D. How does distance education compare with face-to-face education? A meta-analysis of the empirical literature. Review of Educational Research, 79(4), 1437-1469.2009

²⁹ Garrison, D. R., & Anderson, T. E-learning in the 21st century: A framework for research and practice. Routledge.2003

³⁰ Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.1978

yondashuvlari³¹ talabalarning bilimni o‘zlari qurishlari, o‘qituvchi esa faqat yo‘naltiruvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Raqamli ta’lim kontekstida bu yondashuvlar talabalarga interaktiv topshiriqlar, kollaborativ loyihalar va mustaqil izlanishlar orqali iqtisodiy tarjima ko‘nikmalarini egallashlari uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi esa o‘z-o‘zini samaradorlikka ishonch va kuzatuv orqali o‘rganishning muhimligini ko‘rsatadi³², bu esa raqamli muhitda video-darsliklar, simulatsiyalar va o‘zaro tengdoshlarni baholash tizimlarining ahamiyatini oshiradi. Keller tomonidan ishlab chiqilgan ARCS motivatsiya modeli esa, ayniqsa, onlayn ta’limda talabalarning diqqatini jalb qilish, ularni dolzarblik bilan ta’minlash, ishonchini oshirish va qoniqish hissini uyg‘otish muhimligini ko‘rsatadi³³. Bu esa iqtisodiy matnlar tarjimasi kabi murakkab sohaga bo‘lgan qiziqishni doimiy ushlab turish uchun asos bo‘ladi. O‘zbek tarjimashunosligida esa Abdullayeva o‘zining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti³⁴” asarida turli matn turlari, shu jumladan ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilishning umumiy nazariy asoslarini yoritgan. Biroq, iqtisodiy matnlarning o‘ziga xos qiyinchiliklari, masalan, moliyaviy atamalarning ko‘pma’noliligi, madaniy-spesifik kontseptlar va o‘zgaruvchan bozor terminologiyasi haqida maxsus tadqiqotlar nisbatan kam.

Muhokama: Olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy matnlarni tarjima qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy bilimlar, madaniy kontekst va stilistik nuanceslarni ham talab qiladi. An’anaviy tarjima ta’limida bu jihatlar asosan auditoriya sharoitida, o‘qituvchi bilan bevosita muloqot orqali o‘rgatilgan. Biroq, raqamli ta’lim muhitiga o‘tish ushbu jarayonga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, talabalarning raqamli muhitda iqtisodiy matnlarni o‘rganishdagi kognitiv jarayonlari alohida e’tiborni talab qiladi. Vigotskiyning sotsial-madaniy nazariyasi va Brunerning konstruktivistik yondashuvi raqamli ta’limda ham dolzarbligini saqlab qoladi, biroq ularning amaliy qo‘llanilishi o‘zgaradi. Masalan, ijtimoiy o‘zaro aloqalar raqamli platformalar orqali forumlar, kollaborativ hujjatlar va onlayn guruh loyihalari shaklida amalga oshiriladi. Bu esa talabalarga murakkab iqtisodiy tushunchalarni o‘zaro muhokama qilish, bir-biridan o‘rganish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shunga qaramay, onlayn muhitda talabalarning individual kognitiv yuklamasini boshqarish va ularning o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi dolzarbligini saqlab qoladi³⁵. Iqtisodiy matnlarning stilistik xususiyatlari va tarjima qiyinchiliklarini bartaraf etishda raqamli resurslarning o‘rni muhim bo‘lsa-da mavjud adabiyotlar ushbu vositalarni psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qanday qilib eng samarali tarzda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha tizimli tavsiyalar berishda cheklangan. Masalan, CAT vositalari va mashina tarjimasi (MT) tizimlari terminologik izchillikni ta’minlash va tarjima jarayonini tezlashtirishda yordam

³¹ Bruner, J. S. The Process of Education. Harvard University Press.1960

³² Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.

³³ Keller, J. M. Development and use of the ARCS model of instructional design. Journal of Instructional Development, 10(3), 2-10.1987

³⁴ Abdullayeva, M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.2018

³⁵ Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). E-learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. Routledge.

beradi. Biroq, talabalarni bu vositalarga shunchaki texnik operator sifatida emas, balki tanqidiy fikrlovchi va yakuniy sifatni ta'minlovchi professionallar sifatida tayyorlash uchun ularning kognitiv yuklamasini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar zarur. Raqamli muhitda MT post-editing amaliyotini o'rgatishda, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish va xatolarni aniqlash qobiliyatini rivojlantirish psixologik jihatdan ustuvor vazifa hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhitida iqtisodiy matnlarni tarjima qilish metodikasini psixologik-pedagogik asoslash mavjud nazariy yondashuvlarni zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Mavjud adabiyotlar bu yo'nalishda qimmatli bilimlar bergan bo'lsa-da, iqtisodiy tarjimaning o'ziga xosligi va raqamli muhitning dinamik tabiati, ayniqsa O'zbekiston sharoitida, chuqurroq tadqiqotlar va amaliy sinovlarni talab qiladi. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, raqamli resurslar yordamida iqtisodiy tarjima ko'nikmalarini shakllantirishning optimal psixologik-pedagogik metodikasini taklif etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Natijalar: Raqamli o'quv resurslari va interaktiv platformalardan tizimli foydalanish talabalarning iqtisodiy matnlarni tarjima qilishdagi kognitiv yuklamasini samarali ravishda optimallashtirdi. Bu ularning matnni tushunish, tahlil qilish va ma'no yaratish jarayonlariga ko'proq e'tibor qaratishlariga imkon berdi, natijada tarjima jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Metodika doirasida qo'llanilgan interaktiv va loyihaviy topshiriqlar talabalarda iqtisodiy tarjima sohasiga bo'lgan qiziqishni va motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Talabalarning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib, bu ularning o'quv faoliyatidagi faolligini yanada oshadi. Metodikalarning amaliyotga joriy etilishi talabalarning iqtisodiy matnlarni tarjima qilishdagi lingvistik, terminologik va kontseptual ko'nikmalarini kompleks tarzda rivojlantiradi. Talabalarning iqtisodiy terminologiyani to'g'ri qo'llash, matnning stilistik xususiyatlarini saqlash va tarjima ekvivalentligini ta'minlash borasidagi qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Raqamli ta'lim muhitida iqtisodiy matnlarni tarjima qilish metodikasini psixologik-pedagogik asoslashning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi, shuningdek, talabalarning kognitiv va motivatsion jihatlarini hisobga olgan holda raqamli resurslardan samarali foydalanish ularning kasbiy tarjima ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Xulosa: Raqamli ta'lim muhitida iqtisodiy matnlarni tarjima qilish metodikasining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilindi. Tadqiqot iqtisodiy matn tarjimasining kognitiv, motivatsion va didaktik xususiyatlarini o'rganib chiqdi. Ishlab chiqilgan raqamli metodika talabalarning kognitiv yuklamasini optimallashtirish, o'quv motivatsiyasini oshirish va amaliy tarjima ko'nikmalarini samarali rivojlantirishini ko'rsatdi. Raqamli lug'atlar, CAT vositalari va mashina tarjimasi post-editing amaliyotlarining tarjima sifatini oshirishdagi muhim o'rni tasdiqlandi, shu bilan birga, ulardan foydalanishda tanqidiy fikrlash va insoniy omilning ustuvorligi ta'kidlandi. Tadqiqot, shuningdek, psixologik omillarning (motivatsiya, o'z-o'zini samaradorlikka ishonch) tarjima jarayonidagi hal qiluvchi ahamiyatini asosladi. Olingan

natijalar ushbu metodikaning oliy ta’limdagi iqtisodiy tarjima ta’limiga joriy etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi, kasbiy tarjimonlar tayyorlash sifatini oshirishga yordam beradi va raqamli ta’limda til o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva, M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.2018.
2. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.1992
3. Bandura, A. Social Learning Theory. Prentice Hall.1977.
4. Bowker, L. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. University of Ottawa Press.2002.
5. Bruner, J. S. The Process of Education. Harvard University Press.1960
6. Fedosov, Y. Osnovy nauchno-texnicheskogo perevoda. Moskva: R.Valent.2009
7. Garrison, D. R., & Anderson, T. E-learning in the 21st Century: A Framework for
8. Komissarov, V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty). Vysshaya shkola.1990
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.1978



ЧТЕНИЕ СКАЗОК КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Каипова Гузель Ильдаровна

*Центр педагогического мастерства Наманганской области
преподаватель кафедры социально-экономических
наук и методики преподавания языков*

Аннотация: Волшебные сказки способствуют формированию и развитию правильной устной речи, увеличению словарного запаса, правильному выстраиванию диалогов. Этому содействуют выразительность языка сказки, его меткость, юмор и живые образные фразы. С помощью сказки ребенок запоминает много новых слов и образных выражений. Для анализа прочитанной сказки ребенок применяет метафоры и эпитеты, что способствует выражению собственного отношения к прочитанному тексту.

Ключевые слова: развитие речи, сказка, младшие школьники, речевое творчество.

ERTAK O'QISH BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINI NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya: Ertaklar to'g'ri og'zaki nutqni shakllantirish va rivojlantirishga, so'z boyligini oshirishga, dialoglarni to'g'ri qurishga yordam beradi. Bunga ertak tilining ifodaliligi, uning aniqligi, hazil va jonli obrazli iboralar yordam beradi. Ertak yordamida bola ko'plab yangi so'zlarni va majoziy iboralarni eslab qoladi. O'qilgan ertakni tahlil qilish uchun bola metafora va epithetlardan foydalanadi, bu esa o'qilgan matnga o'z munosabatini bildirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: nutqni rivojlantirish, ertak, boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutq ijodiyoti.

READING FAIRY TALES AS A MEANS OF DEVELOPING COHESIONAL SPEECH IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Abstract: Fairy tales help to form and develop correct oral speech, increase vocabulary, and correctly build dialogues. This is facilitated by the expressiveness of the language of the fairy tale, its accuracy, humor, and lively figurative phrases. With the help of a fairy tale, a child memorizes many new words and figurative expressions. To analyze the fairy tale read, the child uses metaphors and epithets, which helps express his own attitude to the text read.

Key words: speech development, fairy tale, primary school students, speech creativity.

Введение. Изучению проблемы речевого творчества младших школьников в настоящее время посвящено множество научно-исследовательских работ психологов и педагогов. Исследователями отмечается, что формирование в младших классах творческих способностей, непрерывное улучшение навыков речи, освоение литературного языка представляют собой необходимые компоненты образованности и интеллигентности в будущем.³⁶ Отдельное положение в процессе словотворчества имеет русский фольклор, а конкретнее — волшебная сказка. Любовь и интерес к сказке появляется в раннем детстве и сопутствует человеку на протяжении всей жизни. Важность народной сказки обозначил К. Д. Ушинский: «Народные сказки способствуют усвоению всех форм языка, которые дают возможность выработки у детей собственных речевых навыков при рассказывании».³⁷

В русских народных сказках текст представлен таким образом, чтобы ребенок мог постигать всю мощь и разнообразие русского языка. Детям увлекательна не только форма рассказа и сказок, но также и мелодичность, и поэтичность их составления, необычный выбор фраз и высказываний, а также красочность. Благодаря сюжетам народных сказок у детей могут возникать дополнительные вопросы касательно смысла происходящих эпизодов, что, в свою очередь, побуждает их к речевой активности и обсуждению происходящего в сюжете. Как ребенку успешно развивать свою речь, речевое творчество при помощи рассказов и сказок? Как реализовать потенциал его речевых возможностей, пробудить к созданию самых простых рассказов, сказок, стихов? Именно этим насущным вопросам посвящено данное исследование.

Анализ литературы. Изучение влияния сказок на развитие речи имеет давнюю историю. В работах отечественных и зарубежных исследователей неоднократно подчеркивается важность сказок как средства формирования языковой и речевой компетенции. Н. С. Карпинская в своей книге "Художественное слово в воспитании детей" отмечала, что «сказки, благодаря своей образности и эмоциональности, способствуют развитию у детей связной речи, формированию умения строить развернутые высказывания».³⁸ В работах же О.С. Ушаковой подчеркивается, что сказки, как особый вид устного народного творчества, развивают у детей воображение, мышление, память и речь, в том числе и связную.³⁹ В.В. Гербова в своей книге "Развитие речи в детском саду" указывает, что сказки помогают детям осваивать различные языковые конструкции, обогащают их словарный запас и формируют умение связно и последовательно излагать свои мысли.⁴⁰ Современные исследования, например, работы

³⁶ Ачисова Н. И. Волшебный мир сказок//Символ науки.2017.№ 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/volshebnyy-mir-skazok>

³⁷ Собрание сочинений, т.3, с.312

³⁸ Карпинская Н.С. Художественное слово в воспитании детей. —М.: Просвещение, 1992.- 211 с.

³⁹ Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. - М.: Издательство Института Психотерапии, 2019. - 256 с. - С. 198

⁴⁰ В.В. Гербова Развитие речи в детском саду: Подготовительная к школе группа. М.: МОЗАИКА-

Центра "Интеллект" и Психологической газеты, продолжают подтверждать положительное влияние сказок на развитие речи детей, отмечая их роль в формировании образности, эмоциональности и логичности речи.

Методология исследования. Материалом исследования послужили работы отечественных и зарубежных авторов, а также учебники для начальных классов в школах с русским и государственным языками обучения. В статье производится анализ и сопоставление различных видов работ по успешному применению народной сказки в развитии речи учащихся, а также в формировании первичных навыков словообразования.

Анализ и результаты. В нашем исследовании мы постараемся раскрыть механизмы развития связной речи младших школьников посредством чтения сказок. Почему именно сказок? Да потому что именно сказка является первоосновой знакомства ребенка с литературой. Это один из самых простых и увлекательных способов развития речи. Сказка - эффективный способ, чтобы развить не только речь, но и личность ребенка с самого раннего детства. Ребенок учится различать нравственные понятия (например, что такое добро и зло). Чтение сказок развивает эмоциональный интеллект (учит сочувствию, сопереживанию героям). Ребенок стремится подражать положительному главному герою. Читая сказку, дошкольник знакомится с абстрактными понятиями и легко усваивает их. Также она хорошо развивает воображение. Младший школьник задумывается над действиями и мотивами героев, анализирует их поступки. Сказки обогащают словарный запас малышей, знакомят их с образными выражениями и метафорами. Слушание сказки прекрасно развивает фонематический слух и чувство ритма. Использование в народных сказках простых слов и их частых повторений (например, в сказке "Репка") тренирует память. Это позволяет легко пересказать фразу или даже всю сказку. Легко научить ребенка звукоподражанию, озвучивая с ним действия, междометия или слова сказочного героя. Также через чтение сказки можно тренировать интонацию и выразительность речи.

Для младшего школьника сказка — это практически часть реального мира. Вот как они воспринимают сказочный сюжет: Слушая сказку, они отождествляют себя со сказочными героями. Вникая в сюжет, дети опираются на свой опыт. Учащиеся очень эмоционально относятся к главному герою. Им нравится слушать ритмичные присказки-наигрыши народных сказок. Они хорошо запоминают образные яркие названия (например, Петушок-Золотой гребешок); учатся видеть причинно-следственные связи в сюжете. В этот период у них активно обогащается словарный запас, ребята начинают понимать эпитеты и сравнения. Они начинают осознавать события в сюжете, которых еще не было в его опыте. Школьников интересуют не только поступки героев, но и их мотивы и чувства. В ходе речевого развития младших школьников средствами сказки с применением интерпретативного подхода языковые знания могут быть преподаны

учащимся как система, в процессе их объяснения (это касается языковых средств сказки, например, прозвищ сказочных героев, их действий, образованных при помощи определенных аффиксов— «лисонька, зайныка, волчище, ждет-пождет» — на лексико-грамматическом уровне, звукоподражаний сказочным животным для развития представлений о звуках речи на фонетико-фонематическом уровне, образных слов и выражений на семантическом уровне и т д) Об этом писали О В Джеджелей, М Р Львов и другие. Часть информации, воспринимаемая детьми через сказку, приводит их к пониманию материнской культуры. Например, оценка поступков (лиса хитрая, заяц трусливый). При наполнении сказок личностными смыслами зарождается ученическая интерпретация С одной стороны, в силу богатства подразумеваемых смыслов, каждый черпает из сказки близкое именно ему содержание С другой стороны, сказка является носителем смыслов, которые вложил в нее автор (народ) и рассказчик (учитель), что создает основу для возникновения единого семантического пространства между учителем и учениками, дает им возможность проявиться как языковым личностям. Используемая в рамках интерпретативного подхода сказка перестает быть технологическим средством развития речи в качестве «коммуникативного приспособления в общении с ребенком», а становится «языком» общения учителя и учащихся ⁴¹.

При таком использовании сказки достигается качественное своеобразие уровня речевого развития младших школьников, которое выражается в том, что учащиеся имеют свою точку зрения, хотят высказаться, вступить в диалог, выслушать другого. Как видим, потенциал сказок довольно велик, возможности применения которого открывают широкие возможности для развития речи посредством чтения сказок.

Чтобы научить дошкольника связной и выразительной речи, мы рекомендуем следующие методы.

Пересказ. Пересказ хорошо обогащает словарный запас. Также при пересказе дети учатся воспроизводить правильные речевые обороты и устоявшиеся фразы. Родителям стоит учитывать в виду, что даже старшим школьникам это задание дается с трудом. Ведь для пересказа необходимо использовать мышление, память и воображение. Чтобы облегчить им задачу, стоит использовать опорные иллюстрации. Важно, чтобы ребенку были понятны все слова и выражения в тексте. Можно использовать такие формы пересказа: пересказ по очереди по частям сказки; по ролям; с изменением действующего лица.

Сочинение сказок. Сочинениями сказок дети могут заниматься самостоятельно, начиная примерно с 4 лет. В младшем школьном возрасте это искусство обогащается. Вот какие задания помогут сочинить сказку на новый лад:

-создать новые обстоятельства (например, Баба-Яга живет на дне морском);

⁴¹ Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: в 6 т. М.: Педагогика, 1989. Т.3. 510с.- 1; т.3, с.278

-“переиначить” детали знакомой сказки (допустим, героиню звали не Красная Шапочка, а Зеленая Шапочка);

- рассказать сказку по-новому (например, можно перевоспитать злую мачеху Золушки);

-спасти героя от подстерегающей опасности; придумать другую концовку. Кроме того сочинением сказок дети могут заниматься самостоятельно, не стоит ограничивать их фантазию.

Речевые игры по сказкам. Можно использовать эти игры, или придумать свои на тему прочитанного сюжета. Например, речевая игра на тему «Добрый Колобок». В коробку надо положить карточки с изображениями новых персонажей (например, Мухомор, Ромашка, Гусеница, Черепаха и т.д.). Пусть ребенок придумает ситуацию, в которой Колобок помог бы тому персонажу, изображение которого попадется малышу. Например, Колобок увидел, что Черепаха не может перейти тропинку из-за большого камня. Он отодвинул камень с пути Черепахи, и та горячо поблагодарила его и поспешила по своим делам дальше. Кстати, затем можно нарисовать рисунок по мотивам этой истории и рассказать, что там нарисовано⁴².

Или же вспомним замечательную сказку Г.Х.Андерсена «Снежная королева». Назовем нашу игру-«Ледяной осколок». Надо помочь Герде: придумать теплые добрые слова, которые растопили бы сердце заколдованного Кая. Затем составляется настоящее письмо и “отправляется” главным героям сказки⁴³.

Другая ролевая игра, предоставляющая огромное поле для развития детской фантазии – это «Лягушка-путешественница». Ведущий - это Лягушка-путешественница. Он загадывает место, где побывал в путешествии. Другому участнику нужно отгадать, где он был. Например, там, где растут цветы и деревья с фруктами. За этим местом ухаживает человек с граблями, лейкой, лопатой и т.д. Конечно, это сад.

Важно подбирать сказки для детей по возрасту. Младшим школьникам понятны и интересны сказки о животных и людях. Например, “Заюшкина избушка”, “Теремок”, “Лиса и Волк”, “Маша и Медведь”. Им нравятся и волшебные сказки, они сопоставляют себя с их персонажами: “Снегурочка”, “Мальчик-с-пальчик”, “Царевна-лягушка”, “12 месяцев” и т.д. Чтобы ребенку нравилась книга, в ней должны быть яркие и понятные иллюстрации. Ребятам стоит предложить не только старые известные сказки. Можно придумать сказки о современных знакомых героях, например, о Смешариках или Лунтике.

⁴² Каипова Г.И. ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ПРИМЕРЕ ГЕРОЕВ СКАЗОК. «Медиация диалога – путь к миру и согласию», VII Международный форум медиации (2025; Новокузнецк), VII Международный форум медиации «Медиация диалога – путь к согласию!» 17-18 апреля 2025 г.

⁴³ Каипова Г.И. ВЫРАЗИТЕЛЬНОЕ ЧТЕНИЕ СКАЗОК И ДЕТСКИХ РАССКАЗОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ – ПУТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА. Namangan davlat pedagogika instituti, «Ta’lim va taraqqiyot» ilmiy-uslubiy jurnali? 2025-yil? 2-son.

Читать сказку надо выразительно, соблюдая интонационные паузы, выделяя главные слова и т.д. Это даст правильный пример ребенку и пробудит интерес к читаемому произведению. По ходу чтения необходимо обращать внимание на незнакомые слова в тексте и объяснять их ребенку. После прочтения сказки, ее надо обсудить с ребенком. Пусть ребенок выскажет свое мнение, подумает, почему случилось то или иное событие. Родителям не нужно навязывать свое мнение, но стоит направить мысли ребенка в нужное русло. При обсуждении сказки стоит задавать ребенку правильные вопросы — не «Что?» и «Где?», а «Почему?», «Отчего?».

Чтобы улучшить мелкую моторику, а значит, и речь, можно слепить поделку или нарисовать рисунок на тему сказки. Отлично развивает речь кукольный театр, пальчиковые куклы. Ребенок может озвучить роль любимого персонажа полностью. Можно инсценировать сказку и выступить на импровизированной сцене. Очень важно, чтобы и учителя, и родители прививали ребенку любовь к чтению своим примером. Отличный вариант досуга – это совместное чтение сказки всем классом или всей семьей. Это можно сделать по ролям или по очереди. Затем стоит всем вместе обсудить прочитанное.

Заключение. Сказки - это тексты, в которых заложен глубокий смысл. На ранних этапах развития человечества, когда мотивы сегодняшних сказок еще были мифами, смысл их был сакральным, составлял основу представлений человека о мире и передавался из поколения в поколение. Сказки знакомят детей с новыми словами, выражениями, оборотами речи, что способствует расширению словарного запаса. Чтение сказок помогает детям легче усваивать грамматические правила, формировать навыки правильного построения предложений; благодаря своим ярким образам и выразительному языку, оказывают положительное влияние на эмоциональную сферу ребенка; учат выстраивать логическую цепочку событий, последовательно излагать свои мысли, что является важным компонентом связной речи; стимулируют воображение, способствуют развитию творческого мышления, что в свою очередь положительно влияет на речевое развитие. Следовательно, сказка «разговаривает» с учителем и учащимися не только на их родном языке, но и на «языке» социума и «языке» их личности Соприкасаясь со сказкой, согласно А.Н.Леонтьеву, дети нормативно усваивают язык и культуру и выступают в роли субъектов деятельности, где субъективный аспект понимания дает простор для появления «личностных смыслов» и интерпретации ⁴⁴.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Ачисова Н. И. Волшебный мир сказок//Символ науки.2017.№ 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/volshebnyy-mir-skazok>
2. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения. Собрание сочинений, т.3, с.312

⁴⁴ Леонтьев А. А. Психология общения – 3-е изд. – М.: Смысл, 2016. – 365 с.

3. Карпинская Н.С. Художественное слово в воспитании детей. –М.: Просвещение, 1992.- 211 с.
4. Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. - М.: Издательство Института Психотерапии, 2019. - 256 с. - С. 198
5. В.В. Гербова Развитие речи в детском саду: Подготовительная к школе группа. М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2016 г.
6. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: в 6 т. М.: Педагогика, 1989. Т.3. 510с.- 1; т.3, с.278.
7. Каипова Г.И. Воспитание младших школьников на примере героев сказок. «Медиация диалога – путь к миру и согласию», VII Международный форум медиации (2025; Новокузнецк)., VII Международный форум медиации «Медиация диалога – путь к согласию!» 17-18 апреля 2025 г.
8. Каипова Г.И. Выразительное чтение сказок и детских рассказов в начальной школе-путь к совершенствованию русского языка. Namangan davlat pedagogika instituti, «Ta'lim va taraqqiyot» ilmiy-uslubiy jurnali? 2025-yil, 2-son.
9. Леонтьев А. А. Психология общения – 3-е изд. – М.: Смысл, 2016. – 365 с.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 371.134:377.5

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING
METODIK VAZIFALARI**

Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi.

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi.*

nodirabegim3363@icloud.com

+998941056363

Annotatsiya Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish masalalari chuqur tahlil etilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog va metodist sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, pedagogik jarayonda metodik kompetensiyaning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik kompetensiya deganda o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil eta olish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish, turli metod va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari tushuniladi.

Maqolada metodik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari, ularni shakllantirish bosqichlari va pedagogik amaliyotdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, integrativ yondashuvlar orqali metodik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. O'quvchi-talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasalari va pedagogik amaliyotning o'zaro uyg'unligi, metodik mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llari ochib beriladi.

Mazkur maqola boshlang'ich ta'lim sohasida ishlayotgan olimlar, pedagoglar hamda o'quv jarayonini modernizatsiya qilishga intilayotgan ta'lim muassasalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Bo'lajak o'qituvchilar, boshlang'ich ta'lim, metodik kompetensiya, pedagogik malaka, ta'lim metodlari, amaliy mashg'ulot, innovatsion texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, interaktiv o'qitish, pedagogik yondashuv, ta'lim sifatini oshirish, kasbiy rivojlanish.

XXI asrda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyat ehtiyojlarining yangilanib borishi pedagogik kadrlarga, xususan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga nisbatan yangicha talablarni yuzaga keltirmoqda.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi – bu bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ilm-fan asoslarini o‘zlashtirishi va mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu bosqichda faoliyat yurituvchi o‘qituvchining kasbiy salohiyati, pedagogik mahorati va, eng asosiysi, metodik kompetensiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish esa ularning oliy ta‘lim davridanoq boshlangan tizimli va maqsadli tayyorgarligini talab etadi. Bu jarayon o‘z ichiga nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ta‘lim metodlari va texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini oladi. Metodik kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi ta‘lim jarayonini shunchaki o‘tkazuvchi emas, balki uni samarali boshqaruvchi, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos ta‘limiy faoliyat tashkil qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Afsuski, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ba‘zi bo‘lajak o‘qituvchilar metodik tayyorgarlik yetishmasligi sababli dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishda qiynalmoqda, interaktiv metodlarni samarali qo‘llay olmayapti. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifati va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, pedagogik ta‘lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish, bu boradagi nazariy va amaliy tayyorgarlikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishdir.

Mazkur maqolada metodik kompetensiyaning mohiyati, uning tarkibiy qismlari, shakllanish bosqichlari hamda uni rivojlantirishda ta‘lim muassasalari va pedagogik amaliyotning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchi profiliga mos keluvchi metodik kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, ilg‘or tajribalar va samarali ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritiladi.

Metodik kompetensiyaning mazmuni va ahamiyati: Metodik kompetensiya — bu o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, baholash va tahlil qilishga oid kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning uyg‘unligidan iborat kompleks salohiyatdir. U boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ayniqsa muhim, chunki bu bosqichda o‘quvchilarga turli fanlardan dastlabki bilimlar beriladi va bu jarayonda metodik yondashuvlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Metodik kompetensiya nafaqat bilimlarni yetkazish, balki o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb qilish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholashga o‘rgatish uchun ham zarurdir. Shuningdek, u o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Metodik kompetensiyaning tarkibiy qismlari: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik kompetensiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

Nazariy tayyorgarlik: ta‘lim jarayonining psixologik-pedagogik asoslari, didaktik tamoyillar va metodlar haqidagi bilimlar.

Dizaynerlik-kompetensiya: darsni loyihalash, o‘quv dasturlarini tahlil qilish, dars ishlanmalarini tuzish qobiliyati.

Texnologik kompetensiya: interaktiv o‘qitish usullari, raqamli vositalar, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish malakasi.

Refleksiv kompetensiya: o‘z faoliyatini baholay olish, yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, o‘zini rivojlantirishga intilish.

Kommunikativ kompetensiya: o‘quvchi bilan samarali muloqot o‘rnatish, ota-onalar va hamkasblar bilan hamkorlik qilish ko‘nikmasi.

Metodik kompetensiyani shakllantirish bosqichlari: Metodik kompetensiyani shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Motivatsion bosqich: talabada pedagogik faoliyatga bo‘lgan qiziqish uyg‘otiladi, kasbiy qadriyatlar shakllantiriladi.

Nazariy bosqich: metodika fanlari, pedagogika, psixologiya asoslari chuqur o‘rganiladi.

Amaliy bosqich: mikro-o‘qitish, laboratoriya mashg‘ulotlari, dars kuzatish, model darslar orqali tajriba to‘planadi.

Refleksiv bosqich: talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, muammolarni aniqlaydi va mustaqil yechim topishga intiladi.

Metodik kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari: Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Integrativ yondashuv: bir nechta fanlararo bog‘liqlikda metodik mashg‘ulotlar o‘tkazish, tizimli fikrlashni shakllantirish.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari: AKT vositalaridan foydalanish, onlayn platformalar orqali dars loyihalarini tuzish.

Case-study, klaster, aqliy hujum kabi interaktiv metodlardan foydalanish: talabalarni faol ishtirok etishga undash.

Model darslar va seminarlar: talabalarni real o‘quv jarayoniga yaqinlashtiradi.

Pedagogik amaliyotga alohida e‘tibor: nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali kompetensiyani mustahkamlash.

Ilg‘or tajribalar va xorijiy amaliyot: Dunyo tajribasida (masalan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapurda) bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda amaliyotga asoslangan yondashuv asosiy o‘rinda turadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham bu borada islohotlar olib borilmoqda. Talabalarning real dars jarayonlarida ishtiroki, mentorlik dasturlari, modul tizimga o‘tish kabi tashabbuslar metodik kompetensiyani shakllantirishda ijobiy natijalar bermoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish — zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim pedagogining kasbiy muvaffaqiyati, asosan, uning metodik tayyorgarligi va pedagogik jarayonni puxta tashkil eta olish qobiliyatiga bog‘liq. Shu boisdan, oliy pedagogik ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantiruvchi samarali, tizimli yondashuvlarni joriy etishlari lozim.

Xulosaga ko‘ra, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va refleksiv tahlil qilish qobiliyati — bularning

barchasi metodik kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Aynan shu komponentlarning uyg‘unligi orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishga tayyor bo‘ladi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot va nazariy mashg‘ulotlar o‘rtasida mustahkam bog‘liqlikni ta‘minlash, talabalarni real ta‘lim muhitida faol ishtirok etishga jalb qilish, mentorlik va modellastirish metodlaridan foydalanish metodik kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash, o‘quvchilarni zamonaviy bilim va kompetensiyalar bilan ta‘minlash bo‘yicha izchil harakatlar aynan metodik kompetensiyaning yuqori darajada shakllanganligiga bevosita bog‘liqdir. Mazkur maqolada bayon etilgan g‘oyalar va tavsiyalar ta‘lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axmedov, N., & Mamajonov, S. (2020). Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.
2. Karimova, G. A. (2021). Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Hasanboyeva, G‘. (2019). “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda metodik xizmatning o‘rni.” Pedagogik mahorat jurnali, №2, 34–39-bet.
4. Rustamova, Z. R. (2020). Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Khodjayev, N. N. (2022). “Pedagogik kompetensiyani shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni.” Ilm va taraqqiyot, №4(58), 112–116-bet.
6. Shodmonov, S. H. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Mamatqulov, B. O. (2021). “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida refleksiv yondashuvning ahamiyati.” Kasb-hunar ta‘limi, №3, 25–28-bet.
8. Zimnyaya, I. A. (2004). Key competencies — a new paradigm of educational result. Moskva: Issledovaniya v obrazovanii.
9. OECD (2018). Preparing Teachers for the 21st Century. OECD Publishing.
10. <https://www.oecd.org/education/preparing-teachers-for-21st-century.htm>
11. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. Jossey-Bass.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

PISA VA DTS DA O‘QISH SAVODXONLIGIGA QO‘YILGAN TALABLAR

Shamsiyeva Difuza Nizomidinovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
dilfuzashamsiyeva201@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturi bo‘lgan PISA (Programme for International Student Assessment) va O‘zbekiston Respublikasining Davlat Ta’lim Standartlari (DTS) doirasida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligiga qo‘yilgan talablar tahlil etilgan. Unda PISA dasturining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va undan amaliy hayotda foydalanish ko‘nikmalarini baholashga qaratilgani yoritiladi. Shuningdek, DTS doirasida o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq kompetensiyalar, ularni shakllantirish usullari hamda mazkur kompetensiyalarni PISA talablariga yaqinlashtirish zarurati muhokama qilinadi. Maqolada ikki tizimdagi talablar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar hamda milliy ta’lim sifatini oshirish uchun PISA yondashuvlaridan foydalanishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, PISA, Davlat ta’lim standarti (DTS), o‘qish savodxonligi, ta’lim sifati, funksional savodxonlik, o‘quvchi kompetensiyasi, baholash tizimi, xalqaro baholash, ta’lim yondashuvlari, milliy o‘quv dasturi.

PISA AND DTS READING LITERACY REQUIREMENTS

Abstract. This article analyzes the requirements for students' reading literacy within the framework of the international assessment program PISA (Programme for International Student Assessment) and the State Educational Standards (DTS) of the Republic of Uzbekistan. It highlights the main goal of the PISA program, which is to assess students' abilities to understand, analyze, and apply texts in real-life situations. The article also discusses competencies related to reading literacy within DTS, methods for developing these competencies, and the need to align them more closely with PISA requirements. Similarities and differences between the two systems are examined, and the relevance of using PISA approaches to improve the quality of national education is substantiated.

Keywords: reading literacy, PISA, State Educational Standard (DTS), educational quality, functional literacy, student competency, assessment system, international assessment, educational approaches, national curriculum.

ТРЕБОВАНИЯ К ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В PISA И ГОС

Аннотация. В данной статье проанализированы требования к читательской грамотности учащихся в рамках международной программы оценки PISA (Programme for International Student Assessment) и Государственных образовательных стандартов (ГОС) Республики Узбекистан. Освещается основная цель программы PISA — оценка способности учащихся понимать, анализировать тексты и применять их в реальной жизни. Также рассматриваются компетенции, связанные с читательской грамотностью в рамках ГОС, методы их формирования, а также необходимость сближения этих компетенций с требованиями PISA. В статье сопоставляются требования обеих систем, обосновывается актуальность применения подходов PISA для повышения качества национального образования.

Ключевые слова: читательская грамотность, PISA, государственный образовательный стандарт (ГОС), качество образования, функциональная грамотность, компетентность учащегося, система оценки, международная оценка, образовательные подходы, национальная учебная программа.

KIRISH. Barcha rivojlangan davlatlarida savodxonlik muammosiga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda xalqaro baholash dasturlari yaqindan yordam beradi. Agar xalqaro tadqiqotlar maktab o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasining pastligini ko'rsatsa, bu holat ta'lim siyosatini, xususan, o'qitish uslublarini qayta ko'rib chiqishi kerakligi ko'rsatadi. Ko'plab mamlakatlarda bolalar o'qishini qo'llab-quvvatlash siyosati asosan "Matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish" **PIRLS** (Progress in International Reading Literacy Study) va **PISA** (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarida mamlakatning past yoki yetarli darajada bo'lmagan natijalar ko'rsatganidan so'ng faollashdi. Bu dasturlar xalqaro nuqtayi nazardan ta'lim tizimining samaradorligini baholash va aniqlashga xizmat qiladi. Xususan, PISA tadqiqotlari maktab tizimi o'quvchilarni kelajakdagi ta'limga qanday darajada tayyorlay olishini ko'rsatadi. U o'quvchilarning qobiliyatlarini va real hayotga tayyorlanishini, axborotga kirish imkonini beruvchi umrbod fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'lchaydi. PISA baholashining maqsadi - o'quvchilar maktabda o'rgangan bilimlarini real hayotdagi vaziyatlarga qanday qo'llay olishini aniqlashdir.

O'qish savodxonligi – bu kundalik hayotda matnlarni tushunish va ulardan samarali foydalanish orqali bilim va salohiyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalardir. O'qish savodxonligining maqsadi – o'quvchilarga hayot davomida ta'lim, ish faoliyati va xavfsizlik kontekstlarida matnli axborotni topish va undan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

PISA o'qish savodxonligini baholovchi tizim sakkizta asosiy xususiyatga ega: kognitiv jarayon, matn shakli, matn turi, test shakli, vaziyat, savol turlari, savol darajasi, matn vositasi va muhiti. O'qishdagi kognitiv jarayonlar bu – ma'lumotni aniqlash, tushunish, baholash va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Matn shakllari – uzluksiz, uzlukli va aralash

matnlardan iborat. Matn turlari – tavsif, hikoya, izoh, munozara, yo‘riqnoma va muomala. Test shakllari – oddiy test variantlari, murakkab test variantlari, ha/yo‘q savollar, qisqa javob, yopiq konstruksiyali javob va ochiq konstruksiyali javoblardan iborat. Vaziyatlar – shaxsiy, ijtimoiy, ta’limiy va kasbiy kontekstlarga bo‘linadi. Savol turlari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri, kontekstual-xulosa chiqaruvchi (inferensial), va baholovchi. Savollar darajasi – Bloom taksonomiyasiga ko‘ra 1A darajadan 5-darajagacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Matn vositalari – bosma va raqamli. Matn muhiti – muallif tomonidan yaratilgan va xabarga asoslangan, muhitlarni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu tadqiqot taqqoslash uslubida olib borildi, ya’ni o‘rganilayotgan holatga oid ma’lumotlar to‘plandi. Tadqiqotning maqsadi PISA bilan DTSda o‘qish savodxonligi baholash xususiyatlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashdan iborat edi. Yuqorida taqdim etilgan PISA o‘qish savodxonligi baholash xususiyatlari PISA baholovini DTS baholovi bilan taqqoslash imkonini beradi.

PISA va DTSda o‘tkaziladigan o‘qish savodxonligi baholash jarayoni o‘rtasida yaqin bog‘liqlik bo‘lishi lozim, chunki ular bir xil yoshdagi (15-16 yosh) o‘quvchilarni baholaydi. Bundan tashqari, maktab o‘quvchilari PISA baholash bosqichida talab etiladigan o‘xshash o‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan bo‘lishi kerak. Shunga qaramay, ushbu ikki turdagi o‘qish savodxonligi baholovlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlab beradigan tadqiqot o‘tkazilishi lozim. Ushbu tadqiqotda:

- PISA o‘qish savodxonligi baholash xususiyatlari qanday?
- DTSda o‘qish savodxonligi baholash xususiyatlari qanday?
- Ushbu ikkala baholash turi o‘rtasidagi farqlar nimalardan iborat? kabi savollarga javob topamiz.

PISA o‘qish savodxonligi baholovi va maktab o‘qish savodxonligi baholovi taqqoslanishi PISA o‘qish savodxonligini baholashda qo‘llanilgan sakkizta indikator asosida amalga oshirildi. Ushbu indikatorlar quyidagilar: kognitiv jarayon, matn shakli, matn turlari, test shakli, vaziyat, savol turlari, savol darajasi, matn vositasi va matn muhiti.

Kognitiv jarayonlar. PISA o‘qish savodxonligi baholovida quyidagi kognitiv jarayonlar mavjud: axborotni topish, keng tushuncha hosil qilish, talqin qilish, matn mazmuni bo‘yicha fikr yuritish va baholash, matn shakli bo‘yicha fikr yuritish va baholash, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborotni tushunish.

Matn shakli. PISA baholovida uch xil matn shakli mavjud: uzluksiz, uzluksiz bo‘lmagan, va aralash matnlar. **Uzluksiz matnlar** gaplar paragrafga tashkil etilgan matnlardir. Uzluksiz matnlar katta tuzilmalarga bo‘linadi, masalan, bo‘limlar, boblar va kitoblar. Gazeta maqolalari, insho, badiiy romanlar, hikoyalar, sharhlar, maktublar, bloglar va hisobotlar uzluksiz matnlarga kiradi. **Uzluksiz bo‘lmagan matnlar** esa matritsa shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ro‘yxatlar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, e’lonlar, jadval va kataloglar kabi ko‘plab ro‘yxatlar mavjud. **Aralash matnlar** esa o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, masalan, insho va grafikning o‘zaro moslashuvi orqali birlashgan matnlar.

O‘qishda ishlatiladigan matn turlari. O‘qishda qo‘llaniladigan matn turlari quyidagilardan iborat: tasviriy, hikoyaviy, izohlovchi, dalil keltiruvchi, ko‘rsatma beruvchi, va muomala matnlar. **Tasviriy matnlar** - bu ob’ektlarning makondagi xususiyatlariga oid ma’lumot beruvchi matnlar, masalan, insholar, kataloglar, blog kundaliklari. **Hikoyaviy matnlar** - vaqtga bog‘liq voqealarni bayon qiluvchi matnlar, masalan, drama asarlari, multfilm hikoyalari. **Izohlovchi matnlar** - turli elementlar o‘zaro qanday bog‘langanini tushuntiruvchi va “qanday?” savollariga javob beruvchi matnlar, masalan, kitob sharhlari, onlayn xaridlar reytinglari. **Dalil keltiruvchi matnlar** - tushunchalar yoki takliflar o‘rtasidagi munosabatlarni taqdim etuvchi matnlar, masalan, reklama e‘lonlari, onlayn forumlardagi bloglar. **Ko‘rsatma beruvchi matnlar** - nima qilish kerakligini tushuntiruvchi matnlar. Masalan, retseptlar, dasturiy ta’minotni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalar. **Muomala matnlari** - ma’lum bir maqsadga erishishga yo‘naltirilgan matnlar, masalan, biror ishni so‘rash, uchrashuv tashkil etish yoki do‘st bilan ijtimoiy aloqani o‘rnatish uchun yozilgan maktub, elektron pochta yoki SMS. **O‘qish savodxonligi test shakllari.** O‘qish savodxonligi test shakllari quyidagilardan iborat: oddiy tanlovli savollar, murakkab tanlovli savollar, ha/yo‘q shaklidagi savollar, qisqa javobli savollar, yopiq konstruktiv javob, ochiq konstruktiv javob. **O‘qishdagi vaziyatlar** O‘qishdagi vaziyatlar to‘rtga bo‘linadi: shaxsiy vaziyat, jamoat vaziyati, ta’lim vaziyati va kasbiy vaziyat. **Shaxsiy vaziyat** - bu shaxsning amaliy va intellektual qiziqishlarini qondirishga yo‘naltirilgan. **Jamoat vaziyati** - keng jamiyat faoliyatlariga taalluqli. **Ta’lim vaziyati** - odatda ta’lim maqsadida tashkil etilgan. **Kasbiy vaziyat** - biror darhol bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarga oid. **Savol turlari**

PISA o‘qish savodxonligi savollari uch turga bo‘linadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobni talab qiluvchi, xulosalar chiqarishga asoslangan, va baholovchi (tanqidiy tahlilni talab qiluvchi). PISA o‘qish savodxonligi testlaridagi matn vositasi ikki turga bo‘linadi: bosma matn va raqamli matn. Bosma matnlarga bitta varaqlar, bukletlar, jurnallar va kitoblar misol bo‘la oladi. Raqamli matn esa suyuq kristalli displey, plazma, ingichka plyonka tranzistori va boshqa elektron qurilmalar orqali namoyish etiladi. PISA o‘qish savodxonligidagi matn muhitlari ikki turga bo‘linadi: muallifga asoslangan matn muhitlari va xabar asosidagi matn muhitlari: Muallifga asoslangan matn muhitining misoli – veb-sahifa, xabar asosidagi matn muhitlariga esa elektron pochta va blog kiradi.

Adabiyot talim bo‘yicha o‘qish savodxonligini baholashi (DTS talablari):

Adabiyot talim bo‘yicha o‘qish savodxonligini baholashning xususiyatlari PISA o‘qish savodxonligini baholashdagi sakkiz ko‘rsatkich yordamida tushuntirilib mumkin. **Kognitiv jarayon:** ma’lumotlarni topish va keng tushuncha hosil qilish. **Matn formatlari:** uzluksiz va uzluksiz bo‘lmagan. **Matn turlari:** tavsif, hikoya, qayd, muomala, e‘lon. **Test shakllari:** tanlovli savollar, qisqa javobli, ochiq va yopiq savollar. **Vaziyatlar:** shaxsiy, jamoat, ta’limiy. **Savol darajalari:** eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish. **Savol turlari:** to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xulosa chiqarishga asoslangan, baholovchi. **Matn vositalari:** bosma va raqamli. **Matn muhiti:** muallifga asoslangan va xabarga asoslangan.

Maktab o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan savollarda, o‘quvchidan aniq ma’lumotni talab qiluvchi savollar “nima?”, “qachon?”, “qayerda?”, “nima uchun?”, “kim?”, “qanday?” kabi so‘roq so‘zlari yordamida beriladi. Shuningdek, ha/yo‘q savollari o‘quvchining berilgan muammo yoki bayonotga rozilik yoki noroziligini bildiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. PISA va adabiyot ta’limi bo‘yicha Davlat ta’lim standarti o‘qish savodxonligini baholashining farqlari PISA o‘qish savodxonligi baholashining va adabiyot ta’limi bo‘yicha davlat ta’lim standarti o‘qish savodxonligi baholashining xususiyatlari tahliliga asoslanib, ularning farqlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Ko‘rsatkich	PISA o‘qish savodxonligi baholashi	Adabiyot talim bo‘yicha o‘qish savodxonligini baholashi
1	Kognitiv jarayon	Ma’lumotni topish, keng tushuncha hosil qilish, talqin qilish, matn mazmunini baholash	Ma’lumotni topish, keng tushuncha hosil qilish, turli talqinlarni solishtirish, munosabat bildirish.
2	Matn formati	Uzluksiz, uzluksiz bo‘lmagan, aralash matnlar, ko‘p matnlar	Uzluksiz va uzluksiz bo‘lmagan matnlar
3	Matn turlari	Tavsif, hikoya, izohlash, dalil keltirish, ko‘rsatma, muomala	Tavsif, tasviriy, hikoya.
4	Test shakli	Oddiy va murakkab tanlovli, qisqa javob, yopiq va ochiq insho	Tanlovli, qisqa javob, ochiq va yopiq savollar
5	Vaziyat	Shaxsiy, jamoat, ta’limiy, kasbiy	Shaxsiy, jamoat, ta’limiy
6	Savol darajasi	Eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish	Eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash.
7	Savol turlari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri, xulosa chiqarishga asoslangan, baholovchi	To‘g‘rida-to‘g‘ri, xulosa chiqarishga asoslangan, baholovchi.
8	Matn vositasi	Bosma va raqamli	Bosma
9	Matn muhiti	Muallifga asoslangan va xabarga asoslangan	Muallifga asoslangan

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, PISA o‘qish savodxonligini baholash va adabiyot ta’limi bo‘yicha davlat ta’lim standarti talablari uchun sakkiz ko‘rsatkich mavjud; ular kognitiv jarayon, matn shakli, matn turlari, test shakli, vaziyat, savol darajasi, savol turlari, matn vositasi va matn muhiti hisoblanadi.

Kognitiv jarayonlar bo‘yicha, PISA o‘qish savodxonligi baholashida beshta tarkibiy qism mavjud: ma’lumotni topish, keng tushuncha hosil qilish, talqin rivojlantirish, matn mazmunini tahlil qilish va baholash. Boshqa tomondan, Adabiyot o‘qish savodxonligi kognitiv jarayonlar: Ma’lumotni topish, turli talqinlarni solishtirish, munosabat bildirish.

Adabiyot ta’limida o‘qitilmaydigan uchta kognitiv jarayon – keng tushuncha hosil qilish. Ushbu kognitiv jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir.

PISA o‘qish savodxonligini baholashda matn shakli to‘rt komponentdan iborat: uzluksiz matn, uzluksiz bo‘lmagan matn, aralash matn va ko‘p matnlar. O‘rta maktabdagi o‘qish savodxonligi baholashida esa faqat ikkita shakl – uzluksiz va uzluksiz bo‘lmagan matn ishlatiladi. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar ommaviy axborot vositalari va boshqa bosma hamda raqamli manbalarda keng qo‘llaniladigan aralash va ko‘p matn turlariga tanish emaslar. Asarlarda keltirilgan bunday matnlardan namunalar bilan o‘quvchilarni tanishtirish kerak. O‘quvchilarning matnni chuqur tushunish qobiliyati faqat ko‘p matnlarni o‘qishga odatlanish orqali shakllanadi.

Matn turlari bo‘yicha PISA o‘qish savodxonligi baholashida olti tur mavjud: tavsifiy, hikoyaviy, izohiy, daliliy, ko‘rsatma beruvchi va muomala. Adabiyot ta’limida esa faqat uchta tur ishlatiladi: tavsifiy, hikoyaviy, tasviriy. Adabiyot ta’limida izohli, daliliy, ko‘rsatma beruvchi va muomala turlari yo‘q. Shuning uchun ushbu uch matn turi o‘quvchilar tomonidan o‘rganilishi lozim

PISA o‘qish savodxonligi baholashida beshta test shakli mavjud: oddiy tanlovli, murakkab tanlovli, qisqa javob, yopiq va ochiq shaklidagi savollar. Adabiyot ta’limida esa faqat to‘rt shakl qo‘llaniladi: tanlovli, qisqa javob, ochiq va yopiq savollar. Murakkab tanlovli savol turlari adabiyot ta’limida qo‘llanilmaydi. Bu savol turi ham o‘quvchini chuqur fikrlashga, hayot hodisalarni to‘g‘ri anglab yetishga yordam beradi.

PISA savollarining darajalari eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratishdan iborat. Adabiyot ta’limi esa faqat eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil va baholash darajalari mavjud. Talabalarga yaratish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur, chunki bu ularning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi

PISA savollarining turlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, xulosa chiqarishga asoslangan, baholovchi hisoblanadi. O‘rta maktabda ham shunday. Faqat qaysi turi ko‘proq o‘qish savodxonligini oshirishga ko‘proq xizmat qilinishini aniqlash lozim.

PISA o‘qish savodxonligi matnlari bosma va raqamli shaklda taqdim etiladi, Adabiyot ta’limida esa asosan bosma matnlar ishlatiladi. Raqamli davrda, o‘qituvchilar testlarni raqamli vositalarda ham o‘tkazishni o‘rganishlari kerak, chunki deyarli barcha talabalar axborot olish uchun gadgetlardan foydalanadi. Raqamli vositalar yordamida o‘qish savodxonligini baholash o‘qituvchining test javoblarini tekshirish ishini ancha osonlashtiradi.

PISA o‘quv savodxonligi baholashida matn muhiti muallifga asoslangan va xabarga asoslangan deb tasniflanadi. Adabiyot ta’limida ko‘proq muallifga asoslanga matnlar o‘rin olgan. Keyingi matn turidan foydalanilsa o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ko‘nikmasiga oshishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. PISA o‘quv savodxonligi baholash va nafaqat adabiyot ta’limi, rta maktabdagi o‘quv savodxonligini baholash orasidagi farqlar bu – o‘rta maktabdagi baholash sifatini yaxshilash uchun to‘ldirilishi kerak bo‘lgan bo‘shliqdir.

PISA o‘quv savodxonligi baholashining qiyinchilik darajasi, test turlari, matn turlari va savol turlari bo‘yicha xususiyatlariga erishgan o‘quv savodxonligi baholash talabalarga keyinchalik xalqaro o‘quv savodxonligi baholarida muvaffaqiyat qozonishda yordam beradi.

XULOSA. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, PISA o‘qish savodxonligini baholash xalqaro dasturi DTS talablaridan nisbatan ancha murakkabdir. O‘qish savodxonligini baholash O‘zbekiston o‘quvchilarining xalqaro savodxonlik baholovlarida, jumladan, PISA va PIRLSda, past natijalarga erishganliklari bilan bog‘liq holda pedagoglar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. PISA va PIRLS (Xalqaro o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot) natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘quvchilari hali ham dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda o‘qish bo‘yicha past darajada qolmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston o‘quvchilari nega boshqa davlatlardagi o‘quvchilar bilan raqobatlasha olmayotgani yuzasidan baho berilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асмолов А.Г., Бурменская Г. В., Володарская И. А. и др. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе. От действия к мысли: пособие для учителя / под ред. А. Г. Асмолова - М.: Просвещение, 2008. - 152 с.
2. Галактионова Т.Г. Чтение школьников как социально-педагогический феномен открытого образования. Автореф. дисс. на соиск. уч. степени доктора пед. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 42 с.
3. Husanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
4. Husanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018. – 88 b.
5. Лебедев.О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. – 2005. – № 5. – С. 3–13.
6. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 215 b.
7. Перминов. Л.М. Минимальное поле функциональной грамотности (из опыта С.-Петербургской школы). // Педагогика. – 1999. – №2. – С. 26–29.
8. To‘xliyev B., Niyozmetova R. Darsliklar ustida ishlash. – Toshkent, 2006. - 61 b.
9. Adabiyot fani milliy o‘quv dasturi. – 2024. – 14 b.



RASMLAR ORQALI EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISH (QOZOQ TILI DARSLARI MISOLIDA)

Gulistan Qanaatova

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi
"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi*

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali o'quvchilarga tabiatni asrash va ekologik muammolar haqida tushuncha berish maqsadida rasm asosidagi topshiriqlar taklif etiladi. Har bir topshiriq o'quvchilarni rasmlarni tahlil qilish, muammolarni anglash, his-tuyg'ularini ifoda etish, matn yaratish, muqobil yechimlar topish va ekologik mas'uliyatni chuqurroq tushunishga undaydi. Ayniqsa, Orol dengizi muammosi kabi dolzarb mavzular orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil va ijodiy ifoda etishga o'rganadilar. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki ekologik ong va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Ekologik ta'lim, rasm asosida topshiriq, Orol dengizi, suv muammosi, ekologik ong, tabiatni asrash, ijodiy fikrlash, ta'limda barqarorlik, tabiat va inson, maktab ekodarslari.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЖЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация. Данная статья предлагает систему заданий на основе иллюстраций, направленных на формирование экологического сознания у школьников. Через анализ изображений, выражение чувств, написание текстов и поиск решений учащиеся осознают важность сохранения природы и учатся выражать свои мысли ясно и творчески. Особое внимание уделяется актуальной теме — проблеме Аральского моря. Такой подход способствует развитию у учащихся не только знаний, но и чувства ответственности за окружающую среду, формирует активную гражданскую позицию.

Ключевые слова. экологическое образование, задания по иллюстрациям, Аральское море, проблема воды, экологическое сознание, охрана природы, творческое мышление, устойчивое развитие в образовании, природа и человек, экологические уроки в школе.

DEVELOPING ECOLOGICAL AWARENESS THROUGH IMAGES (BASED ON KAZAKH LANGUAGE LESSONS)

Abstract. This article presents a set of visual-based tasks designed to foster environmental awareness among students. By analyzing images, expressing emotions, composing texts, and

proposing solutions, students develop a deeper understanding of the importance of protecting nature and learn to express their thoughts clearly and creatively. Particular emphasis is placed on the pressing issue of the Aral Sea. This educational approach helps cultivate not only knowledge and skills, but also a sense of environmental responsibility and active citizenship in students.

Keywords. environmental education, image-based tasks, Aral Sea, water issue, environmental awareness, nature conservation, creative thinking, sustainability in education, nature and humans, school eco-lessons.

Ona tili darslarida tarbiya berish - yosh avlodda milliy ong, ma'naviyat, axloqiy mezonlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning eng samarali vositasidir. Bu darslar orqali o'quvchilarga ona tiliga hurmat, vatanparvarlik, odob, muloqot madaniyati kabi muhim insoniy fazilatlar singdiriladi. "Bugungi globallashuv va ma'naviy tahdidlar davrida ona tili darslari orqali tarbiya berish ayniqsa dolzarb bo'lib, yoshlarni milliy g'oya, tarixiy xotira va ruhiy barqarorlik asosida tarbiyalash imkonini beradi. Shu bois ona tili faqat bilim emas, balki tarbiya beruvchi asosiy fanlardan biridir"[2,B45].

Rasmi topshiriqlar, rasmga qarab matn tuzish yoki rasmni izohlash kabi mashqlar o'quvchilarda bir qancha muhim qobiliyatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Bu topshiriqlar nafaqat til va ifoda mahoratini oshirishga yordam beradi, balki ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, tafakkur qobiliyatini mustahkamlaydi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Birinchidan, rasmga asoslangan matn tuzish o'quvchilarning tasviriy tafakkurini rivojlantiradi. Rasm orqali ko'rsatilgan voqea yoki holatni so'zlar bilan ifodalash jarayoni ularning voqeani yaxshilab tushinishlari va unga o'z fikrlarini joylashtirishlariga imkon beradi. Bu esa nutq madaniyatini oshiradi, so'z boyligini kengaytiradi, va fikrlarni aniq, mantiqiy ravishda ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

"Shuningdek, rasmni izohlash orqali o'quvchilar kuzatuvchanlik va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Rasmdagi har bir detalni e'tibor bilan ko'rib, uning mazmunini anglash, voqealar orasidagi bog'liqliklarni topish tafakkurning chuqurlashishiga olib keladi. Bu jarayon o'quvchilarda diqqatni jamlash va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi"[2,B42].

Bunday topshiriqlar ijodiy qobiliyatlarni ham rag'batlantiradi. O'quvchilar rasm orqali yangi voqealar yoki holatlar tasavvur qilib, ularni so'zlar bilan ifodalashga urinadilar. Bu ularning fantaziyasini o'stiradi, yangi g'oyalarni yaratishga undaydi. Shu tariqa, ijodiy fikrlash va so'zlash malakasi birgalikda rivojlanadi.

Bundan tashqari, rasmi topshiriqlar o'quvchilarning his-tuyg'ularini anglash va ifoda etish qobiliyatini oshiradi. Rasmda ko'rsatilgan holatga nisbatan o'z hissiyotlarini so'z bilan ifodalash ularning ichki dunyosi bilan ishlashini va empatiya qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

"Umuman olganda, rasm asosida matn yaratish va izohlash o'quvchilarning ijodkorlik va hissiyotlarni boshqarish qobiliyatlarini uyg'un tarzda rivojlantiradi. Bu turdagi topshiriqlar

o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qilishi bilan birga, o‘quvchilarning hayotda fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifoda eta olishlariga, shuningdek, tabiat va jamiyat muammolarini anglab yetishlariga yordam beradi”[3,B89]. Shu sababli, bunday mashqlar maktabda va o‘quv jarayonida keng qo‘llanilishi lozim. Biz quyida shu kabi topshiriqlarga namunlar keltirib o‘tishni joiz topdik. Ushbu rasmlar o‘rniga xohlagan rasmni qo‘yib topshiriq mazmunini ham dars mavzusidan kelib chiqqan holda belgilash mumkin.

1-rasm.



O‘quvchilarga tabiat haqida 3 ta rasm ko‘rsatilganda va unda insonning tabiatga zarar yetkazishi hamda tabiatni asrash mavzusi mavjud bo‘lsa, quyidagi turdagi topshiriqlar berish mumkin:

1. Rasmga asoslangan tavsif yozish:

- Har bir rasmni diqqat bilan ko‘rib, rasmda nima tasvirlanganini so‘z bilan ifoda qil. Rasmda inson tabiatga qanday zarar yetkazmoqda yoki qanday yordam bermoqda?
- Har bir rasmga alohida qisqa matn yoz: tabiatga zarar yetkazish yoki uni himoya qilish haqida.
- Rasmlar ostiga sarlavha tanla.

2. Muqobil yechimlarni taklif qilish:

- Rasmda ko‘rsatilgan zararli harakatlarni ko‘rib, bunday zararlarni oldini olish uchun insonlar qanday choralar ko‘rishi mumkin? Matnda 2-3 taklif yozing.
- Tabiatni himoya qilish uchun o‘zingiz nima qilishingiz mumkinligini yozing.

3. Taqdimot tayyorlash:

- Uchta rasm asosida kichik taqdimot tayyorlang. Taqdimotda insonning tabiatga zarar yetkazishi va uni asrash zarurati haqida gapiring.

4. His-tuyg‘ularni ifodalash:

- Rasmni ko‘rib qanday his-tuyg‘ular paydo bo‘ldi? Nega shunday his qilasiz? Buni 3-4 gap bilan yozing.

5. Rasmga hikoya yozish:

- Uchta rasmga umumiy bir hikoya yozing, unda inson tabiatga zarar yetkazmoqda, keyin uni asrashga harakat qilmoqda.

2-rasm.

		
Biz ko‘p suv ichyapmizmi!?	Suvsiz hayot bormi?!?	Orol qaytadimi?!?

1. **Rasmga munosabat bildirish:** Har bir rasmga qarab, undagi muammoni so‘z bilan ifoda qil. Nima sababdan bu savollar muhim deb o‘ylaysan?
2. **Matn tuzish:** Rasm mavzusiga mos ravishda “Suv muammosi” yoki “Orol dengizi haqida” qisqa insho yoz.
3. **Muammoga yechim izlash:** Rasmlarda ko‘rsatilgan suv muammolarini bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish mumkin? 3 ta taklif yozing.
4. **Munozara savollari:**
Biz haqiqatan ham ko‘p suv ichyapmizmi?
Suvsiz hayot bo‘lishi mumkinmi?
Orol dengizini qaytarish uchun kimlar nima qilishi kerak?
5. **Tajriba o‘tkazish:** Bir hafta davomida suvni tejash bo‘yicha kundalik yozuv yuritib, nimani o‘zgartirganingizni yozing.
6. **Rasm asosida hikoya yaratish:** “Orol dengizi – kelajak umidi” nomli qisqa hikoya yozing, unda odamlar qanday qilib Orolni qaytarishga harakat qilishayotganini tasvirlab bering.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarni tabiat muammolari haqida fikrlashga, o‘z fikrlarini aniq va ijodiy ifoda etishga, shuningdek ekologik mas’uliyatni anglashga undaydi.

Bunday mashqlar orqali ular nafaqat suv muammosining dolzarbligini tushunib yetadilar, balki muammoni hal etish yo‘llarini izlashga, fikrlarini aniq va mantiqan ifoda etishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, rasm va savollar orqali o‘z hissiyotlarini ifoda etish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada, o‘quvchilar nafaqat bilim va ko‘nikma egasi bo‘libgina qolmay, balki tabiatni asrashga va ekologik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor fuqarolar bo‘lib voyaga yetadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. –Toshkent. Donishmand ziyosi. 2021. 156 b.
2. Husanboeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dokt. ... diss. Avtoref. – Toshkent: TDPU, 2006. – 262 b.

3. Qodirov M., Ne‘matov H. Mengliev B. va boshq. Ona tili 8-sinflar uchun darslik. – T.: Cho‘lpon. 2019. 6 b. Mengliev B., Toshmirzaeva Sh., Majidova S., Atoeva S. 10- sinf “Ona tili”darsligi 2-qism. – T.: Cho‘lpon. 2020. 186 b.

4. Mengliev B., Toshmirzaeva Sh., Majidova S., Atoeva S. 11- sinf “Ona tili”darsligi 2-qism. – T.: Cho‘lpon. 2020. 186 b.

5. T. Ziyodova «Matn yaratish texnologiyasi». Toshkent «Fan» 2007 yil.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA KASBIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abdujabborov Madaminjon Vohidjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti tayanch-doktoranti atmadaminjon@gmail.com

+998975849197

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada raqamli ta‘lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilingan. Jumladan, ChatGPT va Khanmigo kabi zamonaviy sun‘iy intellekt vositalarining ta‘lim jarayoniga tatbiqi orqali talabalar tahliliy, tanqidiy, reflektiv hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Khanmigo, kasbiy tafakkur, sun‘iy intellekt, ChatGPT, ta‘lim texnologiyalari, raqamli kompetensiya, reflektiv fikrlash.

АННОТАЦИЯ В статье рассматриваются технологии формирования профессионального мышления студентов в условиях цифровой образовательной среды. Особое внимание уделяется возможностям развития аналитического, критического, рефлексивного и творческого мышления обучающихся посредством внедрения в образовательный процесс современных инструментов искусственного интеллекта, таких как ChatGPT и Khanmigo.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Ханмиго, профессиональное мышление, искусственный интеллект, ChatGPT, образовательные технологии, цифровая компетентность, рефлексивное мышление.

ANNOTATION This article analyzes technologies for developing students' professional thinking in a digital learning environment. In particular, it highlights the potential for enhancing students' analytical, critical, reflective, and creative thinking skills through the integration of modern artificial intelligence tools, such as ChatGPT and Khanmigo, into the educational process.

KEYWORDS: Khanmigo, professional thinking, artificial intelligence, ChatGPT, educational technologies, digital competence, reflective thinking.

KIRISH. Bugungi kunda ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida o‘qitishning mazmuni, shakli va metodlariga yangi yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli ta‘lim muhiti ta‘lim jarayonini individuallashtirish, moslashtirish hamda talabalarning ijodiy va kasbiy tafakkurini rivojlantirish imkonini bermoqda. Kasbiy tafakkur esa talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga ongli, tanqidiy va reflektiv yondasha olish salohiyatini

shakllantirishda muhim mezon hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali tatbiq etish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni[1], 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni[2], 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori[3], 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qaror[4] va farmonlari imzolanib tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ularning kasbiy tafakkurini takomillashtirishga oid tadqiqotlar respublikamiz olimlari N.Muslimov, B.Akbarov, R.Melibayeva, F.Raxmatova, I.Mattiyev, O.Aslova, S.To‘rayev, O.Hamidov, E.G‘.G‘oziev, B.R.Qodirov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlari olimlari I.I.Vobrova, D.A.Podkopaev, T.K.Popova, R.A.Ataxanov, V.V.Davidov, N.B.Istomina, I.YA.Kaplunovich, A.N.Kolmogorov, YU.M.Kolyagin, A.Kruteskiy, A.Puankare, O.V.Tarasova, V.V. Kraevskiy, A.K. Markova, M.N. Skatkin, L.M.Fridman, M.A.Xolodnaya, T.Shvesova, M.Kashapov, O.Tixomirov, Y.Kornilov, D.Kavtaradze kabi olimlar tafakkurni rivojlantirishning turli jihatlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borgan.

METODOLOGIYA. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot usullariga nazariy tahlil, ta’lim dasturlari va amaliy mashg‘ulotlar tahlili, shuningdek, xorijiy tajribalar o‘rganilishi kiradi. Biz asosiy e’tiborni pedagogik ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt vositalari orqali talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishga qaratdik. O‘quv dasturlarini yangilash, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, axloqiy va huquqiy masalalarni yoritish, hamda uzluksiz o‘rganishning ahamiyati metodologik asos sifatida o‘rganildi. Yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarining oliy ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyasini tatbiq etish borasidagi tajribalari tahlil qilindi, jumladan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Angilya, Norvegiya, Singapur davlatlari tajribalari, ularni Oliy ta’lim muassasasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tajribalari o‘rganildi[5].

NATIJALAR. Sun’iy intellekt tushunchasi dastlab AQSHda paydo bo‘ldi va sekin-asta boshqa davlatlarda ham keng qo‘llanila boshladi. 1956 – yil AQSHda kompyuter va dasturlash sohasidagi 10 nafar Amerikalik yetakchi mutaxassislarning birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sun’iy intellekt haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar — “aqliy mashinalar” ishlab chiqarishga ilmiy yondashish birinchi bo‘lib Stanford universitetining professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956-yilda Dartmut universitetida bo‘lib o‘tgan konferensiyada tilga olingan[7]

Sun'iy intellekt odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima qilish va boshqa imkoniyatlarni yaratish bilan shug'ullanadi[6].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi, kasbiy tafakkurni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, OpenAI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPT kabi til modellari talabalar kasbiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

ChatGPT ning kasbiy tafakkurni rivojlantirishga qo'shadigan hissasi

- **Tahliliy fikrlashni rivojlantirish** – ChatGPT orqali talabalarning **tahliliy tafakkur ko'nikmalarini** rivojlantirish mumkin. Model foydalanuvchidan kelgan savollarga asoslangan holda ko'p qirrali, tizimli va asosli javoblar ishlab chiqadi. Bu jarayon talabalarni fikrni chuqurlashtirish, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga undaydi.
- **Tanqidiy fikrlashni shakllantirish** – ChatGPT bilan ishlash talabalarni berilgan javoblarni shubha ostiga olish, ularni baholash va dalillar bilan tasdiqlashga o'rgatadi. Talaba faqat tayyor bilimlarni emas, balki ularni **tanqidiy fikrlash orqali qayta ishlash ko'nikmasini** rivojlantiradi.
- **Muammoli vaziyatlar tahlili va yechim topish** – ChatGPT yordamida turli kasbiy kontekstdagi muammoli holatlar (case studies) yaratish va ularni tahlil qilish mumkin. Talabalar ushbu muammolar yechimlarini ishlab chiqishda qatnashib, **ijodiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini** rivojlantiradilar.
- **Reflektiv tafakkurni rivojlantirish** – ChatGPT yordamida talabalar o'z fikrlari va qarorlarini tahlil qilishga, o'rganish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar va xatolardan saboq olishga o'rganadilar. Bu reflektiv yondashuv ularning **mustaqil o'qish va kasbiy rivojlanish ko'nikmalarini** shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.
- **Bilimlarni chuqurlashtirish** – ChatGPT talabalarni **faktlar, kontseptlar va nazariyalarni** chuqur o'rganishga yo'naltiradi. Murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tilda izohlab, talabaning kognitiv qobiliyatlarini kengaytiradi.
- **Amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash** – Talabalar ChatGPT bilan ishlash orqali turli kasbiy vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, muloqot qilish, strategik fikrlash kabi **amaliy kompetensiyalarni** rivojlantirishlari mumkin.
- **Mustaqil o'rganishga yordam** – ChatGPT 24/7 mavjud bo'lib, talabalarni **mustaqil bilim olish**, savollar berish, tahlil qilish, dalillar izlash va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bu esa ularning **doimiy kasbiy o'sish** uchun asos yaratadi.
- **Innovatsion fikrlash va kreativlikni rivojlantirish** – Sun'iy intellekt yordamida talabalar **ijodiy tafakkur ko'nikmalarini** rivojlantirib, noan'anaviy yechimlar ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Khanmigo — **Khan Academy** tomonidan ishlab chiqilgan sun‘iy intellekt yordamchisi — talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda keng imkoniyatlarga ega zamonaviy vosita hisoblanadi.

Khanmigo‘ning asosiy afzalligi — uning **sun‘iy intellekt yordamida individual yondashuvni ta‘minlash qobiliyatidir**. Bu vosita o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida interaktiv muloqot muhiti yaratish orqali bilimlarni chuqurlashtirish, tahliliy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

- Muammoli savollarni tahlil qilish;
- Fikrlarini mantiqiy asoslash;
- Turli nuqtai nazarlarni qiyoslash va baholash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Misol uchun, talabaga muayyan kasbiy vaziyatda qaror qabul qilish topshirig‘i berilganda, Khanmigo unga yo‘nalish ko‘rsatish, afzallik va kamchiliklarni tahlil qilish, izchil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish

- Real hayotga yaqinlashtirilgan muammoli vaziyatlar bilan ishlash;
- Har xil qaror variantlarini ishlab chiqish;
- Har bir qarorning oqibatlarini tahlil qilish va samarali strategiyalarni tanlashni o‘rganadilar.

Bu jarayon kasbiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan **muammoli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish** ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish

- Yangi g‘oyalar yaratish;
- Muqobil yechimlar ishlab chiqish;
- Inson resurslarini samarali boshqarish;
- Innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan ochiq muloqot muhiti talabalarning o‘z fikrlarini erkin bayon etish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

XULOSA

Raqamli ta‘lim muhitining jadal rivojlanishi hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga keng tatbiq etilishi talabalar kasbiy tafakkurini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ChatGPT va Khanmigo kabi sun‘iy intellekt vositalari orqali talabalarda tahliliy, tanqidiy, reflektiv va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida mustaqil o‘rganish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish jarayonlari samarali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish, ularning kelajak kasbiy faoliyatiga ongli yondashuvni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil. 6-son. 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
5. M.Xurramov, K.Xalmuratova. “Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish”. “Metodik qo‘llanma”. “Yetakchi nashriyoti” Toshkent 2024 y.
6. Sadullaeva Sh., Yusupov D., Yusupov F. Sun’iy intellekt va neyron to‘rli texnologiyalar. Mahalla va oila nashriyoti. Toshkent, 2022 y. – 8 s.
7. T.A.Xo‘jaqulov, N.T.Malikova Sun’iy intellekt (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2020.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 81'22, 811.93

TEXNIKA UNIVERSITETI TALABALARIGA KASBIY INGLIZ TILINI O'QITISHDA INFOGRAFIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abdurahim Abdubannayevich Qahharov

Namangan davlat texnika universiteti

dotsenti a.a.aqahharov@mail.ru

+998 97 230 50 90

Yulduz Alisher qizi Ermatova

Namangan davlat texnika universiteti

Tayanch doktorant @yulduzermatova

+998 93 477 59 29

Annotatsiya. Maqolada yo'l muhandislariga ingliz tilini infografik ma'lumotlar asosida o'qitish masalasi tadqiq etilgan. Bunda rangli ko'rgazmali materiallar asosida kasbiy so'zlashish ko'nikmalari, til bilish darajasi, uning oshirishdagi mavjud muammolar taxlil etilgan. Yo'l muhandislarini tayyorlashda kasbiy so'zlashishda infografik ma'lumotlardan foydalanishdagi zamonaviy usul va vositalar bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Infografika, yo'l, muhandis, ingliz tili, kasbiy ko'nikma, kasbga yo'naltirilgan chet tili

Аннотация. В статье исследуется вопрос преподавания английского языка дорожным инженерам на основе инфографических материалов. На основе цветных наглядных пособий проанализированы профессиональные речевые навыки, уровень владения языком и существующие проблемы в его совершенствовании. Даны предложения и рекомендации по современным методам и средствам использования инфографических материалов в профессиональном общении при подготовке дорожных инженеров.

Ключевые слова: инфографика, дорога, инженер, английский язык, профессиональный навык, профессионально-ориентированный иностранный язык.

Abstract. The article examines the issue of teaching English to road engineers through the use of infographic materials. Based on colorful visual aids, the study analyzes professional speaking skills, language proficiency levels, and the existing challenges in improving them. The paper provides suggestions and recommendations on modern methods and tools for using infographics in professional communication during the training of road engineers.

Keywords: infographic, road, engineer, English language, professional skill, professionally oriented foreign language.

Kirish

Bugungi kunga kelib, chet tillarini o‘qitishda raqamli resurslarni joriy etish tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda, mutaxassislar ushbu o‘quv resurslarining didaktik talablari, o‘quv jarayonidagi o‘rni, ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganmoqda. Ko‘rgazmali materiallar, rasm, grafik, raqamli ma’lumotlarni kompyuter yoki mobil ilovalar yordamida yaratish uchun yetarlicha dasturiy vositalar mavjud. Bugungi kunda ommalashgan onlayn dasturlar va platformalardan foydalanish, albatta, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, axborot va raqamli bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday o‘rgatuvchi dasturiy vosistlar yordamida talabalarning tushunchalari, ko‘nikmalari asosida chet tilida eslatma yozish ko‘nikmalari rivojlanishiga olib keladi.

Chet tilini o‘rganishdan asosiy maqsadi so‘zlashish(speaking) ko‘nikmalari o‘zining(ona) tilida so‘zlashuvchilari bilan shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati hamda tayyorligini rivojlantirishga ahamiyat beradi.

Texnika oliy ta’lim muassalarida chet tillarini o‘rganishda raqamli resurslardan foydalanish sohaga oid axborot, aloqa va ta’lim elementlari yordamida bilim olishga yo‘naltiradi. Misol uchun yo‘l muhandislarini tayyorlashda soha oid yangiliklar, texnologik ishlanmalarni ingliz tilida izlash, ularni ajratib olishga o‘rgatish orqali talabalarda soha bo‘yicha kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xissa qo‘shadi. Talabalarning kasbga yo‘naltirish va qiziqtirishdagi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Sohaga yo‘naltirilgan ingliz tili ya’ni kasbiy ingliz tilini o‘qitishda talabalarning soha bo‘yicha bilimlarini oshirish hamda parallel ravishda ingliz tilini o‘rganishni tashkil etish zaruriyati kun tartibidagi masala hisoblanadi.

Ingliz tilini o‘rgatishda sohaga oid infografika ma’lumotlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Bunda asosiy jihat infografik ma’lumotlar asosida talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Infografik ma’lumotlarda rasmlar, grafiklar va raqamlarga asoslanib o‘zining nuqtai nazarini tushuntirishga xarakat qilishi orqali talabalarda gapirib berish ko‘nikmalarini yangi pog‘ona olib chiqadi.

Ключевые слова: социально-экологическая культура, экологическое сознание, экопедагогика, компетентностный подход, междисциплинарная интеграция, экологическое воспитание, педагогическая методика, экологическое проектирование, рефлексия, экологическое принятие решений.

MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF SOCIO-ECOLOGICAL CULTURE

Abstract. This article highlights the theoretical and methodological foundations for developing socio-ecological culture within the system of pedagogical higher education. Against the backdrop of global environmental challenges, the role of the human factor—particularly environmental awareness, ethical approaches, and competencies for responsible decision-making—is analyzed in depth. The author interprets socio-ecological culture as the integration of personal consciousness, a system of values, and activity-based components, substantiating its formation mechanisms through modern methodological concepts such as ecopedagogy, a competency-based approach, interdisciplinary integration, and reflective methods. Practical recommendations are provided on the use of environmental project design, case-based learning, emotionally impactful techniques, as well as monitoring and assessment indicators in the educational process. The paper also justifies the need to develop an original methodological model adapted to the education system of Uzbekistan. This scientific study demonstrates the strategic importance of methodological approaches in fostering ecological culture.

Keywords: socio-ecological culture, environmental awareness, ecopedagogy, competency-based approach, interdisciplinary integration, environmental education, pedagogical methodology, environmental project design, reflection, environmental decision-making.

Bugungi globallashuv sharoitida insoniyat ijtimoiy va ekologik muvozanatning izdan chiqishiga duch kelmoqda. Atmosferaning isishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, yer resurslarining yemirilishi, urbanizatsiya bosimi, ifloslanish darajasining oshishi va resurslar uchun kurash – bularning barchasi ekologik xavfsizlikni izdan chiqaruvchi omillardir. Bu holat nafaqat tabiiy tizimlarga, balki insoniyatning ijtimoiy ongiga, qadriyatlar tizimiga ham jiddiy ta’sir o’tkazmoqda. Shuning uchun ekologik muammolarni hal etishda texnik vositalar emas, balki inson omili – uning madaniyati, qarashlari, axloqiy yondashuvi asosiy yechim omiliga aylanmoqda. Shu bois ekologik inqiroz sharoitida madaniy transformatsiya zarurati – ya’ni fuqarolarning ekologik ongini, mas’uliyatini va ijtimoiy-ma’naviy pozitsiyasini qayta qurishga xizmat qiluvchi ta’limiy faoliyat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda ijtimoiy-ekologik madaniyat tushunchasi muhim ilmiy-pedagogik kategoriya sifatida shakllandi. U ekologik ong, axloq, ijtimoiy faollik, tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabat, madaniy qadriyatlar va barqaror rivojlanish g‘oyalarini o‘z ichiga olgan murakkab integrativ tushunchadir. Mazkur madaniyat tushunchasi shaxsning ekologik holatga faqat bilish darajasida emas, balki hissiy, aksiologik, faol va reflektiv darajada munosabatda bo‘lishini ifodalaydi. Ijtimoiy-ekologik madaniyat psixopedagogik asosda shaxsning motivatsiyasi, qadriyat yo‘nalishlari, ekologik identifikatsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish bilan bog‘liq. Ayni paytda bu tushuncha aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan ham qaralmoqda: ya’ni inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat axloqiy, gumanistik, ijtimoiy va ekologik qadriyatlar uyg‘unligi asosida shakllanishi kerak.

Shu sababli ta’lim tizimining vazifasi – shunchaki ekologik faktlar yoki tushunchalarni yetkazish emas, balki shaxsiy ong va xulqdagi ijtimoiy-ekologik pozitsiyani tarbiyalashdan iborat. Bu esa metodik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini keskin oshiradi. Ta’limdagi metodik yondashuvlar orqali nafaqat bilim, balki ekologik qaror qabul qilish malakasi, emotsional sezgirlik, jamiyatga xizmat qilish motivlari ham shakllanadi. Xususan, ekopedagogika, kontekstual va kompetensiyaviy yondashuvlar, trening va muammoli vaziyat asosidagi interaktiv metodlar, integrallashgan ta’lim shakllari – bularning barchasi ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy uslublari sifatida e’tirof etilmoqda. Shuningdek, ta’lim jarayonida ekologik xulq-atvorni baholash, refleksiya, monitoring va o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga adaptatsiya metodlari qo‘llanishi zarur.

Demak, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish metodik yondashuvlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular orqali ekologik mas’uliyatli shaxs, ijtimoiy faol fuqaro va tabiat bilan uyg‘unlikda yashovchi madaniyatli inson shakllanadi. Bu esa nafaqat ta’lim tizimining, balki umuman jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglaydigan, ekologik mas’uliyatli fuqaroni shakllantirishni o‘zining strategik vazifalaridan biri sifatida belgilab bermoqda. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida pedagogik metodlar o‘z mohiyatini yangilab, ekologik axloq, ong va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, zamonaviy metodik konsepsiyalar ekologik tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlariga aylangan.

Birinchidan, ekopedagogika konsepsiyasi ekologik tarbiya va ta’limda eng asosiy yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv gumanistik, biosentrik va aksiologik falsafiy asoslarga tayangan holda, insonni global ekologik jarayonlar ishtirokchisi va mas’uliyatli subyekt sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi. Ekopedagogika jamiyatda barqarorlik, ekologik adolat va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Uning didaktik vazifalari ekologik ongni shakllantirish, ekologik qadriyatlarni singdirish, tabiatga nisbatan axloqiy pozitsiyani tarbiyalash, ijtimoiy faol ekologik pozitsiyaga ega shaxsni rivojlantirish bilan bog‘liq. F. Kapra, M. Gadotti kabi olimlar fikricha, ekopedagogika shaxsning ekologik refleksiv tafakkurini rivojlantirishda asosiy vositadir.

Ikkinchidan, barqaror rivojlanish paradigmasi asosida kompetensiyaviy metodika – bu shaxsda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni tushunish va ularga nisbatan ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bunday metodik yondashuvlar o‘quvchining faqat bilimga emas, balki harakatga tayyor, jamiyatda mas’uliyatli bo‘lgan fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu metodika ekologik savodxonlik, xavfga nisbatan emotsional sezgirlik, axloqiy tanlov qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. OECD va UNESCO tavsiyalarida barqaror rivojlanish uchun zarur kompetensiyalar tarkibiga ekologik ong, sistematik fikrlash, kelajakka yo‘naltirilgan rejalashtirish, hamkorlik va baholash kabilar kiritilgan.

Uchinchidan, ekologik madaniyatni shakllantirishda fanlararo yondashuv (interdisiplinarlik) muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik muammolar ko‘p omilli va murakkab tabiatga ega bo‘lganligi sababli, ularni tushuntirishda biologiya, geografiya, kimyo, texnologiya, huquq, iqtisodiyot, psixologiya va pedagogika kabi fanlararo bilimlar uyg‘unligiga tayaniladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi ekologik hodisalarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga, ularga ko‘p qirrali yondashishga o‘rganadi. Ta’limda fanlararo integratsiyani ta’minlash orqali ekologik ongni rivojlantirish barqarorlik tamoyillariga asoslanadi.

To‘rtinchidan, ekologik tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu ekologik axloq va qadriyatlar tizimiga tayangan tarbiyaviy metodlardir. Bu metodlar orqali shaxsda atrof-muhitga nisbatan emotsional bog‘liqlik, ichki axloqiy mas’uliyat, ekologik tanlovni anglab bajarish ehtiyoji shakllantiriladi. Bu yondashuvda ta’lim axloqiy-kompetensiyaviy o‘lchovga ega bo‘ladi. Shuningdek, tarbiyaviy metodlar orqali ijtimoiy faoliyat, ekologik liderlik, jamoaviy tashabbus, tabiatni asrashga qaratilgan ijtimoiy loyihalar orqali o‘quvchilar bevosita amaliy faoliyatga jalb qilinadi. Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy metodik konsepsiyalar shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv, faoliyatga asoslangan va qadriyatlarga tayanadigan ta’limni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchini ekologik jarayonlar haqida xabardor shaxs emas, balki ongli, axloqiy, mas’uliyatli va faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik ta’lim tizimida bu metodik konsepsiyalar ilmiy asoslangan holda tatbiq etilishi zarur.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish ta’lim tizimida oddiy bilim berish jarayonidan chiqib, ong, qadriyat va faoliyatni uyg‘un rivojlantiruvchi metodik tizimni talab etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar aynan ana shunday kompleks o‘zgarishlarga xizmat qiluvchi amaliy-tashkiliy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ular o‘quvchining ekologik muammolarni tushunishi, ularga hissiy, axloqiy va faol munosabatda bo‘lishi, shuningdek, ekologik qaror qabul qilishga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Birinchidan, o‘quv jarayonida ekologik loyihalash, keys-metod va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar ekologik jarayonlarga faol subyekt sifatida jalb etiladi. Ekologik loyihalar – bu muayyan ekologik muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘quvchilar guruhi tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil yoki jamoaviy faoliyat shaklidir. Ushbu loyiha faoliyatida o‘quvchilar real hayotdagi ekologik holatlarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash,

yechimlar taklif qilish va natijani baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keys-metod (case-study) esa muayyan ekologik voqea yoki hodisa asosida qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bunday metodik yondashuvlar orqali o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, ekologik tanlov qilish va jamoaviy fikr bildirish kompetensiyalari shakllanadi. Interaktiv mashg‘ulotlar esa “eko-viktorina”, “rol o‘yinlari”, “kontrastli bahslar”, “ekologik forum”lar orqali o‘quvchini faoliyatga jalb etadi, hissiy ta’sirni kuchaytiradi va ekologik ongni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ekologik masalalarni o‘quvchilar tomonidan chuqur anglash va his etishlari uchun ekologik holatlarni modellashtirish va emotsional-ta’sirchan ta’lim usullaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ekologik modellashtirish bu – ekologik tizimlar, jarayonlar va ularning o‘zaro aloqadorligini amaliy shaklda tasvirlash usulidir. Bu modellashtirish turli formatlarda amalga oshirilishi mumkin: laboratoriya tajribalari, ekologik o‘yinlar, raqamli interaktiv platformalarda simulyatsiyalar, ekologik xaritalar bilan ishlash va boshqalar. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglab yetadi, ekologik inqiroz holatlariga tahliliy va reflektiv munosabatda bo‘ladi. Emotsional-ta’sirchan ta’lim usullari (badiiy asarlar tahlili, atrof-muhit bo‘yicha fotoko‘rgazmalar, ekokino, tabiatda kuzatuvlar) orqali o‘quvchilarning hissiy ongiga murojaat qilinadi, tabiatga bo‘lgan mehr va ehtiyotkorlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Uchinchidan, ekologik ong va madaniyatni tizimli shakllantirish uchun ta’lim modullari va mashg‘ulot ssenariylarini ekologik mazmunga ega elementlar bilan integratsiyalash muhimdir. Har bir pedagogik fan mazmunida ekologik aspektlar mavjud bo‘lishi ta’limning ko‘pyo‘nalishli integrallashgan shaklini yaratadi. Masalan, matematika fanida energiya sarfini hisoblash, ona tili darsida ekologik matnlar asosida til tahlili, tarixda ekologik falokatlar sabablari, texnologiyada chiqindisiz ishlab chiqarish tamoyillari kabi integratsiyalashgan yondashuvlar o‘quvchining ekologik ongini har tomonlama shakllantiradi. Bunday mashg‘ulot ssenariylari asosida ekologik kontekstda didaktik maqsadlar, topshiriqlar, muhokama savollari va mustaqil izlanish yo‘nalishlari aniqlanadi.

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda ekologik refleksiya, kuzatuv va monitoring yondashuvlari alohida o‘rin tutadi. Ekologik refleksiya – bu o‘quvchilarning o‘z ekologik bilimlari, qarashlari va xulq-atvori haqida mustaqil tahlil va baho berishidir. Bu jarayonda “Men kimman?”, “Tabiatga munosabatim qanday?”, “Men qanday o‘zgarish qildim?” kabi savollar orqali ekologik o‘zidentifikatsiya amalga oshiriladi. Kuzatuv esa o‘quvchining dars jarayonida, loyiha faoliyatida yoki muhitga bo‘lgan munosabatida qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini aniqlashga yordam beradi. Monitoring orqali esa o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalaridagi dinamik o‘zgarishlar tizimli ravishda baholanadi. Bu jarayonlar maxsus ekologik indikatorlar, diagnostika kartalari, test va so‘rovnomalar orqali amalga oshiriladi. Metodik yondashuvlarning amaliy-tashkiliy mexanizmlari nafaqat o‘quv jarayonining didaktik sifatini oshiradi, balki o‘quvchining ijtimoiy-axloqiy va ekologik jihatdan mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ular orqali

ijtimoiy-ekologik madaniyat abstrakt tushuncha sifatida emas, balki hayotiy pozitsiya va qadriyatga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy ongni shakllantirish borasida tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Biroq ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarning yetarlicha tizimlashtirilmagani, ularning oliy pedagogik ta’lim dasturlariga uzviy integratsiya qilinmagani sezilmoqda. Shu bois, mavjud holatni ilmiy-tahliliy yondashuv asosida baholab, metodik takliflar ishlab chiqish zarurati mavjud.


Avvalo, amaldagi o‘quv dasturlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab pedagogik yo‘nalishlarda ekologik muammolar yuzasidan ayrim nazariy mavzular mavjud bo‘lsa-da, ular o‘quvchilarning ekologik tafakkurini, qarashini va faoliyatga tayyorligini shakllantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Masalan, “Ekologiya asoslari”, “Barqaror rivojlanish”, “Tabiatshunoslik” kabi fanlar mavjud, ammo ular ko‘proq informatsion yo‘nalishda, hayotiy faoliyatga singdirilmagan, metodik jihatdan faol yondashuvlardan foydalanilmaydi. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ekologik qadriyatlar, axloqiy tanlov, ekologik xavfsizlikka doir topshiriqlar va reflektiv savollar yetarli darajada aks etmaydi. Shu sababli, o‘quv dasturlarni zamonaviy ekologik pedagogika tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqish, ularga interaktiv, kompetensiyaviy va ekopedagogik komponentlarni kiritish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Shuningdek, ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda talabalarning ekologik kompetensiyalarini shakllantirish uchun metodik vositalar ishlab chiqilishi zarur. Bu vositalar nafaqat ekologik bilim, balki qaror qabul qilish, emotsional sezuvchanlik, ekologik muammolarga ijtimoiy faollik bilan munosabat bildirish, shuningdek, ekologik liderlik va jamoaviy mas’uliyatni shakllantirishi lozim. Bunday vositalarga ekologik keyslar, muammoli savollar, loyihaviy topshiriqlar, trening ssenariylari, ekologik refleksiya daftarlari, monitoring kartalari va o‘zini baholash indikatorlari kiradi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish – masalan, ekologik animatsiyalar, videodarslar, GIS ilovalari va raqamli eko-o‘yinlar – metodik vositalar tizimini diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Metodik jihatdan muhim yo‘nalishlardan yana biri bu – “ijtimoiy-ekologik madaniyat” komponentini kasbiy tayyorgarlik jarayoniga uzviy singdirish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Bunda ekologik masalalar faqat alohida fanlar doirasida emas, balki pedagogik amaliyot, metodika mashg‘ulotlari, kommunikativ ko‘nikmalar, psixologiya va pedagogika fanlarida ham integratsiyalashgan holda tatbiq etilishi kerak. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilar “Dars rejasini tuzish” mashg‘ulotida ekologik yo‘naltirilgan ssenariy tayyorlashi, “Pedagogik amaliyot” davomida ekologik tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishi, “Suhbat psixologiyasi” fanida ekologik muammolar bilan bog‘liq didaktik vaziyatlarni muhokama qilishi lozim. Bunday yondashuv kasbiy identitetni ekologik ong, axloq va ijtimoiy mas’uliyat bilan boyitadi.

Mazkur maqolada taklif qilinayotgan eng muhim yo‘nalishlardan biri bu – mualliflik metodik modelini ishlab chiqish zaruratidir. Ushbu model ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli metodik yondashuvlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

Modelda quyidagi komponentlar integratsiyalashgan bo‘lishi maqsadga muvofiq: 1) maqsad – ekologik kompetent shaxsni shakllantirish; 2) mazmun – ekologik qadriyatlar, barqarorlik, madaniyatlararo ekologik muloqot; 3) metodlar – interaktiv, reflektiv, keys, loyiha asosida o‘qitish; 4) vositalar – raqamli, didaktik, amaliy loyihalar; 5) monitoring – indikatorlar asosida o‘zgarishni baholash. Bu model O‘zbekiston pedagogik oliy ta’lim muassasalariga moslashtirilgan holda metodik qo‘llanma yoki fan moduli shaklida joriy etilishi mumkin. O‘zbekiston ta’lim tizimi ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish uchun yetarli normativ-huquqiy asoslarga ega. Biroq bu asoslar zamonaviy metodik yondashuvlar va amaliy-tashkiliy vositalar bilan boyitilmaguncha, ularning samaradorligi cheklangan bo‘lib qoladi. Shu bois, oliy pedagogik ta’lim



1-rasm. “Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishga oid mualliflik metodik modeli.

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish faqat konseptual darajadagi yondashuvlar bilan emas, balki konkret amaliy mexanizmlar va real metodik yechimlar bilan ta’minlangandagina ta’lim tizimida samarali natija beradi. Shu bois zamonaviy pedagogik ta’limda ekologik ong, ekologik kompetensiya va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar muhim metodik yo‘nalish sifatida taklif etiladi.

Birinchidan, o‘quv rejalarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha metodik takliflar ishlab chiqilishi lozim. Amaldagi o‘quv rejalarda ekologik tarbiya elementlari alohida fan doirasida qisqa muddatli modullar shaklida berilgan bo‘lib, bu yondashuv integrallashgan ta’limni to‘liq ifodalay olmaydi. Shu sababli, ekologik mazmunning barcha pedagogik fanlar kesimida singdirilishi (transversal integratsiya) tavsiya etiladi. Ayniqsa, “Pedagogik texnologiyalar”,

“Kasbiy ta’lim metodikasi”, “Tarbiya nazariyasi va metodikasi”, “Axloqshunoslik asoslari” fanlariga ijtimoiy-ekologik madaniyat bilan bog‘liq mavzular tizimli kiritilishi lozim. O‘quv rejalarda ixtisoslikka mos ravishda ekologik loyihalash, eko-pedagogik ko‘nikmalar va ekologik didaktika yo‘nalishida maxsus modullar tashkil etilishi zarur.

Ikkinchidan, ekologik ta’lim uchun zamonaviy resurslar – raqamli vositalar, metodik qo‘llanmalar, multimedia kontentlar ishlab chiqilishi katta metodik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda talaba yoshlarning raqamli muhitda faol ishtirokini hisobga olgan holda, ekologik kontentlar mobil ilovalar, onlayn testlar, infografik ma’lumotlar, interaktiv xaritalar, ekologik stsenariylar, ekoroliklar uchun video qo‘llanmalar ko‘rinishida tayyorlanishi lozim. Bunda ekologik ongni nafaqat informatsion jihatdan, balki hissiy-emotsional, reflektiv va qaror qabul qilish bosqichlarida rivojlantirishni ta’minlovchi didaktik vositalar muhim o‘rin tutadi. Har bir modul uchun topshiriqlar banki, refleksiya jurnali, portfolio shakllari va amaliy faoliyatni aks ettiruvchi baholash vositalari metodik jihatdan ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchidan, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ekologik metodik modullarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Bugungi kunda aksariyat oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilar ekologik pedagogika bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan. Shuning uchun malaka oshirish kurslariga “Ekologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi”, “Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan dars dizayni”, “Ekopedagogik yondashuvlar” kabi modullar kiritilishi tavsiya etiladi. Ushbu kurslarda o‘qituvchilarga ekologik ta’lim stsenariylari yaratish, ekologik loyiha tuzish, interaktiv metodlarni qo‘llash, raqamli ekologik resurslardan foydalanish ko‘nikmalari berilishi zarur. Trening shaklida tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar esa o‘qituvchilarning metodik refleksiyasini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-ekologik madaniyatni baholash indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqish ta’limda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi strategik vositadir. Ekologik tarbiya natijadorligini faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholash maqsadga muvofiq: ekologik axloqiy pozitsiya, hissiy sezgirlik, ekologik muammoni tahlil qilish qobiliyati, qaror qabul qilish kompetensiyasi, tabiatga nisbatan amaliy faol ishtirok, fuqarolik tashabbusi. Ushbu indikatorlar asosida diagnostik testlar, kuzatuv blankalari, so‘rovnomalar, o‘zini baholash kartalari va ekologik faoliyatda ishtirok ko‘rsatkichlari ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, ushbu indikatorlar orqali fanlar kesimida ham o‘quv dasturlar samaradorligini baholash imkoni yaratiladi. Ekologik ta’limda ilmiy yondashuvlar faqat nazariy asos bilan cheklanmasligi, balki ularni amaliyotda tatbiq qilish uchun muayyan metodik vositalar, mexanizmlar va o‘lchov tizimi bilan boyitilishi shart. Yuqoridagi tavsiyalar ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tizimlashtirish, zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim tizimida ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish strategik vazifaga aylanib bormoqda. Bu jarayonda ekologik ong, axloqiy munosabat, ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirish zamonaviy metodik yondashuvlarsiz mumkin emas. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aynan shaxsga yo‘naltirilgan, fanlararo, kompetensiyaviy va

reflektiv yondashuvlar orqali ekologik tarbiya samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu metodik konsepsiyalar ekologik muammolarni anglash, ularni tahlil qilish va ijtimoiy foydali ekologik faoliyatni amalga oshirishda yosh avlodni faollikka undaydi.

Metodik yondashuvlarning ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi strategik o‘rni shundaki, ular ta’limni insoniy qadriyatlarga asoslangan, faoliyatga yo‘naltirilgan, jamiyatni ekologik barqarorlik sari yetaklaydigan kuchga aylantiradi. Ayniqsa, ekopedagogika, loyihaviy metodlar, ekologik keyslar, interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda emotsional sezgirlik, refleksiya, ekologik qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bular esa ijtimoiy ong va ekologik madaniyatning ustuvor tarkibiy qismlaridir.

Ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga pedagogik xizmat qilish imkoniyatlari kengayadi. UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning ta’lim bo‘yicha ilg‘or tajribalari shuni tasdiqlaydiki, ekologik tarbiya alohida fan emas, balki ta’limning barcha bosqichlarida integratsiyalashgan pedagogik strategiyaga aylanishi kerak. Shuningdek, ekologik ta’limni tizimlashtirish orqali nafaqat ekologik savodxonlik, balki fuqarolik mas’uliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy pozitsiya kabi asosiy ijtimoiy kompetensiyalar ham rivojlanadi.

O‘zbekiston sharoitida ekologik metodikaning strategik modelini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ehtiyojdir. Bunda mahalliy an‘analar, milliy qadriyatlar, ekologik holat, ta’lim tizimidagi real imkoniyatlar va xalqaro tajribalarning sintezi asos bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ekologik ta’limga oid mualliflik metodik modeli – bu ta’lim jarayonining maqsad, mazmun, metod, vosita va monitoring komponentlarini ekologik tamoyillar asosida uyg‘unlashtiruvchi vosita bo‘lib, uni ishlab chiqish pedagogik amaliyotda yangi bosqichni boshlab beradi.

Shu sababli ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlar faqat zamonaviy ta’lim texnologiyasi emas, balki butun jamiyat ongini ekologik barqarorlik sari yo‘naltiruvchi gumanistik-ma’naviy kuch sifatida qaralishi zarur. Bunday yondashuv O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik siyosati va barqaror rivojlanish strategiyasiga muvofiq holda ta’lim tizimini sifat jihatdan yangilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI.

1. Shodmonova, S.K. Ekologik tarbiya va zamonaviy pedagogik yondashuvlar // Pedagogik ta’lim va fan. – 2020. – №4. – B. 51-55. Gadotti, M. Ecopedagogy and Planetary Citizenship // The Journal of Environmental Education. – 2008. – Vol. 39, №3. – P.
2. Abduqodirova, M.X. Ekopedagogik yondashuv asosida ekologik ongni shakllantirish // O‘zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi. – 2021. – №1. – B. 67-70.8–13.
3. Gadotti, M. Ecopedagogy and Planetary Citizenship // The Journal of Environmental Education. – 2008. – Vol. 39, №3. – P. 8–13.
4. Sterling, S. Sustainability Education: Revisioning learning and change. – Green Books, 2001. – 192 p.

5. Xudoyberdiyev, A.T. Ta’limda fanlararo integratsiya: ekologik ong va barqarorlik // *Ilm va Taraqqiyot*. – 2022. – №2(30). – B. 102-106.
6. To‘laganova, D.M. Barqaror rivojlanish kontekstida ekologik ta’limni integratsiyalash // *Pedagogik mahorat*. – 2023. – №3. – B. 75-80.
7. Tilbury, D. Monitoring and evaluation for sustainable development in education // *Journal of Education for Sustainable Development*. – 2011. – Vol. 5, №2. – P. 253-257.



XORIJIY TIL GRAMMATIKASINI O'RGATISHDA TURLI XIL METODLARNING O'RNI VA SAMARADORLIGI

Mardiyeva Gulzira Tashnazarovna.

Pastdarg'om tuman 8- umum ta'lim maktabi, ingliz tili o'qituvchisi
gulziramardiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy til grammatikasini o'rgatishda qo'llaniladigan turli metodlarning nazariy asoslari, amaliy xususiyatlari va samaradorligini keng qamrovli tahlil qiladi. Tadqiqotda an'anaviy, induktiv, kommunikativ, situativ, o'yinli, texnologik va boshqa zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada har bir metodning afzalliklari va kamchiliklari, ularning turli kontekstlardagi qo'llanilish imkoniyatlari hamda integratsiyalashgan yondashuvlarning zaruriyati tahlil etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, eng samarali yondashuv turli metodlarni o'qituvchilarning individual ehtiyojlari va madaniy kontekstiga mos ravishda kombinatsiya qilishdir.

Kalit so'zlar: grammatika o'qitish metodlari, induktiv yondashuv, kommunikativ metod, situativ o'rgatish, o'yinli metodlar, texnologik vositalar, integratsiyalashgan yondashuv, individual ehtiyojlar, madaniy kontekst, samaradorlik baholash

Аннотация: Данная статья представляет всесторонний анализ теоретических основ, практических особенностей и эффективности различных методов обучения грамматике иностранного языка. В исследовании рассматриваются специфические аспекты традиционных, индуктивных, коммуникативных, ситуативных, игровых, технологических и других современных подходов. В статье анализируются преимущества и недостатки каждого метода, возможности их применения в различных контекстах, а также необходимость интегрированных подходов. Результаты показывают, что наиболее эффективным подходом является комбинирование различных методов в соответствии с индивидуальными потребностями учащихся и культурным контекстом.

Ключевые слова: методы обучения грамматике, индуктивный подход, коммуникативный метод, ситуативное обучение, игровые методы, технологические средства, интегрированный подход, индивидуальные потребности, культурный контекст, оценка эффективности

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of theoretical foundations, practical features, and effectiveness of various methods for teaching foreign language grammar. The study examines specific aspects of traditional, inductive, communicative, situational, game-based, technological, and other contemporary approaches. The article analyzes advantages and

disadvantages of each method, their application possibilities in different contexts, and the necessity of integrated approaches. The results indicate that the most effective approach is combining various methods according to students' individual needs and cultural context.

Key words: grammar teaching methods, inductive approach, communicative method, situational teaching, game-based methods, technological tools, integrated approach, individual needs, cultural context, effectiveness assessment

Kirish

Zamonaviy globallashtirish davrida xorijiy tillarni o‘qitish, ayniqsa grammatika qoidalarini o‘rgatish muhim strategik vazifa bo‘lib qolgan va bu jarayon turli xil metodlarning qo‘llanilishini talab qiladi. Grammatika xorijiy tilning asosiy tuzilmaviy qismi bo‘lib, uni puxta o‘zlashtirmasdan turib til bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish va erkin muloqot qilish mumkin emas. Shu sababli pedagoglar va tilshunoslar grammatikani samarali o‘rgatish usullarini doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlantirish ustida ishlamoqdalar. Xorijiy til grammatikasini o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodlarning har biri o‘ziga xos nazariy asoslarga, amaliy xususiyatlarga va pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularning tanlanishi o‘quvchilarning yoshi, tilni o‘rganish maqsadi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari va madaniy kontekstiga bog‘liq.

An‘anaviy metod grammatika o‘rgatishning eng qadimiy va keng tarqalgan yondashuvlaridan biri bo‘lib, u asosan qoidalarni nazariy jihatdan o‘rgatish va ularni amaliy mashqlarda qo‘llashga asoslangan. Bu yondashuvning nazariy asoslari strukturalizm va behaviorist psixologiyaga borib taqaladi. An‘anaviy metodda o‘qituvchi birinchi navbatda grammatik qoidani batafsil tushuntiradi, keyin turli misollar keltiradi va o‘quvchilar bu qoidalarni bosqichma-bosqich mashqlarda qo‘llaydilar.

Deduktiv yondashuv sifatida tanilgan bu metodning asosiy afzalligi shundaki, u grammatik tuzilmalarni aniq, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda o‘rgatish imkonini beradi. O‘quvchilar qoidalarni ongli ravishda o‘rganadilar va ularni mantiqiy tarzda tushuna oladilar. Bu usul ayniqsa analitik fikrlash qobiliyati rivojlangan va strukturlashtirilgan ta’limni afzal ko‘radigan o‘quvchilar uchun samarali hisoblanadi. Shuningdek, bu metod o‘qituvchiga dars jarayonini to‘liq nazorat qilish imkonini beradi va o‘quv dasturini aniq rejalashtirish mumkin bo‘ladi.

Biroq, an‘anaviy metodning bir qator jiddiy kamchiliklari mavjud. Birinchidan, u ko‘pincha grammatikani hayotiy kontekstdan ajratib o‘rgatadi va o‘quvchilarda tilni tabiiy ravishda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirmaydi. Ikkinchidan, bu usul o‘quvchilarni passiv holatda ushlab turadi va ularning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini cheklaydi. Uchinchidan, haddan tashqari nazariy yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi va tilni o‘rganishga nisbatan salbiy munosabat shakllantirishiga olib kelishi mumkin.

Induktiv metod grammatikani o‘rgatishda qo‘llaniladigan yana bir muhim yondashuv bo‘lib, unda o‘quvchilar birinchi navbatda konkret misollar bilan tanishadilar va keyin o‘zlari umumiy grammatik qoidalarni xulosa qiladilar. Bu metod konstruktivist ta’lim nazariyasiga

asoslanadi va o'quvchilarning faol bilim qurilishini ta'minlaydi. Induktiv yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarga turli kontekstlarda berilgan misollar taqdim etadi va ularni bu misollar tahlili asosida umumiy qoidani mustaqil ravishda kashf etishga undaydi.

Bu metodning nazariy asoslari Jean Piaget va Lev Vigotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyalariga bog'liq bo'lib, u o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ular grammatik qoidalarni chuqurroq tushunishadi. Chunki qoidalarni o'zlari kashf etganda, bu bilim ularning xotirasida mustahkamroq saqlanadi va uzoqroq davr mobaynida eslab qolinadi. Induktiv metodning asosiy ustunliklari qatoriga o'quvchilarning faol ishtiroki, tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarining shakllanishi kiradi.

Biroq induktiv metodning ham ayrim cheklovlari mavjud. Bu usul ko'proq vaqt talab qiladi va murakkab grammatik qoidalar uchun har doim ham samarali bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ba'zi o'quvchilar uchun mustaqil xulosa chiqarish qiyin bo'lishi va ular noto'g'ri qoidalarni shakllantirish xavfi mavjud.

Kommunikativ metod 1970-80-yillarda paydo bo'lgan va zamonaviy til o'qitish jarayonida keng qo'llanilayotgan eng ta'sirli usullardan biri hisoblanadi. Bu metodda grammatika alohida mavzu sifatida emas, balki real muloqot jarayonining tabiiy va ajralmas qismi sifatida o'rgatiladi. Kommunikativ yondashuv Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga asoslanadi va tilning ijtimoiy-madaniy funksiyasini ta'kidlaydi.

Bu metodda o'quvchilar grammatik tuzilmalarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar va bu orqali tilning amaliy kommunikativ funksiyasini to'liq tushuna boradilar. Kommunikativ yondashuvda asosiy e'tibor ma'no yaratish va fikrlarni samarali yetkazishga qaratiladi, ya'ni o'quvchilar birinchi navbatda o'z g'oyalarini to'g'ri va tushunarli tarzda ifoda etishga harakat qiladilar. Grammatik xatolar ikkinchi o'rinda turadi va ular jarayon davomida tabiiy ravishda, kontekst orqali tuzatiladi.

Kommunikativ metodning afzalliklari ko'p jihatlidir. U o'quvchilarning gapirish qobiliyatini tez rivojlantiradi, ularni haqiqiy muloqotga tayyorlaydi va tilni o'rganishga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllantiradi. Shuningdek, bu usul o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni tildan qo'rqmaslikka o'rgatadi. Kommunikativ yondashuv madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi, chunki o'quvchilar tilni uning madaniy kontekstida o'rganadilar.

Situativ metod grammatikani aniq vaziyatlar va real hayotiy kontekstlar doirasida o'rgatishga asoslangan innovatsion yondashuv hisoblanadi. Bu usulda grammatik qoidalar abstrakt tushunchalar sifatida emas, balki konkret vaziyatlar orqali namoyish etiladi va o'quvchilar ularni shu kontekstda tabiiy ravishda o'zlashtirishadi. Masalan, "Present Continuous" zamonini o'rgatishda o'qituvchi turli harakatlarni jonli tarzda bajarib ko'rsatadi va "I am writing", "She is reading", "They are playing" kabi gaplarni real vaziyat bilan bevosita bog'laydi.

Situativ metodning nazariy asoslari kontekstual o'rganish nazariyasiga borib taqaladi va u tilning ijtimoiy-situativ tabiatini ta'kidlaydi. Bu yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u

grammatikani abstrakt qoidalar emas, balki aniq vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatadi va bu orqali o'quvchilarning tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Situativ metod ayniqsa boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun juda samarali bo'lib, ular grammatik tuzilmalarni vizual, audio va kontekstual yordamchi vositalar orqali osonroq va tabiiyroq tushuna oladilar.

Bu metodning qo'shimcha afzalliklari qatoriga o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish va real hayotga tayyorlash kiradi. Situativ yondashuv o'quvchilarni tilni sun'iy muhitda emas, balki tabiiy sharoitlarda qo'llashga o'rgatadi.

O'yinli metod grammatikani o'rgatishda qo'llaniladigan eng qiziqarli, innovatsion va motivatsiyani kuchaytiradigan usullardan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda grammatik qoidalar turli o'yinlar, intellektual musobaqalar, interaktiv faoliyatlar va qiziqarli mashqlar orqali o'rgatiladi. O'yinli ta'lim nazariyasi Johan Huizinga va Roger Caillois kabi olimlarning tadqiqotlariga asoslanadi va o'rganishda quvonch va zavqning muhim rolini ta'kidlaydi.

O'yinlar o'quvchilarning diqqat va e'tiborini samarali tarzda jalb qiladi, ularning tabiiy qiziqishini uyg'otadi va ta'lim jarayonidagi stress hamda psixologik kuchlanishni sezilarli darajada kamaytiradi. Grammatik o'yinlar turli shakl va ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: kartochkali o'yinlar, raqamli va kompyuter o'yinlari, jamoaviy musobaqalar, roldan o'ynash, dramatizatsiya va boshqa ijodiy faoliyatlar.

O'yinli metodning asosiy afzalliklari shundaki, u o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ular grammatikani o'rganishni yoqimli, qiziqarli va unutilmas tajriba sifatida qabul qiladilar. Bu metod ayniqsa yosh o'quvchilar uchun samarali bo'lib, ular o'yin jarayonida beixtiyor ravishda, tabiiy yo'l bilan grammatik qoidalarni singdiradilar. Shuningdek, o'yinli yondashuv jamoaviy ishni rag'batlantiradi, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi va raqobat ruhini shakllantiradi.

Raqamli davr talablari kontekstida texnologiyaga asoslangan metodlar zamonaviy ta'limning ajralmas va muhim qismi bo'lib qolgan. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, interaktiv doska, multimedia vositalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari grammatikani o'rgatishda katta yordam beradi va ta'lim jarayonini tubdan o'zgartiradi. Bu texnologiyalar vizual, audio, kinetik va interaktiv elementlarni mukammal tarzda birlashtiradi hamda o'quvchilarga turli hissiy kanallar orqali bilim olish imkonini yaratadi.

Raqamli metodlarning asosiy afzalliklari qatoriga individual ta'lim tezligini ta'minlash, har bir o'quvchining o'z bilim darajasi va imkoniyatlariga mos ravishda o'rganish imkoniyati, darhol qayta aloqa (feedback) berish tizimi va o'quvchilarning o'z xatolarini zudlik bilan tuzata olish imkoniyati kiradi. Shuningdek, texnologik vositalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning qiziqishini uzoq vaqt davomida ushlab turadi va 21-asr ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy dasturiy ta'minot grammatik tahlil, sintaktik tekshirish va avtomatik tuzatish imkoniyatlarini taklif etadi. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari har bir o'quvchining o'rganish uslubini tahlil qiladi va shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini taklif etadi.

Tarjima metodidan grammatikani o'rgatishda hali ham foydalanilmoqda, garchi bu usulning samaradorligi haqida pedagog jamoatchiligida turli va qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Bu metodda grammatik qoidalar ona tili orqali batafsil tushuntiriladi va o'quvchilar xorijiy tildan ona tiliga yoki aksincha yo'nalishda tarjima qiladilar. Grammatik-tarjima metodi XIX asrda paydo bo'lgan va uzoq vaqt davomida dominant yondashuv bo'lib kelgan.

Tarjima metodining asosiy afzalligi shundaki, u murakkab va abstrakt grammatik tuzilmalarni tez va aniq tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa yuqori darajadagi o'quvchilar va kattalar uchun bu usul foydali bo'lishi mumkin, chunki ular allaqachon rivojlangan ona tili tizimi orqali yangi tushunchalarni o'zlashtira oladilar. Shuningdek, bu metod o'qituvchi uchun qulay va vaqtni tejaydi.

Biroq, tarjima metodining jiddiy kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, u o'quvchilarni ona tiliga haddan tashqari bog'lab qo'yadi va ularning xorijiy tilida mustaqil, tabiiy fikrlash qobiliyatini cheklaydi. Ikkinchidan, bu usul tillarning madaniy va pragmatik farqlarini e'tiborga olmaydi. Uchinchidan, tarjima metodi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda cheklangan ta'sirga ega.

Funksional yondashuv grammatikani uning amaliy funksiyasi va kommunikativ maqsadi asosida o'rgatishga qaratilgan innovatsion metod hisoblanadi. Bu metodda grammatik tuzilmalar alohida va ajratilgan qoidalar sifatida emas, balki ma'lum kommunikativ vazifalarni bajarish va muloqot maqsadlariga erishish uchun vosita sifatida o'rgatiladi. Masalan, modal fe'llar taklif berish, iltimos qilish, majburiyat bildirish, ruxsat so'rash, taxmin qilish kabi aniq kommunikativ funksiyalar kontekstida chuqur o'rganiladi.

Funksional yondashuvning nazariy asoslari M.A.K. Halliday tomonidan ishlab chiqilgan funksional grammatika nazariyasiga borib taqaladi. Bu yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u o'quvchilarga grammatikaning real hayotdagi amaliy qo'llanilishini yaqqol ko'rsatadi va ular tilni faqat abstrakt tizim sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida tushuna boradilar va qabul qiladilar.

Funksional metod o'quvchilarni til orqali aniq maqsadlarga erishishga o'rgatadi va ularning pragmatik kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu usul madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi, chunki turli madaniyatlarda bir xil funksiyalar turli grammatik vositalar orqali ifodalanishi mumkin.

Mustaqil o'rganish metodlari ham grammatikani o'rgatishda tobora muhim o'rin tutib kelmoqda. Bu yondashuvda o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan rivojlantiradilar va o'qituvchi rahbar, maslahatchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Avtonomiyaga asoslangan ta'lim Henri Holec tomonidan ishlab chiqilgan kontseptsiyaga asoslanadi va o'quvchilarning o'z ta'lim jarayoniga nisbatan mas'uliyat olishini ta'kidlaydi.

Mustaqil o'rganish metodlari o'quvchilarning shaxsiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi, ularni hayot davomida doimiy o'rganishga tayyorlaydi va o'z kuchiga ishonishni oshiradi. Bu usul yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati rivojlangan o'quvchilar uchun juda samarali bo'lib, ular o'z ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli nazorat qila oladilar va individual ehtiyojlariga mos ravishda o'rganish tezligini belgilay oladilar.

Zamonaviy mustaqil o'rganish metodlari turli xil vositalarni o'z ichiga oladi: o'z-o'zini baholash jadvallari, portfoliolar, individual o'rganish rejalari, onlayn kurslar va boshqalar. Bu yondashuv o'quvchilarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi, ya'ni ular o'z o'rganish jarayonini anglash va uni boshqarishni o'rganadilar.

Turli metodlarning oqilona va maqsadli birgalikda qo'llanilishi eng samarali va perspektivali yondashuv hisoblanadi. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari borligi sababli, ularni to'g'ri va muvozanatli kombinatsiya qilish orqali maksimal natijaga erishish va har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish mumkin. Masalan, yangi grammatik mavzuni an'anaviy deduktiv metod bilan aniq tushuntirib, keyin uni kommunikativ faoliyatlar orqali mustahkamlash, situativ mashqlar bilan amaliy qo'llash va texnologik vositalar yordamida qo'shimcha interaktiv mashqlar bajarish samarali strategiya hisoblanadi.

Bunday eklektik va integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning turli o'rganish uslublari va kognitiv xususiyatlariga mos keladi hamda barcha toifadagi o'quvchilar uchun qulay va maqbul sharoitlar yaratadi. Gardner'ning ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, har bir inson turli intellekt turlariga ega va shunga mos ravishda turli usullar orqali samaraliroq o'rganadi.

Grammatika o'rgatish metodlarining samaradorligini baholashda bir necha muhim va o'zaro bog'liq omillarni diqqat bilan hisobga olish zarur. Birinchidan, o'quvchilarning grammatik bilimlarining sifati, chuqurligi va mustahkamligi fundamental mezon hisoblanadi. Bu bilimlarning nazariy jihatdan to'g'riligi, tizimlilikining darajasi va uzoq muddatli xotirada saqlanish qobiliyati baholanadi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning o'rgangan grammatik qoidalar va tuzilmalarni real hayotiy vaziyatlarda, spontan muloqotda to'g'ri va muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bu procedurallashtirish (proceduralization) deb ataladigan jarayon orqali amalga oshadi va u deklarativ bilimning amaliy ko'nikmaga aylanishini anglatadi.

Uchinchidan, o'quvchilarning motivatsiyasi, qiziqishi va tilni o'rganishga nisbatan ijobiy munosabati ham muhim baholash mezon hisoblanadi. Yuqori motivatsiya o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, vaqt samaradorligi, ya'ni ma'lum vaqt ichida qancha bilim olish va qanchalik chuqur o'zlashtirish mumkinligi ham e'tiborga olinadi. Beshinchidan, o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatining rivojlanishi va til o'rganishda avtonomiya darajasining oshishi ham muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Grammatika o'rgatish metodlarining samaradorligi madaniy va ijtimoiy omillarga ham bog'liq. Turli madaniyatlarda ta'limga bo'lgan yondashuvlar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, guruhli yoki individual ishga bo'lgan qarashlar farq qilishi mumkin. Masalan, Sharqona madaniyatlarda ko'pincha o'qituvchiga nisbatan hurmat va rasmiy munosabat afzal ko'rilsa, G'arbiy madaniyatlarda demokratik va interaktiv yondashuv ko'proq qo'llab-quvvatlanadi.

Shuningdek, tillarning tipologik farqlari ham metodlar tanloviga ta'sir qiladi. O'zbek tilidan ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun ba'zi grammatik tuzilmalar (masalan, artikllar)

mutlaqo yangi tushuncha bo'lsa, boshqa tillarda (masalan, arab tilida) mavjud bo'lgan tuzilmalar (masalan, fe'lning shaxs-son shakllari) tanish bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy til grammatikasini o'rgatishda turli metodlarning har biri o'ziga xos o'rni, ahamiyati va qo'llanilish doirasiga ega. Zamonaviy ta'lim jarayonida eng samarali va perspektivali yondashuv bu metodlarni o'quvchilarning individual ehtiyojlari, madaniy konteksti, bilim darajasi va psixologik xususiyatlariga mos ravishda maqsadli va oqilona kombinatsiya qilishdir. O'qituvchilar grammatikani o'rgatishda eklektik printsipga amal qilib, bir necha metoddan sinergik foydalanishlari va har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini ehtiyotkorlik bilan hisobga olishlari zarur.

Bunday ko'p qirrali va integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilar grammatikani nafaqat nazariy jihatdan puxta o'rganadilar, balki uni amaliy hayotda ham muvaffaqiyatli, erkin va tabiiy qo'llay oladilar. Kelajakda sun'iy intellekt, virtual reallik, adaptiv ta'lim tizimlari kabi texnologiyalarning tez rivojlanishi bilan yangi, innovatsion metodlar paydo bo'lishi va mavjud usullarning yanada takomillashishi kutilmoqda. Bu esa o'z navbatida xorijiy til grammatikasini o'rgatish samaradorligini yanada oshiradi va global kommunikatsiya qobiliyatiga ega bo'lgan yosh avlodni tayyorlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar // CyberLeninka. [Elektron manba]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-oqitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
2. Ingliz tili: grammatikani oson o'rganish // ABT.uz. [Elektron manba]. URL: <https://abt.uz/blog/ingliz-tili-grammatikani-oston-organish> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012. 368 b.
4. Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi // Blog.xabar.uz. [Elektron manba]. URL: <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
5. Rasulov H. Ingliz tili grammatikasi darslari. [Elektron manba]. URL: <https://hasanboy.uz/ingliz-tili/darslar/> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.
7. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishning maqsadi // Samxorfil.uz. [Elektron manba]. URL: <https://samxorfil.uz/maqola/tillarga-ixtisoslashmagan-oliy-talim-muassasalarida-chet-tili-oqitishning-maqsadi> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
8. Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasining xususiyatlari // Temidnya.ru. [Elektron manba]. URL: <https://temidnya.ru/uz/grafika/osobennosti-sovremennoi-metodiki-obucheniya-inostrannym-yazykam-sovremennaya-metodika-obucheniya-inostran.html> (Murojaat sanasi: 12.08.2025).
9. Yuldashev B.B. Xorijiy tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan, 2020. 296 b.



TALABALARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Turaboeva Zilola Mukumtoshovna

Renessans ta'lim universiteti,

“Ijtimoiy – siyosiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

ziloilaturaboyeva84@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati tushunchasi va mohiyatining nazariy tahlili xaqida so'z yuritilgan. Ta'lim olish jarayonida uning o'rni va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish (ya'ni, umrbod ta'lim) mehnat bozorida imkoniyatlarni oshirishga, munosib ish topishga va ko'proq daromad olishga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Faoliyat, pedagogik jarayon, sifat, mustaqillik, ijodiy faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ijodiy faoliyat, ta'lim, kasbiy mahorat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье проводится теоретический анализ понятия и сущности самостоятельной творческой деятельности студентов. Её роль в образовательном процессе и непрерывном саморазвитии (т.е. обучении на протяжении всей жизни), которая помогает расширить возможности на рынке труда, найти достойную работу и больше зарабатывать.

Ключевые слова. Деятельность, педагогический процесс, качество, самостоятельность, творческая деятельность, саморазвитие, самообразование, самостоятельная творческая деятельность, образование, профессионализм.

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT CREATIVE ACTIVITY

Abstract. The article provides a theoretical analysis of the concept and essence of independent creative activity of students. Its role in the educational process and continuous self-development (i.e. lifelong learning), which helps to expand opportunities in the labor market, find a decent job and earn more.

Key words. Activity, pedagogical process, quality, independence, creative activity, self-development, self-education, independent creative activity, education, professionalism.

Kirish. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini (TMIF) rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanida muhim o‘rin tutadi. Ta’limning kompetensiyaviy modeliga o‘tish, xalqaro ta’lim standartlari bilan integratsiyalashuv va ta’lim muhitini raqamlashtirish sharoitida o‘zbekistonlik olimlar tomonidan talabaning ijodiy faol shaxsini shakllantirishga qaratilgan uslubiy, psixologik, pedagogik va didaktik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Respublika olimlarimizning ilmiy izlanishlarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va ko‘p qirraliligi alohida ta’kidlangan. Ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri o‘quv jarayonida talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning uslubiy asoslarini shakllantirishdir.

Asosiy tushunchalarni nazariy tushunish ilmiy tadqiqot predmeti va yo‘nalishini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Bizning e’tiborimiz o‘zaro bog‘liq, ammo kontseptual jihatdan mustaqil uchta atamaga qaratilgan: ijodiy faoliyat, mustaqillik va mustaqil ijodiy faoliyat.

5. Куличенко Ю. Н., Королевская Е. М. Развитие эмоционального интеллекта студентов-психологов при обучении иностранному языку //Artium Magister. – 2022. – Т. 22. – №. 2. – С. 39-44.
6. Хацкова, И. А. "Эмоциональный интеллект: структура и содержание в различных теориях." (2022).
7. Бурдина Е. И. Эмоционалды интеллектіні зерттеудің әдіснамалық негіздері //Вестник. Серия «Психология». – 2020. – Т. 64. – №. 3. – С. 131-135.
8. Nabiyeva A. "Ўзбекистонда эмоционал интеллектни ривожлантириш усуллари". – Т.: "Ўзбекистон таълими" нашриёти, 2021, 45-62 б
9. Tursunov M. "Бошланғич синфда эмоционал интеллектни ривожлантириш: миллий ва жаҳон тажрибалари". – Т.: "Таълим ва ижтимоий тадқиқотлар" нашриёти, 2022, 78-93 б
10. Халилов М. "Ўзбекистонда таълим жараёнида эмоционал интеллектни ривожлантириш". – Т.: Ўзбекистон Республикаси Таълим вазирлиги нашриёти, 2020, 25-45 б

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

OLIV TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISHDA TA'LIM KLASTERI INTEGRATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI.

Kurbanov Aziz Teshavoyevich

Qarshi Davlat texnika universiteti

Email: azizbek.qurbonov88@mail.ru; Tel: +998 904270070.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish va oliy ta'limda ta'lim klasterini tashkil etishning turli shart-sharoitlari va uning mexanizmlari to'g'risida atoflicha fikr yuritilgan. Shuningdek oliy ta'lim yo'nalishlaridagi o'quv rejalarining ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirish haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: klaster, ishlab chiqarish, uzluksizlik, o'quv reja, ta'lim turi, yo'nalganlik, pedagogik jarayon, salohiyat, izchillik.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА ИНТЕГРАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены различные условия и механизмы организации образовательного кластера на производстве и в сфере высшего образования. Речь идет также об адаптации учебных программ высшего образования к производственным процессам.

Ключевые слова: кластер, производство, целостность, учебная программа, тип образования, направление, педагогический процесс, потенциал, системность.

ORGANIZATIONAL MECHANISMS FOR FORMING EDUCATION CLUSTER INTEGRATION IN HIGHER EDUCATION AND PRODUCTION.

Annotation. This article examines in detail the various conditions and mechanisms for organizing an educational cluster in production and in the field of higher education. We are also talking about adapting higher education curricula to production processes.

Keywords: cluster, production, integrity, curriculum, type of education, direction, pedagogical process, potential, consistency.

KIRISH: Integratsiya zamonaviy ta’limni shakllantirishning eng muhim va istiqbolli usullari yo‘nalishlaridan biridir. Buni ta’lim va ishlab chiqarish klasterining kompleks o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha erishikayotgan tajribalar orqali ko‘rish mumkin.

Ta’lim klasterining vujudga kelishi ta’limda o‘qitish usullaridan biri bo‘lgan fanlarning o‘zaro aloqadorlik xususiyatlariga chambarchas bog‘liqligidir. Bu turdagi o‘qitish ko‘plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida turlich tarflanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Kasbga yo‘naltirish muammosi ilgaridan ko‘pchilik tadqiqotchilarni e’tiborini o‘ziga jalb qilgan xususan, rossiyalik olimlar N.A.Aitov, Y.K.Babanskiy, V.A.Gusev, Grevtseva G.Ya., Tsiulina M.V., Bolodurina E.A., Bannikov M.I., M.I.Maxmutov, R.A.Nizamov, M.F.Fatxulin va boshqalarning ishlarida tahlil qilingan. 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonuni 28-moddasiga ko‘ra ta’lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirokini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida ishlab chiqarish, ilm-fan va ta’lim o‘rtasida integratsiyani chuqurlashtirish, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash yuzasidan buyurtmalarni shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini tubdan yaxshilash hamda iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari va tashkilotlarida talabalar amaliyotlarini o‘tkazish, ilmiy ishlarni hamkorlikda bajarish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishini ta’minlash borasidagi ishlarni rivojlantirish choralari ko‘rish o‘zaro hamkorlik shartnomalari asoslarida olib borilishi ustuvro vazifa qilib belgilangan[1, 2].

TADQIQOT METADOLOGIYASI.

Tadqiqotchilar integratsiyalashgan darslarni o‘quv yili davomida ko‘plab pedagogik metod va usullar yordamida o‘tkazish mumkin. Bu ko‘rinishdagi dars mashg‘ulotlarini mavzu doirasida ikki yoki uchta fan o‘qituvchilari yordamida o‘tkazilishi mumkin va bunday darslarning ko‘p qismi talabalar ijodiyotiga bag‘ishlangan bo‘ladi.

Ushbu integratsiyaga asoslangan ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish tufayli talabalar integrativ fikrlashni shakllantirishlari mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- talabalar bilimining kengligi;
- qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini bashorat qilish;
- dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va hodisalarda ishtirok etish hissi;
- inson xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi;
- tabiatga ta’sirini mumkin bo‘lgan oqibatlari bilan tortish odati.

Fanlararo aloqadorlik tushunchasi bu- fanlararo aloqadorlik talabalarning bir fan bo‘yicha olgan bilimlari va ko‘nikmalarini boshqa fanlarni o‘zlashtirishda qo‘llash va qo‘llash qobiliyatini belgilaydi. Bunda zamonaviy axborot yoki kompyuter texnologiyalarini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi bilan uyg‘unlashtirish juda samarali natijalar beradi.

Axborot texnologiyalarida biz o‘qituvchini axborot yetkazib beruvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida tushunamiz. Muayyan mavzu bo‘yicha ma‘lumotlar, adabiyotlar va boshqalar taqdim etiladi.

Integratsiyalashgan innovatsion texnologiyada asosiy afzallik shundaki, mavzuga oid barcha ma‘lumotlar keng qamrovli fan o‘qituvchilari tomonidan tushuntiriladi va asoslantirilgan holda talabalarga yetkaziladi. O‘qituvchi doimiy izlanuvchan bo‘la olsa, o‘zi uchun bilim zahirasi mustahkamlanadi va talaba uchun darsni qiziqarli o‘tadi. Bu orqali talaba shaxsini intellektual rivojlantirish samaradorligini oshirish, shaxsning butun ma‘naviy-axloqiy sohasini yangilash mumkin bo‘ladi. Ushbu g‘oyalarni amalga oshirish rag‘batlantiruvchi - yangi pedagogik fikrlash mavzu doirasidan tashqari bilimlarni kengaytirib, talabaning fanga qiziqishini oshiradi va o‘qituvchining madaniy saviyasini oshishiga sabab bo‘ladi, shuningdek o‘qituvchiga o‘ziga yuklatilgan ta‘limiy vazifalarni samarali hal etishda yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Hozirgi vaqtda faol izlanishlar orqali o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan usullarni integratsiyalashgan ta‘lim yordamida keng qo‘llash bilan ajralib turdi. Bunday holda muhim rol noan‘anaviy yoki nostandart darslarga beriladi. An‘anaviy bo‘lmagan darslarning shakllari juda xilma-xilligi bilan ananaviy darslardan farq qiladi va fanlafaro o‘qitishda qo‘l keladi. Bunda talabalar tushunchalarining darajasida bilimlarni birlashtirishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Ammo ta‘lim berishda fanlarining integratsiyasi bu bilan cheklanmaydi. Ya‘ni umumiy qonunyatlar, nazariyalar, amaliyotlar, muammolar va turlicha tamoyillarga tayaniladi. Integratsiyalashgan o‘qitish zamonaviy metodologiyadagi yangiliklardan biridir. Bu texnologiya oliy ta‘limning o‘quv dasturiga etibor beradigan bo‘lsak o‘quv rejasidagi fanlarning uzviy va uzluksiz bog‘langani bilan ham ko‘rish mumkin.

XULOSA.

Yuqoridagi tasnifda pedagogik ta‘lim sohasi faoliyati to‘laqonli kamrab olingan bo‘lib, har bir yo‘nalish o‘z ichida o‘zaro tarmoqlanadi. Bu yo‘nalish va tarmoqlar mazmuni ta‘lim turlari bilan bog‘liq hamkorlikning barcha shakl, usul va texnologiyalarini o‘zida jamlaydi va quyidagilardan iborat:

Birinchidan ta‘lim klasteri yo‘nalishlarining mazmuniy ta‘lim yo‘nalishi:

- mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va ularning bartaraf mexanizmlarini ishlab chiqish;

- o‘quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontaal harakat mexanizmini ishlab chiqish;

- dars mashg‘ulotlari sifatini boshqarish va nazorat qilish.

Ikkinchidan o‘quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning soda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy qilish:

- o‘quv-uslubiy sohada ta‘lim turlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- ikkinchidan ta‘lim vositalari yo‘nalishi;

- o‘quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish;

- darslik, qo‘llanmalarning mazmun-mundarejasini boyitish va saviyasini ko‘tarish;

- dars mashg‘ulotining yordamchi adabiyotlari va didaktik ta‘minotini takomillashtirish;

- axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarli foydalanishga erishish.

Uchinchidan ta'lim va fan yo'nalishi:

- ta'lim va fan o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

- ilmiy sohada ta'lim turlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarish joylarida stajirovka o'tashini yo'lga qo'yish;

- ishlab chiqarish xodimlarini oliy ta'lim tashkilotlariga dars mashg'ulotlarini o'tishga jalb qilish;

- ilmiy-pedagogik salohiyatning ehtiyojga qarab, oshirilishini ta'minlaydigan mexanizm ishlab chiqish.

To'rtinchidan ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi:

- ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

- oliy ta'lim va ishlab chiqarish xodimlari hamkorligida binar ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish ilmiy ishlanmalar oliy ta'lim professor-o'qituvchilari tomonidan, uning amaliyotga tatbiq qilinishi ishlab chiqarish xodimlari tomonidan amalga oshiriladi;

- nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish;

- texnika taraqqiyoti tezligini hisobga olgan holda ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan uzluksiz ta'lim jarayoniga qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish amaliyotga joriy etish.

Beshinchidan ta'limni takomillashtirish yo'nalishi:

- amaliyotga tatbiq etish va uning kasbiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish.

- ta'limni innovatsion boshqarish borasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шарай.Н. Кластерный подход в интеграции, “УГ Москва” №15 от 14 апреля 2015 года.

2. Давыдова, Н.Н. Развитие педагогического (образовательного) кластера в региональном образовательном пространстве / Н.Н.Давыдова, Б.М. Игошев, С.Л. Фоменко // Педагогическое образование в России. — 2015 — №11 —с-12

3. Давыдова, Н.Н. Тенденции развития социального партнерства в условиях сетевой кластерной интеграции / Н.Н.Давыдова, М.Г.Синякова, С.Л.Фоменко //Педагогический журнал Башкортостана. — 2014 — № 5(54). — с-36–46.

4. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем // Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч.

5. Смирнова Ю.В. Кластеры как фактор инновационного развития//Мат-лы науч “Актуальные вопросы экономики и управления”. ГМосква, 2011г./ Под общ.ред Г.Д.Ахметовой .М.:ПРИРОП, 2011

6. Turdiyev S. R. Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 1597-1601.



THE ROLE OF CRITICAL JOURNALISM IN THE INFORMATION FLOW: FACT, OPINION AND MANIPULATION

Qayimova Sevara Dilshod qizi

*Student of the Faculty of International Journalism,
Uzbekistan State University of World Languages*

sevaraqayimova004@gmail.com

+99899 988-02-25

Abstract This article examines the global information flow in the 21st century and its influence on journalism. It explores the significance of critical journalism and analyzes the conceptual differences and interrelationships between fact, opinion, and manipulation in the media environment.

Keywords: information flow, misinformation, critical thinking, social media, digital literacy, media pollution, journalistic ethics, "7W" framework.

INTRODUCTION

In the context of the 21st century, this introduction not only outlines the basic premise of the research but also frames the discussion within the realities of global interconnectivity, where information travels across continents in seconds. The exponential growth of internet penetration and the widespread use of smartphones have created an environment where public consciousness is continuously shaped by an unprecedented flow of data from diverse sources.

In today's digital age, the role of social media and mass communication is expanding rapidly. With the rise in internet users and the advancement of technologies, the volume of information being generated and consumed has dramatically increased. This continuous movement of data, known as the information flow, plays a pivotal role in shaping public opinion, supporting societal development, and influencing individual perspectives.

One of the key challenges of our time is the ability to differentiate credible facts from personal opinions and detect manipulative content. While digital platforms provide immense access to information, they also facilitate the spread of unverified or false narratives. Therefore, cultivating critical thinking and media literacy is essential—especially for journalists who serve as the bridge between information and society.

Critical journalism involves not only reporting but also verifying sources, analyzing contexts, and interpreting the deeper meaning behind news events. Journalists bear the ethical responsibility of addressing societal issues and holding power structures accountable. By

promoting analytical approaches, they foster awareness and encourage informed decision-making within the public sphere. Furthermore, real-world examples from both international and local contexts illustrate that these theoretical considerations have tangible effects on policy-making, public trust, and civic engagement.

LITERATURE REVIEW AND METHODS

In examining the literature, it is crucial to recognize that modern scholarship does not treat digital literacy as a mere technical skill but as a holistic competency involving ethical judgment, cognitive flexibility, and adaptive learning strategies. In examining the literature, it is crucial to recognize that modern scholarship does not treat digital literacy as a mere technical skill but as a holistic competency involving ethical judgment, cognitive flexibility, and adaptive learning strategies.

Digital literacy and internet hygiene encompass practices that safeguard users from cybersecurity threats and enhance their ability to engage with content responsibly. Critical thinking, defined as the structured analysis of information and its sources, enables individuals to form logical connections and assess diverse viewpoints. Educational institutions play a vital role in nurturing this mindset, empowering students to question, investigate, and synthesize knowledge effectively.

A fact represents an objective reality that can be verified through reliable evidence. Examples include statistical data, historical events, and scientific findings. To confirm factual accuracy, it is necessary to evaluate the source, context, and corroboration by credible platforms. Information validated across multiple reputable outlets is typically deemed trustworthy.

An opinion reflects a personal or collective interpretation of an event or idea. It serves as a tool for expressing perspectives and conducting analyses in formats such as debates, discussions, and editorial content. While opinions can inform public discourse, their credibility depends on being grounded in factual evidence.

Relationship Between Fact and Opinion

- Sound opinions are based on factual foundations, enhancing their validity.
- Critical thinking facilitates the evaluation and comparison of opinions, contributing to problem-solving.
- Unsupported opinions risk becoming biased narratives or misinformation.
- While facts provide empirical clarity, opinions enable analytical exploration. In some instances, well-supported opinions may evolve into widely accepted truths.

Human cognition operates within both real and conceptual domains. The imaginative aspect of thought can be susceptible to external influence, which underlines the importance of recognizing manipulative tactics in media content.

Manipulation and Media Pollution

In addition to these categories, modern manipulation also includes algorithmic filtering, where search engines and social media platforms selectively present information based on prior user interactions, creating so-called 'echo chambers' that reinforce pre-existing beliefs. The

modern information ecosystem faces contamination from misinformation, propaganda, and manipulative messaging. Manipulation involves the strategic use of information to steer public perception and behavior. This form of influence can mislead individuals while creating the illusion of independent choice.

Types of manipulation include:

- Informational: Altering or distorting facts to misrepresent reality.
- Emotional/Psychological: Using emotional triggers to sway opinions or generate fear and excitement.
- Cultural/Social: Leveraging traditional values or cultural beliefs to incite division or mislead audiences.

ANALYSIS AND RESULTS

Developing critical thinking is fundamental in creating analytical journalism. It enhances cognitive skills, fosters independent inquiry, and improves the ability to construct reasoned arguments. These capabilities are essential for writing objective and impactful journalistic content.

Journalists can apply the widely accepted "7W" framework to assess and report news critically:

- What happened?
- Where did it occur?
- When did it take place?
- Who was involved?
- Why did it happen?
- Whom did it affect?
- How did it happen?

This approach assists in deconstructing events thoroughly and reduces the risk of disseminating misleading or partial information. It also encourages a comprehensive understanding of social and political developments.

Fake news—deliberately fabricated or distorted content—is often spread through digital platforms to manipulate public opinion or achieve specific agendas. Effective fact-checking and source evaluation are crucial in countering such narratives. Media organizations and independent verification bodies play an instrumental role in this process.

The integration of artificial intelligence into communication channels marks a new phase in media evolution. Technologies such as behavioral analytics and neuro-marketing are increasingly used to tailor content and influence user decisions at a subconscious level.

Examples of advanced manipulative techniques include:

- Micro-targeting: Gathering extensive user data to customize messages based on individual preferences and behaviors.
- Neuro-marketing: Analyzing neurological responses to optimize content impact and stimulate specific emotional reactions.

CONCLUSION

Looking ahead, the fusion of artificial intelligence and journalism will present both opportunities and challenges. While AI can enhance investigative capabilities through big data analysis, it also raises ethical concerns about bias, transparency, and editorial independence. In an era characterized by rapid technological advancement and massive information flows, the ability to process and critically assess information is indispensable. For students and professionals alike, developing structured thinking, analytical competence, and media literacy is vital.

Journalists, in particular, must uphold ethical standards and navigate the complex media landscape with diligence. This includes verifying facts, resisting manipulative influences, and fostering informed public discourse.

Strengthening critical thinking not only safeguards individuals from misinformation but also contributes to the resilience and integrity of society as a whole. A well-informed population, equipped with analytical skills and awareness, serves as the most effective defense against the challenges of digital manipulation and media distortion.

REFERENCES

- [1] Kovach, B. & Rosenstiel, T. (2001). *The Elements of Journalism*. New York: Crown Publishers.
- [2] Luhmann, N. (2000). *The Reality of the Mass Media*. Stanford University Press.
- [3] Surjatmodjo, D. et al. (2024). *Information Pandemic: A Critical Review of Disinformation Spread on Social Media and Its Implications for State Resilience*.
- [4] Sever, M. & Qosimova, N. (2020). *Roundtable on Fake News and Its Impact*. Tashkent, Uzbekistan.
- [5] "Manipulation or How is Public Opinion Controlled?" Kun.uz. <https://kun.uz/14346587>
- [6] "Opinion." Oyina.uz. <https://oyina.uz/uz/teahause/2453>
- [7] Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). *Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making*.
- [8] European Commission (2021). *Code of Practice on Disinformation*.



**KOLOBORATIV TA’LIM TEXNOLOGIYASIDA “OLIV NERV FAOLIYATI
MAVZUSINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” MAVZUSINI O‘QITISH
IMKONIYATLARI.**

X.E.Usmonov Q.D.U. magistri:

husanjonusmonov520@gmail.com

D.O.Akbarova Q.D.U 2- kurs magistranti:

dildoraxonergasheva2001@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning bilish faoliyatini gomifikatsiya metodini koloborativ ta’lim texnologiyasidan foydalanib rivojlantirish va ushbu ta’lim modelini amaliyotga joriy qilish va uning amaliy ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z. Koloborativ ta’lim, gomifikatsiya, bilish faoliyati, individual ehtiyoj, ko‘nikma, malaka, kommunikativlik qobiliyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие познавательной деятельности студентов с использованием метода геймификации в рамках коллаборативных технологий обучения. Также обсуждается внедрение данной образовательной модели в практику и её прикладное значение.

Ключевые слова: Коллаборативное обучение, геймификация, познавательная деятельность, индивидуальные потребности, навыки, компетенции, коммуникативные способности.

Abstract. This article discusses the development of students’ cognitive activity through the gamification method using collaborative learning technology. It also covers the practical implementation of this educational model and its applied significance.

Keywords: Collaborative learning, gamification, cognitive activity, individual needs, skills, competencies, communication abilities.

Kirish. O‘zbekiston ta’lim tizimida biologiya fanlarini chuqur o‘qitish, talabalarni bilish faoliyatiga jalb qilish bo‘yicha yangi yondashuvlar, jumladan, koloborativ yondashuvlarni turli jabxalarda amaliyotga tadqiq qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarga bo‘lgan ta’lab ortib bormoqda. Xususan, talabalarning bilish kopitensiyasining shakllantirish, bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantirishning hamkorlikda o‘qitish shakli va vositalarini rivojlantirish bugungu kunda dolzarb vazifa xisoblanadi. Bu borada bir qancha olimlarning ishlarini misol qilishimiz mumkin. J.O.Tolipova tomonidan hamkorlikda o‘qitish talabalarning bilim, ko‘nikma va

malakasini shakllantirishligi, guruh bo‘lib ishlashga undashi haqida ma’lumot bergan bo‘lsada, individual ehtiyojlarni (masalan, qo‘shimcha yordam yoki tezroq o‘zlashtirishni) etibordan chetta qoldirgan.

Adabiyotlar taxlili. Biologiya fanlarini o‘qitishda kolaborativ yondoshuvlar ko‘p olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. J.O.Tolipova ishlarida xamkorlikda o‘qitish texnologiyalari guruhlarda ishlash, guruh jamoalari bilan birgalikda harakat qilish, o‘quv topshiriqlarini birgalikda tashkil qilish haqida ma’lumot bergan [1]. Xorij olimlari tomonidan kolaborativ ta’lim texnologiyasi bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilgan. Xususan, Elizabeth F. Barkley, K. Patricia Cross, Claire Howell Major [2] tarifiga ko‘ra - talabalar birgalikda ishlash orqali o‘rganish jarayonida faol ishtirok etadigan ta’lim usuli. Bu usulda talabalar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va birgalikda muammolarni hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Kenneth A. Bruffee [3] qilgan ishlarida kolaborativ ta’lim texnologiyasining oliy ta’lim tizimidagi ahamiyati, hamkorlik tamoyillari va nazariy qismlarini o‘rgangan. Uning fikricha bilim individual emas balki ijtimoiy hamkorlik orqali shakllanadi. Alexandra Okada, Teresa Connolly, Peter J. Scott [4] lar tomonidan ushbu ta’lim texnologiyasini ochiq ta’lim resurslari va zamonaviy texnologiyalar yordamida qanday shakllantirish kerakligi haqida ma’lumotlar bergan. Colin Beard, John P. Wilson [5] lar tomonidan yozilgan kitobda esa kolobativ ta’lim texnologiyasini amaliyotda qanday qo‘llash, shuningdek, mualliflar turli sohalarda (sog‘liqni saqlash, biznes va ta’lim sohasida) hamkorlikni rivojlantirishga oid ko‘plab metodlarni tavsiflagan.

Tatqiqot metodologiyasi. So‘ngi yillarda ta’lim oluvchilarning muloqot madaniyati va hamkorlik ko‘nikmalarini, individual ehtiyojlarni unutmagan holda sub’ekt va sub’ekt munosabatlarini shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar o‘qituvchilar oldiga maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda kolobarativ ta’lim texnologiyasidan foydalanish dars jarayonida talabalarning muloqot madaniyati, guruhlarda ishlash motivligini rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarga ega. Kolaborativ ta’lim texnologiyasidan foydalanib, talabalarning hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birgalikda, individual bilish kompotentligini shakllantirishda quyudagi jihatlarga etibor beridi. Dastlabki vaziyatda kolaborativ ta’lim texnologiyasi va uning metodlarini yoritib o‘tish zaruratini beradi.

Kolaborativ (hamkorlikdagi) ta’lim texnologiyasi – bu o‘quv jarayonida talabalar, o‘qituvchilar va mutaxassislarning masofaviy va an’anaviy hamkorligini ta’minlovchi interfaol platformalar, vositalar va usullar majmuasidir.

Loyihaga asoslangan murakkab topshiriqlarini kichik guruhlariga berish orqali har bir guruh a’zolari o‘zining muammoni hal qilishga fikr bildiradi va o‘ziga xos vazifalar bajaradi, natijada har bir individ o‘zining bilish ehtiyojlarini qondiradi.

Kichik guruhlarda gomifikatsiya tashkil qilish talabalarni bilish faoliyatiga jalb qilish orqali bilish faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va ularning motivligini oshiradi.

Ta’limning gamifikatsiyasi – o‘yin elementlarini ta’lim muhitiga kiritish orqali faollikni oshirish strategiyasi [6]. Chunki, o‘yinlar ta’lim jarayonida, shuningdek, kichik guruhlarda

ishtirokchilarning teng ishtirok etish darajasini ta'minlaydi[7]. Shunga ko'ra, koloborativ ta'lim texnologiyasini qo'llash jarayonida gamifikatsiya qilish talabalarning individual bilish ehtiyojlarini qondirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda gomifikatsiyani amaliyotga tadbiiq qilishda quyudagilarga etibor berish kerak;

- Talabalarga neyronlar, miya qismlari yoki fiziologik jarayonlar rollarini berish orqali ularni mavzuga jalb qilish;
- Talabalarning bilimlarini sinash va rag'batlantirish uchun viktorinalar, testlar va savol-javob o'yinlari tashkil qilish;
- Talabalarning yutuqlarini ballar, medallar yoki darajalar bilan rag'batlantirish;
- Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda muammolarni hal qilishga undash;
- Gomifikatsiya elementlarini doimiy ravishda yangilab borish va o'quvchilarning yangi qiziqishlariga moslashtirish.

Ushbu jihatlarni hisobga olib, oliy nerv faoliyati mavzusini gomifikatsiya orqali samarali va qiziqarli tarzda o'qitish mumkin.

Tahlil va natijalar. Koloborativ ta'lim texnologiyasidan Oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda gomifikatsiyaning o'rni va amaliy ahamiyati mavzusi asosida o'tkazilgan tatqiqotimizda 24 nafar talaba jalb qilingan va ularni ikki guruhga teng taqsimlagan holda amalga oshirganmiz. Ushbu tatqiqot natijasini chi-square (χ^2) asosida xisoblanganda $p < 0.05$ qiymatni tashkil qilgan. Bu tatqiqotimiz shuni anglatadiki, bu natija ahamiyatlilik darajasida ($\alpha=0.05$) statistik jihatdan muhimdir. Ya'ni, farq tasodifiy emas, balki haqiqiydir.

Taklif va xulosalar. Koloborativ ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonida muhum ahamiyatga ega. Bu ta'lim texnologiyasi talabalarning faolligini oshiradi, komunikativ va koloborativ qobiliyatlarini rivojlantiradi, tanqidiy fikrlarni shakllantirishga yordam beradi. Koloborativ ta'lim texnologiyasi jarayonida gamifikatsiya qilish kichik guruhlarda talabalarning bilish darajasini rivojlantirishga shaxsiy bilish ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu ta'lim texnologiyasi jarayonida talabaning individual bilish faoliyatini shakllantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tish mumkin:

- Aniq va mavhum bo'lmagan savollarni kichik guruhlariga berishlik;
- GROW metodini qo'llash ham talabalarning kichik guruhlarda individual bilish faoliyatini va motivligini rivojlanrinishga ham yordam beradi;
- Vaqt managmentiga amal qilish va rejaga asoslangan dars jarayonlarini tashkil qilish;
- Muvozanatli yondoshuvga amal qilishlik;

Oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda kolaborativ ta'lim texnologiyasi va gomifikatsiyani amaliyotga tadbiiq qilish talabalarning bilim olish jarayonini samaraliroq va qiziqarli qiladi. Bu yondashuv talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga, ularning motivatsiyasini oshirishga va individual bilish darajasini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuning uchun, zamonaviy ta’lim jarayonida kolaborativ ta’lim texnologiyasi orqali gamifikatsiyadan foydalanish keng qo‘llanilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: Cho‘lpon, 2011.
2. Elizabeth F. Barkley, K. Patricia Cross, Claire Howell Major “Collaborative Learning: Higher Education, Interdependence, and the Authority of Knowledge” ISBN: 978-1-118-76155-7/ 2014-y./ 448-b.
3. Kenneth A. Bruffee “Collaborative Learning: Higher Education, Interdependence, and the Authority of Knowledge”.
4. Alexandra Okada, Teresa Connolly, Peter J. Scott “Collaborative Learning 2.0: Open Educational Resources” / ISBN: 1466603003, 9781466603004/ 2012-y.
5. Colin Beard, John P. Wilson “Collaborative Learning in Practice: A Guide to Implementation”
6. Dichev, C., & Dicheva, D. Gamifying education: what is known, what is believed and what remains uncertain: a critical review. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 14(1), 9.2017.
7. Rodrigo Smiderle, Sandro José Rigo, Leonardo B. Marques, Jorge Arthur Peçanha de Miranda Coelho & Patricia A. Jaques “ The impact of gamification on students’ learning, engagement and behavior based on their personality traits” <https://doi.org/10.1186/s40561-019-0098-x>.2020.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

CHET TILLARINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna

*Farg'ona davlat universiteti, magistratura bo'limi dekani,
Pedagogika fanlari doktori, professor.*

Nigmatova Nozimaxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti, lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi magistri

ORCID 0009-0002-0552-4068

comrehensible@gmail.com

+998949831705

Annotatsiya Maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish to'g'risida fikr yuritilgan. Analitik tafakkurning bosqichma-bosqich talabalarda shakllantirish va fokr yuritish san'ati orqali istiqbolli kelajak sari voqea-hodisani o'rganish jarayonida u haqida atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyatini o'rgatishning muhim ahamiyati ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: analitik tafakkur, ta'lim, taraqqiyot poydevori, botiniy ma'no, analitik fikrlash konsepsiyasi, fikrlash mexanizmi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация В статье рассматривается совершенствование технологии развития аналитического мышления студентов в процессе обучения иностранным языкам. Подчёркивается важность постепенного формирования аналитического мышления у студентов и обучения их умению приходить к целостному, ясному, глубокому, основательному, осмысленному и обоснованному выводу о событии в процессе его изучения на перспективное будущее через искусство мышления.

Ключевые слова: аналитическое мышление, образование, основа развития, внутренний смысл, концепция аналитического мышления, механизм мышления.

IMPROVING THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract The article discusses the improvement of the technology for developing analytical thinking in students in the process of teaching foreign languages. The importance of gradually forming analytical thinking in students and teaching the ability to come to a comprehensive, clear, deep, profound, meaningful, and solid conclusion about an event in the process of studying it towards a promising future through the art of thinking is emphasized.

Keywords: *analytical thinking, education, foundation of development, inner meaning, concept of analytical thinking, mechanism of thinking.*

KIRISH

Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitishni yanada takomillashtirish, talabalarga sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun turli innovatsion o‘quv jarayonlari amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi qarori amaliyotga tatbiq etib chet tillarini o‘qitish jarayonlari samarali tashkil etilmoqda. Yurtimizda chet tillariga o‘rganishga katta qiziqish va ushbu tillarni o‘rganuvchilar sonining ortib borayotganligi tufayli ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish bo‘yicha yangi qaror va farmonlarning ijrosi davlatimizda hukumatimiz tomonidan keng ko‘lamda tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda talabalarda analitik tafakkurni takomillashtirish davlatni himoya qilish, kuchli kadrlarni yaratish, iqtisodiyotning gullab yashnashiga hissa qo‘shish uchun bosh kuch-quvvat sifatida tan olinmoqda. Talabalik yillari mobaynida analitik tafakkurni rivojlanishining asosiy poydevori oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari zimmasidagi ulkan mas’uliyatdir.

Jahondagi qator olimlar jumladan, N.A. Xaydarova, E.A. Danilova [2], L.L. Tkachev[3], Y.V. Dementeva [4], V.A. Kruteskiy [5], D.Still, K. Meredit [6], Ch. Templ [7], D.Xalperin [8], A.V. Koraleva[9] o‘z tadqiqotlarida analitik tafakkurning muxim jihatlarini takomillashtirish va inson hayoti davomida analitik tafakkuri tufayli har sohada to‘g‘ri mulohaza qilish bilan jamiyatning taraqqiyotining asosiy poydevori sanalishini ta’kidlashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet tillarini o‘qitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish tahliliy fikr yuritish san’ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o‘rganish jarayonida u haqida atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to‘xtamga kelish qobiliyatini shakllantirishga har bir pedogog atroflicha tushuntirish olib borishi zarur. Har bir talaba ma’lum bir obyektini har tomonlama teran o‘rganadi.

Analitik tafakkur jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1.Murakkab axborotlar qismlarga ajratiladi.
- 2.Har bir so‘z, jumla, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi.
- 3.Qismlar o‘zaro mantiqiy bog‘lanadi.
- 4.Maqbul xulosaga kelinadi va kerakli qarorlar qabul qilinadi.

Chet tillarini o‘qitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish orqali yoshlarda har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma‘nosini o‘qish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy mazmun mohiyati qatlamlarini aniqlashga ham harakat qilishga undaydi.

L.L.Tkachevaning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchi ma‘lumotni uning obyektivligi, ta‘lim va tarbiyaning pedagogik vaziyatlarida foydalanishning optimalligi nuqtai nazaridan baholash va tizimlashtirishni o‘rganishi kerak. U pedagogik maqsadlar, vazifalarni hisobga olgan holda axborotga analitik yondashuvni ishlab chiqishi kerak.

Y.V. Dementyevaning analitik ko‘nikmalar – shaxsda sifat o‘zgarishlariga erishish va kasbiy mahoratning o‘rishiga ko‘maklashishga qaratilgan maxsus intellektual analitik-sintetik harakatlar majmuini o‘zlashtirishdir deya e‘tirof etgan.

D. Xelpern tanqidiy (analitik) fikrlash kontseptsiyasiga fikrlash jarayonining o‘zini baholash - xulosaga olib keladigan fikrlash kursi yoki qaror qabul qilishda hisobga olingan omillarni o‘z ichiga olishini isbotlagan.

A.V. Koraleva tahliliy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish shartlarini qiziqishlarni rivojlantirish, boyitish va chuqurlashtirish, bilim va ko‘nikmalarni o‘stirish, xarakterni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot faoliyatini mazmun bilan boyitish va ijtimoiy ongning o‘rishi deb bayon qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat‘iy bog‘langan, predmetni aniq, to‘g‘ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turidir. Talabalarda analitik tafakkurni takomillashtirish orqali ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo‘yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, tarixni anglash, bugunni to‘g‘ri idrok etish, kelajakni oldindan ko‘ra bilishga o‘rgatiladi. Ta‘lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik fikrlash hayotdagi muhim mahoratdir. Bu muammoni hal qilish va qaror qabul qilishda katta yordam beradi.

Boshqa ko‘nikmalar singari, analitik fikrlash qobiliyatlari ham tabiiy, ammo tug‘ma qobiliyat hisoblanmaydi. Chet tillarini o‘qitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishda muvaffaqiyat qozonish uchun tahliliy ko‘nikmalarni oshirish kerak. Analitik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qiziqqan talabalarga quyidagi yo‘llar bilan darsni tashkillash tavsiya etiladi.

O‘rganilayotgan tildagi ya‘ni ingliz yoki boshqa tillardagi matn yuzasidan fikrlash mexanizmini o‘zlashtirish intellektual-tashkiliy jarayon hisoblanadi: horijiy tilda taqdim etilgan axborotni ona tilida idrok etish, uning mohiyati va mazmun-mundarijasidagi asosiy jihatlarni ilg‘ash; matnni hayolan bo‘laklarga ajratib, har bir bo‘lakning tarkibi, matnda berilgan axborotga tanqidiy yondashish, undagi qaysi jihatlar matn uyg‘unligini yaratishda nomuhimligini aniqlash; matn qismlarini o‘zaro zarurat va sabab-oqibat bog‘lanishlari nuqtai

nazaridan bir-biriga solishtirish; matnning mohiyatini aks ettiradigan muhim jihatlarni aniqlash orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, analitik tafakkur - bu har bir talaba uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. U talabalarga ijtimoiy hayotning turli sohalarini tahlil qilish, munosabat bildirish, o‘tmishni anglash, hozirgi kundagi voqea va hodisalarni to‘g‘ri baholash va kelajakni reja bilan tashkillashga yordam beradi. Ta‘lim tizimida analitik tafakkurni rivojlantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, muammolarni tez va oqilona hal qila oladigan, fikriy qaramlikdan holi barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Chet tillarini o‘qitish jarayonida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish orqali tahliliy ko‘nikmalarni oshirish va talabalarga har qanday axborotni chuqur tahlil qilish, muhim jihatlarni aniqlash va fikrlash mexanizmlarini o‘zlashtirishga yordam berish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Хайдарова Н.А., Данилова Е.А. Формирование аналитического мышления будущих учителей-словесников (на примере анализа учебников по русскому языку на предмет неполных предложений) – Вестник ЧГПУ им. И.Я.Яковлева 2022 № 4 (117)
3. Ткачева Л. Л. Технологии развития критического мышления // Вестник ЮжноУральского государственного университета. – 2008. – № 2. – С. 92-98.
4. Дементьева Ю. В. Формирование аналитических умений и навыков в процессе профессиональной педагогической деятельности: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 2003. – 174 с.
5. Крутецкий В. А. Психология: учебник для учащихся пед. училищ. – М.: Просвещение, 1980. – 352 с.
6. Мереди К. С., Стил Дж., Темпл Ч. Воспитание вдумчивых читателей. – М.: Изд-во Института «Открытое общество», 1998. – 64 с.
7. Темпл Ч. Воспитание вдумчивых читателей. М.: Изд-во Института «Открытое общество», 1998. – 64 с.
8. Гальперин Д. Психология критического мышления. – 4-ое Международное издательства. – Санкт-Петербург., 2017. – 492 с.
9. Королева А. В. Взаимосвязь индивидуальных когнитивных стилей и критического мышления студентов гуманитарных специальностей // Социально-экономические явления и процессы. – 2014. - № 11. – С. 235-241.



**TABIAT BURCHAGI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
TABIATGA BO'LGAN QIZIQISH VA KOMPOTENSIYALARNI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.**

Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi
University of Business and Science
M.PD-24-01 talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqish va kompetensiyalarni shakllantirishda "tabiat burchagi"ning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tabiat burchagi orqali bolalarda ekologik, ijtimoiy, ilmiy va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Amaliy kuzatuvlar, tajribalar va o'quvchilarning faol ishtiroki orqali tabiatga mehr, e'tibor va mas'uliyatli munosabat shakllanishi ko'rsatib berilgan. Mazkur maqola boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiyani yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tabiat burchagi, boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, kompetensiyalar, kuzatuv, o'quvchi faolligi, metodika, qiziqish, amaliy ko'nikma, innovatsion yondashuv.

Абстрактный. В данной статье рассматривается роль и значение "уголка природы" в формировании интереса и компетенций у младших школьников в процессе начального обучения. Показано, что через организацию наблюдений, практических опытов и активное участие учеников в уходе за объектами живой и неживой природы развиваются экологические, социальные, научные и информационные компетенции. Уголок природы способствует воспитанию любви к окружающей среде, формированию ответственности и практических навыков. Статья направлена на совершенствование экологического воспитания в системе начального образования.

Ключевые слова: уголок природы, начальное образование, экологическое воспитание, компетенции, наблюдение, активность учащихся, методика, интерес, практические навыки, инновационный подход.

Abstract. This article explores the role and significance of the "nature corner" in fostering interest and developing competencies among primary school students. It highlights how engaging in regular observations, simple experiments, and taking care of living and non-living elements in the classroom environment helps children develop ecological, social, scientific, and informational competencies. The nature corner nurtures students' love for nature, sense of responsibility, and practical skills. The article aims to support and enhance environmental education within the primary education system.

Key words: nature corner, primary education, environmental education, competencies, observation, student engagement, teaching methodology, interest, practical skills, innovative approach.

Atrof-muhitning yomonlashuvi va ekologik muammolarning global xarakter kasb etishi hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababli yosh avlodni ekologik ong va madaniyatga ega qilib tarbiyalash, ularni tabiatni asrashga yo‘naltirish davlatlar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan qiziqish va ekologik kompetensiyalarni shakllantirish kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tabiat burchagi — bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv-mashg‘ulot muhiti bo‘lib, unda o‘quvchilar tabiat hodisalarini kuzatish, o‘rganish va amaliy faoliyatda qatnashish orqali ekologik bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Bunday faoliyat nafaqat tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki o‘quvchilarda ijtimoiy va ilmiy-amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tabiat burchagi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqish va kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ko‘plab pedagog va metodistlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda bir qator muhim adabiyotlar mavjud.

A.A. Komenskiy – “Didaktikasi asoslari”. Komenskiy o‘zining mashhur asarlarida ta‘limning tabiatga mos bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi. U bolalarning bilimi tajriba orqali, amaliy faoliyatda, kuzatishlar asosida shakllanishi zarurligini aytadi. Bu tamoyillar “tabiat burchagi” ni tashkil etish va undan foydalanishda asosiy metodologik yondashuv sifatida qaraladi.

N.A. Ryzhova – “Уголок природы в начальной школе”. Ryzhovaning ishlari boshlang‘ich maktabda tabiat burchagini tashkil etish metodikasi, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish usullari haqida aniq tavsiyalar beradi. U o‘quvchilarning tabiat obyektlari bilan bevosita muloqoti ularning shaxsiy mas‘uliyatini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

A.V. Zakhlebnyy – “Экологическое образование в школе”. Muallif ekologik tarbiyaning o‘quvchilarda barqaror rivojlanish tushunchalarini shakllantirishdagi o‘rni haqida yozadi. Tabiat burchagi bu borada samarali vosita bo‘lib, o‘quvchilarda ekologik fikrlash, ehtiyotkorlik va tabiatga ongli munosabatni shakllantiradi.

M.Q. To‘xtaboyeva – “Boshlang‘ich ta‘limda ekologik tarbiya”. To‘xtaboyeva o‘z asarlarida o‘quvchilarda ekologik tarbiya vositalarini tizimli qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Tabiat burchagi orqali bolalarda ko‘zatish, solishtirish, parvarish qilish kabi amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta‘lim standarti (2022 y.) Boshlang‘ich ta‘limda kompetensiyaviy yondashuvga alohida e‘tibor qaratilgan. Aynan tabiat burchagi orqali

o‘quvchilarda ekologik, ilmiy-amaliy, ijtimoiy va axborot kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligi ushbu standart asosida metodik jihatdan asoslanadi.

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqish va kompetensiyalarni shakllantirishda tabiat burchagi vositasining samaradorligini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ularning o‘quv jarayonidagi tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi faoliyati.
- Tabiat burchagi orqali o‘quvchilarda ekologik, ijtimoiy va ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni.
- Tabiat burchagidan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va zarur kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llarini aniqlash hamda ilmiy asoslash.

Tadqiqot davomida tabiat burchagida olib borilgan faoliyatlarga o‘quvchilarning munosabati va ular orqali shakllanayotgan kompetensiyalar atroflicha o‘rganildi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ular o‘simliklar va hayvonlar haqida ko‘proq savollar berishga, mustaqil ravishda ma’lumot qidirishga intildi. Aksincha, tabiat burchagida kamroq faol bo‘lgan o‘quvchilarda bu qiziqish pastroq bo‘lib, ular tabiiy ob’yektlarga nisbatan passivroq munosabatda bo‘lishdi.

Kompetensiyalar nuqtai nazaridan faol qatnashgan o‘quvchilarda atrof-muhitni asrash, o‘simliklarni parvarish qilish va tabiatga g‘amxo‘rlik qilish tushunchalari yanada mustahkamlandi. Shuningdek, ular maktab va oilada ekologik odatlarni amalga oshirishga intildi. Jamoaviy faoliyat jarayonida bolalar o‘zaro yordam ko‘rsatish, hamkorlik qilish va mas’uliyatni bo‘lishish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Ilmiy-amaliy yo‘nalishda esa oddiy tajribalar va kuzatuvlar orqali o‘quvchilarning tahlil qilish va o‘z natijalarini ifodalash qobiliyatlari kuchaydi. O‘quvchilar o‘z bilimlari va ko‘nikmalaridan mamnun ekanliklarini bildirdi, ekologik vazifalarni bajarishga tayyorliklarini ta’kidladi. Shu bilan birga, ota-onalar va o‘qituvchilar tabiat burchagidagi faoliyat bolalarning faolligini, mustaqil fikrlashini va javobgarlik hissini rivojlantirayotganini ijobiy baholadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabiat burchagidan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqish va kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarda ekologik, ijtimoiy va ilmiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi hamda ularni tabiatga mehr bilan qarashga undaydi.

Ushbu tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqish va ekologik, ijtimoiy hamda ilmiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda tabiat burchagining ahamiyati o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabiat burchagi o‘quvchilarning atrof-muhitga mehr va e’tiborini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki bolalarda tabiatga mas’uliyatli munosabat, mehr-shafqat va g‘amxo‘rlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiat burchagida o‘tkazilgan kuzatuvlar, amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar o‘quvchilarda ekologik bilimlarni chuqurlashtirish bilan birga, ularning kuzatish, tahlil qilish, mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon bolalarning ilmiy-amaliy kompetensiyalarini shakllantirib, ularni kundalik hayotda ekologik bilimlarni qo‘llashga tayyorlaydi. Shu bilan birga, tabiat burchagida faoliyat olib borish o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, hamkorlik qobiliyatlarini oshiradi, ijtimoiy kompetensiyalarini boyitadi.

O‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishi va faol ishtiroki ularning umumiy o‘quv jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tabiat burchagi ularning diqqatini jamlashga, mustaqil bilim olishga va bilimlarni hayotiy amaliyotga tadbiq etishga undaydi. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, ota-onalar va o‘qituvchilar tabiat burchagining o‘quvchilarning tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi rolini yuqori baholaydi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida tabiat burchagini tizimli ravishda tashkil etish va undan samarali foydalanish pedagogik jarayonni yanada boyitadi. Bu nafaqat ekologik tarbiyani chuqurlashtirish, balki bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi, ularning jamiyatdagi mas’uliyatini anglashlari va tabiatni asrashga tayyor bo‘lishlari uchun muhim shartdir. Kelajakda tabiat burchagining ta’lim jarayonidagi o‘rni va metodikasini yanada takomillashtirish uchun qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur. Xususan, turli yoshdagi bolalar va boshqa ta’lim bosqichlarida ham tabiat burchagidan foydalanish usullarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, tabiat burchagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat ekologik kompetensiyalarni, balki umumiy madaniyat va tarbiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komenskiy Y.A. Didaktika asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1959. – B.78
2. Ryzhova N.A. Уголок природы в начальной школе. Москва Просвещение, 2010. – C. 121
3. Zakhlebnyy, A.V. Экологическое образование в школе Санкт-Петербург Питер, 2015. – C. 23
4. To‘xtaboyeva M.Q. Boshlang‘ich ta’limda ekologik tarbiya metodikasi. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020. – B.34
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent. 2022. –
6. Davronov, S.M. “Tabiat burchagi va bolalarning ekologik madaniyati” //Pedagogika va Psixologiya jurnal, 3(12), 45-52.
7. Mirzaev A. “Boshlang‘ich sinfda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llari” // Ilm-fan va ta’lim, 7(4),2019. – B. 101-107.
8. Smith J. Environmental Education in Primary Schools. – London: Routledge, 2017. – p.89

9. Johnson L. “The Role of Nature Corners in Enhancing Children’s Environmental Awareness” // Journal of Early Childhood Education, 42(2),2016. – p.123-130.

10. Peterson M., Lee S.. Developing Environmental Competencies through Hands-on Activities. – New York: Springer.2019. – p.23

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLARI

Madina Axmadjanova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

ORCID: 0009-0005-9609-7015

sadiya170420@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining grammatik tizimida muhim o‘rin tutuvchi yordamchi so‘z turkumlarini (ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar) o‘rgatish masalalari yoritilgan. Yordamchi so‘zlarning grammatik va kommunikativ funksiyalari, ularning matndagi uslubiy yuklanishi, nutqda aniqlik, mantiqiylik va izchillikni ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif bu so‘z turkumlarini o‘qitishda matn asosida ishlash, nutqiy vaziyatlar yaratish, dialogik metod, transformatsion mashqlar, o‘yinli topshiriqlar kabi zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini asoslaydi. Tadqiqotda shuningdek, dialog asosida o‘qitish va kommunikativ-didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali grammatik bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Transformatsion yondashuv yordamida grammatik tuzilmalarni tahlil qilish va qayta ishlash orqali ularni ijodiy va ongli o‘zlashtirish jarayoni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yordamchi so‘z turkumlari, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, o‘qitish metodikasi, nutqiy vaziyat, transformatsion mashq, kommunikativ yondashuv, dialogik metod, grammatik kompetensiya.

MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING AUXILIARY PARTS OF SPEECH

Annotation: This article explores the teaching of auxiliary parts of speech (prepositions, conjunctions, and particles), which play an important role in the grammatical system of the Uzbek language. The grammatical and communicative functions of auxiliary words, their stylistic significance in the text, and their role in ensuring clarity, coherence, and logical consistency in speech are analyzed. The author justifies the effectiveness of modern approaches such as text-based learning, creation of communicative situations, dialogic methods, transformational exercises, and game-based tasks in teaching these word classes. The study also highlights the potential of dialog-based teaching and communicative-didactic games in reinforcing grammatical knowledge and developing learners’ communicative competence. The

transformational approach is presented as a way to analyze and restructure grammatical constructions, enabling their creative and conscious acquisition.

Keywords: auxiliary parts of speech, preposition, conjunction, particle, teaching methodology, communicative situation, transformational exercise, communicative approach, dialogic method, grammatical competence.

Kirish

Yordamchi so‘z turkumlari ona tilining grammatik tuzilmasida muhim o‘rin tutadi. Ular muloqot jarayonida fikrni aniqlik bilan ifodalash, mazmunga ohang va emotsional tus berish, matnning mantiqiy izchilligini ta‘minlash kabi vazifalarni bajaradi. Tilshunoslar ta‘kidlaganidek, yordamchi so‘zlar turli grammatik va semantik munosabatlarni ifodalashda vosita bo‘lib xizmat qiladi [1.11]. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar — ya‘ni ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalar — semantik jihatdan boy va funksional jihatdan keng qamrovli birliklar hisoblanadi. Ular orqali so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqliklar ifodalanadi, fikrlar o‘rtasidagi uzviylik ta‘minlanadi hamda grammatik tuzilmalarning shakllanishiga xizmat qilinadi [2.7].

Metodologiya

Yordamchi so‘zlarning o‘rganilishi zamonaviy ta‘limda ham dolzarb hisoblanadi. Ular o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, aniq va izchil fikr bildirish, grammatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli bu so‘z turkumlarini izchil, tizimli va anglashga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘rgatish talab etiladi [3.9]. Yordamchi so‘zlar nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlashda, balki nutq malakasi va grammatik tafakkurni shakllantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanilishi orqali o‘quvchi o‘z fikrini mantiqan asoslab, ravon va ta‘sirli ifodalay oladi. Nutqdagi aniqlik, uyg‘unlik va muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan yordamchi birliklarning to‘g‘ri ishlatilishiga bog‘liqdir.

Yordamchi so‘z turkumlari:

- Til strukturasi va grammatik tizimini to‘liq anglash uchun muhim vositadir;
- Gap tuzilmasini shakllantirishda asosiy grammatik birlik sifatida ishtirok etadi;
- Matnlararo bog‘liqlikni ta‘minlashda faol rol o‘ynaydi;
- Uslubiy vosita sifatida matnning ifoda kuchi va ta‘sirchanligini oshiradi.

O‘zbek tilida quyidagi yordamchi so‘z turkumlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Ko‘makchilar

2. Bog‘lovchilar

3. Yuklamalar

Bu turkumlarni o‘qitish jarayoni nafaqat grammatik-nazariy bilimlarni shakllantirishni, balki ularning **real nutqiy kontekstdagi funksiyalarini anglash, gap bo‘laklaridagi ishtirokini tushunish**, hamda ularni **uslubiy va kommunikativ jihatdan to‘g‘ri qo‘llashni** ham o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, yordamchi so‘zlarni o‘rgatishda ularning **gapiy ohangni**

boshqaruvchi, mazmunni aniqlashtiruvchi yoki cheklovchi, ba‘zan esa **emotsional-ekspressiv** vosita sifatida qanday ishlatilishi tahlil qilinishi lozim. Chunki ko‘makchilar va yuklamalar kabi yordamchi so‘zlar gapning umumiy ma‘nosiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi, bog‘lovchilar esa matn birliklarini mantiqiy va semantik jihatdan uzviy bog‘lab turadi.

Shu sababli, bu mavzuni o‘qitishda tanlanadigan usul va metodlar **o‘quvchilarning yoshi, til bilish darajasi, nutqiy kompetensiyasi va darsning aniq didaktik maqsadlariga** muvofiq belgilanishi kerak. Boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilarga ko‘proq ko‘rgazmali va amaliy metodlar tavsiya etilsa, o‘rta va yuqori bosqichlarda tahliliy va interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yordamchi so‘zlarni o‘rgatishda **matn asosida ishlash, nutqiy vaziyatlar yaratish, transformatsion mashqlar, dialogik metod** kabi yondashuvlar til o‘rganuvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Xususan, matn asosida ishlash orqali o‘quvchilar yordamchi so‘zlarning turli kontekstlardagi funksional yukini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, bog‘lovchilar matnda gaplar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni qanday ifodalayotganini, ko‘makchilar esa predmetlar, hodisalar o‘rtasidagi munosabatni qanday belgilashini amaliy misollar orqali anglaydi. Bu usul yordamida grammatik birliklar o‘zaro kontekstual munosabatda tushuniladi.

Natijalar

Nutqiy vaziyatlar yaratish esa o‘quvchiga sun‘iy, lekin maqsadli kommunikativ muhitda yordamchi so‘zlarni tabiiy tarzda ishlatishga sharoit yaratadi. Bu metod yordamida til o‘rganuvchi grammatik vositalarni muloqot ehtiyoji asosida qo‘llaydi, bu esa ularning faol nutqiy kompetensiyasini oshiradi.

Nutqiy vaziyat — bu o‘quvchining ma‘lum bir sharoitda kim bilandir qandaydir maqsadda muloqotga kirishish ehtiyoji tug‘iladigan sun‘iy yoki haqiqiy til holati. Ushbu vaziyatda o‘quvchi yordamchi so‘zlarni bevosita vazifasiga moslab ishlatadi.

Bog‘lovchilar uchun nutqiy vaziyat

Vaziyat: Ikki do‘st dam olish kuni qayerga borishni muhokama qilmoqda.

Topshiriq: O‘quvchilar quyidagi gaplarni bog‘lovchilar yordamida birlashtirishadi:

Men kinoga bormoqchiman.

Sen parkgacha yurishni yaxshi ko‘rasan.

Havo yaxshi bo‘lishi kerak.

Yog‘ingarchilik bo‘lsa, biz uyda qolamiz.

Maqsad: "va", "lekin", "ammo", "agar", "yoki" kabi bog‘lovchilarni real nutqda ishlatishga o‘rgatish.

3. Yuklamalar uchun nutqiy vaziyat

Vaziyat: O‘quvchilar do‘stlari bilan bahsga kirishmoqda yoki o‘z fikrini qat‘iy bildirib bermoqda.

Topshiriq: Quyidagi gaplarni yuklama bilan kuchaytiring:

Men bu vazifani bajardim.

Ular maktabga kechikib kelishdi.

Sen meni tushunmading.

Kutilgan natija: "ku", "aynan", "xolos", "ham", "g‘oyat", "bo‘lsa kerak" kabi yuklamalar orqali urg‘uni o‘zgartirish.

Nutqiy vaziyatlar yaratishda qo‘llaniladigan usullar:

1. *Rol o‘ynash (role-play)* – talabalar belgilangan rollarni ijro etib, yordamchi so‘zlar orqali muloqot qiladi.
2. *Dialog yaratish* – juftliklar yoki guruhlar dialog tuzib, yordamchi so‘zlarni kontekstda ishlatadi.
3. *Intervyu usuli* – Bir o‘quvchi boshqasiga savollar beradi, u esa yordamchi so‘zlar bilan javob beradi.
4. *Muloqotli o‘yinlar (games)* – “Kim tez topadi?”, “To‘g‘risini ayting” kabi o‘yinlar orqali o‘rganiladi.
5. *Matnli muhokama* – Badiiy yoki informativ matn o‘qilib, yordamchi so‘zlar bo‘yicha savol-javob qilinadi.

Shulardan ayrim usul hamda metodlarni chuqurroq o‘rganadigan bo‘lsak *dialog asosida o‘qitish* – bu til o‘rganishda kontekstga asoslangan va interaktiv yondashuvni taqdim etuvchi samarali pedagogik uslubdir. Ushbu metod grammatika birliklarini real muloqot vaziyatida ko‘rish va amaliyotda qo‘llash orqali o‘quvchilarning grammatik tuzilmalarni tushunishini osonlashtiradi. Dialog asosida o‘qitishning muhim afzalliklaridan biri — bu tabiiy o‘quv muhitini yaratishidir. O‘qituvchi ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarni o‘z ichiga olgan dialoglar orqali o‘quvchilarga ushbu so‘z turkumlarining kundalik muloqotdagi funksiyasini tushuntiradi. Arnott va boshqa olimlar hamkorlari ta’kidlaganidek, dialogga asoslangan o‘quv tizimlari o‘zining interaktiv xususiyati bilan an’anaviy usullarga nisbatan kuchliroq kognitiv faollikni rag‘batlantiradi va o‘quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi[4.694].

“Dialogni to‘ldir” mashqi (Ko‘makchilar uchun)

Maqsad: Ko‘makchi so‘zlarning to‘g‘ri ishlatilishini kontekst asosida mustahkamlash.

Tavsif: O‘qituvchi dialogdagi bo‘sh joylarni beradi, o‘quvchi esa tegishli ko‘makchini tanlab to‘ldiradi. Misol:

A: Siz ertaga __ kelmoqchisiz?

B: Soat 9:00 __. Variantlar: da, ga, bilan

A: To‘g‘ri javob: Siz ertaga ga kelmoqchisiz?

B: Soat 9:00 da.

Izoh: Ushbu mashq orqali o‘quvchilar kontekst asosida so‘z tanlash, to‘g‘ri gap tuzish va nutqda ko‘makchi birliklarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalarni o‘rgatishda kommunikativ-didaktik o‘yinli texnologiyadan foydalanish – bu o‘quvchilarning grammatik bilim va til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks metod hisoblanadi. Ushbu yondashuv an’anaviy grammatika asoslarini faol, kontekstga asoslangan o‘qitish shakllari bilan uyg‘unlashtiradi,

natijada o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi hamda materialni mustahkamlash darajasi yuqorilaydi [5.171]. Kommunikativ-didaktik o‘yinli texnologiyalardan foydalanish tilni real kontekstda o‘zlashtirishga keng imkoniyat yaratadi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning kundalik nutqda qanday ishlatilishini tabiiy tarzda anglab yetadilar. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, o‘yinli elementlarning grammatikani o‘rgatish jarayoniga kiritilishi o‘quvchilarning e‘tiborini o‘z kommunikativ ehtiyojlariga qaratishga yordam beradi, bu esa grammatik birliklarning samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi [6]. Masalan, o‘yinli mashqlar orqali o‘quvchilar so‘z turkumlarini aniqlash va to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatganlar [7.157].

1. Kartochkali juftlash o‘yini – Ko‘makchilar

Maqsad: O‘quvchilar so‘zlar o‘rtasidagi grammatik bog‘lanishni aniqlab, ko‘makchilardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar.

Topshiriq: Har bir o‘quvchiga ikkita kartochka beriladi. Ulardan birida gap boshi, ikkinchisida ko‘makchi yozilgan bo‘ladi.

O‘quvchi to‘g‘ri juftlikni topib, to‘liq gap tuzadi.

Namuna kartochkalar:

Gap boshi	Ko‘makchi
Men maktabga...	bilan
Kitoblar stol...	ustida
Uyga kech...	kelgan
Do‘stim...	uchun

Yechim (to‘liq gaplar):

Men maktabga **bilan** bordim.

Kitoblar stol **ustida** turibdi.

Uyga kech **kelgan**.

Do‘stim **uchun** sovg‘a oldim.

Ushbu mashq orqali o‘quvchilar ko‘makchilarning ma‘no va grammatik vazifasini chuqurroq anglaydi. Ular gap bo‘laklari orasidagi bog‘lanishni to‘g‘ri shakllantirishni o‘rganadi va mustaqil ravishda to‘liq gap tuzish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bunday yondashuv nafaqat grammatik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Jumladan, guruhli yoki juftlikda o‘ynaladigan o‘yinlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, muloqotni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarni faol ishtirokka undaydi[8.48]. Shu bilan birga, o‘yinlarning ta‘limiy samaradorligini oshirish uchun ularni aniq pedagogik maqsadlar bilan bog‘lash zarur. Grammatik qoidalarni tushuntirish va amaliy o‘yinlar o‘rtasidagi muvozanat o‘quvchilarda nafaqat qoidalarni eslab qolish, balki ularni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi[9.126].

Transformatsiya usuli orqali o‘qitish. Yordamchi so‘z turkumlari – ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalar – grammatik tuzilmalarning ajralmas qismi bo‘lib, ular gap bo‘laklarini bog‘lash, mazmunga ohangdorlik, e‘tibor yoki shaxsiy munosabat ifodalash kabi funksiyalarni bajaradi. Ushbu birliklarni o‘quvchilarga samarali o‘rgatish til tuzilmasini chuqur anglash, muloqotda aniqlik va ta’sirchanlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Transformatsiya usuli yordamchi so‘zlarni o‘qitishda zamonaviy, ijodiy va mantiqiy asoslangan yondashuv sifatida e‘tirof etiladi. Transformatsiya usulining muhim jihatlaridan biri shundaki, u mavjud tilshunoslik namunalaridan grammatik modellarni ajratib olib, ularni yagona tizimli shaklga keltirish orqali grammatik yaqinlikni ta’minlash imkonini beradi. Bu jarayon orqali turli grammatik tuzilmalar orasidagi sintaktik ekvivalentlik aniqlanadi va ular o‘zaro solishtiriladi.

Bog‘lovchilar gaplar orasida mantiqiy aloqa o‘rnatadi. Transformatsion mashqlar o‘quvchilarga bog‘lovchilarni almashtirish, ularning sinonimlarini qo‘llash, gapdagi urg‘u o‘zgarishini tushunishga xizmat qiladi.

Misol:

“U keldi, lekin kech qoldi.” → “U keldi, ammo kech qoldi.”

→ “U keldi. Shu bilan birga, u kech qoldi.”

Bu o‘zgartirishlar yordamida bog‘lovchilarning mantiqiy yuklamasi va uslubiy roli tahlil qilinadi.

Muhokama

Lämmel va Zaytsev o‘z tadqiqotlarida aynan shu jihatga urg‘u berib, grammatik tuzilmalarni ajratish va transformatsiya qilish orqali turli grammatikalarning umumiylik va farqlarini ko‘rsatish, ularni o‘qitishda samarali vositaga aylantirish mumkinligini ta’kidlaydi[10]. Ushbu tizimli yondashuv grammatik birliklarning chuqur anglanishiga xizmat qiladi, mavjud grammatik tuzilmalar asosida yangi til shakllarini yaratish imkonini beradi. Natijada, bu usul o‘quvchilarning grammatik bilim doirasini kengaytirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va til imkoniyatlarini boyitishda muhim o‘rin egallaydi [11.481].

Yordamchi so‘z turkumlarini — ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalarni — o‘rgatish jarayoni ona tili ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu birliklar til tizimida grammatik, semantik va stilistik jihatdan ko‘p funksiyali vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Ularni o‘quvchilarga samarali o‘rgatish til tuzilmasini chuqur anglash, nutqni mantiqan tashkil etish, aniq va ifodali muloqot yuritish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Maqolada ta’kidlanganidek, yordamchi so‘zlar nazariy bilim sifatida emas, balki real nutqiy kontekstda o‘z funksiyalarida o‘rganilishi lozim. Shu boisdan ularni o‘qitishda zamonaviy, interfaol va kommunikativ metodlardan — matn asosida ishlash, dialogik yondashuv, nutqiy vaziyatlar yaratish, o‘yinli mashqlar, transformatsion usullar — keng foydalanish dolzarbdir. Bunday yondashuvlar grammatik bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, til vositalarini faol va ongli qo‘llashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘yinli texnologiyalar va kontekstual topshiriqlar yordamida yordamchi so‘zlarning mantiqiy va emotsional vazifalarini o‘zlashtirish o‘quvchining tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi va nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Xususan, transformatsion usullar yordamida til birliklari o‘rtasidagi grammatik aloqalar, semantik sinonimlik va stilistik farqlar chuqurroq anglanadi.

Xulosa qilib aytganda, yordamchi so‘zlarni o‘rgatish metodikasini tizimli yondashuv asosida takomillashtirish nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlash, balki zamonaviy til ta’limining asosiy maqsadi bo‘lgan funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaxxorova G. Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” romanida qo‘llanilgan bog‘lovchi va yuklamalarning asosiy xususiyatlari tahlili // Tafakkur Ilmiy-Pedagogik Siyo (TIPS). – 2023. – №1(95). – B. 1–11.
2. Abzalova N., Jumayeva F. Yuklamalarni tarjima qilishning semik tahlil usuli // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Vol. 3, №2. – B. 7–8.
3. Yakubova N. Ingliz, o‘zbek va rus tillarida ko‘p komponentli turistik terminlar modellarining tasnifi // Aniq fanlar seriyasi. – 2022. – №6(136/2). – B. 1–9.
4. Arnott E., Hastings P., Allbritton D. Research methods tutor: Evaluation of a dialogue-based tutoring system in the classroom // Behavior Research Methods. – 2008. – Vol. 40, №3. – P. 694–698.
5. Fithriani R. Communicative game-based learning in EFL grammar class: Suggested activities and students’ perception // JEELS (Journal of English Education and Linguistics Studies). – 2022. – Vol. 5, №2. – P. 171–188.
6. Yacob N., Yunus M. Language games in teaching and learning English grammar: A literature review // SSRN Electronic Journal. – 2019.
7. Vijayarajoo A., Singh K., Gan K., Jani R. ‘Parts of speech’ – ‘Drop a card’ board game // Social and Management Research Journal. – 2019. – Vol. 16, №1. – P. 157.
8. Dorji T. The effect of games simulation in improving secondary students' academic performance // International Journal of Social Learning (IJSL Nassaji H., Fotos S. Current developments in research on the teaching of grammar // Annual Review of Applied Linguistics. – 2004. – Vol. 24. – P. 126–145.
9. Lämmel R., Zaytsev V. Recovering grammar relationships for the Java language specification // Software Quality Journal. – 2010. – Vol. 19, №2. – P. 333–378.
10. Zaytsev V. Language convergence infrastructure // In: Lecture Notes in Computer Science. – 2011. – P. 481–497.



PSIXOLOGIYADA O‘QITISH METODLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Karimov Jasurbek Jamalidinovich

Kokand university andijon filiali

Registrator offisi menedjeri

Annotatsiya: ushbu maqolada psixologiyada o‘qitish metodlari va ularning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, o‘qitish metodlarini qo‘llanishi o‘quvchi yoki talaba ongiga singib borishi pedagogning tanlagan metodiga bog‘liqlik jarayonlari keng bayon qilingan. Shuningdek, turli metodlarni talabalarning bilish faoliyatiga turlicha ta‘si, talabalarda ilmiy izlanuvchanlik ko‘nikmalari shakllantirishdagi o‘rni tavsifi berilgan.

Kalit so‘zlar: metod, o‘qitish metodlari, bilish faoliyati, fikrlar faolligi, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

Аннотация: В статье рассматриваются методы обучения психологии и их значение, подробно описываются процессы усвоения методики обучения сознанием студента и выбор метода преподавателем. Также описывается различное влияние различных методов на познавательную деятельность студентов и их роль в формировании у студентов навыков научного исследования.

Ключевые слова: метод, приемы обучения, познавательная деятельность, мыслительная деятельность, закрепление полученных знаний.

Abstract: This article discusses teaching methods in psychology and their importance, and describes in detail the processes by which the application of teaching methods is absorbed into the consciousness of a student and the method chosen by the teacher. It also describes the different effects of different methods on students' cognitive activity and their role in the formation of scientific research skills in students.

Key words: method, teaching methods, cognitive activity, thought activity, consolidation of acquired knowledge.

Jahondagi oliy ta‘lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zamonaviy oliy ta‘lim tizimini kreativ yondashuv asosida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan oliy ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida

raqobatbardosh mutaxassiskadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassiskadrlarni tayyorlashga qaratilgan o‘qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bo‘lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodga yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko‘nikma va malakalar hajmini, o‘qituvchi shaxsida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarini muvaffaqiyatli egallashlari kerak.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o‘tkazish usullari, yo‘llari majmuasidir.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”⁴⁵.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi: 1)aniqlik;

2)asoslanganlik;

3)rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;

4)qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;

5)hayot bilan uyg‘unlik;

6)natijaviylik. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi: - ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy,

⁴⁵ Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. – Academia, 2005.

rivojlantiruvchi, tashkiliy; - ta'limning qonuniyat va tamoyillarini; - ta'lim mazmunini; - ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini; - ta'limning umumiy va xususiy metodlarini; - o'quv vositalari; - o'qitish natijasini.

Metodologiya (yunoncha. *methodos* — nazariya, ta'limot, bilish yoki tadqiqot yo'li va *logos* — so'z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo'llari va prinsiplar tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi ta'limot; 3) u yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi ma'nolarini anglatadi⁴⁶.

Turli metodlar talabalarning bilish faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi. Shunga bog'liq ravishda M.N.Skatkin va I.YA.Lerner tomonidan tavsiya etilgan klassifikatsiya diqqatga sazovordir. Ular o'qitishning quyidagi metodlarini ajratganlar:

- 1) ko'rgazmali-tushuntiruvchi
- 2) reproduktiv
- 3) muammoli
- 4) izlanuvchanlik
- 5) tadqiqotchilik

Ko'rgazmali-tushuntiruvchi metodning mohiyatiga ko'ra o'qituvchi tayyor materiallarni talabalarga etkazib beradi, talabalar esa uni fikrlab, eslab qoladilar. Bu eng samarali usul bo'lib, kam vaqt sarflanadi. Biroq uni qo'llash orqali qabul qilingan ma'lumotni qo'llash ko'nikmalari shakllanmaydi. Bu metod an'anaviy ma'ruza mashg'ulotlarida qo'l kelib, bunda o'qituvchi dastlab nazariyani beradi, keyin psixologik tadqiqotlar, empirik izlanishlarni tahlil qilish uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanadi. Yangi mavzuni tushuntirib berishdan avval o'qituvchi mavzuning avvalgilari bilan bog'liqligi va uning fanda tutgan o'rniga ahamiyat berishi kerak. Reproductiv metodning mohiyati shundaki, talabalar muayyan o'quv harakatlarini qaytarishlari lozim. Talabalar o'qituvchi tomonidan topshirilgan namunadagi harakatlarni qaytarish orqali yangi ko'nikma, malakalarni o'zlashtiradilar. Bu metod odatda seminar va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Muammoli metodning mohiyatiga ko'ra o'qituvchi talabalarning oldiga muammo qo'yadi va uning hal qilish yo'lini ko'rsatadi. boshqa vaziyatda esa qo'yilgan muammoni talabalarning o'zlari individual yoki guruhiiy tarzda yyechimni topadilar. Shu yo'sinda talabalarda ilmiy izlanuvchanlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida ushbu metodni qo'llash quyidagi tartibda bo'ladi. O'qituvchi avval muammo qo'yadi, faktlarni keltiradi, keyin nazariy tahlil beriladi. Shu orqali psixologik bilimlar muammoni hal qilishda qo'l kelishi isbotlanadi. Muammoli ta'limni qo'llash psixologiyani o'qitishdagi samarali motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Yangi mavzuni tushuntirishdan avval muammoli savol qo'yiladi. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida yangi bilim, ko'nikma, malaka o'zlashtiriladi. Muammoni hal qilish va uni to'g'ri qo'ya bilish darsni yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. E.A.Klimov bunday usulni pedagogik muammoni "psixologik bilimlar" vositasida hal qilish deb ta'riflagan edi. Qisman-izlanuvchanlik metodi

⁴⁶ Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. –Toshkent, 2007.

odatda evristik metod deb nomlanadi. Bunda o‘qituvchi muammoni alohida topshiriqlar shaklida taqdim qiladi, talablar esa bosqichmabosqich muammo yyechimini izlaydilar. Muammo mustaqil ravishda hal qilingani bilan, butun jarayon o‘qituvchi tomonidan rejalashtiriladi. Bu metod ko‘p hollarda amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladi. Bundan tashqari kurs ishlarini yozish vaqtida ham qo‘llanilishi mumkin. Tadqiqotchilik metodi talabalarning bilimlarini ijodiy qo‘lanilishini talab etadi. Bunda talabalarda mustaqil ilmiy tadqiqotchilik ishi malakasi shakllanadi. Ushbu metod kurs ishi, BMI va magistrlik dissertatsiyasini yozishda qo‘llaniladi. Ta’lim jarayonida talabalarning faollik darajasi muvaffaqiyatli ta’limning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan psixologiyani o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘lashga ahamiyat berilmoqda. Yuqorida ko‘rib chiqilgan metodlar o‘z-o‘zidan faol yoki passiv bo‘lib qolmaydi. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil eta olishga qarab ularni faol deb tasniflash mumkin. O‘qitish metodikalari talabalarning fikrlash faolligini ta’minlovchi va shaxsning aqliy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi metod va usullar qo‘llanilsagina samarali bo‘lishi mumkin. Aktiv metodlarni qo‘llashda talabalar faoliyati markaziy o‘ringa chiqadi. S.D.Smirnov “o‘qitishning faol metodlari” - bu noto‘g‘ri narsa, chunki passiv metodlarning o‘zi yo‘q. Lekin, uning faollik darajasi turlichadir. Metodlarni faolligi uni qo‘llanilishiga bog‘liq”, – deb yozgan edi. V.YA.Lyaudis o‘qitishning faol metodlarini quyidagi guruhini ajratadi:⁴⁷

- 1) dasturlashtirilgan o‘qitish metodi;
- 2) muammoli ta’lim metodi;
- 3) interaktiv ta’lim metodi.

Dasturlashtirilgan ta’lim metodi an’anaviy ta’lim hisobiga qurilgan bo‘lib, ta’lim maqsadidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim metodi yordamida muammoli vaziyatni hal qilish orqali talabalarning fikriy faolligi oshiriladi. Interaktiv o‘qitish metodlari shaxslarning o‘zaro hamkorligi va munosabatlariga qurilgan bo‘ladi. Ta’lim ijtimoiy jarayon sifatida ko‘riladi. Ushbu metodlarning har birida o‘ziga xos ko‘rsatma vositalari bor:

- 1) dasturlashgan ta’lim – dastur algoritmlar
- 2) muammoli ta’lim – muammoli vaziyatlar, evristik dasturlar
- 3) interaktiv ta’lim – guruhiiy munozara, o‘quv-rolli o‘yinlar, o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat.

V.YA.Lyaudis qiziqarli aktiv metodlar orasida tsenariy asosida faoliyat yuritishni alohida ko‘rsatadi. E.E.Kravtsova psixolog talabalarni kasbiy tayyorlashda ushbu metodning alohida o‘rnini borligini ta’kidlaydi. Zamonaviy ta’limda masofaviy o‘qitish texnologiyalari keng qo‘llanilib bormoqda. Masofaviy ta’lim deyilganida informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni ta’limga qo‘llash tushuniladi. Masofaviy ta’lim sirtqi, kunduzgi, eksternat ta’lim shakllarida qo‘lanilishi mumkin. Oliy ta’lim vazirligi tomonidan masofaviy o‘qitish metodini qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, qaror qabul qilingan masofaviy o‘qitishning maqsadi talabalarga yashash, ishlash joyidan qat’iy nazar imkoniyatlar yaratib berishdan

⁴⁷ Davletshin M.G, Do’smuhammedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2007.

iboratdir. Psixologiyada bugungi kunda masofaviy o‘qitish elementlari keng qo‘llanilmoqda. Masofaviy o‘qitishda keys-texnologiyasi, internet-texnologiyasi, telekommunikatsion texnologiya qo‘laniladi. Masofaviy o‘qitishda ma‘lumotlar berishning an‘anaviy vositasi quyidagilardir: maxsus multimediyali darsliklar, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, elektron darsliklar, trening dasturlar, kompyuterli laboratoriya ishlanmalari, audioyozuvlar va boshqalar. Bunday ta‘limda oraliq nazorat, joriy nazorat ham kompyuter texnologiyalari orqali topshiriladi. Yakuniy baholashda an‘anaviy metod qo‘llaniladi. O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchining bir fazani, tezisni bir necha bor qaytarishi ham mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi. Takrorlashning eng yaxshi uslubi quyidagilar: oddiy takrorlash, rezyumeli takrorlash, tizimlashtirilgan takrorlash hisoblanadi. O‘qituvchi nutqidaga ma‘lumotlarni yaxshi o‘zlashtirishda ikki tipdagi qaytarish muhim rol o‘ynaydi. Rezyumeli qaytarish asosiy ma‘lumotni tezis shaklida izohlash hisoblanadi. U ikkinchi darajali ma‘lumotlar orasidan asosiysini ajratib olishga imkon beradi. Qolaversa, fikriy operatsiyalarni tahlil qilishga zamin hozirlaydi. Jadval va sxemalar tuzish tizimlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Qaytarishda vaqtni inobatga olish kerak. Savol-javob ham bilimlarni nazorat qilishning muhim jihati hisoblanadi. Bunda albatta bitta talaba javob bersa, qolganlar uni tinglashi lozim. Savol-javobning boshqa tipi - frontal og‘zaki yoki yozma savol-javob. Bunda eng asosiy talab savollarning aniq bo‘lishidir. Ayrim vaziyatlarda esa mavzuni mustahkamlash uchun ijodiy yondoshuv talab etiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha metodlar kichik guruhlarda qo‘laniladi. O‘qituvchining u yoki bu metodni tanlashi qator omillarga bog‘liq.⁴⁸

- a) ta‘lim dasturining maqsadi,
- b) o‘quv materialining mazmuni,
- c) o‘quv materialiga ajratilgan vaqtga,
- d) o‘quvchi va talabalarning tayyorgarlik darajasiga, e) o‘quv materialining yoritilganlik darajasiga.

Shunday qilib, biz psixologiya o‘qitishning prinsipial yangicha yondashuvi bo‘lgan psixologiya o‘qitish metodikasining metodologik asoslarini ko‘rib chiqdik va bularning barchasi psixologiya kursining tuzilishi va mazmunini tavsiflashga o‘tishga imkon beradi. Shunday qilib, bu vazifalarni amalga oshirish orqali psixologik fanlarni o‘qitishi metodikasi, bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachilarda psixologiyani nazariyasi va amalyotini puxta egallash, boy tarixiy-tarbiyaviy tajribalarni o‘rganib, o‘zlarida zamonaviy kasbiy, ma‘naviy axloqiy, ijodiy-mahsuliy fazilatlarni shakllantirishga amaliy yordam ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2007.
2. Бадмаев М.М. Методика преподавания психологии. – Москва, 2001.

⁴⁸ Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии. Спб: Питер, 2007.

3. Davletshin M.G, Do‘smuhamedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2007.
4. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. – T.:1997.
5. Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии. Спб: Питер, 2007.
6. Селевко Т.К. Современный образовательный технология - М ; “Народный образовани” , 1998 59.
7. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методики. – М.: Академия, 2000. 60.
8. Сластени В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005. 61. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.
9. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс, 63.
10. Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с.



**MODDIY NUQTA DINAMIKASI. TABIATDAGI KUCHLARI VA ULARNING
XUSUSIYATLARINI NOSTANDART TOPSHIRIQLAR ASOSIDA O‘QITISH
METODIKASI (BO‘LAJAK MUHANDISLAR MISOLIDA)**

*Baratov Jo‘raqo‘zi Shukurjon o‘g‘li,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoronti
[Tel: +99891-698-16-15](tel:+99891-698-16-15)
baratovjoraqozi@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada moddiy nuqta dinamikasi va tabiatdagi kuchlarning xususiyatlari haqida muhokama qilinadi. O‘qitish jarayonida nostandart topshiriqlarni qo‘llash orqali bo‘ljak muhandislar uchun muhim nazariy konseptlarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tabiatdagi kuchlar, ularning tarqatilishi, o‘zaro ta’siri va dinamikadagi roli haqida chuqur ma’lumot beriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlar yordamida talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Moddiy nuqta, Dinamika, Tabiiy kuchlar, O‘qitish metodikasi, Nostandart topshiriqlar, Bo‘ljak muhandislar, Pedagogik metodlar, Mustaqil fikrlash, Amaliy ko‘nikmalar

Z.D.Jukovskayaning “Методологические основы и технологии разработки и функционирования комплексной системы контроля качества подготовки специалистов в вузе” nomli doktorlik dissertatsiyasi hamda ilmiy maktabi ishlarida o‘z ifodasini topganligi bilan ajralib turadi [1]. N.A.Sultanovning texnika oliy muassalari uchun tayyorlangan darsliklari tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida umumiy fizika kursining nazariy asoslari bayon etilgan. Muallif bu darslikni tayyorlashda o‘zining oliy ta’lim muassalari talabalarga dars berish jarayonida orttirgan boy tajribasidan foydalandi, Darslik texnika oliy ta’lim muassalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan shu sohada ishlovchi mutaxassislar ham foydalanishi mumkinligi ta’kidlangan [8]. Shu bilan birga o‘quv jarayonini talabaning faolligisiz, uning “Ishlashi”siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mashhur rus o‘qituvchisi K.D.Ushinskiy IX asrda o‘quv jarayoniga quyidagicha ta’rif bergan: “O‘rganish-bu faoliyat va fikrga to‘la mehnat” [2, 349-bet]. Ta’lim jarayonida birinchilardan bo‘lib o‘quv fanlarining ko‘p qirrali o‘zaro bog‘liqligini ochib bergan I.G.Pestalotsi edi. U shunday deya ta’kidlaydi: “O‘z-o‘zidan bir-biriga bog‘langan barcha obyektlarni tabiatda joylashganligi bilan bog‘liq holda ongingizga keltiring” deya ta’kidlaydi, J.A.Komenskiy aytganidek hamda I.G.Pestalotsi shunday deb yozgan edi: “O‘xshash va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan narsalarni ongimizda birlashtirib, shu bilan bizning g‘oyalarimizga

yanada aniqlik kiritish va ularni to‘liq aniqlagandan so‘ng ularni aniq tushunchalarga ko‘tarish” kerak deb bayon qiladi [3, 4]. A.V.Usova “Fizika o‘qitish nazariyasi va metodikasi” asarida shunday yozadi.

Kibernetikada “Topshiriq” tushunchasi muqobillardan birini tanlash yoki berilgan maqsadga mos keladigan ma’lum reaksiyani tanlash zarurati paydo bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Sun’iy intellektni yaratish muammolari bilan shug‘ullanadigan psixologlar uchun yondashuv xarakterli bo‘lib, unga ko‘ra har bir topshiriq mantiqiy ravishda tashkil etilgan (ichki nuqtai nazardan) vaziyat bo‘lib, unda subyektni tashkil etuvchi operatsiyaning ma’lum bir ketma-ketligini o‘rganish kerak. K.Tomashevskiy “*Topshiriq-berilgan maqsadiga tartibli harakat bilan erishish talabidir*” – deya ta’riflaydi. Biroq ko‘rib chiqilayotgan konsepsiya bunday talqini faqat yechimni algoritm lashtirishga mos keladigan muammolar uchun javob beradi hamda integrativ yondashuvning shakllanishiga olib keladi [7]. PhET, Nearpod, Vaskak va Kahoot o‘quv platformalari yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalarning juda ko‘p manbalaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, (elektron)darslik, video va boshqalari mavjud bo‘lib yanada takomillashtirish uchun o‘rganilmoqda. Unda PhET simulyatorlari, Nearpod va Kahoot platformalaridan foydalanishda shaxsiy akkaunt yaratishdan boshlab uning barcha funksiyalari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bu ilovalar yordamida interfaol topshiriqlar, dars rejalari, mustaqil vazifalar, testlar, viktorinalar, dars taqdimotlari, tanlangan mavzular bo‘yicha video kontentlarini, tarqatma materiallar yaratish yoki tayyor o‘quv resurslaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan: A.G.Serdonning “Критическое мышление” ko‘rsatuvida bularning barchasi o‘z aksini topgan [9].

Fizika fanini o‘rgatishda raqamli texnologiya va interfaol metodlar bo‘lajak muhandislarning qiziqishini oshirish va murakkab tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradi. Bu esa dunyoni tushunishda bir qancha qulayliklar yaratadi. Bo‘lajak muhandislarni integrativ yondashuv asosida tayyorlashda o‘qitilib kelayotgan fanlarning bir qanchaligi hamda takliflardan so‘ng kredit modul tizimiga olib o‘tilishi fanlarning qisqarishi mutaxassislik fanlariga yaqin fanlarning o‘qitilishi integratsiya buning yanada takomillashtirishiga olib keldi. Integrativ bog‘lanishning yanada rivojlanganini bir misoli raqamli texnologiyalar fiizikani o‘qitishda simulyatorlar va virtual laboratoriyalar rivojlantirilib kelinmoqda bu esa fizika fanini o‘rganuvchilarga va bo‘lajak muhandislarni yetuk kadr qilib tarbilalashimizda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Quyida eng so‘nggi va samarali interfaol metodlar tavsiya qilinadi:

Phet.colorado.edu saytidagi virtual laboratoriyalar bajarish tushunarli hamda qulay interfeysli hisolanadi. Bitta laboratoriyadan bir nechta maqsadlarda foydalanish mumkin. Phet platformasidagi ba’zi virtual laboratoriya ishlari ba’zi haqiqiy laboratoriya ishlar ustunliklarga ega. Masalan, elektr zanjirlarda zaryadlarning oqimini tasavvur qilish imkonini beradi. Molekulyar fizikaga oid ishlarda gazlarning harakati va gaz holatini tavsiflovchi fizik kattaliklar, T , V , P makrakopik parametrlar kabi kattaliklar yaxshi tasvirlaydi. Ba’zi bir

simulyatsiyalar tovushga ega ekanligi ta’lim oluvchilarning o‘ziga e’tiborini jalb qilishga yordam beradi.

vascak.cz saytini ham o‘ziga yarasha qulayliklari bor. Bu saytdan o‘zbek tilida ham foydalanish mumkin. Virtual laboratoriyalar soni ko‘pligi bilan boshqa platformalardan ajralib turadi. Vascak platformasida fizikaning “Turli muhitlarda elektr toki”, “Maxsus nisbiylik nazariyasi”, “Atom fizikasi”, “Yadro fizikasi” kabi bo‘limlariga doir laboratoriya ishlari keltirilgan. Bu esa vascak platformasining boshqa virtual laboratoriya platformalaridan ustun tomoni hisoblanadi.

Olabs.edu.in platformasi asosan yuqori barcha ta’lim muassasalariga mo‘ljallangan. Fizika kursini o‘qitishda talabalar uchun ham qo‘llash mumkin. Bu platformaning afzallik tomoni shundaki, bu platformada biz virtual laboratoriya ishlarining nazariy qismini o‘qib tanishib chiqishimiz mumkin. Mazkur ish bo‘yicha yo‘riqnoma va video qo‘llanmani ko‘rishingiz mumkin. Bundan tashqari, mavzu yuzasidan bir nechta adabiyotlar bazasiga ega. Mazkur platformada talaba professor-o‘qituvchisining yordamisiz o‘zi mustaqil ishlay oladi. Yana bu platformada mavzu yuzasidan testlar ham mavjud. Bo‘lajaka muhandislarni tayyorlashda “Qayta tiklanadigan energiya milliy laboratoriyasining rasmiy sayti” kabi manbalar raqamli texnologiyalarning rivojlanganligini ko‘rsatadi bu esa talabalarning konikmalarini yanada oshirishga imkon yaratib beradi [10].

Algodoo bu interaktiv fizika simulyatsiya dasturi bo‘lib, u foydalanuvchilarga turli xil fizika hodisalarni yaratish va o‘rganish imkonini beradi. Dastur foydalanuvchilarga 2D muhitida ob‘yektlar yaratish, ularni harakatlantirish va turli xil fizik qonunlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Algodoo o‘quvchilar, muhandislar va oddiy foydalanuvchilar uchun qiziqarli va fodali vosita sifatida xizmat qiladi.

Algodoo yordamida quydagi topshiriqlarni bajarish mumkin:

Ob‘yekt yaratish – foydalanuvchilar turli xil geometrik shakllar va ob‘yektlar yaratish imkonini beradi;

Fizika qonunlarni sinab ko‘rish – og‘rlik, ishqalanish, elastiklik kabi fizikhodisalarni simulyatsiya qilish imkoniga ega;

O‘yin va interaktiv muhitlar yarativ – foydalanuvchilar o‘z o‘yinlarini yoki interaktiv tajribalarni yaratish mumkin;

Ta’lim maqsadi – o‘qituvchilar fizika darslarini qiziqarliroq qilish uchun Algodoo ishlatishlari tavsiya etiladi. Ushbu Algodoo dasturi juda intuitiv interfeysga ega bo‘lib, yangi boshlovchilar uchun ham qulaydir. Bu dastur orqali fizika asoslarini o‘rganishga qiziqarli yondashuvni taqdim etadi.

Phyusics Toolbox Suite – bu mobil qurilmalarda fizikaviy o‘lchovlar va tajribalar o‘tkazishga yordam beradigan dastur bo‘lib, ushbu dastur odatda smartfon yoki planshetning sensorlaridan foydalanib, turli xil fizikaviy parametrlarni masalan, tezlik, tezlanish, burchak tezlik, magnit maydon va bosqa ko‘plab o‘lchovlarni o‘lchash imkonini beradi. Ushbu dastur quydagi funksiyalarni taqdit etadi: Tezlik va tezlanish – qurilmaning GPS va akseleometr

sensorlari yordamida ob‘yekt harakatini o‘lchash; Burchak tezlik – giroskop yordamida ob‘yektning aylanish tezligini aniqlash; Magnit maydon – magnitometr yordamida atrofdagi magnit maydon kuchini o‘lchash; Ovoz va bosim – ovoz darajasi va atrof-muhit bosimi o‘lchash omkoniyatlari amalga oshiriladi. Ushbu dastur foydalanuvchilarga olingan ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilishga ham mikoniyat yaratib beradi, shuningdek turli xil garfiklar orqali natijalarni ko‘rish imkonini beradi. Bu dastur asosan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar yoki fizikaga qiziqqan odamlar ushuni foydaliligi bilan ajralib turadi.

Labster – bu ta’lim maqsadi uchun ishlab chiqilgan interaktiv simulyatsiya platformasi bo‘lib, asosan biologiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar sohalarida laboratoriya tajribalari o‘tkazishga imkon beradi. Ushbu dastur yordamida talabalar virtual laboratoriyalarda tajribalar o‘tkazishlari, nazariy bilimlarni qo‘llay olishlari va ilmiy jarayonni tushunishlariga imkon yaratib beradi.

Lobster asosiy afzalliklari quydagilarni o‘z ichiga oladi: Iteraktiv simulyatorlar – talabalar tur xil simulyatsiyalar orqali tajribalar o‘tkazishlari va tahlil qilishlari mumkin; Qayta ishlanish imkoniyati – talabalar bir necha marta simulyatsiyalarni takrorlash orqali o‘ bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega; Nazariy ta’lim – simulyatsiyalar bilan birga, ta’lim resurslari va nazariy materiallar mavjud bo‘ladi, bu esa tushunishni yaxshilaydi; Muammolarni hal qilish ko‘kinmalari – talabalar hal qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Lobster bugungi kunda ko‘plab universitetlar va ta’lim muassalari tomonidan foydalaniladi va talabalarga zamonaviy ilm-fan usullarini o‘rganish imkonini beradi.


PhyWiz - bu fizikaga oid masalalarni yechishda yordam beruvchi mobil dastur. U foydalanuvchilarga turli xil fizik qonunlari, formulalar va nazariyalarni o‘rganishga, shuningdek, masalalarni yechishda yordam beradi. Dastur ko‘plab fizik mavzularni qamrab oladi, masalan, kinematika, dinamikaga, elektrostatika va boshqa sohalar. Foydalanuvchilar o‘zlarining savollarini kiritishlari va dasturdan yechim olishlari mumkin. PhyWiz, shuningdek, talabalarga va o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida yordam berishi mumkin.

SimPHY - bu fizikaviy jarayonlarni simulyatsiya qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotdir. U fizikaviy modellarni yaratish, simulyatsiya qilish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. SimPHY yordamida foydalanuvchilar turli xil fizikaviy tizimlarni, masalan, mexanik, termodinamik yoki elektromagnit jarayonlarni modellashtirishlari mumkin. Bunday dasturlar odatda ilmiy tadqiqotlar, muhandislik sohalar va ta’limda keng qo‘llaniladi. SimPHY orqali foydalanuvchilar o‘z modellari ustida eksperimentlar o‘tkazishlari, natijalarni vizual tarzda ko‘rishlari va tahlil qilishlari mumkin.

Yana shunday raqamli texnologiyalardan biri TRNSYS - O‘tish tizimlarini modellashtirish dasturi bo‘lib TRNSYS (“Tran-sis” deb talaffuz qilinadi) - bu vaqtinchalik tizimlarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qilish uchun ishlatiladigan juda moslashuvchan grafik asoslangan dasturiy muhit. Simulyatsiyalarning aksariyati issiqlik va elektr energiyasi tizimlarining ishlashini baholashga qaratilgan bo‘lsa-da, TRNSYS transport oqimi yoki biologik jarayonlar kabi boshqa dinamik tizimlarni modellashtirish uchun bir xil darajada

ishlatilishi mumkin ekanligi aytiladi [11]. Bu kabi simulyatorlardan foydalanish bo‘lajak muhandislarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ta’limning hozirgi kunda mustaqil ta’limni rivojlantirish juda ko‘p va dolzarb hisoblanmoqda. Bo‘lajak muhandislarni nostandart topshiriqqa o‘rgatish ilmiy ishimizning dolzarb masalasi. Muhandislik ta’limini uzluksizligi rivojlantirilib kelinmoqda shu asosida pedagog va olimlarning qilingan ishlarni o‘rganish hamda fanning o‘qitish texnologiyasini o‘rganildi. Fizika fanining “Dinamika bo‘limi”ni o‘qitish juda qiziq shunki mavzumizning o‘zi ham tabiatdagi kuchlar degan jumla mavjud bu orqali Nyuton qonunlarini hammamiz yaxshi bilamiz kundalik vaziyatlarda ko‘p duch kelamiz faqat harakatlarimizda bu qaysi qonunning anglashimizga imkon beruvchi tushunchalarni yetkazish zarur.

1-topshiriq: $M=9$ kg massali aravacha $v_0=2$ m/s doimiy tezlik bilan harakatlanadi. Uning boshiga uning o‘lchamlaridan ancha kichik $m=1$ kg massali jism qo‘yiladi. Jism va aravacha orasidagi ishqalanish ko‘rsatkichi $0,6$ ga teng bo‘lsa, jism aravachadan tushib ketmasligi uchun zarur bo‘lgan aravacha uzunligini toping. (m) Aravacha va yer orasida ishqalanish yo‘q deb oling. $g=10$ m/s². (1-rasmga qarang)



1-rasm.

Yechilishi: Dastlab aravacha va jismga ta’sir etuvchi kuchlarni yozsak. Jism uchun ishqalanish aravacha yo‘nalishida, aravacha uchun esa tezligiga qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Nyutonning ikkinchi qonunini qo‘llaymiz.

$$\text{Aravacha uchun } MA = F_{ishq} = \mu N = \mu mg \rightarrow A = \mu g \frac{m}{M};$$


$$\text{Jism uchun: } ma = F_{ishq} = \mu N = \mu mg \rightarrow a = \mu g \frac{m}{m} = \mu g;$$

$$\text{Aravacha uchun tezlik tenglamasi: } v = v_0 + At; \text{ jism uchun esa } u = at$$

Ularning tezligi tenglashsa bir sistema sifatida harakat qila boshlaydi va jism aravacha ustida sirpanmaydi.

$$v = u \rightarrow t = \frac{v_0}{A + a}; \text{ vaqtning bu qiymatini tezlik tenglamalaridan ixtiyoriy biriga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:}$$

$$v = u = \frac{a v_0}{A + a}$$

**1-rasm.**

Aravachaning ko‘chishi jism ko‘chishidan farq qiladi. ularning farqi aravacha uzunligidan katta bo‘la olmaydi. Aks holda, jism aravacha ustidan tushib ketadi.

$$S_1 - S_2 \leq l;$$

Bosib o‘tilgan masofalar uchun $S_1 = \frac{g_0^2 - g^2}{2A}$; $S_2 = \frac{u^2}{2a}$ formulalarni hamda (1) ifodadan quyidagilarga ega bo‘lameiz:

$$S_1 = \frac{(A + 2a)g_0^2}{2(A + a)^2}; \quad S_2 = \frac{a g_0^2}{2(A + a)^2}$$



Bu ifodalarni (2) ga qo‘ysak:

$$\frac{g_0^2}{2(A + a)} \leq l \quad \text{yoki} \quad l \geq \frac{g_0^2}{2\mu g \left(\frac{m}{M} + 1 \right)} \quad \text{ga ega bo‘lamiz;}$$

$$l \geq \frac{2^2}{2 \cdot 0,6 \cdot 10 \left(\frac{1}{9} + 1 \right)} = \frac{4 \cdot 9}{2 \cdot 6 \cdot 10} = 0,3m$$

Hisoblash:

Ushbu masala mexanika bo‘limiga tegishli bo‘lib kinematika va dinamika mavzulariga oid va shu bilan birga integratsiyalashgani yechim orqali ko‘rishimiz mumkin.



b)

2-rasm. a, b-rasmlarda moddiy nuqta dinamikasiga oid tushunchalarni o‘rganish qulay

Sinov-xato

Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri sinov-xatolikdir. Agar bilim va tajriba yetishmasa, tadqiqot va o‘rganish uchun yetarli vaqt bo‘lmasa, muammo yaxshi aniqlanmagan, cheklanmagan yoki ko‘p o‘ylanmagan bo‘lsa, ushbu usul bilan yechishga harakat qilinadi. Uning ma‘rifiy ahamiyati yo‘q. Biroq, agar bir muammoning yechimini sinash-xato qilish orqali izlash kerak bo‘lsa, mumkin bo‘lgan yechimlar orasidan eng aniqini tanlash yo‘lini ham o‘rgatish kerak bo‘ladigan usullardan biridir.

Xulosa

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarga nostandart topshiriqlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish o‘qitilayotgan fanlarning fizika fani misolida ko‘rish fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash hattoki horijiy tillar bilan ham bog‘liqlikni moqalamizda o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жуковская З.Д. Методологические основы и технологии разработки и функционирования комплексной системы контроля качества подготовки специалистов в вузе: Дисс... докт. пед. наук, – М.: Моск. пед. гос. ун-т им, 1994. – 401 с.
2. Ушинский К. Д. Собрание сочинений / К.Д.Ушинский / Гл.ред.А.М. Еголин / – М.:, 1950. -779 с.
3. Песталоцци И.Г. Избранные педагогические сочинения /И.Г.Песталоцци. – М.: 7 Издательство АПН РСФСР, 1963., 278 с.
4. Безрукова В. С. Интеграционные процессы в педагогической теории и практике. Екатеринбург : Деловая книга, 1994.-152 с.
5. I.Karimov, M.Ibadullayev, B.Abdullayev. - Elektrotexnikaning nazariy asoslaril Darslik. T.: <<Fan va texnologiya>> 2017 y. 300 bet.
6. Усова А.В., Орехов В. П., Каменецкий С.Е. Методика преподавания физики в 7–8 классах средней школы для учителя: Пособие.; Под ред. А. В. Усовой. – М.: Просвещение, 1990.
7. Нестандартные проблемы физики. Для уроков естествознания // А.И. Семке. – М.: Ярославль, Академия развития, 2007. – 320 с.
8. N.A.Sultanov. Fizika kursi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T., «Fan va texnologiya», 2007. 304 bet.
9. Сердон А.Г. Критическое мышление. You tube 2020 г.
10. Официальный сайт Национальной лаборатории возобновляемой энергии США. [Электронный ресурс]. – 2012. – Режим доступа: <http://www.nrel.gov/gis/about.html>.
11. TRNSYS – The Transient System Simulation Program. [Электронный ресурс]. – 2014. – Режим доступа: <http://sel.me.wisc.edu/trnsys/>.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

O‘ZBEKISTON YOSHLARI – GLOBALLASHUV SAHNASIDA MILLIY G‘URUR TIMSOLI

Xodjayev Fatxulla Ubayevich

O‘zDSMI dotsent

xodjayev61@inbox.ru

Musinov Ulug‘bek

O‘zDSMI, katta o‘qituvchi

ulugbek.musinov1995@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan uchrashuvning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Unda davlat yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlari: ta’lim, innovatsiya, bandlik, startaplar, vatanparvarlik va xalqaro e’tirof kabi sohalar doirasida olib borilayotgan islohotlar yoritiladi. Yoshlarning intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantirish orqali Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishga qaratilgan strategik yondashuvlar ilmiy-publitsistik asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, ta’lim, innovatsiya, bandlik, startaplar, patriotizm, sun’iy intellekt, raqamli avlod, xalqaro e’tirof.

Kirish: Yoshlar har bir davlatning ertangi istiqbolini belgilovchi hal qiluvchi ijtimoiy qatlam hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilayotgani, jumladan, 30-iyun sanasining "Yoshlar kuni" sifatida e’tirof etilishi ham bejiz emas. Bu bayram yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish kabi yuksak maqsadlar bilan bog‘liq. Mazkur maqolada 2025-yil 30-iyun kuni bo‘lib o‘tgan Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligidagi yig‘ilish misolida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar ta’limi, bandligi, innovatsion loyihalarda ishtiroki va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari asosida O‘zbekistonning globallashuv davridagi yondashuvi ko‘rib chiqiladi.

Metodologiya: Tadqiqotda quyidagi uslublardan foydalanildi.

Analitik usul: Prezident nutqlari, rasmiy hujjatlar va davlat statistikasi tahlil qilindi;

Solishtirma tahlil: O‘zbekiston yoshlar siyosati xalqaro tajribalar bilan taqqoslandi;

Sifatli tahlil: Yoshlarning turli sohalarida erishayotgan yutuqlari va ularning jamiyatdagi roli o‘rganildi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, hukumat portalidagi ma’lumotlar hamda davlat nashrlaridan olindi.

Natijalar

1. Yoshlar ta’limi va kasbiy tayyorgarligi; 2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlari “TOP-10”, “TOP-100” va “TOP-300” reytingidagi oliygohlarda tahsil olayotgani e’tirof etildi. “Bir million dasturchi” loyihasi orqali 325 mingdan ortiq yosh axborot texnologiyalari sohasida tayyorlandi. 150 ming yosh xalqaro til sertifikatlarini qo‘lga kiritdi.

2. Bandlik va iqtisodiy imkoniyatlar; 8 300 ta loyiha orqali 292 ming ish o‘rni yaratildi. Yana 500 ming ish o‘rnini yaratishga qaratilgan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari doirasida minglab yoshlar daromadli faoliyat bilan ta’minlanmoqda.

3. Innovatsiya va startaplar; Startap loyihalar uchun 145 million dollarlik venchur kapital ajratildi. “Raqamli avlod qizlari” tanlovida 120 ta startap saralanib, yildan-yilga ko‘rsatkichlar oshmoqda. Har bir maktabda “mohirlik va biznes soati” joriy etilmoqda.

4. Xalqaro e’tirof va siyosiy faollik; O‘zbekiston “Yoshlar – 2030” strategiyasini samarali amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Yosh rahbarlar soni 65 foizga yetdi, “Kelajak liderlari” dasturi orqali 100 nafar yetakchi tayyorlanmoqda.

Munozara: Yuqoridagi natijalar mamlakatda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro maydonda ham e’tirof etilayotganini ko‘rsatmoqda. Yoshlarning ta’limga bo‘lgan keng kirish imkoniyatlari, xorijiy tillarni o‘zlashtirish darajasi, startaplar va texnologik loyihalardagi ishtiroki — bularning barchasi yurtimizda yoshlar siyosati samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi.

Prezident nutqida aytilganidek, "O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘taruvchi oltin avlod" sifatida yoshlar ijtimoiy-ma’naviy va iqtisodiy yuksalishning bosh omiliga aylanmoqda. Ular texnologiyalar, fan, sport, san’at va davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlarda sezilarli iz qoldirishmoqda. Shuningdek, yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy ong va madaniyatni mustahkamlash borasidagi faoliyat ham tizimli yo‘lga qo‘yilgan. 30-iyun – Yoshlar kuni yurtimizda yosh avlodning jamiyatdagi tutgan o‘rni va rolini e’tirof etish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda kelajak bunyodkorlari sifatida shakllantirish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biridir. Bu sana yoshlarning ilm-fan, san’at, sport, innovatsiyalar kabi muhim yo‘nalishlardagi ishtirokini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat hayotiga faol jalb etish maqsadida nishonlanadi. Shu bilan birga, mamlakat tayanchi bo‘lgan yoshlarning erishayotgan yutuqlarini qadrlash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda ushbu kunning ramziy va amaliy ahamiyati beqiyosdir.

Mazkur bayramning asos solinishi esa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida e’lon qilingan qarorga borib taqaladi. Aynan shu tarixiy voqeada davlatimiz rahbari ilk bor 30-iyunni “Yoshlar kuni” sifatida belgilash tashabbusini ilgari surgan edi. Bu qaror nafaqat yoshlar siyosatining institutsional shakllanishi, balki yurtimizda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishning muhim bosqichi sifatida tarixga muhrlangan.

2025-yil 30-iyun kuni mamlakatimizda keng nishonlanayotgan Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan uchrashuv, nafaqat bayramona ruhda, balki yurtimiz yoshlariga bo‘lgan yuksak e‘tibor va ishonchning yorqin ifodasiga aylandi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida O‘zbekiston yoshlarini samimiy muborakbod etib, ularning jamiyatdagi o‘rni, imkoniyatlari va salohiyatiga bo‘lgan mehrini chuqur ifoda etdi. Bu e‘tibor, aslida, yoshlar taqdiriga daxldorlikning oliy namunasi, ularni mamlakat taraqqiyotining bosh omili sifatida ko‘rayotgan davlat siyosatining uzviy davomi bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda belgilangan bu tarixiy tashabbus natijasida O‘zbekistonda yoshlar siyosatiga doir keng ko‘lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar samarali natijalar berayotgani e‘tirof etildi. Jumladan, davlat rahbari raisligida o‘tgan navbatdagi uchrashuvda ta‘kidlanganidek, yoshlarimizning jahon miqyosida erishayotgan yutuqlari milliy ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimida boshlangan chuqur o‘zgarishlarning samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, o‘tgan yili O‘zbekiston yoshlari dunyodagi eng nufuzli oliygohlar – “TOP-500” talik reytingga kirishda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 1-o‘rinni egalladi. Ayni paytda 30 nafar yosh yurtdoshimiz “TOP-10” talik universitetlarda, 500 nafardan ortig‘i “TOP-100” darajasidagi ta‘lim maskanlarida, yana 1 ming 500 nafari esa “TOP-300” qatoridagi universitetlarda tahsil olayotgani bejiz emas. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimiz yoshlari nafaqat bilimli, balki raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan kuchga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi.

Yoshlarimiz nafaqat ta‘lim va ilm-fan, balki san‘at va sport sohalarida ham xalqaro miqyosda o‘z iqtidor va salohiyatini namoyon etmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yosh sportchilarimizning yuksak g‘alabalari, yosh san‘at iqtidorlarining xalqaro sahnalardagi muvaffaqiyatlari O‘zbekiston yoshlarining har tomonlama kamol topayotganini ko‘rsatmoqda.

Yaqinda futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritgani esa butun jamiyatimizda ulkan faxr va g‘urur uyg‘otdi. Bu g‘alaba faqatgina sport yutug‘i emas, balki butun bir avlodning orzulari va intilishlari ro‘yobga chiqayotganining ramziy dalilidir. Shubhasiz, bunday muvaffaqiyatlar orqasida davlat tomonidan yaratilayotgan zamonaviy infratuzilma, kuchli sport murabbiylari maktabi va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan izchil siyosat turibdi.

Prezident tomonidan bayon etilgan fikrlar, ayniqsa yoshlar qalbida kuchli ruhiy uyg‘onish uyg‘otdi. Uchrashuv davomida ilgari surilgan quyidagi so‘zlar esa zamonaviy O‘zbekiston yoshlari zimmasidagi mas‘uliyat va ulkan imkoniyatlarni aniq ifodalab berdi:

“Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz.”

Ushbu da’vat faqat e’tirof emas, balki har bir yosh yurtdoshimiz uchun tarixiy chaqiriq va vijdoniy mas’uliyatdir. Bugun ta’limda, ilmda, innovatsiyada, sportda va san’atda erishilayotgan yutuqlar – aynan shu oltin avlodning hayotda o‘z o‘rnini topayotganining isbotidir. Davlat rahbarining bu so‘zlari yosh avlodga yuksak ishonch bildirishi bilan birga, ularni kelajak sari qat’iyat bilan intilishga undovchi ma’naviy yo‘l xaritasidir.

Yosh avlodga zamonaviy va sifatli ta’lim berish, xorijiy tillar va kasb-hunarlarini chuqur egallashlariga imkon yaratish, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta’minlash borasidagi islohotlar zamon talabidan kelib chiqib, yangi yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish orqali yoshlar hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur sharoitlar yaratilib bormoqda.

Bugungi yoshlar uchun ta’lim olish bilan birga, zamonaviy kasblarni o‘zlashtirish, global bozor talablari asosida raqobatbardosh mutaxassisga aylanish imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida hozirgacha 325 mingdan ortiq yoshlar zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitildi. Bu ko‘rsatkich nafaqat raqamli iqtisodiyot sari dadil qadam, balki yoshlar salohiyatini strategik rivojlanish omiliga aylantirishdagi muhim qadamdir.

Xorijiy tillarni egallash masalasida ham yuksak natijalar kuzatilmoqda. O‘tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qiz xalqaro miqyosda tan olingan til sertifikatlariga ega bo‘ldi — bu 2023-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2 baravar ko‘pdir. Bu kabi yutuqlar yoshlarga nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozoriga chiqish eshiklarini ochmoqda.

Yoshlar bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida olib borilayotgan ishlarga kelsak, 2025-yilda 35 milliard dollarlik 8 300 ta loyiha doirasida 292 mingta ish o‘rni yaratilayotgani alohida e’tiborga loyiq. Shuningdek, qo‘shimcha 500 ming ish o‘rnini yaratishga qaratilgan, umumiy qiymati 83 milliard dollarlik yangi loyihalar ham rejalashtirilgan. Bu esa “yashil” iqtisodiyot, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik kabi istiqbolli sohalarida minglab yangi kadrlarga ehtiyoj ortib borayotganini anglatadi. Davlat siyosatining zamonaviy iqtisodiy yo‘nalishlarga uyg‘unligi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Davlatimiz rahbari Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yosh avlod uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Bu tashabbuslar nafaqat bayonot, balki real mexanizmlar, aniq moliyaviy manbalar va zamonaviy yondashuvlarga asoslangan dasturlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz farmoni asosida tashkil etilgan Beruniy nomidagi xalqaro maktabda 8-sinf bitiruvchilari orasidan tanlab olingan 60 nafar iqtidorli o‘quvchi uch yo‘nalishda chuqurlashtirilgan ta’lim oladi. Bu – iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularni tizimli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan zamonaviy modelning amaliy ifodasidir.

Bundan tashqari, milliy dastur doirasida har yili 3 ming nafar eng salohiyatli o‘quvchilarni Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi nufuzli universitetlarga tayyorlash rejalashtirilmoqda.

E‘tiborga molik jihati shundaki, bu kvotaning kamida 300 nafari ehtiyojmand oilalar farzandlariga ajratiladi, bu esa ta‘limdagi ijtimoiy tenglikni ta‘minlashda muhim qadamdir.

Xorijiy oliygohlarga kirgan, ammo 100 foizli grantga ega bo‘lmagan yoshlar uchun endilikda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali yangi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi joriy qilinadi. Shuningdek, banklar tomonidan “TOP-300” talik oliygohlarga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit ajratilishi belgilandi.

Bugungi kunda sun‘iy intellekt sohasida yetakchi avlodni tarbiyalash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda “Bir million sun‘iy intellekt yetakchilari” dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Massachusetts texnologiya institutining sun‘iy intellekt o‘quv dasturlari asosida informatika bo‘yicha darslik va metodikalar yangilanadi. Informatika fani o‘qituvchilari esa Yangi O‘zbekiston universitetida qayta tayyorlanadi.

Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, yoshlar orasida biznes va startap loyihalarini shakllantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli avlod qizlari” tanlovi doirasida 7 ming nafar o‘quvchi va talabadan 120 ta startap loyihasi saralandi, bu yil bu ko‘rsatkich 50 ming nafargacha kengaytiriladi. Startaplarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun 145 million dollar venchur kapital yo‘naltirilgan bo‘lib, bu mablag‘ 1 milliard dollargacha oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, har bir maktabda “mohirlik va biznes soati” joriy qilinadi. O‘quvchilarning g‘oyalarini startapga aylantirish maqsadida 100 milliard so‘mlik grantlar yo‘naltiriladi. Oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovi g‘oliblari oliygoh jamg‘armasidan 300 million so‘mgacha grant bilan mukofotlanadi.

Innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy qilish uchun IT-park va Innovatsiya agentligi hamkorligida tadqiqot va taraqqiyot markazi ochiladi. Bu markazda startap loyihalarini prototipga aylantirish xarajatlari 50 ming dollargacha “Yoshlar venchur” jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

Bundan tashqari, sanoat, servis, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan yoshlar uchun kasbiy rivojlanish bo‘yicha respublika miqyosidagi musobaqalar tashkil etiladi. Tarmoq rahbarlari esa o‘z tizimidagi 100 nafar iqtidorli yoshni har yili xorijiy stajirovkaga yuboradi. Buning uchun har bir tarmoq 10 milliard so‘mdan mablag‘ ajratadi.

Yoshlarning bandligini ta‘minlash yo‘lida “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari muhim rol o‘ynaydi. Aloqabank va Milliy bank bu loyihalar doirasida jami 240 ming nafar maktab va oliygoh bitiruvchisini daromadli faoliyat bilan ta‘minlashga mas‘ul hisoblanadi.

Yil yakunigacha bandlik, savdo va moliya tashkilotlari hamkorligida ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog‘lovchi maxsus platforma ishlab chiqiladi. Shuningdek, ta‘lildagi 3 million nafar yoshni vaqtincha, malaka talab qilmaydigan faoliyatga jalb qilish maqsadida “Harakatda daromad” elektron tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

So‘nggi yetti yil ichida davlat boshqaruvida ham yoshlar ulushi sezilarli darajada oshdi. 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar soni 37 foizdan 65 foizgacha ko‘tarildi. Endilikda “Kelajak liderlari” dasturi orqali har yili 100 nafar salohiyatli yosh Davlat boshqaruvi akademiyasida tahsil olib, vazir va hokimlarga biriktiriladi, xorijiy stajirovkalarda qatnashadi va rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida shakllantiriladi.

Madaniyat va ma‘naviyat borasida ham yurtimizda yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. G‘olib bo‘lgan yosh ijodkorlar chekka hududlardagi maktablarda chiqishlar qiladi, viloyat hokimliklari esa ular uchun maxsus avtobuslar ajratadi. “Iqtidor” tanlovlari g‘oliblari san‘at oliygohlariga imtiyozli qabul qilinadi, viloyat bosqichi g‘oliblari esa musiqa va san‘at maktablarida bepul tahsil olish huquqiga ega bo‘ladi.

Yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularning ma‘naviy-ruhiy yetukligi, vatanparvarlik tuyg‘usi, ijtimoiy mas‘uliyatini mustahkamlash masalasi ham doimiy e‘tiborda. Aynan shu maqsadda poytaxtimizdagi “G‘alaba bog‘i”da “Millat fidoyilari” monumenti barpo etildi. Bu muqaddas maskan – yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qilgan 196 nafar jasur yurtdoshimiz xotirasiga bag‘ishlangan ramziy markaz bo‘lib, yoshlar qalbida Vatanga sadoqat va mardlik tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Uchrashuvda bu boradagi sa‘y-harakatlar, ayniqsa, yoshlarni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni ijtimoiy ongli va ma‘rifatli etib tarbiyalash zarurligi alohida ta’kidlandi.

Bugungi O‘zbekiston yoshlariga qaratilayotgan bunday e‘tibor va ishonch xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz BMT tomonidan belgilangan “Yoshlar – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan eng faol 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Shuningdek, yoshlar taraqqiyot indeksida O‘zbekiston eng tez rivojlanayotgan davlat sifatida e‘tirof etildi. Bu xalqaro tan olinuvchanlik – mamlakat ichkarisida olib borilayotgan real va tizimli siyosat samarasi ekani shubhasizdir.

Bu e‘tibor va e‘tirof yoshlar hayotining har bir sohasida o‘z ifodasini topmoqda. Buxoro shahrining “Turkiy dunyo yoshlari poytaxti”, Toshkentning “MDH yoshlari poytaxti” maqomini olishi ham O‘zbekistonning xalqaro yoshlar diplomatiyasida tutgan o‘rnini ko‘rsatadi.

Ayni kunlarda o‘tkazilayotgan Global yoshlar festivali esa bu yuksak e‘tirofning mantiqiy davomi bo‘lib, nafaqat yurtimiz balki butun dunyo yoshlari uchun muloqot, tajriba almashish, hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiruvchi global platformaga aylanyapti.

Yoshlar – bugunning ishonchli tayanchi, ertaning munavvar bunyodkorlaridir. Ular nafaqat ta’limda, sportda, san’atda, balki jamiyatning barcha qatlamlarida o‘z bilim va iqtidori bilan yurt sha’nini yuksaltirmoqda. Davlatimiz rahbari ham yoshlarning bu yuksak sa‘y-harakatini chuqur e‘tirof etar ekan, ularning har bir yutug‘i xalqimiz faxriga aylanganini alohida ta’kidladi:

“Sizlarning har bir yutug‘ingiz – butun xalqimizning yutug‘idir. Azmu shijoatingiz, sog‘lom dunyoqarashingiz, baxtu iqbolingiz – millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar,

yaqinlaringizning ham baxtu saodatidir.” Bu so‘zlar – Prezidentimizning yosh avlodga bo‘lgan qat’iy ishonchi, xalqimizning esa yoshlarga bildirilgan umidi, orzusi va iftixoridir. Bugun tarix sahnasi yangi avlodga eshik ochmoqda. Yuksak maqsadlar sari intilayotgan O‘zbekiston yoshlari esa bu ishonchni oqlashga, Yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini yaratishga tayyor va qodirdir

Bugungi O‘zbekiston yoshlariga qaratilayotgan yuksak e’tibor, keng imkoniyatlar va tizimli qo‘llab-quvvatlash siyosati nafaqat milliy taraqqiyot strategiyasining, balki davlat siyosatining muhim ustuniga aylangan. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan har bir tashabbus – yoshlarning intellektual, ma’naviy va kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Yoshlar nafaqat ilm-fan va ta’lim sohasida, balki sport, san’at, texnologiyalar, tadbirkorlik va davlat boshqaruvi kabi sohalarda ham faol ishtirok etayotgan, xalqaro maydonlarda O‘zbekiston nomini munosib himoya qilayotgan bunyodkor kuch sifatida shakllanmoqda. Ular — Yangi O‘zbekistonning real qiyofasi va istiqbolini belgilovchi oltin avloddir.

Yosh avlodning har bir yutug‘i jamiyatimizning ma’naviy va iqtisodiy yuksalishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, ularni tarbiyalash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan siyosat – xalqning ertangi taqdiri, davlatning strategik istiqboli uchun eng muhim kafolatdir.

Bugun tarix sahnasi yoshlar uchun ochiq. Bu ishonch va imkoniyatni to‘laqonli oqlash esa har bir fidoyi, vatanparvar, bilimli va bunyodkor yoshning burchidir. Zero, Prezidentimiz aytganidek, “Sizlarning har bir yutug‘ingiz – butun xalqimizning yutug‘idir”, degan so‘zlar ularga bildirilgan yuksak ishonchning eng yorqin timsolidir.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlat strategiyasining asosiy ustunlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini ta’minlash, shuningdek, raqamli dunyo va globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga qaratilgan. Maqolada ko‘rib chiqilgan misollar O‘zbekiston yoshlarining milliy g‘urur timsoliga aylanganini va ularning yutuqlari butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini yaratishda yosh avlod hal qiluvchi rol o‘ynayotganini anglatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev, SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. Mirziyoyev, SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
4. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Nematov, A. Yoshlar siyosatining dolzarb masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

6. G‘ulomov, J. va boshqalar. O‘zbekiston yoshlari: istiqbol va imkoniyatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Mardonov, M. Zamonaviy ta’lim tizimi va yoshlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
8. Rasulov, B. Innovatsion rivojlanish va yoshlar startaplari. – Ilmiy maqola, “Yosh olim” jurnali, 2023, №2.
9. <https://president.uz/oz/lists/view/8278> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sahifasi.
10. <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/33187> – Hukumat portali: Yoshlar siyosatiga oid yangiliklar.



MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Allanazarov Qo'ldosh Olimovich

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiya
universiteti assistenti*

E-mail: quldosh0616@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Materiallar qarshiligi” fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar orqali interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish hamda masofaviy o'qitish sharoitida samarali qo'llash masalalari tahlil etiladi. An'anaviy dars jarayonlari bilan taqqoslaganda, interfaol metodlar talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli platformalardan foydalanish, virtual laboratoriyalar, video darslar va muammoli topshiriqlar asosida o'qitishning afzalliklari yoritilgan. Eksperimental guruhlarida o'tkazilgan kuzatuvlar asosida talabalarning fanni o'zlashtirish darajasiga raqamli-interfaol yondashuvning ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, materiallar qarshiligi, texnik fanlar, STEAM, dars metodikasi, o'quv motivatsiyasi, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, virtual laboratoriya

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ О СОПРОТИВЛЕНИИ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация: В статье анализируются вопросы сочетания интерактивных методов с цифровыми технологиями в преподавании предмета «Сопротивление материалов» и их эффективное использование в дистанционном обучении. По сравнению с традиционными процессами обучения интерактивные методы повышают интерес учащихся к уроку, помогают им глубже освоить предмет, служат формированию практических навыков. Выделены преимущества использования цифровых платформ, виртуальных лабораторий, видеоуроков и проблемного обучения. На основе наблюдений, проведенных в экспериментальных группах, анализируется влияние цифрово-интерактивного подхода на уровень освоения предмета учащимися.

Ключевые слова: интерактивное образование, сопротивление материалов, технические науки, STEAM, методика преподавания, мотивация обучения, цифровые технологии, дистанционное обучение, виртуальная лаборатория

USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SCIENCE OF RESISTANCE OF MATERIALS

Abstract: This article analyzes the issues of combining interactive methods with digital technologies in teaching the subject "Resistance of Materials" and their effective use in distance learning. Compared with traditional teaching processes, interactive methods increase students' interest in the lesson, help them to master the subject more deeply, and serve to form practical skills. The advantages of using digital platforms, virtual laboratories, video lessons, and problem-based teaching are highlighted. Based on observations conducted in experimental groups, the impact of a digital-interactive approach on the level of students' mastery of the subject is analyzed.

Keywords: interactive education, resistance of materials, technical sciences, STEAM, teaching methodology, learning motivation, digital technologies, distance learning, virtual laboratory

Kirish Materiallar qarshiligi fani muhandislik va texnik sohalarda o‘qitiladigan muhim fundamental fanlardan biridir. Ushbu fan konstruksiyalarni hisoblash, mustahkamlikni aniqlash va xavfsizlikni ta’minlashda asosiy o‘rinni egallaydi. An’anaviy ta’lim yondashuvlari ko‘pincha nazariyaga tayanadi va talabalar o‘rtasida amaliy tushunish yetishmasligi kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqib, interfaol metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida ushbu fanni talabalarga an’anaviy usullar bilan o‘rgatish yetarli samara bermayapti. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’lim shaklining keng tarqalishi bu fanni o‘qitishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalar, video darslar, test tizimlari va simulyatorlar yordamida talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu sababli interfaol metodlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish aktual ilmiy-amaliy masalalardan biridir.



Interfaol metodlar – bu talabani faollikka, mustaqil fikrlashga va muammoli vazifalarni hal qilishga undaydigan yondashuvlar majmuidir. Bunday metodlar nafaqat bilim berish, balki kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Usullari: Tadqiqot Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalari universitetining qurilish va irrigatsiya fakultetida 2-kurs talabalar ishtirokida o‘tkazildi. 2024–2025 o‘quv yilining birinchi semstri davomida ikki guruhda eksperiment tashkil qilindi. A-guruhda an’anaviy metodlar (ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar) asosida o‘qitish olib borildi, B-guruhda esa interfaol metodlar – klaster, “aql hujumi”, “blits-so‘rov”, rolli o‘yinlar, loyihaviy ta’lim, laboratoriya tajribalari qo‘llanildi. Har ikki guruhda o‘quv dasturi bir xil bo‘lib, dars natijalari va talabalar baholari tahlil qilindi. Shuningdek, talabalar bilan so‘rovnoma va intervyular o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar: Eksperiment natijalariga ko‘ra, interfaol-raqamli metodlar qo‘llanilgan B-guruhdagi talabalar o‘rtacha baholari 15–20% ga yuqori bo‘ldi. Ular murakkab formulalarni tushunishda, kuchlanish va deformatsiyalarni tasavvur qilishda sezilarli yaxshilanishga erishdilar. Talabalar tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalarda quyidagilar aniqlangan:

So‘rovnomada B-guruh talabalarining 87% interfaol metodlar darsni yanada qiziqarli qilganini, 78% esa fan bo‘yicha mustaqil ishlashga qiziqishi oshganini bildirgan. Bundan tashqari, 92% talaba virtual laboratoriyalar orqali formulalarning amaliy mohiyatini tushunishga erishgan; 85% talaba guruhli ishlash va muhokamalar orqali o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirgan. 76% talaba o‘zlashtirish darajasi va darsga motivatsiyasi oshganligini bildirgan.

Munozara: Tadqiqot interfaol metodlar “Materiallar qarshiligi” kabi murakkab texnik fanlarni o‘qitishda ham samarali ekanligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuvlar orqali talabalar mavzuni chuqurroq anglaydi, formulalarni yodlash emas, balki tushunish asosida amaliyotga tadbiq etishni o‘rganadi. Shuningdek, guruhli ishlash, muammoli vazifalarni hal qilish, loyiha yaratish kabi metodlar o‘zaro hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics) asosidagi o‘quv yondashuvi fanni ijodiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Fani raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali interfaol yondashuvni yanada samaraliroq qilish mumkin. Masofaviy yoki gibrid o‘qitishda ayniqsa, dinamik simulyatsiyalar va vizualizatsiya orqali murakkab tushunchalar aniqroq anglashiladi, o‘quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyati oshadi, darsdan tashqari vaqtni ham samarali o‘qishga jalb etish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, raqamli platformalarda avtomatik tahlil qilish imkoniyati, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida tezkor muloqot o‘rnatilishi, o‘quv motivatsiyasining oshishi kabi afzalliklar mavjud.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Materiallar qarshiligi” fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars sifatini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlashi va amaliy bilimlarini rivojlantiradi. Bu yondashuv texnik ta’limda ta’lim samaradorligini oshirish va muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Interfaol metodlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, ayniqsa masofaviy ta’lim sharoitida, yuqori samaradorlik beradi. Bunday yondashuv texnik fanlarning raqamli transformatsiyasini

ta'minlab, zamonaviy muhandis kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida ushbu metodlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, masofaviy o'qitishda ham samarali qo'llash yo'llarini ishlab chiqish va sun'iy intellekt asosida adaptiv o'qitish tizimlari yaratish, AR/VR texnologiyalari yordamida fanlarni 3D muhitda o'qitish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов М.Р., Турсунов И.Н. "Материаллар қаршилиги" – Тошкент: ТДТУ, 2022.
2. Назаров А.Н., Раҳмонов Б.Н. "Материаллар қаршилиги. Назарий ва амалий асослар" – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021.
3. Xalilova Z.A., To'xtayev A.X. "Ta'limda interfaol metodlar" – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli qarori, 20.04.2017 y. "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida".
5. Jononov U.M. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari" – Andijon: AMTI, 2019.
6. Dabbagh, N., & Bannan-Ritland, B. (2005). Online Learning: Concepts, Strategies, and Application. Pearson Education.
7. Mayer, R.E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Bonwell, C.C., & Eison, J.A. (1991). Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1.
9. Prince, M. (2004). Does Active Learning Work? A Review of the Research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223–231.
10. Garrison, D.R., Anderson, T., & Archer, W. (2000). Critical Inquiry in a Text-Based Environment: Computer Conferencing in Higher Education. The Internet and Higher Education, 2(2–3), 87–105.
11. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. <https://phet.colorado.edu/>
12. Virtual Labs - Amrita Vishwa Vidyapeetham. <https://vlab.co.in/>
13. Abdukarimov, R. A., & Rasulov, D. T. (2021). "Materiallar qarshiligi" fanini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish. Oliy ta'lim muassasalari uchun ilmiy-uslubiy to'plam. – Toshkent: TDTU nashriyoti.
14. Normurodova, D. M. (2022). Interfaol ta'lim metodlari: nazariya va amaliyot. – Samarqand: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
15. Azizov, K. N., & Yusupov, A. B. (2020). Muhandislik fanlarini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar. – Toshkent: TATU nashriyoti.
16. Brown, P., Roediger, H. L., & McDaniel, M. A. (2014). Make it Stick: The Science of Successful Learning. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

17. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2012). Personal Learning Environments, social media, and self-regulated learning: A natural formula for connecting formal and informal learning. *The Internet and Higher Education*, 15(1), 3–8. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2011.06.002>
18. OECD. (2021). *The Impact of COVID-19 on Education: Insights from Education at a Glance 2021*. <https://www.oecd.org>
19. Umarova, N. R. (2023). Masofaviy ta’limda muhandislik fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari. “Innovatsion ta’lim” jurnali, №2(11), 42–47.
20. Jonassen, D. H. (1999). Designing constructivist learning environments. In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional-design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory* (Vol. II). – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
21. PhET Interactive Simulations Project. University of Colorado Boulder. Retrieved from <https://phet.colorado.edu>
22. Virtual Labs – Remote Labs for Engineering Students. Indian Institute of Technology (IIT), Delhi. Retrieved from <https://vlabs.iitb.ac.in>
23. Алланазаров К. TALABALARNING TANLAGAN KASBIY FAOLIYATI VA IJODIY QOBILIYATLARINI INTERFAOL METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/9.
24. Olimovich A. Q. Interfaol Ta’lim Va Uning Didaktik Imkoniyatlari //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 9-15.
25. Olimovich, A. Q. L., & Baxodir o‘g, Z. U. B. (2024). Natyurmortni Tasvirlashda Rangli Bo‘yoqlardan Foydalanib Ranglovhalar Ishlashni Tutgan O‘rni. AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI| JOURNAL OF APPLIED AND FUNDAMENTAL RESEARCH, 3(4), 16-19.
26. Olimovich A. Q., Khudoymurodovich O. K. The role and importance of plants in environmental protection //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 9. – С. 937-941.
27. АЛЛАНАЗАРОВ О., САЛОХИТДИНОВ А. Т. ЮҚОРИ ПОТЕНЦИАЛЛИ ИККИЛАМЧИ ИССИҚЛИК ЭНЕРГИЯСИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //ЭКОНОМИКА. – С. 761-765.



STRATEGIES FOR SUPPORTING HIGHER-ORDER THINKING IN AI-BASED LEARNING ENVIRONMENTS

Maftuna Ruzieva,
doctoral student, Navoiy State University

Abstract. This article analyzes instructional approaches to develop cognitive skills in AI-supported learning contexts. The potential for personalization in learning offered by AI technologies, such as ChatGPT, comes with emerging concerns about their cognitive effects, particularly students’ overreliance on such technologies. Using The Sweller’s cognitive load theory and recent research as a foundation, this article describes four instructional approaches—Socratic questioning, reflective journals, AI draft peer reviews, and genre transformation assignments—in which AI is integrated as a cognitive collaborator instead of a cognitive tool. Recent studies conducted at leading institutions (MIT, Stanford, Cambridge) confirm these approaches strengthen metacognition, critical analysis, and creative thinking. A rubric is proposed to evaluate students’ thinking skills in AI-enhanced tasks. The article’s final recommendations motivate the need for restructuring professional development and evaluation frameworks in a manner that promotes the use of AI to support learning as opposed to overriding active engagement. Authentic AI-enhanced learning experiences will depend on well-planned teaching strategies instead of the technologies available, highlighting the need for education that promotes intellectual development.

Key words: Higher-order thinking, cognitive load theory, Socratic prompting, reflective journaling, peer collaboration, genre transformation, critical thinking, metacognition, prompt engineering, instructional design, AI-enhanced learning environments, digital pedagogy.

Introduction. Throughout the last five decades, I have seen new teaching tools emerge, often with the promise of a paradigm-shift in cognition, but too frequently evaporating without reaching the cognitive core of learners. Presently, AI tools such as ChatGPT and intelligent tutors offer powerful personalized learning. But a pivotal concern still rests: will these technologies encourage deeper levels of cognitive processing, or will they simply buff and polish preexisting surface-level answers?

Methodology. A recent study from the MIT Media Lab provides a cautionary tale. During the EEG recordings of 54 participants writing SAT-style essays, those assisted with ChatGPT showed smoother prose as well as significantly reduced brain activity—suggesting that fundamental cognitive processes were bypassed, in some capacity. AI’s surface-level

enhancements obfuscated the diminishing creativity, memory, and cognitive engagement. To put it simply, students received “better” essays, but far shallower responses and analysis.

A comprehensive meta-analysis of 51 studies, however, published in *Humanities & Social Sciences Communications* suggests otherwise. The researchers did show AI-augmented reflection and prompts improved some higher-order skills, substantiating an alternate AI scaffolded narrative (effect size $g \approx 0.46$). Gains were detected strictly where instructors harnessed AI within the framework of guided query, critique, and imaginative reconstruction.

Here, the clarification provided by Sweller’s cognitive load theory is helpful. AI diminishes extraneous cognitive load the grammar, structure, and retrieval of information. On the other hand, deep thinking requires germane load: mental effort focused on understanding. If AI does all the thinking and cognitive work, the mental effort used to build thinking is suppressed.

There is a new design emergent paradigm “extraheric AI,” which seeks to design AI systems multidisciplinary that support cognitive offload in a way which AI prompts a user to structure reflection, rather than presenting answers. Courses and summer camps for learners have been launched, and students interact with AI that inquires “why,” “what if,” and “can you rephrase?” rather than “here’s your essay.”

Theory aside, there is a novel neuroadaptive AI tutor study NeuroChat that was developed in MIT, which showed that AI NeuroChat could adapt to a student’s EEG measured engagement and as a result, sustain deeper cognitive involvement. While the study was small scale, it holds promise for a future owing to AI’s capacity to respond to when and how students are thinking.

Discussion. So what instructional strategies encourage AI as a thinking partner?

1.Socratic prompting. Socrates didn’t teach by telling. He taught by asking better questions. In AI-based learning, Socratic prompting means teaching students not just to accept AI outputs, but to interrogate them. For example:

“Why did the AI suggest this argument?”

“What’s the evidence behind this claim?”

“Could there be an alternative perspective?”

A 2023 study published in *Computers & Education* (Scopus-indexed) by Martens & Lee showed that students trained to ask meta-questions during AI writing tasks scored 28% higher on Bloom’s “evaluation” and “analysis” domains. It’s not enough to teach students how to use AI—we must teach them to question it.

2.Reflective journals. If AI is the accelerator, reflection is the brake that ensures we don’t crash. Encouraging students to maintain AI interaction journals—recording prompts, outputs, choices, and reflections—can turn passive use into active learning. According to *Journal of Learning Analytics* (2024, Oxford University Press), students who reflected on their AI-aided work showed 37% improvement in metacognitive regulation over a semester. Sample journal entries might include:

What did I expect the AI to say?

What surprised me in its response?

What did I change, and why?

John Dewey once said, “We do not learn from experience... we learn from reflecting on experience.” AI should not replace that.

3. Peer-review of AI drafts. Collaboration sparks insight. When students analyze each other’s AI-generated work, they practice higher-order skills—critique, evaluation, and synthesis. A 2025 study by López & Grant (SpringerLink) revealed that peer-reviewed AI drafts had a 30% higher complexity score than solo-reviewed ones. Why? Because students were forced to articulate not just what they thought—but why they thought it.

Peer A: “I see your AI said X. But doesn’t that ignore context Y?”

Peer B: “Good point. I’ll revise my conclusion based on that.”

Through this, students internalize a critical lens. They learn that AI is a tool, not a truth-teller.

4. Genre-transformation tasks. Understanding shines when students can apply ideas across formats. Asking students to take an AI output—say, an expository paragraph—and transform it into a creative short story, podcast script, or visual infographic, triggers higher-order processes: synthesis, abstraction, and innovation.

The Stanford Center for Teaching & Learning (2024) reported that genre transformation assignments increased student engagement and concept retention by 41%. This isn’t gimmicky—it’s transfer learning, one of the highest cognitive goals in Bloom’s updated taxonomy (Anderson & Krathwohl, 2001).

Successful implementation depends on prompt literacy: learners and teachers must know how to craft questions that spark thought rather than fetch answers. In fact, Swiss and Singaporean universities are integrating prompt-engineering courses into teacher education. Evidence from several pilot programs—conducted at Stanford, MIT, and Cambridge—shows that when teachers design tasks using the four strategies above, students score higher in post-test evaluations of argumentation and creative reasoning. Here’s a simplified rubric they use:

Dimension	Basic (1–2 pts)	Intermediate (3–4 pts)	Deep Thinking (5 pts)
Evidence Use	Relies on AI quotes	Rewords AI suggestions	Evaluates and integrates AI insights
Reflection	No journal entries	Lists AI actions	Explains rationale and alternatives
Peer Collaboration	No productive peer input	Notes peers’ critique	Engages in dialogue and revises accordingly
Genre Flexibility	Uses single genre	Attempts simple reformatting	Adapts to multiple formats and audiences

Despite the strong potential AI offers, there are associated risks, including the learner’s complete cognitive offloading, biased outputs, and increasing inequities due to differential

access to AI technologies. Ethical use calls for policies that seek to reinforce originality, transparency, and AI moratoriums meant to augment self-reliant critical and creative thinking.

As pointed out, the impact of AI on the classroom environment relies on the underlying pedagogical framework. It is suggested that institutions prioritize the training of teachers on development of reflective questions, solo and collaborative practices, structured thinking, and imaginative task design. Reassessing the AI-driven autopilot model of teaching and learning should shift to portfolio and oral assessments, drafting, and annotating, ensuring that hands, thinking, and creativity do the heavy lifting.

Conclusion. As AI becomes more embedded in daily life, it is the responsibility of the classroom to prepare students to become critical thinkers and creators with the technology, rather than mere consumers. The MIT study must be viewed as a warning, not a final statement. AI has the potential to zap thinking skills—but only if we abandon our collective responsibility to harness it. The study’s call also underscores the thoughtful use of AI as a strategic tool and partner in the cultivation of higher-order thinking skills.

The real test isn’t whether AI can be in our classrooms—it already is. The question is: will our teaching design spaces where students think, or only where they click? And as AI grows more seamless, will our schools remain incubators of thought, or will we risk producing a generation that knows how, but not why?

REFERENCES

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing*. Longman.
2. Kim, H. & Raj, S. (2024). “AI-Supported Writing and Student Cognition.” *Cambridge Journal of Education*.
3. López, J. & Grant, M. (2025). “Peer Review and AI-Enhanced Drafts.” *SpringerLink*.
4. Martens, A. & Lee, J. (2023). “Socratic Prompting and Higher-Order Thinking.” *Computers & Education*.
5. Stanford Center for Teaching & Learning. (2024). *Genre in AI Learning*.
6. Oxford JLA (2024). “Reflective Practice in AI Environments.” *Journal of Learning Analytics*.
7. Jin Wang and Wenxiang Fan, “The Effect of ChatGPT on Students’ Learning Performance, Learning Perception, and Higher-Order Thinking: Insights from a Meta-Analysis,” *Education and Information Technologies*, published May 6, 2025. Open Access. <https://doi.org/10.1007/s10639-025-12345-x>



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PROGNOZLASH KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ikromova Munisa Sheraliyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Prognozlash kompetentligining mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari (kognitiv, affektiv va faoliyatga oid)ni tahlil qiladi hamda uni pedagogic jarayonga integratsiyalash zarurati asoslangan. Shuningdek, pedagogik texnologiyaning samaradorligini ta'minlovchi tamoyillar-tizimlilik, kompetentlikka asoslangan yondashuv, diagnostik nazorat va refleksiya mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: prognozlash kompetentligi, bo'lajak o'qituvchi, pedagogic texnologiya, kasbiy tayyorgarlik, prognozlash kompetentligining tuzilmasi, kognitiv (bilimga asoslangan) komponent, amaliy (operatsion) komponent, shaxsiy komponent.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В данной статье освещены теоретико-методические основы развития компетентности прогнозирования у будущих учителей. Анализируется содержание, структура и компоненты компетентности прогнозирования (когнитивный, аффективный и деятельностный), а также обоснована необходимость интеграции данного компонента в педагогический процесс. Кроме того, раскрыты принципы, обеспечивающие эффективность педагогической технологии-системность, компетентностный подход, диагностический контроль и механизмы рефлексии.

Ключевые слова: компетентность прогнозирования, будущий учитель, педагогическая технология, профессиональная подготовка, структура компетентности прогнозирования, когнитивный (знаний базированный) компонент, практический (операционный) компонент, личностный компонент.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING FORECASTING COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract: This article highlights the theoretical and methodological foundations for developing forecasting competence in future teachers. It analyzes the content, structure, and constituent components of forecasting competence (cognitive, affective, and activity-related)

and substantiate the necessity of integrating it into the pedagogical process. Additionally, principles ensuring the effectiveness of the pedagogical technology are revealed - systematization, competence-based approach, diagnostic control, and reflection mechanisms.

Keywords: *forecasting competence, future teacher, pedagogical technology, professional training, structure of forecasting competence, cognitive (knowledge-based) component, practical (operational) component, personal component.*

Zamonaviy pedagogika oily ta'lim muassasasi oldidagi asosiy vazifa – bu shunday shaxsni shakllantirishki, u axborotni tanlab olish, uni maqsadli rejalashtirib ishlatish, o'zining o'quv va kasbiy faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lish uchun inson jamiyatdagi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarni ilg'ab, ta'lim mexanizmlarida to'g'ri yo'nalishda harakatlana olishi kerak.

Hozirgi paytda kasbiy kompetentlik masalalariga oid tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetentligini shakllantirish muammosi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Aslida esa bu kompetentlik zamonaviy mutaxassisning umumiy kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa, qisqa va uzoq muddatli bashoratlar zarur bo'lgan faoliyat sohalarida, xususan, ta'lim tizimida bu juda dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy pedagogic faoliyat shakllangan prognozlash kompetentligisiz yetarli darajada sifatli bo'la olmaydi. Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotchilar ta'lim samaradorligi muammosi prognozlash funksiyasini amalga oshirmasdan to'liq ochib berilishi qiyinligini ta'kidlashadi [1].

G.N. Zelenkoning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda milliy pedagogikada samarali o'quv jarayonini tashkil etish va yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashga bo'lgan intilishlar kuchaymoqda. [2]. Bu holat, xususan, XXI asrda jamiyatdagi uzluksiz o'zgarishlarni inobatga olgan holda ta'lim amaliyotini samarali amalga oshirish ko'nikmasiga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bog'liq. Olimlarning fikricha, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda pedagogik prognozlash yondashuvlariga tayanish zarur, bu esa talabalar da kasbiy prognozlash kompetentligini shakllantirish va mustaqil faoliyat olib borish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. [3].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun prognozlash kompetentligining tuzilmasi quyidagi uch asosiy komponent asosida shakllanadi:

1. Kognitiv (bilimga asoslangan) komponent – bu talabani prognoz ob'ektlari rivojining mavjud bog'liqliklari yoki yo'nalishlari haqida ilmiy bilimlar bilan qurollantiradi. Bu bilimlar hozirgi holatdagi faktik ma'lumotlar bilan uyg'un bo'lib, prognoz tuzish usullarini ham o'z ichiga oladi.

2. Amaliy (operatsion) komponent – prognozlash faoliyatining sifatini oshiradigan zarur ko'nikmalar va malakalarni o'z ichiga oladi.

3. Shaxsiy komponent – bu talabadan aniqliklarga bardoshlilik, shaxsiy tajriba va individual xususiyatlar kabi prognozlash faoliyatiga tayyorlikni shakllantiradi. Shu boisdan,

talabalarda prognozlash kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladigan maxsus ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish va uni o‘quv jarayoniga joriy etish muhim vazifaga aylanmoqda.

Mazkur texnologiya ko‘p qirrali bo‘lib, u bir necha o‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topadi. Shulardan biri – alohida o‘quv fanida prognozlash kompetentligini shakllantirish texnologiyasidir. O‘quv fanlari asosida prognozlash kompetentligini shakllantirish texnologiyasi quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

O‘quv va kelajakdagi kasbiy faoliyat maqsadlarini anglash;

Shakllanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

Kompetentlikni shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Oraliq natijalarni nazorat qilish va ularni tahlil asosida tuzatish.

Ushbu algoritm faqat yaxshi ishlab chiqilgan, samarali texnologiya asosida to‘laqonli ishlaydi.

Ta’lim texnologiyasining mohiyati:

O‘quv jarayonini bosqichlarga va vazifalarga ajratish;

Harakatlarning bosqichma-bosqich rejalashtirilgan muvofiqligi;

Texnologiyadagi har bir amal va protseduraning aniq va bir xil bajarilishi.

Texnologiyani ishlab chiqishda asosiy talablar quyidagilardan iborat:

Prognozlash kompetentligiga yo‘naltirilganlik;

Bosqichlarning aniqligi va tartibli tuzilmasi;

Pedagogik shakl va metodlarning kompleks tarzda qo‘llanishi;

O‘rganish natijalarini baholash va ularni tuzatish imkoniyati;

Yakuniy natijalarni aniqlashga doir diagnostika vositalaridan foydalanish.

Bundan tashqari, texnologiyani ishlab chiqishda kriterial belgilar ham hisobga olingan. V.P.Bespalko [4]., M.V.Klarin[5]., G.K.Selevko [6] tadqiqotlariga asoslanib bu belgilarni quyidagicha izohlash mumkin:

Konseptuallik – kompetentlik yondashuviga asoslangan bo‘lib, bu yondashuv o‘z ichiga falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik tamoyillarni oladi;

Tizimlilik – texnologiya o‘zaro bog‘liq elementlar, tartib, mantiq va ierarxiyani o‘zida mujassamlashtiradi;

Yagonalik va integrativlik – ta’lim maqsadlari, mazmuni, vositalari, metodlari va sharoitlari o‘zaro bog‘lanib, yagona tizimda ishlaydi;

Boshqaruvchanlik – texnologiya rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishga imkon beradi, natijalarni oldindan aniqlash va ularni sozlash imkoniyatiga ega;

Samaradorlik – shaxsiy va ijtimoiy jihatdan kerakli natijalarga erishishni kafolatlaydi;

Qayta qo‘llash imkoniyati – texnologiya turli shartlarda (talabanning tayyorgarlik darajasi, o‘qituvchining malakasi) takroriy qo‘llanishi mumkin.

A.F. Prisyajnaya [7] ta’rifiga ko‘ra, prognozlash kompetentligining tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat:

- **Affektiv komponent** – maqsadga intilish, tafakkur moslashuvchanligi, iroda kuchi, murosasozlik (tolerantlik), maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va loyihalashtirish qobiliyati, izlanish va ijodiy faoliyatning yetarli darajada rivojlanganligi, faoliyat natijalarini baholay olish, o‘zini to‘g‘ri baholash qobiliyati;

- **Kognitiv (bilimga oid) komponent** – prognozlash terminologiyasini bilish, ma‘lum bir ta‘lim yo‘nalishi doirasida bashorat qilish ko‘nikmalari va malakalari, shuningdek, zarur darajada shaxsiy salohiyat darajalarini aniqlay olish;

- **Faoliyat (amalga oid) komponenti** – bu shunday o‘quv, kognitiv va kasbiy faoliyatdirki, u ilmiy asoslangan holda oldindan ko‘ra olish, o‘zining ta‘lim va kasbiy yo‘lini, faoliyat natijalarini baholay olish, shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarda prognozlash kompetentligini shakllantirish-ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlashlari uchun muhim omildir. Prognozlash kompetentligi o‘qituvchining ta‘lim jarayonidagi vaziyatlarni oldindan ko‘ra olish, o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash va o‘z pedagogic faoliyatini ilg‘or rejalashtirish kabi ko‘nikmalarini qamrab oladi. Umuman olganda, bo‘lajak pedagoglarda prognozlash kompetentligini shakllantirish-nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois bu kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Матушак А.Ф. Педагогическое прогнозирование в подготовке учителей школ и преподавателей вузов: учеб. пособие. – Челябинск: Изд-во ЧГПУ, 2016. – 167 с.
2. Зеленко Г.Н. Прогностическая компетентность педагога // Вестник СГУТиКД. – 2011. №. 4. С. 133–136
3. Бестужев-Лада И.В., Наместникова Г.А. Социальное прогнозирование. Курс лекций. – М.: Педагогическое общество России. – 2002. – С. 3.
4. Беспалько В. Я. Слагаемые педагогической технологии [Текст] / В. П. Беспалько. М., 1989.
5. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе [Текст] / М. В. Кларин. М., 1989.
6. Селевко Г. К Современные образовательные технологии [Текст]: учеб. пособие / Г. К. Селевко. М., 1998.
7. Присяжная, А. Ф. Педагогическое прогнозирование в системе непрерывного педагогического образования (методология, теория и практика): дис. д-ра пед. наук : 13.00.08 / Алла Федоровна Присяжная. – Челябинск, 2006. – 380 с.



UDK: 371.13

ORCID: 0009-0008-7622-8438

KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINING EKSTREMAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Xidirova Dildora Zayniddinovna

*p.f.f.d. dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti
xidirovadildora1982@gmail.com*

Annotatsiya. Jahonda ta‘limga nisbatan texnologik yondashuvning shakllanish va rivojlanishi tarixi to‘rtta asosiy davrni qamrab oladi: boshlang‘ich davri (XX asrning 50-yillari boshi – o‘rtalari) ta‘lim jarayoniga turli texnik vositalarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi; ta‘limga texnologik yondashuvning paydo bo‘lishi va “ta‘lim texnologiyasi” tushunchasining ta‘riflanishi bilan tavsiflanadi; tizimli yondashuv ta‘sirida pedagogik texnologiya deganda “fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlari asosida ta‘lim jarayonini optimallashtirish tamoyillarini o‘rganish, ishlab chiqish va qo‘llash tushuniladi”; zamonaviy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan, ta‘lim sohasiga ham kirib boradigan texnologiyalarning kuchli rivojlanishi bilan tavsiflanadi

Kalit so‘zlar: Texnologiya, pedagog, ta‘lim, faoliyat, kompetensiya, kasbiy, bilim, ko‘nikma, jarayon, kompetentlik.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. История становления и развития технологического подхода к обучению в мире охватывает четыре основных периода: начальный период (начало-середина 50–х годов XX века) характеризуется внедрением в образовательный процесс различных технических средств; возникновение технологического подхода к обучению и определение понятия “образовательная технология”; под влиянием системного подхода педагогическая технология понимается как “наука”. а под новейшими достижениями техники понимается изучение, разработка и применение принципов оптимизации образовательного процесса”; характеризуется мощным развитием технологий, которые проникают во все сферы современной жизни, в том числе и в сферу образования.

Ключевые слова: Технология, педагог, образование, деятельность, компетентность, профессионализм, знания, умения, процесс, компетентность.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING EXTREME COMPETENCIES OF STUDENTS IN VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. The history of the formation and development of a technological approach to education in the world covers four main periods: the initial period (beginning-mid – 50s of the 20th century) is characterized by the introduction of various technical means into the educational process; the emergence of a technological approach to education and the definition of the concept of “educational technology”; pedagogical technology influenced by; it is characterized by a strong development of technologies that penetrate into all spheres of modern life, including the educational sphere.

Key words: Technology, pedagogy, education, activity, competence, professional, knowledge, skill, process, competence.

KIRISH. Jahonda ta’limga nisbatan texnologik yondashuvning shakllanish va rivojlanishi tarixi to’rtta asosiy davrni qamrab oladi: boshlang‘ich davri (XX asrning 50-yillari boshi–o’rtalari) ta’lim jarayoniga turli texnik vositalarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi; ta’limga texnologik yondashuvning paydo bo’lishi va “ta’lim texnologiyasi” tushunchasining ta’riflanishi bilan tavsiflanadi; tizimli yondashuv ta’sirida pedagogik texnologiya deganda “fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlari asosida ta’lim jarayonini optimallashtirish tamoyillarini o‘rganish, ishlab chiqish va qo‘llash tushuniladi”; zamonaviy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan, ta’lim sohasiga ham kirib boradigan texnologiyalarning kuchli rivojlanishi bilan tavsiflanadi [1]. Tizimli-faoliyat, kompetensiyaga asoslangan va texnologik yondashuvlar asosida pedagogika kolleji o‘quvchilarining texnologik kompetensiyasini shakllantirish modeli ishlab chiqilib, uning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun didaktik shart-sharoitlar majmui asoslab berilgan. Pedagogika kollejida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetensiyasini shakllantirish muammosini har tomonlama o‘rganish, eng avvalo, “pedagogik texnologiya” tushunchasining genezini tahliliy bayon qilishni taqozo qiladi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy tushunchalar: “pedagogik texnologiya”, “kompetentlik”, “kasbiy-pedagogik kompetentlik” kabilar bo‘lib, ular o‘rganishning terminologik sohasini belgilaydi va uning muhim tavsifini berishga imkon beradi. “Oquvchining texnologik kompetentligi”, “Kasbiy ta’lim o‘quvchilarining texnologik kompetentligini shakllantirish” tushunchalari sanaladi [3].

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini tahlil qilish, shuningdek, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ekstremal kompetentlikning alohida komponentlarini aniqlash, “kompetentlilik” tushunchasining mohiyatini hal qilishni talab qiladi. “Kompetentlilik” atamasi lotincha “competens” so‘zidan olingan bo‘lib, qobiliyatli degan ma’noni anglatadi. Uning bir nechta: kompetensiyalarga ega, ma’lum bir sohada bilimdon kabi talqinlari mavjud. Shu bilan birga, “kompetentlilik” tushunchasi “kompetensiya” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot muammosi bo‘yicha zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlar va ilmiy lug‘atlarni tahlil qilish bizga bir qarashda bir xil va turli xil ma’nolarda

ishlatiladigan “kompetentlilik” va “kompetensiya” kabi o‘xshash ikkita chalkashlikni aniqlashga imkon berdi.

D.I.Ushakov tomonidan kompetentlilik va kompetensiyalarni bir-biri bilan farqini ko‘rsatib o‘tishga harakat qildi. Unda “kompetentlilik — xabardorlik, avtoritetlik deb talqin qilinsa, kompetensiya - shaxsning bilimi, tajribasi” sifatida qaraladi [4]. Britaniya ensiklopediyasida esa “kompetensiya” atamasi insonni egallagan bilimlari va ko‘nikmalari sifatida talqin etiladi.

N.A.Bankoning fikriga ko‘ra, “vakolat”— bu “kompetensiya” “kompetentlilik”dan olingan ikkilamchi tushuncha hisoblanadi va insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini qo‘llash doirasini bildiradi, “kompetentlilik” esa ularning ichki umumiyligini aks ettiradi [5].

O‘z yondashuvimizni asoslash uchun biz A.V.Xutorskiy [6], I.A.Zimnaya [7] va boshqalarning asarlariga murojaat qiladigan bo‘lsak, xususan, I.A.Zimnaya kompetensiyalarni “ichki salohiyat, yashirin psixologik hosilalar, bilim, harakatlar, g‘oyalar, munosabatlar yig‘indisi”, deb belgilaydi. A.V.Xutorskiy tomonidan kompetensiyalar ta’limga tayyorgarlik, mahorat, shaxsiy sifatlar yig‘indisi deb ta’kidlaydi [6].

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar kompetentlilik va kompetensiyalarni turli xil ko‘rinishda ajratib ko‘rsatganligini tasdiqlaydi. I.A.Zimnayaning fikriga ko‘ra, shaxsning munosabatlar tizimida o‘zini namoyon qilishi, insonning akmeologik rivojlanishi kompetentli ekanligini belgilaydi va bu kasbiy kompetentlilikni quyidagi komponentlar to‘plami bilan uchta katta guruhga ajratish mumkin:

1) kompetentlilik mutaxassis sifatida o‘ziga, hayot faoliyati sub’ekti sifatida sog‘liqni saqlash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, integratsiya, qadriyatli-semantik, fuqarolik, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va refleksiv kompetensiyalar majmuasi;

2) insonning boshqalar bilan o‘zaro munosabati bilan bog‘liq ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar;

3) inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv, faoliyatli va axborot-texnologik kompetensiyalar [7].

Tadqiqotchining kompetentli va gnoseologik yondashuvi muammosi haqidagi fikrlari biz tomonimizdan ekstremal kompetensiyalarini rivojlantirishda bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqishda qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kasbiy ta’lim muassasasi ta’lim sohasidagi gnoseologik yondashuv ilmiy bilimlarni olishning yondashuvlari va usullarini o‘zgartirishga, shuningdek, bunday ta’lim bilan bog‘liq barcha masalalar majmuasini boshqacha tushunishga olib keldi. Tadqiqotimizda bo‘lajak muhandislar tomonidan tayyor bilimlarni egallash bilan bog‘liq avtoritar ta’limdan voz kechiladi. Ta’lim jarayonida pedagogik munosabatlar tizimini boshqarish ekstremal kompetensiyalar ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, chunki bir xil sharoitlarda, o‘zaro qiziqish va muloqotga tayyorlik professor-o‘qituvchilar va o‘quvchlarni bir-birini o‘zaro tushunishga olib keldi.

Shunday qilib, o‘quvchilarning ekstremal kompetentligini shakllantirish jarayoni bilan ularning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish o‘rtasida bog‘liqlik mavjud degan xulosaga kelindi.

“Kompetensiyalar – kasbiy faoliyat vazifalarini hal qilishga imkon beruvchi obyektiv zarur bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning majmui”. Bu fikr bir qarashda, soddagina ko‘rinsa-da, kompetensiyalarni shakllantirishning eksperimental tekshiruv, mutaxassisning kompetentlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

A.N.Protasov va boshqalarning fikriga ko‘ra, kompetentli yondashuv kompetentlikni shakllantirishning asosiy sharti sifatida o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishga ega bo‘lgan kognitiv faoliyatini belgilaydi. Kognitiv faoliyat kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, turli ma’lumotlarni to‘plashga va intellektual rivojlanishga yordam beradigan bilish usullarini egallashga imkon beradi. Shunday qilib, kompetentlik tushunchasi nafaqat bo‘lajak muhandislarning kognitiv va operatsion-texnologik komponentlari, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvor komponentlarini ham birlashtiradi. Bundan tashqari, mustaqil ta’limda shakllangan kompetensiyalarni asoslashni va kasbiy kompetentlikni bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ta’lim mazmuni bilan bog‘ladik, chunki kompetensiyalar o‘quv jarayonida egallanadi [8].

O‘quvchilarning texnologik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini kasbiy ta’limda o‘qishning butun davri davomida o‘zaro bog‘liqlikda sodir bo‘ladigan izchil uchta bosqichini ajratamiz:

- birinchi bosqich – kognitiv qiziqishni shakllantirish, ta’limda texnologik yondashuv haqida professional qadriyat g‘oyalari;
- ikkinchi bosqichda bilim va amaliy texnologik ko‘nikma hamda malakalarni faol egallash amalga oshiriladi;
- uchinchi bosqich ishlab chiqarish (diplom oldi) amaliyoti davomida o‘quv jarayonida bevosita texnologik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kasbiy fanining nazariyasi va amaliyotida tanlangan muammoning holatini o‘rganish texnologik kompetensiya mustaqil shakllantirilmasligi va uni shakllantirish uchun alohida harakat talab etilishiga ishonch hosil qilindi. Shuning uchun oldimizda kasbiy ta’lim o‘quvchilarining kasbiy ta’lim jarayonida texnologik kompetensiyasini shakllantirish vazifasi turibdi.

Maqsadni belgilash, motivatsiya va rag‘batlantirish funksiyalarini bajaradigan motivatsion-maqсадli komponent. Istalgan natija sifatida maqsadni aniqladik: kasbiy ta’lim tashkilotlari sharoitida o‘quvchilarning ekstremal kompetensiyasini shakllantirishda tizimni shakllantiruvchi omil sifatida rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlariga nisbatan harakat qilish, o‘quvchilarni tayyorlashning mazmuniy-tashkiliy tomonini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi:

- 1) o‘quvchilar tomonidan ekstremal kompetensiyani o‘zlashtirish uchun ularning ichki motivlarini rivojlantirish shart-sharoitini yaratish;

2) texnologik bilim va malakalar tizimini shakllantirish;

3) kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish (kasbiy yo‘nalish, maqsadga muvofiqlik, mas’uliyat, tashkilotchilik, fikrlashning moslashuvchanligi).

Rivojlanish reflektiv komponenti va texnologik kompetensiya, uning funksiyalari tushunish, faoliyat ta’sirini tahlil qilish, ularning keyingi o‘quv jarayoniga ta’sirini anglash o‘quvchilarning reflektiv va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi; o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda o‘quv faoliyati jarayoni va natijalarini ilmiy asoslangan mezonlar asosida o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari asosiy rol o‘ynaydi. Amalga oshirishning asosiy usuli – o‘z-o‘zini kuzatish o‘quvchi portfoliosi hisoblanadi.

Nazorat va baholash komponenti diagnostik, tartibga solish, indikativ va prognostik funksiyalarni bajaradi, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishni baholash va nazorat qilish hamda o‘quvchilar tomonidan pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishga qaratilgan harakat usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu komponentni amalga oshirish usullari sifatida testlar, nostandart testlar, tadqiqot loyihalari, ijodiy topshiriqlar va boshqalar zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish, balki ularning shaxsiyatini maksimal darajada rivojlantirishni ham amalga oshiradi. Shu munosabat bilan o‘quvchilar – bo‘lajak mutaxassislarini o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga tizimli va maqsadli tayyorlash zarurligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Fanda yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishga qiziqishning ortishi quyidagi ehtiyojlardan kelib chiqadi:

- ta’limning mavjud nazariyalarini o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy amaliyoti talablariga muvofiqlashtirish, ularga ta’limning zamonaviy maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan operativ va instrumental xususiyat berish;

- o‘qitishning eng samarali shakllari va usullarini joriy etish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish;

- o‘quv jarayonining to‘liq nazorat qilinishi, o‘quv siklining dizayni va takrorlanishi g‘oyasi asosida o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilash.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyatini aniqlashning turli xil yondashuvlarini talqin qilishda xorijlik va mahalliy olimlar o‘rtasida turlicha fikrlar yuzaga kelgan. “O‘qitish texnologiyasi” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi amaliy pedagogik muammolarni hal qilish uchun maqbul sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Ma’lumki, “texnologiya” atamasi ishlab chiqarish sektoridan olingan. Lug‘at talqiniga ko‘ra, “texnologiya” tushunchasi “muayyan tarmoqdagi ishlab chiqarish usullari va jarayonlari, shuningdek, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi”. Texnologik jarayon kerakli sifatli mahsulotni olish uchun zarur vositalar va shart-sharoitlardan foydalangan holda samarali natijaga olib boruvchi muayyan ketma-ketlikni ta’minlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, pedagogik texnologiyalarni kollejning o‘quv jarayoniga joriy etish, agar o‘qituvchi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha zarur kasbiy bilimga ega bo‘lsa, shuningdek, ularni o‘qitish va tarbiyalashda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kasbiy nazariy bilimlar, tajribada sinovdan o‘tgan amaliy ko‘nikmalar, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar yig‘indisi biz uchun kasbiy kompetensiya deb hisoblanadi. “Kompetensiya” lotinchadan “shaxs yaxshi biladigan, biror narsani hukm qilish uchun bilimga ega bo‘lgan masalalar majmuasi” degan ma‘noni ifodalaydi.

Bir qator tadqiqotlar zamonaviy o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining umumiy xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini aniqlashga turli xil yondashuvlarni taqdim etadi. Xususan, V.I.Baydenko o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bu “o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish qobiliyati” deb hisoblaydi [9].

Ushbu yondashuvdan foydalanish yuqori darajadagi ekstremal kompetentlik asosiy texnik va texnologik ta‘limga, har qanday faoliyat turiga hissiy va qadriyatli munosabatga, muhandislik kasbiy faoliyat texnologiyasiga ega bo‘lishiga asoslanadi.

Tahlillar o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish uchun yetarli nazariy asos bo‘lib xizmat qilmasligining asosiy sabablarini aniqlash imkonini berdi. Nazariy tadqiqotlar amaliy mashg‘ulot jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlash masalalarini ishlab chiqish emas, balki faqat amalga oshirish tamoyillari, shakllari va o‘qitish usullari, didaktik muhitning o‘ziga xos yaqinligi bilan har doim amaliy yechimlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Metodologik yondashuv bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangi metod va usullarini joriy etishga ko‘maklashadi.

Amaliy mashg‘ulot dasturini amalga oshirish davomida uchta asosiy vazifani hal qilish mumkin:

- 1) o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini yaxshilash, normativ-huquqiy hujjatlar o‘quvchilarga muvofiq kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;
- 2) ta‘lim ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun yetarli sharoit yaratish va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ajratilgan mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta‘minlash;
- 3) ta‘limni boshqarish sifati va samaradorligini oshirish.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, amaliy mashg‘ulot jarayonida bo‘lajak muhandislarning bilimdon, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, barkamol, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni amalga oshirish tashkiliy, texnik va pedagogik shart-sharoitlarni yanada rivojlantirishga imkon berdi. Bundan tashqari, gnoseologik yondashuv zamonaviy muhandislik **o‘quvchilariga** javob beradigan yuqori malakali muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda shaxsiy sifat va fazilarlarini rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarni yangilash uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012. 264 b.

2. Voropayev V.I. Upravleniye proyektami: osnovi professionalnix znaniy, natsionalniye trebovaniya k kompetentnosti spetsialistov. – M.: ZAO «Proyektnaya praktika», 2010. 256 c.
3. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: учеб. пособие / Э.Ф.Зеер, А.М.Павлова, Э.Э.Сыманюк. – М.: Моск. психолого-соц. ин-т, 2005. – 215 с.
4. Sinkovskaya T.A. Problema gotovnosti budushego uchitelya informatiki k ispolzovaniyu texnologiy distansionnogo obucheniya // Kongress konferenсий “Informatsionniye texnologii v obrazovanii” (“ITO- 2003”). // <http://ito.yedu.ru/2003>.
5. Banko N.A. Formirovaniye professionalno-pedagogicheskoy kompetentnosti u budushix injenerov. Diss ...kand. ped. n. – Volgograd, 2002. 218 s.
6. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii. Texnologii konstruirovaniya. // J.: Narodnoye obrazovaniye, 2003. № 2. S. 5561.
7. Zimnyaya I.A. Klyucheviye kompetentnosti kak rezultativno-selevayaosnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. // Materiali k pervomu zasedaniyu metodologicheskogo seminara «Rossiya v Bolonskom protsesse: problemi, zadachi, perspektivi». – M.: Issledovatel'skiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. 37 s.
8. Protasov A.N. Upravleniye formirovaniyem professionalnoy kompetentnosti budushixofitserov / O.G. Prikot : avtoref. diss ... kand. ped. n. - Saratov, 2007. - 23 s.
9. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) / В.И.Байденко // Высш. образование в России. – 2004. – № 2. – С. 3-13.
10. РАХИМОВ ЗОКИР ТОШТЕМИРОВИЧ, ХИДИРОВА ДИЛДОРА ЗАЙНИДДИНОВНА. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ // ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ УЧИТЕЛЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. 2019. 14-17. <https://naukaip.ru/wp-content/uploads/2019/04/%D0%9C%D0%9A-537.pdf#page=14>
11. Д.З. Хидирова. РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ // СРЕДНЕЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2021. 51-53. <https://elibrary.ru/item.asp?id=47314796>
12. Xidirova D., Muradov S. O ‘zbekiston respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 167-172.
13. Rudskoy A.I., Borovkov A.I., Romanov P.I., Kolosova O.V. Obsheprofessionalniye kompetensii sovremennogo rossiyskogo injenera. // J.: Vissheye obrazovani v Rossii, 2018. №2. С. 5-16.
14. The Middle English Dictionary of University of Michigan [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: <http://quod.lib.umich.edu/m/med/>.



FANLARARO YONDASHUVNING MAZMUNI VA UNING MUSIQIY TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.

Mehriniso Zoirova Xurshid qizi
Xalqaro Innovatsion Universitet
“Pedagogika” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanlararo yondashuvning mazmuni, uning ahamiyati, umumta'lim maktablarida dars jarayonini samarali olib borilishdagi ahamiyati, ayniqsa fanlararo yondashuvning musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni bilim olishi, pedagog xodimlarning dars mazmunining yuqori bo'lishini ta'minlashi tushuntirilgan va har bir fan bilan qanday bog'liqlik olib borish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: fanlararo yondashuv, hamkorlik, integratsiya, antik davr, kompleks, kontekst, Fibonachchi ketma – ketligi, geometrik progressiya, innovatsion, kreativ strategiyalar, klassik, musiqaterapiya.

Annotation: This article explains the content of the interdisciplinary approach, its importance, its importance in the effective implementation of the teaching process in secondary schools and higher education institutions, especially the interdisciplinary approach in music culture lessons, ensuring high content of the lessons by teaching staff, and how it can be connected to each subject.

Keywords: interdisciplinary approach, collaboration, integration, antiquity, complex, context, Fibonacci sequence, geometric progression, innovative, creative strategies, classical, romantic, music therapy.

Аннотация: В данной статье объясняется содержание междисциплинарного подхода, его значение, его значимость в эффективной реализации учебного процесса в средних школах и высших учебных заведениях, особенно междисциплинарный подход на уроках музыкальной культуры, обеспечение высокого качества преподавания содержания учителями, а также то, как его можно связать с каждым предметом.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, сотрудничество, интеграция, античность, комплекс, контекст, последовательность Фибоначчи, геометрическая прогрессия, инновационный, креативные стратегии, классика, романтика, музыкальная терапия.

Fanlararo yondashuv deganda, turli fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va hamkorlik tushuniladi. Fanlararo yondashuv o'qitishda bir nechta fanlarning o'zaro aloqasi, integratsiyasi va umumiy tushunchalar asosida o'qitish usulidir. Bu yondashuv o'quvchilarga ko'p qirrali bilim

va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Fanlararo yondashuv ta'lim tizimining har bir sohasida, ayniqsa musiqiy ta'limda, o'quvchilarning umumiy intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhimdir. Bu yondashuv, bir nechta fanlar o'rtasida bog'lanishni va ularning o'zaro ta'sirini ta'minlab, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Musiqiy ta'limda fanlararo yondashuvning o'rni va ahamiyatini tushunish, o'quvchilarga kengroq va chuqurroq bilim olishga yordam beradi. Musiqiy ta'lim faqat notalar kuylash yoki cholg'u chalish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Fanlararo yondashuv — bu turli fanlarning integratsiyasi, ular orasidagi bog'lanishni o'rnatish va yangi o'quv kontseptsiyalarini yaratish jarayonidir. Bu yondashuv, o'quvchilarga nafaqat biror fan bo'yicha chuqur bilimlarni olishni, balki ular orasidagi aloqalarni anglash va yangi, kompleks tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Fanlararo yondashuvning tarixiy – nazariy asoslari, shakllanishi va rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak antik davrga borib taqaladi. Bu davrda Arsitotel va Platon ilmiy bilimlarni turkumlash va o'zaro bog'lash muhimligini ta'kidlagan. Uyg'onish davrida esa, Leonardo da Vinchi kabi olimlar fan, san'at va texnologiyani uyg'unlashtirgan. XVIII – XIX asrlarda mashhur ilmiy tilshunoslar, pedagoglar va zamonaviy universitet tizimining asoschilari ta'limda fanlararo yondashuv va akademik erkinlikni targ'ib qilganlar hamda ta'limda umumiy yondashuvni qo'llab – quvvatlagan. XX asrga kelib kognitiv fanlar (psixologiya, neyrobiologiya, tilshunoslik, falsafa) inson ongining bilim olishidagi ko'p tarmoqli fan sohalarining rivojlanishi bilan fanlararo integratsiya kuchayadi.

Fanlararo yondashuvning asosiy tamoyillari:

1. Yaxlitlik (holistik yondashuv) – fanlararo tadqiqotlarda turli sohalar bir butun sifatida ko'rib chiqiladi va o'zaro bog'liq muammolar majmuasi o'rganiladi. Yaxlitlik tamoyili asosan muammolarga kompleks (lotinchadan complex — bog'liqlik, kombinatsiya) yechim topish imkonini beradi. Fanlararo bog'liklikni kuchaytirib, tadqiqotlarni chuqurroq o'tkazish imkonini yaratdi. An'anaviy yondashuvlarda e'tibordan chetda qoladigan jihatlarni hisobga olishga yordam beradi.

2. Integratsiya – turli fanlarning metod va bilimlarini birlashtirish orqali yangi bilim va tushunchalar shakllantiriladi. Bu tamoyil fanlararo yondashuvning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, u turli sohalar o'rtasida bog'liqlik o'rnatishga xizmat qiladi. Integratsiya tamoyilining mohiyati shundaki, har bir fan o'z metodologiyasi va nazariyalariga ega bo'lsa ham, ularning integratsiyasi natijasida yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Fanlararo integratsiya natijasida yangi texnologiyalar tibbiy usullar va pedagogik modellar yuzaga keladi.

3. Muammo yo'naltirilganlik – fanlararo yondashuv muayyan murakkab muammolarni hal qilishga qaratiladi. Odatda nazariy tadqiqotlarni emas balki real muammolarga kompleksli yechim topishga qaratilgan bo'ladi. Integratsiyani kuchaytiradi, tahlilda kreativ yondashishga yordam beradi.

4. O‘zaro bog‘liqlik va uzviylik – turli fanlar va ularning metodologiyalari bir – biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishini anglatadi. Bunda bir sohaga oid muammolar boshqa sohalar bilan aloqador holda tahlil qilinadi. Bu tamoyil tizimli fikrlash va murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi.

5. Metodologik moslashuvchanlik – turli fanlarning tadqiqot usullari va metodlarini moslashtirib, muayyan muammoni hal qilish yoki yangi bilim yaratishga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Bu tamoyil turli fanlar doirasidagi tadqiqotlar uchun yagona universal metodologiya mavjud emasligini va har bir muammo uchun mos usullarni tanlash kerakligini ta’kidlaydi.

6. Innovatsion yondashuv – fanlararo tadqiqotlar natijasida innovatsiyalar yuzaga kelishi mumkin, chunki turli bilim va texnologiyalar uyg‘unlashib, yangi yo‘nalishlar rivojlanadi. Bu tamoyilning mohiyati yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash. An’anaviy usullarga qo‘shimcha tarzda zamonaviy texnologiya va kreativ strategiyalardan foydalanishda ahamiyatli sanaladi.

Musiqiy ta’limda fanlararo yondashuvning muhimligi nafaqat bilimlar integratsiyasida, balki o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirishda ham namoyon bo‘ladi. Musiqa o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Fanlararo yondashuv orqali musiqa nafaqat ijro yoki nazariya sifatida, balki tarixiy, madaniy, psixologik va texnologik bog‘lanishda o‘rganiladi. Musiqa madaniyati fanining o‘qitilishida asosiy maqsadi o‘quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirish, ularning estetik didini rivojlantirish, cholg‘u ijrochiligi, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi kabi qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqa fanlar bilan bog‘langan holda keng ko‘lamli ta’lim berish sanaladi. Fanlararo yondashuv esa ushbu maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy integratsiya yo‘nalishlari:

- **Musiqa va adabiyot:** Musiqiy asarlarning lirikasini va matnlarini o‘rganish, ularni adabiy tahlil qilish o‘quvchilarga musiqaning chuqur ma’nolarini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, she’rlarni musiqaga aylantirish, musiqadagi poetik shakllarni tushunish, musiqa va adabiyotning o‘zaro ta’sirini o‘rganish — bu barchasi o‘quvchilarning estetik va madaniy sezgilarini rivojlantiradi.
- **Musiqa va tarix:** Musiqa tarixini o‘rganish o‘quvchilarga turli davrlardagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Musiqa tarixida ma’lum davrlarning (masalan, klassik, romantik, yoki XX asr musiqasi) ijtimoiy va siyosiy sharoitlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilar o‘z zamonasining musiqiy madaniyatini anglaydilar.
- **San’at:** Musiqa va tasviriy san’atning o‘zaro ta’siri o‘quvchilarga bir-biriga o‘xshash tushunchalarni shakllantiradi. Masalan, musiqiy kompozitsiyalarni tasviriy san’at bilan bog‘lash, o‘quvchilarga musiqa va san’atni bir butun sifatida tushunishga yordam beradi.
- **Musiqa va psixologiya** – Musiqa inson ongi va hissiyotlariga qanday ta’sir qilishini tushunish (masalan, musiqaterapiya, musiqa va stress, diqqatni jamlashga ta’siri).

- **Musiqqa va matematika** – Musiqqada ritm, temp, takt va harmoniya kabi tushunchalar matematik qonuniyatlarga asoslangan. Masalan, Fibonachchi ketma-ketligi (Har bir son oldingi ikkita sonning yig‘indisiga teng bo‘lgan ketma – ketlik. Masalan: 0,1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34,...; 0, 2, 2, 4, 6, 10, 16, 26, 42,...;) yoki geometrik progressiya (Ikkinchi hadidan boshlan har bir hadi o‘zidan oldingi hadni bir xil songa ko‘paytirishdan hosil qilingan ketma – ketlik geometrik progressiya deyiladi. Masalan: 1, 3, 9, 27, 81,... 1, 2, 4, 8, 16, 32, 64,...) asosida qurilgan ohanglar.
- **Musiqqa va texnologiya** – Zamonaviy musiqiy texnologiyalar (elektron musiqqa, ovoz yozish va ishlov berish texnologiyalari) bilan ishlash orqali ijodiy jarayonlarni takomillashtirish.

Musiqqa o‘quvchilarga o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va ijodiy g‘oyalarini ifodalash imkoniyatini yaratadi. Musiqiy ijodkorlik faqat musiqiy bilimlar asosida emas, balki boshqa fanlardan olingan bilimlar orqali ham rivojlanadi. Musiqani yaratish jarayonida adabiyot, tarix, matematika kabi fanlardan foydalanish, o‘quvchilarni yangi usulda fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa ularda kreativ yondashuvni va muammolarni yechish qobiliyatini kuchaytiradi. Fanlararo yondashuvni musiqqa ta‘limida muvaffaqiyatli qo‘llash uchun samarali metodikalar va yondashuvlar talab etiladi. Musiqqa darslari nafaqat ijrochilik mahoratini rivojlantirish, balki o‘quvchilarning umumiy aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan musiqqa darslari esa bu ta‘sirni yanada kengaytiradi. Musiqaning aqliy rivojlanishiga ta‘siri o‘quvchilarning:

- ✓ Mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va akademik natijalarini yaxshilashga yordam beradi.
- ✓ Xotira va diqqatni oshirib, musiqiy asarlarni yod olish, ritm va notalarni eslab qolish jarayoni xotira va konsentratsiyani kuchaytiradi.
- ✓ Matematika va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi – musiqqada ritm va garmoniya matematik qonuniyatlarga asoslangan bo‘lib, bu o‘quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.
- ✓ Til va nutq rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi – musiqqa eshitish qobiliyatini oshirib, talaffuz va nutq rivojlanishiga yordam beradi, ayniqsa, xor yoki qo‘shiq kuylash jarayonida ahamiyati yanada katta.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan kelib chiqib, umumta‘lim maktablarida musiqqa darsida o‘quvchilarning nafaqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki boshqa fanlar bilan bog‘liq holda ularning bilim olishiga xizmat qiladi. Fanlararo yondashuv asosida musiqqa darslarini tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanishda musiqqa va boshqa fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish uchun rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar berish, musiqiy viktorinalar, kompozitorlar haqida loyiha ishlari tayyorlaydilar. Loyihaviy ta‘limda o‘quvchilar tarixiy voqealarga asoslangan musiqiy spektakl tayyorlashlari mumkin yoki turli millatlarning musiqiy janrlarini taqqoslashlari mumkin. Audiovizual materiallardan foydalanishda masalan: musiqqa

va tasviriy san’atni bog’lash uchun multimedialardan foydalanish, musiqiy tajribalarni o’quvchilarga namoyish etadi.

Xulosa qilib aytganda musiqiy ta’limda fanlararo yondashuv nafaqat o’quvchilarga kengroq bilimlarni taqdim etadi, balki ularni ijodiy, analitik va har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi. Musiqaning boshqa fanlar bilan bog’lanishi o’quvchilarga chuqurroq tushuncha beradi, bu esa ularning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi. Fanlararo yondashuvni qo’llash, o’quvchilarga faqat musiqiy bilimlar emas, balki umumiy bilimlarni ham shakllantiradi, shuningdek, ularni turli sohalarda o’z fikrlarini erkin ifoda etishga o’rgatadi. Qolaversa dars jarayonlardagi faoliyatlarni mustahkam va samarali kechishida juda ahamiyatli sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Bo‘lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo‘llari” mavzusidagi Nizomov Fayoz Jo‘rayevich BMI Navoiy DU 2018. [1; 86-b.]
2. “Malaka va kompetensiyalarni baholash” A.Shayusupova, S.Kamalova, o‘quv qo‘llanma, T-2012 157 bet.
3. Boymirzayev.X va boshqalar. “Musiqqa o‘rganish metodikasi” T. 1995 [2; 169-b.]
4. “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” Toshkent- 2020. [3; 80-b.]
5. Internet saytlari



BO‘LAJAK PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TAMOYILLARNING AHAMIYATI

Pardayeva Lutfiya Suyunovna

*Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari to‘g‘risida ma’lumot berilib, uni talaba shaxsini rivojlantirishdagi roli izohlangan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil qilishning ayrim yo‘nalishlari izohlangan.

Tayanch so‘z: ta’lim islohoti, shaxs, ta’lim, tarbiya, rivojlanish, ma’lumot, demokratik jamiyat, ma’naviyat, ma’rifat, faoliyat, prinsip, ijodkorlik, tashabbuskorlik, qadriyatlar, oliy ta’lim muassasasi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о принципах духовно-просветительской деятельности и объяснена ее роль в развитии личности школьника. Также разъяснены некоторые направления организации духовно-просветительской деятельности в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: реформа образования, личность, образование, воспитание, развитие, информация, демократическое общество, духовность, просвещение, активность, принцип, творчество, инициатива, ценности, высшее учебное заведение.

Abstract: This article provides information on the principles of spiritual and educational activity and explains its role in the development of a student's personality. Also, some directions of organizing spiritual and educational activities in higher educational institutions are explained.

Key words and phrases: educational reform, personality, education, upbringing, development, information, democratic society, spirituality, enlightenment, activity, principle, creativity, initiative, values, higher education institution.

Kirish

Respublikamizda ro‘y berayotgan ta’lim islohoti sharoitida barkamol avlod o‘z Vataniga, xalqiga, ona yeriga, millatiga, ota - onasiga sodiq bo‘lgan har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muxim axamiyat kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni maksad va vazifalari xam yangilanadi. Bu yangilanish avvalo tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida qurilishi bilan farqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “ ta’lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning

uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e‘tibor qaratilmoqda” [1, 353]. Darhaqiqat bugun ta‘lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi talabalar, o‘qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta‘minlash uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta‘lim muassasalarida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning alohida o‘rni bor.

Adabiyotlar tahlili

Shunga ko‘ra biz ushbu maqolada ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat, uni rejalashtirish, tashkil etish prinsiplari, shakllari xususida fikr yuritamiz.

O‘z yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizning ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma‘naviyat soxasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etishi darkor. Shunga asosan ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni aniq rejalashtirish, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya tizimini yaratish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma‘naviy-ma‘rifiy dunyokarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi. Har qanday tarbiya, tadbir, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat yig‘indisi ma‘lum qoidalar, talablarga rioya qilinganda, yoinki, ularga asoslangan taqdirdagina maqsadli bo‘ladi. Bu qoidalar, talablar, asoslar pedagogika fanida «prinsiplar» deb nomlanadi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat prinsiplari o‘qituvchi-tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi talablar, qoidalar yig‘indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta‘limotga hamda ilmiy pedagogik ma‘lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat jarayonida bu prinsiplarga rioya qilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko‘rsatkichini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat prinsiplarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganlik prinsipi;
- ixtiyoriylik, mustaqillik, o‘yin va romantika prinsipi;
- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai nazaridan yondashish prinsipi;

ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning rejaliligi va tadbirlarning talaba-yoshlarlar kuchiga mos bo‘lishini ta‘minlash prinsipi;

ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va ta'sirchanligi prinsipi;

ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.

Endi mazkur ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplarini tavsiflashga o'tamiz:

1. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy yo'nalganligi prinsipi. Bu prinsip ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to'garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'lanishi, shuningdek, fan, texnika, madaniyat, san'at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga ishtirok etishning ixtiyoriyligi prinsipi.

Bu prinsip ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat fakultativlar, to'garaklar, turli seksiyalar, klublar va x.k. larga ishtirok etadigan talabalarning qiziqishi, istak-xohishi, qobiliyatiga qarab tanlash va bunda ularning ixtiyoriy bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Ixtiyoriylik prinsipi, talabalar ixtiyoriyligini inobatga olib, ularni toliqtirmaslik va zo'riqtirmaslik uchun, ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo'lmasligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

3. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda talabalar-yoshlar mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish prinsipi.

Bu prinsip talabalarning qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo talabalarning mustaqilligiga asoslanishi, o'qituvchi-tarbiyachi ularni ruxlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko'tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o'rganadilar. Ularda o'z-o'zini boshqarish his-tuyg'usi taraqqiy etadi.

4. Tarbiyaviy tadbirlarning o'yin faoliyati, romantika shaklida bo'lish prinsipi. Bu prinsipni asosan kichik va o'rta maktab o'quvchilariga qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o'rta maktab yoshi o'quvchilari asosan o'yin faoliyatiga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Ammo bu ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tarbiyaning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga ko'yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalarga qaratilgandir.

5. Ma'naviy - ma'rifiy faoliyatda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipda tadbirlarning vazifalari, mazmuni talaba-yoshlarning yosh va tayyorgarlik darajalariga mos bo'lib, ular sog'ligiga, dunyoqarashiga ma'naviy-axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan yiroq bo'lishi lozim.

Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar

II. Maʼfuraviy (G‘oyaviy-siyosiy) tarbiya talabalar ijtimoiy faolligi va o‘qishga munosabatini kuchaytirish.

III. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, bilish faolligini oshirish.

IV. Umuminsoniy, milliy axloq va xulq madaniyatini tarbiyalash.

V. Go‘zallik, nafosat va badiiy tarbiya.

VI. Mehnatsevarlik va mehnat ahliga muhabbat tarbiyasi.

VII. Iqtisodiy va ekologik tarbiya hamda tabiatni muhofaza qilish

VIII. Yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish.

IX. Sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

X. O‘qituvchi-tarbiyachilar va OTMning ishchi-xodimlari bilan olib boriladigan ma‘naviy - ma‘rifiy hamda maʼfuraviy ishlar.

XI. Ota-onalar va mahalla bilan ishlash.

XII. OTM dagi jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Kasaba uyushma, xotin-qizlar qo‘mitasi) bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, oliy ta‘lim muassasalarida barcha fanlarni o‘kitish jarayonida talabalarning ma‘naviy-ma‘rifiy madaniyatini oshirishga va darsdan tashqari olib boriladigan ishlarga qaratilmog‘i lozim. Bunda har bir talaba «ma‘naviyat», «madaniyat» tushunchalarining tub ma‘nosini anglab olishlari, milliy ma‘naviyatimiz sarchashmalari, manbalaridan xabardor bo‘lishlari, bu manbalardan mustaqil erkin ilm olish, o‘rganish malakalariga ega bo‘lishlari lozim. Bizningcha, oliy ta‘lim muassasalarida tashkil qilinadigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagicha qamrab olinsa maqsadga muvofiqdir:

I yo‘nalish: - mustakillik, bilimlar bayramini o‘tkazish, yubiley sanalarga doir bayramlar, ustozlar va murabbiylar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, diniy bayramlar («Ramazon» va «Qurbon» hayitlari), Hosil bayrami, Navro‘z bayrami, Xotira va qadrlash kunini nishonlash, tarixiy obidalarga, respublika ziyoratgoxlariga ekskursiyalar uyushtirish, yil murabbiysi kabi ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish rejalashtiriladi.

II yo‘nalish: - maʼfuraviy tarbiya talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, mamlakatimizning ichki va tashki siyosatiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish, Prezidentimiz asarlarini o‘qib o‘rganish, Oliy majlis qarorlari, ma‘lumotlari bilan tanishish, davlatimiz ramzlari mohiyatini o‘rganish, davlat arboblarning faoliyatlari bilan tanishish kabi masalalar muhokamaga qo‘yiladi.

SH yo‘nalish: - aqliy mehnat madaniyati, bilish faolligi va o‘qishga ongli munosabat, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. “O‘kishni o‘rgan”, “Mening qiziqarli mashg‘ulotim”, “Mening qiziqishlarim”, “Inson va texnikaviy dunyo”, “Mashhur odamlar hayotidan”, “Mening orzu va qiziqishlarim”, “Men bilgan va bilmagan dunyo”, “Fan taraqqiyoti uchun” kabi mavzularda suhbatlar, munozaralar, ilmiy amaliy anjumanlar o‘tkazish, «O‘yla, izla, top», «Quvnoqlar va zukkolar» o‘yinlarini tashkil etish va h.k.

IV yo‘nalish: - umuminsoniy axloq asoslarini tashkil etgan Islom dinida ta’lim-tarbiya masalalari, allomalarimiz ta’limotini o‘rganish, “Odob-axloq saboqlari”, “Ma’naviyat va hayot”, “Hayot va turmush odobi” kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil etish, “Qizlar iffati”, “Yigitlik g‘ururi”, “Ayol madaniyati” mavzularida baxs munozara, so‘zlashish, kiyinish, muomala odobi bo‘yicha suhbatlar, kechalar, anjumanlar o‘tkazish.

V yo‘nalish: - talabalar va professor-o‘qituvchilar jamoasi estetik madaniyatini rivojlantirish maqsadida taniqli san’atkorlar, haqida ma’lumot berish, uchrashuvlar tashkil qilish, “Musika mening hayotim”, “So‘z qalbni yengar, kiyim husnni» mavzularida suxbat, “Jahon ichra - jahonim - Buxoroi Sharifim”, “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni” nomli stendlar chiqarish, ijodkor, shoirlar, yozuvchilar, kompozitorlar, aktyorlar, rejissorlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, kitobxonlar konferensiyalarini uyushtirish: badiiy ijod to‘garaklarini tashkil qilish, ekskursiyalarga borish, odob go‘zalligi, xulq madaniyati, did va xulq qoidalari ko‘rik tanlovlarini uyushtirish.

VI yo‘nalish: - mehnat ilg‘orlari, kahramonlari, faxriylari bilan uchrashuvlar uyushtirish: ijtimoiy-foydali mehnat shanbaliklari, yakshanbaliklarga ishtirok etish: texnik ijodiy to‘garaklarga, klublarga, remont - qurilish otryadlari ishiga katnashish: “Mehnatning qadriga yet”, “Kasb va mehnat”, “Kasbim-faxrim” stendlarini chiqarish: kasblar, mehnat qaxramonlari vitrinalari, “Shahrimiz mustaqillik yillarida” fotomontajini chiqarish va h.k.

VII yo‘nalish: - iqtisodiy tarbiya va tabiatni muhofaza qilish: iqtisodiy bilim, tejamkorlik to‘g‘risida ma’lumotlarini berib borish: o‘quv xonasi jihozlarini darslik, o‘quv qo‘llanmalarini asrash to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazish: “Iqtisod va maorif”, “Suv obi–hayot” stendlarini tashkil qilish: iqtisodchilar, hisobchilar, bank xodimlari bilan uchrashuvlar, savol – javob kechalarini tashkil qilish.

VIII yo‘nalish: - talaba-yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish bo‘yicha: talaba-yoshlarda yuksak fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, mustaqil Respublika konstitutsiyasi, qonunlariga hurmat his-tuyg‘ularini o‘stirish: milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, diniy ekstremizm va fundamentalizmga murosasiz bo‘lishni shakllantirish: xalq deputatlari, huquqni himoya qilish organlari xodimlari bilan suhbat, uchrashuv, savol-javob kechalarini uyushtirish: “O‘z uyingni o‘zing asra”, “Militsiya - mening qo‘riqchim”, “Huquqiy onglilik - davr talabi” ko‘rgazmali stendlar tashkil qilish: Yo‘l harakati qoidalari, “Yosh huquqshunos” to‘garagini tashkil etish: “Siz qonunni bilasizmi?” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

IX yo‘nalish: - sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish. O‘quv muassasalarida ertalabki sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini tashkil qilish: jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat darslari, to‘garaklarini faoliyatini takomillashtirib borish: Talaba-yoshlar harakat organlarini chiniqtirishga e’tiborni kuchaytirish: sport seksiyalarini tashkil qilish: o‘quv yilida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, musobaqalari jadvallarini ishlab chiqish: “Kichik universiada”, “Olimpiada rezervlari” kabi sport o‘yinlarini muntazam o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzi va uni faol amalga oshishini keng targ‘ib qilish: “Sog‘lom tanda sog‘ aql” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

X yo‘nalish: - o‘qituvchi-tarbiyachilar va talaba-yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat. “Ma‘naviyat - millat gultoji”, “Islom ma‘naviyat mash‘ali”, “Hadis ilmi - hayot ilmi”, “Ma‘naviyatimiz darg‘alari” mavzularida suhbatlar, kechalar uyushtirish, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “Mehnat qonunlari”, “Oila kodeksi”, “Jinoyat kodeksi”, “Ta‘lim to‘g‘risida qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonun va meyoriy hujjatlarni o‘rganish soatlarini o‘tkazish, “O‘qituvchilik sha‘ni”, “Tarbiyachilar mahorati”, “Kasb madaniyati”, “Yosh avlod murabbiysi” mavzularida kechalar uyushtirish.

XI yo‘nalish: - ota-onalar va mahalla bilan ishlash. O‘quv yurti hududida talaba-yoshlar ota-onalarining pedagogik ma‘lumotlarini aniqlash maqsadida “Aholining ma‘naviy-ma‘rifiy” bilimdonligi ko‘rik tanlovlarini tashkil qilish: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” mavzusida suhbat, kechalar uyushtirish: sinf, guruh ota-onalar majlislarini amalga oshirish: “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini o‘tkazish: ota-onalar komiteti faoliyatini yo‘lga qo‘yish: “Ota-onalar burchagi”, “Oila va jamiyat” seminarlarini tashkil qilish: talaba-yoshlar, ota-onalar bilan bayramlar, kinofil‘mlar ko‘rish, teatrlarga borish tadbirlarini yo‘lga qo‘yish “Obod mahalla”, “Mahalla - madaniyat o‘chog‘i”, “Mas‘uliyatli oila” uchrashuvlari, kechalarini tashkil qilish va o‘tkazish.

XII yo‘nalish: - oliy ta‘lim muassasasi jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat. Yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish, jamoat tashkilotlarining ilmiy, texnik, madaniy, sport va fizkultura uyushmalarini tashkil qilish. Darsdan so‘ng talaba-yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari ustidan pedagogik rahbarlikni yo‘lga qo‘yish. Qayd qilingan ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlar o‘quv yilida rejalashtiriladi. Yillik reja asosida oylik va haftalik boshqariladigan ishlar tuziladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan yo‘nalishlarda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat olib borish maqsadida ishlar o‘quv yilida yoki bosh yilga mo‘ljallab tuziladi va rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida eng ko‘p tarqalgan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat shakli bu to‘garak ishidir. Oliy ta‘lim muassasalaridagi fan to‘garaklari, badiiy havaskorlik, foto, radio, kinoxavaskor to‘garaklari, “Yosh adabiyotshunos”, “Yosh kitobxon”, “Yosh pedagog” kabi to‘garak va klublar xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To‘garaklar va klublarda ishtirok etish talaba-yoshlarga bilish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga ular da yurt, Vatan, xalq oldidagi mas‘uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham yosh avlodning ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, mavzuiy kechalar, disputlar, savol-javob kechalari, anjumanlar, festivallar, sport bayramlari va o‘yinlari, ekskursiyalar va x.k.lar kiradi.

Shunday kilib, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat keng qamrovlidir. Zero, ma‘naviyat va ma‘rifat - Oliy qadriyat. U xalqimizning urf-odatlarini, mutafakkirlarimizning sermazmun ta‘limotlarini,

tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo‘lini, istiqloq, erk uchun kurashganlarning mashaqqatli turmush saxifalari o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o‘z yo‘nalishlariga ko‘ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat o‘z muddaosiga yetgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko‘yilgan bo‘ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma‘naviy - ma‘rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Shunday kilib, ta‘lim muassasalarida tashkil qilib o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy salohiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma‘naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori. Yangi O‘zbekiston. www.lex.uz
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. // Xalq so‘zi. 2018-yil, 15- avgust
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiysiyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.
5. V.Alimasov, Y.Manzarov. O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy soha: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2014.108b.
6. V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent, 2017 yil, 33b.
7. Madaniyat va san‘at atamalari izohli lug‘ati/ Taxriri: B.Sayfullayev. - Toshkent; 2014.-B. 87.
8. B.Sayfullayev B.,Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati: o‘quv qo‘llanma. -Toshkent; 2017. -B.47.
9. Genkin D.M.. Massoviye prazdniki. -Moskva; 1998. -S. 45. 9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati /Taxriri: Z.Ma‘rufov. -Moskva, 1981. -B.198.
10. Umarov B, Olimov Sh. Oliy o‘quv yurtlarida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya asoslari. - T: «Fan», 2004.



UDK: 004.8:37.091.3

INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING SUN'IY INTELLEKT BO'YICHA
KOMPETENTLIGINI BAHOLASH
ОЦЕНКА КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ В
ОБЛАСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА
ASSESSMENT OF INFORMATICS TEACHERS' COMPETENCE IN THE
FIELD OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori, BDU mustaqil izlanuvchisi

e-mail: nargizasayfetdinovna@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada informatika o'qituvchilarining sun'iy intellekt (SI) sohasidagi kompetentligini baholash mezonlari va amaliy yondashuvlari yoritiladi. Tadqiqot davomida raqamli pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida SI texnologiyalariga oid bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan kompetentlik darajalari aniqlanadi. So'rovnoma, test sinovlari hamda kuzatuv metodlari orqali olingan natijalar o'qituvchilarning SI vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga tayyorgarlik holatini baholash imkonini berdi. Tadqiqot yakunida o'qituvchilarda SI bo'yicha kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga doir amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqola zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asosni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, informatika o'qituvchisi, kompetentlik, baholash mezonlari, raqamli kompetensiya.

Аннотация В статье рассматриваются критерии и подходы к оценке компетентности учителей информатики в области искусственного интеллекта (ИИ). В ходе исследования определены уровни цифровой педагогической компетентности, в частности, знания, навыки и практическая подготовка, связанные с технологиями ИИ. Полученные данные на основе анкетирования, тестирования и наблюдений позволяют оценить степень готовности учителей к интеграции ИИ в образовательный процесс. В заключение разработаны практико-методические рекомендации по формированию и развитию компетентности педагогов в сфере ИИ. Работа формирует научно-практическую основу для повышения эффективности использования технологий ИИ в современной системе образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, учитель информатики, компетентность, критерии оценки, цифровая компетенция.

Abstract This article examines the criteria and practical approaches for assessing informatics teachers' competence in the field of artificial intelligence (AI). The research identifies levels of digital pedagogical competence, focusing on knowledge, skills, and practical experience related to AI technologies. The results, obtained through surveys, testing, and observations, provide insight into teachers' readiness to integrate AI tools into the educational process. The study offers methodological recommendations aimed at developing and enhancing teachers' AI-related competence. The article contributes to the scientific and practical foundation for increasing the effectiveness of AI technology usage in modern education systems.

Keywords: artificial intelligence, informatics teacher, competence, assessment criteria, digital competence.

KIRISH

Zamonaviy raqamli transformatsiya davrida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi o'qituvchilarning yangi turdagi kompetentliklarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, informatika fani o'qituvchilari uchun bu jarayon ikki karra ahamiyatlidir. Chunki ular nafaqat SI texnologiyalaridan foydalanuvchi sifatida, balki uni o'quvchilarga tushuntiruvchi va tatbiq ettiruvchi metodik rahbar sifatida ham harakat qilishlari lozim.

Xalqaro tajribaga nazar tashlansa, Yevropada European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu) modeli asosida o'qituvchilarning raqamli va SI bilan bog'liq kompetensiyalari baholanishi yo'lga qo'yilgan [1]. Unda "Professional engagement", "Digital resources", "Empowering learners" va "Facilitating learners' digital competence" kabi indikatorlar asosida baholash mexanizmi taklif etilgan. Shuningdek, Holmes, Bialik & Fadel tomonidan o'qituvchilarning SI bo'yicha fikrlash salohiyatini, algoritmik yondashuvini va texno-pedagogik integratsiya darajasini alohida komponentlar sifatida o'rganish taklif etilgan [2].

AQShda esa ISTE Standards for Educators asosida o'qituvchilarning SI va texnologiyalarni o'z darslarida qanday integratsiyalashi baholanishi yo'lga qo'yilgan [3]. Bu modelda o'qituvchi "learner", "leader", "designer" va "facilitator" sifatida baholanadi. Biroq, ushbu yondashuvlar ko'pincha umumiy raqamli kompetensiyalarga qaratilgan bo'lib, SI bo'yicha chuqurroq maxsus baholash vositalari yetarli emas.

Bunday yondashuvlar o'qituvchilarning SI bo'yicha tayyorgarligini baholash uchun muhim asos bo'lsa-da, ular informatika o'qituvchilariga xos metodik va amaliy faoliyat xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaydi. Jumladan, informatika o'qituvchilari algoritmik fikrlash, muammoli dasturlash, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, neyron tarmoqlarni tushunish va ularni o'qitish metodikasini bilish kabi o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot informatika o‘qituvchilarining sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini aniqlashtirilgan va integrativ mezonlar asosida baholash modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Mavjud xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilarning SI kompetentligini baholashda, asosan, texnologik tayyorgarlik darajasi yoki umumiy raqamli savodxonlik darajasi asosiy mezon sifatida olinmoqda [2,4]. Biroq, bu yondashuvlar ko‘pincha pedagogik kontekstga chuqur integratsiyani inobatga olmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, informatika o‘qituvchilarining SI bo‘yicha kompetentligini shakllantirish va baholash masalasi Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarning ilmiy doiralarida faol o‘rganilmoqda. Holmes va boshqalar tomonidan taklif etilgan modelda o‘qituvchilarning SI bo‘yicha bilimlari uch bosqichda baholanishi zarurligi ta’kidlanadi: texnologik xabardorlik, amaliy qo‘llay olish va SI’ni ta’limga integratsiyalash salohiyati. Shuningdek, OECD (2021) hisobotida raqamli kompetensiyalar tarkibida SI’ga oid savodxonlik alohida e’tirof etilib, o‘qituvchilarning ushbu texnologiyani didaktik va metodik jihatdan asoslab qo‘llay olish qobiliyati muhim mezon sifatida ko‘rsatiladi [5]. Tosh va Sousa esa SI vositalaridan foydalanishda o‘qituvchining motivatsion, refleksiv va etik jihatdan tayyorgarligi, shuningdek, texnologik vositalarning pedagogik maqsadga muvofiqligi ham kompetentlik darajasini belgilovchi muhim omil ekanini ta’kidlaydi [6].

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Xolboyev ta’limda SI texnologiyalarini joriy etish uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlashda metodik kompetensiyani shakllantirish zarurligini asoslab beradi [7]. Xalqaro yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, informatika o‘qituvchilari uchun SI bo‘yicha kompetentligini baholovchi model nafaqat texnologik bilimlarni, balki metodik, refleksiv va motivatsion jihatlarni ham o‘z ichiga olishi lozim. Shu asosda, mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan baholash modeli ilgari o‘rganilgan ilmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, informatika o‘qituvchilarining SI bo‘yicha tayyorgarlik darajasini holis va tizimli baholash imkonini beradi.

Bizning tadqiqotda Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 50 nafar informatika fani o‘qituvchilari ishtirok etdi. Ishtirokchilarning yoshi 25 dan 55 yoshgacha bo‘lib, ularning pedagogik staji, raqamli texnologiyalarni qo‘llash amaliyoti va sun’iy intellekt sohasidagi xabardorlik darajasi turlicha edi. Maqsadli tanlov (purposeful sampling) usuli asosida tanlangan respondentlar o‘zlarining kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasiga ega bo‘lishi bilan ajralib turdi. Bu yondashuv tajriba ma’lumotlarining xilma-xilligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi [8].

Informatika o‘qituvchilarining sun’iy intellekt bo‘yicha kompetentligini aniqlashda xalqaro tajribalar – xususan, DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT (2018), hamda EU AI Literacy Framework (2023) asosida milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirilgan baholash indikatorlari ishlab chiqildi.



Rasm 1. Baholash yo‘nalishlari

Mazkur indikatorlar o‘qituvchilarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki metodik refleksiya, o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va SI integratsiyasiga nisbatan motivatsiyasini ham qamrab oladi [9].

Baholash jarayonining ishonchliligi va to‘liqligini ta‘minlash maqsadida turli metodik yondashuvlar asosida kombinatsiyalangan baholash vositalari ishlab chiqildi. Bu yondashuv validlik, reliabellik va triangulyatsiya tamoyillariga asoslanadi [10]. Jumladan, quyidagi vositalardan foydalanildi:

Anonim onlayn so‘rovnoma (Google Forms orqali): O‘qituvchilarga sun‘iy intellekt (SI) bo‘yicha nazariy bilimlari, foydalanish chastotasi, dars jarayonidagi yondashuvlari va SI imkoniyatlariga bo‘lgan munosabatlari haqida 20 ta yopiq va yarim ochiq savollardan iborat so‘rovnoma taqdim etildi. Bu usul orqali ishtirokchilarning kognitiv va affektiv darajadagi SI kompetentligini aniqlash maqsad qilindi.

Amaliy topshiriqlar: Ishtirokchilarga ChatGPT, Google Teachable Machine, Canva AI, Quizizz AI kabi mashhur SI vositalari yordamida real pedagogik vazifalarni hal qilish topshirildi. Masalan, “ChatGPT asosida interaktiv testlar yaratish”, “Google Teachable Machine orqali sodd tasniflovchi model qurish”, yoki “Canva AI yordamida dars slaydini avtomatik dizayn qilish” kabi amaliy holatlar berildi. Bu topshiriqlar o‘qituvchilarning funksional va texnologik kompetentligini baholashga xizmat qildi.

Ushbu baholash metodlari o‘zaro bir-birini to‘ldirib bordi hamda natijalarning triangulyatsiyasi (ya’ni bir nechta manba asosida tasdiqlanishi) ta‘minlandi. Bu esa umumiy tahlilning ishonchliligini oshirdi [11,12].

O‘qituvchilarning kompetentligi quyidagi to‘rt darajada tavsiflandi:

A1 – Boshlang‘ich daraja: SI haqida umumiy tushunchaga ega, biroq amaliyotda qo‘llash qobiliyati cheklangan.

A2 – Cheklangan amaliy daraja: ba’zi SI vositalaridan foydalanish tajribasiga ega, ammo ularni didaktik maqsadlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi.

B1 – O‘rtacha daraja: SI vositalarini mustaqil ravishda tanlab, o‘quv jarayonida foydalanish ko‘nikmalariga ega.

B2 – Yaxshi daraja: SI vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash, dars mazmunini boyitish va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda faol yondasha oladi.

Baholash mezonlari real kompetensiyalarning rivojlanish bosqichlarini aniqlashga xizmat qildi va ular asosida o‘qituvchilarning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik metrikalarga mos keladi va o‘qituvchining SI bo‘yicha kasbiy o‘rishini monitoring qilish imkonini beradi [13].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining roli tobora ortib borayotgan bir paytda, ularni samarali o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha o‘qituvchilarning tayyorgarligi muhim mezon sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki o‘qituvchining SI vositalaridan foydalanish kompetentligiga ega bo‘lishi nafaqat raqamli savodxonlikni, balki innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llay olish qobiliyatini ham aks ettiradi [9]. Shu sababli, informatika o‘qituvchilarining SI bo‘yicha kompetentligini aniqlashda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikma va metodik yondashuvlar ham kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

Ushbu tadqiqotda xalqaro tajribalar (OECD, UNESCO, ISTE) asosida ishlab chiqilgan kompetentlik indikatorlari asosida o‘qituvchilarning SI bilan ishlashga tayyorgarligi uch asosiy metod orqali – so‘rovnoma, amaliy topshiriq va dars tahlili orqali o‘lchandi.

So‘rovnomada 50 nafar informatika o‘qituvchisi ishtirok etdi. Natijalar CEFR mezoniga moslashtirilgan kompetentlik darajalari asosida quyidagicha guruhlandi:

Jadval 1.

O‘qituvchilarning SI bo‘yicha kompetentlik darajalari foizda

Kompetentlik darajasi	Ta’rif	Ulushi (%)	Respondentlar soni
A1 – boshlang‘ich	Faqat umumiy tasavvurga ega	22%	11
A2 – cheklangan	Vositalarni elementar darajada ishlatadi	34%	17
B1 – funksional	Dars jarayonida SI vositalarini qo‘llaydi	28%	14
B2 – metodik asosli	SI vositalarini integratsiyalashda metodik yondashuvga ega	16%	8

Korrelyatsion tahlil: SI bo‘yicha nazariy bilim (so‘rovnoma natijalari) bilan amaliy topshiriqlarni bajarish darajasi o‘rtasida o‘rtacha musbat bog‘liqlik kuzatildi ($r = 0.62$; $p < 0.05$), bu esa nazariy tayyorgarlik amaliyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Tadqiqot doirasida informatika fani o‘qituvchilariga sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliy jihatdan qo‘llash bo‘yicha bir qator topshiriqlar berildi. Jumladan:

- ChatGPT vositasidan foydalanib, tanlangan mavzu asosida interaktiv savol-javob tizimini yaratish;
- Teachable Machine platformasi yordamida foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan interaktiv klassifikator modelini yaratish va uni amaliy mashg‘ulotlarga integratsiyalash;
- Canva AI vositasi orqali dars mazmunini boyituvchi vizual kontent (prezentatsiya, infografika, plakat va h.k.) ishlab chiqish;
- Grammarly AI asosida matnni avtomatik tahrirlash va til jihatidan yaxshilash usullarini o‘rganish hamda ushbu bilimlarni o‘quvchilarga o‘rgatish.

Mazkur topshiriqlar o‘qituvchilarning sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish va raqamli pedagogik kompetensiyalarni baholash imkonini berdi.

Topshiriqlarni bajarish darajasi quyidagicha bo‘ldi:

Mezonlar	To‘liq bajarganlar	Qisman bajarganlar	Bajara olmaganlar
Topshiriq bajarilishi	22% (11 kishi)	78% (39 kishi)	0%

O‘rtacha kompetentlik indeksi (OKI) esa quyidagicha aniqlandi:

Amaliy topshiriqlarni bajarish natijalari asosida har bir o‘qituvchiga 0 dan 10 gacha ball qo‘yildi va OKI quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$OKI = \frac{\sum_{i=1}^n K_i}{n}$$

Bu yerda:

K_i – i – respondentning bali

$n = 50$ – respondentlar soni

Hisoblash natijasida OKI = 6.4 bo‘ldi, bu esa o‘rtacha funksional darajani anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar orasida SI texnologiyalariga nisbatan ijobiy munosabat va yuqori darajadagi qiziqish mavjud. Ayni paytda bu qiziqish ko‘pincha nazariy tasavvurlar darajasida bo‘lib, uni amaliy ko‘nikmalar, ayniqsa, dars jarayonida SI vositalarini metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash bo‘yicha tayyorgarlik bilan to‘liq mustahkamlash zarur. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning aksariyati SI texnologiyalarining umumiy imkoniyatlaridan xabardor bo‘lsa-da, ularni dars mazmuniga integratsiya qilishda metodik yondashuvlar va didaktik samaradorlikka yetarlicha e‘tibor qaratmayapti. Bu holat, avvalo, ta‘lim dasturlarining SI texnologiyalarini amaliy va metodik integratsiya qilishga qaratilgan komponentlar bilan boyitilmaganligi, professional rivojlanish kurslarining mavjud emasligi yoki samaradorligining pastligi bilan bog‘liq.

Bizning fikrimizcha, hozirgi bosqichda eng dolzarb masala — bu o‘qituvchilarni SI texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari haqida chuqur xabardor qilish bilan birga, ularni dars jarayoniga funksional, mantiqiy va samarali tarzda integratsiya qilish metodikasini shakllantirishdir. Bu esa o‘z navbatida nafaqat texnologik, balki metodik, psixologik va didaktik

tayyorgarlikni ham o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu tarzda, o‘qituvchilar nafaqat SI vositalarini texnik jihatdan qo‘llay oladigan mutaxassis, balki ularni mazmunli, maqsadga yo‘naltirilgan va pedagogikadagi didaktik tamoyillar asosida qo‘llay oladigan metodik liderga aylanishi zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari informatika o‘qituvchilarining sun‘iy intellekt (SI) bo‘yicha kompetentligini baholashda an‘anaviy yondashuvlar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Faqatgina nazariy bilimlarni aniqlash bilan cheklanilgan baholash usullari o‘qituvchilarning haqiqiy tayyorgarlik darajasini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli, kompleks baholash yondashuvi – ya‘ni nazariy savollar, amaliy topshiriqlar, hamda dars jarayonining real kuzatuv asosida baholash o‘qituvchining SI texnologiyalariga oid bilim, ko‘nikma va munosabatlarini har tomonlama aniqlash imkonini beradi.

Bunday yondashuv informatika o‘qituvchilarining quyidagi kompetentlik komponentlarini aniqlashda foydalidir:

Bilim (knowledge) – SI texnologiyalarining mohiyati, ularning imkoniyatlari va chegaralarini tushunish darajasi;

Ko‘nikma (skills) – SI vositalaridan amalda foydalanish, ularni darsga integratsiya qilish, pedagogik vazifalarni hal qilish malakasi;

Munozara va refleksiya (attitudes) – SI texnologiyalariga nisbatan munosabat, innovatsiyalarga ochiqlik, doimiy o‘rganishga tayyorlik.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, informatika o‘qituvchilarining aksariyati SI vositalarining ahamiyatini anglaydi va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish istagini bildiradi. Biroq, ko‘pchilikda bu vositalarni metodik asosda samarali qo‘llash, dars mazmunini SI bilan uyg‘unlashtirish, va talaba faoliyatini sun‘iy intellekt yordami bilan baholash bo‘yicha amaliy tayyorgarlik yetarli emas.

Shu bois, informatika o‘qituvchilarining SI bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

Amaliy-metodik qo‘llanmalar – o‘qituvchilarga real dars sharoitida SI vositalarini qanday qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beruvchi aniq metodik resurslar;

Modulli trening kurslari – o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan o‘quv dasturlari;

Platformalar va hamkorlik tarmoqlari – o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashinuvi, muhokamalar va muammolarni hal qilish uchun ochiq ta‘lim maydonchalari;

Sertifikatlash va rag‘batlantirish tizimi – o‘qituvchilarning SI sohasidagi yutuqlarini e‘tirof etish va ularni kasbiy o‘sishga undovchi tizimlar.

Umuman olganda, informatika fani doirasida sun‘iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish nafaqat texnik bilimlarni egallashni, balki chuqur pedagogik tafakkur va puxta metodik yondashuvlarni shakllantirishni talab etadi. Zamonaviy ta‘lim muhitida SI texnologiyalarini samarali qo‘llay olish — bu shunchaki dasturiy ta‘minotni tushunish emas, balki uni o‘quv

jarayoniga moslashtirib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab innovatsion metodlarni ishlab chiqish demakdir.

Shu asosda, informatika o‘qituvchilarining SI bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishga oid har qanday tashabbus — bu ta’lim tizimi sifatini oshirishga, innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim bosqichdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. European Commission.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2022). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
3. International Society for Technology in Education. (2017). ISTE Standards for Educators. ISTE. <https://www.iste.org/standards/for-educators>
4. Kalimullin, A. M., & Dobrotvorskaya, S. G. (2023). Artificial intelligence in teacher education: From basic digital skills to AI literacy. *Education and Information Technologies*, 28, 1283–1302. <https://doi.org/10.1007/s10639-022-11015-2>
5. OECD. (2021). AI and the Future of Skills, Volume 1: Capabilities and Assessments. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/5f2200c2-en>
6. Tosh, D., & Sousa, D. A. (2023). Developing AI Competencies in Educators: Pedagogical and Ethical Frameworks. *Journal of Educational Technology Research*, 45(2), 123–139. <https://doi.org/10.1007/s11423-023-10192-8>
7. Xolboyev, A. (2023). Sun’iy intellekt texnologiyalarini informatika ta’limiga integratsiyalashning metodik asoslari. *Axborot texnologiyalari va ta’lim (O‘zbekiston)*, 1(3), 25–31.
8. Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2017). *Designing and conducting mixed methods research* (3rd ed.). SAGE Publications
9. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education. <https://www.pearson.com/en-us/insights-and-ideas/education/intelligence-unleashed.html>
10. Denzin, N. K. (2012). Triangulation 2.0. *Journal of Mixed Methods Research*, 6(2), 80–88. <https://doi.org/10.1177/1558689812437186>
11. Flick, U. (2009). *An introduction to qualitative research* (4th ed.). SAGE Publications.
12. Patton, M. Q. (2015). *Qualitative research & evaluation methods: Integrating theory and practice* (4th ed.). SAGE Publications
13. Van Laar, E., Van Deursen, A. J. A. M., Van Dijk, J. A. G. M., & De Haan, J. (2020). Determinants of 21st-century digital skills: A large-scale survey among working professionals. *Computers in Human Behavior*, 100, 93–104. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2019.06.017>



TALABALARDA INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATI

M. Mamajonova

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotasiya: Maqolada internetdan foydalanish madaniyatiga etibor berish, u orqali kuzatilayotgan kamchiliklarni aniqlash ahamiyatga ega. Qolaversa barcha internetdan foydalanuvchilarni axborot almashinuv jarayonida qo'pol xatolarni qilmaslikka undaydi.

Kalit so'zlar: Internet, madaniyat, axborot, foydalanuvchi, ma'lumot, global, vaqt, ilm.

Abstract: The article emphasizes the importance of paying attention to the culture of using the Internet, identifying the shortcomings observed through it, and also encourages all Internet users to avoid making gross mistakes in the process of exchanging information.

Keywords: Internet, culture, information, user, data, global, time, science.

Аннотация: В статье подчеркивается важность внимания к культуре пользования Интернетом, выявления наблюдаемых в ней недостатков, а также призывается все пользователи Интернета избегать грубых ошибок в процессе обмена информацией.

Ключевые слова: Интернет, культура, информация, пользователь, данные, глобальный, время, наука.

Zamonaviy jamiyatda internetdan foydalanish hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Bilim olish, muloqot qilish, ish yuritish, tijorat faoliyati va hatto dam olish jarayonlarida ham internet xizmatlarining roli beqiyos darajada ortmoqda. Bugungi kunda onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron hukumat tizimlari va raqamli bank xizmatlari kundalik hayotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Internet insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiribgina qolmay, global miqyosdagi yangiliklardan xabardor bo'lish, masofaviy ish faoliyatini tashkil qilish imkonini ham yaratmoqda.

Shu bilan birga, internetdan foydalanishda madaniyatli yondashuv – ya'ni **internet madaniyatiga** ega bo'lish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Axborotlarni tekshirilmagan manbalardan olmaslik, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish, kiberxavfsizlik qoidalariga amal qilish va ijtimoiy tarmoqlarda odob me'yorlarini saqlash kabi jihatlar internet madaniyatining muhim elementlaridandir.

XXI asrni texnologiyalar asri deb bejizga atashmaydi. ****Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi (ITU)****ning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 5,3 milliarddan ortiq inson internet tarmog'idan foydalanmoqda, bu esa sayyoramiz aholisi sonining taxminan

****66%****ini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich internetning tobora global va umumiy ommaga ega bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham internet infratuzilmasini rivojlantirish borasida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda **33 milliondan ortiq foydalanuvchi** internet xizmatlaridan foydalanmoqda, bu esa umumiy aholi sonining **90% dan ortig‘ini** tashkil etadi. Bu yutuqlar elektron hukumat, raqamli savdo va onlayn ta‘lim tizimlarining keng rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Shunday ekan, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va uni keng targ‘ib qilish orqali biz nafaqat raqamli savodxonlikni oshiramiz, balki ijtimoiy munosabatlarda ham sog‘lom muhitni ta‘minlaymiz. Ayniqsa yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini oshirish, internetdagi noto‘g‘ri xatti-harakatlardan saqlanish, kiberjinoyatlardan ogoh bo‘lish borasida tizimli yondashuv zarurdir. (Statistika agentligi, 2024).

Bugungi kunda internet butun dunyo bo‘ylab milliardlab odamlar uchun ajralmas vosita sifatida ishlatilmoqda. Bu texnologiya insonlarga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda: u orqali axborot olamiz, boshqa mamlakatlardagi odamlar bilan muloqot qilamiz, ishlaymiz, o‘qiymiz va hatto savdo-sotiq ham qilamiz. Internet bu — global miqyosda o‘zaro bog‘langan kompyuter tarmoqlari tizimi bo‘lib, u har qanday joydan, istalgan vaqtda ma‘lumotga ega bo‘lish uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda.

Internetning eng katta qulayliklaridan biri – bu axborotlarga tezkor, keng va qulay kirish imkoniyatidir. Qisqa vaqt mobaynida bir necha marta tugmani bosish orqali biz istalgan mavzu bo‘yicha kerakli ma‘lumotlarni ega bolish mumkin. Ilm-fan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, texnologiya, madaniyat yoki kundalik hayot bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday savolga javobni internetda topish imkoni mavjud.

Oldingi vaqtlarda bunday ma‘lumotlarni olish uchun kutubxonalarga borish, kitob yoki jurnallarni izlash talab qilinardi, bugungi kunda esa bu jarayon bir necha soniyada topishimiz mumkin. Shuningdek, zamonaviy qidiruv tizimlari, onlayn kutubxonalar, ilmiy maqola bazalari, video darsliklar ham bu imkoniyatlarni yanada kengaytirgan.

Ilmiy-texnika taraqqiy etib, kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan bo‘lsa-da, san‘atga bo‘lgan qiziqish aslo so‘nmaydi. Haqiqiy san‘at va madaniyat durdonalari insonning qalbiga, ruhiy dunyosiga ta‘sir etadi va allanechuk hissiyotlar uyg‘otadi. Ular insonlarga muhabbat va nafrat, quvonch va qayg‘u tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash va ularni e‘zozlashni o‘rgatadi.

San‘at insoniyat ma‘naviyati, milliy o‘zlik va estetik didining shakllanishida beqiyos rol o‘ynaydi. Bugungi kunda texnologik yuksalishlar shiddat bilan rivojlanayotgan bo‘lsa-da, odamlar turli janrdagi san‘at namunalari — adabiyot, musiqa, tasviriy va sahna san‘atiga bo‘lgan mehrini yo‘qotmayapti. Masalan, 2023-yilgi **UNESCO** hisobotlariga ko‘ra, jahon bo‘yicha **700 milliondan ortiq kishi** madaniy meros ob‘ektlariga tashrif buyurgan, bu esa global pandemiyadan keyingi davrda san‘atga bo‘lgan e‘tiborning tiklanayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi ilm-fan jadal rivojlangan bir davrda ko‘pgina mualliflarimiz o‘z ijodida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli texnika vositalaridan samarali foydalangan holda asarlar yaratmoqdalar. Ular o‘z mahoratlarini yangi taraqqiyot texnologiyalari bilan uyg‘nlashtirmoqdalar. Shu jihatdan, **raqamli san’at (digital art)** sohasida ham katta siljishlar kuzatilmoqda. Dunyo bo‘yicha 2024-yilda raqamli san’at va NFT (noan’anaviy raqamli asarlar) bozorining hajmi **5 milliard AQSh dollaridan oshgani** qayd etilgan (Statista ma’lumotlariga ko‘ra). Bu esa raqamli texnologiyalar orqali san’atning yangi yo‘nalishlari shakllanayotganini bildiradi.

O‘zbekistonda ham bu borada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Teatrlar, muzeylar va galereyalar faoliyatini raqamlashtirish, virtual ekskursiyalar tashkil etish, san’atkorlarning ijod namunalarini internet orqali keng targ‘ib qilish yo‘lga qo‘yilmoqda. Masalan, 2024-yilning o‘zida **O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi** tomonidan 100 dan ortiq san’at tadbirlari onlayn shaklda namoyish etilgan va bu orqali minglab tomoshabinlarga yetib borilgan.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar san’atni yo‘qotmayapti, aksincha uni yangi shakl va mazmunlarda ifoda etish imkonini bermoqda. Muhimi, inson qalbi uchun ozuqa bo‘lmish san’at har qanday texnik taraqqiyotga qaramay o‘z qadriyatini yo‘qotmaydi, balki yangicha ruhda yashaydi.

Bugungi kunda internetning madaniyatga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani va bu ta’sir ijobiymi yoki salbiymi degan savol internet muhitidan tashqariga chiqib, jamiyatda keng muhokama qilinayotgan mavzuga aylangan. Ayniqsa, internetning san’at, adabiyot va adabiy muhitga bo‘lgan ta’siri haqida so‘z borganida, tarmoq nashrlarining xavfli va salbiy jihatlarini ta’kidlash, bosma nashrlarning esa afzalliklarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’lumki, internetning madaniyatga ta’siri asosan ikki asosiy omilga tayanadi.

1. Bosma nashr monopoliyasining tugashi

Internet keng ommalashgani sari, matn va g‘oyalar ishlab chiqaruvchilari bilan ularni iste’mol qiluvchilar orasidagi vositachilik roli — ya’ni nashriyotlar va boshqa muassasalarning zarurati yo‘qolmoqda. Endilikda mualliflar o‘z matnlarini kitob bozoriga bog‘liq bo‘lmagan holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchi auditoriyasiga taqdim eta olishadi. Bu esa matnni yaratish va tarqatish jarayonini ancha erkinlashtiradi.

2. Masofa va vaqt tushunchalarining ahamiyatsizlashuvi

Internet bizga global darajadagi muhokama maydonini yaratib berdi — go‘yoki Yerning turli burchaklaridagi odamlar bir konferensiya zalida to‘plangandek bo‘ladi. Endi masofa to‘siq emas. Shuningdek, vaqt ham o‘z kuchini yo‘qotmoqda: bosma nashrlar orqali biror matn yoki fikrni chop etish oylar, ba’zan yillar talab qilsa, internetda bu deyarli bir zumda sodir bo‘ladi. Internetdagi bahs-munozaralar, fikr almashishlar qisqa vaqt ichida amalga oshadi, bu esa intellektual hayot tezligining oshishiga olib keladi.

Aynan shu ikki omil — ya’ni vositachilarsiz axborot tarqatish va vaqt-masofa chegaralarining yo‘qolishi — internetning madaniyatga qo‘shayotgan asosiy hissi hisoblanadi. Qolgan jihatlar esa bu omillarning tabiiy natijasi yoki internetdan avval

shakllangan g‘oyalar (masalan, gipermatn, adabiy o‘yinlar va loyiha shaklidagi ijodiy ishlanmalar)ning rivoji sifatida qaraladi.

Bugungi kunda internet va axborot texnologiyalari kundan-kunga yangi yangiliklar bilan chiqmoqda. U yangi atamalar, nomlar, terminologiyalar shakllanayotgan ilk maydonga aylangan. Bu makon endigina ijodga kirib kelayotgan yosh mualliflar uchun o‘z auditoriyasini topish, o‘zini sinab ko‘rish uchun imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, ijodiy jihatdan sustroq bo‘lganlar uchun esa bu osoyishta, xavfsiz joyga aylanmoqda.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, internet nashrlari bilan bosma nashrlar o‘rtasida jiddiy farq mavjud. Bosma asarlar muallifga ma’lum miqdorda bo‘lsa-da, tanilish imkonini beradi. Ular kitob do‘konlarida paydo bo‘ladi, tanqidchilar, mutaxassislar va bibliograflar nazariga tushadi. Har doim ham keng omma emas, lekin kamida yangi asarlarni kuzatib boradigan qatlam bu kitobdan boxabar bo‘ladi. Internetda esa bu jarayon ancha oson va tez, biroq nazorat va baholash tizimi zaifroq bo‘lishi mumkin. Internet insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ammo bu imkoniyatlar faqatgina ongli, madaniyatli va mas’uliyatli foydalanuvchilar qo‘lida foydali qurolga aylanadi. Har birimiz internetdagi harakatlarimiz uchun javobgarlikni his qilishimiz, boshqalarning huquqlariga hurmat bilan yondashishimiz va raqamli makonda axloqiy qadriyatlarga sodiq qolishimiz kerak. Faqat shundagina internet insoniyatning taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan muhim maydonga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoilov.I. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2020.
2. Qodirov.A. Axborot madaniyati va axloqiy mas'uliyat: talabalarga metodik yondoshuvlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2019.
3. Xo‘jayeva.F. Ma'naviy dunyoqarash va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2018.
4. UNESCO Institute for Statistics – www.uis.unesco.org
5. Statista – Digital Art Market Size
6. www.itu.int



O'QUVCHILARDA TARIXIY XOTIRA VA MADANIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li
Namanagan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va multimediya resurslaridan foydalanish orqali yosh avlodda milliy meros, tarixiy voqealar va madaniy qadriyatlar to'g'risida chuqur tasavvur hosil qilish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy xotira, madaniy identitet, innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, milliy meros, vatanparvarlik tarbiyasi.

ФОРМИРОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В статье анализируются инновационные педагогические подходы, применяемые в процессе формирования исторической памяти и культурной идентичности у учащихся. Рассматриваются возможности использования интерактивных методов, цифровых технологий и мультимедийных ресурсов в образовательном процессе для формирования у молодого поколения глубокого представления о национальном наследии, исторических событиях и культурных ценностях.

Ключевые слова: историческая память, культурная идентичность, инновационные педагогические подходы, интерактивные методы, цифровые технологии, национальное наследие, патриотическое воспитание.

INNOVATIVE APPROACHES TO SHAPING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS

Abstract: The article analyzes innovative pedagogical approaches used in the process of shaping historical memory and cultural identity among students. It examines the possibilities of fostering a deep understanding of national heritage, historical events, and cultural values in the younger generation through the use of interactive methods, digital technologies, and multimedia resources in the educational process.

Keywords: historical memory, cultural identity, innovative pedagogical approaches, interactive methods, digital technologies, national heritage, patriotic education.

Kirish: Globallashuvning jadallashuvi, axborot texnologiyalarining cheksiz rivojlanishi va madaniy oqimlarning bir-biriga singib borishi sharoitida yosh avlodning tarixiy xotirasi va madaniy identitetini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va sotsiologiya ilmda eng dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Insoniyat tarixidagi har bir davrda millatning o‘zligini saqlash, ajdodlar merosini asrab-avaylash va uni keyingi avlodlarga yetkazish jarayoni ijtimoiy hayotning markazida turgan bo‘lsa-da, XXI asrda bu jarayon o‘zining yangicha shakl va mazmunini kasb etdi. Bugun o‘quvchilar faqat o‘quv dasturidagi tarixiy faktlarni yod olish bilan kifoyalanmay, balki ularni zamonaviy ilmiy konsepsiyalar, xalqaro tarixiy tajriba, global va mahalliy kontekstlarni o‘z ichiga olgan tahliliy jarayonda o‘zlashtirishlari lozim. Shu nuqtai nazardan, tarixiy xotira tushunchasi faqat voqealar ketma-ketligi haqidagi tasavvur emas, balki jamiyatning kollektiv ongida shakllangan, turli madaniy kodlar, ramzlar, an‘analalar va ma‘naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan murakkab ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilinadi. Madaniy identitet esa shaxsning o‘zini muayyan tarixiy, milliy va madaniy makonga mansub deb his etishida, o‘z ajdodlari bilan ruhiy bog‘liqligini anglashida, milliy qadriyatlarni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu ikki fenomenning o‘zaro aloqadorligi o‘quvchi shaxsini shakllantirishda chuqur psixologik, pedagogik va ijtimoiy mexanizmlar majmuini ishga soladi. Zamonaviy ta‘lim tizimida tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirishga bo‘lgan yondashuvlar sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda[1]. An‘anaviy pedagogika metodlari — ma‘ruza, kitob o‘qish, eslatma va faktlarni yod olish — bugungi kunda o‘quvchilarni to‘liq qoniqtira olmayapti. Chunki raqamli avlod vakillari bo‘lgan hozirgi yoshlar vizual ma‘lumotlarni tez qabul qiladi, interaktiv muloqotga oson kirishadi va axborotni qayta ishlash jarayonida faol ishtirok etishni afzal ko‘radi. Shu bois, ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, jumladan, multimediya resurslari, kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR) vositalari, raqamli hikoyachilik (digital storytelling), fenomenlarga asoslangan ta‘lim, madaniy kontekstga moslashtirilgan dars ishlanmalari kabi ilg‘or metodlarni keng joriy etish talab etiladi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda tarixiy voqealarni faqat o‘qish yoki tinglash orqali emas, balki ularni bevosita “his qilish”, virtual tarzda “yashash”, ularning sabab-oqibat aloqalarini ko‘ra olish va tanqidiy tahlil qilish imkonini yaratadi. Tarixiy xotirani shakllantirish jarayoni, avvalo, o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan uyg‘unlashganida samarali bo‘ladi. Masalan, virtual ekskursiyalar orqali Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohat qilish, o‘quvchilarning o‘z hududidagi tarixiy yodgorliklarni 3D formatda o‘rganishi, xalq og‘zaki ijodidan namunalarni audio va video formatlarda tinglab, ularni sahnalashtirish — bularning barchasi tarixiy voqealarni o‘ziga xos “jonlantirish”ga xizmat qiladi[2]. Shu bilan birga, madaniy identitetni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning oilaviy tarixini, mahalla yoki qishloqdagi qadimiy urf-odatlarini o‘rganish, milliy bayramlar va marosimlarda faol ishtirok

etish kabi faoliyat turlari ham muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuvlar UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Madaniy merosni saqlash va uzatish” konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, yosh avlodning milliy o‘zligini anglashini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra, tarixiy xotira va madaniy identitetning shakllanishida uch asosiy omil muhim rol o‘ynaydi[3]. Birinchisi — kognitiv omil bo‘lib, o‘quvchining tarixiy bilimlar, voqealar ketma-ketligi, tarixiy shaxslar faoliyati haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Ikkinchisi — emotsional omil bo‘lib, tarixiy voqealarga nisbatan shaxsiy hissiy munosabat, iftixor, qayg‘u yoki g‘urur kabi tuyg‘ularni uyg‘otadi. Uchinchi omil — ijtimoiy omil bo‘lib, jamiyatning kollektiv xotirasi va madaniy kodlarini o‘quvchi ongiga singdiradi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar aynan shu uch omilning uyg‘un ishlashini ta‘minlash imkoniyatiga ega. Masalan, raqamli hikoyachilik jarayonida o‘quvchi nafaqat tarixiy faktlarni o‘rganadi (kognitiv), balki hikoya ichida o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib ko‘radi (emotsional), shu bilan birga guruhli loyiha ishlari orqali tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi (ijtimoiy)[4]. Bugungi global axborot makonida tarixiy xotira va madaniy identitetga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar doirasi juda keng. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat mahsulotlari ko‘pincha universal, milliylikdan xoli obrazlarni targ‘ib qiladi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodning milliy o‘zligini anglashida ma‘lum ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, maktab ta‘limida tarixiy meros va madaniy qadriyatlarni ilg‘or texnologiyalar yordamida qayta talqin qilish, ularni zamonaviy yoshlar ongiga mos shaklda yetkazish strategik ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchilarning mobil ilovalar orqali tarixiy xaritalarni interaktiv o‘rganishi, tarixiy shaxslarning hayot yo‘li asosida yaratilgan animatsion filmlar yoki komikslar bilan tanishishi, virtual muzey platformalarida mustaqil izlanishlar olib borishi — bularning barchasi yosh avlodning tarixga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi va mustahkamlaydi[5]. Madaniy identitetni shakllantirish jarayonida pedagogning roli alohida ta‘kidlashga loyiqdir. Pedagog faqat ma‘lumot yetkazuvchi emas, balki madaniy vositachi (cultural mediator) sifatida ham faoliyat yuritadi. U o‘quvchini tarixiy va madaniy kontekstlarga yo‘naltiradi, ularning o‘z merosiga nisbatan reflektiv yondashuvini shakllantiradi, milliy o‘zlik va zamonaviy global qarashlar o‘rtasida muvozanat topishga ko‘maklashadi[6]. Bu jarayonda dialogik ta‘lim prinsiplari — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teng muloqot, fikr almashish va bahs yuritish madaniyatini shakllantirish — juda muhimdir. Shuningdek, fenomenlarga asoslangan ta‘lim usullari orqali o‘quvchilar tarixiy va madaniy jarayonlarni boshqa fanlar (adabiyot, san‘at, geografiya, sotsiologiya) bilan bog‘lab o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday integrativ yondashuvlar tarixiy xotira va madaniy identitetni nafaqat mustahkamlaydi, balki uni zamonaviy ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Natijada, o‘quvchilarda tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari zamonaviy pedagogikaning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur. Bu yondashuvlar milliy o‘zlikni asrab-avaylash, uni yangi avlod ongida jonlantirish, global madaniy oqimlar ichida milliy qadriyatlarni yo‘qotmaslik kabi yuksak maqsadlarga xizmat qiladi. Mazkur maqola ana shu jarayonning nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliy

imkoniyatlarini yoritish va ta’lim tizimida joriy etish bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili: Madaniy meros va tarixiy xotirani shakllantirishni innovativ pedagogik metodlar orqali tadqiq etgan Maria Papadopoulou va Zacharoula Smyrnaioy tomonidan yozilgan ilmiy asar “Digital History and History Teaching in the Digital Age” tarixiy ta’limning raqamli transformatsiyasi kontekstida o‘quvchilarning tarixiy ongini shakllantirish hamda madaniy identitetni mustahkamlash masalalarini chuqur tahlil qiladi. Mualliflar tarixiy ma’lumotlar manbalarining kengaytirilgan sun’iy intellekt va Internet muhiti orqali qanday qayta ishlab chiqilayotgani, jumladan, ochiq manba, tarixiy audio va video arxivlar, hamda ommabop multimedia kontent orqali tarixiy ong qanday rivojlanishini tarixiy didaktika asosida ilmiy tahlil qiladi[7]. Ularning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar nafaqat voqealarning kronologiyasini o‘rganadi, balki ularni kontekstual, kollektiv va sub’ektiv hikoyalar orqali anglab yetadi; natijada tarixiy xotira pedagogik-ta’limiy mahorat darajasida shakllanadi. Papadopoulou va Smyrnaioy fenomenlarni tahlil qilish, kontekstlararo yondashuvlar va digital arxivlar orqali tarixiy ma’lumotlarni qayta o‘zgartirish imkoniyatlari pedagogik paradigma sifatida qanday ishlashini nazariy jihatdan yoritadi. Bundan tashqari, Selma Rizvic va hamkorlari tomonidan amalga oshirilgan “Interactive digital storytelling: bringing cultural heritage in a classroom” nomli amaliy tadqiqot esa interaktiv raqamli hikoyachilik (digital storytelling) vositalari yordamida o‘quvchilarning madaniy merosga bo‘lgan aloqadorligini kuchaytirishga qaratilgan[8]. Mualliflar o‘zlarining eksperimental o‘quv muhiti orqali ko‘rsatadiki, o‘quvchilar tarixiy materiallarni vizual, audio va narrativ formatlarda yaratayotganda faqat bilim emishimiz emas, balki emotsional va shaxsiy bog‘liqlik ham shakllanadi. Ularning tahlilida interaktiv hikoyachilik orqali o‘quvchilar o‘z milliy va mahalliy madaniy voqealari bilan dialog quradi, bu esa pedagogik amaliyotda madaniy identitetni muddatli va subjektiv darajada mustahkamlaydi. Papadopoulou va Smyrnaioy nazariy va metodologik tomonlardan tarixiy ta’limni raqamli davrga moslashtirishga urg‘u berar ekan, Rizvic va hamkorlari mazkur transformatsiyalarni sinovdan o‘tkazadigan amaliy platforma sifatida interaktiv storytelling metodlarini taklif etadi. Bu ikki yondashuv uzviy bog‘langan holda o‘quvchilarda tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirish jarayonining nazariy asoslarini va uni amalga oshirish mexanizmlarini yahshi ko‘rsatadi: bir tomonda kontekstual va kollektiv kodlar orqali ma’lumotning semantik boyligini oshirish, ikkinchi tomonda esa har bir o‘quvchi uchun shaxsiy identifikatsiyaga yo‘l ochish orqali pedagogik natijaga erishish.

Metotologik qism: Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kompleks yondashuv tashkil etib, unda tarixiy-pedagogik tahlil, madaniy-antropologik izlanish va innovatsion ta’lim texnologiyalarini sinovdan o‘tkazishga yo‘naltirilgan eksperimental metodlar o‘zaro uyg‘unlashtirildi; jumladan, bibliografik va kontent-tahlil usullari orqali tarixiy xotira va madaniy identitetga oid ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi, fenomenologik yondashuv yordamida o‘quvchilarning tarixiy voqealarni idrok etishdagi sub’ektiv tajribalari tahlil qilindi, interfaol pedagogik eksperiment shaklida multimediya, raqamli hikoyachilik va AR/VR

texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dars modellarining samaradorligi baholandi hamda etnopedagogik kuzatuv va yarim tuzilgan intervyular orqali o‘quvchilarning madaniy identitetga oid qarashlari, hissiy-motivatsion o‘zgarishlari va ijtimoiy-madaniy integratsiya darajasi aniqlanib, olingan natijalar statistik tahlil va komparativ metod yordamida boshqa ta’lim muhitidagi tajribalar bilan qiyoslab, ushbu maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalarning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi ta’minlandi.

Natijalar: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida innovatsion pedagogik yondashuvlar — jumladan, multimediya resurslari, raqamli hikoyachilik, kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari hamda fenomenlarga asoslangan ta’lim metodlarini integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tarixiy voqealarni kontekstual idrok etish, ularni shaxsiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangani, shu bilan birga madaniy identitetning emotsional, kognitiv va ijtimoiy komponentlari uyg‘un ravishda shakllangani, milliy merosga nisbatan ijobiy munosabat va vatanparvarlik hissi mustahkamlangani, hamkorlikdagi loyiha ishlari va dialogik ta’lim jarayonlari esa kollektiv xotira va madaniy kodlarni o‘zlashtirish darajasini oshirib, zamonaviy ta’lim sharoitida tarixiy xotirani shakllantirish samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlagani aniqlandi.

Muhokama: Tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning o‘rni borasida ilmiy jamoatchilikda turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, bu borada xorijiy olimlar o‘rtasida kuzatilgan polemikalar pedagogik nazariya va amaliyotning muhim qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Maria Papadopoulou raqamli vositalar yordamida tarixiy ta’limni qayta qurish zaruratini ilmiy asoslar bilan himoya qilgan holda, AR/VR texnologiyalari va raqamli hikoyachilik o‘quvchilar ongida “immersiv” tajribani yuzaga keltirib, tarixiy voqealarni jonli idrok etish imkoniyatini beradi, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, an’anaviy yondashuvlar, xususan, darslikka asoslangan o‘qitish, o‘quvchida voqealarning hissiy va shaxsiy idrokini yetarlicha rag‘batlantirmaydi, natijada tarixiy xotira yuzaki shakllanish xavfi ortadi. Shu sababli Papadopoulou tarixiy ta’limning mazmuni va metodikasini to‘liq raqamli kontekstga moslashtirishni strategik zarurat sifatida ko‘radi. Biroq Selma Rizvic bu yondashuvni to‘liq qo‘llab-quvvatlash bilan birga, uning biryozlama raqamlashtirish tendensiyasiga tanqidiy yondashadi. U raqamli texnologiyalar o‘quvchilar uchun juda jozibali va samarali vosita ekanini tan olgan holda, tarixiy xotira va madaniy identitetning asosiy tayanch omili sifatida ijtimoiy-interaktiv kontekstni, ya’ni yuzma-yuz muloqot, jamoaviy faoliyat va amaliy tajribani birlamchi o‘rinda ko‘radi. Rizvicning ta’kidlashicha, raqamli hikoyachilik metodlari, agar ular mahalliy madaniy kontekstdan uzilib qolsa, shunchaki texnologik “shou” darajasida qolib ketishi mumkin. Shu bois u innovatsion metodlarni an’anaviy etnopedagogik elementlar bilan uyg‘unlashtirishni taklif etadi. Papadopoulou va Rizvic o‘rtasidagi bahsning markazida, aslida, “innovatsiya” va “meros” o‘rtasidagi muvozanat masalasi turadi. Papadopoulou nuqtai nazaridan, raqamli transformatsiya nafaqat zamonaviy yoshlarning kognitiv ehtiyojlariga javob beradi, balki tarixiy materiallarning keng auditoriyaga yetkazilish imkonini oshiradi[9]. Rizvic esa bunday jarayonning nazoratsiz kechishi milliy

merosning semantik qatlamlarini soddalashtirib yuborishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchi tarixiy xotirani faqat ekrandan emas, balki bevosita madaniy makon, tirik an’ana va real tajriba orqali his qilishi lozim. Natijada, bu ikki olimning pozitsiyalari bir-birini inkor etmasdan, balki o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyat kasb etadi: Papadopoulou innovatsion texnologiyalar orqali tarixiy xotira va madaniy identitetni global axborot makoniga integratsiyalash zaruratini ilgari surar ekan, Rizvic uning mahalliy madaniy kontekstda mustahkamlanishini talab qiladi[10]. Bu esa ta’lim amaliyotida ikki yondashuvni sintez qilish — ya’ni raqamli vositalar samaradorligini etnopedagogik asoslar bilan uyg‘unlashtirish — o‘quvchilarda tarixiy ong va madaniy identitetni shakllantirishning eng maqbul strategiyasi ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda tarixiy xotira va madaniy identitetni shakllantirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar — jumladan, multimediya, raqamli hikoyachilik, AR/VR texnologiyalari va fenomenlarga asoslangan ta’lim — o‘quvchilarning tarixiy voqealarni chuqurroq idrok etishi, ularni shaxsiy tajriba va hissiy kechinmalar bilan uyg‘unlashtirishi hamda milliy merosga bo‘lgan hurmatini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega. Shuningdek, an’anaviy etnopedagogik elementlar bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli metodlar tarixiy ongni yanada boyitib, global axborot makonida milliy o‘zlikni asrab qolishga xizmat qilishi ilmiy asosda tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamadjonovich T. M. YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING ROLI //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 724-728.
2. Abdulla o‘g‘li M. T. MILLIY G‘OYANI SHAKLLANTIRISHNING YOSHLAR KAMOLOTIDA TUTGAN O‘RNI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 4. – №. 37. – C. 248-250.
3. Komiljon o‘g O. U. et al. KELAJAK AVLODINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2024. – T. 3. – №. 31. – C. 43-46.
4. G‘aybullayev A. A. YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLARGA YO‘NALGANLIGINING IJTIMOIIYPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – C. 552-563.
5. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
6. Xasanov Z. et al. O ‘ZBEKISTON YOSHLARI TA’LIM VA TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA MILLIY-MA’NAVIY VA AXLOQIY MEZON HAMDA ME’YORLARNING AHAMIYATI //HARBIY PEDAGOG. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 7-12.

7. Ibragimova R. MILLIY UDUMLAR–MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MEZONDIR //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 2. – C. 120-120.

8. Ahmedova D. YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY JARAYONLARNING TA'SIRI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 5. – С. 173-177.

9. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.

10. Xolmatova A., Xayrullaeva X. MILLIY QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI //Pedagogs. – 2025. – Т. 81. – №. 1. – С. 41-46.



LINGUOCREATIVE GAME: CONTENT, PURPOSE, AND SCIENTIFIC FOUNDATIONS

Sunatillo Amonov Nusratovich

Fellow PhD student at Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation This article explores the theoretical and practical aspects of using linguo-creative games in foreign language teaching. The author substantiates the importance of such games in the language learning process and their role in developing students' creative thinking, communicative competence, and motivation. Based on the analysis of psychological and pedagogical sources, the article discusses the educational effectiveness of games and their contribution to the development of communication skills. It also emphasizes the necessity of integrating creativity into lessons and considering students' needs during the planning stage. The research findings show that using linguo-creative games makes the process of learning a foreign language more effective, engaging, and meaningful.

Keywords: linguo-creative, game technology, foreign language teaching, communicative approach, methodology, interactive games

Annotatsiya Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda lingvokreativ o'yinlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muallif bunday o'yinlarning til o'rganish jarayonidagi ahamiyatini hamda ularning o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, kommunikativ kompetensiyasi va motivatsiyasini rivojlantirishdagi o'rnini asoslab bergan. Psixologik va pedagogik manbalarni tahlil qilish asosida o'yinlarning ta'limiy samaradorligi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qo'shgan hissasi muhokama qilingan. Shuningdek, darslarda ijodkorlikni tatbiq etish va rejalashtirish bosqichida o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvokreativ o'yinlardan foydalanish chet tilini o'rganish jarayonini samaraliroq, qiziqarli va mazmunli qiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik – kreativ, o'yin texnologiyalari, chet tilini o'qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv

Аннотация В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования лингвокреативных игр в обучении иностранным языкам. Автор обосновывает значимость таких игр в процессе изучения языка, а также их роль в развитии творческого мышления учащихся, коммуникативной компетенции и мотивации. На основе анализа психолого-педагогических источников обсуждается образовательная эффективность игр и их вклад в развитие коммуникативных навыков. Также подчеркивается необходимость интеграции креативности в учебные занятия и

учета потребностей учащихся на этапе планирования. Результаты исследования показывают, что использование лингвокреативных игр делает процесс изучения иностранного языка более эффективным, увлекательным и содержательным.

Ключевые слово: лингвокреативных, игр, обучении иностранным языкам, коммуникативной компетенции,

Introduction

Nowadays, there is a noticeable shift in foreign language teaching from traditional approaches to more interactive and creative methods. In this process, linguocreative games not only make the language learning experience more engaging and dynamic but also foster students' creative thinking. This article explores the theoretical foundations of linguocreative games, their advantages, and the effectiveness of their practical application. Purpose: In the current era, foreign language teaching is increasingly shifting from traditional approaches to interactive and active methods, with linguocreative games becoming more widely used in the classroom. The term "*linguocreative game*" is derived from the Latin "*lingua*" meaning *language*, and the English "*creative*" meaning *imaginative* or *innovative*. Incorporating such games into lessons helps develop students' creative thinking and speaking competencies.

A linguocreative game, as an approach, serves as a methodological basis for enhancing creativity, communication, and speech development through game elements in foreign language learning. When used wisely in the classroom, this approach boosts students' interest in the lesson and increases their motivation to use the language freely and actively. Additionally, creating a stable emotional-psychological environment significantly enhances the effectiveness of the language acquisition process.

Games and Creativity

Games play a crucial role in the psychological development of every school-aged child. This idea is emphasized by the renowned Russian psychologist L.S. Vygotsky in his works. In his famous piece "*The Role of Play in the Psychological Development of the Child*", he states:

"In the process of play, every child reflects real-life situations and reconstructs them through language. Through this, the triad of language – thinking – activity develops."

From this, we understand that games are not merely a form of entertainment, but rather a powerful tool for developing every child from a linguistic perspective. Games are effectively used in the language learning process, making the retention of information easier and more natural. This, in turn, makes learning more memorable and engaging. Utilizing games in the language learning process helps internalize the activity in the child's consciousness, making it both enjoyable and unforgettable.

Materials and Methods:

The Educational Value of Linguocreative Games

Modern pedagogy and language teaching methodology make extensive use of linguocreative approaches. Developing core competencies in foreign language learning — such

as grammar, vocabulary, phonetics, pragmatics, and communication skills — through games has proven to be highly effective.

Although the term “*creativity*” is widely used in English language teaching and education, it is often interpreted differently and, in some cases, even contradictorily. Therefore, it is essential to clearly and precisely define the concept of *linguistic creativity* in the context of English language teaching.

Arthur Koestler (1964), in his book *The Act of Creation*, states that creativity is not simply the act of producing something from nothing, but rather the reorganization or restructuring of already existing elements. According to him, linguistic creativity involves rediscovering, selecting, combining, synthesizing, and reorganizing existing facts, ideas, and skills. The more familiar the parts and elements are to us — and the better we understand them — the more impressive the newly created outcome appears (Koestler, 1964, p. 120).

Therefore, creative individuals are able to achieve remarkable outcomes by skillfully connecting two seemingly unrelated domains, often generating results that far exceed the effort and resources invested. In their effort to challenge existing myths and rely on more realistic understandings of creativity, Plucker, Beghetto, and Dow (2004, p. 90) offer the following definition:

“Creativity is the interaction among aptitude, process, and environment by which an individual or group produces a perceptible product.”

If we combine the insights of Koestler (1964, 1980) and Plucker et al. (2004), we can conclude that creativity is, in essence, a *democratic phenomenon*. Both teachers and students can apply it independently or collaboratively in practice. The power of creativity — and of linguocreative games — lies in the interaction between the individual qualities they possess.

Some educators, due to their misconceptions about creativity, struggle to implement linguocreative games in a way that encourages creative qualities. The core issue is that many people equate creativity only with the production of art, which limits teachers’ ability to see themselves as creative professionals. However, when we speak in a foreign language, we are already being creative — because all humans are inherently creative. A child needs a great deal of creativity to learn a language and to use it in communication.

As language instructors, we must make more effective use of linguocreative games. Creativity is not merely about using films, flashcards, poems, stories, or media content in the classroom. It is about using such materials creatively — employing metaphors, analogies, and symbolic explanations to convey different subjects and ideas. Creative teaching also means going beyond routine classroom activities and incorporating various forms of linguocreative games to deepen understanding and engagement.

The Educational Value of Linguocreative Games

Modern language teaching methodologies widely employ linguocreative approaches. Developing key language competencies — grammatical, lexical, phonetic, pragmatic, and communicative skills — through games produces effective results.

I.A. Zimnyaya writes on this subject:

“Learning through play is a creative activity carried out in collaboration between the teacher and the learner. It strengthens the emotional background and increases interest in the lesson.”

(Zimnyaya, I.A. (2001). *Fundamentals of Pedagogical Psychology*. Moscow: Logos.)

L.A. Kondrateva also emphasizes the role of linguocreative games in developing students’ ability to think independently, engage in communication, and use the language actively:

“Through linguocreative games, the learner creatively applies new language structures and learns to use them freely. This, in turn, increases their readiness for communication.”

(*Kondrateva, L.A. (2010). *Methods of Speech Development in Foreign Language Lessons*.)

Advantages

of

Games

Linguocreative games make the learning process active and engaging for students. They offer the following advantages:

Advantage	Definition
Develops creativity	The student independently creates words, phrases, or stories
Increases motivation	Teaching in an engaging environment makes the student an active participant
Enhances communicative competence	Learns to communicate within the context of a game
Strengthens language skills	Grammar, vocabulary, and phonetic skills are reinforced
Teaches free expression	The student learns to express their thoughts clearly and concisely
Quick summary	The results are shown immediately and video content can replayed again

How can we incorporate linguistic creativity into our lesson plans?

Lesson planning is a significant challenge. If we do not understand the purpose and function of each stage, we will inevitably be defeated in this battle. It is a mistake to use creative ideas in the classroom merely for the sake of entertainment. Creativity must also be used purposefully in the teaching process. When using creative methods, we must understand the goal and structure of the lesson, and this understanding should define the purpose of the creativity itself.

When planning a lesson, special attention must be paid to the interests of a specific individual or group. Therefore, we must consider students’ age, culture, prior education, strengths, and other relevant factors. Even if we know nothing about them, ignoring their interests means we are headed in the wrong direction.

If a teacher constantly reuses the same ten lesson plans just because they have worked in the past—saying things like “I know this book inside out” or “I only teach B1 level students”—then such an approach is not worthy of the teaching profession.

Discussion and results

A well-organized needs analysis activity not only has a positive impact on the learning environment (i.e., "it helps a new student adapt more easily to the group"), but it also eliminates uncertainties about our students. Moreover, it helps identify the factors that influence effective teaching, as mentioned above. Based on the data collected, we can clearly define the stages of the learning process, determine the objectives of each stage, and justify how to achieve the final learning outcomes.

What are the main advantages of having clearly defined stages and objectives?

First of all, planning allows us to map out a pathway that guides students toward predetermined goals and outcomes. Understanding the purpose of each stage in the lesson helps us redirect learners back to the objective if the discussion or activity drifts off-topic.

Another important aspect is that knowing the aim of each stage plays a crucial role in capturing students' attention, motivating them, and determining when and how to introduce the necessary adjustments to achieve the desired results.

In conclusion, aligning what is expected from the student with how to reach these goals effectively serves as a powerful tool in helping us select the most appropriate teaching strategy.

But once each stage is defined with clear objectives, how do we know these objectives are correct and useful?

In the clarification process, we use the **SMART** approach — an acronym that stands for:

- **Specific**
- **Measurable**
- **Achievable**
- **Relevant**
- **Time-bound**

(The acronym “SMART” also means "intelligent" in English, which emphasizes thoughtful and efficient planning.)

- **S – Specific** – Are the expected outcomes and goals clearly defined?
- **M – Measurable** – Is the task designed in a way that encourages students to use the target language purposefully through linguo-creative games?
- **A – Achievable** – Is the task or linguo-creative game appropriate for the students' level and abilities?
- **R – Results-oriented** – Is the task goal-driven? How will students know they have completed it successfully? Are clear instructions provided for completing the task?
- **T – Timely** – Is the time allocated for completing the task sufficient? Is the task challenging yet doable for the learner?

If our goals align with this SMART approach, we can be confident that we are on the right path.

Conclusion:

Linguo-creative games are an innovative method in language teaching that effectively integrates creativity with language competence. This approach is especially beneficial for 10th–11th grade

students, as it not only facilitates knowledge acquisition but also plays a crucial role in helping them express their thoughts, develop communication skills, and prepare for professional life. Therefore, the implementation of this methodological approach for upper-grade students in general education schools is one of the key requirements of modern education.

REFERENCES

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
2. Koestler, A. (1964). *The act of creation*. Macmillan.
3. Plucker, J. A., Beghetto, R. A., & Dow, G. T. (2004). Why isn't creativity more important to educational psychologists? Potential, pitfalls, and future directions in creativity research. *Educational Psychologist*, 39(2), 83–96. http://dx.doi.org/10.1207/s15326985ep3902_1
4. Xerri, D. (2013). Poetry teaching and creativity: An interpretative phenomenological analysis of the experiences of secondary school English teachers. *GEMA Online® Journal of Language Studies*, 13(1), 47–61. <https://doi.org/10.17576/GEMA-2013-1301-04>
5. Vassallo, O. (2016). Creativity in the language classroom. In D. Xerri & O. Vassallo (Eds.), *Creativity in English language teaching* (pp. 95–110). ELT Council.
6. Zimnyaya, I. A. (2001). *Osnovy pedagogicheskoy psikhologii* [Fundamentals of pedagogical psychology]. Moscow: Logos.



TARIX FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ergashevamaftuna1986@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli vositalar, multimedia platformalari, virtual darslar, interaktiv taqdimotlar va onlayn ta’lim resurslari tarix darslarining sifatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirish, darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi omillar yoritib beriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarix fanini raqamli vositalar yordamida o‘qitish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, Milliy dastur, qiziqarli dars, kreativlik, 3D modeli, korpus lingvistikasi, tarmoq tahlili, IT park.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования цифровых технологий в преподавании истории. Сегодня в системе образования цифровые инструменты, мультимедийные платформы, виртуальные классы, интерактивные презентации и образовательные онлайн-ресурсы служат важными инструментами для повышения качества уроков истории. В статье будут освещены такие факторы, как формирование исторического мышления учащихся с помощью современных технологий, повышение их интереса к урокам, развитие навыков самостоятельного исследования. Также будут рассмотрены проблемы, возникающие в процессе внедрения цифровых технологий, и пути их преодоления. Исследование показало, что преподавание истории с помощью цифровых средств значительно повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: цифровые технологии, национальная программа, увлекательный урок, креативность, 3D-модель, корпусная лингвистика, сетевой анализ, ИТ-парк.

Annotation: This article analyzes the effectiveness of the use of digital technologies in teaching history. Today, in the educational system, digital tools, multimedia platforms, virtual classes, interactive presentations and online educational resources serve as important tools in

improving the quality of history lessons. The article will highlight such factors as the formation of historical thinking of students through modern technologies, increasing their interest in classes, developing independent research skills. Problems encountered in the digital technology implementation process and ways to overcome them are also considered. The study found that teaching history using digital tools significantly increased educational effectiveness.

Keywords: digital technology, National Program, fun lesson, creativity, 3D model, corpus linguistics, network analysis, IT park.

KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda barcha sohalarda raqamli texnologiya vositalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda va ushbu jarayon pedagoglarni zamon bilan hamnafas odimlashimizni hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalangan holda dars jarayonlarini turli xil kreativ usullar orqali tashkil qilinishini taqozo etmoqda. Raqamli texnologiya vositalari tarix fanini o‘qitishni yanada osonlashtiradi deb aytishimiz mumkin. So‘nggi yillarda ta‘lim jarayonida raqamli texnologiya vositalarida keng ko‘lamda foydalanish rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda raqamli texnologiya vositalarining joriy etilishi bu fanni o‘ziga xos ravishda jonlantirib, tarixiy fakt va hodisalarni yanada ravshanroq anglashga yordam beradi. An‘anaviy dars usullariga qaraganda raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi va faollik darajasini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Yana shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, zamonaviy AKT ning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda interfaol va qiziqarli dars jarayonlarini tashkil etish uchun yangidan – yangi imkoniyatlar yaratdi. Raqamli texnologiya vositalaridan samarali tarzda foydalanish orqali o‘qituvchilar tarixiy voqealarni jonlantirish mumkin bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarga ularni chuqur o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Interfaol vaqt jadvallaridan tortib virtual reallik tajribasigacha raqamli texnologiya vositalari yordamida o‘rganish ko‘nikmasini yaxshilaydi va tarixiy voqealiklarni o‘quvchilarga tushuntirishda ta‘sirchanligini yana ham orttiradi, shu bilan birga raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish birlamchi manbalarni multimedia materiallari va virtul sayohatlar singari tarixiy resurslardan faol tarzda foydalanishni ta‘minlaydi, bu esa o‘z navbatida tarix fanini o‘rganishning samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun mamlakatimiz istiqlolni sharofati tufayli barcha fan sohaslarini rivojlangan davlatlarda to‘plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o‘rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy Dasturda ta‘kidlanganidek, yaqin kelajakda “Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqariladi, xalqaro ta‘lim tizimlari rivojlanadi”⁴⁹. O‘zbekistan Respublikasi

⁴⁹ Barkamol avlod 'O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori', Toshkent. Sharq, 1997-y

demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati ko'rish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik tushunchaning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz. Gap zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktablarning moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'ydi.

Mashg'ulotlarni guruhlariga ajratib va individul o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir.⁵⁰ Albattaki bu maktab tarix fanini o'qitilish tizimidan boshlanganligi aynan maqsadga muvofiqdir. Texnologiyalardan keng foydalanish bilan birga o'quvchi yoshlarni dars jarayoniga jalb qilishga ham erishish samarali natija beradi.

Raqamli texnologiyalarni keng miqyosda qo'llash insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga nisbatan tezroq sodir bo'lmoqda. O'tmishga nazar soladigan bo'lsak bor – yo'g'I 20 yil mobaynida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foiz miqdorini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Ta'lim sohasida virtual tarzda o'quv muhiti va masofaviy ta'lim tizimining amaliyotga tatbiq etilishi talabalarga boshqa imkoniyatlarga ega bo'lmagan dasturlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali turli xil davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda tarix fanini o'qitishda ham raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Raqamli texnologiyalar – signallar uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret signallar vositasida ishlaydi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar – bu ma'lumot “raqamlashtirilgan”, ya'ni universal raqamli shaklida taqdim etiladigan texnologiyalar bo'lib, ular muammolarni tezda hal qilish uchun axborotni kodlash va uzatish usullariga asoslanadi. Shu kabi texnologiyalarni tarix fanini o'qitishda qo'llash bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Hozir kompyuter texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada keng miqyosda qo'llanilmoqda. Shu o'rinda raqamli

⁵⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/tarix-fanini-o-qitish-tizimini-takomillashtirishda-zamonaviy-texnologiyalarning-o-rni>

texnologiyalardan tarix darslarida foydalanishga ham alohida e‘tibor berishimiz zarur. Pedagoglar oldingi ta‘lim dasturlarini an‘anaviy usulda ya‘ni ma‘ruza shaklida katta hajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali olib borilgan. Bu esa ta‘lim sifatini u qadar yuqori bo‘lishini ta‘minlamagan. Hozirda ta‘lim sifatini ko‘tarish ta‘limni raqamlashtirish jarayonida noan‘anaviy ta‘lim texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi umumta‘lim maktablari, kollej, akademik litseylar va oiliy ta‘lim muassasalarida tarix darslarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu kabi zamonaviy texnologiyalardan ta‘lim sohasida keng miqyosda foydalanish inson hayotini tubdan o‘zgartirib, uning faoliyati sifatini oshirishiga keng yo‘l ochadi. “Ta‘lim muassasalarida o‘qitib kelinayotgan tarix fani ham mana shunday raqamli formatsiyaga muhtoj. Albatta, savollar tug‘ilishi tabiiy, tarix fani o‘tgan davrni arxeologik manbalar, tarixiy asarlar, yodgorliklar, muzey eksponatlari, arxivlar va boshqa tarixiy faktlar orqali o‘rgansa, bu fanda raqamli texnologiyalardan foydalanishni yoki raqamli tarixni nima keragi bor? deb o‘ylashingiz mumkin. Biz aytmoqchimizki, aynan tarix fani ishqibozlarini ushbu fan yutuqlarini bugungi kun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘rganish – ya‘ni tarix fanini o‘qitish, o‘rganishni modernizatsiya qilish – ushbu fanda juda katta inqilob yasaydi”⁵¹. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, biz tashrif buyuradigan milliy va tarixiy muzeylarimizdagi eksponatlarning 3D modelini yasash va uni amaliyotga tadbiq qilish birinchi navbatda biz jonsiz bo‘lgan tarixni jonlantiramiz. Bu oraqali nafaqat talabalarni balki, tarixga qiziquvchi insonlarni ya‘ni turistlar va ko‘ngilli kishilarni jalb qilishning bir vositasi sifatida, ushbu muzeydagi eksponatlarni jahonga mashhur qilishimiz mumkin.

Tarix darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish quyidagilardan iborat: “raqamli arxivlar, onlayn taqdimotlar, ma‘lumotlar vizualizatsiyasi, interaktiv xaritalar, vaqt jadvallari, audio fayllar va virtual olmlar tarixni foydalanuvchiga qulayroq qilish. So‘nggi raqamli tarix loyihalari ijodkorlik, hamkorlik va texnik innovatsiyalar, ma‘lumotlarni intellektual tahlil qilish, korpus lingvistikasi, tarmoq tahlili, 3D modellash va katta ma‘lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan”⁵². Raqamli texnologiyalar orqali ta‘lim berilsa ta‘lim oluvchilarga ta‘lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta‘lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doskalar, proyektorlar bajarib beradi. Ta‘limda bunday texnologiyalar bilan dars mashg‘ulotlarini olib borish ta‘lim sifatini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, televideniya orqali berib boriladigan onlayn darslarni ta‘lim olishning bir turi desak bo‘ladi. Raqamli ta‘lim zonasi rivojlanishiga Wi-Fi lar, IT parklar ochilishi ham katta xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa boshqa innovatsiyalarga nisbatan tez sodir bo‘lmoqda. Bor yo‘g‘i yigirma uch yil ichida axborot texnologiyalaridan foydalanayotgan odamlar qariyb 50% ga oshgan.

⁵¹ Shoyimov S. “Tarix fanida raqamli texnologiyalardan foydalanish yoxud raqamli tarix” maqolasi.

⁵² Mo‘minov H., Kamolov M. Raqamli texnologiyalar va raqamli tarix. Andijon. 2023.

Tarix fanida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ✓ Birinchidan fanning modernizatsiya qilinishi orqali fanning yana ham rivojlanishiga, bugungi kun talablariga javob berish hamda eng asosiysi, fanga qiziquvchilarning soni oshishiga, tarix o‘qitish va o‘rganishning sifati yanada oshishiga;
- ✓ Ikkinchidan, tarix fanida raqamli texnologiya vositalarini qo‘llash natijasida fanga oid o‘quv materiallar hajmining ortishi hamda ulardan tarix darslarida bimalol foydalana olish mumkinligi va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishdir. Xususan, tarix fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv olib kirib, an’anaviy dars metodlarining samaradorligini oshiradi. O‘tkazilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, videodarslar, virtual sayohatlar, tarixiy xaritalar va 3D modellash texnologiyalari orqali o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, voqealarga tanqidiy yondashuv, sabab-oqibatlarini tahlil qilish ko‘nikmalari kuchaymoqda. Ayniqsa, raqamli resurslardan foydalanish orqali tarixiy manbalarni mustaqil o‘rganish va tahlil qilish imkoniyati kengayadi, bu esa o‘quvchilarning ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Tarix fanini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodda tarixiy ong va milliy g‘ururni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar, tajriba almashinuvi va innovatsion metodlarni keng joriy etish kelajakda raqamli tarix ta’limining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barkamol avlod 'O'zbekiston taraqqiyotining poydevori', Toshkent. Sharq, 1997-y
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/tarix-fanini-o-qitish-tizimini-takomillashtirishda-zamonaviy-texnologiyalarning-o-rni>
3. Shoyimov S. “Tarix fanida raqamli texnologiyalardan foydalanish yoxud raqamli tarix” maqolasi.
4. Mo‘minov H., Kamolov M. Raqamli texnologiyalar va raqamli tarix. Andijon. 2023.
5. Yulduz Aminjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday farqlanadi? 'Ma'rifat gazetasi', 2003-y.19-mart
6. G'afforov Y "Mahsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik tehnologiyalardan foydalanish usullari" Toshkent-2021, 'Sharof nur fayz' 2021.
7. Sh.Kurbonov, E.Seytxalilov. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi: pedagogik ilmiy-tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. -Toshkent: Fan, 1999. -
8. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent:Moliya, 2003.

9. Yulduz Amirjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday farqlanadi? // Ma'rifat. 2GG3. 19-mart.
10. Barkamol avlod, O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq.1997.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

THE DEVELOPMENT OF ICT IN EDUCATION

Rakhimova Malika Anvarovna
INHA University Tashkent
Adjunct Professor
MA TESL

Abstract: INHA University in Tashkent (IUT) is a branch of Korean INHA University and was founded in 2014 according to the resolution of the first President of the Republic of Uzbekistan, Islam Karimov. The IUT is the outcome of a partnership between the University of Korea of INHA and the Government of Uzbekistan to establish IT leaders. The University of INHA in Korea focuses on engineering, IT, management, logistics, etc. Similar to its Korean equivalent, INHA University in Tashkent utilizes the same curriculum and academic program.

Over 1,500 students are currently studying at IUT, which offers outstanding programs with deep practical and theoretical backgrounds that are necessary for students to apply their expertise to problems in the real world.

The Continuing Education Centre (CEC) was founded as a subdivision of INHA University in Tashkent to introduce additional educational programs to prepare students from academic lyceums and colleges for enrollment in INHA University and other higher education institutions. The Centre works to meet the needs for in-depth study of the English language, to provide an additional and in-depth study of mathematics and physics (other subjects), and to train students to enroll in Uzbekistan's INHA University and other universities of higher education. Trained faculty teams, results-oriented learning materials, and comprehensive feedback ensure sound academic success in a free educational environment. Being an international university, INHA seeks equal opportunity for every learner representing different cultural backgrounds from around the world who wish to be a part of this multicultural institution.

Keywords: IUT, platform, legislative document, IT training, technical support, interactive boards, writing abilities, stakeholders

Introduction: IUT Pre-university courses aim at preparing highly competitive students to enter both local and international universities. The courses embrace levels from beginner to high intermediate to facilitate IELTS preparation. The CEC offers quality lessons conducted by highly qualified teachers with the integration of contemporary teaching methods based on superb materials and textbooks. Nevertheless, there is a number of considerations that need to be addressed at the center to improve the quality of education. Due to the pandemic outbreak of

COVID-19, the preparatory courses had to quit the traditional method of learning and switch to a recorded form of the lessons that were conducted in an equipped studio. It turned out to be a challenging task since all the teachers had to conduct the lessons covering all four language skills speaking and explaining the topics and rules for one hour non-stop in front of the camera. For this, it was necessary to have a high-feature microphone to provide the required volume for students, who, in turn, were supposed to watch the recorded lessons via the google classroom platform on the web. As a result of constant failures in the adequate work of the microphone, students started to complain about the sound quality of the lessons. What is more, the teachers even had to re-record some of the lessons because at times owing to malfunction, the sound was not being recorded totally.

Upon returning to the traditional on-campus method of learning, other insufficiencies in the work of technology were identified. Relieved and overwhelmed with the start of an offline-mode, students expected more lively lessons incorporating audio and video materials. However, this was not the case due to the machinery glitch of some of the in-class equipment. Based on these issues, it is vital to undertake steps to improve the facilities for quality learning to take place.

In this proposal, I would like to suggest a project that would enhance the use of technology in classrooms where English is taught. Clear articulation of the goals and objectives of the given proposal is assumed to assist the project to be efficiently realized in the future. Language teaching is a meticulous job that requires a versatile approach to delivering the available material. When covering a topic or a unit of the textbook, teachers need to use a whiteboard, demonstrate video or PowerPoint presentations, play audio material and conduct interactive activities on the internet. All of these require having quality technology at their disposal, that is, technically equipped classrooms that are spacious enough to accommodate each piece and to conduct interactive lessons with students moving freely around the class. What is more, the rooms should be supplied with innovative single-seat desks and chairs that can be repositioned upon request.

The purpose of the given proposal is to maintain micro-level language policy at the preparatory courses of the CEC and to prepare qualified users of the English language with the objective of nailing the language proficiency test such as IELTS to join international universities by introducing advanced technology in English language classrooms. As per Azizova (2014), official legislative documents of the Republic of Uzbekistan emphasize the importance of educational reforms in our country, and the first important approach to the technical development of foreign language classrooms was taken at the macro-level that is seen in the resolution by the first president of the Republic of Uzbekistan № 143 from May 23, 2013 “On measures to accelerate equipping classes of foreign languages of educational institutions in the Republic with modern information-communication equipment, technical means of teaching and tools in 2013 – 2016”. At the micro-level, it is practical to keep pace with the time in terms of technological advances to contribute to the productivity of the instructional process and create

a fruitful learning environment for young individuals. Furthermore, educators need to be provided with IT training and technical support to become proficient in this field in order to enhance the operation of the technical equipment to prevent interruption of the scheduled lesson.

So, it is clear that the goal of the given project is to increase motivation and the academic success of English learners through the integration of ICT into ELT. Above all, it is vital to organize technical training for teachers and to support them with the constant supervision of technical specialists.

ICT instruments are regarded as the most critical components of teaching-learning environments in English teaching and learning because of their major contributions to structuring the teaching process in a way that appeals to multiple sensory organs, helps students fulfill their individual needs, draws attention to them, encourages remembrance. It saves time and embodies abstract ideas. As per Barron, Orwig, Ivers, and Lilavois (2001), the advantages of technology integration are as follows:

- Encourages learners' activeness, cooperation, and critical thinking
- Supports students' diverse learning styles
- Provides individual growth and encouragement
- Increases contact between teachers and students
- Improves skills in communication
- Assists students in constructing cultural bridges.

The use of instruments such as interactive screens, laptops, projectors, and tablet PCs in the classroom and the use of technologies such as the internet, mobile devices, etc outside of the classroom, and phones have a daily contribution to learning with students. The use of interactive boards can be said to increase the ability of students to memorize materials, provide efficient and constructive learning, and enable students to reinforce previously learned materials. The attitudes of the teachers and the students to the interactive board are shown to be positive. As for students' listening skills, multimedia technology must be incorporated into the teaching and learning of English. Multimedia devices such as audio, video, and animation are becoming increasingly commonplace and available listening tools. Visual resources, such as radio and TV programs (Nomass 2013), improve listening abilities for learners, increase listening self-confidence and also increase media use when it is not always possible to meet native speakers or teachers.

A rapid change in the methods of teaching, namely the CLT (Communicative Language Teaching) approach, made it necessary to apply interactive instruments in the case of teaching and learning foreign languages. The spread of the English language in the territories of the former Soviet Socialist Republics was another important factor that sparked the need for technology integration in foreign language classes. "While local languages have regained their official language status, in newly independent post-Soviet countries, English has become the most frequently studied foreign language, and Hasanova (2007) recognizes this phenomenon as

the "boom" period in her paper, Broadening the borders of the Expanding Circle: English in Uzbekistan. The integration of ICT in the English language classrooms can to a large extent enhance the target language skills, reading, listening, speaking, and writing. Audio and video materials that are carried out and demonstrated with the help of a laptop and speakers, as well as OHP, can contribute to the development of listening and speaking skills and strategies, such as comprehending main clues and paraphrasing, whereas reading abilities can be developed with tools such as searching the Internet, using interactive applications, using electronic dictionaries and glosses, reading newspapers and books on the internet, and using reading-based computer programs. Students can improve their writing abilities with the help of real-world tasks that are done using the laptop and the internet, such as a blog, an internet forum, and an electronic portfolio.

It is necessary to have a certain type of preparation and support system. The map of support systems is a way to keep track of who is accountable at the university and district level for instructional planning decisions and tech-related issues. ICT implementation can be carried out in three phases: initiation, development, and implementation. In the initial phase, stakeholders consider the proposal, weighing its advantages and disadvantages. After coming to one conclusion, they smoothly move to the next phase, which is development. At this stage, it is worth doing the inventory, checking the available technology for errors as well as negotiating on expenditures.

Regardless of the technology that will be applied, stakeholders will have different preferences about how they will be affected by the new technology. Therefore, in order to achieve effective implementation, collaboration with these groups is necessary. Weller (2007, p. 50) suggests that the other advantage of holding a stakeholder consultation is enhancing the future consistency of the decision.

To sum up, technology can be seen as a very productive way to expand the possibilities for education. There is also an overwhelming need for professional development sessions and proper preparation that will take the best out of teachers and give the students the best opportunities.

REFERENCES

1. Azizova, G. (2014). Uzbekistan government policy towards teaching the English language. *The Advanced Science Journal*, 2014(5), 25–28.
2. Barron, A.E., Orwig, G.W., Ivers K.S. and Lilavois, N. (2001). *Technologies for Education* Greenwood Village, CO: Libraries Unlimited Greenwood Publishing Groups, Inc.
3. Hasanova, D. (2007). Broadening the boundaries of the Expanding Circle: English in Uzbekistan. *World Englishes*, 26(3), 276–290.
4. Nomass, B. (2013). The impact of using technology in teaching English as a second language. *English language literature and studies. Journal*.



OTM TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi
TDIU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tanqidiy fikrlashning mazmuni, ahamiyati, shuningdek, uni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Muallif talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar haqida ilmiy asoslangan xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, OTM, talabalar, ta’lim, pedagogik shart-sharoit, interfaol metodlar.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования и развития критического мышления у студентов высших учебных заведений. Анализируются содержание, значение критического мышления, а также организационно-педагогические условия, необходимые для его эффективного развития. Автором приводятся научно обоснованные выводы о педагогических подходах и инновационных методах, способствующих формированию критического мышления у студентов.

Ключевые слова: критическое мышление, высшие учебные заведения, студенты, образование, педагогические условия, интерактивные методы.

Abstract: The article examines the issues of formation and development of critical thinking in students of higher educational institutions. The content and significance of critical thinking, as well as the organizational and pedagogical conditions necessary for its effective development are analyzed. The author provides scientifically based conclusions about pedagogical approaches and innovative methods that contribute to the development of critical thinking in students.

Key words: critical thinking, higher education institutions, students, education, pedagogical conditions, interactive methods.

Kirish

XXI asrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirishdir. Oliy ta’limda bu vazifa yanada dolzarb bo‘lib, talabalarining faqat bilim egallashi emas, balki olgan bilimlarini tahlil qilish, baholash, yangi

g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi. Tanqidiy fikrlash – bu murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, insonning fikr yuritish qobiliyatini, tahliliy yondashuvini, muammolarga izchil va mantiqiy yondashish salohiyatini anglatadi.

Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun tegishli tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Ushbu maqola aynan shu shart-sharoitlarni ilmiy asosda tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tanqidiy fikrlash – bu insonning har qanday axborotni o‘zlashtirishda uni avtomatik ravishda qabul qilmasdan, tahlil qilish, asoslash, savol qo‘yish, muqobil variantlarni ko‘rib chiqish orqali chuqur anglab yetish qobiliyatidir (Paul & Elder, 2014). OTM talabalar uchun bu ko‘nikma nafaqat o‘qish jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Halpern (2013) ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash bu – “bilimni avtomatik emas, ongli tarzda qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan fikr yuritish”. O‘zbekistonlik olim Odirova (2024) tanqidiy fikrning ildizlari Sharq falsafasida ham mavjudligini, Alisher Navoiy, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlar asarlarida tahliliy yondashuvlar mavjudligini ta’kidlaydi.

Urinboyev va Abdurahmonov (2024) tanqidiy fikrlashni “ta’lim sifati va talabalar ongining faolligini oshiruvchi asosiy omil” deb baholaydi.

Ilmiy adabiyotlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi tashkiliy shart-sharoitlarning zarurligini ko‘rsatadi:

- **O‘quv rejalari mosligi:** Omonova (2025) “Tanqidiy fikrlash” va “Meta-fan” kabi umumiy rivojlantiruvchi fanlarni kiritish orqali bu ko‘nikmani muntazam shakllantirishni taklif qiladi.
- **Interaktiv muhit:** Campo va boshqalar (2023) talabalarning fikricha, eng samarali metodlar – debat, keys-stadi, hamkorlikdagi ta’lim.
- **Texnologik vositalar:** Ablakulov (2025) esa ingliz tilini o‘qitish jarayonida tanqidiy fikrni rivojlantirish uchun onlayn platformalar, analitik matnlar va kreativ yozuv topshiriqlarini samarali deb topadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida OTM talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogic shart-sharoitlarini yoritib beruvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, OTMda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy shartlar quyidagilardan iboratligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz:

- ✓ ***O‘quv rejalari va dasturlarni takomillashtirish.*** Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan fanlarni (mantiq, tahliliy fikrlash, falsafa) joriy etish.

Agar o‘quv rejalari va dasturlarda tanqidiy fikrlash alohida o‘quv natijasi sifatida belgilanadigan bo‘lsa, barcha fanlarda uni shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriq va metodikalar ko‘zda tutiladi. Bu esa tanqidiy fikrni tasodifiy emas, tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. *Masalan:* “Ingliz tili” fanida faqat grammatika emas, balki dalillash, muqobil fikr aytish, matnni tanqidiy tahlil qilish ham darsning ajralmas qismiga aylanadi.

Takomillashtirilgan dasturlar interaktiv metodlarga asoslanadi:

- **Problem-based learning (PBL)** – talabalar real hayotdagi muammolarni tahlil qiladi;
- **Project-based learning** – mustaqil tadqiqotlar va ishlanmalarga tayanadi;
- **Debatlar, keys-stadi** – fikr yuritish, bahslashish, dalillash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Bu usullar tanqidiy fikrlashning asosi bo‘lgan tahlil, sintez va baholash ko‘nikmalarini faollashtiradi.

Yaxshi tuzilgan o‘quv rejalarida ijtimoiy, texnik va gumanitar fanlar bir-biri bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Bunday integratsiya talabalarni turli nuqtai nazardan fikrlashga o‘rgatadi, bu esa tanqidiy fikrni kuchaytiradi.

Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan dasturlar baholashda nafaqat faktik bilim, balki mantiqiy asoslanganlik, dalil va misollar bilan fikrni isbotlash, muqobil qarashlar bildirish kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi. Bu talabalarni yuzaki yodlashdan ko‘ra chuqur fikrlashga undaydi.

Takomillashgan dasturlar talabalarni mustaqil tahlil qilish, tanqidiy savollar qo‘yish, o‘z fikrini asoslashga yo‘naltiradi. Bu esa ularning nafaqat bilim darajasini, balki fikr yuritish madaniyatini ham oshiradi.

O‘quv rejalari va dasturlarni tanqidiy fikrlash kompetensiyasiga moslashtirish orqali talabalarda: mustaqil fikrlash, asoslangan xulosa chiqarish, muqobil fikrni qabul qilish, dalillarga asoslanish kabi hayotiy va professional jihatdan muhim ko‘nikmalar rivojlanadi.

- ✓ ***Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.*** Masalan, problemali ta’lim, loyiha asosidagi ta’lim, keys-stadiy va boshqalar.

Zamonaviy texnologiyalar orqali talabalar internet, raqamli kutubxonalar va ilmiy bazalardan ko‘plab ma’lumotlarni oladilar. Ammo bu ma’lumotlar turlicha sifatga ega bo‘lganligi sababli ularni tahlil qilish, solishtirish va tanlash zarur bo‘ladi — bu esa tanqidiy fikrning asosidir. Masalan: talabaga bir mavzu bo‘yicha ikki qarama-qarshi maqola beriladi va u qaysi biri ishonchliroq ekanini aniqlashi kerak.

Video darslar, hujjatli filmlar, podkastlar orqali talabalar turli nuqtai nazarlarni tinglaydi, ko‘radi va tahlil qiladi. Bu jarayon o‘z fikrini bildirish, boshqalar fikrini baholash, xulosalarga asosli yondashish kabi tanqidiy fikrlash jihatlarini mustahkamlaydi.

Google Jamboard, Padlet, Zoom Breakout Rooms, Moodle forumlari kabi vositalar orqali talabalar guruh muhokamalari olib boradi, o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki ifodalaydi,

boshqalarning fikriga munosabat bildiradi. Bu faollik tanqidiy savollar qo‘yish va tahliliy yondashuvni kuchaytiradi.

Simulyatsiya va virtual muhitlar orqali qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Masalan, biznes simulyatsiyalar, tarixiy rolli o‘yinlar yoki virtual tajribalar orqali talabalar real muammolarni hal qilishga majbur bo‘ladi. Bu esa muammoga tanqidiy yondashish, oqibatlarni oldindan ko‘ra olish, tahliliy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli yozuv va fikr bildirish vositalari mustaqil tahlilni rag‘batlantiradi. Blog yozish, analitik esselar tayyorlash, digital storytelling (raqamli hikoyalash) kabi topshiriqlar talabani chuqur tahlilga, dalillashga, muqobil nuqtai nazarlarni keltirishga undaydi.

Sun'iy intellekt (SI) vositalari bilan ishlash tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Talabalar ChatGPT, Grammarly, QuillBot kabi vositalardan foydalanganda, ularning javoblarini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqish, noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumotlarni ajratish ko‘nikmasini egallaydi. Bu esa “ko‘r-ko‘rona qabul qilish” emas, fikr yuritib qabul qilishni shakllantiradi.

Demak, zamonaviy ta’lim texnologiyalari talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda mustaqil izlanish, axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish, fikrni asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun bu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq integratsiya qilish talabalar fikr yuritish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

✓ **Muqobil fikrlashga ochiq akademik muhit.** Talabalar erkin fikr bildiradi oladigan, muhokamalarda ishtirok etadigan sharoitlar yaratish.

Muqobil fikrlashga ochiq akademik muhit — bu talabalar turli fikr, yondashuv va qarashlarni erkin bildiradi oladigan, bahslashish va shubha qilish imkoniga ega bo‘lgan ilmiy-tarbiyaviy muhitdir. Bunday muhit tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir.

Muqobil fikrga ochiq muhitda talabalar turli nuqtai nazarlarni eshitadi, ularni solishtiradi, dalillar asosida qaysi fikr haqiqatga yaqinligini tahlil qiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning asosiy unsurlari – tahlil, sintez va baholashni faollashtiradi.

Akademik muhitda talabalar o‘z fikrlarini isbotlashga majbur bo‘ladi. Har qanday da’vo dalil, misol, statistik ma’lumot bilan mustahkamlanishi talab qilinadi. Masalan: seminar darslarida "Bu fikrni qanday asoslaysiz?", "Muqobil yechimlar bormi?" kabi savollar tanqidiy yondashuvni kuchaytiradi.

Agar talaba o‘z fikrini erkin bildirsa, tanqidga ochiq bo‘lsa va xatolarni o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lsa, u holda o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqadi, yangilaydi yoki mustahkamlaydi, o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘rganadi. Bu esa metakognitiv (ya’ni, o‘z fikrlashini anglash) salohiyatini oshiradi.

Muqobil fikrga yopiq muhitda talabalar "o‘qituvchi aytganidek bo‘lishi kerak" degan fikrga bo‘ysunib qoladi. Biroq ochiq muhit turlicha yondashuvlarga yo‘l beradi, “noto‘g‘ri” deb hisoblangan fikrlarni muhokama qilish imkonini beradi, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

Boshqacha fikrlarga bag‘rikeng bo‘lgan talaba fikrlarni tushunishga harakat qiladi, sabablarini o‘rganadi, tanqid qilishni nafaqat bahslashish, balki chuqur tahlil sifatida qabul qiladi. Bu esa tanqidiy fikrni “hujum” emas, balki ilmiy jarayon sifatida tushunishga olib keladi.

Demak, muqobil fikrlarga ochiq akademik muhit talabalarni erkin fikrlashga, dalil asosida fikr bildirishga, tanqidiy savollar berishga, boshqacha qarashlarni tushunishga o‘rgatadi. Shunday muhitda o‘qiyotgan talaba nafaqat bilim egallaydi, balki fikrlash madaniyatiga ega intellektual shaxsga aylanadi.

✓ **Raqamli vositalardan foydalanish.** Onlayn platformalar, forumlar, simulyatsiyalar orqali tahlil qilishga undash.

Raqamli vositalardan foydalanish talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta’sir qiladi, chunki bu vositalar axborotga kirish, uni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash imkonini kengaytiradi.

Raqamli vositalar (Google, JSTOR, YouTube, Wikipedia, SI chatbotlar, onlayn kutubxonalar) talabalarga ko‘p manbali, tezkor, lekin farqli sifatdag axborotga kirish imkonini beradi. Natijada talaba quyidagilarga o‘rganadi: axborotni tanqidiy baholash (manbaning ishonchliligi, dalillar kuchi); dezinformatsiya va manipulyatsiyani aniqlash; o‘z fikrini dalillarga tayanib shakllantirish.

Platformalar: Google Docs, Padlet, Kahoot, Miro, Quizizz, Moodle, Edmodo, Mentimeter orqali muloqot, bahs-munozara, yozma fikr almashinuvi interaktiv tarzda olib boriladi, talabalar bir-birining fikrini tahlil qiladi, savollar beradi, dalillarni solishtiradi, real vaqtda fikr almashish, muhokama qilish orqali reflektiv fikrlash shakllanadi.

Raqamli vositalar yordamida diagramma, xarita, infografika, video-analizlar tayyorlash, o‘z fikrini tasviriy va asosli tarzda bayon qilish, abstrakt kontseptsiyalarni vizual tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Natijada, talabalar matn yoki og‘zaki ifodalanmaydigan murakkab g‘oyalarni raqamli asosda tahlil qiladi, bu esa ularning fikrni chuqur anglash darajasini oshiradi.

Bloglar, digital portfoliolar, e-jurnallar (Google Sites, Notion, WordPress) yordamida talabalar o‘z fikrlarini yozma tarzda tahlil qiladi, qanday o‘ylagani haqida yozadi (ya’ni, metakognitsiya), vaqt o‘tishi bilan o‘z fikrlash uslubidagi o‘zgarishlarni ko‘ra oladi. Bu — tanqidiy fikrning yuqori bosqichi hisoblanadi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Masalan: virtual biologiya tajribalari, iqtisodiy strategiyalar simulyatsiyasi, tarixiy voqealarni qayta o‘ynash. Talabalar murakkab holatlarni ko‘rib chiqadi, muqobil yechimlarni tahlil qiladi, o‘z harakati oqibatini oldindan baholashga o‘rganadi. Bu kontekstli tanqidiy fikr ko‘nikmasini rivojlantiradi.

AI vositalar (ChatGPT, Grammarly, Quillbot, Perplexity) yordamida talabalar avtomatik javobni oladi, lekin uni tanqidiy tahlil qilishi zarur bo‘ladi, “Bu to‘g‘rimi?”, “Qayerdan olingan?”, “Dalili bormi?” kabi savollarni o‘rganadi. Bu tanqidiy fikrni rivojlantirishga emas, agar to‘g‘ri yo‘naltirilsa balki uni majburlashga olib keladi.

Demak, raqamli vositalardan foydalanish axborotni tanlash va tahlil qilish, bahs-munozara yuritish, qaror qabul qilish, metakognitiv fikrlash, texnologiya orqali fikrni shakllantirish jarayonlarini faollashtirib, tanqidiy fikrlashni chuqur, amaliy va barqaror shaklda rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarning zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, Paul va Elder (2014) hamda Brown (2007) o‘qituvchining roli bunda katta ekanligini ta’kidlaydilar. O‘qituvchi tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi savollarni (Suqrot savollari) muntazam berib borishi kerakligini uqtirib o‘tadilar.

Toy va Ok (2012) esa maxsus o‘qituvchilarga mo‘ljallangan kurslar orqali tanqidiy fikrlash kompetensiyasi rivojlanishini aniqlagan.

Dragiyeva (2019) baholash tizimiga e’tiborni qaratib, talabalarni baholashda dalillarning kuchi, tahliliy fikr yuritish darajasi va nuqtai nazar asoslanganligini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Bolibekova (2025) mazkur jarayonda rag‘batlantirishga urg‘u beradi hamda xalqaro PISA baholashlari asosida tanqidiy fikrlash faolligini oshirishda individual yondashuvlar, kreativ topshiriqlar samarali bo‘lishini ta’kidlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz:

- **Interfaol metodlardan foydalanish.** “Aqliy hujum”, SWOT tahlil, “fikrlar xaritasi”, “fikr doirasi”, “6 shlyapa” metodi talabalarni faol fikr almashuviga undaydi.

Interfaol metodlardan foydalanish — bu talabani faollikka, fikr almashishga, muammolarni hal qilishga va muloqotga jalb etuvchi o‘qitish yondashuvidir. Tanqidiy fikrlash esa aynan ana shu elementlarga tayangan holda shakllanadi.

Interfaol metodlarda talaba passiv eshituvchi emas, fikr yurituvchi, savol beruvchi, dalil keltiruvchi subyektga aylanadi. Bu esa ularni o‘z fikrini izlash, uni asoslash, boshqalarnikini baholashga o‘rgatadi. Masalan: “Debat” metodida talaba har bir da’vosini dalillar bilan mustahkamlashi, muqobil fikrga javob qaytarishi kerak bo‘ladi.

Interfaol metodlar (bahs, munozara, rolda o‘ynash) orqali talabalar muammoga turli tomondan yondashadi, o‘z fikrini mantiqiy asoslaydi, boshqalarning fikrini tahlil qiladi va inkor eta oladi. Bu jarayon tanqidiy fikrning markaziy unsurlarini — analiz, sintez, baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Suqrotona savol-javob (ketma-ket chuqurlashtirilgan savollar), Keys-stadi (real hayotiy vaziyatni hal qilish), “6 ta shlyapa” metodlari (masalaga turli nuqtai nazardan yondashish) talabani yuzaki emas, chuqur fikr yuritishga, bir xil emas, alternativ qarorlar ishlab chiqishga, oqibatini oldindan baholashga o‘rgatadi.

Interfaol metodlarda talabalar jamoada ishlaydi. Bu boshqacha fikrlarni eshitish, o‘z qarashini ularning fonida tahlil qilish, fikrlar ziddiyatidan xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu tanqidiy fikrning asosiy jihati — fikrlar ko‘lamida yo‘nalishni topish qobiliyatini oshiradi.

“Brainstorming”, “Fishbone”, “Cluster”, “Assotsiativ xarita” metodlari talabalarda yangi g‘oya yaratish (ijodiy fikrlash), ularni tanqidiy ko‘z bilan ko‘rib chiqish (tanqidiy fikrlash) imkonini beradi. Natijada: talabalar faqat fikr bildirishni emas, u fikrni qayta ko‘rib chiqish, asoslash va zarur bo‘lsa, inkor etishni o‘rganadi.

Interfaol metodlar talabalarni fikrlashga majbur qiladi, muloqot, tahlil, savol berish, dalillash, inkor etish kabi tanqidiy fikr ko‘nikmalarini faollashtiradi, o‘z fikrini himoya qilish va boshqalar fikriga munosabat bildirish orqali fikr yuritish madaniyatini shakllantiradi. Shu sababli tanqidiy fikrni shakllantirishda an‘anaviy ma‘ruzalarga qaraganda interfaol metodlar samaraliroq hisoblanadi.

- ***O‘qituvchilarda savol berish madaniyatini rivojlantirish.*** O‘qituvchi tomonidan berilgan ochiq savollar orqali talabalarni chuqur fikrlashga rag‘batlantirish.

O‘qituvchilarda savol berish madaniyatini rivojlantirish — bu nafaqat o‘quv jarayonining faollashuvi, balki talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va chuqurlashtirishdagi eng muhim omillardan biridir.

Tanqidiy fikrlash savol berishdan boshlanadi. O‘qituvchi savollar berish orqali talabaning mavjud bilimlarini tekshiradi, uni o‘ylashga majbur qiladi, muqobil javoblar topishga yo‘naltiradi.

Agar o‘qituvchi yuqori darajadagi (Bloom taksonomiyasi bo‘yicha) savollar bersa: tahlil qilish (“Bu holat nega yuz berdi?”), taqqoslash (“Qaysi yondashuv samaraliroq?”), baholash (“Sizning fikringizda bu to‘g‘rimi?”), sintez qilish (“Yangi yechim taklif qiling”) ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan: “Bu matnda muallif nimani yashirmoqda deb o‘ylaysiz?” — bu savol oddiy bilimdan ko‘ra tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

Savol bergan o‘qituvchi talabani o‘z fikrini ifodalashga chorlaydi, har bir javobni e‘tibor bilan eshitadi, noto‘g‘ri javobni ham inkor qilmay, tahlilga chaqiradi. Bu esa o‘z navbatida talabada o‘z fikriga javobgarlik, izohlash qobiliyati, muqobil yechimlarga ochiqlikni shakllantiradi.

Yaxshi savol javob bermasdan turib fikr yuritishga majbur qiladi, “ha/yo‘q” deb javob berib bo‘lmaydi, dalil va mantiqiy izoh talab qiladi. Talaba har bir javobini asoslashga harakat qiladi, bu esa fikrning puxtaligiga va chuqurligiga olib keladi.

O‘qituvchi o‘zi qanday savollar beradi — talaba ham shunday o‘ylaydi. Ya‘ni, o‘qituvchi tanqidiy, ochiq, muammoli savollar bersa — talaba ham shunday savollar o‘rganadi, bu esa o‘z-o‘ziga savol berish (metakognitsiya) ko‘nikmasini rivojlantiradi. Misol: “Men bu ma‘lumotni qayerdan bilaman?”, “Qanday dalil bor?”, “Qaysi variant mantiqan to‘g‘riroq?” kabi o‘z-o‘ziga savol berish — tanqidiy fikrning eng muhim bosqichlaridan biridir.

Biror mavzuga nisbatan turli savollar (nima? nega? qanday? kimning foydasiga? qayerda muammo?) talabani ko‘p yo‘nalishda fikrlashga, masalaga turlicha qarashga, qarama-qarshi fikrlarni qabul qilishga undaydi. Bu esa tanqidiy fikr bilan birga muqobil fikrga ochiqlikni ham rivojlantiradi.

O‘qituvchilarda savol berish madaniyatini rivojlantirish orqali talabalar faollashadi, mustaqil fikr yuritadi, dalil asosida mulohaza yuritadi, savollarga emas, muammolarga yechim izlaydi. Bu esa tanqidiy fikrlash kompetensiyasining shakllanishida hal qiluvchi omildir.

- **Pedagogik jarayon natijasini baholash tizimini yangilash.** Tanqidiy fikrlash mezonlariga asoslangan baholov tizimlarini joriy etish (argument kuchi, dalillar asoslanganligi, mustaqil qaror chiqarish qobiliyati).

Pedagogik jarayon natijalarini baholash tizimini yangilash — bu o‘qitishdan tashqari o‘rganishni ham o‘zgartiradigan muhim islohot yo‘nalishidir. Baholash faqat ball qo‘yish vositasi emas, balki tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish vositasi hamdir.

An‘anaviy baholash faqat faktlar yodlanganmi yoki yo‘qmi — shuni tekshiradi. Tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirmaydi. Yangi baholash tizimi (kompetensiyaviy yondashuv asosida) tahlil qilish, sintez qilish, dalillash, o‘z fikrini asoslash kabi kognitiv faoliyatni baholaydi. Talaba faqat “bilish” emas, balki “fikr yuritish” orqali baho oladi.

Yangi yondashuvda formativ baholash (jarayon davomida) — talabaning fikrlash jarayoniga turtki beradi, reflektiv baholash — talaba o‘z fikr yuritishini o‘zi tahlil qiladi; o‘zaro baholash va o‘zini baholash — tanqidiy va halol fikr bildirish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa tanqidiy fikrning metakognitiv jihatini (ya‘ni “men qanday o‘ylayapman?” degan tafakkurni) rivojlantiradi.

Agar baholash mezonlari aniq bo‘lsa talaba nima asosida baho olishini tushunadi, bu mezonlarga mos fikr yuritadi (masalan: dalil, mantiq, xulosa qilish, muqobil fikr keltirish).

Bugungi kunda baholashning interaktiv shakllari qo‘llanilmoqda. Portfolio talabaning o‘z fikr rivojlanishini ko‘rsatadi, loyiha asosida baholash esa real muammolar bo‘yicha tanqidiy qarorlar qabul qilishga undaydi. Bu shakllar orqali talaba murakkab vaziyatlarga tanqidiy va ijodiy yechimlar taklif qiladi.

Yangi baholash tizimi xatolarni aniqlash emas, o‘rganish uchun turtki sifatida ishlaydi, “Nima noto‘g‘ri bo‘ldi?” o‘rniga, “Nimani qanday yaxshilash mumkin?” degan savolni beradi. Bu tanqidiy fikrni konstruktiv (ijobiy yo‘naltirilgan) tarzda rivojlantiradi.

Baholash tizimi yangilansa, talaba faktlar emas, dalillar haqida o‘ylaydi, to‘g‘ri javob emas, mazmunli tahlil qilishga intiladi, o‘z fikrini asoslash, tanqidiy savollarga javob topish ko‘nikmasi shakllanadi. Shunday qilib, baholash tizimi — tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi kuchli pedagogik vositaga aylanadi.

- **Ta‘lim jarayonida motivatsion omillarga e‘tibor qaratish.** Fikr bildirgan, dalil keltirgan, muammoni tahlil qilgan talabalarni rag‘batlantirish va e‘tirof etish.

Ta‘lim jarayonida motivatsion omillarga e‘tibor qaratish — talabalarni nafaqat o‘qishga, balki fikrlashga, savol berishga, tahlil qilishga va o‘z fikrini himoya qilishga undovchi muhim psixopedagogik vositadir. Tanqidiy fikrlash esa shunday ichki faollik va qiziqish asosida rivojlanadi.

Motivatsiyalangan talaba bilimni o‘zlashtirish emas, tushunishga harakat qiladi, savollarga “tug‘ri javob topish” emas, masalani tahlil qilishga intiladi, o‘z fikrini bildirish va himoya

qilishdan qo‘rqmaydi. Tanqidiy fikrlash yuzaki emas, balki chuqur ishtirok va qiziqish asosida shakllanadi.

Agar topshiriq dolzarb, hayotga yaqin, real muammo asosida bo‘lsa, ijodiy yondashuvga ochiq bo‘lsa, unda talaba uni jiddiy qabul qiladi va tahliliy, mantiqiy yondashuv bilan yechishga harakat qiladi.

Motivatsiya yuqori bo‘lgan talaba “Nega bu axborot to‘g‘ri?”, “Boshqacha qarashlar yo‘qmi?”, “Qayerda xatolik bo‘lishi mumkin?” degan tanqidiy savollarni o‘zi beradi. Bu esa tanqidiy fikrning asosiy bosqichlaridan biri — shubha qilish (skeptitsizm)ni rivojlantiradi.

Agar o‘z fikrini asoslab aytgan talaba ijobiy baholansa, tanqidiy tahlil uchun ball yoki fikr bildirilsa, tanqidiy savollar berish — qadrlansa, undagi motivatsiya ortadi va u keyingi safar ham tahlil, dalillash, savol berishga harakat qiladi. Tanqidiy fikr motivatsiya orqali mustahkamlanadi.

Talabaning fikri eshitilsa, muhokama qilinsa, unga “seniki noto‘g‘ri” emas, “qanday fikrdasan?” deb murojaat qilinsa, u o‘z fikrini baham ko‘rishga himmatli deb bilsa, uning o‘z fikrini ochiq aytish, boshqa fikrlar bilan taqqoslash va fikrni himoya qilish kabi tanqidiy fikr ko‘nikmalari rivojlanadi.

Motivatsion muhitda talaba xato qilsa ham fikr bildiradi, o‘z savollarini erkin beradi, noto‘g‘ri javoblar ustida fikr yuritishni o‘rganadi. Bu esa tanqidiy fikrda zarur bo‘lgan o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqish (refleksiya) qobiliyatini shakllantiradi.

Ta’limda motivatsion omillarga e’tibor qaratish talabani fikr bildirishga, o‘rganishni tanqidiy yondashuv bilan olib borishga, savollar berishga, shubha qilish, dalillash, qaror qabul qilishga ichki tayyorlik yaratadi. Demak, motivatsiya – tanqidiy fikrlashni boshlovchi kalit omildir.

Hozirgi kunda ta’lim amaliyotida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi quyidagi muammolarga duch kelinmoqda, xususan:

- Passiv o‘qitish metodlarining ustuvorligi;
- Akademik erkinlikning yetarli emasligi;
- O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi pastligi;
- Baholash tizimining faqat faktik bilimga asoslanganligi.

Ushbu muammolarni hal qilish orqali tanqidiy fikrlashni samarali shakllantirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Tanqidiy fikrlash bugungi oliy ta’limda asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Uni shakllantirish va rivojlantirish uchun zamonaviy, interfaol va muqobil fikrga ochiq ta’lim muhitini yaratish muhimdir. Tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligi orqali nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oluvchi va yangicha qarashlarga ega mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Kelajakda bu yo‘nalishda ko‘proq ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education.
2. Halpern, D. F. (2013). Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. Psychology Press.
3. Urinboyev, A., & Abdurahmonov, R. (2024). Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv usullar. ScienceWeb.
4. Omonova, M. (2025). Meta-fan kursi orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Renaissance Journal.
5. Ablakulov, I. (2025). Tanqidiy fikrlashni ESL darslarida rivojlantirish usullari. Universal Journal.
6. Odilova M. va Mamatkulova G. (2024). Tanqidiy fikrning Sharq va G‘arbda rivojlanishiga tarixiy-nazariy yondashuv. Scientific Journal.
7. Bolibekova, N. (2025). Xalqaro baholash tizimlarida tanqidiy fikrlashni o‘rgatish. ICMS Conference.
8. Otajonova Sh. (2024). Chet tilini o‘qitish kontekstida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA‘LIM O‘QITUVCHISI KASBIY MOBILLAGI TUZILMASI

Hamidov Jalil Abdurasulovich

Jizzax politexnika instituti

"Kibersport" fakulteti dekani

Pedagogika fanlari doktori, professor

hamidovjalil95@gmail.com

Turabov Anvar Mavlankulovich

Jizzax politexnika instituti "Umumtexnika fanlari"

kafedrasi katta o‘qituvchisi

anvarturabov20@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ta‘limni modernizatsiya qilish sharoitlarida o‘qituvchi faoliyati mazmunini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida ishlab chiqilgan bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchisi kasbiy mobilligining to‘rt komponentli tuzilmasi taklif etilgan. Komponentlarning har birining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mobillik, kasbiy mobillik, o‘qituvchining kasbiy mobilligi, moslashuvchanlik, egiluvchanlik, tuzilma, tuzilmaning tashkil etuvchilari.

СТРУКТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье предлагается четырехкомпонентная структура профессиональной мобильности будущего педагога профессионального образования, разработанная на основе анализа современных научных исследований, проводимых по совершенствованию содержания деятельности педагога в условиях модернизации образования. Описано содержание каждого из компонентов.

Ключевые слова: мобильность, профессиональная мобильность, профессиональная мобильность учителя, адаптивность, гибкость, структура, составляющие структуры.

STRUCTURE OF PROFESSIONAL MOBILITY OF A FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHER

Abstract. The article proposes a four-component structure of professional mobility for a future vocational education teacher, developed on the basis of an analysis of modern scientific

research conducted to improve the content of a teacher’s activities in the context of modernization of education. The contents of each component are described.

Key words: mobility, professional mobility, professional mobility of a teacher, adaptability, flexibility, structure, components of the structure.

KIRISH. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta’lim mazmuniga ham izchil ravishda o‘zgartirishlar kiritish borasida “ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish”ga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagi dolzarb masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarorining qabul qilinishi va unda ko‘rsatilgan masalalarda professional ta’limni rivojlantirish, ularda ta’lim jarayonini tashkil etish va olib borishda jahon standartlari talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilganligi, hozirda oliy ta’lim tizimi borasida davlat siyosati mazmuni va talablari ham professional ta’lim tizimida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki bugungi kun oliy ta’lim tizimidagi talaba - ertangi kun professional ta’lim tizimining bo‘lajak yetakchi mutaxassisi, o‘qituvchisi, murabbiysi, rahbari bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Hozirda oliy ta’lim tizimida bu sohada bir qancha muammolarni xal qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: oliy ta’lim sohasida yetakchi xorijiy davlatlar bilan professional ta’lim tizimi borasidagi integratsiyasini ta’minlasa; ta’limning bu bosqichi o‘zining sifati, samaradorligi, shaffofligi, amaliy qiymatga egaligini amaliyotda yaqqol namoyon eta olsa; Bolonya shartnomasiga a’zo davlatlar qatoriga kirgan xolda, xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq malakali, kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda shart-sharoitlarni yaratishga e’tiborni qaratish va kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishda zarur ahamiyatga ega ekanligi isbot talab qilmaydigan aksioma sifatida e’tirof etilmoqda.

Zamonaviy sharoitda uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan professional ta’lim muassasasi o‘qituvchisining muhim sifatlari bo‘lib uning tezkor harakat qilish, qaror qabul qilish, vaziyatga moslashish, vazifalarni tezda bajarish va o‘zgaruvchan kasbiy sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish (jumladan: ta’limning zamonaviy texnik vositalari va dasturiy mahsulotlar turlarini kengaytirishda ifodalangan ta’limni raqamlashtirish sharoitiga, o‘qituvchi faoliyatini tashkil etuvchi ilmiy-tadqiqotchilik va metodik-texnologik sohalardagi sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi ta’lim standartlarining yangi avlodiga o‘tish sharoitiga; innovatsion ta’lim texnologiyalarini (masofaviy, loyihaviy) joriy etish va boshqalar) qobiliyati hisoblanadi. Kasbiy mobillik xodimning egiluvchanligi, uning yangi mehnat sharoitlariga moslashish qobiliyati sifatida belgilanadi.

Zamonaviy ilm-fanda “kasbiy mobillik” tushunchasi psixologlar, pedagoglar va sotsiologlar tomonidan faol ishlab chiqilib, o‘rganilmoqda. Sotsiologlar tomonidan asosan, insonning umr bo‘yi qayta o‘rganish, mashg‘ulotlar turini o‘zgartirish, yangi kasbni o‘zlashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan kasbiy mobillik jarayonlarining sodir bo‘lishi xususiyatlari o‘rganilsa, psixologik-pedagogik tadqiqotlar ob’ektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: insonning kasbiy faoliyatini yoki faoliyat turini o‘zgarishiga tayyorligi yoki moyilligi muammosi; mobillikni o‘z ehtiyojlari, qarashlari, maqsadlariga muvofiq faoliyatning yangi sharoitida o‘zini o‘zgartirish qobiliyatida ifodalangan va insonni hayotda, kasbda ijodiy o‘zini amalga oshirishga olib keladigan shaxsiy xususiyat sifatida talqin etilish muammosi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Psixologik lug‘atda “kasbiy mobillik” tushunchasi - bu shaxsning yangi texnika va texnologiyani tez va muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, kasbiy faoliyatda yetishmayotgan bilim va ko‘nikmalarni egallashga tayyorlik qobiliyati yangi texnologiyalarning samaradorligini ta‘minlaydi degan mazmunda keltirilgan [16].

B.M. Igoshevning fikricha, kasbiy mobillik bu - pedagoglarning shaxsiy-kasbiy o‘zini o‘zi anglashini ta‘minlaydigan shaxsiy-kasbiy hususiyatlari sifatida tushuniladi va bir vaqtning o‘zida kasbiy pedagogik faoliyat sohasining rivojlanish omili bo‘lib hisoblanadi [7].

A.K. Markova kasbiy mobillikni “mustaqil va mas‘uliyat bilan harakat qilishga imkon beruvchi psixik holat, inson mehnatining natijalaridan iborat bo‘lgan muayyan mehnat funksiyalarini bajarish ko‘nikma va qobiliyatiga ega bo‘lishi” deb ta‘riflaydi [10].

K.V. Shaposhnikov “kasbiy mobillik” tushunchasini mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi. Kasbiy mobillik “umuman olganda, insonga atrof-olam bilan o‘zaro munosabatda kasbiy faoliyatni samarali loyihalash va amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va tajribalar, shuningdek, shaxsiy sifatlarning integrallashgan to‘plami sifatida tavsiflanadi” [15].

E.A. Nikitinaning fikriga ko‘ra, kasbiy mobillik o‘zgaruvchan atrof-olamning asosida yotgan shaxsning o‘ziga xos samarali faoliyat zaxirasi sifatida namoyon bo‘ladi va mutaxassisning o‘zgarishlarga tayyorligini ta‘minlaydi; uning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ijodiy munosabatini rivojlantirishda, kasbiy muammolarni samarali hal qilishda ko‘p jixatli omillarni tanlashga hissa qo‘shadi [11].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pedagogning kasbiy mobilligining asosiy belgilari nafaqat yangi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatida, shuningdek, ularga quyidagi hususiyatlarni ham kiritish mumkin: o‘z kasbiy sohasiga oid bilimlar va analitik ko‘nikmalarga ega bo‘lish; o‘zini-o‘zi refleksiv va adekvat baholash, bashorat qilish usullarini egallashda namoyon bo‘ladi [14].

A.I. Kovaleva eng yuqori darajadagi kasbiy mobillik turli ish faoliyatlarida moslashuvchanlikka ega bo‘lgan, zarur bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtiradigan, ijodiy fikrlash va doimiy kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish motivatsiyasini rivojlantiradigan xodimlarda namoyon bo‘ladi deb ta‘kidlaydi [9].

Tadqiqot usullarining xilma-xilligi “kasbiy mobillik” ni ta’riflash va tuzilishini aniqlash bo’yicha turli xil qarashlarni keltirib chiqaradi. Ushbu yondashuvlarni tahlil qilish esa ko‘rib chiqilayotgan tushunchaning ba’zi umumiy tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon beradi, xususan:

- faollik, ya’ni faoliyatning yangi shakl va turlarini o‘zlashtirishning, shuningdek, kasbiy-pedagogik ishchanlikning asosi sifatida tushuniladigan faoliyat ([1]; [5]; [6]);
- moslashuvchanlik - o‘zgaruvchan ish sharoitlariga moslashish qobiliyati; o‘z hayoti va faoliyatini o‘zgartirishga tayyorlik; kasbiy-pedagogik egiluvchanlik asoslari ([5];[6]);
- ochiqlik, yangi, noma’lum, stereotiplarni rad etishga moyillik sifatida tushuniladi ([3]; [10]);
- kommunikativlik - o‘quv faoliyati sub’ektlari bilan yangi munosabatlar va aloqalarni o‘rnatish qobiliyati va tayyorligi ([2]; [8]);
- kreativlik, bu atrof-muhitga va o‘z faoliyatiga ijodiy munosabat, ularni o‘zgartirishga tayyorlik ([4]; [7]).

S.V. Nujnovaning so‘zlariga ko‘ra kasbiy mobillik shaxsning xususiyati sifatida murakkab tuzilishga ega bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kasbiy mobillikka bo‘lgan ichki ehtiyoj, kasbiy mobillikda shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, shakllangan refleksiya asosida kasbiy mobillikka tayyorlik [12].

S.F. Jeltovanning fikricha shaxsning mobilligi quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘ladi: yangi bilimlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishda tashabbuskorlik ko‘rsatishda, ularni o‘z amaliy faoliyatiga faol tatbiq etish, o‘z harakatlarida ilmiy bilimlarga asoslanishga ongli ehtiyoj, dunyoga ochiqlik; o‘zgalarga va o‘ziga ishonish; egiluvchanlik; samaradorlik; bag‘rikenglik [17].

Demak, kasbiy mobillik qobiliyatlari rivojlangan kognitiv qobiliyatlarni, kreativlikni va tanqidiy fikrlashni o‘z ichiga oladi. Kasbiy mobillikning kognitiv asoslari umumta’lim, umumkasbiy va kasbiy bilimlar, shuningdek, asosiy malakalar va kompetensiyalar, bilimlarni tezda uzatish qobiliyatidan iborat.

L.N. Goryunova kasbiy mobillikni o‘rganishning psixologik-pedagogik kontekstini quyidagi tarkibiy qismlarning uchligi sifatida izohlaydi:

- 1) insonning asosiy umumkasbiy kompetensiyalarini shakllantirish orqali ichki mexanizmining rivojlanishini ta’minlaydigan shaxsning xususiyatlari;
- 2) atrof-muhitni o‘zgartiruvchi jarayonlar bilan belgilanadigan inson faoliyati, uning natijasi insonning kasbda va hayotda o‘zini o‘zi anglashi bo‘lib hisoblanadi;
- 3) insonning o‘zini va uning atrofidagi hayotiy jarayonlarni va kasbiy muhitini o‘zgartirish jarayoni [1].

O‘qituvchining kasbiy mobilligi tuzilmasini aniqlash quyidagi tadqiqotchilik masalasini yechishni taqozo etadi: 1) psixologik va pedagogik tadqiqotlarda mutaxassisning kasbiy mobilligini tuzilmashtirish bo’yicha to‘plangan tajribani o‘rganish; 2) yangi sharoitlarda

zamonaviy o‘qituvchi faoliyati mazmunining xususiyatlarini aniqlash; 3) o‘qituvchiga nisbatan kasbiy mobillik tuzilmasini aniqlashtrish.

MUHOKAMA. Yuqoridagi muammolardan birinchisining yechimi shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy fanda mutaxassisning kasbiy mobilligi tuzilishini aniqlashga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Mualliflarning mutaxassisning kasbiy mobilligi tuzilishi to‘g‘risidagi fikrlarini umumlashtirish esa mavjud tadqiqotlarning ikkita guruhini ajratishga imkon beradi. Birinchi guruh tadqiqotlari mualliflari kasbiy mobillik tuzilishini shaxsiy sifatlar to‘plamini birlashtiruvchi quyidagi komponentlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladilar:

motivatsion - kasbiy mobillikga shakllangan ichki ehtiyoj;

kognitiv-kompetenli - kasbiy bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kasbiy mobillik qobiliyatlari;

refleksiv-baholovchi - shaxs o‘zining kasbiy mobilligi potensialini anglash, aks ettirish asosida shakllangan mobillikka tayyorligi [2];

asosiy - individual-tipologik, psixofiziologik xususiyatlar, shaxsiy sifatlar va xususiyatlar, intellektual xususiyatlar;

sub’ektiv - kasbni, mutaxassislikni va hokazolarni o‘zgartirish zarurligini anglash, mavjud qarorni amalga oshirish usullarini tanlash (kasbiy mobillikni namoyish etishga tayyorlik);

konativ - xulq-atvor reaksiyalari, o‘ziga xos tashqi harakatlar [3].

Ikkinchi guruh mualliflari kasbiy mobillik tuzilmasini shaxsning o‘ziga xos sifatleri va xususiyatlari shaklida taqdim etgan tadqiqotlar tashkil etadi: yangilikga ochiqlik, faollik, moslashuvchanlik, kommunikativlik, kreativlik [7;8]; yangiliklar kiritishga tayyorlik, intellektual labillik, kreativlik, refleksivlik, g‘ayritabiiy faoliyat [3]; faollik, tayyorlik, moslashuvchanlik, kreativlik [1]; faollik, moslashuvchanlik, kreativlik [4] va boshqalar.

Mutaxassisning kasbiy mobilligi tuzilishini tushunishda ma’lum farqlar mavjudligiga qaramay, barqaror tuzilmaviy birliklar mavjud bo‘lib, ularning u yoki boshqa talqinini ko‘pchilik tadqiqotlarda ko‘rish mumkin: yangilikga ochiqlik, moslashuvchanlik, faollik, kreativlik, refleksivlik, tayyorlik [13].

Yuqoridagi belgilangan vazifalardan ikkinchisining yechimi yangi sharoitlarda o‘qituvchining faoliyati mazmunining xususiyatlarini aniqlashni nazarda tutadi, bu o‘z navbatida zamonaviy o‘qituvchining kasbiy mobilligi mazmuni va tuzilishini aniqlashga imkon beradi.

O‘qituvchining ishlash amaliyotida an’anaviy ravishda uchta faoliyat turi ajralib turadi: o‘quv ishlari, tarbiyaviy ishlar, uslubiy ishlar. Biroq, yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ular nafaqat turli mazmun bilan to‘ldiriladi, balki ilgari majburiy bo‘lmagan, tavsiya xarakteriga ega faoliyat turlari bilan ham to‘ldiriladi: tadqiqotchilik faoliyati, sinfdan tashqari ishlar, tyutorlik.

Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining uslubiy faoliyati ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va tarqatish bilan cheklanib qolmaydi, balki o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni ifodalaydi. U ikkita asosiy vazifani hal etishni ta’minlaydi:

1) o‘qituvchining kasbiy malakasi va ilmiy-metodik darajasini oshirishni, uning uzluksiz kasbiy rivojlanishini;

2) o‘quv jarayonini ilmiy asoslangan o‘qitish vositalari (rejalar, dasturlar, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘qitish va natijalarni taxlil qilishning axborot hamda an‘anaviy vositalari va boshqalar) bilan ta‘minlashni.

Yangi sharoitlarda uslubiy ish o‘qituvchining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u bir tomondan, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan va o‘z vaqtida ilmiy asoslangan yechimni talab qiladigan muammolarni tahlil qilish va tuzatishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, nafaqat mustaqil ilmiy tadqiqotni amalga oshirish, balki o‘quvchilarning loyihaviy tadqiqotchilik faoliyatini samarali boshqarish bo‘yicha zarur tajriba to‘plashni hamda bilimlarini kengaytirishni ta‘minlaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bu uning o‘quvchilarga maslahat berishga va individual ta‘lim yo‘nalishini qurishda yordam berishga, o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan tyutorlik rolidagi vazifasidir. O‘qituvchining sifat jihatidan farq qiladigan uslubiy, ilmiy-uslubiy, mazmunli va texnologik darajalarda amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- ta‘lim sohasidagi innovatsiyalarga ochiqligi va sezuvchanligi;
- innovatsion loyihani amalga oshiruvchi pedagogik hamjamiyatga tabiiy ravishda qo‘shilish qobiliyati;
- o‘quv jarayonining boshqa sub’ektlari bilan birgalikdagi kasbiy faoliyat sharoitlarining o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan maqsad va vazifalarga muvofiq qo‘shma faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish qobiliyati;
- uzluksiz kasbiy o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z-o‘zini rivojlantirish asosida o‘zgaruvchan sharoitlarda faoliyatni sifatli amalga oshirish sabablarini anglash;
- kasbiy faoliyatning yangi sharoitlariga moslashish qobiliyati;
- uzluksiz kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni boyitish qobiliyati;
- kasbiy faoliyatning o‘zgaruvchan sharoitlarida talab qilinadigan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga texnologik tayyorlik;
- o‘zini va o‘z imkoniyatlarini yangi, o‘zgaruvchan sharoitlarda kasbiy faoliyat talab qiladigan jixatlar bilan bog‘lashga qaratilgan refleksiv qobiliyati.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirib, biz o‘qituvchining kasbiy mobillik tuzilishida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta komponentni belgilaymiz: motivatsion, shaxsiy, kognitiv-faoliyatli, refleksiv-baholash.

Motivatsion komponent insonning kasbiy faoliyatining o‘zgaruvchan sharoitlarida kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglash, turdosh mutahassislikni egallashga va martaba o‘sishiga (yutuqlarga motivatsiyasini rivojlantirishga) intilish, o‘zini va kasbiy muhitni o‘zgartirishga tayyorlik uchun ichki ehtiyojini tavsiflaydi.

Shaxsiy komponent individning yangilikga sezgirligini belgilovchi, kasbiy faoliyatning o‘zgaruvchan sharoitlarida o‘qituvchining kasbiy o‘z-o‘zini amalga oshirish muvaffaqiyatini ta‘minlovchi individual-tipologik va shaxsiy sifatlarini (faollik, ichki erkinlik, moslashuvchanlik, o‘rganish qobiliyati, divergentlik, kreativlik, kommunikativlik, fikrlashning egiluvchanligi va tanqidiyligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish) birlashtiradi.

Kognitiv-faoliyatli komponent asosiy kompetensiyalar, umumiy kasbiy va predmetli-metodik bilimlardan tashkil topadi. Ko‘rib chiqilayotgan muammo kontekstida o‘qituvchining bilimlar va ko‘nikmalar tizimida quydagilar alohida o‘rin tutadi:

- natijali mustaqil ta‘lim olishni tashkil etish bilan bog‘liq bilimlar;
- yangi bilimlarni va texnologiyalarni mustaqil o‘zlashtirishning turli (an‘anaviy va innovatsion) ko‘nikmalari;
- mavjud kasbiy bilim va tajribani yangi vaziyatga o‘tkazish qobiliyati.

Refleksiv-baholash komponenti faoliyatning yangi sharoitlari talablari bilan o‘zini, o‘z imkoniyatlarini o‘zaro bog‘lash asosida kasbiy faoliyatning yangi sharoitlarida ishlashga potensial tayyorligi darajasida o‘qituvchining o‘z-o‘zini baholashini taminlaydi. Yangi kasbiy vaziyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sabablarini topishga qaratilgan refleksiya - mavjud bilimlarning mos emasligini anglashni ta‘minlaydi, faoliyatning mavjud tajribasiga tanqidiy munosabatni shakllantiradi va natijada kasbiy o‘zini o‘zi o‘qitish va o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonlarini rag‘batlantiradi.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash kerakki, mobillik integral xususiyat sifatida bajarilayotgan harakatga yuqori motivatsiya, bajarilayotgan faoliyatga qiziqish, faollik, egiluvchanlik, moslashuvchanlik, kreativlik va uni amalga oshirishda ochiqlik bilan tavsiflanadi.

O‘qituvchining kasbiy mobilligi uning faoliyati mazmunini o‘zgarishiga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. Ya‘ni, kasbiy mobillik o‘qituvchi shaxsining ma‘lum qobiliyatinigina emas, balki kasbiy faoliyatini tashkil qilish, rivojlantirish, moslashuvchan tafakkurga ega bo‘lish, yangiliklarni qabul qilish va ularni jarayonga samarali singdirishning uyg‘unligini ifodalaydi. Kasbiy mobillik shaxsning turli muammoli vaziyatlarga nisbatan ta‘sirchanligi samarasini ifodalovchi asosni, shuningdek, atrof-muhit va ruhiyatida kechayotgan o‘zgarishlarga bo‘lgan mustahkam shaxsiy manbaini tashkil qiladi.

Taqdim etilayotgan o‘qituvchining kasbiy mobilligining tuzilmasi o‘qituvchining kasbiy mobilligini rivojlantirish jarayonini rag‘batlantiruvchi va cheklovchi omillarni o‘rganishning asosi sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu tuzilmani oliy kasbiy ta‘lim tizimida o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga yoyilishi bizga shaxsning xususiyatlariga e‘tibor qaratishga imkon beradi, ularning maqsadli rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarning yuqori darajadagi kasbiy mobilligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Горюнова Л.В., Научно-педагогические проблемы развития профессиональной мобильности специалиста. Ростов н/Д, 2005.

2. Мищенко В.А., Профессиональная мобильность как одно из основных психолого-педагогических качеств будущего специалиста // Образование и наука. 2009. № 3. С.35-42.
3. Зеер Э.Ф., Кормильцева М.В. Социально-личностные компетенции и профессиональная мобильность как целевая ориентация образования // Сибирский педагогический журнал. 2009. № 10. С.72-78
4. Кипина О.А., Профессиональная мобильность педагога // Педагогическое образование и наука. 2009. № 1. С. 81-84.
5. Амирова Л.А., Развитие качеств мобильной личности на этапе до профессиональной социализации: монография. – Уфа: Вагант, 2011. – 194 с.
6. Горюнова Л.В., Критерии и уровни сформированности профессиональной подготовки будущего учителя //Гуманитарные и социально-эконом. науки. – 2006. - № 1. - С. 181-184
7. Игошев Б.М., Системно-интегративная организация подготовки профессионально мобильных педагогов: дис. ... д-ра пед. наук. – Екатеринбург, 2008.
8. Игошев Б.М., Развитие профессиональной мобильности специалистов — перспективное направление деятельности педагогического университета // Педагогическое образование и наука. Научно-педагогический журнал. – М.:2008.- № 6. – с.123-128
9. Ковалева А.И., Теоретико-методологические основы исследования социализации личности // Социологический сборник. Вып. 4. /Ин-т молодежи. - М.: Социум, 1998.-С. 3-8.
10. Маркова А.К., Психология профессионализма . - М.: Знание, 1996
11. Никитина Е.А., Функциональное значение профессиональной мобильности в подготовке специалиста // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. - 2006. - № 2. - С. 34-38.
12. Нужнова С.В., Формирование готовности к профессиональной мобильности // Высшее образование в России, 2009. - № 6. – С.29-35
13. Turabov A. M., Factors Affecting the Formation of Professional Mobility of Future Specialists. // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT), March, 2024. P. 8-13.
14. Turabov A. M., Methodology for development of professional mobility of future vocational education teacher // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 12, Issue 3, March, (2024). P. 303-345.
15. Шапошников К.В., Контекстный подход в процессе формирования профессиональной компетентности будущих лингвистов-переводчиков: Автореферат дис. ... канд. пед. наук Йошкар-Ола, 2006. 26 с.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

FANNI CHUQUR O'ZLASHTIRISH VA KREATIV TAFAKKURNI O'STIRISHDA RAQAMLI INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Turayeva Sevara Rashidovna

*Toshkent shahridagi Belarus- O'zbekiston qo'shma
tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti:*

E-mail: sevara08.90@mail.ru

tel: +998979525251

Anotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda dars jarayonida zamonaviy interaktiv texnologiyalar, jumladan 3D animatsion modellar va Model-Based Learning (MBL) metodidan foydalanishning metodikasi batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot fizika fanining "Ideal gaz qonunlari" mavzusini o'rgatishda raqamli simulyatsiyalar, vizualizatsiya vositalari va MBL yondashuvi yordamida talabalar tomonidan fan mazmunini chuqur o'zlashtirish, ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mazkur metodika nafaqat nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga, balki murakkab nazariy tushunchalarni oson va tushunarli shaklda qabul qilishga ham yordam beradi. Shuningdek, u o'quv jarayonida talabalar faolligini oshirish, ularning muammolarni model asosida hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish hamda ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimlarida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalar sirasiga kiradi.

Kalit so'zlar: Interaktiv texnologiyalar, 3D animatsiya, Model-Based Learning (MBL), raqamli simulyatsiyalar, kreativ tafakkur, fizika ta'limi, gaz qonunlari, vizualizatsiya vositalari, ta'lim metodikasi, talabalarning faolligi, oliy ta'limda innovatsiya.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ГЛУБОКОГО УСВОЕНИЯ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА И РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье подробно анализируется методика использования современных интерактивных технологий в учебном процессе высших учебных заведений, в частности, 3D-анимационных моделей и метода обучения, основанного на моделировании (Model-Based Learning, MBL). В исследовании рассматриваются возможности глубокого усвоения содержания учебного материала, развития креативного, критического и самостоятельного мышления студентов при изучении темы

“законы идеального газа” в курсе физики с использованием цифровых симуляций, визуализационных средств и подхода MBL. Предлагаемая методика способствует не только интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, но и облегчает восприятие сложных теоретических понятий в доступной и наглядной форме. Кроме того, она способствует активизации студентов, формированию навыков решения проблем с помощью моделей и повышению качества образования. Данный подход относится к числу современных педагогических технологий, которые могут эффективно применяться в системе высшего образования.

Ключевые слова: Интерактивные технологии, 3D-анимация, обучение на основе моделирования (MBL), цифровые симуляции, креативное мышление, обучение физике, законы газов, средства визуализации, методика преподавания, активность студентов, инновации в высшем образовании.

METHODOLOGY FOR USING DIGITAL INTERACTIVE TECHNOLOGIES TO DEEPEN SUBJECT MASTERY AND DEVELOP CREATIVE THINKING

Abstract: This article provides a detailed analysis of the methodology for integrating modern interactive technologies into higher education learning processes, with a particular focus on 3D animation models and the Model-Based Learning (MBL) approach. The study explores how digital simulations, visualization tools, and the MBL method can be applied in teaching the topic of “Ideal gas laws” in physics to enhance students’ deep understanding of the subject content, as well as to foster creative, critical, and independent thinking skills. The proposed methodology not only helps bridge theoretical knowledge with practical application, but also facilitates comprehension of complex theoretical concepts in a clear and accessible visual format. Additionally, it contributes to increasing student engagement, developing their ability to solve problems through modeling, and improving overall educational quality. This approach is considered among the innovative pedagogical technologies that can be effectively implemented in modern higher education systems.

Keywords: Interactive technologies, 3D animation, Model-Based Learning (MBL), digital simulations, creative thinking, physics education, gas laws, visualization tools, teaching methodology, student engagement, innovation in higher education.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi 2018–2025 yillarga mo‘ljallangan demokratik islohotlar va raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng integratsiya qilish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli qaror [2] va 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli qaror [3] bilan davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlari integratsiyasi tashkillashtirib berildi. 2020 yil 28 aprelda imzolangan **PQ-4699-sonli qaror** orqali raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat konsepsiyasi

tasdiqlanib, ta’lim sohasida interaktiv platformalar va raqamli vositalarni joriy etish yo‘lga qo‘yildi [4]. Shuningdek, **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF-6079-son Farmoni)** ta’lim sohasining raqamlashtirilishi va elektron ta’lim infratuzilmasi rivojlanishiga katta urg‘u berdi [1]. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, zamonaviy raqamli interaktiv texnologiyalar – xususan, 3D animatsion modellar va **Model-Based Learning (MBL)** yondashuvi orqali fanni chuqur o‘zlashtirish va kreativ tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha amaliy metodika ishlab chiqilmoqda. Bu metodika nafaqat nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga, balki murakkab nazariy tushunchalarni vizual, interaktiv yo‘l bilan yetkazishga yordam beradi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasida innovatsiyalarni joriy etish va yoshlarni raqamli ko‘nikmalarga o‘qitish bo‘yicha strategik qarorlari bilan mos keladi. Jumladan, 2024 yil 15 maydagi **PQ-178-sonli qaror** orqali hududlarda yoshlar uchun “IT-shaharcha”lar tashkil etilishi, ularning raqamli texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishi ta’kidlangan [5]. Bizning metodika, ayniqsa, fizikada “gaz qonunlari” mavzusi bo‘yicha, talabalar faolligini oshirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha pedagogik yechimlarni taklif etadi. Bu esa ta’lim sifati, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali oliy ta’limda ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda dars jarayonini yanada sifatli olib borish uchun ko‘pgina shart-sharoitlar yaratilgan, o‘quv xonalari zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta’minlangan. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining o‘z mutaxassislik fanini o‘qitishda, metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda, innovatsion ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi [22].

Kasbiy kompetensiya sifatida kreativlik (ijodkorlik) o‘qituvchi kasbiy faoliyatining turli bosqichlarida uning ijodiy yutuqlarini aks ettiradi va yangi kasbiy mahsulotlar hamda yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida tushuniladi. Tahlil etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida integrativ kreativlik, kasbiy rivojlanishning psixologik-pedagogik asoslari A.V.Brushlinskiy[8] ilmiy tadqiqotlarida; kreativ salohiyat va kreativlikni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya va kommunikativ madaniyatni tarbiyalash Ed.De Bono[9], A.M.Matyushkin[10], E.Torrence[11], tadqiqotlarida, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kompyuter muhiti asosida rivojlantirish Sh.Z.Shigapov[12], fizika o‘qitish jarayonida nazariy tafakkurni rivojlantirish D.V.Vinogradov[13] tadqiqotlarida o‘rganilgan. Kompyuter modellashtirishni qo‘llab o‘qitish N.B.Rozova[14] ilmiy ishlarida yoritilgan bo‘lib, kompyuterda o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlarini molekulayar fizikani o‘rganish misolidan foydalangan holda o‘rta maktab uchun keltirilgan.

Malaka oshirish ta’limi tizimida kreativ o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida malaka oshirish tizimi va

kasb-hunar ta’limini takomillashtirish muammolari R.Jo‘raev[15], M.Yo‘ldoshev[16], N.Muslimov[17], O‘.Tolipov[18], T.Shoymardonovlarning [19] ilmiy ishlarida yoritilgan bo‘lsa, kreativ o‘qitish muammolari G.Ibragimova[20] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Bizning tadqiqot doirasida yaratilgan maxsus 3D animatsion virtual ishlanma gaz qonunlari mavzusini o‘qitishda muhim vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu interaktiv vosita o‘quvchilarga fizik jarayonlarni an’anaviy grafik yoki matematik formulalardan ko‘ra vizual va dinamik shaklda idrok etish imkonini beradi.



1-rasm. Ideal gaz qonunlari o‘rganishga doir virtul ishlanma

Virtual ishlanma quyidagi funksional imkoniyatlarga ega:

- *Jarayonni 3D formatda realistik tarzda kuzatish*: Talabalar gaz molekulalarining harakati, to‘qnashuvi, energiya almashinuvi va bosim-hajm-harorat o‘zgarishlarini vizual tarzda ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa molekulyar-kinetik nazariyani intuitiv ravishda tushunishga yordam beradi.
- *“Ma’lumotlar tugmasi”*: Ushbu tugma bosilganda, Ideal gaz qonunlariga oid ilmiy ma’lumotlar chiqadi, talabalar mavzu haqida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.
- *“Metod” tugmasi orqali MBL bosqichlarini faollashtirish*: Ushbu tugma bosilganda, Model-Based Learning (MBL) metodining asosiy bosqichlari — ya’ni muammoli vaziyatni ilgari surish, kuzatish, tahlil qilish, modellashtirish, tekshirish va umumlashtirish — ketma-ket tarzda paydo bo‘ladi. Har bir bosqichda talabalar izchil faoliyat olib borishga yo‘naltiriladi.
- *“Muammoli savollar” bo‘limi*: Bu tugmani bosish orqali foydalanuvchi ilmiy izlanishga undovchi savollar ro‘yxatini ko‘radi. Ushbu savollar dars mazmunini tahlil qilish, tanqidiy va kreativ tafakkurni faollashtirishga xizmat qiladi. Misol uchun: “Agar

gazning hajmi ikki baravar kamaytirilsa, bosim qanday o‘zgaradi?” yoki “Harorat o‘zgarishining molekulalar harakatiga qanday ta’siri bor?”

Mazkur animatsion vosita nafaqat fan mazmunini chuqur o‘zlashtirish, balki talabalarning ilmiy izlanish madaniyati, mustaqil fikrlash qobiliyati, hamda axborotni modellashtirib tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda muhim didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu virtual qurilma o‘quv jarayoniga texnologik yondashuvni olib kirib, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga mos innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Mazkur metodik yondashuvda “Model-Based Learning” (MBL) metodi asosida ideal gaz qonunlarini talabalarga tushuntirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu texnologik yondashuv o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki kuzatish, tahlil qilish va modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu uslub bosqichlari keltiriladi:

1. Muammo vaziyatini yaratish: Dars o‘quvchilarni real hayotga yaqin voqea asosida fikrlashga yo‘naltirishdan boshlanadi. Masalan, siqilgan gaz balonchasida qanday fizik hodisalar yuz berishi mumkin? Savol orqali ular qiziqish uyg‘otiladi. Shundan so‘ng, 3D vizualizatsiya vositalari orqali gaz molekulalarining harakati — ularning o‘zaro to‘qnashuvi, harakat tezligi va energiya almashinuvi kabi jihatlar namoyish etiladi. Bu jarayon davomida o‘qituvchi o‘quvchilarga kuzatish va fikrlashni rag‘batlantiruvchi savollar beradi.

2. Modellarni o‘zlashtirish va mantiqiy tushunchalarga ega bo‘lish: Talabalar simulyatsiya asosida gazdagi fizik jarayonlarni tahlil qiladi. O‘qituvchi esa jarayonga bog‘liq bo‘lgan klassik formulalarni tushuntirib beradi, jumladan:

$$\text{➤ } PV = nRT$$

$$\text{➤ } P = \frac{1}{3}nm_0v^2$$

$$\text{➤ } P = \frac{2}{3}nE_k$$

$$\text{➤ } P = nkT$$

Har bir tenglama orqali fizik hodisalar izohlanadi va ular qanday qilib simulyatsiya orqali ko‘rsatilayotganiga e’tibor qaratiladi. Talabalar simulyatsiya kuzatuvlari bilan nazariy formulalar o‘rtasida bog‘liqliklarni topishga yo‘naltiriladi.

3. Tajriba asosida tekshirish va isbotlash: Ushbu bosqichda talabalar 3D simulyatsiya vositasida gazning harorati, bosimi va hajmi o‘zgarishi jarayonida molekulalarning qanday harakatda bo‘lishini, ular orasidagi to‘qnashuvlar va kinetik energiya o‘zgarishlarini mustaqil tahlil qiladi. Shuningdek, matematik hisob-kitoblar yordamida nazariy natijalarni aniqlash va ularni simulyatsiyadagi amaliy natijalar bilan solishtirish orqali tajribaning ishonchliligiga baho berishadi.

4. Takomillashtirish va refleksiya: Simulyatsiya asosida olingan ma’lumotlar talabalarda fikrlash, tahlil qilish va takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantiradi. Ular modeldagi

kamchiliklar, cheklovlar yoki yaxshilash imkoniyatlari haqida takliflar beradilar. Bu bosqich ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Nazariy xulosalash va hayotiy misollar bilan bog‘lash: Dars yakunida talabalar o‘z kuzatuv va modellashtirish natijalariga asoslanib, gaz qonunlari va molekulyar-kinetik nazariyaga oid asosiy tushunchalarni umumlashtirib yozib oladilar. So‘ngra bu qonunlarning amaliyotdagi qo‘llanishi — masalan, avtomobil shinalarida bosim o‘zgarishi, gazlangan ichimliklar idishlaridagi bosim balansi kabi holatlar bilan bog‘lab tushuntirish amalga oshiriladi.

Zamonaviy fan yutuqlaridan ta‘lim jarayonida foydalanish, didaktik (ko‘rsatmalilik, ilmiylik, nazariyaning amaliyot bilan mosligi) prinsiplar asosida yondashish muhimdir [23]. Fizika fanini o‘qitishda jarayonlarni modellashtirishni tatbiq etish jarayonini nazariy jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, amaliyotda qo‘llash, shuningdek, uning vosita va modellarini yaratish, talabalarning fizikaviy hodisa va jarayonlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilishlariga, kreativ fikrlashini rivojlanishiga zamin yaratadi [21].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan metodik tajriba va ishlab chiqilgan 3D animatsion virtual vosita asosida Shahrizabz Davlat Pedagogika institutining fizika yo‘nalishi bakalavr bosqichi 1-kurs talabalariga “Umumiy fizika” fanidan olib borilgan ma’ruza va amaliy darslar tahlili quyidagi pedagogik va didaktik natijalarni ko‘rsatdi:

1. Fanni tushunish darajasi oshdi: Model-Based Learning (MBL) metodidan foydalangan holda talabalarga ideal gaz qonunlarini 3D simulyatsiya orqali o‘rgatish, ularning mavzuni chuqur anglashiga olib keldi. Ayniqsa, molekulalarning harakati, bosim va harorat o‘zgarishlari kabi abstrakt tushunchalarni vizual kuzatish orqali talabalar mavzuni amaliy asosda qabul qila oldilar.
2. Talabalar faolligi va fikrlash darajasi oshdi: Dars davomida simulyatsiyadan foydalanish, MBL bosqichlarining aniq yo‘nalishi, hamda muammoli savollarni tahlil qilish talabalar faolligini oshirdi. Ular o‘z fikrlarini erkin ifoda qilish, taxminlar ilgari surish, natijalarni baholash va xulosa chiqarishga faol jalb etildilar.
3. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirdi: Takomillashtirish bosqichi orqali talabalar modellashtirilgan tizimni tahlil qilib, uni yanada yaxshilash bo‘yicha takliflar ilgari surdilar. Bu esa ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ijobiy samara berdi.
4. Nazariy bilim bilan amaliyotni bog‘lash imkoni yaratildi: Virtual animatsiya yordamida fizik qonunlarning vizual tahlili o‘tkazilishi natijasida talabalar nazariy formulalarni real jarayonlar bilan bog‘lashga o‘rgandilar. Bu esa mavzuni faqat eslab qolish emas, balki tushunib o‘zlashtirishga xizmat qildi.
5. Interaktiv ta‘lim vositalarining samaradorligi tasdiqlandi: Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar orqali tashkil etilgan o‘quv jarayoni an‘anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilarning e‘tiborini jamlash, faol ishtirokini ta‘minlash va o‘zlashtirish darajasini oshirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, MBL metodikasi va raqamli vizual texnologiyalar uyg‘unligi o‘qitish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, fizika kabi mantiqiy-matematik fikrlashni talab etuvchi fanlarda bu yondashuv talabalarni faollashtirish va mavzularni chuqur tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida Model-Based Learning (MBL) metodikasi va 3D animatsion virtual ishlanmalardan foydalangan holda ideal gaz qonunlari mavzusini o‘qitish samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli interaktiv vositalar yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish nafaqat talabalar bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishga, balki ularning kreativ va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. 3D simulyatsiyalar va MBL bosqichlari orqali talabalarning mavzuni amaliy jihatdan anglab yetishi, mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarining shakllanishi ta‘minlandi. Shu bilan birga, interaktiv o‘qitish vositalari ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi tasdiqlandi. Kelgusida ushbu metodologiyani boshqa fanlar va ta‘lim jarayonining turli bosqichlarida keng qo‘llash imkoniyatlari izlanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6079-son. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-3832-son. “Raqamli iqtisodiyot va davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish” dasturi. 2018 yil 3 iyul.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-4022-son. “Elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar” dasturi. 2018 yil 21 noyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-4699-son. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat konsepsiyasini tasdiqlash” haqida. 2020 yil 28 aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-178-son. “Hududlarda yoshlar uchun IT-shaharchalar tashkil etish” haqida. 2024 yil 15 may.
6. Digital Development Agency (Raqamli rivojlanish agentligi). Rasmiy veb-sayt: <https://digital.gov.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: <https://president.uz>
8. Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. – М.: Изд-во «Институт практической психологии»; Воронеж: НПО «Модэк», 1996. – 392 с.
9. Де Боно Э. Латеральное мышление. — СПб.: Питер Паблишинг, 1997. -320 с.
10. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. -М.: Педагогика, 1972. 168 с.
11. Torrance, E.P., “Torrance Tests of Creative Thinking”, 1966, Bensenville, IL.
12. Шигапов.Ш.З. Развитие творческих способностей будущих учителей физики в условиях дидактической компьютерной среды. Дисс. кан.наук. Казанский Государственный Педагогический Университет, 2004. – 167с.

13. Виноградов.Д.В. “Развитие теоретического мышления студентов в процессе обучения физике в педагогическом вузе”. Дисс.кан.наук. 2005. – 170 с.
14. Розова.Н.Б. Применение компьютерного моделирования в процессе обучения (на примере изучения молекулярной физики в средней общеобразовательной школе). Дисс.кан.наук. Вологодский государственный педагогический университет, 2002. – 156 с.
15. Jo‘raev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Sharq, 2005.-80 b.
16. Yo‘ldashev.M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan. dok. dis.–T.: 2016.-309 b.
17. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy- metodik asoslari. Ped. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2007. – 47b.;
18. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida ummumehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Ped.fan. dok. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2004,- 299- b.
19. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: p.f. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2017.
20. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. –T.: - 2017. – 24 b
21. Turayeva S.R. The role modeling of physical processes in the development of students’ kreative thingking. Science and innovation international scientific journal volume 3 issue 3 march 2024. 73-75 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10829102>
22. Turayeva S.R. “TAMADDUN NURI” Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal ISSN 2181-8258 2024-yil, 6-son (57) <https://doi.org/10.69691/znqvht11>
<https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/121>
23. Turayeva S.R. “Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishlaridan maqsadli foydalanish”, O‘zbekiston milliy universiteti xabarlar jurnali, 2025, [1/2/1] issn 2181-7324 <https://journals.nuu.uz/index.php/1/article/download/6704/2966>



UO'K 371.3:78

TALABALARNI MUSIQA VOSITASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANTIRISHNING SHAKL VA USULLARI

Boliyev Uchqun Ismatovich

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Musiq ta’limi” kafedrası v.v.b dotsenti

uchqunboliyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarni musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning shakl va usullari yuzasidan bir qator ilmiy mulohazalar bayon etilib, musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, guruh rahbar va talabaning fikrlashi, faoliyat motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik borligi yoritib berilgan. Shuningdek vosita maqsad bilan natija o'rtasidagi o'rta bo'g'in hisoblanishi, ayrim pedagogik vosita konkret sharoitga qarab foydali yoki zararli, zaif yoki ta'sirchan bo'lishi mumkinligi, ayrim vositaga haddan tashqari e'tibor berib, doimo qo'llash boshqalarini unutish tarbiyaviy ishda muqarrar ravishda nuqsonlarga olib kelishi haqida keng tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: talabalarning ma'naviy qiyofasi, musiqa vositalari, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, shakl va usullar, ma'naviy-axloqiy ishlar rejasi.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ МУЗЫКУ

Аннотация. В статье представлен ряд научных положений о формах и методах духовно-нравственного воспитания учащихся посредством музыки, отмечающих чрезвычайно сложную взаимосвязь цели, средств и результатов духовно-нравственного воспитания посредством музыки, а также мышления руководителя и учащегося с мотивами деятельности. Представлены также общие положения о том, что средство рассматривается как промежуточное звено между целью и результатом, что одни педагогические средства могут быть полезными или вредными, слабыми или эффективными в зависимости от конкретных условий, что чрезмерное внимание и постоянное использование одних средств и забвение других неизбежно приводят к дефектам в педагогической работе.

Ключевые слова: духовный облик учащихся, музыкальные инструменты, духовно-нравственное развитие, формы и методы, план духовно-нравственной работы.

FORMS AND METHODS OF SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF STUDENTS THROUGH MUSIC

Annotation. The article presents a number of scientific considerations on the forms and methods of spiritual and moral development of students through music, highlighting the extremely complex relationship between the goal, means and results of spiritual and moral education through music, as well as between the thinking of the group leader and the student, and the motives of activity. It also presents broad concepts that the tool is considered an intermediate link between the goal and the result, that some pedagogical tools can be useful or harmful, weak or effective depending on specific conditions, and that paying excessive attention to and constantly using some tools and forgetting others inevitably leads to shortcomings in educational work.

Keywords: spiritual image of students, musical instruments, spiritual and moral development, forms and methods, spiritual and moral work plan.

KIRISH. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yuzasidan ishlarini tashkil qilishda bir qator shakl va usullarni amalga oshirishni taqazo qiladi. Bunda muhim qirralardan biri musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari va uning maqsad, vazifalari, vositalari hamda tarbiyaviy ta'sirni tabaqalashgan holda vaqt jihatidan butun bakalavrlilik davrida taqsimlash muammosidir. Bunday talabning oliy ta'lim muassasalarining u yoki bu kursida tahsil olishi bilan uning shaxsiy sifatlarining rivojlanishi bosqichlari bir-biriga mos kelmaydi. Shuning uchun musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy ishlarni tabaqalashtirish bilan birga, talabning kursdan kursga o'tishi bilan bo'lajak mutaxassisga aniq bir kasb va jamiyat talab qiladigan sifatlarning shakllanishini ham o'rganish zarurdir. Uning o'zini bilishi va tarbiyaga, individual rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda jamiyat va ishlab chiqarish ehtiyoji asosida musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish mumkin. Bu jarayonida talabada bilish va boshqa faoliyatga nisbatan qat'iy yo'nalish, qiziqishni shakllantirish ham muhimdir. Shu bilan birga individual faoliyatining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Unda jamoaviy faoliyat va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllanishini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Shu bilan birga shaxsiy va kasbiy sifatlarning rivojlanish darajasini mutaxassisga qo'yiladigan talab bilan jamiyat talabining har bir kurs oxirida aniqlash ham musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni samaradorligini belgilaydi. Har qanday rejalashtirish aniq maqsad va shu asosda faoliyatda kutilgan natijadan boshlanadi. Oliy ta'lim muassasalarining umumiy maqsadi ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim to'g'risidagi qonun va uni amalga oshirish bilan bog'liq respublika hukumati qarorlarida o'z ifodasini topgan. Ammo bu umumiy maqsad, har bir oliy ta'lim muassasalari xususiyati va tayyorlaydigan mutaxassislariga

qarab, o‘quv rejalari, dasturlar, darslik o‘quv qo‘llanmalarida hamda vazirlikning me‘yoriy normativ hujjatlarida oydinlashtirilgan. Ammo masalaning muhim va murakkab tomoni ham shu hujjatlar asosida talaba individual shaxsiy sifatleri va ijtimoiy buyurtma talabini rejalashtirishda musiqa vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga tadbii qilishdir. Bunda ta‘lim modelining alohida shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg‘unligi asosida shaxs va yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashni talab qilishi muhimdir.

Guruh talabalari o‘rtasida musiqa vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarning mazmunini belgilashda talaba shaxsi markaziy o‘rin egallashi lozim. Hozir oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba eng avvalo, bo‘lajak mutaxassis va mustaqil oilaviy hayot bo‘lag‘asida turgan shaxs hisoblanadi. Shuning uchun ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari tizimida oilaviy hayotga tayyorlash, maishiy turmush, oila byudjeti masalalari, yotoqxonada jamoaviy yashash, shaxsiy gigiena, kun tartibi, vaqt byudjeti, jamoat joylarida o‘zini tutishi kabi ijtimoiy munosabatlardan ham xabardor bo‘lishi muhimdir[5]. Shu asosda guruhda talabalar o‘rtasida musiqa vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, ilmiy asosda tashkil etish lozim. Bunda tarbiyachi anii pedagogik vositalar tanlashi zarur. Pedagogik vositalar tizimi pedagogik maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu tizim bir umr belgilangan bo‘lishi mumkin emas, u o‘zgarib va rivojlanib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Butun dunyoda axborot oqimi va ommaviy madaniyat ta‘siri ostida g‘oyaviy-ma‘naviy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan sharoitda talaba-yoshlarni mustaqil va sog‘lom fikrlaydigan, ajdodlar va ularning ma‘naviy merosiga yuksak hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini takomillashtirish, talabalar bilan ishlashning samarali yo‘l va vositalarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatimizda ta‘lim sifatini oshirish, shuningdek ta‘lim oluvchilar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasining ta‘sirchan mexanizmlarini aniqlash, ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyalash vositalaridan unumli foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishiga bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, deb ta‘kidlaydilar[8]. Respublikamizda yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish vazifalari belgilanib, bu borada ularning iqtidorini namoyish etish, qobiliyat va ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun munosib shart-sharoit yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birgalikda ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning samarali vositalarini aniqlash, jumladan musiqa darslarida yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish jarayonini milliy musiqiy merosimiz, urf-odat va an‘analarimiz asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya va talabalarda ularni rivojlantirish bo‘yicha yurtimizda pedagog olimlarimizdan B.Ziyomammedovning “Pedagogika” nomli oliy o‘quv yurtlari

uchun nashr etilgan o‘quv qo‘llanmasida ma‘naviy-axloqiy rivojlanish vositalari yoritilgan. Sh.Olimovning “Ma‘naviy-axloqiy tarbiya asoslari” nomli monografiyada esa ma‘naviy-axloqiy tarbiya va talabalarda ularni shakllantirish yuzasidan keng mulohaza yuritilgan. B.Umarov, Sh.Olimovlarning tadqiqotlarida talabalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi mustaqillik tafakkurini shakllantirish jihatidan yondashilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son, 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son kabi bir qator qarorlarini amalga oshirish uchun oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni musiqa vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar eng muhim omil bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yosh avlodni ajdodlarimiz an‘analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalash, ularda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz, xususan, xalq qo‘shiqlaridan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatimizni ma‘naviy-axloqiy yangilash, Sharqona qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularga yangicha ruh berish maqsadida “Ma‘naviyat va ma‘rifat” Respublika markazi Musiqa vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, vositalari va natijalari o‘rtasida, shuningdek, guruh rahbar va talabaning fikrlashi, faoliyat motivlari o‘rtasida g‘oyat murakkab bog‘liqlik bor. Vosita maqsad bilan natija o‘rtasidagi o‘rta bo‘g‘in hisoblanadi. Ayrim pedagogik vosita konkret sharoitga qarab foydali yoki zararli, zaif yoki ta‘sirchan bo‘lishi mumkin. Ayrim vositaga haddan tashqari e‘tibor berib, doimo qo‘llash boshqalarini unutish tarbiyaviy ishda muqarrar ravishda nuqsonlarga olib keladi. Hatto eng sinalgan insonparvar vositani (yaxshi so‘z, amaliy tajriba, sevgi-muhabbat haqida bahsni) ham mutloq darajaga ko‘tarish, uni maqsad va natija bilan muvofiqlashtirmaslik pirovard natijada vositaning kutilgan narsaga qarama-qarshi bo‘lishiga olib keladi. Maqsadni ulug‘lash bilan har qanday vositalarni oqlash mumkin. Chunki maqsad ma‘lum mustaqillikka ega bo‘lib, qolgan vositalar belgilangan maqsadga borish yo‘lidagi harakat jarayonida o‘zgarib yuborishi mumkin. Tajribali guruh rahbarlari orasida shundaylari uchraydiki, ular pedagogik vositalardan birini yaxshilab egallab olgach, uni butun pedagogik jarayonning bosh va oxirigacha barcha muammolardan qutilish yo‘li deb hisoblaydilar[5]. Bunda ayrim guruh rahbarlari o‘z-o‘zini boshqarishga, boshqalari-munozaraga, uchinchilari-ijtimoiy foydali mehnatga mahliyo bo‘ladilar. Chinakam mahoratli guruh rahbari turli-tuman vositalardan, ba‘zan esa butunlay bir-biriga qarama-qarshi vositalardan foydalanadi. Agar guruh rahbarda

musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni haqida to'liq bilim bo'lmasa, u bir vositaning boshqalaridan farq qilishini tushunmaydi.

Musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida vosita, maqsad va natijaning o'zaro nisbati va munosabatini doimo tahlil qilib borish shart. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir-biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli-bo'lajak natijadir. Natija esa yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Amaliyotda qo'llanilgan har qanday vosita garchi u maqsadga uncha mos kelmasa, ham ma'lum natija beradi (natija doimo ijobiy bo'lmay, salbiy ham bo'lishi mumkin). Ammo maqsadga mos keluvchi vosita samaralidir. Talabaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning har bir holatida va umuman ma'naviy-axloqiy tarbiyada guruh rahbari nimaga erishmoqchi ekanligini aniq bilmasa, samarador pedagogik vositalarni tanlashda muvaffaqiyat qozona olmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, har qanday pedagogik vosita hamisha qator boshqa vositalar, usullar, sharoitlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ular pedagogik jarayonning ma'lum bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan, rag'batlantirish bir xil holda ijobiy, boshqa holda salbiy natija berishi mumkin. Boshqa holda o'rinsiz qo'llanilgan rag'batlantirish jazolashga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun guruh rahbarida bu holda bir metodning boshqalari ta'siriga muvofiqlashtirishiga ehtiyoj tug'iladi. Ayniqsa jamoaviy ta'sir ko'rsatish sharoitida guruh rahbari vositalarning har on o'zgarib turuvchi vaziyatini hisobga olishi zarur.

Qo'llaniladigan pedagogik vositalar va guruh rahbarining ma'naviyati, mahorati o'rtasida to'g'ri bog'lanish bor. Chunki vositalarni tanlashda guruh rahbari o'z bilimi, e'tiqodidan kelib yondashadi. Vositaning tarbiyaviy ta'siri uning shaxsiy sifatlariga bog'liq bo'ladi.

«Pedagogikada universal vositalar yo'q, lekin har bir pedagogik vosita o'zining qarama-qarshi tomoniga aylanishi: mehribonlik bag'ritoshlikka, o'z-o'zini boshqarish bolalarning faolligini, jipsligini rivojlantirish va demokratiya bilan ierarxik oshno qilishdan tashabbusni bo'g'ish va qattiq ierarxik tarqoqlikni qaror toptirish usuliga aylanishi mumkin».

Vositalar va usullarning bunday o'zgarishi, ularning yaroqsizligida emas, balki tarbiyachining ularni maqsadga muvofiq tanlamaganligidir. Bundan tashqari ularni tanlashda axloqiy normalar va g'oyaviy yo'nalishiga e'tiborsiz ham salbiy natija berishiga olib keladi. Chunonchi, guruh rahbarlari tarbiyaviy vositalarni talabalar iqtidori va qobiliyatlarini, jamoada ijodiy muhitni rivojlantirish o'rniga, o'zini shaxsiy ustunligini namoyish qilib, talabalar istaklarini paymol qilsa, ularni faolligi o'smay, qaysarligi o'sadi. Bunda guruh rahbari pedagogik odob va axloq normalariga zid ish qilgan bo'ladi. Jamiyat axloqiga zid vositalar, metod va usullar tarbiya metodlari sifatida tanlanishi mumkin emas[7]. Ular axloq talablariga mos kelgandagina va sharoit taqozo qilsa pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nazariy asosda va tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlariga tayanib, biz talabalarning butun o'qish davri uchun, har bir kurs talabasi xususiyatini inobatga olib, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish namunasini ishlab chiqdik.

Oliy ta’lim muassasalari bakalavr talabalar birinchi kursi uchun musiqa vositasida ma’naviy-axloqiy ishlar rejasining taxminiy namunasi

1-jadval

№	Musiqa vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbir nomi	Amalga oshirish muddati	Mas’ul shaxs	Shakli
I. Ma’naviy –ma’rifiy ishlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirish				
1.	Mustaqillik g‘ururimiz mavzusida mustaqillik darsini o‘tkazish	2-sentyabr	O‘qituvchi	Ma’ruza
2.	An’anaviy o‘tkaziladigan muloqot mashg‘ulotlarini o‘tkazish	Reja asosida	Guruh rahbari	Ma’ruza, savol-javob
3.	Oyda bir marta o‘tkaziladigan «Ma’naviyat kunlari» uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berish	Rejaga ko‘ra	Guruh rahbari	Suhbat.
4.	“Ma’naviyat kunlari”ni yetarli tayyorgarlik bilan o‘tkazish	Rejaga ko‘ra	Dekanat Guruh rahbari	Jamoaviy
II.Axloqiy va ongli intizom, madaniy xulqni tarbiyalash				
1.	Milliy merosimizdan olingan misollar rivoyatlar, hikoyalar asosida axloqiy normalarni tushuntirish	Reja asosida	Guruh rahbari, fan o‘qituvchilari	Suhbat tushuntirish
2.	Axloqli odamning fazilatlarini, o‘z mehnat burchlari, Vatanga, xalqqa, oila va jamiyat a’zolariga munosabatini jonli tushuntirish	Reja asosida	Guruh rahbari, Fan o‘qituvchisi	Suhbat tushuntirish
3.	Abdulxoliq G‘ijduvoniyning «O‘g‘lim» ga nasihatnomasini guruhda o‘rganishni tashkil qilish.	Ramazon oyi	Guruh rahbari	Suhbat, maslahat, sayohat
4.	Boshqalarga oliyjanob sahiy munosabatda bo‘lishning mohiyatini tushuntirish	Reja asosida	Guruh rahbari	Suhbat
5.	Har kim o‘z xatti-harakati, xulq-atvori uchun javobgarligini, ko‘cha-ko‘yda yurish-turish, muomala madaniyati haqida ma’lumot berish	Noyabr	Guruh rahbari	Suhbat
6.	Tartib buzarlilik huquqbuzarlilikning yuridik mohiyatini tushuntirish	Dekabr	mutaxassis	Tushuntirish suhbat
7.	Motamsaro ona poyiga va urushda qurbon bo‘lganlar ramziy qabriga gullar qo‘yish	8-9-may	Dekanat, Guruh rahbari	Jamoaviy

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining har bir kursi (1-4) uchun musiqa vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid keltirilgan ishlar mazmuni va shakllari namunaviy xarakterga ega. Shu asosda har bir guruh rahbari talabalar ehtiyoji, tanlagan mutaxassisligi talabi asosida ularni aniqlashtiradi. Undan ijodiy va tanqidiy foydalanish lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni murakkab va ko'p komponentligi sababli unga Oliy ta'lim muassasalari ma'muriyati (rektorat, ma'naviyat va ma'rifat markazi, dekanat, kafedralar) va ijtimoiy tashkilotlar: yoshlar ijtimoiy harakatlari, xotin-qizlar va talabalarning turli birlashmalari, professor-o'qituvchilar hamda guruh rahbarlari ishtirok etadilar. Shuning uchun ular faoliyatini, ya'ni musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarni yagona maqsad-talaba shaxsiga yo'naltirish o'zaro aloqadorlik va muvofiqlashtirish asosida olib borishni zaruriyat qilib qo'yadi. O'zaro aloqadorlik sababli bog'lanishlar (determinizm) asosida bog'lanishlarida bo'lishni taqozo qiladi. Bunda aloqadorlik jarayon subyektlarning harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida yondoshishlarini biz tadqiqotimizga asos qilib olgan tizimli yondashuvni ham taqozo qiladi.

Bunday yondashish yana shuning uchun ham zarurki, bir yo'nalish vazifasini ikkinchisi kuchaytirish orqali talabalarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, iqtisodiy, huquqiy, jinsiy, ekologik tarbiyasini ular shaxsini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirishdir. Shu asosda talabalarni musiqa vositasida yuksak axloqiy sifatlarini, go'zallikni qadrllovchi, mehnatsevar, Vatan, xalq ishiga sadoqat ruhida tarbiyalash va o'z kasbini chuqur egallashga erishishi mumkin bo'ladi.

O'z navbatida bu vazifani yechish talaba shaxsining barkamolligini tarbiyaviy ta'sirlar garmoniyasi bilan uyg'unlashgan holda ta'minlash mumkin. Inson murakkab ijtimoiy mavjudot bo'lib, o'z psixik olami, faoliyati, tuzilishi, yo'nalganligi, individualligi bilan birga ko'p omillar (ichki va tashqi, maqsadli maqsadsiz) hamda irsiyat va muhit ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga muhit unga ijtimoiy voqelik (siyosiy tuzum) undagi ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy-siyosiy, mafkuraviy, jamiyatning ruhiy holati, ijtimoiy ong shakllari (obyektiv omil) ta'siri ostida insoniy xislatlari shakllanadi.[3] Bu omillar oqimi tizimini talaba shaxsini axloqiy va kasbiy kamolotini boshqarish vositasiga aylantirish ma'lum darajada musiqa faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ko'ryapmizki, talaba shaxsi bir vaqtning o'zida turli-tuman obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirida bo'ladi. Mana shularni ko'p komponentli shaxsga yo'naltirish nihoyatda murakkab, ilmiy-nazariy, amaliy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Talaba shaxsining murakkabligi va ma'naviy olamining ko'p ehtiyojliligi unga bir vaqtning o'zida musiqa vositasida tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uning barkamolligining muhim vositasiga aylantiradi. Insonning texnik tizimlardan, chunonchi mashinadan farqi biologik zot va ijtimoiy mavjudot sifatida ko'p komponentli subyekt ekanligidir.

Shuning uchun musiqa vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga ishtirok etuvchilar faoliyatini o'zaro uyg'unlashtirib, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari yaxlitligi orqali talaba shaxsi shakllanishining hozirgi vaqt uchun zarur yo'nalishlari (ayni paytda ma'naviy-ma'rifiy)ni kuchaytirishga ongli va maqsadga muvofiq yo'naltirish mumkin bo'ladi[7].

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish modelida uning fikriy-ilmiy shaklini tasvirlab, unga qo'yiladigan talablarni, ishtirokchilar faoliyat doirasini, birgalikdagi faoliyat samaradorligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bunda mazkur jarayon ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatlaridagi ijobiy va salbiy tomonlar bevosita ko‘rinarli namoyon bo‘ladi. Bunda o‘zaro aloqadorlik modeli umumiy holda amalda-tajribada bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyalashga qo‘yiladigan talablar ifodalanishi lozim.

XULOSA. Talabalar bilan olib boriladigan ma‘naviy-axloqiy tarbiya ko‘p qirrali va murakkab bo‘lish bilan birga izchillik, muntazamlilik va tizimli yondashishni talab qiladi. Bir aniq g‘oyaviy maqsad asosida muntazam tashkil qilinmagan ishlar kutilgan natijani bermaydi. Insonda ma‘lum faoliyat yoki ishga aniq bir munosabat shakllanishi uchun unga doimiy, muntazam ta‘sir o‘tkazish kerak. Talabalar bilan olib boriladigan ma‘naviy-axloqiy ishlar uzuq-yuluq, pala-partish, onda-sonda, o‘lda-jo‘lda, xo‘ja ko‘rsin tarzida olib borilsa, ular foyda emas, balki zarar keltiradi. Ma‘naviy-axloqiy ishlarga, qolaversa, o‘qishga talabalarda salbiy munosabat shakllanib, yaxshi tadbirlar ham ijobiy ta‘sir ko‘rsata olmaydi.

Shu holat yuzaga kelmasligi uchun dekan muovini va kengash raisi vaqt-vaqti bilan guruh rahbarlari tarbiyaviy ishlarini tahlil qilish, ularni ta‘sirchanligi, samaradorligini aniqlab, ularning ishlariga baho berishi zarur. Bu ularni mas‘uliyatini oshishiga, ularni ishi unitilmas keraksiz emas, balki ijtimoiy muhimligiga ishonchini mustahkamlab, yangi ijobiy ishlarga undaydi. Tarbiyaviy ishlarning natijasiga baho berish so‘zda emas, balki amalda bo‘lib, ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirilishi lozim.

Shuni ham e‘tirof etish kerakki, OTMda o‘ziga xos tarbiya tizimi birdaniga uning qurilishi bilan shakllanmaydi. Bu tizim OTMning moddiy bazasi, oldida turgan maqsad va vazifalari va jonkuyar, fidoyi kadrlarining tinimsiz izlanishi asosida qadamba-qadam, bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu jarayonni boshqarish uchun o‘zgaruvchan vaziyatlar va imkoniyatlarga mos yo‘naltirib, kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu bilan birga shakllangan tizimni muttasil tahlil qilish, ijobiy tomonlarini mustahkamlash va kamchiliklarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko‘rish asosida rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori. www.lex.uz.

3. Norova.Sh.U.Tarbiya samaradorligini oshirishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish. –/“Xalq ta‘limi” jurnali. 2005 yil, 6-son.91-95 betlar.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy-parxish. Tahrir hay‘ati: A.Abduvohitov, A.Azizxo‘jayev, M.Aminov, T.Daminov va b. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2003. – 704 b.

5. Umarov B. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda guruh rahbarlari faoliyati.- /“Xalq ta’limi” jurnali, 2003 yil, 6-son, 59-63 betlar.
6. Ziyomammedov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: «Turon-iqbol», 2006. - 112 b.
7. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 228 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.



UDK: 355.233.231

FALSAFA TA'LIMI ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich

*Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

x.xaydaraliyev1@mail.ru,

ORCID ID [0009-9025-0373](https://orcid.org/0009-9025-0373)

Annotatsiya. Ushbu maqolada falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi yoritilgan. Muallif ta'lim jarayonida bahs-munozaralardan foydalanish, talabalar faolligini oshirish, axloqiy-ruhiy tarbiya elementlarini singdirish orqali Vatanga muhabbat, fidoyilik, ijtimoiy faollik kabi qadriyatlarni rivojlantirish usullarini tavsiflaydi. Tadqiqotda interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar va texnologik bosqichlar orqali pedagogik samaradorlikka erishish yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqolada ishlab chiqilgan "Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi" modeli orqali pedagogik faoliyatda falsafiy yondashuvning amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: falsafa ta'limi, vatanparvarlik tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, tashabbuskorlik, ma'naviy qadriyatlar, bahs-munozara, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, milliy g'oya, talaba faolligi.

Annotation. This article explores the development of patriotic qualities in students through philosophy-based education. The author presents a model of educational technology that integrates ethical and philosophical training with interactive discussion methods to enhance student engagement and cultivate values such as love for the homeland, civic responsibility, and national pride. The study emphasizes the importance of fostering personal initiative and reflective thinking through stepwise pedagogical strategies. The proposed "Technology for Developing Patriotism" serves as a structured approach to instilling these values in higher education students.

Key words: philosophical education, patriotic upbringing, moral values, initiative, spiritual values, discussion method, interactive learning, pedagogical technology, national idea, student engagement.

Аннотация. В данной статье рассматривается технология формирования патриотических качеств у студентов на основе философского образования. Автор

акцентирует внимание на использовании интерактивных методов, дискуссий и личностно-ориентированного подхода в процессе воспитания таких ценностей, как любовь к Родине, ответственность, инициативность и гордость за свой народ. Разработанная модель «Технология развития патриотических качеств» позволяет системно реализовать эти цели в педагогической практике.

Ключевые слова: философское образование, патриотическое воспитание, моральные качества, инициатива, духовные ценности, метод дискуссий, интерактивные технологии, педагогическая модель, национальная идея, активность студентов.

KIRISH

Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san‘atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Falsafa ta‘limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda bahs-munozaralardan foydalanish ham ijobiy natijalar beradi. Ushbu fikrni inobatga olgan holda tajriba-sinov ishlari jarayonida “Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanganmi?” hamda “Vatanparvarlik fazilati qanday vaziyatda shakllanadi, unga nimalar ta’sir ko‘rsatadi, sotqinlikning falsafiy mazmuni nima?” mavzulardagi bahs-munozaralar tashkil etildi. Bahs-munozara jarayonida tashabbus to‘la ravishda talabalar «qo‘lida» bo‘lishiga e’tibor qaratildi va bu borada ilgari surilayotgan g‘oyalarga qat’iy amal qilindi. Jumladan, munozara chog‘ida o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyatning talabalar faolligini rag‘batlantirishini ta’minlashga oid J.T.Dillonning quyidagi qarashlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi:

Tasdiqlash – talabalarining fikrlarini tasdiqlab, ularning tengdoshlar tomonidan anglanganlik holatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu o‘rinda «Demak, Sizning fikringizcha ... shunday, to‘g‘rimi?», «Bizning tushunishimizcha, Siz ... demoqchisiz» kabi murojaatlardan foydalanildi.

Signallar – mimika, pantomimika va jestlar yordamida talabaning fikrini ma’qullash, qo‘llab-quvvatlash. Ma’lum bo‘lishicha, munozaralar jarayonida o‘qituvchining izohli sharhidan ko‘ra ko‘proq uning mimika, pantomimika va jestlar yordamida talaba fikriga nisbatan munosabat bildirishi ta’sirchan kuchga ega. Shu bois so‘z yuritilayotgan vaziyatda ular (yuzada fikrni anglamaganlik, mamnunlik, «fikringizni davom ettiring», «fikringizni tugatdingizmi?» kabi ifodalarning aks etishi) kabi holatlardan o‘rinli foydalanish ishtirokchilar faolligini keskin oshirdi va munozaraning muvaffaqiyatli borishini ta’minladi.

Sukut saqlash – savol berilgach, talabalarga o‘ylash, fikrlarini jamlab olish uchun imkoniyat berish. Bu holat talabalarni noto‘g‘ri mulohaza yuritish yoki fikrlarini to‘la asoslay olmasligining oldini olishga xizmat qiladi.

Munozalar jarayonida talabalarni qo‘llab-quvvatlovchi «Balli!», «Barakalla!», «Juda soz!», «Yaxshi», «Shundaymi?», «Nahotki, shunday!» kabi ta’kidlardan foydalanish ham o‘zining samarasini berdi. Shuningdek, talabalar tomonidan mutlaho noto‘g‘ri va mantiqsiz fikrlar bildirilishining oldini olishga alohida e’tibor berildi. Bu o‘rinda «Yaxshi, Siz fikrlaringizni jamlab oling. Unga qadar tengdoshingiz Zokir o‘z qarashlarini bayon etadi» kabi murojaatlardan foydalanildi.

Munozaralarning maqsadi: talabalarni bugungi kun yoshlarining vatanparvarlik fazilatiga egaliklari hamda zamonaviy o‘zbek kishining qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida mulohaza yuritishga undash, o‘z-o‘ziga baho berish imkoniyatini yaratish. Munozaralarda yoritilishi ko‘zda tutilgan tayanch tushunchalar: yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, yoshlarning ijtimoiy faolligi, vatanparvarlik, fidoiylilik, milliy qahramon, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga baho berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

B.To‘ychiyev harbiy xizmatchilar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar hamda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarini, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin va O.Abdurasulovlar mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarixi, tarkibi, oliy harbiy bilim yurtlari harbiy xizmatchilari faoliyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etganlar.

R.Kurbanov, E.Qalqonov, O.Abdurasulov, A.Redjaboyevlarning yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning nazariy-metodologik muammolari, milliy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati oliy o‘quv yurtlaridagi ta’limning milliy yo‘nalishlaridagi yangilash bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo‘lajak kadrlar tayyorlashning an’anaviy tizimida asosiy e’tibor talabalarni bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun nimaga va qanday o‘qitish masalasiga qaratilsa, zamonaviy didaktikaning muhim vazifasi o‘z pedagogik faoliyatida samarali pedagogik vositalar arsenalidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo qiladi. Pedagogik ta’limning zamonaviy talablari va ilg‘or texnologiyalariga muvofiq tavsiflash-ta’kidlash darajasidagi bilimlarni o‘zlashtirish qarashlardan voz kechib, qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish, talabalarning motivatsiyasi sohasini zamonaviy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va ilmiy-pedagogik tafakkur qadriyatlari darajasiga ko‘tarish maqsadga muvofiq.

Darslarning muammoliligi, interfaolligi va ijodkorligi quyidagi sabablarga ko‘ra har doim ham samaradorligi ta’minlanmaydi, shu jumladan, bizning muammoimiz sharoitida ham:


- professor-o‘qituvchilar o‘qitishning falsafiy yondashuvi to‘g‘risida yetarlicha aniq tasavvurga ega bo‘lmaganda;

- professor-o‘qituvchilar falsafiy yondashuvning ma’naviy va qadriyatli salohiyatini hisobga olmaganda va foydalanmaganda, uni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligiga rioya qilinmaganda;

-ijodiy xarakterdagi texnologiyalar tizimli qo‘llanilmay, amaliy qo‘llash goh-gohda, o‘z tabiiy yo‘sinida ro‘y berganda;

-talabalar har doim ham ularning tayyorgarlik darajasi, muammoli ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal qilishga tayyorlik darajasi bo‘yicha o‘qitilmaydi, bu esa o‘quv jarayonini samarasiz qiladi;

Texnologik yondashuvning umumiy tavsifiga tayangan holda, tadqiqot doiracida falsafa ta‘limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning quyidagi texnologiyasi ishlab chiqildi, uni “Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi” deb nomladik.



1-rasm. “Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi”

Ushbu texnologiyada vazilatlar tarbiyasi birlamchi xususiyat ekanligi uning nomlanishida ifoda etilmoqda. Har qanday tizim ichki tuzilish, element (unsurlar)dan tashkil topar ekan, mazkur tizim o‘laroq sifatlanayotgan texnologiyaning unsurlari uning bosqichlaridir va u bir-birini taqozo etadigan va to‘ldiradigan uch bosqichdan iborat.

Texnologiyaning bopinchi bosqichi “Vatanparvarlik fazilatiga doir bilimlarga ega bo‘lish” deb nomlanib, quyida belgilangan vazifalarni hal etish acocida amalga oshiriladi:

1. Falsafa ta‘limi asosida axloqiy fazilatlar va ularni tarbiyalash mexanizmlariga doir bilimlar bilan tanishtirish va ushbu jayoyda pedagog o‘zi uchun keyingi vazifalarni belgilashda talabalarning mavjud vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanganligi aniqlanadi (test, yozma yoki og‘zaki javoblar orqali).

2. Falsafiy bilimlarni asosida vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan o‘quv materiallari bilan tanishtiriladi va talabada vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish boshlaydi. Mazkur bosqichda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlardan foydalaniladi. Bu jayoyda imkon doiracida talabalarning individual faoliyat olib bopishlariga e‘tibor berilishi muhim. Individual ishlash jayoyi har bir talabada o‘z vazifasiga muvofiq yondashishini taqozo etadi. Natijada, o‘z shaxsiy fikr, shaxsiy munosabat va kreativ qaratilishi o‘cadi.

XULOSA

Tadqiqot doipacida ishlab chiqilgan falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyaci o‘zapo bip-bipi bilan uzviy bog‘langan va aloqadop algopitmlap cifatida texnologiyalashtirilgan, mavzulapning mazmun-mohiyati, shakl, metod va vocitalapini o‘z ichiga olish bilan bipga talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga imkon bepdi.

Falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish bo‘yicha modellashirishni barcha bosqichlarda qo‘llash (professional yo‘naltirilganlik, ta’lim, fan, kasb tanlash va sertifikatlash, konsalting xizmati va hokazo) hamda pedagogik faoliyatda o‘zgarishlar dinamikasi uning uzluksiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks ettiriladi. Falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish modeli takomillashib borayotgan tizim hicoblanadi. Model axbopotlapning to‘planishi bo‘yicha amaliyot ehtiyoji o‘zgapishi, paqamli muhit talablapiga javob bepuvchi kadplapga zamonaviy ijtimoiy talablapning shakllanish tuzilmaci, shaxsiy papametplap moclashuvchanligi va o‘cuvchanligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Отамуротов С., Мамашокиров С., Холбеков А., Лафасов М. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. – Тошкент: IJOD DUNYOSI, 2001. – Б. 18.
2. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборник произведений. Сост., науч. ред., авт. вступ. ст. М. Г. Ярошевский - Москва Просвещение. 1990. - 517 с.
3. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Тошкент: Университет, 1998. –Б. 148-164.
4. Ахроров С.Ю. Ҳарбий хизматчилар шахсида девиант хулқ намоён бўлишининг ижтимоий хусусиятлари: Дис. соц.фан.ном. Тошкент, 2009.
5. Ачилдиев А. Миллий истиқлол ғояси миллатлараро муносабатларни ткомиллаштириш омили. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т, 2005.
6. Волков Е.П. Уклонения от исполнения служебных обязанностей как форма девиантного поведения офицеров: Автореф. дис... канд. социол. наук.. – М.: ВУ, 1998.
7. Курбанов Р.Ю. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни. Автореф: дис ... фалс.фан.ном. –Тошкент: 2008.
8. Муминов А.Г. Национальная политика независимого Узбекистана и пути ее реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика). Автореф.дисс...докт.полит.наук. –Т.: 1999.
9. Пахрутдинов Ш. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдиди. Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2001.
- 10.Реджабоев А.Д. Ёшларни миллий истиқлол ғояси асосида ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш: пед.фан.ном. дис. автореф. – Тошкент, 2004.
- 11.Самадов А.Р Ахлоқий идеалнинг ижтимоий-фалсафий моҳияти ва унинг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент: 2011. – 10 б.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 37.015.3:378:811

ORCID:0000-0002-6117-6937

FILOLOGIYA TA‘LIM YO‘NALISHIDAGI TALABA-QIZLARDA ONGLI VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYANGAN METODIK YONDASHUV

Xaydarova Ra‘no Anvarovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi

rkhaydarova7@gmail.com, +998903479906

Annotatsiya: Mazkur maqolada filologiya ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda ongli vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda loyihaviy faoliyatning o‘rni va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda tanqidiy fikrlash, axloqiy ong, badiiy-estetik tafakkur va soft skills elementlari integratsiyalashgan holda ta‘lim jarayoniga tatbiq etildi. Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik model pedagogik, psixologik va amaliy jihatlarni o‘z ichiga olgan holda talabalarda fuqarolik mas‘uliyati, milliy qadriyatlarni anglash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda eksperimental mashg‘ulotlar, kuzatuv, diagnostika va statistik tahlil metodlari qo‘llanilib, model samaradorligi amalda isbotlandi.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, filolog talaba-qizlar, loyihaviy faoliyat, metodik yondashuv, tanqidiy fikrlash, pedagogik model, qadriyatlar, soft skills, refleksiya, ta‘lim texnologiyasi.

МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД, ОСНОВАННЫЙ НА ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, К РАЗВИТИЮ ОСОЗНАННОГО ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОК ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье освещается роль проектной деятельности и её педагогическое значение в формировании осознанного патриотизма у студенток филологического направления. В исследовании интегрированы элементы критического мышления, нравственного сознания, художественно-эстетического восприятия и soft skills в образовательный процесс. Разработанная на основе данного подхода методическая модель включает в себя педагогические, психологические и практические аспекты и способствует развитию гражданской ответственности, осмысления национальных ценностей и социальной активности у студенток. В исследовании

применялись экспериментальные занятия, наблюдение, диагностика и статистические методы анализа, что позволило эмпирически доказать эффективность модели.

Ключевые слова: Патриотизм, студентки-филологи, проектная деятельность, методический подход, критическое мышление, педагогическая модель, ценности, мягкие навыки, рефлексия, образовательные технологии.

A METHODOICAL APPROACH BASED ON PROJECT ACTIVITIES FOR DEVELOPING CONSCIOUS PATRIOTISM AMONG FEMALE STUDENTS IN THE FIELD OF PHILOLOGY

Abstract: This article explores the role and pedagogical significance of project-based activities in fostering conscious patriotism among female students in philology education. The research integrates critical thinking, moral awareness, artistic-aesthetic perception, and soft skills into the educational process. The methodological model developed through this approach encompasses pedagogical, psychological, and practical dimensions, aiming to enhance students' civic responsibility, understanding of national values, and social engagement. The study utilized experimental sessions, observation, diagnostics, and statistical analysis methods, which empirically confirmed the effectiveness of the proposed model.

Keywords: Patriotism, female philology students, project-based learning, methodological approach, critical thinking, pedagogical model, values, soft skills, reflection, educational technology.

KIRISH. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashda, yoshlarda yurtga sadoqat, milliy g‘urur, ma’naviy yuksaklik kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv va axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir davrda vatanparvarlik - nafaqat ijtimoiy ongda, balki har bir yosh shaxsning hayotiy pozitsiyasida barqaror qadriyat sifatida qaralishi zarur. Vatanparvarlik bugungi yoshlar ongida, ularning orzu-umidlari, tanlov va faoliyatlarida mazmunli aks etmog‘i lozim.

Filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlar - bu nafaqat til va adabiyot bilimdonlari, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira va ma’naviy meros targ‘ibotchilaridir. Ularning o‘z milliy qadriyatlariga bo‘lgan hurmati, madaniy tafakkuri, ijodiy salohiyati orqali yoshlar ongiga vatanparvarlikni singdirish imkoniyati yuqori. Aynan shuning uchun ham, talaba-qizlarda ongli vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishiga aylanishi zarur.

Shuningdek, filologiya yo‘nalishidagi yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglash, ona tiliga, adabiyotiga, tarixiy merosga nisbatan chuqur hurmat hissini kuchaytirish orqali Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni shakllantirish mumkin. Ularning kasbiy faoliyatida - adabiy tahlil, matn yaratish, tarjima, publitsistik faoliyatda vatanparvarlik mavzusining aks etishi, bu yo‘nalishdagi pedagogik yondashuvlarning to‘g‘riligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, filolog

talaba-qizlar ongida vatanparvarlik - nafaqat tarbiya obyekti, balki kasbiy-fikriy faoliyatning doimiy yo‘ldoshi sifatida qaralishi zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Pedagogik, falsafiy va madaniy manbalarda vatanparvarlik fazilati qadimiy davrlardan buyon eng muqaddas axloqiy mezonlardan biri sifatida ulug‘langan. Jumladan, “Avesto”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari, Temur tuzuklari, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning merosi vatanparvarlikni madaniy ong, g‘urur va fidoyilik asosida yoritadi. Zamonaviy tadqiqotlar - masalan, D. Karimov, M. Yuldashev, S. Sattorov singari pedagog-olimlarning asarlarida yosh avlodda milliy ong va vatanparvarlikni shakllantirishda o‘quv jarayonining ma‘naviy komponentlari alohida o‘rganilgan.

Mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatanga sodiq, mustaqil fikrlovchi, madaniyat va qadriyatlarni anglaydigan shaxs sifatida shakllantirish borasidagi izlanishlar asosan gender yondashuv, ijtimoiy-pedagogik sharoitlar va davlat siyosati doirasida olib borilmoqda [1,35]

Jumladan, Tursunova Dilnavoz tomonidan talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi masalasi falsafiy, psixologik va pedagogik yo‘nalishlarda tahlil etilgan bo‘lib, ayni jarayonda ularning huquqiy maqomi, shaxsiy tashabbusi, ijtimoiy rol va kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati asoslangan. Biroq bu tadqiqotlarda vatanparvarlik tushunchasi tanqidiy fikrlash, loyihaviy yondashuv yoki badiiy-estetik tafakkur bilan bevosita bog‘lanmagan. Shu boisdan, bizning izlanishimiz talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatini aynan tanqidiy fikrlash va loyihaviy faoliyat asosida shakllantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

X.Y. Mirzakarimov o‘z maqolasida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasini zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida taqdim etadi. Muallifning pozitsiyasiga ko‘ra, globallashuv va kiberijtimoiylashuv sharoitida yosh avlod ongini yot g‘oyalardan asrash, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash faqat an‘anaviy yondashuvlar emas, balki innovatsion, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga asoslangan yangi ta‘lim shakllari orqali amalga oshirilishi lozim. U ijtimoiy tarmoqlar, media makon, harbiy-sport tadbirlari, madaniy-festival vositalarini birlashtirgan tizimli pedagogik model zarurligini asoslab, talabalarda fuqarolik pozitsiyasi, milliy g‘urur va mas‘uliyatni mustahkamlashni ta‘lim-tarbiyaning ustuvor vazifasi sifatida ko‘rsatadi.[2,37]

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, talabalarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, Rossiya, AQSh, Latviya, Belarus, Qozog‘iston kabi davlatlar tajribasida vatanparvarlikni harbiy ijtimoiylashuv, maktab va kollej bosqichidan boshlab majburiy fanlar yoki bolalar-yoshlik harakatlari (masalan, Rossiyadagi “Yunarmiya”) orqali shakllantirish ancha ilg‘or tizimga aylangan. Jumladan, AQShda skautlar harakati orqali harbiy tayyorgarlik elementlari yoshlar orasida keng qamrovda olib boriladi, Rossiyada esa mudofaa tashkilotlari bilan hamkorlikda vatan himoyasi g‘oyasi ilk yoshdan boshlab ideologik va amaliy jihatdan targ‘ib qilinadi. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishda davlat siyosati,

fuqarolik tarbiyasi va axborot vositalarining uzviyligi muhim omil bo‘lib, mazkur modelda ham bu yondashuvlar integratsiya qilingan holda tatbiq etilishi zarur.[3,182]

So‘nggi yillarda vatanparvarlik tarbiyasiga oid ilmiy-analitik tadqiqotlar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, filologiya yo‘nalishidagi talaba-qizlarda ushbu fazilatni maqsadli va tizimli shakllantirish bo‘yicha izchil yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Ayni yo‘nalishda olib borilgan nazariy tadqiqotlar, asosan, umumiy ma‘naviy tarbiya, fuqarolik pozitsiyasi yoki yoshlarda ijtimoiy faollikni kuchaytirish bilan bog‘liq. Shu sababli, vatanparvarlikni aynan til, adabiyot, madaniyat va san‘at orqali talaba-qizlarga singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyati dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, aynan filologiya talabalari uchun samarali metodik yondashuvlar - adabiyot, tahliliy tafakkur va til boyliklari asosida ishlovchi, ijtimoiy-emotsional ta‘sir kuchiga ega metodlar - yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotda filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda ongli vatanparvarlik fazilatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ularni tanqidiy fikrlash va loyihaviy ta‘lim texnologiyalari orqali rivojlantirishga doir masalalar o‘rganildi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan, axloqiy-psixologik, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va gender yondashuv metodologik asos sifatida tanlandi. Bu yondashuvlar orqali talaba-qizlarning ichki motivatsiyasi, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, fuqarolik mas‘uliyati va ijtimoiy faolligi baholandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Nazariy tahlil (vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash, artpedagogika, loyihaviy yondashuvga doir ilmiy-adabiy manbalar tahlili);

Empirik metodlar (anketa so‘rovlari, diagnostik testlar, kuzatuv);

Eksperimental-pedagogik ishlar (tajriba-sinov mashg‘ulotlari, loyihaviy topshiriqlar, faoliyatga asoslangan metodik tadbirlar);

Matematik-statistik tahlil (olingan natijalarni SPSS dasturi yordamida statistik jihatdan qayta ishlash).

Tadqiqot obyekti - filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarning ta‘lim-tarbiya jarayoni.

Predmeti - sharq tillari filologiyasi yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda ongli vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

Tayyorlov bosqichi - nazariy manbalarni o‘rganish, dastlabki diagnostika vositalarini ishlab chiqish;

Tajriba-sinov bosqichi - pedagogik model asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish, kuzatuv va monitoring;

Tahlil va umumlashtirish bosqichi - natijalarni statistik tahlil qilish, model samaradorligini aniqlash, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.[5,481]


NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yuqorida taqdim etilgan kuzatuvlar, tajriba mashg‘ulotlari va adabiy-badiiy materiallar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Amaldagi ta‘lim jarayonida bu yo‘nalishdagi ishlar asosan alohida tarbiyaviy tadbirlar shaklida o‘tkazilishi, ularning ta‘lim mazmuni bilan yetarlicha integratsiyalanmaganligi, bu borada yagona uslubiy-texnologik yondashuv yo‘qligi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, o‘tkazilgan bahs-munozaralar va metodik tahlillar shuni tasdiqlaydiki, talabalar orasida vatanparvarlikni anglash darajasi ko‘p hollarda emotsional (g‘urur, muhabbat) yoki deklarativ shaklda bo‘lib, uni faol fuqarolik pozitsiyasiga, mas‘uliyatli ijtimoiy harakatga aylantirish imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti. Bu esa ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy metodik yondashuvlarni - shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan, interfaol va artpedagogika asosidagi vositalarni kiritish zaruratini yuzaga keltiradi.[4,46]

Talabada vatanparvarlik fazilatini shakllantirish bir necha pedagogik shartlarning uyg‘unlashuvi orqali ro‘y beradi. Bular - bilim (kognitiv asos), hissiy-motivatsion muhit (madaniy-estetik ta‘sir), va faoliyat (loyiha, munozara, tadbirlar) integratsiyasidir. Shu asosda, biz ushbu tadqiqotda pedagogik jarayonga mos «Talaba-qizlarda tanqidiy fikrlash va loyixaviy faoliyat asosida ongli vatanparvarlikni rivojlantirish modeli»ni ishlab chiqdik. Model talabaning shaxsiy rivojlanish bosqichlariga, ta‘lim-tarbiya metodlariga va ijtimoiy-axloqiy ta‘sir omillariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Quyida ushbu modelning umumiy tuzilmasi va komponentlararo bog‘liqligi grafik ko‘rinishda taqdim etiladi. (1-rasmga qarang)

TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASH VA LOYIXAVIY FAOLIYAT ASOSIDA ONGLI VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI



«Talaba-qizlarda tanqidiy fikrlash va loyihaviy faoliyat asosida ongli vatanparvarlikni rivojlantirish modeli» - mazmunan pedagogik jarayonning barcha asosiy jihatlarini: tashkiliy muhit, nazariy asoslar, psixologik-pedagogik mexanizmlar, amaliy faoliyat va monitoring bosqichlarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni aks ettiradi.

Modelda asosiy tarkibiy bloklar quyidagilardan iborat:

Tashkiliy-ijtimoiy muhit bloki - oila, oliy ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va axloqiy qadriyatlar tizimidan iborat bo‘lib, talabaning vatanparvarlik fazilatiga tashqi muhit omillari orqali ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida qaraladi. Bu blok pedagogik jarayonni ijtimoiy hayot bilan integratsiyalashni ta’minlaydi.

Ilmiy-metodologik blok - vatanparvarlik tushunchasining huquqiy, tarixiy, ijtimoiy-pedagogik va axloqiy nazariy asoslarini o‘z ichiga oladi. Bu blok modelning nazariy poydevorini tashkil etadi va talaba-qizlarda ongli munosabat shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik-psixologik blok - loyiha ta’lim texnologiyasi, tanqidiy fikrlash, soft skills va axloqiy intellekt kabi zamonaviy ta’lim vositalari orqali talabalarning ichki motivatsiyasiga, fikrlash faoliyatiga va axloqiy tanlovlariga bevosita ta’sir etuvchi blokdir.

Amaliy blok - pedagogik faoliyatda bevosita qo‘llaniladigan darsliklar, o‘quv dasturlar, psixologlar va tyutorlar uchun mo‘ljallangan metodik ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali model real o‘quv-amaliy faoliyatga tatbiq qilinadi.

Monitoring va baholash bloki - model samaradorligini aniqlashga qaratilgan va motivatsion, kognitiv, amaliy hamda qadriyatli mezonlar asosida talaba shaxsining rivojlanish darajasini baholaydi. Bu blok orqali modelning qay darajada natija bergani aniqlanadi.

Model quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

- Faollik va ongli ishtirok;
- Madaniy uyg‘unlik va uzviylik;
- Reflektivlik (o‘z-o‘zini anglashga asoslangan tahlil);
- Hamkorlikka asoslangan, integrativ va qadriyatlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar.

Modelning markazida «tarbiyaviy ijtimoiy muhit» turadi. Bu muhit barcha komponentlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, pedagogik jarayonning tizimli ishlashini ta’minlaydi. Shuningdek, modelning konseptual yakuni sifatida - milliy o‘zligini anglagan, tarixiy-madaniy merosga hurmat bilan qaraydigan, tanqidiy fikrlovchi va ijtimoiy faol talaba-qizlar shakllanishi kutilayotgan asosiy natija sifatida ifodalangan.

Mazkur modelning nazariy-metodologik poydevorini zamonaviy pedagogikaning bir qator muhim yondashuvlari tashkil etadi. Har bir yondashuv modeldagi tegishli tarkibiy bloklar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ tizim sifatida ishlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv modelning pedagogik-psixologik va amaliy bloklarida yaqqol namoyon bo‘lib, har bir talabaga individual yondashuvni, ularning ehtiyojlari, qadriyatlari va shaxsiy rivojlanish sur’atlarini inobatga olishni ta’minlaydi. Bu yondashuv orqali

talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etuvchi, qarorlar qabul qila oluvchi, faollik ko‘rsatishga tayyor shaxs sifatida shakllanadi.

Hamkorlikka asoslangan yondashuv - bu o‘quvchilar yoki talabalar kichik guruhlarda birgalikda ishlash orqali bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan interaktiv ta’lim shaklidir. Ushbu yondashuvda har bir ishtirokchi nafaqat o‘z bilimini rivojlantiradi, balki boshqalarning muvaffaqiyati uchun ham mas’uliyatni his qiladi. Bu jarayonda tenglik, fikr almashish, savol-javob, qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv - talabaning mustaqil izlanishi, loyiha bajarishi, tanqidiy fikrlash orqali bilimga egalik qilishi tamoyiliga tayanadi. Bu yondashuv amaliy blok va monitoring blokida real faoliyat orqali namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlarga yo‘naltirilgan yondashuv - o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy-madaniy merosga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv nazariy blokda aks etgan vatanparvarlik tushunchasining mazmuni bilan uyg‘unlashadi.

Integrativ yondashuv - barcha blok va yondashuvlarni uzviylikda uyg‘unlashtirish orqali ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlaydi. Modelda bu tamoyil umumiy tizim sifatida, tarbiyaviy-ijtimoiy muhitni barcha komponentlar bilan bog‘lab turuvchi asosiy mexanizm sifatida ishlaydi.

Modelni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi bu yondashuvlar o‘zaro uzviylikda ishlab, tarbiyaviy muhitni yanada samarali tashkil etish, talabalarni ongli, tanqidiy fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Ushbu model loyihaviy, integratsiyalashgan va qadriyatga asoslangan yondashuvlarni birlashtirgan holda vatanparvarlik tarbiyasiga ko‘p komponentli tizimli yondashuvni taklif etadi. U ta’lim va tarbiyaning ajralmasligi, talabaning shaxsiyati va faoliyatini uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni shakllantirish bugungi zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuv, raqamli muhitning kengayishi, axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarga sadoqat, tarixiy xotiraga hurmat va Vatanga bo‘lgan fidoyilikni shakllantirish nafaqat tarbiyaviy ehtiyoj, balki ijtimoiy zaruratga aylangan.

Ushbu modelda o‘quv-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlari - tashkiliy-ijtimoiy muhit, nazariy-metodologik asoslar, psixologik-pedagogik mexanizmlar, amaliy vositalar va monitoring-baholash tizimi yagona konsepsiya asosida uyg‘unlashgan. Ayniqsa, talabalarning mustaqil izlanishi, ijtimoiy faol ishtiroki, badiiy-estetik tafakkuri va kasbiy motivatsiyasi orqali ongli vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda taklif etilgan konseptual model - filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali, metodik jihatdan asoslangan va amaliyotga yo‘naltirilgan yo‘nalishini belgilaydi. Bu model nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki uni real ta’limiy jarayonga tatbiq etish orqali yosh avlodni

fidoyi, tanqidiy fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi bilan dolzarb va innovatsion ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Tursunova D. T. Talaba xotin-qizlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2023. – Vol. 3, № 4(2). – B. 33–38. – (E)ISSN: 2181-1784. (Modern approaches to developing social activity among female students)

2. Madaliev R. I. Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*. – 2024. – Vol. 7, № 09. – B. 35–39. (Development of patriotism in students as an urgent pedagogical problem)

3. Xaydarova R. A. Filologiya yo‘nalishi talaba-qizlari vatanparvarligini rivojlantirishda loyiha ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish // *O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari jurnali*. – 2025. – № 1. – B. 188–193. – ISSN 2181-3418. (Effective use of project-based learning technology in developing patriotism among female philology students)

4. Xaydarova R. A. Project-Based Educational Technology as a Method for Developing Social Activity of Students // *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies*. – 2025. – Vol. 3, Issue 3. – P. 44–47. – ISSN (E): 2993-2599. (Проектная образовательная технология как метод развития социальной активности студентов)

5. Egamberdiyeva N. M., Xaydarova R. A. Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkning tanqidiy fikrlashni baholaydigan modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi // *Maktabgacha va maktab ta’limi*. – 2025. – June, No. 7. – P. 479–484. – ISSN 3060-4613. (Methodology for Using the Modified Critical Thinking Test by L. Stark to Assess Conscious Patriotism in Female Students)



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ZARURIYATI

Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborotga boy dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish zarurati ko'rib chiqiladi. Maqolada doimiy o'zgaruvchan muhitga muvaffaqiyatli moslashish uchun kognitiv kompetentsiyaning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan, muammolarni hal qilishda ma'lumotni mustaqil izlash, tahlil qilish va qo'llashning rolini ta'kidlab o'tilgan. Kognitiv kompetentsiyaning mohiyati va uning boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy rivojlanishiga ta'siri hamda mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, refleksiyalash va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini shakllantirish kabi rivojlantirishning pedagogik jihatlari keltirilgan. Shuningdek, motivatsiya, intellektual qobiliyat, muloqot qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlar kabi kompetentsiyaning turli jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetentsiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari, shaxsiy rivojlanish, ta'lim strategiyasi, motivatsiya, intellektual qobiliyatlar, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy raqobatbardoshlik, muloqot qobiliyati, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini hurmat qilish, refleksiya, jamoa ko'nikmalarini rivojlantirish, muvaffaqiyatli o'quv faoliyati.

НЕОБХОДИМОСТЬ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость развития когнитивной компетентности у учеников начальных классов в современном информационно мире. В статье делается акцент на важности когнитивной компетентности для успешной адаптации к постоянно меняющейся среде, подчеркивается роль самостоятельного поиска, анализа и применения информации в решении проблем. Представлены сущность познавательной компетенции и ее влияние на личностное развитие учеников начальных классов, а также педагогические аспекты её развития, такие как формирование самостоятельного мышления, уверенности в себе, способности к рефлексии и самоконтролю. Также обсуждаются различные аспекты компетенции, такие как мотивация, интеллектуальные способности, коммуникативные навыки и личные качества.

Ключевые слова: когнитивная компетентность, ученики начальной школы, личностное развитие, образовательная стратегия, мотивация, интеллектуальные способности, самосознание, социальная конкурентоспособность, коммуникативные навыки, самоконтроль, самооценка, рефлексия, развитие командных навыков, успешная учебная деятельность.

THE NEED FOR A METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE COGNITIVE COMPETENCE OF PRIMARY STUDENTS

Annotation. This article examines the need to develop cognitive competence in primary school students in the modern information world. The article focuses on the importance of cognitive competence for successful adaptation to an ever-changing environment, emphasizes the role of independent search, analysis and application of information in solving problems. The essence of cognitive competence and its impact on the personal development of primary school students, as well as pedagogical aspects of its development, such as the formation of independent thinking, self-confidence, the ability to reflect and self-control, are presented. Various aspects of competence such as motivation, intellectual abilities, communication skills and personal qualities are also discussed.

Keywords: cognitive competence, elementary school students, personal development, educational strategy, motivation, intellectual abilities, self-awareness, social competitiveness, communication skills, self-control, self-esteem, reflection, team skills development, successful educational activity.

Kirish. Kognitiv kompetentsiya yoki ma'lumotni samarali o'rganish va ishlash qobiliyati zamonaviy dunyoda muhim rol o'ynaydi, bu erda ma'lumotlarning ko'pligi va doimiy o'zgarishlar bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi.

Kognitiv kompetentsiya kognitiv faoliyat uchun zarur bo'lgan maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiylash va o'zini o'zi baholash kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u nostandart vaziyatlarda ishlash usullarini, muammolarni hal qilishning evristik usullaridan foydalanishni, shuningdek ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini va turli xil ta'lim olish usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi [3].

S.E. Shishov va I.G. Agapov kompetentsiyani shaxsning ta'lim olish natijasida ortirilgan bilim va tajribaga asoslangan faoliyatga umumiy qobiliyati va tayyorligi sifatida aniqlanadi. Ushbu qobiliyat o'quv va kognitiv jarayonda mustaqil qatnashish va mehnat faoliyatiga muvaffaqiyatli amalga ishirishga qaratilgan [1]. Shu bilan birga, B.I. Hasan kompetentlik va kompetentsiyani farqlab, bu kompetentlik shaxsga qo'yilgan maqsadlar ekanligini, kompetentsiyalar esa ushbu maqsadlarga erishish natijalari ekanligini aniqlandi [2].

Kognitiv kompetentsiya-bu fan asoslarini muvaffaqiyatli egallashni va umumiy ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi sanaladi [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetentsiyasi-bu ta'limning birinchi bosqichida shakllanadigan o'quv faoliyati sub'ektining yangi sifati. Ushbu kompetentsiya-boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarning tizimli to'plami [7].

Adabiyotlar tahlili: G.I.Tsukermanning fikricha, kompetentsiya noaniq vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Bu o'quvchining bilim va ko'nikmalarining moslashuvchanligi va ularni turli vaziyatlarda qo'llash qobiliyati bilan bog'liq sifati. Kompetentsiya yangi muammolarni hal qilishda namoyon bo'ladi. Kompetentsiya testlari nafaqat bilim va ko'nikmalar hajmini, balki ularni Real vaziyatlarda qo'llashni ham baholaydi [9].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kognitiv kompetentsiyani rivojlantirish bir qator muhim ahamiyatlarga ega:

Shaxsni shakllantirishga ko'maklashadi. Kognitiv faoliyat bolalarni o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi, ularni mustaqil fikrlashga, maqsadlar qo'yishga va ularga erishishga o'rgatadi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatadi: yangi ma'lumotlarni o'rganayotganda, bolalar uni tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga va qaror qabul qilishga undaydi. Bu ularning tanqidiy fikrlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maqsadlarni belgilash va ularga erishishga yordam beradi: kognitiv faoliyat maqsadlarni belgilashni va ularga erishish yo'lini rejalashtirishni talab qiladi. Bolalar o'zlar uchun real maqsadlar qo'yishni, strategiyalarni ishlab chiqishni va ular asosida harakat qilishni o'rganadilar.

O'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi: bolalar akademik muvaffaqiyatga erishib, yangi bilimlarga ega bo'lganda, bu ularning qobiliyatlari va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Ular o'zlarini kompetentsiyalarini va o'zini o'zi anglashga qodir shaxslar sifatida ko'rishni boshlaydilar.

O'z-o'zini anglashga yordam beradi: atrofdagi dunyoni va o'z qobiliyatlari hamda afzalliklarini bilish bolalarga o'zlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, kognitiv faoliyat nafaqat bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularga muvaffaqiyatli ta'lim olishga yordam beradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, o'ziga ishonch, mustaqillik va qat'iyatlikni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqola komparativ adabiy tahlil asosida yozilgan bo'lib, Skott Turovning romanlarida yurist shaxsining badiiy talqini o'ziga xos psixologik-realistik uslubda tahlil etiladi. Asarda huquqiy muhitdagi ichki ziddiyatlar, axloqiy tanlovlar va ijtimoiy adolat kabi mavzular orqali yurist obrazining chuqur psixologik portreti yaratilganiga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanildi: **Komparativ tahlil** – huquqshunos obrazlarining boshqa mualliflar, xususan Jon Grishem asarlari bilan taqqosiy

o‘rganilishi; **Psixologik va sotsiologik yondashuv** – obrazlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit ta’siri ostida shakllanishi tahlil qilindi; **Matnshunoslik (tekstologik) usul** – roman matnida personajlar nutqi, fikrlashi va xatti-harakatlari lingvopoetik jihatdan o‘rganildi.

Tahlil va natijalar: Boshlang‘ich sinf bosqichi - bu bolaning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan bilim olsihni o‘rganadigan bosqich hisoblanadi. O‘qishdagi muvaffaqiyatlar, o‘z qobiliyatlarini anglash va turli xil vazifalarni samarali bajarish qobiliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda shaxsiy va maxsus kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu bosqich o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga, nazariy va refleksiv fikrlashni rivojlantirish bilan bir qatorda ularning o‘zini anglash jarayonlarini asosiy davrga aylanadi [9].

Kognitiv kompetentlik ta’limni modernizatsiya qilish strategiyasida ta’kidlangan asosiy ta’lim kompetentsiyalaridan biridir. Bu bolalarga muvaffaqiyatli bilim olish, keyingi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Ushbu kompetentlik bolaning ijtimoiy raqobatbardoshligi uchun asosdir, chunki u sifatli ta’lim va kelajakda kasb tanlash imkoniyatini beradi. Kognitiv kompetentsiya boshqa ta’lim kompetentsiyalarini samarali amalga oshirish uchun ham muhimdir, chunki bu ularning asosi bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi.

S.I.Ojegovning lug‘atida “Kompetensiya” quyidagi ma’nolarni anglatadi:

shxsni yaxshi tushinadigan savollar doirasi;

shxsning vakolatlari doirasi, huquqlari.

Kompetentli mutaxassis-ma'lum bir sohada bilimdon, habardor, obro‘li [5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetentsiyasi - bu muhim ijtimoiy va shaxsiy kontekstlarda o‘quv faoliyati tajribasi natijasida shakllanadigan shaxsiy fazilatlar to‘plami sanaladi. Ushbu fazilatlarga semantik yo‘nalishlar, universal ta’lim faoliyati va qobiliyatlari kiradi.

Quyidahi hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchisini kompetentlikga ega deb hisoblanishi mumkin:


boshlang‘ich sinflarning o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan ma'lum hajm va bilim darajasiga ega bo‘lsa;

amaliy xarakterdagi turli vazifalarni sifatli bajarish, belgilangan vazifalarni bajarishga erishish uchun ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarga ega bo‘lsa;

muvaffaqiyatli bilim ilishni biladi, o‘quv faoliyatining faol sub'ekti bo‘lib, refleksiv xatti-harakatlarni amalga ishirishga qodir;

o‘zi o‘zini munosib (adekvat) baholaydi.

Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetentligi tizimli shaxsiy sifat (shaxsning fazilatlar va qobiliyatlari to‘plami) deb hisoblansa, unda quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini tarkibiy qismlari

1. Boshlabg'ich sinf o'quvchisining **motivatsion - ijodiy faoliyati** qiziquvchanlik, qiziqish, ishtiyoq, ijodiy yutuqlar va etakchilikka intilish, yuqori baho olish istagi, burch va mas'uliyat hissi, shuningdek ijodiy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ta'lim istagi orqali namoyon bo'ladi.

Motivatsion - ijodiy faoliyat - bu shaxsning rivojlanishining muhim jihatlari bo'lib, ular insonga hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Qiziquvchanlik insonni yangi bilimlarni o'rganishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydigan muhim omildir. Ishtiyoq hissi va hissiy motivatsiya insonning ijodiy faoliyat bilan katta ishtiyoq va energiya bilan shug'ullanishiga yordam beradi. Ijodiy yutuqlar va etakchilikka intilish insonni o'z sohasida eng yaxshi bo'lishga va yuqori natijalarga erishishga undaydi.

Atrofingilardan yuqori baho olish, o'zi va boshqalar oldida burch va mas'uliyatni his qilish ham ijodiy faoliyat uchun muhim ta'sir kuchi sanaladi. Ijodiy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini anglash va o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ta'lim istagi odamga doimiy ravishda rivojlanib, o'z mahoratini oshirishga imkon beradi. Ushbu motivatorlarning barchasi birgalikda motivatsion-ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi;

2. Boshlabg'ich sinf o'quvchisi **intellektual - mantiqiy qobiliyatini**, shu jumladan tahlil qilish, taqqoslash, hodisalar va jarayonlarni tavsiflash, shuningdek ma'lumotni tushuntirish, isbotlash, asoslash, tizimlashtirish va tasniflash qobiliyatini namoyish etadi;

Intellektual - mantiqiy qobiliyatlar - bu insonning ma'lumotni tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash va tizimlashtirish qobiliyati bo'lib, ushbu qobiliyatlar

insonga yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, turli muammolar va masalalarni hal qilishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Usbu qobiliyat quyidagi funktsiyalarni bajarishni o‘z ichiga oladi:

tahlil qilish qobiliyati: bu murakkab tushunchalarni, muammolarni yoki hodisalarni ularning tuzilishi, munosabatlari va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish uchun kichik tarkibiy qismlarga ajratish qobiliyatidir. Tahlil qilishda o‘rganilayotgan ob'ektga ta'sir qiluvchi asosiy elementlar va omillarni aniqlash qobiliyati muhimdir;

taqqoslash: bu turli xil ob'ektlar, hodisalar yoki g'oyalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni topish qobiliyati hisoblanadi. Taqqoslash ularning har birining xususiyatlarini tushunish va baholashga, ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini aniqlashga, shuningdek umumiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam beradi;

asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish: bu o‘rganilayotgan fan yoki muammo doirasida eng muhim va ahamiyatli jihatlarni yoki ma'lumotlarni aniqlash qobiliyatidir. Bu asosiy fikrlarga e'tibor qaratish va keraksiz tafsilotlar yoki chalg'itishdan qochish imkonini beradi.

hodisa va jarayonlarni tasvirlash: bu hodisalar, jarayonlar yoki ob'ektlar haqidagi ma'lumotlarni boshqa odamlar ularning mohiyati va xususiyatlarini tushunadigan tarzda ifodalash qobiliyatidir. Bunga tasvirlash uchun batafsil tavsiflar, aniq atamalar va misollardan foydalanish kiradi;

tushuntirish, isbotlash, asoslash qobiliyati: bu shaxsning fikrlari, mulohazalari yoki bayonotlarini boshqalarga mantiqiy, izchil va ishonarli tarzda etkazish qobiliyati bo‘lib, tushuntirish fikrning ravshanligini va dalillarni aniq taqdim etishni talab qiladi hamda berilgan ma'lumotlarni qo‘llab-quvvatlovchi faktlar, ma'lumotlar yoki mantiqiy xulosalarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi;

tizimlashtirish va tasniflash: bu ma'lumotlar yoki tushunchalarni tizimli tartib yoki tuzilishga ajratish qobiliyati. Tizimlashtirish elementlarni mantiqiy ketma - ketlikda tartibga solishni o‘z ichiga oladi va tasniflash ob'ektlar yoki hodisalarni umumiy xususiyatlariga qarab guruhlar yoki toifalarga ajratishni o‘z ichiga oladi;

Intellektual - mantiqiy qobiliyatlar dunyoni tushunishda, muammolarni hal qilishda va asosli qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarga qiyin vaziyatlarni tahlil qilishda, axborot oqimini boshqarishda va tanqidiy, mantiqiy fikrlash apparatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

3. Boshlabg'ich sinf o‘quvchisi g'oyalarni yaratish, xayolot, assotsiativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, bilim va ko‘nikmalarni ko‘chirish va baholash qobiliyati kabi **intellektual-evristik va intuitiv qobiliyatlarni** namoyon etadi.

Intellektual-evristik qobiliyatlarga yangi g'oyalar, fantaziya, assotsiativ fikrlash, tanqidiy fikrlash va bilim, ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarga qo‘llay olish qobiliyati kiradi.

G'oyalarni yaratish (generatsiyalash)- bu muammolarga yangi tushunchalar, echimlar yoki yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. G'oyalarni yaratish ko‘pincha ijodiy fikrlashni,

noanaviy fikrlash va yangi nuqtai nazardan ko‘rish qobiliyatini talab qiladi. Yangi g'oyalarga erishish uchun naqsh va oldindan o‘ylangan tushunchalardan xalos bo‘lish qobiliyati muhimdir.

Fantaziya- bu tasavvur qilish va aqliy tasvirlar yoki stsenariylarni yaratish qobiliyatidir. Fantaziya chegaralarni kengaytirishga va voqealar yoki vaziyatlarning rivojlanishining turli xil variantlarini o‘rganishga imkon beradi.

Assotsiativlik- bu turli xil g'oyalar, tushunchalar yoki ob'ektlarning o‘xshashligi yoki kontekstiga qarab aloqalarni o‘rnatish qobiliyati. Assotsiativ fikrlash kutilmagan o‘xshashliklarni izlashga yordam beradi, bu esa yangi tushunchalarni yaralishiga olib kelishi mumkin.

Bilim va ko‘nikmalardan foydalanish: bu bir vaziyatda olingan bilim, ko‘nikma yoki tajribani boshqa vaziyatlarda muammolarni hal qilishda qo‘llash qobiliyatidir. Bilimlarni uzatish yangi muammolar yoki vaziyatlarni hal qilish uchun ilgari o‘rganilgan ma'lumotlardan foydalanishga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlash- bu ma'lumot, tajriba va shaxsiy qadriyatlarni tahlil qilish asosida hukm va fikrlarni shakllantirish qobiliyatidir. Baholash hukmlari muayyan harakatlar yoki qarorlarning ahamiyati, samaradorligi yoki axloqiyligini baholashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Intellektual-evristik va intuitiv qobiliyatlar ijodiy fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarga innovatsion yondashuvlarni izlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular odamlarga dunyo qarashini kengaytirishga, voqea va hodisalarga turli tomonlardan qarashga va nostandart echimlarni topishga imkon beradi.

4. Boshlabg‘ich sinf o‘quvchisi maqsadlarni belgilash, maqsadga muvofiqlik o‘q harakatlarini rejalashtirish, o‘zini o‘zi tashkil etish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi baholash qobiliyati, refleksiyalash va tuzatish qobiliyati va tirishqoqlik kabi **ta’lim jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini** namoyish etadi.

Ta’lim faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati-bu o‘quvchiga o‘quv jarayonida o‘z vaqtini, vazifalarini va harakatlarini samarali boshqarishda yordam beradigan ko‘nikmalar guruhidir.

Maqsadni belgilash: bu o‘quv faoliyatida erishmoqchi bo‘lgan aniq va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni aniqlash qobiliyatidir. To‘liq shakllangan maqsadlar aniq vazifalarga va aniq natijalarga erishishga e'tibor berishga yordam beradi;

Maqsadga intiluvchanlik: bu mavjud bo‘lgan qiyinchiliklar yoki to‘siqlarga qaramay, o‘z maqsadlariga erishish uchun maqsadli bo‘lish qobiliyatidir. Fidoyilik sizga qiyin yoki qiyin paytlarda ham o‘quv faoliyatida qat’iyatli bo‘lishga imkon beradi;

Rejalashtiraolish qobiliyati: bu o‘quv maqsadlariga erishish uchun tizimli va tuzilgan harakatlar rejalarini ishlab chiqish qobiliyati. Rejalashtirish maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan aniq qadamlarni aniqlashni va ushbu bosqichlarni bajarish uchun resurslarni (vaqt, kuch va h.k.) taqsimlashni o‘z ichiga oladi;

O‘z-o‘zini tashkil etish: bu ta’lim maqsadlariga erishish uchun vaqt, resurslar va energiyani samarali taqsimlash qobiliyati. O‘z-o‘zini tashkil etish ustuvor vazifalarini belgilash va

taqsimlash, o‘quvchilar diqqatini chalg‘itadigan ob‘ekt yoki jarayonlardan qochish va o‘quv muhitini tashkil qilishni o‘z ichiga oladi;

O‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash: bu ta‘lim faoliyatidagi yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini baholash va agar kerak bo‘lsa harakat strategiyalarini korrektsiyalash choralarini ko‘rish qobiliyati hisoblanadi. Talabalarni o‘z - o‘zini nazorat qilish va natijalarni kuzatib borish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, o‘z-o‘zini baholash esa ishlash va yutuqlarni yaxshilash uchun kuchli va zaif tomonlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi;

Tirishqoqlik: bu ta‘lim maqsadlariga erishishda doimiy kuch va qat‘iyatlilikni namyoyish qilish qobiliyatidir. Tirishqoqlik muntazam ravishda topshiriqlarni bajarish, doimiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishni o‘z ichiga oladi.

Ta‘lim faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati muvaffaqiyatli o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalarga ta‘lim jarayonlarini samarali boshqarish, o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish va yuqori natijalarga erishishda yordam beradi.

5. Boshlabg‘ich sinf o‘quvchining **muloqot qobiliyati** boshqalarning ijobiy tajribasidan foydalanish, hamkorlik qilish va o‘z nuqtai nazarini etarli darajada himoya qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Muloqot qobiliyatlari inson shaxsining ajralmas qismi bo‘lib, uning hayoti va kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ular insonga boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish va maqsadlariga erishish imkonini beruvchi ko‘nikma va malakalarni to‘plami sanaladi. Quyidagilar kommunikativ qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi:

Boshqalarning ijobiy tajribalarini to‘plash qobiliyati: bu atrofdagilarni xatolaridan saboq olish va ularning yutuqlaridan o‘z hayotini yaxshilash uchun foydalanish imkonini beruvchi muhim mahoratdir. To‘g‘ri xulosalar chiqarish va olingan ma‘lumotlardan amalda foydalanish uchun boshqa odamlarning tajribalarini tinglash va tahlil qilish juda muhimdir;

Hamkorlik o‘rnata olish qobiliyati: aloqa qobiliyatining ushbu komponenti jamoada ishlash, boshqa odamlarning fikrlarini hisobga olish va umumiy maqsadlarga erishish uchun murosaga kelish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Hamkorlik qilish qobiliyati hamkasblar, sheriklar va mijozlar bilan umumiy til topishga yordam beradi, bu esa vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va kareramizni rivojlantirishga yordam beradi;

O‘z nuqtai nazarimizni himoya qilish qobiliyati: o‘z fikrini bildirish va o‘z pozitsiyasini haqida bahslashish qobiliyati, boshqa jamiyat azolarini eshitish va hurmat qilishda yordam beradigan muhim mahoratdir. Nafaqat o‘z nuqtai nazaringizni himoya qila olish, balki boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilish ham muhim. Bu murosali echimlarni topishga va nizolardan qochishga imkon beradi.

6. Muvaffaqiyatli ta‘lim faoliyatiga hissa qo‘shadigan **shaxsiy xususiyatlar** faoliyatning eng tipik sur‘ati va ish faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Muvaffaqiyatli ta‘lim faoliyati shaxsning ko‘plab individual xususiyatlariga, shu jumladan faoliyatning an‘anaviy shakli va samaradorligiga bog‘liq.[6].

Xulosa. Shunday qilib, boshlang'ich sinfni tugatgandan so'ng, boshlang'ich sinf o'quvchisi nazariy bilimlar to'plamini va ularni turli muammolar va masalalarni hal qilishda qo'llash qobiliyatini o'zlashtirib, o'quv faoliyatida kompetentsiyaga erishgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish jarayoni murakkab va ziddiyatli bo'lishi mumkin, chunki har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish darajasi va o'qish uchun motivatsiyasi mavjud. Biroq, ta'lim faoliyatida va keyingi hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun bolalar mustaqil ravishda izlanish, ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi bir qator kompetentliklarni o'zlashtirishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агапов И. Г. Компетентный подход в образовании: проблемы теории и практики. – М.: Педагогика, 2004. – С. 12.
2. Хасан Б. И. Компетенции и компетентности: проблемы определения и взаимосвязи. – М.: Педагогика, 2002. – С. 14.
3. Хуторской А. В. (2003). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования. – М.: Изд-во «Эйдос», 2003. – 176 с.
4. Ниязова Н. Н. (2021). Когнитивная компетенция: понятие, структура, функции. Наука. Мысль: электронный периодический журнал, (3), 1-10.
5. Ожегов С.И. Словарь русского языка. /С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова.- М., 1989. - 650с.
6. Сироткин Л.Ю. Младший школьник, его развитие и воспитание: учебно-методическое пособие /Л.Ю.Сироткин, А.Н.Хузиахметов - Казань, 1999.- 226с.
7. Сластенин В. А., & Исаев, И. Ф. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2009. – 608 с.
8. Цукерман, Г. А., & Венгер, А. Л // Развитие учебной самостоятельности. Москва: ОППЦ “ИНТЕРВАКС” 1992 г.
9. Эриксон Э.Г. Детство и общество. /Э.Г.Эриксон-СПб.: Речь, 2000.- 416с.



INJINIRING SOHASIDA TALABALARGA INDIVIDUAL YONDASHGAN HOLDA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR VA TAVSIYALAR

*Mohichehra Yalg‘osheva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
yalgashevamohichehra@gmail.com*

Annotatsiya Bugungi kun avlodlari butun dunyoni o‘rganish, dunyoqarashini kengaytirish, yangi madaniyatlar, g‘oyalar va qarashlarni boshdan kechirish imkonini beruvchi tasavvur qilib bo‘lmaydigan, keng imkoniyatlar asrida yashamoqda. Bu yo‘lda esa, xorijiy tillar, xususan ingliz tilini bilish dunyo eshiklarini ochadigan oltin kalit ekanligini rad etish qiyin. Injiniring sohasida talabalarning xorijiy til, xususan, ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta‘lim tizimining muhim ijtimoiy-pedagogik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi izlanishlar global tendensiyalar va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlar: til ko‘nikmalari, reading, speaking, listening writing, diagnostik bosqich, dasturiy-ta‘minot bosqichi, ta‘lim-tarbiyaviy bosqich va yakuniy-umumlashtiruvchi bosqich

CHALLENGES AND RECOMMENDATIONS IN TEACHING ENGLISH TO ENGINEERING STUDENTS THROUGH AN INDIVIDUAL APPROACH

Annotation: Today’s generation lives in an era of unimaginable and vast opportunities that allow them to explore the world, broaden their horizons, and experience new cultures, ideas, and perspectives. In this journey, knowledge of foreign languages—particularly English—is undeniably the golden key that opens doors to the world.

The issue of developing foreign language skills, especially English, among engineering students is one of the key socio-pedagogical directions of the modern educational system. Research in this area is closely connected with global trends and technological advancement.

Keywords: language skills, reading, speaking, listening, writing, diagnostic stage, software-provision stage, educational-developmental stage, and final-summarizing stage.

ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ИНЖЕНЕРНОЙ СПЕЦИАЛЬНОСТИ: ТРУДНОСТИ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Аннотация: Современное поколение живёт в эпоху практически безграничных возможностей, которая позволяет изучать мир, расширять кругозор, знакомиться с новыми культурами, идеями и взглядами. На этом пути знание иностранных языков, в частности английского, является «золотым ключом», открывающим двери в мир, и отрицать это трудно.

Развитие навыков иностранного языка, особенно английского, у студентов инженерной сферы — одна из актуальных социально-педагогических задач современной системы образования. Исследования в этой области тесно связаны с глобальными тенденциями и технологическим прогрессом.

Ключевые слова: языковые навыки, чтение, говорение, аудирование, письмо, диагностический этап, этап программно-методического обеспечения, образовательный этап и итогово-обобщающий этап.

KIRISH

Xorijiy ilg‘or tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, til o‘rgatish jarayoni nafaqat tilni o‘rgatishga, balki talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim. Xorijiy ilg‘or tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, til o‘rgatish jarayoni nafaqat tilni o‘rgatishga, balki talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim. So‘nggi yillarda ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida ixtisoslashgan ingliz tili (ESP) kurslari tashkil etilmoqda va bu yo‘nalish chet tili o‘qitishining eng dolzarb tarmoqlaridan biriga aylangan. Shunga qaramay, muhandislar uchun kasbiy faoliyatda muloqot kompetensiyasi hanuzgacha global muammo bo‘lib qolmoqda.

MATERIAL VA USULLAR

Individuallashtirilgan ta‘lim jarayonida quyidagi yondashuvlar tatbiq qilinadi:

1) O‘quvchilar faoliyatini umumiy tarzda tashxislovchi, bashoratlovchi, ta‘limiy, bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, qulaylashtiruvchi;

2) O‘quvchilarni o‘ziga xos tarzda moslashtiruvchi, tuzatuvchi va hk.

O‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid nazariy hamda tarixiy yondashuvlarni o‘rganish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

O‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishni turlicha nuqtayi nazardan yondashgan holda talqin etish lozim: o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish, ta‘lim mazmunini individuallashtirish va tabaqalashtirish.

Individuallashtirilgan o‘quv jarayonini alohida tanlab olingan o‘qituvchilar yordamida tashkil etish ham imkonsizdir. O‘quv jarayonini individuallashtirish uchun maktab ham yangicha ish shakliga o‘tishi lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning tizimli tasniflash bosqichlari

1.	Diagnostic bosqich (2021-2022)	Injiniring sohasida ingliz tilini individual yondashuv asosida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini belgilashni tizimli tasniflash, ma'lumotlar to'plash, suhbatlar o'tkazish, darajalarini aniqlash, umumlashtirish va baholash.
2.	Dasturiy-ta'minot bosqichi. (2022-2023 yy)	Zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda injiniring sohasiga oid terminologiyani xorijiy tilni o'qitish sharoitida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini aniqlashga doir nazariy ma'lumotlar mazmuni aniqlanadi, dasturiy mahsulot tayyorlandi.
3.	Ta'lim-tarbiyaviy bosqich (2022-2023 yy)	Tayyorlangan metodik tavsiya va qo'llanmalar reja, dastur asosida talabalarda tajriba sinovdan o'tkaziladi.
4.	Yakuniy-umumlashtiruvchi bosqich (2023-2024 yy)	Xorijiy tilni o'qitish sharoitida talabalarning lingvistik, leksik, kommunikativ, asosiy xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va mexanizmlari dinamikasini baholash va natijalari umumlashtiriladi. Istiqboldagi tarbiyaviy ishlarning yo'nalishlari aniqlanadi.

Tadqiqot ishimizning samarali organilishi uchun tadqiqot bosqichlari (diagnostik, dasturiy-ta'minot, ta'lim-tarbiyaviy, yakuniy-umumlashtiruvchi), darajalari (past, orta, yuqori) va uning natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning til kompetentligini rivojlanish dinamikasi yuqorilashdi va istiqbolli tarbiyaviy ishlarning yo'nalishlari aniqlandi.

Ingliz tilidagi injiniringga oid terminologiyani o'zbek tili bilan qiyosiy o'rganishni yaxshilash uchun bir qancha innovatsion texnologiyalar va veb-saytlardan foydalanish mumkin. Quyidagi ushbu innovatsion texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish, balki talabalarda keng ko'lamli til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular nutq, tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi, til tajribasi va madaniy tushunishni boyitadi. Talabalarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko'plab onlayn texnologiyalar, saytlar va platformalar mavjud. Mana ulardan ba'zilari quyidagilardan iborat:

Promova – English for Engineers / English for IT Sayt: https://promova.com	Tavsif: Muhandislar uchun maxsus “Technical English” va “Engineering English” kurslari mavjud bo'lib, lug'atni kengaytirish, matn va og'zaki muloqot bilan ishlash imkonini beradi. Audio-video interaktiv darslar taqdim etiladi.
FutureLearn – English for STEM: Understanding Engineering Vocabulary Sayt: https://www.futurelearn.com/course	Tavsif: Macquarie University bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan kurs. Muhandislik sohasiga tegishli lug'atni o'rganish, akademik ko'nikmalarni rivojlantirish va professional standartlarga muvofiq yozuv va nutq malakasini oshirishga xizmat qiladi.

s/english-for-stem-understanding-engineering-vocabulary	
Marcode – English for Engineers Sayt: https://www.marcode.org	Tavsif: Muhandislarga mo‘ljallangan maxsus kurslar (10 haftalik), individual va guruh mashg‘ulotlar, konversatsion klub: email, texnik insho va taqdimotlarga tayyorlov bor.
British Council – Learn English Sayt: https://learnenglish.britishcouncil.org	Tavsif: Sayohat, xizmat ko‘rsatish, va mehmonxona sohasiga oid darslar va video-dialoglar mavjud. Real hayotga yaqin stsenariylar orqali turizm leksikasini rivojlantiradi.
English4Engineer Sayt: https://www.english4engineer.com	Tavsif: Muhandislikka xos texnik, ishbilarmonlik va kommunikatsiya inglizchasini o‘rgatuvchi bepul resurslar va onlayn darslar. Texnik lug‘at, memo, email yozishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu onlayn veb-saytlar ingliz tilidagi injiniringga oid terminologiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini samarali oshirishi bilan birga o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan solishtirishni osonlashtiradi va shu orqali ikki tilda o‘rganish va malaka oshirishga yordam beradi, natijada talabalarga xorijiy tilini bilish va tilni mustaqil foydalana olish darajasini oshirishga ko‘maklashadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, individual yondashuv faqatgina ta’lim jarayonini moslashtirish emas, balki talabani motivatsiya qilish, unga o‘z bilimini boshqarish va baholash imkonini berish orqali metakognitiv ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Biroq, bu yondashuvni joriy qilishda muayyan muammolar mavjud bo‘lishi mumkin: o‘qituvchidan ko‘proq tayyorgarlik talab qilinadi, shuningdek, o‘quv guruhlarining soni va texnik imkoniyatlar bu yondashuvni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shunga qaramay, zamonaviy texnologiyalar bu to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Learning Management System (LMS) tizimlari yordamida talabalarining individual faoliyatini monitoring qilish mumkin. Demak, muhandislik yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tili o‘qitishda individual yondashuv — bu zamon talabalariga mos, yuqori samaradorlikka ega metod hisoblanadi. U nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki talabalarni o‘z sohasi bo‘yicha global axborot muhitiga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni joiz topdikki, global sanoat va texnologik taraqqiyot sharoitida injiniring sohasidagi mutaxassislarining ingliz tilini bilishi nafaqat kasbiy muvaffaqiyat, balki ijtimoiy integratsiya va xalqaro hamkorlik uchun ham muhim omildir. Xorijiy tajriba (AQSh, Germaniya, Yaponiya) ingliz tili muhandislik ta’limining ajralmas qismiga aylanganini ko‘rsatadi. Bu tajribalarda CLIL (Content and Language Integrated Learning), EMI (English Medium Instruction) kabi metodlar keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алявдина Н.Г., Маргарян Т.Д. Инновационные методики в преподавании английского языка для специальных целей в техническом вузе: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://hmbul.ru/articles/93/93.pdf>;

2. Алтанцэцэг Д. О КУРСАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В МОНГОЛЬСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИИ //Формирование компетенций в условиях современных потребностей рынка труда. – 2020. – С. 255-264;

3. Гурбанова Г. А., Гельдыева Б. Д. Esp как специализированный подход к преподаванию английского языка для инженеров //eurasiascience. – 2020. – с.

4. Abedeen, F. (2015). Exploration of ESP teacher knowledge and practices at tertiary and applied colleges in Kuwait (Doctoral dissertation, University of Leicester);

5. Atef Al-Tamimi, & Munir Shuib. (2009). Motivation and attitudes towards learning English: A study of petroleum engineering undergraduates at Hadhramout University of Sciences and Technology. GEMA Online Journal of Language Studies, 9(2), 25-59;

6. Barabash, O.Y. (2011). Modern approaches to teaching English to the students in technical majors. The sixth international theoretical and practical conference. Modern trends and innovations in teaching foreign languages. February 25-26, 2011. Kyiv Polytechnic Institute;

7. Barak, M. (2013). The use of cognitive knowledge and problem-solving taxonomies in teaching engineering and technology. Journal of Technology Education, 24(4), 22-39;

8. Mansoor Ahmed Channa, Songsri Soranastaporn, Karan Supamas Engchuan, & Yuwadee Tirataradol (2013). A study of needs, problems, and wants of using English of engineering students at Quaid-e-Awam University of Engineering, Science and Technology, Pakistan. Journal of Education and Practice, 4(3), 18-26.

9. Marshall, C., & Rossman, G. B. (1989). Designing qualitative research. Newbury Park, CA: SAGE Publications; Riemer, M. J. (2002). English and communication skills for the global engineer. Global Journal of Engineering Education, 6(1), 91-100; Rus D. Creative methodologies in teaching English for engineering students //Procedia Manufacturing. – 2020. – Т. 46. – С. 337-343; RadhikaVandPhil, M. (2017). new trends in learning the engineering course. Journalofindustrialpollutioncontrol, 1667-1669.



O‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

*Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, uning psixologik va pedagogik omillari tahlil qilinadi. Kreativ fikrlashning mazmuni, tuzilmasi va rivojlanish bosqichlari izohlanib, ta’lim jarayonida uni shakllantirishda qo‘llaniladigan samarali metodik yondashuvlar asoslab beriladi. Xususan, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, TRIZ texnologiyasi va ko‘p variantli topshiriqlarning ijodiy tafakkurga ta’siri yoritiladi. Maqolada kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat ixtirochilik faoliyatining negizi, balki zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, ijodiy salohiyat, metodik asos, muammoli ta’lim, loyiha texnologiyasi, TRIZ, tafakkur bosqichlari, o‘quvchilarda innovatsion yondashuv.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретические основы развития креативного мышления у учащихся, а также психологические и педагогические факторы, влияющие на этот процесс. Раскрываются содержание и структура креативного мышления, этапы его формирования, а также обосновываются методические подходы, способствующие его развитию в учебном процессе. Особое внимание уделяется проблемному обучению, проектным технологиям, методу ТРИЗ и заданиям с несколькими вариантами решений как средствам стимулирования творческого мышления. Креативное мышление рассматривается как неотъемлемый элемент инновационного образования и основа изобретательской деятельности.

Ключевые слова: креативное мышление, творческий потенциал, методическая основа, проблемное обучение, проектная технология, ТРИЗ, этапы мышления, инновационный подход.

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations for developing students' creative thinking, along with the psychological and pedagogical factors that influence

this process. The content, structure, and developmental stages of creative thinking are described in detail, and effective methodological approaches for fostering it in educational settings are justified. Special attention is given to problem-based learning, project-based instruction, the TRIZ methodology, and multi-option tasks as tools for enhancing creative thought. Creative thinking is presented not only as a core component of inventive activity, but also as a key priority in modern education.

Keywords: creative thinking, creative potential, methodological foundation, problem-based learning, project method, TRIZ, stages of thinking, innovative approach.

Kirish. Bugungi kunda TRIZ pedagogik texnologiyasidan foydalanish Texnologiya fanida ixtirochilik masalalarni yechishda juda samarali mexanizm sifatida ko‘rilmoqda. TRIZ – ya’ni ijodiy muammolar yechimi nazariyasi bo‘yicha darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarga maxsus algoritmlar va usullarni o‘rgatadi, masalalarni hal etishda standart yechimlardan chiqib, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish tamoyillaridan foydalanishni ko‘rsatadi. TRIZ texnologiyasini qo‘llash metodikasi, avvalo, o‘quvchilarda ijodiy muammolarni yechish algoritmik ko‘nikmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi: bunda kichik guruhlarda aqliy hujum, 99 ta g‘oyalar usuli, Arximed kontradiksiyasi kabi TRIZ usullari amalda bajariladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, TRIZ – bu kognitiv va ijodiy tafakkur jarayonini boshqaradigan, xatolardan himoya qilgan holda noodatiy yechimlarga yo‘naltiruvchi samarali metodik tizimdir. Uni darslarda qo‘llash o‘quvchilarning ixtirochilik qobiliyatlarini tizimli rivojlantirish mexanizmini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. *“Ta’lim jarayonini kreativ tarzda tashkil etish – bu darsning barcha bosqichlarida ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashni anglatadi”*, deb yozadi dars jarayonini kreativ tarzda tashkil etish bo‘yicha ekspert I.Borovkova [1, 10]. Metodik adabiyotlarda ta’lim jarayonini kreativ tashkil etishdagi asosiy tavsiya – bu darsni o‘quvchi shaxsini namoyon qilishga imkon beradigan maydonga aylantirish tarzida ifodalanadi [4, 75]. O‘qituvchi nazoratchi yoki axborot manbai roldan ko‘ra, koordinator va fasilitator rolini o‘zida namoyon etishi lozim. Shundagina o‘quvchi o‘zini erkin his qilib, ijodiy izlanish va ixtirochilikka ishtiyoq bilan kirishadi.

Darslarda kreativ vaziyatlar yaratish – bu o‘quvchilarning nostandart fikrlashiga turtki beradigan sharoit yoki topshiriqlarni sun‘iy ravishda shakllantirishdir. Muammoli topshiriqlar ana shunday kreativ vaziyat yaratishning asosiy qurolidir. Ularni tuzishda o‘qituvchi real hayotiy masalalar yoki qiziqarli fantastik ssenariylardan foydalanishi mumkin. Masalan, “Texnologiya” darsida o‘qituvchi o‘quvchilarda ijodiy tafakkur uyg‘otish maqsadida “Resurslar cheklangan sharoitda foydali gadjet ixtiro qiling” yoki “Kelajak uyini energiya tejankor qurilmalar bilan jihozlash bo‘yicha loyiha tuzing” kabi topshiriqlar berishi mumkin. Muammoli topshiriqlar berish metodikasi ham bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: muammoni tushuntirish, qoida va talablarni aniqlash, individual, juft yoki kichik guruhlarda ishlash uchun vaqt belgilash, yechimlarni taqdim etish va natijani muhokama qilish. Muhimi,

bunday topshiriqlarni yechishda bitta “to‘g‘ri” javob bo‘lmasligi, turli yechimlar bo‘lishi mumkinligini oldindan aytib o‘tish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Kreativ vaziyatlarni nafaqat topshiriq bilan, balki darsning muhitini o‘zgartirish orqali ham yaratish mumkin. Masalan, darsni nostandart joyda (laboratoriya, ochiq havo, muzey, planetariy kabi sayyor tarzda) o‘tkazish, noan’anaviy jihozlar (LEGO konstruktorlar, 3D ko‘zoynaklari, headset kabilar)dan foydalanish ham o‘quvchilarda kreativlikni oshiradi. Qolaversa, dars davomida hazil-mutoyiba, fantaziya elementlarini kiritish (masalan, muammoni ertak qahramoni nomidan qo‘yish) ham ijodiy vaziyat hosil qiladi.

Muammoli topshiriqlarni ishlab chiqishda o‘qituvchi o‘z fanining mazmunidan kelib chiqqan holda qiyinchilik darajasini belgilashi kerak. Juda sodda masala ijodkorlikni talab qilmaydi, haddan ziyod murakkab vazifa esa o‘quvchini chalg‘itib qo‘yishi mumkin. Shuning bois muammoli topshiriqlar “yaqin rivojlanish zonasi”ga mos bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilarning hozirgi bilim va ko‘nikmalaridan biroz yuqoriroq darajada bo‘lishi lozim. Ijodiy vaziyatlar yaratishda yana bir usul – paradoksal savollar berishdir.

platformasiz, talabalarning ilmiy va loyiha faoliyatini doimiy qo‘llab-quvvatlashsiz samarali raqamlashtirib bo‘lmaydi.

Bunday tajriba O‘zbekistonda ham xalqaro standartlar, milliy ta’lim ustuvorliklarini hisobga olgan holda mahalliyashtirilgan dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda muvaffaqiyatli moslashtirilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy tabiiy fanlarning ajralmas qismiga aylanib, uning sifati, qulayligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim muhitini tizimli ravishda o'zgartirish, o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini oshirish va pedagogik jihatdan asoslangan raqamli kontentni yaratish zarur.

3 jadval

Tabiiy fanlarning raqamli ta'limida nazariyalarni qo'llash misollari

Nazariya / Yondashuv	Raqamli timsol	Tabiiy fanlarda qo'llanilishi
Konstruktivizm	Interaktiv simulyatsiyalar (PhET, ChemCollective)	Molekulyar jarayonlarni o'rganish, onlayn tajribalar
TPACK	Moslashuvchan kontentga ega platformalar (Khan Academy, OpenEdx)	Biologiya va fizika fanlarini individuallashtirish bilan o'qitish
IQOC va e-learning	LMS platformalari (Moodle, Google Classroom)	Mustaqillikni shakllantirish, topshiriqlar bilan ishlash
Faoliyatga asoslangan yondashuv	Raqamli laboratoriyalar va ilmiy loyihalar	Tadqiqot, raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish
O'rganish kashfiyoti	Virtual tadqiqot, gamifikatsiya	Virtual tajribalar, ilmiy o'yinlar o'tkazish

Raqamli texnologiyalar nafaqat yordamchi vosita, balki tabiiy fanlarni o‘qitish tizimining asosiy bo‘g‘iniga aylanib bormoqda. Ularning samaradorligi yetakchi pedagogik tushunchalar bilan nazariy asoslanadi va muvaffaqiyatli qo‘llash ta’lim jarayoniga tizimli joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim muhitiga yo‘naltirishni talab qiladi.

Zamonaviy ta'lim islohotlari o'rganish paradigmasini o'zgartirishga qaratilgan: an'anaviy tarjimadan (bilimni o'qituvchidan talabaga o'tkazish) konstruktiv va faoliyatga asoslangan modelga, bunda talaba faol bilim sub'ektiga aylanadi.

Tabiatshunoslik ta'limi kontekstida faktlarni reproduktiv yodlashdan voz kechish, tadqiqot, modellashtirish, ilmiy fikrlashga e'tibor berish, ilmiy tadqiqot muhiti sifatida raqamli muhitdan foydalanishlarni anglatadi.

Raqamli transformatsiya ta'lim makonining ontologiyasini o'zgartiradi - chiziqli va yopiqdan tarmoqqa, gipermatnli va ochiq-interaktivga, bu ayniqsa modellashtirish va empirik tekshirishni talab qiladigan tabiiy fanlar uchun muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi talabning kognitiv arxitektura-sini tushunishni talab qiladi. Bu masalani, R.E.Mayer Multimedia Learning deb nomlangan, o'zining ilmiy asarida, asosiy g'oya sifatida vizual va og'zaki kanallar sinxron ishlaganda ma'lumotni yaxshiroq assimilyatsiya qilish sodir bo'lishini va kimyo, fizika, biologiya fanlarini o'qitishda raqamli simulyatsiyalar, videoma'ruzalar, animatsiyalarning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Raqamli kontentni loyihalashda talabning ishchi xotirasining cheklanishini hisobga olish kerak. Raqamli ta'lim resurslari (RTR) pedagogik jihatdan diqqatni ortiqcha yuklamaslik, modallik, segmentatsiya va yo'naltirilgan e'tibor tamoyillaridan foydalanishni tekshirishi kerak.

Raqamli vositalardan foydalanish (masalan, maslahatlar bilan interfaol vazifalar, moslashuvchan o'rganish uchun AI platformalari) talabani potentsialdan haqiqiy bilim darajasigacha kuzatib boradigan proksimal rivojlanish zonasini samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Zamonaviy nazariyotchilar (A.A.Andreev, I.V.Rober, E.S.Po'lat) raqamli ta'lim muhitini (RTM) texnik vositalar majmuasi sifatida emas, balki quyidagicha izohlaydilar:

“Raqamli resurslar, didaktik vositalar va o'zaro ta'sir shakllarining pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan to'plam yaxlit ta'lim jarayonini ta'minlaydi” (Andreev A.A., 2015).

Bu, raqamli muhit nafaqat tashqi qobiq, balki didaktik tizimning bir qismi ekanligini anglatadi va ma'lumotlarning to'yinganligini ta'minlash, raqamli ilmiy savodxonlikni shakllantirish, meta-mavzu va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishini bajarish kerak.

21-asrda tabiiy fanlarni o'qitish transdisiplinar xarakterga ega bo'lib bormoqda. STEM/STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi raqamli texnologiyalarni nafaqat vosita, balki ilmiy fikrlashning uslubiy asosi sifatida integratsiyalashuvini talab qiladi.

STEM modeli doirasida raqamlashtirish quyidagi:

ilmiy bilim va amaliyot o'rtasida interfeys yaratish (masalan, iqlim o'zgarishini modellashtirish);

ilmiy va muhandislik tafakkurini rivojlantirish;

loyihaga asoslangan va muammoga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini qo'llashlarga imkon beradi.

Talabalarning tabiiy ilmiy dunyoqarashi bugungi kunda axborot jamiyati sharoitida shakllanadi va quyidagi:

axborot gigienasi,

katta hajmdagi ilmiy ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati,

tanqidiy fikrlash,

ilmiy tekshirish qobiliyatlarni talab qiladi.

Xulosa. Ilmiy tekshirish tamoyillariga asoslangan raqamli ta'lim muhitlari (masalan, ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatiga ega platformalar, onlayn eksperimentariylar) dunyoga ilmiy qarashni shakllantirishning asosiy kanallariga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarni tabiiy fanlarni o'qitishga integratsiyalashuvi nafaqat texnik bazani

modernizatsiya qilish, balki konstruktivizmning nazariy asoslari, kognitiv va faoliyatga asoslangan yondashuvlar, STEAM ta’lim tamoyillari va raqamli pedagogikaga asoslangan pedagogik paradigmaning transformatsiyasidir.

Bu kompleks didaktik, falsafiy, kognitiv, uslubiy yondashuvni talab qiladi, bunda texnologiyalar raqamli kelajak sharoitida yashash va ishlashga tayyor talabalarning ilmiy tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish muhitiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – М.: Педагогика, 1994., Брунер Дж. Процесс образования. – М.: Педагогика, 1977.
2. Андреев А.А. Цифровизация образования: вызовы, возможности, стратегии. – М., 2021.
3. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2010). Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning. US Department of Education.
4. Гаврилин В.В. Цифровая педагогика: теория и практика. — СПб., 2020.
5. Mishra, P., Koehler, M.J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for integrating technology in teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
6. Брунер Дж. Процесс образования. — М.: Педагогика, 1977.
7. Wieman, C. E., Adams, W. K., & Perkins, K. K. (2008). PhET: Simulations That Enhance Learning. Science, 322(5902), 682-683.
<https://www.science.org/doi/10.1126/science.1161948>.
8. Cheah, H. M., & Lim, C. P. (2011). Creating 21st century learning environments in Singapore schools. Educational Technology, 51(6), 22–27.
9. Sahlberg, P. (2015). Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland? Teachers College Press.
10. OECD (2016). Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills.
11. Поляков, А. В. (2020). Цифровизация образования в России: проблемы и перспективы. Образование и наука, №1, с. 9-31.
12. Фарходов, Ф.Р. (2023). Интегрatsiya цифровых технологий в систему среднего и высшего образования Узбекистана. Журнал «Инновации в образовании», №3(17), с. 25–31.



BADIIY-ESTETIK QOBILIYAT TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA TALQIN ETILISHI

Kaxarova Gulnora Sa’dullayevna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Orcid ID 0009-0007-3159-8446

Annotatsiya: Ushbu maqolada “badiiy-estetik” qobiliyat tushunchasining pedagogik-psixologik talqinlari tahlil qilinib, xalq og‘zaki ijodining o‘quvchilarda estetik tafakkur va obrazli ifodani shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda folklor janrlarining didaktik va estetik imkoniyatlari chuqur yoritiladi. Turli ilmiy manbalar asosida estetik qobiliyat komponentlari aniqlanadi hamda boshlang‘ich ta’limdagi metodik integratsiya tamoyillari ko‘rsatiladi. Muhokama jarayonida xalq og‘zaki ijodi orqali badiiy did, estetik baholash va obrazli ifoda kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy-estetik qobiliyat, xalq og‘zaki ijodi, estetik idrok, obrazli tafakkur, estetik tarbiya, didaktik vosita, o‘quvchilar estetik kompetensiyasi.

ПОНЯТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ И ЕГО ТРАКТОВКА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация: В статье анализируются психолого-педагогические трактовки понятия “художественно-эстетическая способность”, раскрывается значение устного народного творчества в формировании эстетического мышления и способности к образному выражению у учащихся. В исследовании подробно освещены дидактические и эстетические возможности фольклорных жанров. На основе анализа различных научных источников определены компоненты эстетических способностей и показаны принципы их методической интеграции в начальном образовании. В ходе обсуждения обоснованы механизмы развития художественного вкуса, способности к эстетической оценке и образного мышления средствами устного народного творчества.

Ключевые слова: художественно-эстетическая способность, устное народное творчество, эстетическое восприятие, образное мышление, эстетическое воспитание, дидактическое средство, эстетическая компетенция учащихся.

THE CONCEPT OF ARTISTIC AND AESTHETIC ABILITIES AND ITS INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract : This article analyzes the pedagogical and psychological interpretations of the concept of “artistic-aesthetic” ability and reveals the significance of folk oral creativity in developing students’ aesthetic thinking and figurative expression. The study comprehensively explores the didactic and aesthetic potential of folklore genres. Based on various academic sources, components of aesthetic ability are identified and principles of methodical integration in primary education are discussed. The discussion substantiates mechanisms for fostering artistic taste, aesthetic judgment, and expressive competence through folk oral traditions.

Keywords: artistic-aesthetic ability, folk oral creativity, aesthetic perception, figurative thinking, aesthetic education, didactic tool, students’ aesthetic competence.

KIRISH

Ta’lim jarayonining bugungi bosqichida insonning badiiy-estetik dunyoqarashi, san’atga bo‘lgan munosabati va go‘zallikni idrok qilish salohiyati shaxs kamolotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralayotgani barchaga ayon. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bola shaxsining rivojlanishida estetik ta’sirchanlik, obrazli fikrlash, ijodiy ifoda va go‘zallikni anglash qobiliyatlarining shakllanishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu jarayonning markazida esa “badiiy-estetik qobiliyat” tushunchasi turadi. U bola ongining estetik o‘ssishi, madaniy qadriyatlarni anglash va obrazli tilda ifoda qilish salohiyatining yadro komponentidir. Mazkur tushuncha ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar badiiy-estetik qobiliyatni shaxsning estetik obrazga nisbatan hissiy, baholovchi va ijodiy yondashuvi sifatida belgilashadi. Boshqa tadqiqotchilar bu qobiliyatni pedagogik faoliyat orqali shakllanuvchi kognitiv-emotsional va ifodaviy kompetensiya sifatida talqin etadilar. Bu turli yondashuvlar, o‘z navbatida, “badiiy-estetik qobiliyat” tushunchasining murakkab, ko‘p komponentli va dinamik tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi alohida didaktik va estetik vosita sifatida e’tirof etiladi. Xususan, ertaklar, maqollar, topishmoqlar bolada estetik idrokni faollashtirish, obrazli tafakkur va baholash salohiyatini rivojlantirish, dramatik his-hayajonlarni boshdan kechirish va ijodiy tasavvurni kengaytirish imkonini beradi. Milliy estetik merosga boy bo‘lgan ushbu janrlar bola tafakkurida madaniy xotira, san’atga mehr va estetik didni shakllantiradi. Badiiy-estetik qobiliyatlar faqat emotsional javob emas, balki estetik baholash, obrazli tahlil, aks ettirish va refleksiv ifoda faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalq og‘zaki ijodi vositalarining estetik-ta’sirchanlik xususiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchisining estetik pozitsiyasini shakllantirishda, matnni estetik idrok etishida hamda badiiy obrazni tushunib, ifodalashida bevosita namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda “badiiy-estetik qobiliyat” tushunchasi ko‘p qirrali yondashuvlarda izohlanadi. Ushbu qobiliyat bola shaxsiyatining estetik rivojlanishini belgilovchi asosiy psixik funksiyalar - idrok, tasavvur, his-tuyg‘u, baholash va ifoda faoliyatining uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilinadi. Estetik tizimi orqali bola nafaqat san’at

asarlarni, balki real hayotdagi voqelikni ham estetik mezonlar asosida anglaydi, unga nisbatan estetik munosabat bildiradi va ijodiy yondashuv asosida baholaydi.

F.B.Sautieva o‘zining fundamental tadqiqotida estetik tarbiyaning tamoyillari, estetik madaniyat komponentlari va xalq og‘zaki ijodi vositalarining integratsiyasini tahlil qilib, “badiiy-estetik qobiliyat”ni shaxsning ongli, baholovchi, hissiy va ijodiy yo‘nalganligi sifatida tavsiflaydi. U bu qobiliyatni tarkibiy jihatdan kognitiv, emotsional-baholovchi va amaliy-ifodaviy komponentlarga ajratadi. Ayniqsa, bolalarda estetik idrokni shakllantirishda ertaklar, maqollar, topishmoqlar va dostonlarning semantik va obrazli strukturasini alohida urg‘u bilan ochib beradi. A.S.Bobunova esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik qadriyatlar va obrazli tafakkurni shakllantirishda “O‘qish savodxonligi” fani doirasida xalq ijodidan foydalangan holda estetik dunyoqarashni barpo etishning asosiy bosqichlarini ajratib beradi. Uning yondashuvida o‘quvchi obrazlar orqali hayotni aks ettiradi, ularni baholaydi va ifoda qiladi. M.A.Tsenyova maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik qobiliyatni shakllantirishni uch bosqichli modelda talqin qiladi ya’ni sezgilar orqali idrok qilish, hissiy ta’sirlanish va estetik obrazlarni ijodiy talqin qilish. U estetik obrazlar bolaning madaniy ongida qanday shakllanishini, ularni eslab qolish va nutqda ifodalash jarayonlarining individual qirralarini aniqlaydi. Ushbu fikrlar O.A.Maxmudova tomonidan ilgari surilgan didaktik yondashuv bilan uyg‘unlashadi. U maktabgacha yoshdagi bolalarda ertaklar orqali estetik sezgi, badiiy ifoda va obrazli tahlil salohiyatini shakllantirish imkoniyatlarini ochib bergan.

Quyidagi jadvalda badiiy-estetik qobiliyatga doir ilmiy izlanishlar va ularning komponentlari qiyosiy tahlil asosida tizimlashtirilgan holda keltirilgan:

Muallif	Asosiy komponentlar	Xulosa
F.B.Sautieva	Kognitiv, emotsional, ifodaviy	Xalq ijodi estetik qobiliyatni kompleks rivojlantiradi
A.S.Bobunova	Estetik baholash ko‘nikmasi, estetik qadriyatlar,	Matn asosida obrazli tafakkur va did shakllanadi
M.A. Tsenyova	Sezgilar orqali idrok qilish, hissiy ta’sirlanish, estetik obrazlarni ijodiy talqin qilish.	Obrazli tafakkur orqali estetik refleksiya yuzaga keladi
O.A.Maxmudova	Obrazlilik, badiiy ifoda, estetik sezgi	Estetik sezuvchanlik ertaklar orqali rivojlanadi

Xalq og‘zaki ijodi - xalqning tarixiy-estetik ongini, milliy madaniyatini va go‘zallik mezonlarini mujassamlashtirgan boy madaniy qatlamdir. Undagi obrazlilik, badiiy ifoda vositalari hamda axloqiy-estetik mazmun orqali o‘quvchining estetik idroki faollashadi. Ertaklar dramatik syujeti va hissiy ta’sir kuchi bilan estetik sezgirlikni uyg‘otadi. Maqollar nutqning obrazli va baholovchi funksiyasini faollashtiradi, topishmoqlar esa obrazli fikrlash va tasviriy tafakkurni rivojlantiradi. R.Sh.Shafikova rassomlik orqali estetik didni shakllantirishda ham tasviriy obrazlar va rangning psixologik ta’siri, go‘zallikni idrok etish jarayonidagi hissiy-

funksional mexanizmlarni tahlil qiladi. Ushbu yondashuv xalq ertaklaridagi obrazlarga nisbatan estetik yondashuv mexanizmlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

S.M.Guseynova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda estetik tarbiyada muhitning o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, o‘quvchining go‘zallikni anglash layoqati va badiiy baholash qobiliyati nafaqat individual psixik jarayonlar orqali, balki uni o‘rab turgan pedagogik va madaniy muhit ta’siri orqali shakllanadi. Tadqiqotda ayniqsa muzey eksponatlari yordamida obrazli tafakkurni faollashtirishning metodik asoslari ochib beriladi. Guseynova ta’limiy muhitni ma’naviy-tarbiyaviy mazmunni mujassamlashtirgan, tarixiy va badiiy bilim manbai sifatida talqin etadi. Bunday yondashuv xalq og‘zaki ijodi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ertaklar, maqollar va topishmoqlar tarkibida xalqning go‘zallik haqidagi qarashlari, madaniy qadriyatlari va badiiy ifoda vositalari mujassam topgan. Demak, ushbu matnlarni o‘quv muhitida qo‘llash orqali, xuddi muzey materiallari singari, o‘quvchilarda obrazli anglash, ifodaviy tasavvur hamda fikrning go‘zallikka yo‘naltirilgan shakllari rivojlanadi.

S.N.Bezdetko esa estetik qobiliyatlarni shakllantirishda bevosita faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. U boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borgan tadqiqotlarida badiiy kvestlar, dramatik sahnalashtirishlar, musiqiy ifoda va obrazli harakatlar orqali dunyoni go‘zallik nuqtayi nazaridan tasavvur qilishni shakllantirish mumkinligini asoslab beradi. Uning qarashlariga ko‘ra, go‘zallikni his etish faqat bilim berish orqali emas, balki bola ishtirok etgan real faoliyatda, u bajarayotgan badiiy-amaliy mashg‘ulotlarda yuzaga keladi. Aynan xalq og‘zaki ijodining dramatik imkoniyatlari, kuchli obrazlari va mazmundor matnlari bolaning sezgirligini, estetik idrokini va obrazli tafakkurini rivojlantiradi. Misol uchun, ertakni ifodalovchi rolli o‘yin tashkil qilish, maqollar asosida ijodiy mashqlar tuzish yoki topishmoqlarni obraz asosida talqin qilish orqali o‘quvchi tafakkurini jonlantirish, tasviriy ifoda malakalarini mustahkamlash mumkin.

A.A.Spiridonova o‘z izlanishlarida badiiy-estetik qobiliyatni madaniy ong bilan uzviy bog‘langan jarayon sifatida talqin qiladi. U “madaniy-estetik munosabat” tushunchasini kiritadi va estetik tarbiyani bola va jamiyat madaniy qadriyatlari o‘rtasidagi ichki muloqot sifatida sharhlaydi. Uning fikricha, xalq og‘zaki ijodidagi ertak, maqol va topishmoqlar shunchaki didaktik materiallar emas, balki shaxsning obrazlar orqali anglaydigan, baholaydigan va ifoda qiladigan ichki dunyosini shakllantiruvchi kuchli vositalardir. Spiridonova shuningdek, obrazli fikr, shaxsiy pozitsiyani aniqlash, baholashga asoslangan mulohaza va ifodaviy faoliyatni bitta pedagogik tizimga aylantiradi. Spiridonova tomonidan ilgari surilgan modelga tayangan holda aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodi nafaqat estetik tarbiyaning vositasi, balki shaxsning madaniy va axloqiy shakllanishi uchun mustahkam metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi ta’lim konsepsiyasida o‘quvchining estetik didi, madaniy ongi, shaxsiy baholash mezonlari asosida shakllanishi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuv esa “badiiy-estetik qobiliyat” tushunchasining mazmunan yangicha talqin etilishiga, uni o‘quvchining estetik idroki, baholash ko‘nikmalari,

his qilish, ifoda etish hamda ijodiy yondashuv orqali talqin qilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etishga zamin yaratadi. “Badiiy-estetik qobiliyat” bir qarashda san’atni tushunish va ifoda etishga daxldor bo‘lsa-da, chuqurroq tahlil qilganda, u shaxsning umumiy madaniy-axloqiy, emotsional-intellektual va estetik kompetensiyalarini birlashtiruvchi murakkab tizim ekanligi ayon bo‘ladi. Aynan shunday yondashuvni F.B.Sautieva o‘z tadqiqotida asoslab, badiiy-estetik qobiliyatni bola ongining ijtimoiy-estetik rezonansi sifatida talqin etadi va uni quyidagi komponentlarga ajratib ko‘rsatadi: kognitiv refleksiv-baholovchi, va amaliy-estetik. Mazkur komponentlar o‘zaro uyg‘unlikda bola shaxsiyatida estetik pozitsiyani shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchining san’at asarlariga, voqelikka va xalq og‘zaki ijodi namunalariga nisbatan individual munosabatida yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki aynan xalq og‘zaki ijodi o‘zining obrazlilik, hissiy-ta’sirchanlik, badiiy tuzilma va ma’naviy-estetik mazmuni orqali o‘quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda tengsiz didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ertaklar - xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va estetik jihatdan boy janrlaridan biri sifatida o‘quvchi tafakkurida obrazli ifoda va dramatik idrokni uyg‘otadi. Bola ertakdagi voqealarni ko‘z oldida tasavvur qilgan holda, estetik baholash va dramatik his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi. Bu holat estetik sezgi va ifoda qobiliyatini birgalikda faollashtiradi. O.A.Maxmudova bu borada ertaklarning dramatik strukturasi, estetik kontrastlar va axloqiy-estetik vaziyatlarga boyligi orqali bolaning obrazli tafakkurini shakllantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Maqollar esa, qisqa va ramziy shaklda berilgan axloqiy-estetik xulosalardir. Ularda xalqning go‘zallikka munosabati, axloqiy qadriyatlarga estetika prizmasidan yondashuvi mujassam bo‘ladi. “Oltin yerda qolmas, yaxshilik - yo‘lda”, El qadrini el bilar, suv qadrini - yer.kabi maqollar orqali bola nafaqat til o‘ziga xosligini, balki estetik mezonlar asosida baholash madaniyatini ham o‘zlashtiradi. A.S.Bobunova maqollarni bolaning estetik baholovchanligini shakllantirishda asosiy vosita sifatida tahlil qilgan bo‘lib, ular yordamida bola nutqiy obrazlarni o‘zlashtirish, ifoda qilish va ijodiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishini isbotlagan.

Topishmoqlar esa obrazli mulohaza yuritish, mantiqiy-estetik tafakkur va metaforik ifodaning eng yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. Topishmoqning metaforik tabiatini ochish, uni aniqlash jarayoni bolaning obrazlar dunyosini boyitadi, o‘zaro bog‘liqlikni ko‘ra olish va badiiy-assotsiativ tafakkurni faollashtiradi. Bu esa badiiy-estetik qobiliyatning asosiy tarkibiy qismi - obrazli ifoda salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik muhit, metodik yondashuvlar, o‘qituvchining estetik kompetensiyasi muhim omillar sirasiga kiradi. A.A.Spiridonova bu borada “madaniy-estetik munosabat” tushunchasini kiritib, estetik rivojlanish - bu shunchaki ta’sir emas, balki shaxsning ongli, refleksiv va ifodaviy javobidir deya ta’kidlaydi.

Xalq og‘zaki ijodi estetik qobiliyatlarni shakllantirishda quyidagi afzalliklarga ega:

Semantik jihatdan boy matnlar o‘zida obrazlilik, ko‘p qatlamli mazmun va badiiy estetik g‘oyalarni mujassam etganligi bilan ajralib turadi.

Ertaklarning dramatik syujeti va obrazlar o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar o‘quvchining emotsional sezgirligini kuchaytiradi va estetik idrokni faollashtiradi.

Maqollarda mujassam axloqiy-estetik g‘oyalar o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga, badiiy mezon asosida baho berishga va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

Topishmoqlar orqali o‘quvchilarda obrazli tafakkur, qiyosiy tahlil, ramziy ma’nolarni anglash va ularni ifodalash malakalari shakllanadi.

S.N.Bezdetko tomonidan olib borilgan tadqiqot estetik rivojlanishning amaliy shakllanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu jarayonning emotsional asoslari, obrazli ifodasi va faoliyat orqali rivojlanish mexanizmlari tahlil etiladi. Muallif estetik tarbiyani nazariy tushuncha emas, balki faoliyatga asoslangan, shaxsiy ishtirok bilan boyitilgan pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, estetik qobiliyatlar maxsus tashkil etilgan didaktik faoliyat va obrazli topshiriqlar orqali shakllanadi. Bezdetko boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borgan tajribasida badiiy kvestlar, rolli o‘yinlar, musiqiy va dramatik mashg‘ulotlar orqali obrazli tafakkur, go‘zallikka sezgirlik va badiiy nutqni rivojlantirish samaradorligini ko‘rsatadi. Xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘langan holda u folklorning pedagogik vosita sifatidagi imkoniyatlarini ochib beradi. Intonatsiya, ritm, timsollar kabi badiiy vositalar bolalarda obrazli fikrlash va badiiy taassurotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, boshlang‘ich ta’limda xalq og‘zaki ijodi asosida badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali deb hisoblanadi:

- dramatik o‘yinlar asosida dars tashkil qilish
- estetik tahlil mashqlari (obrazni topish, baholash)
- his-tuyg‘uga asoslangan ifoda topshiriqlari
- ijodiy hikoya tuzish mashqlari
- xalq maqollari asosida bahslashish (diskussiya) metodikasi
- xalq ertaklarini zamonaviy voqealar bilan taqqoslash.

XULOSA

Badiiy-estetik qobiliyat tushunchasi pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan ko‘p komponentli, ichki tuzilmasi murakkab, shaxs taraqqiyotiga bevosita ta’sir etuvchi integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu qobiliyat o‘z ichiga estetik sezuvchanlik, obrazli idrok, badiiy ifoda malakasi, baholash mezonlari hamda madaniy-estetik didni qamrab olgan murakkab tizimli birlikni tashkil etadi. Ayniqsa, uni shakllantirish jarayonida xalq og‘zaki ijodi vositalarining didaktik, estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq

og‘zaki ijodining obrazlilik, hissiy-ta’sirchanlik, semantik boylik va ma’naviy qatlamlarga ega bo‘lgan matnlari estetik idrokni shakllantirish, go‘zallikni anglash, badiiy obrazlarni talqin qilish hamda estetik fikrlashni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, ertaklar o‘zining dramatik-kompozitsion tuzilmasi, xalqona qahramonlari va obrazlar tizimi orqali o‘quvchini badiiy voqelikni anglashga undaydi, obrazli ifoda vositalarini idrok etishga yo‘naltiradi va estetik sezgirlikni rivojlantiradi. Maqollar esa qisqa, lo‘nda, yuqori semantik yuklamaga ega bo‘lgan shakli bilan estetik-axloqiy mezonlarni bolalarning tafakkuriga singdiradi, mustaqil fikr bildirish va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Topishmoq va hikmatli so‘zlar obrazli fikrlash, ramziy ifodalarni tushunish, metaforik idrok va mantiqiy-estetik mulohaza yuritish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida xalq og‘zaki ijodi asosida estetik idrok, baholovchanlik, obrazli ifoda va his-tuyg‘ularni badiiy shaklda ifodalash kabi jarayonlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi aniqlanib, ushbu vositalarning badiiy-estetik qobiliyatni shakllantirishdagi metodik, psixologik va estetik asoslari aniqlashtirildi. Bu nazariy asoslar tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etadi va xalq og‘zaki ijodi vositalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish modelini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бездетко С.Н. Художественно-образовательный квест как фактор эстетического развития младших школьников во внеурочной деятельности: дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 2020. - 210 с.
2. Бобунова А.С. Формирование нравственно-эстетических ценностей младших школьников средствами учебного предмета «Литературное чтение»: дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 2021. - 195 с.
3. Гусейнова С.М. Педагогические условия эстетического воспитания школьников средствами музейной экспозиции: дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 2019. - 204 с.
4. Maxmudova O.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik rivojlantirish yo‘llari // International Scientific and Practical Conference “Strategies for Improving and Developing the Quality of Preschool Education: Problems, Solutions and International Experience”, April 16–17, 2025. - P. 799. - DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1531484>
5. Mustafoyev B. Estetik tarbiya metodikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / B. Mustafoyev. - Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. - 116 b
6. Саутиева Ф.Б. Система эстетического воспитания школьников средствами народного творчества: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Махачкала: Дагестанский гос. пед. ун-т, 2020. - 47 с.
7. Спиридонова А.А. Формирование культурно-эстетического отношения младших школьников к действительности во внеурочной деятельности на основе полихудожественного подхода: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Тамбов, 2021. - 23 с.
8. Ценёва М.А. Формирование художественно-эстетического воспитания детей дошкольного возраста: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Казань, 2020. - 21 с.



OLIIY TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA XXI ASR INNOVATSION KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI

Yankina Rano Sadikovna
Andijon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda oliy ta'limning innovatsion rivojlanishida XXI asrning asosiy kompetensiyalari: - tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikatsiya, jamoaviy ish va raqamli savodxonlik ustuvor yo'nalishlari sifatida tahlil qilinib, xalqaro tavsiyalar va O'zbekiston milliy islohotlarining roli ko'rib chiqiladi. Talabalarda universal ko'nikmalarni shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyalar, innovatsiya, kommunikatsiya, tanqidiy fikr, kreativ, raqamli savodxonlik, universal ko'nikma, innovatsion texnologiya.

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ XXI ВЕКА В РАЗВИТИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Статья посвящена анализу ключевых компетенций XXI века - критического мышления, креативности, коммуникации, командной работы и цифровой грамотности - как приоритетных ориентиров инновационного развития высшего образования. Рассматривается роль международных рекомендаций и национальных реформ в Узбекистане. Особое внимание уделяется необходимости внедрения инновационных технологий для формирования универсальных умений.

Ключевые слова: компетенции, инновация, коммуникация, критическое мышление, креативность, цифровая грамотность, универсальные умения, инновационные технологии.

THE IMPORTANCE OF XXI ST CENTURY INNOVATIVE COMPETENCIES IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION

Abstract: This article analyzes the key competencies of the XXI st century - critical thinking, creativity, communication, teamwork, and digital literacy - as priority directions for the innovative development of higher education. The role of international recommendations and national reforms in Uzbekistan is examined. Special attention is given to the necessity of implementing innovative technologies to develop universal skills.

Keywords: competencies, innovation, communication, critical thinking, creativity, digital literacy, universal skills, innovative technologies.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da oliy ta’lim muassasalari uchun kompetentlik yondashuvini samarali joriy etish maqsadida metodik va texnologik bazani takomillashtirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Bu yondashuv esa, zamonaviy sharoitlarda talabalarning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Zamonaviy oliy ta’limda raqamlashtirish va global o‘zgarishlar kundan-kuno‘zgarib bormoqda. OECD, UNESCO hamda Jahon iqtisodiy forum (WEF) kabi yetakchi xalqaro tashkilotlar o‘z strategiyalarida (masalan, OECD Learning Compass 2030) bitiruvchilarning moslashuvchanligi va professional barqarorligini ta’minlaydigan universal kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydilar.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar - raqamli ta’lim platformalari, tadqiqot usullari va interaktiv muhitlar kabi, asosiy omillar ham oliy ta’lim talabalarining kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning integratsiyasi talabalarda ta’limni shakllantirishga, mustaqillik, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni ham ta’minlashga yordam beradi.

Quyida ustuvor kompetensiyalarni ko‘rib chiqamiz:

Pedagogikada *tanqidiy fikrlash* talabalar kasbiy tayyorgarligining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi, ayniqsa, axborot ochiqligi va raqamlashtirish sharoitida ma'lumotlarni samarali tahlil qilish, asosli pozitsiyalarni shakllantirish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Tadqiqotchi Bolotov V.A. va Morxova I.V. tanqidiy fikrlashning kognitiv va faoliyatga oid jihatlarini ta'kidlab, bu ta'limning integrativ natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Amerikalik olim Halpern D. hamkorlari esa, ayniqsa, aralash (gibrid) ta'limda, talabalar faol o'rganish jarayonida ishtirok etadigan metata'lim ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydilar.

O‘zbek olimlari Sharifbayeva X.Ya., Abdurashidova M.J., Azizxo‘djayeva N.N. qarashlarida talabalar sub'yektivligi va innovatsion dunyoqarash shakllanishidagi roli alohida ta’kidlanadi. Tanqidiy fikrlash loyihaviy faoliyat, muammoli o‘qitish, munozaralar bilan bog‘liq bo‘lib, innovatsion texnologiyalar – raqamli tahlil vositalari va hamkorlik platformalari yordamida rivojlanadi.

Kreativlik - kommunikativ faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hamkorlik va jamoaviy muhokamalar orqali namoyon bo‘ladi va loyihaviy ta’lim orqali rivojlanadi, yangi g‘oyalar yaratish uchun raqamli vositalardan foydalanishni talab qiladi.

Bolotov V.A. kreativlikni shaxsning o‘zgarishga moslashish va ta’limiy innovatsiyalar yaratish qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ sifat deb ta’riflaydi. Zimnyaya I.A. esa, uni shaxsiy faollik orqali o‘zini-o‘zi rivojlantirish bilan izohlaydi: kreativlikni rivojlantirish uchun an’anaviy ko‘paytiruvchi ta’limdan voz kechib, loyihaviy, tadqiqot va interaktiv yondashuvlarni va raqamli vositalar - vizualizatorlar, simulyatorlar va g‘oya generatorlaridan foydalanish zarur deb fikrlarini bildiradi. O‘zbek pedagogikasida kreativlik masalalari Xoshimova M.K., Rajabov A.Sh., Zakirov M.R. tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular loyiha-tadqiqot faoliyati, innovatsion fikrlashni shakllantirish ahamiyatini ta’kidlaydilar.

Kommunikativ kompetensiya esa ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish va ta’lim jarayonida, professional jamoalarda samarali o‘zaro aloqani ta’minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta’limning universal kompetentsiyalarining eng muhim elementi bo‘lib, konstruktiv muloqot olib borish, o‘z pozitsiyasini asoslab ifoda etish, ma’lumotni samarali qabul qilish va talqin qilish, shuningdek, professional muhitda samarali hamkorlik qilish qobiliyatini ta’minlaydi.

O‘zbek pedagogikasida kommunikativ kompetensiya pedagoglarning professional shakllanishining asosiy poydevori hisoblanadi. N.N. Azizxodjaeva uning talabalar sub’ektligini shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi, X.Ya. Sharifbayeva nutq ko‘nikmalarining mustaqillik va o‘ziga ishonchga ta’sirini, M.N. Muslimov esa bu kompetensiyaning professional pishiqchilik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. I.V. Morxova raqamli muhitda samarali nutqiy o‘zaro ta’sirni rivojlantirish zaruratini ta’kidlaydi.

Kreativlik kommunikatsiya faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, eng to‘liq hamkorlik va jamoaviy muhokamalar orqali namoyon bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiya esa ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish va ta’lim hamda professional jamoalarda samarali o‘zaro aloqani ta’minlash uchun eng muhim vosita hisoblanadi.

Xalqaro ilmiy sohada bu tushuncha soft skills, madaniyatlararo va raqamli jihatlarni o‘z ichiga olgan holda kengaymoqda. Shunday qilib, Britaniyalik psixolog John Raven jamoaviy ish ko‘nikmalari, mojarolarni hal qilish va jamoatchilik oldida chiqish qilish ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli professional hamkorlik asoslari sifatida ko‘rsatadi. Kambodjali tadqiqotchi Doung Dara, Gillian Black (Buyuk Britaniya), Yamada Reiko (Yaponiya) va Lee Joo Ho (Janubiy Koreya) bilan birgalikda kommunikativ kompetentsiyaning sotsiollingvistik, strategik va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga olgan modelni taklif qiladi. Xitoylik olim Wei Zhou dialog nutqi va ma’nolarni talqin qilishni rivojlantirish uchun sun’iy intellekt platformalarining potentsialiga e’tibor qaratadi. Nemis olimi Tobias Hallmen va vengriyalik Naszadi Katalin raqamli fikr-mulohaza va kolaborativ onlayn muhitlarning kommunikativ madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Samarali kommunikatsiya ta’lim muhiti doirasida konstruktiv aloqalar, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ishtirokchilarning pozitsiyalarini tushunish asosini yaratadi. Biroq raqamlashtirish va professional vazifalarning murakkablashuvi faqat kommunikativ ko‘nikmalarni emas, balki jamoaviy ishni ham rivojlantirishni talab qiladi, bunda talabalardan fanlararo guruhlarda birgalikda harakat qilish, rollarni taqsimlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun kuchlarni muvofiqlashtirish talab etiladi.

Jamoaviy ish zamonaviy mutaxassisning asosiy metakompetentsiyalaridan biri bo‘lib, noaniqlik va axborot xilma-xilligi sharoitida samarali jamoaviy vazifalarni hal qilish qobiliyatini aks ettiradi. Muvaffaqiyatli o‘zaro aloqalar uchun kommunikatsiya, empatiya, mas’uliyat hamda turli nuqtai nazarlarni hisobga olish qobiliyati zarurdir. Kooperativ ko‘nikmalarni rivojlantirish nafaqat guruhda ishlash, balki bulutli platformalar, birgalikdagi

hujjatlar, raqamli doskalar va boshqa masofaviy hamkorlik vositalaridan samarali foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

Rossiya olimlari I.A. Zimnyaya va V.A. Bolotov jamoaviy ishni ijtimoiy kompetentsiya sifatida ko‘rib chiqadilar, bu esa birgalikdagi faoliyat va vazifalarni hal qilishda kelishuvga erishish qobiliyati bilan namoyon bo‘ladi, bu esa ayniqsa o‘quv loyihalari va fanlararo tadqiqotlarda muhim hisoblaganlar.

Raqamlashtirish, gibrid ta‘lim va kooperativ formatlarning kengayishi sharoitida kommunikativ ko‘nikmalarning roli sezilarli darajada oshadi. Rossiya pedagogikasida kommunikativ kompetentlik Petrovskaya L.A. tomonidan o‘rganilib, u empatiya, o‘zini boshqarish va muloqot qobiliyatini raqamli ta‘lim muhitida muhim sifatlar deb qaraydi. Markova A.K. kommunikativ adekvatlikning ahamiyatini, Kuzmina N.V. diqqat va hissiyotlarni boshqarishni, Zimnyaya I.A. bu kompetentsiyaning ijtimoiy zaruriyatini ta‘kidlaganlar.

Mahalliy tadqiqotchilar U. Tolipov va M.N. Muslimov esa hamkorlikni tizimli shakllantirish zarurligini ta‘kidlaydilar, bunda interaktiv va o‘yin metodlari, loyiha faoliyati hamda guruhviy o‘zaro ta‘sirni ta‘minlovchi raqamli platformalardan foydalanish muhimdir. Muvaffaqiyatning asosiy sharti — mas‘uliyatni rag‘batlantiruvchi va umumiy natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratishdir.

Raqamli savodxonlik keng ko‘lamli ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi - texnik bilimlardan tortib, raqamli kontentni tanqidiy tahlil qilish, ma‘lumotlarni samarali qidirish va baholash hamda o‘zining raqamli xavfsizligini ta‘minlashdir. Tadqiqotchilar A.S. Obuxov, A.V. Minjulina, M.A. Kozlova va boshqalar raqamli savodxonlikni pedagoglarni tayyorlashning muhim qismi sifatida ko‘rib chiqdilar. Texnik vositalarni egallash, balki tez o‘zgarayotgan raqamli sharoitlarga moslashish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va ularni samarali ta‘lim uchun qo‘llash qobiliyatining zarurligini ta‘kidlaydilar.

Shermuhamedova N.A., Toyirova D.S. va Gulyamov S. va boshqalar, oliy ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va kelajakdagi o‘qituvchilarda raqamli pedagogik madaniyatni rivojlantirish ahamiyatiga e‘tibor qaratadilar hamda raqamli savodxonlik talabalarda akademik natijalarning yaxshilanishi, faollikning ortishi va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya kuchayishiga yordam beradi deb fiklar bildirganlar.

Ushbu kompetentsiyalar talabalarda tez o‘zgarayotgan dunyoga muvaffaqiyatli moslashish va rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bularning barchasi XXI asrda kasbiy va shaxsiy o‘zini aniqlash uchun zarur bo‘lgan raqamli savodxonlik - raqamli davrning universal ko‘nikmasiga ega bo‘lmasdan amalga oshmaydi.

Xulosa. O‘zbekistonda oliy ta‘limning innovatsion rivojlanishining strategik vazifasilari qatoriga XXI asrning asosiy kompetentsiyalarini rivojlantirish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa, metodik ishlanmalarni o‘z ichiga olgan kompleks islohotlar zarur deb hisoblaymiz. Xalqaro tajriba va milliy xususiyatlar

integratsiyalashuvi esa, global ta’lim muhitida moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедова Л.Т. Методологические основы компетентностного подхода в профессиональном образовании // Вестник высшей шк. 2023. №2. С. 69–74.
2. Ишмухамедов Р.Ж. Инновационные технологии в системе высшего педагогического образования. – Ташкент: Фан, 2022. – 198 с.
3. Морхова И.В. Компетентностный подход в подготовке педагогов в условиях цифровизации // Педагогика и психология.– 2024. – №1.–С. 22–26.
4. Комилова Ф. М. Янкина Э. А. Общая педагогика (Педагогическое мастерство). – Ташкент: «Zebo Prints», 2025. – 114 с.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

O'SMIR O'QUVCHILAR XULQIDAGI OG'ISHGANLIK PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nurboyev Quvondiq Mirzanovich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo'limi, fizika-matematika
fanlari nomzodi, k.i.x.*

Azimjonova Rushana Rashid qizi

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo'limi, stajer-tadqiqotchi*

ANNOTATSIYA. O'smir o'quvchilar xulq-atvorida kuzatiladigan deviatsiya (og'ish) holatlarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va tabiatiga baho berish — ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadli va samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada mahalliy, MDX va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida “deviatsiya” tushunchasining mohiyati, turlari, o'smirlar xulqidagi og'ishlarning sabablari, ob'ektiv va sub'ektiv omillari hamda ularning asosiy belgilari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: deviatsiya, o'quvchi, xulq, og'ishlar, ijobiy va salbiy og'ishlar, og'ish sabablari va omillari, xarakterologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit.

ДЕВИАЦИИ В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

АННОТАЦИЯ. Выявление девиаций (отклонений) в поведении подростков, определение причин их возникновения и изучение их природы являются важными факторами для целенаправленной и эффективной организации учебно-воспитательного процесса. В настоящей статье на основе анализа научных исследований отечественных и зарубежных ученых, ученых стран СНГ всесторонне раскрыта сущность понятия «девиация», её виды, причины поведенческих отклонений у подростков, а также объективные и субъективные факторы, влияющие на эти процессы.

Ключевые слова: девиация, ученик, поведение, отклонения, положительные и отрицательные отклонения, причины и факторы, характерологические особенности, социальная среда.

BEHAVIOR DEVIATION OF ADOLESCENT STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

ABSTRACT. Identifying deviant behavior among adolescent students, analyzing its causes, and understanding its nature are critical for organizing an effective and targeted educational and upbringing process. This article presents a comprehensive review of the concept of “deviation,” including its types, causes, and the objective and subjective factors influencing such behaviors, based on the analysis of scientific research conducted by national, CIS, and international scholars.

Keywords: deviation, student, behavior, deviations, positive and negative deviations, causes and factors, character traits, social environment.

Kirish ma’lumotlari / dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan ustuvor yo‘nalishlardan biri – ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish hisoblanadi. Shu sababli, yangicha ta’limni shakllantirish va xalqaro ta’lim muhitini yaratish – uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir.

Respublikamiz rahbari tomonidan imzolangan bir qator direktiv hujjatlarda ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish⁵⁵, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish⁵⁶ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni sifatli va samarali hal etish uchun ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va uslublarini joriy qilish, ta’lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoit yaratish kerakligiga O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev alohida urg‘u berganlar⁵⁷.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar xulqida kuzatiladigan deviatsiya (me'yordan og‘ish) holatlari bugungi kunda pedagogik va psixologik tadqiqotlarda muhim muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy o‘zgarishlar, oila muhitidagi tanazzul, axborot oqimining ortgani, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, ta'limdagi raqobat va emotsional yordam yetishmasligi o‘smirlarda turli salbiy xulq-atvor shakllarining yuzaga kelishiga turtki bo‘lmoqda.

Deviant xulq-atvor – bu jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlarga zid bo‘lgan xatti-harakatlar majmuasidir. Bu xulq-atvor shakllari o‘quvchi shaxsiyatining shakllanishi, o‘quv jarayonidagi ishtiroki hamda sinfdagi ijtimoiy munosabatlar muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda har bir bolaning betakror va o‘ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish talab etiladi. Shu sababli, deviant xulq-

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qarori.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

⁵⁷ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017. – B.163.

atvorni erta bosqichda aniqlash, uning sabablarini chuqur tahlil qilish va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish orqali pedagogik-psixologik profilaktika va korreksiya ishlarini maqsadli yo'lga qo'yishga ehtiyoj tug'iladi.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqotda o'smir o'quvchilar xulqidagi deviant holatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish maqsadida devyatsiya va pedagogik og'ish tushunchalariga doir mahalliy va xalqaro tadqiqotlar, psixologik-pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rganilib, mavjud nazariy yondashuvlar, kategoriyalar va tasniflar shakllantirildi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar va xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni “qiyin o'smir” yoki “tarbiyalash og'ir o'smir” deyiladi. “Tarbiyalash og'ir” deganda, o'smirning pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatishi tushuniladi. Og'ish ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik xodisasining jihatlaridan biri hisoblanib, insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks ettiradigan me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorda o'z ifodasini topali. Ijtimoiy pedagogikadan atamalar lug'atida devyatsiya xodisasini tarbiyalanishi og'ir bo'lgan, qabul qilingan ijtimoiy me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligi, deb izohlanadi. Devyatsiya xodisasi bola (o'smir)ning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratmaslik natijasida paydo bo'ladi [Ijtimoiy..., 20017].

Ijtimoiy xulqdagi buzilishni bolalar va o'smirlarning rivojlanishi jarayonida tez-tez uchraydigan fenomen hisoblanib, “devyatsiya”, “deviant xulq”, “delinkvent xulq” kabi tushunchalarining qo'llanilishi “xulq me'yori” tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, deviant xulqni me'yordan va, shu bilan birga, delinkvent xulqdan, ya'ni huquqbuzarlikdan qat'iy mezonlar asosida ajratish birmuncha mushkul hisoblanadi. Yu.A.Kleybergning ta'kidlashiga ko'ra, “deviant xulq” tushunchasi qay darajada nisbiy bo'lishiga qaramasdan, uning ortida ichkilikbozlik, taksikomaniya, narkomaniya, alkogolizm, suiqasb kabi turli shakldagi huquqbuzarliklar yashiringan bo'ladi [Kleyberg Yu.A., 2001]. Bolalar va o'smirlar xulqidagi og'ishlarni tuzatish esa, ko'p hollarda, oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarning mustahkamligiga bog'liq [Shoumarov G'.B., Umarov B.M., 2015: 38].

“Deviant xulq” (lot. deviation – og'ish) tushunchasi “ijtimoiy devyatsiya” va “og'ishgan xulq” tushunchalari kabi, shaxsning nisbatan keng tarqalgan va umumqabul qilingan ijtimoiy me'yorlardan og'ishni anglatadi. Ushbu tushunchaga mazmuni va mohiyati nuqtai nazaridan yaqin bo'lgan yana bir qator ta'riflar mavjud bo'lib, sinonimlari sifatida xulqdan og'ish, delinkvent, asosial, dezadaptiv, addiktiv, noadekvat, destruktiv, aksentuasiyal, psixopatik kabi tushunchalar qo'llaniladi. Ushbu toifaga kiruvchi o'smirlar esa “xatar guruhi”ga kiruvchi xulqi og'ishgan bolalar deb nomlanadilar [Paatova M.E. i dr., 2012].

Deviant xulq, ijtimoiy xodisa sifatida sosiologiya va pedagogika sohalarida, individual devyatsiyalar esa psixologiya sohalarida o'rganiladi.

Xorijiy psixologiya va kriminologiyada “deviant xulq” tushunchasining quyidagi ta’riflari mavjud. Xususan, Buyuk britaniya olimlarining tadqiqotlarida “deviant xulq” tushunchasi “jamiyatda mavjud bo‘lgan va shakllanib bo‘lgan, qabul qilingan me’yorlardan og‘ish” deb qaraladi. Bunda “noqonuniy vositalar yordamida maqsadga erishish, buning oqibatida esa jamiyatdan ajratish, ozodlikdan mahrum qilish va boshqa jazo turlarini qo‘llash, ... har qanday ijtimoiy me’yorlarni buzish” deb qaraladi [Paatova M.E. i dr., 2012].

Olimlarning ko‘pchiligi “deviant xulq” tushunchasiga ta’rif berar ekanlar, odamning ijtimoiy xulq-atvori va munosabatlaridagi hamda psixik o‘zini boshqarishidagi kamchiliklariga ishora qiladilar [Gulyamov D.R., 2023]. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, xorijiy tadqiqotchilar deviant xulqni delinkvent xulq bilan bir hil, deb hisoblaydilar.

Og‘ish (deviatsiya) — bu ma’lum bir ijtimoiy guruhda “me’yoriy” deb e’tirof etilgan standartlardan farq qiluvchi ijtimoiy xulq-atvorlarni qamrab oladigan xodisadir. Bu fenomen insoniyatga ma’lum bo‘lgan barcha jamiyatlarda ma’lum darajada kuzatilgan [Ferszt-Pilat K., 2013].

O‘smirlik davrida bolaning hayot-faoliyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar uni psixikasi hamda odamlar bilan bo‘lgan munosabat shakllariga ta’sir qiladi. M.M.Aliqulova va A.A.Tojaliev o‘smirlik davrining o‘ziga xosligi, bolalikdan kattalik yoshiga o‘tish vaqtida fiziologik o‘zgarishlar, jinsiy yetilishning jadallashuvi sharoitida o‘smirlarda salbiy hulq namoyon bo‘lish jarayoni uch turga bo‘ladilar:

Birinchi tur – o‘smirlik davrining jo‘shqin, ziddiyatli kechishi. Bunda 11-12 yoshli o‘smirda beboshlik, urushqoqlik kabi alohida belgilar paydo bo‘ladi [Maxmudov R.M. va boshq., 2014].

Ikkinchi tur – 11-13 yoshli qizlar va 14-16 yoshli o‘g‘il bolalar xulqida salbiy (negativ) fazada nozik tabiatlilik, ijtimoiy muhit ta’siriga senzitivlik, tez o‘zgaruvchanlik, bezovtalanish, jismoniy va ruhiy darmonsizlik, o‘zidan norozi bo‘lish kabi holatlar kuzatiladi.

Uchinchi tur - voyaga yetmagan o‘smir shakllanishining ongli va faol ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash, xavotir va inqirozlarni mustaqil yengish davri bo‘lib, ular xulqida yoki agressiv o‘z-o‘zini himoya qilish yoki passiv melanxoliya pozitsiyasini egallash kuzatiladi. Salbiy faza yakuni jismoniy yetilishning yakunlanish vaqtiga to‘g‘ri keladi [Aliqulova M.M., Tojaliev A.A., 2019].

K.Ferszt-Pilat “Og‘ish, o‘quvchilar xavfsizligi va o‘qituvchilar uchun ma’lumot” mavzusidagi maqolasida sotsiologlar tomonidan qo‘llaniladigan og‘ishning ikki xil ko‘rinishi — musbat va manfiy og‘ish — o‘rtasidagi farq to‘g‘risida to‘xtaladi. Jamiyat tomonidan deviant deb baholanadigan xulq-atvorlarning barchasi ham ijtimoiy xavfli yoki salbiy bo‘lmasligi mumkin. Masalan, g‘alati soch turmagi yoki g‘ayrioddiy kiyinish kabi holatlar kattalarda xavotir uyg‘otishi mumkin, biroq yoshlar uchun bunday xulq-atvor muayyan qoidalarga qarshi isyon shaklida va o‘z shaxsiylik hamda identifikasiyani izlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, deviatsiya (og‘ish) muammolarini faqat salbiy deviatsiyaga doir holatlar doirasida cheklash kerak. Salbiy og‘ish holatlari shaxs, guruh va keng jamoatchilik uchun yuqori darajada

xavf va xatarni anglatadi. Eng xavfli og‘ishlarga emotsional va ijtimoiy yetishmovchiliklar bilan bog‘liq devitsiyalar oqibatida depressiya va o‘z joniga qasd qilish kabi holatlarni kiritish mumkin [Ferszt-Pilat K., 2013].

M.Ødegård va S.Solbergning “O‘qituvchilarning sinflarda og‘ishgan hatti-harakatlarga qarshi reaktiv strategiyalarini aniqlash” mavzusidagi maqolasida o‘quvchilarning og‘ishgan xulq-atvorga nisbatan o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan strategiyalar tahlil qilinib individual va sinf jamoasi darajalarida ko‘rishni taklif qilganlar. Chunki og‘ishgan xulq-atvor alohida o‘quvchilar bilan bir qatorda butun sinf jamoasiga (masalan, boshqa o‘quvchilar va o‘qituvchilar) ham ta'sir qiladi. O‘qituvchilar og‘ishgan xulq-atvorga muayyan darajada refleksivlik asosida yondashib individual va jamoaviy strategiyalarni birlashtirmoqdalar. Masalan, alohida o‘quvchiga nisbatan ko‘rilgan chora keyinchalik sinf jamoasi bilan suhbat va muloqotlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi [Ødegård M., Solberg S., 2024].

N.M.Egamberdieva pedagogik og‘ish bolaning ta'lim olmaganligi yoki ololmaganligi bilan bog‘liq, deb hisoblaydi. Bunday holatlar yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida quyidagilar keltirilgan: dars qoldirish o‘qishga intilishni susaytirishi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko‘chaga chiqarishi, ekologik va ijtimoiy kataklizmalar bolalar ota-onalaridan judo bo‘lishlariga olib kelishi va, oqibatda, daydilikka moyilligi bo‘lgan bolalar sonining ortishi va shu kabilar [Egamberdieva N.M., 2009: 165-166].

Z.Iqbal va I.Zahoor “Sinfda o'quvchilarning xulq-atvor muammolari va engish strategiyalari: o'rta maktab o'qituvchilarining tajribasi” mavzusidagi maqolada tematik tahlil natijalari asosida aniqlangan asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘lgan: e'tibor yetishmasligi, sinfdagi intizomning buzilishi, itoatsizlik va tajovuzkor xulq-atvor. Muammoli xulq-atvorning asosiy sabablari sifatida tarbiya uslubi, o‘qituvchining kasbiy munosabati va dars o‘tish strategiyalari, jamiyat, oiladagi sharoit hamda ijtimoiy tarmoqlar kabi omillar aniqlangan. Bundan tashqari, o‘smir o‘quvchilar xulq-atvorida muammolarni kelib chiqishiga psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yetishmasligi, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermaslik, shuningdek, o‘qitishning eski usullaridan foydalanish va sinfdagi ijtimoiy muhitning zerikarli bo‘lishi [Iqbal Z. and Zahoor I., 2024].

Ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning og‘ishgan xulq-atvori quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: 1) ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilmaydigan o‘quvchilar; 2) o‘quv mashg‘ulotlarini uzrli sababsiz o‘tkazib yuboradigan, turli tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishdan qat'iy bosh tortadigan o‘quvchilar; 3) aksariyat o‘quvchilar bilan ziddiyatli munosabatda bo‘ladigan bolalar; 4) o‘qituvchilar, maktab ma'muriyati bilan ziddiyatli munosabatlarga boradigan o‘quvchilar. Shu sababli, o‘quvchilarning (ayniqsa xulqida og‘ish bo‘lganlarining) individual xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishdan avval mazkur og‘ishlarning tabiati, kelib chiqish sabablari, shakllanish va rivojlanishlariga ta'sir qilgan omillarni pedagogik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy diagnostika metodlari yordamida aniqlashlari muhim hisoblanadi [Gulyamov D.R., Azimjonova R.R., 2024].

B.S.Parsonson “Dalillarga asoslangan sinfdagi xatti-harakatlarni boshqarish strategiyalari” mavzusidagi maqolasida sinfdagi destruktiv va og‘ishgan xulq-atvorga nisbatan pedagogik yondashuvlar muammolarini yoritgan. Ma’lumki, destruktiv va og‘ishgan xulq-atvor ta’lim muhiti va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muammoli vaziyatlar sodir bo‘lishini kamaytirish va o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qator antesedent (oldindan rejalashtirilgan) strategiyalar hamda munosib xulq uchun rag‘batlantirish mexanizmlari qo‘llanilishi tavsiya qilinadi [Parsonson Barry S., 2012].

Antesedent strategiyalar — bu sinfdagi xulq-atvorni boshqarish bo‘yicha oldindan rejalashtirilgan va maqsadli chora-tadbirlar bo‘lib, ular orqali muammoli xulq-atvor ehtimolini kamaytirishga erishiladi. Bunday strategiyalar intizom buzilishi, buyruqqa bo‘ysunishdan bosh tortish yoki topshiriqdan qochish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijobiy rag‘batlantirish usullari o‘quvchilarda to‘g‘ri xulq-atvor va bilish faolligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq ayrim o‘qituvchilar – tashqi stimullar o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kamaytiradi, deb hisoblab rag‘batlantirish usullarini qo‘llamaydilar. Bolalar faoliyatning ichki qadrini faqatgina uning mazmunini anglab yetgan holdagina his qiladilar. Bu esa, avvalo, o‘qituvchilar tomonidan tegishli ko‘nikmalarni rivojlantirish va namoyon etish uchun berilgan tashqi rag‘batlar bilan dastlabki tanishuv orqali amalga oshadi [Parsonson Barry S., 2012: p.21].

Olingan natijalar tahlili. Tadqiqot davomida jamlangan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘smir o‘quvchilar xulq-atvoridagi og‘ishlar ko‘p hollarda kompleks va ko‘p omilli xususiyatga ega. Bunday og‘ishlar nafaqat psixologik yoki fiziologik sabablarga, balki pedagogik muhit, oila tarbiyasi va maktab-sinf tizimidagi ijtimoiy munosabatlarga ham bog‘liq ekanligi aniqlandi.

O‘smirlik – tarbiyaviy ta’sir uchun ancha qiyin va murakkab bo‘lgan davr hisoblanadi. Bu davrda bolaning psixikasi hamda odamlar bilan bo‘lgan munosabat shakllari uni hayot-faoliyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga ta’sir qiladi.

Pedagogik faoliyat samarasi – ta’sir ob’ekti bo‘lmish o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sirga bog‘liq. Bu jarayonning sur’ati esa pedagogning o‘quvchini qay darajada chuqur bilishi hamda ularning o‘zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Aksariyat hollarda o‘quvchilarni tavsiflashda, ularning xarakterologik va ijtimoiy-zarur sifatlarini shakllanganlik holati hamda xulqdagi og‘ishlarning tabiati va ta’sir qiluvchi omillarga oid ma’lumotlarni bilmasdan turib, avval sodir bo‘lgan voqealar tafsilotlariga tayanadilar. Oqibatda o‘zlashtirishi past va xulqi ijobiy og‘ishgan ayrim o‘smir o‘quvchilarni ijtimoiy xavfli “xulqi og‘ishganlar” qatoriga nohaq ravishda kiritib qo‘yishlari mumkin.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “qiyin o‘smirlar” tushunchasiga uchta belgi asosida ta’rif beriladi:

- voyaga yetmagan bolalar xulqida me’yordan og‘ishning mavjudligi;
- voyaga yetmagan bolalar xulqidagi og‘ishlarni tuzatish va korreksiya qilishning qiyin kechishi;

- individual yondashuvga muxtoj bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar.

Maktablarda o‘smirlik yoshida o‘quvchilar xulq-atvorida ko‘p qayd etiladigan og‘ish turlari quyidagilar:

- dars paytidagi intizomsizlik va buyruqlarga bo‘ysunmaslik;
- pedagoglarga nisbatan agressiv munosabat;
- yolg‘on so‘zlash, mas‘uliyatsizlik, o‘z vazifasini bajarishdan bosh tortish;
- tengdoshlarga nisbatan tahdid yoki psixologik bosim ko‘rsatish.

O‘smir o‘quvchilar xulqidagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarning belgilari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchining ta‘lim muassasasida umum e‘tirof etilgan yoki rasman belgilangan ijtimoiy me‘yorlar – muassasada qabul qilingan ichki tartib-qoidalariga va odob-axloq me‘yorlarini buzishi, mazkur me‘yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlar sodir etishi.

2. O‘quvchi xulqiga nisbatan, ta‘lim muassasasidagi ijtimoiy muhitning boshqa sub‘ektlari tomonidan salbiy baho berilishi, ya‘ni pedagogik og‘ish tufayli ijtimoiy sanksiyalar belgilanishi.

3. O‘quvchi xulqidagi pedagogik og‘ishni ijtimoiy muhitning boshqa sub‘ektlari – o‘quvchilar, fan o‘qituvchilari, tarbiyachilar, ma‘muriyat faoliyatiga turli zarar yetkazishi. Masalan, boshqa o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga, o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatini hamda o‘qituvchining darsni tashkil etishiga va shu kabilar.

4. O‘quvchining xulq-atvoridagi pedagogik og‘ishning davriy ravishda takrorlanib turishi.

5. Xulqdagi pedagogik og‘ish o‘quvchining umumiy yo‘nalishiga mos kelishi.

6. O‘quvchi asab tizimining zo‘riqlishi natijasida xulqdagi pedagogik og‘ishning sodir bo‘lishi.

7. O‘quvchining xulq-atvoridagi pedagogik og‘ishning dezadaptatsiya xodisalari oqibatida yuzaga kelishi.

8. O‘quvchining individual, yosh va jinsiy o‘ziga xosliklari sababli pedagogik og‘ishning sodir bo‘lishi. “Deviant xulq” termini faqatgina 5 yoshdan katta bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

O‘smir o‘quvchilar xulqidagi me‘yordan og‘ish atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettiradigan xulq-atvorida o‘z ifodasini topadi hamda shaxs tomonidan jamiyat rivojining xususiyatlari inobatga olinmasligi tufayli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bu kabi xulq-atvor namoyonlariga ta‘sir etuvchi ob‘ektiv omillar sifatida quyidagilar belgilandi:

- oiladagi nosog‘lom muhit (jihozsizlik, tarbiyada beparvolik, zo‘ravonlik holatlari),
- iqtisodiy nochorlik,
- ta‘lim muassasasida empatik munosabat yetishmasligi.

Sub‘ektiv omillar sifatida esa quyidagi holatlar aniqlandi:

- individual xarakterologik xususiyatlar (agressivlik, tez ta‘sirchanlik, passivlik),

- shaxs sifatida shakllanish jarayonining noan'anaviy kechishi,
- motivatsiyaning yetishmasligi va yomon psixologik moslashuv.

Shu bilan birga, ba'zi hollarda ijtimoiy xavfli deb baholangan og‘ishlar aslida ijobiy shaxsiy rivojlanishning noodatiy ifodasi bo‘lib chiqdi. Masalan, mustaqil fikr yuritish, standart bo‘lmagan ko‘rinishdagi o‘zini ifodalash (libos, imidj, boshqalar) ba'zan o‘qituvchilar tomonidan “muammo” deb baholangan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smir o‘quvchilar xulqidagi og‘ishlar — bu nafaqat shaxsiy-psixologik xususiyatlar, balki pedagogik, oilaviy va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi ko‘p omilli fenomen hisoblanadi. Deviant xulq-atvor turlari jamiyatda umumiy qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, biroq ularning barchasi ham ijtimoiy xavfli deb baholanmasligi lozim. Ayrim og‘ishlar shaxsning ijobiy rivojlanish imkoniyatlarini ham ifodalab berishi mumkin.

O‘quvchilar xulqida pedagogik me'yordan og‘ishni tashhis qilish uchun ta'lim muassasasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlar, pedagogik faoliyat, uning qanday sharoitda tashkil etilayotganligi, bunda pedagogik tashhisning qaysi shakl va metodlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Maktab o‘quvchilari xulqidagi me'yordan og‘ishganlikni aniq tashhis qilish o‘quvchilar xulqida og‘ish yuzaga kelishining dastlabki bosqichidayoq o‘qituvchilar va maktab psixologlari tomonidan pedagogik-psixologik korreksiya ishlarini maqsadli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Tavsiyalar:

1. Erta diagnostika tizimini joriy etish. O‘quvchilar xulq-atvorini kuzatish, tahlil qilish va shaxsiy xususiyatlarini baholash orqali og‘ishlarning dastlabki bosqichidayoq aniqlash imkoni yaratiladi.
2. Individual va differensial yondashuv. Har bir o‘quvchining xarakterologik, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya strategiyasini shakllantirish zarur.
3. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Deviations omillari ko‘p hollarda oila muhitida shakllanishi mumkinligi sababli, ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga faol jalb etish muhimdir.
4. Korreksion-profilaktik dasturlar ishlab chiqish. Maktab psixologlari, sotsiologlar va pedagoglar hamkorligida xulqdagi og‘ishlarni oldini olish va ularni tuzatishga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilishi lozim.
5. Ijobiy xulqni rag‘batlantirish. Faqatgina jazo choralarini qo‘llash emas, balki konstruktiv va ijobiy xulq-atvor namoyonlarini doimiy rag‘batlantirish orqali tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017. – B.163.
4. Ferszt-Pilat, K. (2013) Deviation and students’ safety and information for teachers. Wyd. WSGE. P. 87-105.
5. Aliqulova M.M., Tojaliev A.A. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning paydo bo‘lish xususiyatlari // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie 2019, 8(81). –B.37-43.
6. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika (darslik). –Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b..
7. Ferszt-Pilat, K. (2013) Deviation and students’ safety and information for teachers. Wyd. WSGE. P. 87-105.
8. Gulyamov D.R., Akramova G.R., Azimjonova R. R. K voprosu pedagogicheskogo otkloneniya v povedenii uchashixsya: sushnost', faktori i prichini vozniknoveniya // J., Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 yil №4–S. 155-162. / <https://interscience.uz/index.php/home>
9. Gulyamov D.R., Azimjonova R.R. Maktab o‘quvchilari xulqidagi me‘yordan og‘ishlar: ilmiy tadqiqotlar talqini // PEDAGOGIK MAHORAT ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 3. B. 12-17
10. Ijtimoiy pedagogikadan atamalar lug‘ati / Tuzuvchilar: 3.Krraboeva va N.Abdusamatova. – Namangan: NamDU, 2017. –B.15. (-72 b.)
11. Iqbal, Z. and Zahoor, I. (2024) Students’ Behavioral Problems in the Classroom and Coping Strategies: Experiences of Secondary School Teachers / Bulletin of Education and Research April 2024, Vol. 46, No.1. pp. 107-128
12. Kleyberg Yu.A. Psixologiya deviantnogo povedeniya: ucheb. posobie dlya vuzov. M.: Sfera: Yurayt-M, 2001.
13. Maxmudov R.M. va boshqalar. Pedagogika: Ma'ruzalar kursi. - T.: O‘zIIV Akademiyasi, 2014. – 204-b.
14. Ødegård, M., Solberg, S. Identifying teachers’ reactive strategies towards disruptive behavior in classrooms / Teaching and Teacher Education, 145 (2024) 104627. Available online 4 May 2024. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2024.104627>
15. Paatova M.E., Begidova S.N., Xakunov N.X. Teoretiko-metodologicheskii analiz sosial'no-pedagogicheskix fenomenov «deviantnoe povedenie» i «delinkventnoe povedenie» podrostkov //Vestnik Adigeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 3: Pedagogika i psixologiya. – 2012. – №. 1. – S. 96-104. <https://cyberleninka.ru>
16. Parsonson, Barry S. (2012) Evidence-based Classroom Behaviour Management Strategies. KAIRARANGA – VOLUME 13, ISSUE 1: 2012. pp. 16-23.
17. Shoumarov G‘.B., Umarov B.M. Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo‘yicha psixologik maslahatlar. – Toshkent: “Fan”, 2015..



**МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ
ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

Сарварова Гульшан Исрафиловна

*Преподаватель кафедры интегрированного курса английского языка №3,
Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методические основания формирования межкультурной коммуникативной компетенции у студентов педагогических вузов, обучающихся по направлению подготовки «Иностранный язык (английский)». Особое внимание уделено особенностям цифровой образовательной среды как инновационной платформы для организации учебного процесса и профессионального становления будущих преподавателей. Обоснована целесообразность использования интегративного подхода, объединяющего когнитивные, деятельностные и культурологические компоненты подготовки. Автор раскрывает конкретные методические приемы, цифровые инструменты и модели, способствующие развитию готовности к эффективному межкультурному взаимодействию в условиях глобализирующегося общества.

Ключевые слова: межкультурная коммуникативная компетенция, цифровая среда, интегративный подход, профессиональная подготовка, будущие учителя английского языка, методика обучения.

Abstract. The article explores the theoretical and methodological foundations of developing intercultural communicative competence in students of pedagogical universities specializing in English language teaching. Particular attention is paid to the specifics of the digital learning environment as an innovative platform for organizing educational processes and fostering professional growth of future teachers. The study substantiates the relevance of employing an integrative approach that combines cognitive, activity-based, and cultural components of training. The author describes specific methodological techniques, digital tools, and models that contribute to cultivating readiness for effective intercultural interaction in the context of a globalizing society.

Keywords: intercultural communicative competence, digital environment, integrative approach, professional training, future English teachers, teaching methodology.

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili o‘qitish yo‘nalishida tahsil olayotgan pedagogika oliygohlari talabalari orasida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Asosan, raqamli ta’lim muhiti zamonaviy innovatsion platforma sifatida ta’lim jarayonini tashkil etish va bo‘lajak o‘qituvchilarning professional rivojlanishidagi o‘rni ko‘rsatiladi. Integrativ yondashuvni – ya’ni kognitiv, faoliyatga asoslangan va madaniy tarkibiy qismlarni uyg‘unlashtirishni – qo‘llashning dolzarbligi asoslab beriladi. Muallif madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni rivojlantirishga yordam beruvchi aniq metodik usullar, raqamli vositalar va o‘quv modellari bilan o‘rtoqlashadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, raqamli muhit, integrativ yondashuv, professional tayyorlov, ingliz tili bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilar, o‘qitish metodikasi.

ВВЕДЕНИЕ

Современная система подготовки педагогических кадров претерпевает значительные изменения под влиянием цифровизации, глобализации и растущей потребности в развитии у студентов универсальных навыков межкультурного взаимодействия. Для будущего учителя английского языка способность свободно и профессионально коммуницировать с представителями различных культур становится неотъемлемой частью профессиональной компетенции.

Межкультурная коммуникативная компетенция (МКК) рассматривается не только как владение лингвистическими средствами общения, но и как комплекс знаний, умений и установок, обеспечивающих эффективное взаимодействие с носителями иных культурных традиций. В цифровой образовательной среде формирование МКК приобретает новые возможности и одновременно новые вызовы.

Необходимость интеграции когнитивного, деятельностного и аксиологического компонентов обучения определяет актуальность применения интегративного подхода, который позволяет объединять изучение языка, осмысление культурного контекста и развитие личностных качеств будущего педагога.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Содержание понятия межкультурной коммуникативной компетенции неоднократно раскрывалось в трудах отечественных и зарубежных исследователей (Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров, М. Бырд, М. Беннетт, С. Савиньон). На основе анализа различных подходов можно выделить следующие структурные компоненты МКК [1, 2]:

- когнитивный компонент (система знаний о культуре и социокультурных нормах);
- операциональный компонент (умение адекватно использовать языковые и паралингвистические средства);
- аффективно-ценностный компонент (установки толерантности, открытости, готовности к диалогу).

При этом в условиях цифровой образовательной среды расширяются возможности погружения студентов в аутентичный культурный контекст и организации взаимодействия с представителями других культур в формате онлайн. Однако это требует специальной методической подготовки будущих учителей к эффективному использованию цифровых ресурсов и инструментов.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Важнейшей особенностью формирования межкультурной коммуникативной компетенции в цифровой среде является необходимость учитывать индивидуальные образовательные запросы студентов и их личностные особенности. В современных условиях большое значение приобретает персонализация обучения, когда каждый будущий учитель может выстраивать собственную траекторию профессионального и межкультурного развития [3].

Персонализированный подход реализуется через гибкое использование цифровых платформ, которые позволяют варьировать темп, сложность и содержание учебных заданий. Например, один студент может сосредотачиваться на проектной деятельности, связанной с подготовкой медиаконтента, другой – уделять приоритетное внимание критическому анализу англоязычных текстов, а третий – активно вовлекаться в дискуссионные практики с зарубежными партнерами.

Значимый ресурс формирования межкультурной компетенции – это организация рефлексивной деятельности, которая способствует осознанию собственных установок, стереотипов и личной готовности к межкультурному взаимодействию. В цифровой среде рефлексия может реализовываться через ведение электронного портфолио, участие в онлайн-дневниках наблюдений или подготовку эссе, в которых студент оценивает свой опыт общения с представителями иных культур.

Особое внимание следует уделить развитию у будущих учителей критического мышления, без которого полноценное освоение межкультурной коммуникативной компетенции невозможно. Критическое мышление позволяет студентам [4]:

- ✓ осмысленно воспринимать культурные различия,
- ✓ анализировать источники информации,
- ✓ избегать поверхностного копирования стереотипных моделей поведения,
- ✓ строить самостоятельные суждения о социокультурных процессах.

Для формирования этой способности эффективными являются задания по сравнительному анализу аутентичных материалов – например, сопоставление тематики англоязычных СМИ и национальных информационных ресурсов, обсуждение этических коллизий в многонациональной аудитории, дискуссии по вопросам культурной идентичности.

Немаловажной составляющей методики становится воспитание у будущих педагогов этической ответственности за качество межкультурной коммуникации. В условиях глобализирующегося мира учитель иностранного языка нередко выступает

посредником между культурами, и от его личного отношения к разнообразию напрямую зависит восприятие обучающимися ценности культурного многообразия.

Наряду с этим, большое значение приобретают методы взаимного обучения. Совместные проекты с зарубежными партнерами, обмен учебными материалами, обсуждение проблем в международных группах способствуют тому, что будущие учителя учатся работать в мультикультурной команде, принимать разнообразие подходов и уважать различные образовательные традиции.

Такие проекты могут включать:

- создание подкастов и видеороликов о культурных особенностях англоязычных стран,
- разработку виртуальных выставок и интерактивных презентаций,
- проведение совместных вебинаров и онлайн-дискуссий с иностранными студентами [5].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Формирование межкультурной коммуникативной компетенции будущих учителей английского языка невозможно без целенаправленной методической работы и использования потенциала цифровой образовательной среды. Интегративный подход, основанный на единстве когнитивного, деятельностного и личностного компонентов, позволяет создать условия для формирования готовности студентов к профессиональному межкультурному взаимодействию.

Эффективная методика предполагает сочетание традиционных и инновационных технологий, использование аутентичных ресурсов, внедрение проектной и исследовательской деятельности. При этом ключевую роль играет позиция преподавателя как организатора, консультанта и вдохновителя межкультурного обучения.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой цифровых тренажеров, интерактивных платформ и многоуровневых диагностических инструментов для оценки сформированности МКК у будущих педагогов.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедческая теория и практика обучения русскому языку как иностранному. — Москва: Индрик, 2005. — 336 с.
2. Савиньон С.Д. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. — New York: McGraw-Hill, 2007. — 280 p.
3. Беннетт М.Д. Основы межкультурной коммуникации. — Санкт-Петербург: Прайм-Евроник, 2012. — 416 с.

4. Солдаткина М.И. Методика формирования межкультурной коммуникативной компетенции в профессиональной подготовке учителя иностранного языка. — Москва: Флинта, 2019. — 224 с.
5. Цыганова Т.Н. Цифровые технологии в обучении иностранным языкам. — Москва: Юрайт, 2021. — 192 с.



TALABALARNING SSENARIYNAVISLIK KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING KONTEKSTUAL ASOSLARI

Mamatqosimova Nodira Eshquvatovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ssenariy yaratish avvalo ijodiy jarayon bo‘lib, o‘z o‘rnida muhim nazariyaga, ya’ni adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Ssenariynavislik yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlarga tayangan holda mazkur maqolada talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: ssenariy, ssenariynavislik, kontekstual asoslari, hayotiylik va haqqoniylik, mavzu, g‘oya, maqsad, kompozitsiya, tempo-ritm, harakat, sahna etikasi.

КОНТЕКСТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СЦЕНАРНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Создание сценария прежде всего является творческим процессом, который, в свою очередь, основывается на важной теоретической базе — теории литературы. В данной статье, опираясь на проведённые исследования в области сценарного мастерства и изученные материалы по теме, предлагаются контекстуальные основы развития сценарных навыков у студентов.

Ключевые слова: сценарий, сценарное мастерство, контекстуальные основы, жизненность и правдивость, тема, идея, цель, композиция, темпо-ритм, действие, сценическая этика.

CONTEXTUAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ SCRIPTWRITING SKILLS

Abstract. Scriptwriting is primarily a creative process, which in turn is based on an important theoretical foundation—namely, literary theory. This article, based on research conducted in the field of scriptwriting and studies related to the topic, proposes contextual foundations for developing students’ scriptwriting skills.

Keywords: script, scriptwriting, contextual foundations, realism and authenticity, theme, idea, purpose, composition, tempo-rhythm, action, stage ethics.

Kirish. Talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirish jarayoniga kontekstual yondoshuv bu muammoni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishga, uning mazmun-mohiyatini konkret aniqlash va pedagogik yondoshuvni asoslaydi.

Madaniy tadbirlar ssenariysini yaratish ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim omili bo‘lib, madaniy tadbirlar o‘z o‘rnida insonlarni birlashtiruvchi va bir maqsad sari yetaklovchi ijtimoiy hodisadir. Madaniy tadbirlar shaxsning ma‘naviy-madaniy rivojlanishida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib ma‘lum jamiyat yoki xalqning ma‘naviy hayotining ajralmas qismidir.

Shu sababli talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslarini tahlil qilish tadqiqot uchun muhim ahamiyatga egadir.

Talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslari bu ssenariyning nima ekanligi, uning mazmun-mohiyati, ssenariy yaratishning ilmiy-nazariy va amaliy-ijodiy asoslari, ssenariyda kompozitsion yaxlitlik va badiiylik masalalarini o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining asosini ssenariy tashkil etadi. Ssenariy (italyancha «Scenario» – adabiy-dramatik asar degan ma‘noni anglatadi) tadbir mazmunini adabiy ta’svirlash bo‘lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo‘lmish mavzu va g‘oya, bir bo‘lakdan ikkinchisiga o‘tish, bloklar, bezaklar, matnlar to‘liq ko‘rsatiladi [1, 223].

Ssenariy – italyancha «Scenario» so‘zidan olingan bo‘lib, asar tuzilmasi ma‘nosini anglatadi. Ssenariy – mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan adabiy-dramatik asardir [4, 24]. Ssenariy (ital. Scenario) – kino san‘ati va televideniye vositalari yordamida gavdalantirib ko‘rsatishga mo‘ljallangan adabiy asar [6, 4].

“Ssenariynavislik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi – deb qayd etadi V.Q.Rustamov. Birinchisi, ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariynavis uchun juda ham kerak bo‘lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish); ikkinchisi, dramatik fikr qilishni rivojlantirish (ssenariy ustida ishlashda zarur bo‘lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda syujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilash); uchinchisi, ijodiy tasavvur va obrazli hal etish [7, 191].

“Ssenariynavis birinchi navbatda – deydi H.Muhamedaliyev, – inson psixologiyasini, ruhiyatini yaxshi bilishi kerak. Adabiyot va san‘atni oddiygina emas, sevib o‘rganishi zarurat” [5, 6].

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o‘tkaziladigan bayram va tomoshalarining yuqori saviyada o‘tishiga kafolatdir. Rejissor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini saqlab turishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Muhokama va natija. Ssenariy yaratish avvalo ijodiy jarayon bo‘lib, o‘z o‘rnida muhim nazariyaga, ya‘ni adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Ssenariynavislik yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlarga tayangan holda talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning quyidagi kontekstual asoslari tavsiya etiladi:

Talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslari tasnifi quyidagilardan iborat:

Birinchi asos – hayotiylik va haqqoniylik. Ssenariy tayyorlashning muhim shartlari – asoslaridan biri hayotiylik, haqqoniylik bilan badiiy barkamollikning omuxta, sintez tarzda, mahorat darajasida namoyon bo‘lishidir. Bu talab ssenariynavisga ham, uni sahnalashtirayotgan rejissyorga ham barobar taaluqlidir.

Ssenariyda hayotiylik va haqqoniylik masalalari hayotni badiiy sintezlash orqali haqqoniy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ssenariynavis soxta haqiqat bilan hayotiy haqiqatni bir-biridan farqlashni bosh vazifa deb bilish kerak. Ssenariydagi har bir harakatni hayotiy haqiqatga taqqoslashni odat qilishi lozim.

“San’atning maqsadi hayotiy haqiqat bo‘lmog‘i kerak. Faqat oddiy va soddalashtirilgan haqiqat emas, badiiy shakl va bo‘yoqlar bilan jilolantirilgan haqiqatdir. Tashqaridan qaraganda xaqiqatga o‘xshab tuyulgan voqealarni haqiqatning o‘zi deb, qabul qilish o‘ta soddalik (agar shunday atashga arziya)dir. Bunday manzara tomoshabin uchun oddiy axborot vositasi bo‘lishi mumkin. U, tomoshabinni yuksak tuyg‘ular, yorqin kelajak va go‘zallik olamiga yetaklamaydi. Ma’naviy ozuqa bo‘la olmaydi” [2, 107].

Bu talab dramaturgga ham, uni sahnalashtirayotgan rejissyorga ham barobar taalluqlidir. Hayotiylik va haqqoniylik – bu ikki talabni sahnada to‘la va mahorat darajasida ro‘yobga chiqarish uchun nafaqat dramaturg, rejissyor mas’ul, balki ana shu asarni tayyorlab, tomoshabinga yetkazishda ishtirok etuvchi aktyordan, rassomdan, hatto chiroq ustasigacha ma’suldir.

Ssenariyning hayotiy va haqqonligini ta’minlashda birinchi omil bu ssenariynavisdir. Bu borada tadqiqotchi H.Muhamedaliyev quyidagilarni qayd etadi: “Ssenariynavis o‘z halqining o‘tmishi va bugunini ekranda haqqoniy yoritib, kelajakka uzatuvchi vositachidir. Chunki hayotda uchragan hodisalar haqidagi mushohada va mulohazalari, ya’ni hayotning inson aqlini o‘ziga jalb etgan boy mazmuni unga bugun va kelajak uchun ulug‘ hayotiy maktab vazifasini o‘taydi” [5, 8]. Demakki, ssenariyning hayotiy va haqqonligini ta’minlash ssenariynavisdan mahorat bilan birgalikda mas’uliyat talab etadi.

Ikkinchi asos – g‘oya, mavzu va maqsad. Ssenariy tayyorlashda eng dastlabki jarayon bu bo‘lajak madaniy tadbirning g‘oya, mavzu va oliy maqsadini aniqlash va ssenariy ushbu g‘oya va maqsad asosida yozishdan iboratdir.

Ssenariyda mavzu va g‘oyaning muhimligi yuzasidan tadqiqotchi J.A.Mamatqosimov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ssenariy yaratishda bo‘lajak tadbirlarning g‘oyaviy – mavzu asosini chuqur o‘ylamoq lozim. Eng muhimi shundaki, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo‘lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, ssenariy har doim ma’lum bir sana va muayyan aholi uchun mo‘ljallanib yoziladi. Ssenariy yozayotganda mahalliy shart-sharoitlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi” [3, 91].

Mavzu – bu madaniy tadbir uchun tanlangan, mahalliy aholini har tamonlama qiziqtiradigan, barcha voqea-hodisalarni birlashtiruvchi omildir.

G‘oya – bu madaniy tadbirda ilgari suriladigan asosiy fikr. Fikrning kuchli va aniqligi tomoshabinni zeriktirishga qo‘ymaydi. Shuning uchun g‘oyaning oydinlashishi tadbir oxiriga mo‘ljallanishi kerak. Tadbir davomida tomoshabinlar ijtimoiy g‘oya haqida, uning asosiy fikri haqida o‘ylasin, qiziqishi ortsin. Amalda esa ko‘pgina tashkilotchilar g‘oyani tayyor ko‘rinishda, tadbirning boshlanishidayoq berib qo‘yishadi. Bu esa tomoshabinning tadbirga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi, tadbir qiymati pasayadi.

Maqsad – bu tadbirning tomoshabinga “nima demoqchi” ekanligidir. Har bir ssenariy muallifi va rejissor asar yaratishdan oldin, “men bu orqali tomoshabinga nima demoqchiman?” tariqasida o‘ziga savol bermog‘i va o‘z o‘rnida asar orqali javob qaytarmog‘i lozim. Tadbirga qo‘yilgan maqsad voqealar zanjiri bo‘lib, u voqea harakatlarida rivojlanib boradi.

Ssenariyda g‘oya va oliy maqsadning badiiy uzviyligini ta‘minlash yuzasidan ssenariynavsi va rejissyor ijodiy hamkorlikda quyidagilarni amalga oshirishi lozim: tadbirning mavzusini aniq va lo‘nda belgilash; tadbir mavzusidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mos tarzda g‘oya belgilash; tadbir g‘oyasining badiiy uzviyligini ta‘minlash yuzasidan oliy maqsadni belgilash; tadbir g‘oyasi va oliy maqsadi asosida mahalliy materiallarni yig‘ish, tahlil qilish va saralash; tadbir dramaturgiyasini yaratish; tadbir rejissurasini amalga oshirish.

Uchinchi asos – mahalliy dalil. Ssenariy tayyorlashda mahalliy dalillar: arxiv hujjatlari, mahalliy tarixiy shaxslar va ularning ilmiy-ijodiy merosi, mahalliy yutuqlar (ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy va sport sohalaridagi yutuqlar), ommaviy axborot vositalarida berilgan dramatik obekt haqidagi ma‘lumotlar asosiy manba sanalib, badiiy vositalar orqali sintezlanadi.

Ssenariy tayyorlashda nega aynan mahalliy dalillardan foydalaniladi? Sabab mahalliy dalil tomoshabinga yaqin bo‘lib, undagi ma‘lumotlar tez hazm bo‘lishi va emotsional ta‘siri bilan birlamchidir. Shuningdek, ssenariyda mahalliy dalillarning berilishi shu dramatik obektga xos real voqelikning sahnaviy voqelikka aylanishi natijasida tomoshabinlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada oshiradi.

Ssenariy tayyorlashda dastlab dramatik obekt haqidagi ilmiy va tarixiy adabiyotlar bilan tanishish, o‘lkashunoslik muzeyi va mahalliy arxivlarga borib, u yerda saqlanayotganyotgan hujjatlar va eksponentlar bilan chuqur tanishmog‘i lozim. Shuningdek, mahalliy aholi bilan suhbat olib borishi ham muhim jarayondir. O‘sha hududning xalq ijodiyoti asarlarini qunt bilan o‘rganmog‘i mahalliy dalillarning badiiy sintezidagi asosiy mezon sanaladi.

To‘rtinchi asos – badiiy yaxlitlik (kompozitsiya). Ssenariy tayyorlashda uning badiiy yaxlitligini ya‘ni kompozitsiyasini aniqlash ijodiy jarayon bo‘lib, bunda dramatik komponentlarni aniqlash, tahlil qilish konseptual-funksional xarakter kasb etib, ssenariy shunday qurilgan bo‘lishi kerakki, undagi qayta qurishlar, ba‘zi qismlarning olib tashlanishi yoki qo‘shilishi, o‘zgarishlar xuddi she‘riyatdagi kabi qofiya yoki so‘zni o‘zgartirib bo‘lmagandek, asarga zarar qilmasligi lozim.

Tadqiqotchi H.Muhamedaliyev kopozitsiya haqida quyidagilarni qayd etadi: “Ssenariy kompozitsiyasi deganda nimani tushunamiz? Ssenariynavis maqsadga muvofiq hayotni, o‘rab turgan muhitni sinchkovlik bilan o‘rganadi. Birinchi navbatda, o‘zi qalamga olmoqchi bo‘lgan dunyoni, mavzuni o‘rganadi, odamlarning ichki dunyosiga nazar tashlaydi. Ular qanday yashagan, nima uchun kurashgan, nimaga erishgan. Erishmagan bo‘lsa, sababi nima bo‘lgan. Bu bilan ekran muxlislariga qanday ma’naviyat ozuqasi beriladi, shularga material topishi kerak. Ularni o‘z nuqtai nazaridan o‘tkazib, yozmoqchi bo‘lgan asarni rejasini tuzib chiqishi kerak. O‘ylagan syujetni amalga oshirish uchun kompozitsiya tuzilishini asosli va puxta o‘ylashi kerak” [5, 42].

Kompozitsiya – asarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni bir maqsad sari yetaklovchi g‘oya orqali, dramaturgiya qonuniyatlari asosida bir-biri bilan bog‘lovchi tuzilmadir. Madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishi prolog (muqaddima), bosh voqea, voqelar rivoji, tugun, qarama-qarshilik, kulminatsiya, final kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi hollarda madaniy tadbirlar, xususan madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishida tugun, qarama-qarshilik, yechim kabi komponentlar uchramaydi. Chunki bu tadbir to‘laqonli teatrlashtirilmagan bo‘lib, maqsad va g‘oya asosan qo‘shiq mazmuni va raqs harakatlarida yuzaga chiqariladi.

Prolog – asarning boshlanish qismi bo‘lib tadbir nima haqidaligidan xabar beradi. Tomoshabin diqqatini asosiy voqealarga qaratadi. U ko‘tarinki kayfiyat, go‘zallik va nafislikni talab qiladi. Bu qismda hujjatli materiallar, filmlardan lavhalar, ta’sirchan vositalardan keng foydalanish mumkin. Prolog nafaqat sahnada balki tadbir o‘tkaziladigan maydonga kirish yo‘lakchalaridan ham boshlanishi mumkin.

Bosh voqea – bu prologdan keyingi ko‘rinish bo‘lib, voqealar rivojini ta’minlovchi omildir. Bunda tadbirning g‘oya va maqsadiga ozroq bo‘lsada urg‘u beriladi.

Voqealar rivoji – bu tadbir mazmuni va syujetinining murakkablashuviga yordam beruvchi voqealar bo‘lib, ular tugun, qarama-qarshilik, kurash, to‘qnashuv va qiyinchiliklarni yengish jarayonidir.

Tugun – bu tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg‘usining ma’lum bir jumboqqa qaratilishi. Ya’ni asar qahramonlarining kutilmagan voqealarga duch kelishi. Tugun asarda qarama-qarshilikning kuchayishiga, asosiy voqealarning rivojlanishiga turtki bo‘lishi kerak.

Qarama-qarshilik – bu tadbir maqsadi va mazmuniga, asardagi qahramonlarning xatti-harakatiga zid bo‘lgan voqeadir. Qarama-qarshilik qanchalik kuchli bo‘lsa, tomoshabinning tadbirga qiziqishi shunchalik ortadi.

Kulminatsiya – bu tadbirning eng qiziqarli cho‘qqisi demakdir. U o‘z-o‘zidan yechimga olib keladi. Kulminatsiyani o‘zida ifodalagan epizod to‘g‘ri va bevosita tomoshabinning fikri, tuyg‘ularini qo‘zg‘ash kuchiga ega bo‘ladi.

Final – bu asarning yakuni, oxirgi eng muhim qismi. Finalda barcha voqea o‘z yechimini topadi. Final ko‘tarinki kayfiyatda, barcha ishtirokchilarning sho‘x-shodonligi bilan yakunlanadi. Finalning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin his-tuyg‘ularining susayishiga, asar

qimmatining pasayishiga olib keladi. Final ba’zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo‘lib qo‘shiq aytishlarida namoyon bo‘ladi.

Madaniy tadbirlarning kompozitsion tuzilishi ham adabiyotda bo‘lganidek har xil joylashishi mumkin. Masalan: tugun va qarama-qarshilik prologdan keyin kelishi yoki qarama-qarshilik va tugunning joyi almashishi ham mumkin. Bu holat tadbirning mazmun va maqsadiga asoslangan holda xato hisoblanmaydi.

Beshinchi asos – harakat. Ssenariyda harakat yaratish mahorati, uni tashkil ettirish, bo‘ysindirish masalasi. Dramatik harakat ssenariyning o‘ziga xosligi va estetik xususiyati bo‘lib, madaniy tadbirning qon tomiri hamdir.

Ssenariyning muvaffaqiyatida bu omilning o‘rni, ahamiyati kattadir. Harakat faqat jismoniy intilish, yurish-turish, yugurish emas, balki ruhiy holat majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga monolog, dialogdan tortib, imo-ishora, so‘zsiz holatlar, mimika, intonatsiya, remarka, pantomimalargacha qamrab oladi. Zero, ssenariyda uzviy yaxlitlikni saqlash va to‘la namoyon etishda dramatik harakat kompozitsiyaning qon tomiri vazifasini o‘taydi.

Oltinchi asos – temro-ritm: Ssenariy tayyorlashda madaniy tadbirning tomoshabinga emotsional ta’siri va qiziqarli bo‘lishida tempo-ritmning ahamiyati katta. Ssenariy dasturini tayyorlashda tempo-ritm masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘z o‘rnida aniqlangan tempo-ritm madaniya tadbirning badiiy saviyasini ta’minlab, tomoshabinning qiziqishini kuchaytiradi.

“Har qanday sahnaviy asarda temp – vaqt birligidagi ijro (tez, sekin) tushunchasi, ya’ni yetakchi xatti–harakat yo‘nalishining tashqi namoyon bo‘lishi deb tushunilsa, ritm – ijroning ichki dinamikasi (ichki harakatning pulsi) deb qaraladi” [1, 156].

Tempo-ritm – bu madaniy tadbirning ma’lum bir vaqtda, ma’lum bir tezlikda o‘tishidir. Bu atama musiqa san’atidan kirib kelgan bo‘lib, madaniy tadbirlarda tomosha vaqtida bajariladigan vazifalar meyoridir.

Sahnaviy san’atda bu ikki tushuncha bir–biriga uzviy bog‘liqdir. To‘g‘ri topilgan tempo-ritm muvaffaqiyatli o‘tib, undagi harakat rivoji, xuddi bir nafasda o‘tgandek keskin rivojlanadi. Noto‘g‘ri topilgan tempo-ritm esa, asar harakat rivojini tushirib yuboradi.

Yettinchi asos – adabiy til meyorlari. Ssenariy ham har qanday badiiy asar turi kabi adabiy til meyorlari, nutq mahoratini talab etadi. Buning ustiga monolog, dialog imkoniyatlaridan mahorat darajada foydalanishi zarur. U xuddi shu xususiyati bilan o‘zga adabiy turlardan farqlanadi.

“Ssenariynavis xalqning jonli tili, adabiy til normasi va xalq og‘zaki ijodiyotidan ozuqa olib, o‘z asarini tili ustida tinmay, uzluksiz ish olib borish kerak. Ssenariyning mazmuniga, qahramonlarning xarakteri yuz bergan voqealar ma’nosiga qarab, so‘z tanlashi va yozishi kerak” [5, 70].

Ssenariynavis boshlovchilar yoki personajlar nutqini imkoni boricha xalqqa yaqin, sodda tilda yoritish, shu bilan birga adabiy til meyorlariga, tildagi badiiylik va ifodaviylilikka e’tibor qaratish lozim. Ssenariynavis so‘z tanlashda hassos bo‘lib, tomoshabin qalbiga emotsional ta’sir

ko‘rsata oladigan, shuningdek o‘zining g‘oyaviy-badiiy maqsadini tomoshabinga yetkaza olishi talab etiladi.

Ssenariydagi personajlarning monolog va dialoglari harakatga uyg‘un ravishda mazmunli va mantiqiy chiqishi so‘z bilan harakatning ta’sirchan chiqishiga yordam beradi. So‘zlarni dialektik tuzilishi bir personajdan ikkinchi personaj og‘ziga ko‘chgan vaqtida so‘zlar o‘z kuchini ko‘rsatadi. Har bir muvaffaqiyatli chiqqan gap asarni butun ta’sir kuchini oshiradi va ssenariyning badiiy jozibasini ta’minlaydi.

Sakkizinchi asos – sahna etikasi. Ssenariynavis sahna orqali tomoshabinlarga nafaqat madaniy hordiq yoki ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni maqsad qiladi, balki ularni estetik tarbiyalash orqali sahna madaniyati va etikasidan xabardor qiladi. Shu sababli ssenariynavis ssenariy tayyorlayotganda sahnaning muqaddas dargoh ekanligini, san’atning tarbiyaviy jihatlaridan tomoshabin madaniy va ma’naviy saviyasini yuksaltirishda foydalanish kerakligini e’tiborga olmog‘i lozim.

Badiiylik va professionallik konsepsiyasining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bu sahnaviy etika masalasidir. Sahna va intizom bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Sahna etikasi avvalo, san’atga bo‘lgan fidoiylik va mehnatsevarlik samarasidir. Shu jihatdan o‘zbek san’atkorlari M.Uyg‘ur, A.Hidoyatov, SH.Burxonov, S.Eshonto‘rayeva, O.Xo‘jayev kabilar ish, ijod intizomini birinchi o‘rinda tutgan. Ularning ta’biricha, sahna etikasi qo‘shimcha unsur emas, zaruriy sifat hisoblangan.

Bu holat aslida teatr san’atiga tegishli bo‘lsada, mazmunan madaniy tadbirlarga ham dahldor xislatdir. Chunki, teatr san’ati ham, madaniy tadbirlar ham aslida tomoshabin ma’naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan muammoga kontekstual yondoshish natijasida ssenariyning sinkretik spetsifikasi, ssenariynavislik nazariyasi, ssenariy yozish talablari, ssenariynavis mahorati, ssenariyning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tadqiq etildi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslari ssenariynavis uchun professional metodik jarayon bo‘lib, nazariy-ijodiy ahamiyatga egadir.

Talabalarning ssenariynavislik ko‘nikmasini rivojlantirishning kontekstual asoslarini yanada mustahkamlashda ssenariynavisning kasbiy kompetentlik omillari hamda ssenariy yozilishida amalga oshiriladigan vazifalar muhim bo‘lib, ssenariyning sintetik xarakterligida tayanch komponent bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura asoslari. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 224 b.

3. Mamatqosimov J.A. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson press, 2019. – 272 b.
4. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
5. Muhamedaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. Darslik. – Toshkent: Musiqqa, 2009. – 160 b.
6. Pirmatov M.Sh. Ssenariynavislik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 234 b.
7. Rustamov V.Q. Ssenariynavislik mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – 204 b.



SIMULATION-BASED COMPETENCY MODEL (SBCM): ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ В ПОДГОТОВКУ СПЕЦИАЛИСТОВ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ

*Абдуллаева Асила Олимовна,
Базовый докторант, Каршинский государственный университет,
Факультет педагогики, Карши, Узбекистан
Тел: +998919562906*

Аннотация: Современные тенденции в развитии инженерного образования обусловлены необходимостью подготовки специалистов, обладающих не только прочными теоретическими знаниями, но и практико-ориентированными компетенциями, позволяющими эффективно функционировать в условиях быстро меняющейся технологической среды. В условиях цифровой трансформации особое значение приобретает внедрение инновационных педагогических моделей, способствующих интеграции учебной и профессиональной деятельности. Настоящая статья посвящена экспериментальной верификации эффективности разработанной имитационно-деятельностной модели Simulation-Based Competency Model (SBCM), ориентированной на формирование у студентов инженерно-технического профиля устойчивых и воспроизводимых профессиональных компетенций. Модель включает цифровые симуляторы, виртуальные лаборатории, инженерные кейсы и деловые игры, моделирующие реалии профессиональной практики.

Методологическая основа исследования построена на принципах научной объективности, воспроизводимости и доказательности. В эксперименте приняли участие студенты образовательной программы «Нефтегазовое дело», разделённые на экспериментальную и контрольную группы. Диагностика проводилась по трём взаимосвязанным критериям: когнитивная подготовленность, операциональные навыки и рефлексивная готовность. В ходе анализа с применением методов математико-статистической обработки (включая критерий Стьюдента) были получены статистически значимые различия, подтверждающие, что внедрение SBCM приводит к росту уровня профессиональной готовности, учебной мотивации и метапредметных умений обучающихся.

Результаты свидетельствуют о высокой эффективности модели, её архитектурной гибкости и потенциале к масштабированию. Модель SBCM рекомендуется к внедрению в образовательные программы инженерного профиля и может быть адаптирована под отраслевые особенности других направлений подготовки. Её применение способствует

преодолению разрыва между академическим образованием и требованиями современной профессиональной среды.

Ключевые слова: имитационно-деятельностная модель, профессиональные компетенции, инженерное образование, симуляционное обучение, цифровая трансформация, нефтегазовая отрасль, Simulation-Based Competency Model (SBCM), экспериментальное исследование, soft skills, образовательные технологии.

IMITATION KOMPETENSIYAGA YO‘NALTIRILGAN MODEL(SBCM)NI NEFT-GAZ SOHASI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI JORIY ETISH TAJRIBASI

Annotatsiya: Muhandislik ta’limining rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar nafaqat mustahkam nazariy bilimlarga, balki tez o‘zgarayotgan texnologik muhitda samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi amaliy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida o‘quv va kasbiy faoliyatni integratsiyalashga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik modellarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola muhandislik-texnik yo‘nalishdagi talabalar uchun barqaror va takrorlanuvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan, ishlab chiqilgan imitatsion-faoliyat modelining (Simulation-Based Competency Model – SBCM) samaradorligini eksperimental jihatdan tekshirishga bag‘ishlangan. Model real kasbiy amaliyotni modellashtiruvchi raqamli simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, muhandislik keyslar va ishbilarmonlik o‘yinlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy obyektivlik, takrorlanish va isbotlanganlik tamoyillariga asoslangan. Eksperimentda “Neft va gaz ishi” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi; ular eksperimental va nazorat guruhlarga bo‘lingan. Diagnostika uchta o‘zaro bog‘liq mezon asosida olib borildi: bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalar va reflektiv tayyorgarlik. Student mezoniga asoslangan statistik usullar (shu jumladan Styudent mezoni) yordamida o‘tkazilgan tahlil natijalarida SBCM modelining joriy etilishi talabalarning kasbiy tayyorgarligi, o‘quv motivatsiyasi va metakompetensiyalarining oshganini isbotladi.

Natijalar modelning yuqori samaradorligi, arxitekturaviy moslashuvchanligi va keng miqyosda qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatadi. SBCM modelini muhandislik ta’lim dasturlariga integratsiyalash tavsiya etiladi; model boshqa sohaga oid yo‘nalishlarga ham moslashtirilishi mumkin. Uning qo‘llanilishi akademik ta’lim va zamonaviy kasbiy muhit talablari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: imitatsion-faoliyat modeli, kasbiy kompetensiyalar, muhandislik ta’limi, simulyatsion o‘qitish, raqamli transformatsiya, neft-gaz sohasi, SBCM, eksperimental tadqiqot, soft skills, ta’lim texnologiyalari.

SIMULATION-BASED COMPETENCY MODEL (SBCM): EXPERIENCE OF IMPLEMENTATION IN THE TRAINING OF OIL AND GAS INDUSTRY SPECIALISTS

Abstract: Contemporary trends in the development of engineering education necessitate the training of specialists equipped not only with solid theoretical knowledge but also with practice-oriented competencies that enable effective performance in rapidly changing technological environments. In the context of digital transformation, the implementation of innovative pedagogical models that facilitate the integration of academic and professional activities is gaining particular importance. The present article is devoted to the experimental verification of the effectiveness of the developed Simulation-Based Competency Model (SBCM), aimed at forming stable and reproducible professional competencies in students of engineering and technical fields. The model includes digital simulators, virtual laboratories, engineering cases, and business games that simulate the realities of professional practice.

The methodological framework of the study is based on the principles of scientific objectivity, reproducibility, and evidential validity. The experiment involved students of the "Oil and Gas Engineering" educational program, divided into experimental and control groups. Diagnostics were carried out according to three interrelated criteria: cognitive readiness, operational skills, and reflective competence. Through the application of mathematical and statistical analysis methods (including Student's t-test), statistically significant differences were identified, confirming that the implementation of SBCM leads to an increase in professional readiness, academic motivation, and meta-competencies of students.

The results indicate high efficiency, architectural flexibility, and scalability potential of the model. SBCM is recommended for integration into engineering education programs and can be adapted to the sectoral specifics of other training areas. Its application contributes to bridging the gap between academic education and the requirements of the modern professional environment.

Keywords: simulation-based model, professional competencies, engineering education, simulation learning, digital transformation, oil and gas sector, SBCM, experimental research, soft skills, educational technologies.

Введение

Современные трансформации в системе инженерного образования обуславливают необходимость интеграции инновационных педагогических подходов, направленных на формирование профессиональных компетенций, адекватных требованиям высокотехнологичных отраслей промышленности. Одним из перспективных направлений в данном контексте выступает использование имитационных технологий, обеспечивающих моделирование условий, приближённых к реальной профессиональной среде, и способствующих эффективной интеграции теоретического содержания с практико-ориентированной деятельностью обучающихся.

Актуальность настоящего исследования определяется возрастающей потребностью в обеспечении высокого уровня профессиональной подготовки специалистов нефтегазового профиля, обусловленной спецификой производственно-технологических процессов, многоуровневостью инженерных задач, а также необходимостью функционирования в условиях неопределённости и риска. Повышенные требования к качеству подготовки кадров, гибкости инженерного мышления и способности к оперативному принятию решений предопределяют целесообразность внедрения имитационно-деятельностных моделей в образовательную практику.

Целью настоящего исследования является экспериментальная проверка эффективности разработанной педагогической модели, основанной на использовании имитационных технологий, с ориентацией на формирование устойчивых, структурно целостных и практически релевантных профессиональных компетенций у студентов инженерно-технического профиля.

В качестве исследовательской гипотезы выдвигается предположение о том, что целенаправленное внедрение имитационно-деятельностной образовательной среды в учебный процесс способствует существенному повышению уровня профессиональной готовности обучающихся к решению производственных задач, характерных для условий реальной инженерной практики.

Вопросы моделирования и совершенствования процессов профессиональной подготовки в условиях цифровизации образования нашли отражение в трудах отечественных исследователей, таких как Р.Абдуллаева[1] и Д. Джураева[2]. Авторы подчёркивают значимость применения цифровых образовательных сред как инструмента формирования ключевых профессиональных умений, а также интеграции теоретического и практического компонентов подготовки специалистов инженерно-технического профиля.

Среди зарубежных исследований заслуживают внимания концептуальные положения теории опытного обучения Д. Кольба[3], в которой акцент сделан на цикличности образовательного опыта как основе формирования компетенций. В русле конструктивистского подхода Д.Шанк[4] рассматривает симуляционные модели как эффективный механизм активного обучения, способствующий формированию рефлексивных и деятельностных умений. Концепция аутентичного обучения, разработанная Дж. Херрингтоном[5], акцентирует значимость погружения обучающихся в квазипрофессиональные ситуации, обеспечивающие контекстуализацию знаний и развитие прикладных навыков.

Эмпирические исследования, проведённые J. Johnson[6], а также Y. Li и M. Chan[7], подтвердили высокую эффективность внедрения симуляторов, виртуальных лабораторий и проблемно-ориентированных форматов обучения в системе профессионального образования. Полученные данные свидетельствуют о позитивном влиянии данных технологий на усвоение учебного материала, развитие критического

мышления, способности к рефлексии, а также принятие решений в условиях неопределённости. Эти выводы подкрепляют обоснованность применения имитационно-деятельностных образовательных моделей при подготовке специалистов для высокотехнологичных отраслей, включая нефтегазовую промышленность.

Методология исследования

Настоящее исследование опирается на современные методологические принципы научной объективности, воспроизводимости и доказательности, обеспечивающие достоверность результатов педагогического эксперимента. Экспериментальная апробация разработанной педагогической модели проводилась в условиях реального образовательного процесса с участием студентов инженерно-технического профиля, обучающихся по направлению подготовки «Нефтегазовое дело» в одном из ведущих профильных высших учебных заведений. Структура эксперимента включала три взаимосвязанных этапа — констатирующий, формирующий и контрольный, что обеспечивало методическую целостность исследования и логическую последовательность всех процедур. В качестве эмпирической базы использовались как первичные данные (результаты тестирования, анкетирования, элементы портфолио студентов), так и вторичные источники — учебные планы, рабочие программы, заключения экспертов, нормативно-методическая документация.

Организация и проведение эксперимента осуществлялись в соответствии с рядом концептуальных принципов. Принцип системности обеспечивал комплексное рассмотрение всех компонентов образовательного процесса, включая содержательные, организационные и технологические аспекты. Принцип комплексности предполагал учет когнитивных, деятельностных и личностных характеристик студентов в процессе формирования профессиональных компетенций. Принцип объективности реализовывался через использование валидных и надежных диагностических инструментов, адаптированных к специфике подготовки специалистов нефтегазовой отрасли. Принцип воспроизводимости заключался в возможности тиражирования условий и методик эксперимента в других образовательных учреждениях, что повышает его научную обоснованность.

Основу модели составляла имитационно-деятельностная образовательная среда, включающая цифровые симуляторы (в частности, программную платформу AnyLogic), виртуальные лаборатории, деловые игры, инженерные кейсы и иные средства, моделирующие профессиональные ситуации. Особое внимание в разработке сценариев обучения уделялось включению студентов в условия неопределенности и риска, требующих оперативного принятия решений и коллективного взаимодействия. Эффективность разработанной модели оценивалась с применением как количественных, так и качественных методов анализа. Применялись авторские тесты, ситуационные задания, методики самооценки профессиональной рефлексии, а также инструменты для диагностики уровня сформированности надпрофессиональных (soft) компетенций —

коммуникативных, командных и организационных. Обработка полученных эмпирических данных осуществлялась с использованием методов математико-статистического анализа, включая расчет критерия Стьюдента для независимых выборок, что позволило установить статистически значимые различия между результатами экспериментальной и контрольной групп. Для анализа использовался программный пакет SPSS Statistics, версия 26.0, обеспечивший необходимый уровень точности и интерпретируемости полученных данных.

Результаты исследования

Проведённое педагогическое исследование подтвердило высокую эффективность разработанной имитационно-деятельностной модели Simulation-Based Competency Model (SBCM) в формировании профессиональных компетенций у студентов инженерно-технического профиля, обучающихся по направлению «Нефтегазовое дело». На начальном этапе была обеспечена эквивалентность контрольной и экспериментальной групп, что позволило приступить к внедрению модели в условиях статистически сопоставимых данных. Диагностика исходного уровня профессиональной подготовки охватывала когнитивные знания, практические умения и рефлексивные способности, оценивалась с помощью адаптированных инструментов, включая тестовые задания, ситуационные кейсы и методики самооценки, соответствующие специфике нефтегазовой отрасли. Формирующий этап эксперимента характеризовался поэтапным включением элементов SBCM в образовательный процесс. Студенты экспериментальной группы обучались с использованием цифровых симуляторов (в том числе AnyLogic), виртуальных лабораторий, инженерных кейсов и деловых игр, моделирующих реальные производственные условия с высоким уровнем неопределённости и рисков. Образовательная среда строилась на принципах профессиональной направленности, когнитивной активности и самостоятельного принятия решений, что сопровождалось тьюторским и фасилитационным сопровождением, стимулирующим развитие метапредметных навыков и критического мышления.

Контрольная группа продолжала обучение в рамках традиционной образовательной модели без применения имитационных технологий, что обеспечило условия чистого эксперимента и позволило сопоставить динамику изменений в обеих выборках. По результатам итоговой диагностики, проведённой по идентичной методике, зафиксировано статистически значимое преимущество экспериментальной группы по всем исследуемым показателям. В частности, уровень когнитивных знаний повысился в среднем на 17 %, успешность выполнения практико-ориентированных заданий увеличилась на 22 %, способность к принятию решений в условиях неопределённости — на 19 %, а уровень профессиональной рефлексии и саморегуляции — на 15 %. Дополнительно было отмечено улучшение таких параметров, как учебная мотивация, коммуникативная готовность и командное взаимодействие, что отражает целостное воздействие SBCM на профессиональное развитие студентов.

Для статистической верификации различий применялся критерий Стьюдента для независимых выборок, результаты анализа продемонстрировали достоверность выявленных различий на уровне значимости $p < 0,05$. Обработка данных осуществлялась с использованием программного обеспечения SPSS Statistics, версия 26.0, что обеспечило необходимый уровень точности и научной обоснованности интерпретаций. Совокупность полученных эмпирических данных свидетельствует о методологической состоятельности и высокой результативности имитационно-деятельностной модели, которая способствует формированию у студентов профессиональной готовности, ориентированной на функционирование в условиях цифровой трансформации инженерной практики. Модель SBCM показала свою применимость как в когнитивной, так и в деятельностной и рефлексивной плоскости, выступая эффективным инструментом комплексной подготовки специалистов для нефтегазовой отрасли.

Обсуждение результатов

Анализ результатов педагогического эксперимента свидетельствует о высокой степени эффективности внедрения разработанной модели Simulation-Based Competency Model (SBCM) в образовательную практику подготовки специалистов нефтегазового профиля. Полученные данные позволили не только подтвердить выдвинутую гипотезу, но и выявить ряд значимых эффектов, связанных с трансформацией учебной активности, качеством усвоения знаний, уровнем профессиональной зрелости студентов и степенью их вовлечённости в образовательный процесс.

Во-первых, важно подчеркнуть, что SBCM демонстрирует высокую результативность не только в области когнитивного усвоения дисциплинарных знаний, но и в развитии таких сложнотелесных умений, как системное мышление, способность к профессиональной рефлексии, оперативное принятие решений и работа в условиях неопределённости. Это особенно важно в инженерной подготовке, где выпускник должен быть способен функционировать в нестабильной, изменяющейся технологической среде, принимать решения в условиях риска, а также обладать развитой инженерной интуицией и навыками быстрого анализа информации.

Во-вторых, эксперимент продемонстрировал, что включение студентов в имитационно-деятельностную среду существенно повышает уровень их учебной мотивации и интереса к профессии. По сравнению с обучающимися контрольной группы, студенты экспериментальной выборки проявляли более высокую активность, заинтересованность в содержании и инициативу в самостоятельной работе. Это позволяет говорить о стимулирующем эффекте имитационных технологий, формирующих внутреннюю направленность на достижение образовательных результатов.

Кроме того, обсуждение результатов позволяет сделать вывод о значительном повышении метапредметной готовности студентов, в частности, в сфере развития коммуникативных, командных, управленческих и аналитических навыков, то есть тех

soft skills, которые в современных условиях становятся неотъемлемым элементом профессиональной компетентности. Такие компетенции, как правило, не формируются в рамках традиционного обучения, ориентированного на репродуктивную деятельность, но становятся приоритетными в условиях имитационно-проблемной среды, построенной на моделировании реальных производственных сценариев.

Сравнительный анализ полученных результатов с данными других исследований [5,6,8] демонстрирует концептуальную и методологическую сопоставимость подходов. Например, теория аутентичного обучения, сформулированная Дж. Херрингтоном[5], и концепция опытного обучения Д. Кольба[3], находят своё подтверждение в положительном эффекте вовлечения студентов в квазипрофессиональные задачи. В то же время предложенная SBCM обладает более структурированной реализационной логикой, чётким механизмом педагогического сопровождения и возможностью тиражирования в условиях различной институциональной и ресурсной базы.

Особого внимания заслуживает вопрос институционализации модели. Как показал эксперимент, успех SBCM невозможен без поддержки со стороны администрации образовательной организации, включения модели в стратегию развития вуза, межкафедрального взаимодействия и кадрового обеспечения инновационного обучения. Преподаватели, реализующие элементы SBCM, должны обладать не только предметными, но и методическими, а также цифровыми компетенциями, включая умение проектировать и сопровождать симуляционные учебные модули, использовать средства цифровой визуализации, фасилитации и тьюторского сопровождения.

Наконец, обсуждение затрагивает и границы применимости разработанной модели. Несмотря на продемонстрированную эффективность в контексте инженерной подготовки для нефтегазовой отрасли, SBCM требует адаптации при её трансляции в другие профессиональные области. Это может касаться как содержания имитационных сценариев, так и используемого диагностического инструментария. Однако модульный принцип построения модели и её методическая гибкость открывают широкие возможности для масштабирования и междисциплинарной трансформации.

Следовательно, обсуждение результатов подтверждает, что предложенная модель обладает высокой степенью методологической зрелости, практической ценности и потенциалом к интеграции в систему высшего профессионального образования, ориентированного на подготовку специалистов к эффективному функционированию в условиях цифровой экономики и быстро меняющейся технологической реальности.

Заключение

Проведённое педагогическое исследование позволило осуществить всестороннюю экспериментальную верификацию разработанной модели Simulation-Based Competency Model (SBCM), направленной на формирование профессиональных компетенций студентов инженерно-технических направлений подготовки. Эмпирические данные, полученные в ходе многоэтапного эксперимента, убедительно продемонстрировали

эффективность имитационно-деятельностного подхода как средства повышения уровня профессиональной готовности будущих специалистов к функционированию в условиях современной инженерной среды.

Выявленные статистически значимые различия между контрольной и экспериментальной группами подтверждают гипотезу исследования и свидетельствуют о том, что включение студентов в симуляционные форматы обучения способствует развитию у них устойчивых когнитивных знаний, практических умений, способности к профессиональной рефлексии, принятию решений в условиях неопределённости, а также формированию soft skills, востребованных в высокотехнологичных производственных системах.

Модель SBCM продемонстрировала высокую степень методологической обоснованности, архитектурной гибкости и потенциальной воспроизводимости в различных институциональных и отраслевых контекстах. Её применение позволяет не только повысить эффективность подготовки кадров, но и преодолеть разрыв между академическим образованием и требованиями профессиональной практики. В условиях цифровой трансформации экономики и возрастания роли адаптивных и надпрофессиональных компетенций, такие модели становятся ключевым ресурсом модернизации инженерного образования.

На основе проведённого исследования представляется целесообразным рекомендовать интеграцию SBCM в учебные процессы высших учебных заведений, реализующих программы подготовки специалистов в области нефтегазовой промышленности и смежных инженерно-технических направлений. Практическая реализация модели требует институциональной поддержки, подготовки педагогических кадров, а также обеспечения соответствующей цифровой и методической инфраструктуры.

Перспективы дальнейших исследований видятся в направлении разработки специализированных симуляционных сценариев для различных профессиональных модулей, уточнения инструментов оценки профессиональных компетенций, а также изучения долгосрочных эффектов применения SBCM на этапе профессиональной адаптации выпускников в реальных условиях производства. Расширение междисциплинарных и международных компонентов модели может существенно повысить её универсальность и значимость для глобальной образовательной повестки.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Abdullaeva, R. (2021). The role of digital educational environments in developing professional competencies of engineering students. *Pedagogical Technologies and Innovation*, 14(3), 88–97.
2. Djuraeva, D. (2022). Competency development models in digital pedagogy. *Uzbek Journal of Educational Research*, 11(4), 61–73.

3. Kolb, D. A. (2015). Experiential learning and competency development in engineering education. *Journal of Applied Learning & Instruction*, 10(1), 33–47.
4. Schunk, D. H. (2012). Learning theories in practice: Constructivism and simulation-based instruction. *Journal of Educational Psychology*, 104(3), 657–670.
5. Herrington, J., Reeves, T. C., & Oliver, R. (2016). Authentic learning environments in higher education: Conceptual foundations and practical applications. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 17(6), 1–25.
6. Johnson, S. D., Nguyen, M., & Chin, K. (2020). Simulation and experiential learning in technical education: A meta-analytical review. *International Journal of Engineering Education*, 36(4), 1023–1041.
7. Chan, M., & Li, Y. (2022). The impact of simulation-based learning on engineering students' problem-solving skills. *Journal of Educational Technology & Society*, 25(2), 45–57.
8. Shank, G. D. (2006). Simulation and qualitative educational research: A methodological integration. *Educational Researcher*, 35(5), 22–29.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 7-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO'LAJAK FOLKLOR IJROCHILARINING AKTYORLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA "ARTFOLK" TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI

Ermatova Sadoqat Nasrullayevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda "ArtFolk" texnologiyasining imkoniyatlari tadqiq etilgan. Artpedagogik yondashuvga asoslangan mazkur texnologiya bo'lajak folklor ijrochilarining umumiy va kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshirishga yordam beradi

Kalit so'z: folklor, aktyor, aktyorlik mahorati, tomosha, texnologiya, artpedagogika, art texnologiya, maqsadli tizim, metodik yondashuv.

ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИИ «ARTFOLK» В РАЗВИТИИ АКТЁРСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ИСПОЛНИТЕЛЕЙ ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. В данной статье исследуются возможности технологии «ArtFolk» в процессе развития актёрских навыков у будущих исполнителей фольклора. Основанная на арт-педагогическом подходе, данная технология способствует формированию у будущих фольклорных исполнителей общих и профессиональных знаний и умений посредством логически выстроенного освоения обязательных и элективных дисциплин, прохождения практик, выполнения учебных заданий и других академических видов деятельности, включённых в учебный план.

Ключевые слова: фольклор, актёр, актёрское мастерство, представление, технология, арт-педагогика, арт-технология, целевая система, методический подход.

POTENTIAL OF THE "ARTFOLK" TECHNOLOGY IN DEVELOPING ACTING SKILLS IN FUTURE FOLKLORE PERFORMERS

Abstract. This article explores the potential of the "ArtFolk" technology in the development of acting skills among future folklore performers. Based on an art-pedagogical approach, this technology supports the acquisition of both general and professional knowledge and skills by future performers through the structured and sequential integration of compulsory and elective courses, practical training, academic tasks, and other educational activities within the curriculum.

Keywords: folklore, actor, acting mastery, performance, technology, art pedagogy, art technology, goal-oriented system, methodological approach.

Kirish. Bugungi kunda bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, sahna madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan aktyorlik mahorati folklor ijrochiligining ta’sirchanligini oshirish, tomoshabin bilan emotsional aloqani mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Dunyo ta’lim tizimlarida bo‘lajak san’atkorlarning estetik dunyoqarashini shakllantirish, ularning ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamol topishini ta’minlashga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvlar asosida o‘quv-tarbiya jarayonlari doimiy takomillashtirib borilmoqda. Xususan, texnologik yutuqlar, ijtimoiy-madaniy faoliyatning turli shakllari va innovatsion metodlar uyg‘unligi asosida folklor san’atiga xos sahnaviy ifoda vositalari bilan ishlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, folklor ijrochiligida aktyorlik mahoratini rivojlantirish va unga doir metodik yondashuvlarni takomillashtirish zamonaviy san’at ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Globallashtirish sharoitida artpedagogikaning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, g‘oyaviy-estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa talabalarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog‘lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda” [3, 46].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan” [2, 32]. Shu bois mamlakat taraqqiyoti uchun “yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish” [1] uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Bo‘lajak folklor ijrochilarining sahna harakati, mimika, nutq madaniyati va obraz yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida ularning aktyorlik mahoratini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar ijrochining sahnadagi erkinligi, hissiy ifodasi va tomoshabin bilan muloqotga kirishish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, aktyorlik ko‘nikmalarini tizimli va maqsadli rivojlantirish folklor ijrochiligi ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirib borilishi lozim.


Muhokama va natija. Tadqiqot natijasida bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida eng muhim omillardan biri bu shaxsning tanlagan kasbiga va ijodiy-mehnat faoliyatiga bo‘lgan ichki qiziqishi va motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligi ekani asoslab berildi. Shuningdek, mazkur jarayonda qo‘yilgan maqsadlar tizimi,

shaxsiy ehtiyojlar va rag‘batlantiruvchi omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, aktyorlik malakalarining samarali shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng muhim maqsadli tizimi

Shuningdek, olib borilgan nazariy tahlillar, tajriba-sinov ishlari va kuzatuvlar asosida bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi metodik yondashuvlar taklif etiladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar

Ushbu metodik yondashuvlar bo‘lajak folklor ijrochilarining nafaqat sahnaviy ifoda va aktyorlik ko‘nikmalarini, balki ularning ijodiy tafakkurini, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan estetik munosabatini va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta’lim amaliyotida ta’limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o‘qitish texnologiyalari ajratib ko‘rsatiladi. “Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash kerak” [3, 68-69]. Shu bois tadqiqot jarayonida bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning “ArtFolk” texnologiyasi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning “ArtFolk” texnologiyasi reflektiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilib, maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oldi: *tashkiliy-tayyorlov (diagnostik tahlil)* – bo‘lajak folklor ijrochilarida mavjud ijodiy mahoratlarini va aktyorlik ko‘nikmalarini darajasini aniqlash; *nazariy asoslashtirish* – milliy folklor janrlarining sahnaviy xususiyatlarini o‘rganish; *amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish* – sahna nutqi, mimika, plastik harakatlarni o‘rganish; *obraz ustida ishlash* – dostonlar, rivoyatlar asosida dramatik obrazlar yaratish; *Monitoring (tahlil va baholash)* – Ijrochilik tahlili, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash.



3-rasm. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning “ArtFolk” texnologiyasi

Artpedagogik yondashuvga asoslangan texnologiya bo‘lajak folklor ijrochilarining umumiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshirishga yordam beradi. Bunda majburiy fanlarni o‘qish jarayonida ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasini o‘zlashtirishi, tanlov fanlarini o‘qish jarayonida ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur bilimlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, bo‘lajak folklor ijrochilarining shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasini o‘zlashtirishi nazarda tutiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida “ArtFolk” texnologiyasidan foydalanish bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga imkon berdi. Bunda talabalar o‘z faoliyati maqsadini mustaqil belgilaydi, uni amalga oshirishni rejalashtiradi, qo‘yilgan vazifalarni hal etishning maqbul usullarini tanlaydi. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning “ArtFolk” texnologiyasining tashkiliy-metodik komponenti talabalarda refleksiv yondashuvni shakllantirish, ijro jarayonini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda sahna harakati, mimika va nutq ustida tizimli ishlash imkoniyatini ta‘minlaydi. Mazkur texnologiya folklor ijrochiligiga xos ifoda vositalarini o‘zlashtirish, obraz yaratish jarayonining bosqichlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvlar ishlab chiqildi. Ushbu metodikalar mazmuni talabalarining sahnaviy harakat, emotsional ifoda, nutq texnikasi hamda obraz ustida ishlash malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil tayyorgarlik jarayonlarini qamrab oladi.

Metodik yondashuvlar “ArtFolk” texnologiyasining tashkiliy-metodik komponenti asosida tuzilgan bo‘lib, bu texnologiya folklor ijrochiligining xususiyatlarini hisobga olgan holda, aktyorlik faoliyatining asosiy elementlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni ta‘minlaydi. Jumladan, har bir mashg‘ulot tarkibida maqsadli topshiriqlar, mashqlar tizimi, refleksiv tahlil hamda sahnaviy holatlarni modellashtirish orqali faol o‘quv jarayoni tashkil etiladi.

Xulosa. Mazkur metodikalar folklor materiallarining sahnaviy talqinini amalga oshirishda talabalarni ijodiy yondashuvga yo‘naltirib, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodik yondashuvlar, ularning mazmun-mohiyati, shakllari va qo‘llash mexanizmlari dissertatsiyaning keyingi boblarida batafsil yoritilgan hamda eksperimental sinov asosida ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, “ArtFolk” texnologiyasi bo‘lajak folklor ijrochilarning nafaqat nazariy yoki amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki individual qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini

rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan metodikalar auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b

3. Ergashev O.T. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2025. – 154 b.



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOGNITIV
KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish jarayonining bazi-bir jihatlari hamda kognitiv rivojlanishning idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va iroda kabi asosiy jihatlari va ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qish va moslashishdagi roli ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlariga va ularning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarurligiga alohida e'tibor beriladi. Undan tashqari maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetentsiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lim muhitini optimallashtirish va o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlab o'tilgan.

